

# PEDAGOGIK MAHORAT

2  
2024



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2024-yil, fevral)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2024**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 2

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 2, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель:** Бухарский государственный университет

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрienко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 2, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<b>ISMAYLOVA Ra'no Nurayevna</b>	O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	9
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
2.	<b>OLIMOV Shirinboy Sharofovich, SAMIYEVA Shaxnoz Xikmatovna</b>	Talabalarda kreativlik va yangicha dunyoqarashni rivojlantirish	14
3.	<b>ABDULLAYEV Amrullo Nassulloevich</b>	Harbiy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning psixologik determinatlari	18
4.	<b>AGAMURODOV Sarvar Istamovich</b>	Formation of professional self-conception, entrepreneurial skills in adolescents and factors affecting this process	23
5.	<b>ASRANBAYEVA Munojatxon Halimjanovna</b>	O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda kasbiy refleksiyaning o‘rni	27
6.	<b>ATADJANOV Mampirjon Yusupovich</b>	Shaxsiy hamda ijtimoiy darajadagi tahdidlardan himoya mexanizmlari	33
7.	<b>ATAVULLAYEVA Maxbuba Qobilovna</b>	Psychological determinants of the formation of socio-psychological competence of primary school teachers	38
8.	<b>BADRITDINOVA Madina Baxromovna</b>	O‘smirlar intellektual rivojlanishiga innovatsion yondashuv orqali ijtimoiy qo‘rquvni bartaraf etish usullari	42
9.	<b>HOTAMOVA Maftuna Madatovna</b>	Ta’lim rivojlanishining hozirgi sharoitdagi pedagogning innovatsion faoliyati	46
10.	<b>IBROHIMOVA Sunbula Asilbek qizi</b>	Ta’lim samaradorligini oshirishda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish	51
11.	<b>IMOMOVA Shafoat Mahmudovna</b>	Pedagogik texnika — kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida	57
12.	<b>ISMOILOVA Mahsuma Narziqulovna</b>	Ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni mobil texnologiyalar orqali tashkil etishning afzalliklari	61
13.	<b>JURAYEV Farxod Niyozovich</b>	Dual ta’lim: mavzuga yana bir nazar	66
14.	<b>KURBANOVA Gulnoz Negmatovna</b>	Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarining tafakkurini rivojlantirishda operativ-mantiqiy tuzilmaning o‘rni	71
15.	<b>MARDONOVA Saodat Muzaffarovna</b>	Talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan “talab”ni yanada shakllantirish pedagogik modeli	75
16.	<b>NARMURADOVA Rayhon Uktamovna</b>	Oilaviy nizolarning fenomenologiyasi: mohiyati, aniqlovchi xususiyatlar	80
17.	<b>HAYDAROV Orifjon Rustamovich</b>	Pedagogikada zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanishning kreativ usuli	85
18.	<b>QAZOQOV Sodiq Ramazonovich</b>	Talabalarda do‘stona munosabatlar va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda ishchan o‘yinlarning didaktik ahamiyati	89
19.	<b>QURBONBOYEV Azimbek Nazirboy o‘g‘li</b>	Talabalarda o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatining asosi sifatida	94
20.	<b>RO‘ZMETOVA Zulfiya Xayitboevna</b>	Texnologiya mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiyalar orqali tashkil qilish	98
21.	<b>RUSTAMOV Shavkat</b>	Talabalarda innovatsion ta’lim sharoitida ijtimoiy	103

	<i>Shuxratovich</i>	kompetentligini rivojlantirishning konseptual asoslari	
22.	<i>RUZIMOVA Intizor Xujamuratovna</i>	Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy aspektlari	108
23.	<i>RUZIYEVA Shoxida Fatilloyevna</i>	Akademik mobillik zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida	113
24.	<i>NIYOZOV Erkin Dilmurodovich, SAIDOV Olimjon Amon o'g'li, SHUKUROV Hidoyat O'ktam o'g'li</i>	Oliy o'quv yurti talabalari uchun ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etish usullari	117
25.	<i>SHIRINOV G'ayrat Qodirovich</i>	Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida fanlarni o'qitish	121
26.	<i>SHOMIRZAEV Maxmatmurod Xuramovich</i>	Oliy o'quv yurti talabalarida texnologik kompetentlikni mediata'lim vositalari asosida rivojlantirish	126
27.	<i>XALMAMATOVA Lola Amankulovna, ATADJANOVA Surayyo Egamovna</i>	Talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	130
28.	<i>XOLIQOV Komil Buronovich</i>	Musiqachilar markaziy miya tizimining faoliyati	135
29.	<i>XOLMIRZAYEVA Dilafruz Fattayevna</i>	Talabalarning loyihalash kompetentligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish	140
30.	<i>YANGIBOYEVA Dildoraxon Rahmon qizi</i>	Ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-psixologik tadqiq etish metodologiyasi: muammolar va istiqbollar	145
31.	<i>ZARIPOV Nozimbek Nayimovich</i>	Blokcheyn texnologiyasini o'qitish metodikasi	152
32.	<i>ЗИЁДУЛЛАЕВА Сарвиноз Шамсиддин қизи</i>	Лидерлик фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари	156
33.	<i>МИРЗАЕВА Мавлуда Акрамовна</i>	Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологик тимсоли	160
34.	<i>МУСАЕВА Нодира Низомовна, МУСАЕВА Нафиса Азимжоновна</i>	Педагогик технологиянинг назарий асослари	164
35.	<i>ПАНЖИЕВА Назокат Норматматовна</i>	Развитие навыков критического мышления у будущих учителей информатики через созданную цифровую образовательную платформу	168
36.	<i>САЛОМОВА Раъно Вассиевна</i>	Информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантиришнинг методик тизимини такомиллаштириш	177
37.	<i>ХАЙДАРОВА Хилола Газикуловна</i>	Педагогик жараёнда психологик саломатликни таъминлашнинг муҳимлиги	183
38.	<i>ХИММАТАЛИЕВ Дўстназар Омонович</i>	Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойihalash конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш масалалари	188
39.	<i>НАКИМОВ Jamshid Oktamovich</i>	Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	194
40.	<i>ARSLONOVA Gulsora Kurbonovna</i>	Oliy ta'lim jarayonida individual ta'limni tashkil etishning pedagogik jihatlari	199
<b>МАКТАБГАЧА ВА БОШLANG'ICH TA'LIM</b>			
41.	<i>BOYMURODOVA Nodirabegim Bahodir qizi</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan hayotiy ko'nikmalar tavsifi	203
42.	<i>DAVRONOV Dilshod</i>	O'qish darslarida qo'llaniladigan multimediali dasturiy-	207

	<i>Ismoilovich</i>	pedagogik vositalar va ularning imkoniyatlari	
43.	<b>HIMOYEVA Sarvarbegim Jamilovna</b>	Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limida o‘quv –biluv topshiriqlar ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish	211
44.	<b>HUSENOVA Aziza Sharipovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida blum taksonomiyasining pedagogik va psixologik xususiyatlari	216
45.	<b>JUMAYEVA Habiba G‘aforovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili ta’limida “4k“ modeli asosida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	221
46.	<b>MIRZAYEVA Dilfuza Shavkatovna</b>	Maktabgacha ta’lim tizimi sifatini oshirishda art pedagogikasidan foydalanishning dolzarbligi	226
47.	<b>MURODOVA Maqsuda Maxsudovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida integrativ yondashuv asosida matematik tasavvurlarini shakllantirish	232
48.	<b>SADULLOYEVA Mahfuza Gaybulloyevna</b>	Practical skills during continuous teaching practice in the primary school	236
49.	<b>TURDIYEVA Mohira Juraqulovna</b>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning ahamiyati	240
50.	<b>КОРАЕВА Латифа Зарифовна</b>	Ўқув мотивацияси бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув фаолиятини ривожлантириш омили сифатида	244
51.	<b>РАМАЗОНОВ Жаҳонгир Джалолович, УМАРОВА Мехриниса Шерали кизи</b>	Мактабгача таълим муассасаларида педагогик жараёни такомиллаштириш муаммолари	249
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH</b>			
52.	<b>ТКАЧЕВА Anastasiya Aleksandrovna</b>	Ispan tilini o‘rganuvchi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish (SAMDCHTI misolida)	254
53.	<b>ДЖУМАЕВА Наргиз Иркиновна</b>	Работа над синонимами как средство развития разговорной русской речи студентов	263
54.	<b>БОБОНАЗАРОВА Фарангиз Илхом кизи</b>	Использование активных методов обучения на уроках русского языка	269
55.	<b>МИЛОВАНОВА Е.В.</b>	Применение инновационных технологий на занятиях по словообразованию	273
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH</b>			
56.	<b>ABDURAZZOQOV Ilhom Rustamovich</b>	Umumta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	278
57.	<b>KARIMOV Feruz Raimovich</b>	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalar fanini o‘qitishda ta’lim platformalardan foydalanishning afzalliklari	283
58.	<b>NIYOZOV Alisher Kamilovich, KAROMOVA Dilshoda Xurshidovna</b>	Umumta’lim maktablarida kimyo to‘garagi faoliyatini tashkil etish	287
59.	<b>NIYOZOV Alisher Kamilovich, JAMOLOVA Nodirabegim Jobir qizi,</b>	Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishda axborot texnologiyalarining o‘rni	291
60.	<b>TOSHEVA Dilnora Zohid qizi, SHARIPOV Ilhom Husenovich, TOSHEV Vohidjon Zohid o‘g‘li,</b>	Kimyo o‘qitish darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanishning samaradorligi (Umumta’lim maktablari misolida)	295
61.	<b>XASANOVA Gulshod Ro‘ziboyevna</b>	Fizikani o‘qitishda integrativ masalalar yechish orqali o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish	300
62.	<b>АХМЕДОВ Ахад Ахорович,</b>	Бўлажак физика ўқитувчилари касбий	305



	<b>СОЛИЕВА Нафосат Абдуқаҳҳоровна</b>	компетенцияларини ривожлантиришда лаборатория машғулотларини такомиллаштириш омиллари	
63.	<b>НАЗАРОВ Фаррух Фахриддинович</b>	Совершенствование методики преподавания информатики и информационных технологий среди учителей начальных классов	312
64.	<b>ТУРДИЕВ Бахтиёр Эргашевич</b>	Индивидуал таълим муҳитида информатика фанини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланиш методикаси	316
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>			
65.	<b>AXMEDOV Navzod Shuxratovich</b>	The process of losing weight during competition in professional athletes	321
66.	<b>QAZOQOV Sodiq Ramazonovich</b>	Talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yugurish yuklamalarini tomir urishi ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlash	325
67.	<b>SAIDOV G'olibjon Komilovich, AXMEDOV Navzod Shuxratovich</b>	Psycho-emotional states and stress resistance of athletes of the grego-roman style	330
68.	<b>SAIDOV G'olibjon Komilovich, AXMEDOV Navzod Shuxratovich</b>	Greco-roman wrestling and its impact on the development of personal potential and the formation of self-awareness and self-esteem of those involved	335
<b>SAN'AT</b>			
69.	<b>MUHAMMADIYEVA Zarina Bahodirovna, MAMATOV Dilshod Qodirovich</b>	O'quvchilarning estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	340
70.	<b>MARDOV Sanjar Xudoykulovich</b>	Grafik ta'lim jarayonida dizayn fikrlash va uni amaliy tatbiq qilishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	346
71.	<b>MUSTAFOYEV Baxtiyor Ibragimovich</b>	Milliy maqom san'ati ta'limi va ijrochiligida “ustoz – shogird” an'analari	352
72.	<b>MUHAMMADIYEVA Nargiza Qudratovna</b>	Xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari	356
73.	<b>SARIYEV Rabbim Shuhratovich</b>	Chizmachilik darslarida o'quvchilarga ijodiy loyihalashni o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modeli	362
74.	<b>ХОЛИКОВ Комил Бурунович</b>	Цитоархитектонический сравнительный анализ структур головного мозга одаренных музыкантов	366
<b>TA'LIM MENEJMENTI</b>			
75.	<b>MATKARIMOV Akramjon Muxtorovich</b>	Xalqaro baholash tadqiqotlarida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning ijtimoiy-pedagogik talqini	371
<b>MA'NAVIYAT VA TARBIYA</b>			
76.	<b>ASADOV To'lqin Hamroyevich, RIZOQULOV Zavqiddin Nuriddinovich</b>	Sharq donishmandlarining ayrim axloqiy-ma'rifiy qarashlari: xulq-atvor, rag'bat-tanbeh, ta'lim-tarbiya	376
77.	<b>HAKIMOVA Nargiza Supxonovna</b>	Talabalarga qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari haqida bilim berishning nazariy asoslari	381
78.	<b>IMINOVA Dilnoza Nasirovna</b>	O'quvchilarda kitobxonlikni targ'ib qilishda ota-ona rolini oshirishning pedagogik imkoniyatlari	387
79.	<b>JABBOROVA Saodat Zoirovna</b>	Xorij mamlakatlarida bolalar tarbiyasiga qadriyatli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	391
80.	<b>YUNUSOVA Go'zal Sultonovna</b>	Yoshlarda axloqiy qadriyatlar shakllanishiga ommaviy axborotning psixologik ta'siri	397

## DOLZARB MAVZU

### O‘ZBEKISTONDA OILAVIY ZO‘RAVONLIK DAN JABRLANGAN SHAXSLARNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ismaylova Ra'no Nurayevna,*

*Nizomiy nomidagi TDPU “Amaliy psixologiya” kafedrasida dotsenti v.b.,*

*psixologiya fanlari nomzodi*

*ranohon2013@gmail.com*

*ORCID- 0009-0001-2289-1559*

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda turmush o‘rtog‘i tomonidan ko‘rsatilgan zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar xususiyatlari va sheriklarning rollardan kutilmalari, depressiya va boshqa ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liqligi tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, turmush o‘rtog‘i zo‘ravonligi, oila va nikoh, oilaviy xatti-harakatlar, jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik.*

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИЦ, ЖЕРТВ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

*В данной статье анализируются характеристики женщин, ставших жертвами супружеского насилия в Узбекистане, и их зависимость от ролевых ожиданий партнеров, депрессии и других социально-психологических факторов.*

**Ключевые слова:** *насилие, домашнее насилие, супружеское насилие, семейно-брачная сфера, семейное поведение, физическое насилие, психологическое насилие.*

### SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERSONS VICTIMS OF DOMESTIC VIOLENCE IN UZBEKISTAN

*This article analyzes the characteristics of women who are victims of spousal violence in Uzbekistan, and their dependence on the role expectations of partners, depression and other social-psychological factors.*

**Keywords:** *violence, domestic violence, spousal violence, family and marriage sphere, family behavior, physical violence, psychological violence.*

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlarini ta‘minlashga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Bu yo‘ldagi dolzarb masalalarga o‘ziga xos yechimlar, nikoh va oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasiga, oilaviy qadriyatlar masalalariga ilmiy asoslangan yo‘l-yo‘riqlar taqdim etilayotgani e‘tiborlidir. Afsuski, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim o‘zbek oilalarida bolalar, turmush o‘rtoqlar va keksa kishilarga, shuningdek, ekaklarga nisbatan ham zo‘ravonlikning turli shakllari mavjud. 2023-yilning yanvar-oktabr, ya‘ni 10 oyi davomida 32 ming nafardan ziyod xotin-qizlar himoya orderi orqali davlat himoyasiga olinishi buning yaqqol misolidir. Natijada 14 296 ta oilani yarashtirishga, 16 843 ta nizoni bartaraf etishga erishilgan. 8527 ta himoya orderlari bo‘yicha ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, xotin-qizlarning buzilgan huquqlari tiklandi [4]. Oilaviy zo‘ravonlik, xususan, turmush o‘rtoqlar munosabatidagi zo‘ravonlikni tavsiflashda “zo‘ravonlik faqat ayollarga (xotinlarga) nisbatan mavjud” degan fikr noto‘g‘ri bo‘lib, haqiqat esa erkaklar (erlar) ham zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi mumkinligini e‘tirof etish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to‘g‘risidagi Deklaratsiyada oilaviy zo‘ravonlik “erkak va ayol o‘rtasida tarixiy vujudga kelgan kuchlarning noteng nisbati bo‘lib, ayollar ustidan ustunlik qilishga intilish va erkaklar tomonidan ayollar kamsitilishining namoyon bo‘lishidir”, deb e‘tirof etiladi.

Universal Oksford lug‘atida zo‘ravonlik “tanaga zarar yetkazish yoki halokat uchun jismoniy kuch ishlatish” deb ta‘riflangan [6]. S.I.Ojogev lug‘atida “zo‘ravonlik biror kishiga jismoniy kuch ishlatish, zo‘ravonlik harakati, tanadagi zo‘ravonlik izlari, kimgadir majburlab ta‘sir o‘tkazish, shaxsiy daxlsizlikni buzish, shaxs ustidan zo‘rluk o‘tkazish, zulm, qonunsizlik”, deb ta‘rif beriladi [5].

Xorijiy adabiyotlarda oiladagi zo‘ravonlikni tavsiflash uchun bir nechta atamalar qo‘llanadi. “Domestic violence – oiladagi zo‘ravonlik” deganda, oila a‘zolari tomonidan oilaning boshqa a‘zolariga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik, “spouse abuse – er-xotin- zo‘ravonligi”, “wife battering – xotinni kaltaklash” va “marital rape – nikohda zo‘rlash” tushuniladi.

Tazyiq yoki zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi deganda, o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlikni boshidan kechirgan shaxsni nazarda tutish kerak.

Mustaqil O‘zbekistonda ilk bor 2000-yillarning boshlarida oiladagi zo‘ravonlik haqida munozaralar boshlandi. 2007-yilda ilk bor “Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish” to‘plamida E.Fayzullayevaning “Gender zo‘ravonlik” maqolasida oiladagi zo‘ravonlik masalasi yoritildi [1].

Shuningdek, M.A.Turobova o‘z tadqiqot natijalarida despotik gender munosabatlarining oldini olish va davolash nafaqat psixologik va jismoniy oqibatlarini davolashni, balki despotik gender munosabatlarining paydo bo‘lishiga yordam beradigan madaniy va ijtimoiy omillar bilan ishlashni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvga asoslanishi kerak deb ta’kidlaydi [2].

M.S.Tovbayeva o‘z ilmiy tadqiqotida gender munosabatlarda despotik hisni boshqarish ko‘nikmasi namoyon bo‘lishiga ko‘ra, shaxs psixologik komponentlari orasida psixologik kayfiyat, ruhiy holat, o‘ziga ishonchning yuqori darajada ifodalanishi irodaviy sifatlar tendensiyasiga, differensial ta’sir etishi natijasida uning yosh va jins xususiyatlariga ta’siri mavjudligini e’tirof etadi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga tizimli va tizimli-strukturaviy yondashuvlar (S.L.Rubinshteyn, V.F.Lomov, B.G.Ananev, A.V.Petrovskiy), viktimologiya tushunchalari (L.V.Frank, N.B.Morozov, I.I.Mamaychuk, I.A.Zaxarev, I.G.Malkina-Pix va boshqalar), gender munosabatlar psixologiyasi, gender yondashuvlar (M.Kimmel, I.S.Klesina) tashkil qiladi. Shuningdek, tadqiqotning uslubiy asosini oiladagi zo‘ravonlik, xususan, nikohdagi zo‘ravonlik tahlilining institutsional, ijtimoiy-madaniy va konfliktologik yondashuvlari tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** Ushbu tadqiqotda mahallada oilada zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar (erkak va ayollar) qatnashadilar. Tadqiqotda respondentlarning yosh diapazoni 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lib, ma’lumot darajasi turlicha: o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ma’lumotli. Respondentlar quyidagi parametrlar bo‘yicha aniqlanadi: yoshi, ta’lim darajasi va oilaviy ahvoli, farzandi, daromad darajasi, turmush o‘rtog‘idan iqtisodiy mustaqillik darajasi, spirtli ichimlik, tamaki va giyohvand, moddalarni qabul qilish. Tadqiqot respublikaning Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida olib borildi. Jami 115 ta erkak, 209 ta ayollar ishtirok etdilar ( 1-jadval). Tadqiqotda turmush o‘rtog‘i tomonidan namoyon etilgan zo‘ravonlik xususiyatlari, sheriklarning rollardan kutilmalari, oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish, jarohatdan keyingi stress reaksiyalari namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar o‘rganildi.

1-jadval.

**Turmush o‘rtog‘i tomonidan namoyon etilgan zo‘ravonlik xususiyatlari va sheriklarning rollardan kutilmalari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar (Spirman mezon)**

Shkalalar	Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	Umumiy beqarorlashtirish	Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish
Jinsiy munosabatlar	-0,132*	-0,014	0,014	-0,016	0,005
Shaxsiy identifikatsiya	-0,110*	0,027	0,096	0,218**	0,201**
Xo‘jalik-maishiy (kutilma)	-0,056	0,044	-0,016	0,102	0,145**
Ota-onalik va tarbiyaviy (kutilma)	-0,022	-0,025	0,068	0,236**	0,214**
Ijtimoiy faollik (kutilma)	-0,036	0,005	0,156**	0,272**	0,225**
Emotsional-psixoterapevtik (kutilma)	-0,075	0,004	0,061	0,274**	0,195**
Tashqi jalb etuvchanlik (kutilma)	-0,023	0,011	0,078	0,277**	0,263**
Xo‘jalik-maishiy (da’vogarlik)	-0,015	0,028	0,007	0,086	0,149**
Ota-onalik va tarbiyaviy (da’vogarlik)	0,016	0,048	-0,063	-0,005	0,062

Ijtimoiy faollik (da'vogarlik)	-0,003	0,005	-0,103	0,031	0,109*
Emotsional-psixoterapevtik (da'vogarlik)	-0,063	-0,053	-0,037	0,131*	0,189**
Tashqi jalb etuvchanlik (da'vogarlik)	-0,082	-0,07	0,047	0,186**	0,220**

Izoh: \* – p<0,05; \*\* – p<0,01

Turmush o'rtog'i tomonidan namoyon etilgan zo'ravonlik xususiyatlari va turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik namoyon etilishi orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirman mezon) asosida er-xotin muammolarini noadekvat hal etishlarida rollardan kutilmalar va da'vogarlik ham yuqorida darajada ekanligini va korrelyatsion bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin.

2-jadval.

**Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish va tamaki mahsulotlarini chekish orasidagi bog'liqlik (Kruskal-Uollis H mezon)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar					H	p
	Umuman chekmayman (N=243)	Bir oyda bir marta chekaman (N=31)	Haftada bir marta (N=21)	Haftada bir necha marta (N=15)	Har kuni (N=9)		
Reaktiv xavotirlanish	171,38	133,63	156,26	80,70	84,44	23,50	0,000**
Shaxsiy xavotirlanish	166,29	149,82	157,71	97,13	135,22	9,20	0,056

Izoh: \*\* – p<0,01

Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish va tamaki mahsulotlarini chekish orasidagi bog'liqlik Kruskal-Uollis H mezon asosida tekshirilganda umuman chekmaydigan respondentlarda reaktiv xavotirlanish \*\* – p<0,01 statistik ahamiyatlidir. Chekish va xavotirlanishi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Odamlar: “sigaret chekishi ularning tashvishlarini kamaytiradi”, deb noto'g'ri ishonishadi. Ular chekish hissiy stressni yengishga yordam beradi deb o'ylashadi. Biroq bu aksincha. Reaktiv tashvishda subyektiv his-tuyg'ular, keskinlik, asabiylashish stressli vaziyatga nisbatan yuzaga keladi. Demak, oilaviy zo'ravonlik vaziyati stressli vaziyat sifatida shaxsda reaktiv xavotirlanish darajasi ko'tarilishiga olib keladi.

Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida jarohatli hodisa ta'siri namoyon bo'lishi va tamaki mahsulotlarini chekish orasidagi bog'liqlik Kruskal-Uollis H mezon asosida tekshirilganda umuman chekmaydigan respondentlarda bostirib kirish, qochish va qo'zg'aluvchanlik shkalari bo'yicha \*\* – p<0,01 statistik ahamiyatligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarida turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik namoyon etilishi va tamaki mahsulotlarini chekish orasidagi bog'liqlik jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish, ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish shkalalarida \* – p<0,05; \*\* – p<0,01 statistik ahamiyatligini ko'rish mumkin.

Yuqorida olingan tadqiqotlar tahlili asosida oilada turmush o'rtog'i tomonidan giyohvand moddalar qabul qilinishi, spirtli ichimliklarni ichishi va tamaki chekishi kabi ijtimoiy faktorlar moslashuv ziddiyati, depressivlik, depressiya darajasining oshishi, er-xotin muammolarini noadekvat hal etishi, vaziyatga reaksiya sifatida bostirib kirish (bog'lanib qolish), qochish, qo'zg'aluvchanlik, ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilishning ortib borishiga va oilaviy zo'ravonlikka sabab bo'lishi aniqlandi. Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida shaxs ichki ziddiyatlari namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda \* – p<0,05 statistik ahamiyatli va \*\* – p<0,01 mustahkam ahamiyatligi aniqlandi. Ma'naviy ziddiyat – 0,001\*\*, rolli ziddiyat – 0,001\*\*, shaxsning umumiy ichki ziddiyatlari darajasi – 0,003\*\*. Erkaklar va ayollarni solishtirganda, erkaklarda ichki ziddiyat yuqori, ayollarda esa aksincha past ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida shaxs psixoemotsional xususiyatlari namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda: \* – p <0,05 statistik ahamiyatli va \*\* – p<0,01 mustahkam ahamiyatligini ko'rishimiz mumkin. Erkaklarda oilada er sifatida emotsional qo'llab-quvvatlanish, barqaror psixologik muhitga bo'lgan kutilma yuqori. Nikoh qulay muhit sifatida qabul qilinadi, psixologik yengillik va barqarorlik, munosabatlarning intim-jinsiy sohasi muhim hisoblanadi. Bu davrda jinsiy uyg'unlik nikoh baxtining muhim shartlaridan biri bo'lib, urning o'z ayoliga nisbatan jinsiy munosabati jinsiy sherikning bahosi sifatida qabul qilinadi. Turmush o'rtoqlarning jinsiy

fazilatlarini qadrlamaslik er-xotinlar tomonidan og‘riqli tarzda qabul qilinadi. Nikohning iqtisodiy va maishiy ota-onalik, tarbiyaviy, hissiy va psixoterapevtik funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, erkak uchun kundalik hayotni tashkil qilishda sherikning kundalik ko‘nikmalari muhimdir va hamkorning ota-ona pozitsiyalari baholanadi. Turmush o‘rtog‘ining umidlari turmush o‘rtog‘i bilan shaxsiy identifikatsiya qilish va turmush o‘rtog‘larning ijtimoiy faolligi atrofida to‘planadi. Qiziqishlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, vaqtni o‘tkazish usullari umumiylik haqidagi umidlar mavjud. Turmush o‘rtog‘lar uchun sherikning professional roli, oilaviy bo‘lmagan manfaatlar va faol ijtimoiy rol muhim bo‘ladi.

Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida depressiya namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezoni asosida tekshirilganda har ikkala jins vakillarining natijalari \*\* –  $p < 0,01$  statistik ahamiyatga ega.

**3-jadval.**

**Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida jarohatdan keyin stress reaksiyalari namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)**

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Shikastlangandan keyingi stress reaksiyasi	182,9	151,3	9666,5	0,004**

Izoh: \* –  $p < 0,05$ ; \*\* –  $p < 0,01$

Oilada zo‘ravonlikka uchragan respondentlarda jarohatdan keyin stress reaksiyalari namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezoni asosida tekshirilganda erkaklarda 182,9 va ayollarda 151,3 natijani ko‘rishimiz mumkin. Ko‘rinib turibdiki, erkaklarda oiladagi zo‘ravonlik tufayli shikastlangandan keyingi stress reaksiyasi ancha yuqori.

**4-jadval.**

**Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrashdagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)**

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Jismoniy salomatlikka tahdid qilish	131,1	179,8	8412	0,000**
Jismoniy erkinlikni haddan ortiq nazorat qilish	149,5	169,6	10526,5	0,050*
Umumiy beqarorlashtirish	171,4	157,6	10989	0,202
Ustunlik qilish / xulq-atvorni nazorat qilish	188,0	148,5	9083,5	0,000**
Er-xotin muammolarini noadekvat hal etish	181,9	151,8	9786	0,006**

Izoh: \* –  $p < 0,05$ ; \*\* –  $p < 0,01$

Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrashdagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezoni asosida tekshirilganda olingan natijalar erkaklarda yuqoriroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ayollarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik yuqori bo‘lsa-da, lekin ruhiy va emotsional zo‘ravonlik ko‘proq erkaklarda yuqori. Olingan natijalar \* –  $p < 0,05$ ; \*\* –  $p < 0,01$  statistik ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Oilaviy zo‘ravonlik va gender munosabatlaridagi zo‘ravonlik muammosini tahlil qilishning taklif etilayotgan konseptual sxemasi “oilaviy zo‘ravonlik”, “jabrlangan ayol” va “jabrlangan erkak”ning psixologik hodisalarini har tomonlama va tizimli ravishda ko‘rib chiqishga qaratilgan urinishlardan biri bo‘lib, bu oilaviy va oilaviy zo‘ravonlik vaziyatida samarali intervensiyaning omillari va mexanizmlarini aniqlashga imkon berib, zo‘ravonlik sodir etilgan muammoli oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish nazariyasini yanada boyitadi. Yuqorida olingan tadqiqot natijalari tahlili asosida oilada zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarda ichki, ma‘naviy, amalga oshmagan istak, rolli, moslashuv ziddiyati, depressiya, jizzakilik, reaktiv agressiya, jinsiy munosabatlar, shaxsiy identifikatsiya, emotsional psixoterapevtik kutilmalar, ustunlik qilish, shikastlangandan keyin ruhiy holatda bog‘lanib qolish kabi xususiyatlar yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Shuningdek, oilada turmush o‘rtog‘i tomonidan giyohvand moddalar qabul qilinishi, spirtli ichimliklarni ichishi va tamaki chekishi kabi ijtimoiy omillar moslashuv ziddiyati, depressivlik, depressiya darajasining oshishi, er-xotin muammolarini noadekvat hal etishi, jarohatdan keyin stress buzilishlarning ortib borishiga va oilaviy zo‘ravonlikka sabab bo‘lishi aniqlandi.

**Takliflar.**

1. Turmush o‘rtoqlar munosabatidagi zo‘ravonlik holatlarini o‘rganishda jabrlangan ayol va erkaklarni alohida ijtimoiy guruh sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.
2. Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning ijtimoiy maqomi, muhiti va psixologik xususiyatlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish lozim.
3. Oilaviy zo‘ravonlik xavfini erta aniqlash maqsadida oilalarda turmush o‘rtog‘i tomonidan ko‘rsatilgan zo‘ravonlik xususiyatlari so‘rovnomasini tizimli ravishda o‘tkazib turish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar:

1. “Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш” тўплами. Тошкент, 2007. – Б. 314-347.
2. Турובהва М.А. Социально-психологическое исследование деспотизма в гендерных отношениях // Volume: 2. Issue: 4|Apr–2023ISSN: 2720-6874 <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>.
3. Товбаева М.С. Оилавий муносабатларда психологик деспотизм кўринишлари// <https://buxdu.uz/media/jurnallar/psixologiya/2021/%>.
4. Рустамов А. Хотин-қизлар ҳуқуқлари кафолатини таъминлаш жамоатчиликнинг диққат марказидаги масаладир// <https://www.uza.uz/uz/posts/>.
5. <https://www.stopvaw.org/>.
6. Ожегов С.И. Толковый словарь онлайн // <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=15969>.
7. Oxford Universal English Dictionary / Prepared by W Little et al. Oxford: Oxford University Press, 1937. Vol. X.

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

### TALABALARDA KREATIVLIK VA YANGICHA DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

*Olimov Shirinboy Sharofovich,*  
*Buxoro davlat universiteti p.f.d., professor*  
*Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna,*  
*Buxoro davlat universiteti p.f.f.d (PhD), dotsent*

*Ushbu maqolada mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning oʻz ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish hamda dunyoqarashini rivojlantirish toʻgʻrisida fikr yuritilgan. Shuningdek, yoshlarda kreativ gʻoyalar va yangicha dunyoqarashni takomillashtirish, ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning oʻzaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi ilmiy nazariyalarning mazmun - mohiyati yoritilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *dunyoqarash, tafakkur, maʼnaviyat, yoshlar tarbiyasi, kreativlik, taʼlim, bilim, taraqqiyot, estetik ong, estetik did, oʻquv jarayoni, inson kapitali, intellekt.*

### РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА И НОВОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

*В данной статье рассматривается вопрос воспитания здорового и всесторонне развитого поколения в нашей стране, реализации творческого и интеллектуального потенциала, развития мировоззрения молодежи. Также содержание и сущность научных теорий по совершенствованию творческих идей и нового мировоззрения у молодежи, формированию творческой личности, созданию творческой продукции осуществляются взаимосовместимым образом.*

**Ключевые слова:** *мировоззрение, мышление, духовность, воспитание молодежи, творчество, образование, знание, развитие, эстетическое сознание, эстетический вкус, образовательный процесс, человеческий капитал, интеллект.*

### DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND A NEW WORLD VIEW IN STUDENTS

*This article discusses the issue of raising a healthy and comprehensively developed generation in our country, realizing creative and intellectual potential, and developing the worldview of young people. Also, the content and essence of scientific theories on improving creative ideas and a new worldview among young people, forming a creative personality, and creating creative products are carried out in a mutually compatible manner.*

**Key words:** *worldview, thinking, spirituality, youth education, creativity, education, knowledge, development, aesthetic consciousness, aesthetic taste, educational process, human capital, intelligence.*

**Kirish.** Respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti hayotimizning barcha jabhalarida, xususan oliy taʼlim sohasida ham islohot olib borilishini taqozo etmoqda. Yangi Oʻzbekistonda sogʻlom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylandi, rivojlanayotgan jamiyatimizning oʻz oldiga qoʻygan olijanob maqsadi – kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi. Darhaqiqat, davlatimizning bosh maqsadi ham kelajak avlodning istiqbolini taʼminlashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy yangilanishining muhim subyektlaridan boʻlib, turmushida roʻy berayotgan jarayonlarga oʻz taʼsirini oʻtkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol oʻynaydi, ularning ushbu masʼuliyatli vazifani bajarishlari va erkin rivojlanishlari, ijodiy bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun Yangi Oʻzbekistonda qulay imkoniyatlar yaratilgan va bu borada katta amaliy ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizning ertangi kuni qanday boʻlishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bogʻliq.

Mamlakatimizda ijtimoiy institut boʻlgan oliy taʼlim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun zarur maskan hisoblanib, nafaqat barqaror va ustun boʻlishi, balki tez oʻzgarayotgan va kutilmagan globallashtirilgan jamiyatda muammolarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi lozim. Shu sababli professor-oʻqituvchilar, tadqiqotchilar va boʻlajak mutaxassislardan taʼlim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida, shuningdek ushbu jarayonning barcha sohalarida kreativ gʻoyalar va innovatsiyalar kutilmoqda. Oliy taʼlim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda eʼtirof etish, zamonaviy taʼlimning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga koʻtarish oʻta muhim

ahamiyat kasb etadi. Ta’limning zamonaviylashuvi o’qitishda kreativ yondashuv bilan belgilanib, u bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o’zgartiradi, o’zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o’qitish texnologiyalarini qo’llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida Yangi O’zbekiston uchun eng katta investitsiya bo’lgan ta’limni qo’llab-quvvatlash, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo’shuvchi, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo’llash ko’nikmalariga ega, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yangi metodika asosida o’qitishni tashkil etish, ilg’or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilish orqali ta’lim sohasini yanada takomillashtirish borasida tizimli tadbirlar belgilab berilgan.

**Asosiy qism.** Jamiyat qanday bo’lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo’ladi. Inson kapitali rivoji yoshlarning dunyoqarashi, ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog’liq. Inson aql-idrok sohibi bo’lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o’rab turgan ijtimoiy muhitda ro’y berayotgan jamiki voqealar ta’sir ko’rsatadi.

«O’zbek tilining izohli lug’ati»da inson faktori, inson omili va inson kapitali xususidagi sharhlar «inson» va «omil» so’zlariga bag’ishlangan izohlarda, afsuski, mavjud emas [3]. Ammo, bu so’zlar hamda ish kuchi, inson faktori, inson omili birikmalarining tilimizda amaliy qo’llanilish an’analariga tayanib, ularning anglatgan ma’nolari xususida mulohaza yuritish mumkin.

Insonning intellektual va amaliy salohiyati, dunyoqarashini rivojlantirishning ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasining o’rtaga kelishida ilk tamal toshlarini qo’ygan siyosiy iqtisod fanining asoschisi A. Smit edi. U insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilar edi [4]. XIX asr oxirida boshqa bir mutafakkir A. Marshall esa boylik to’plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog’lab quyidagicha tushuntirgan edi: «Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqat inson hayotini ta’minlash, uning ehtiyojlarini qondirish va uning jismoniy, aqliy va ma’naviy imkoniyatlarini o’stirish uchundir. Ammo insonning o’zi bu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasidir, bu boylikning pirovard maqsadi ham insondir» [5].

Bugungi kunda ta’lim yoshlarning dunyoqarashi va o’z-o’zini anglashiga, insoniy potensialini va qobiliyatlarini ro’yobga chiqarishida asosiy vosita bo’lib bormoqda. O’z davrida ulug’ rus kimyogar-olimi D.I.Mendeleyev «Ta’lim insonning sarflagan vaqt va mehnati evaziga orttirgan insoniy donoligi va bebaho kapitalidir. Haqiqiy o’qimishli kishi qachonki uning bilimlari va g’oyalari jamiyatning ehtiyoji mavjud bo’lganida o’z o’rnini topadi, aks holda u ortiqchadir», deb yozgan edi. O’qimishli, ziyoli kishilarning kapitali haqiqatan ham ularning olgan ta’limi – orttirgan bilim va ko’nikmalaridir[4].

Ijodiy yoki kreativ shaxs falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlarning eng murakkab muammolaridan biridir. Qadim zamonlardan buyon ijod jarayoni va kreativ shaxs faylasuflar Aflotun, Arastu, I. Kant, F. Shelling va boshqa buyuk olimlar e’tiborini tortdi. Kreativlikni, uning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini o’rganishning asoschilari g’arb olimlar, jumladan mashhur asarlarning aksariyati xorijiy tadqiqotchilar F.Baron, D.Gilford, E.P.Torrens, S.Mednik, K.Rojers, J.Renzulli, R.Sternberg, J.Taylor va bir qator olimlar nomlari bilan bog’liq. Ular ijod hodisasini shaxsiy kontekstda, ijod jarayoni va mahsuli nuqtai nazaridan, uning aql bilan bog’liqligida, kreativlikda diagnostika qilish masalalarini ko’rib chiqdilar.

Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o’zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

Dunyoqarash – yoshlarning ichki dunyosini bilmay borliqdagi go’zallikni idrok etish, tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, dunyo go’zalligi to’g’risida his – tuyg’ular, tasavvur va fikrlarini tarbiyalaydi va takomillashtiradi. Yoshlarda dunyoqarashni rivojlantirish orqali har tomonlama keng estetik did rivojlanadi, ularni yovuzlikka nafrat ko’zi bilan qarash, go’zallikni idrok qilishga undaydi[6].

Shaxs dunyoqarash asosida o’zini, voqelikni anglaydi, borliqqa munosabat bildiradi, shuning asosida jamiyatdagi o’z o’rnini bilib oladi, o’zlashtirilgan bilimlari asosida o’z maqsadini, shaxsiy va ijtimoiy mavqei belgilaydi. Bu esa hozirgi Yangi O’zbekistonda kamol topayotgan yoshlarga xos xususiyatning shakllanishi, unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash va takomillashib borishiga amaliy yordam berish ko’nikmalarini shakllanishi uchun zarur holdir.

Inson hamisha dunyoning sir – sanoatlarini anglab yetishga intiladi. O’zicha nimalarnidir yaratadi, quradi, buzadi. Ularning mukammallik darajasi esa yaratuvchi inson ilmiga bog’liqdir. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Tabiat va jamiyatdagi mavjud narsalarga, voqealarga, hodisalarga nazar



tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutanosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganligining guvohi bo‘lamiz, bularning barchasi insonni zavqlantirishga, unga orom va ma’naviy kuch baxsh etishiga sabab bo‘ladi [5].

Globalashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta, chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda, shu munosabat bilan turli soha olimlarining e‘tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ qobiliyatini rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Kreativlik qobiliyati “Xudoning in’omi” va shuning uchun kreativlikni o‘rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o‘laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Innovatsiya va ixtirolar tarixini o‘rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi yuqori fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma’lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo‘lishgan [2].

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda yoshlarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Yoshlarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lish uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida o‘qish faoliyatida bo‘lgan yoshlar kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi [8].

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni har bir davr uchun o‘ziga xos va o‘ziga mos zamonaviy tafakkurga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalab, yangicha dunyoqarash asosida jamiyat rivojiga turtki beruvchi yoshlarni voyaga yetkazib beradi. Bu jarayonda xalqning istiqbolini yuqori cho‘qqiga olib chiquvchi falsafiy dunyoqarash tizimida estetik dunyoqarashning roli kuchli bo‘lib, millat taqdiri, Vatan ravnaqi, yurt farovonligi yo‘lida o‘zgacha qiyofa kasb etuvchi davlatlar shakllanib boradi. Ularning harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxs va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi asosiy rol o‘ynashi lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1].

Insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning rivojlanishi yoshlarning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan yangicha dunyoqarash yoshlar qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Yoshlarimiz ongida yuksak ma’naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimizning farovonlik yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarini tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otish hozirgi paytda muhim vazifalardan biri bo‘lmoqda. Yoshlarimiz tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ma’lumotlarga, bilimga ega bo‘lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u yoshlarni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholashi hamdir[7].

Dunyoqarash jamiyatning o‘zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o‘zgarib turadi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi tizim yaratilmoqda va uning asosida yoshlarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda. Dunyoqarash yoshlarning amaliy faoliyat yo‘nalishini belgilab beradigan qudratli ma’naviy kuchdir, shuning uchun ham hozirgi vaqtda jamiyat a‘zolari, birinchi navbatda yoshlar qalbini egallash, uning dunyoqarashiga muayyan maqsadlarni ko‘zlab ta’sir etish avj olib bormoqda[4]. Shunday ekan, biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosini, yangicha dunyoqarashi, ma’naviy kamoloti uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur. Yoshlarning aqliy va ruhiy boyligi, yuksak intilish va faolligi ko‘p jihatdan ma’naviy, jumladan, kreativ g‘oyalar va badiiy omillarga bog‘liqdir. Ularda ushbu omillarga asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yoshlarda kreativ g‘oyalar va yangicha dunyoqarashni shakllantirish masalasi jamiyat va oliy ta’lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi va quyidagilar tavsiya etiladi:

- globallashtirish jarayonida yoshlarda aqliy mehnat, yuksak innovatsion tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish;
- yoshlarda kreativlik va yangicha dunyoqarashni bugungi ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot talablari asosida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosida yoshlarda aql-zakovat, ilmu-hikmat, o'z kasbiga qiziqishni ifodalovchi dunyoqarash tushunchalarini ifodalanishiga e'tibor qaratish;
- yoshlarimizda kreativlik, yuksak ma'naviy sifatlar va yangicha dunyoqarashini takomillashtirib, bu noyoblikni yanada boyitishlari, rivojlantirishlari va dunyoga ko'rsata olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarning yuksak ijodiy qobiliyatlari va ularning muayyan faoliyat turidagi ahamiyati ta'lim muassasasidagi yuqori iqtisodiy faollik bilan hamkorlikda tashkil etish;
- yoshlarning yangicha dunyoqarash va kreativ qobiliyatlarini namoyish etishi uning faoliyat sohasidagi ish o'rinlari bo'yicha eng jozibador bo'lgan ishlarga keng yo'l ochishga yordam beradi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan misollardan korinadiki, yoshlarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli- faoliyatli yondoshuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativlik va yangicha dunyoqarash deganda talabalar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, xatti-harakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi hamda iqtidorlikning muhim omili sifatida aks etadi. Chunki har bir inson ham o'z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo'lishga intiladi, qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, talabalarning diqqat-e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiat tomonidan u yoki bu darajada berilgan ijodiy faoliyat qobiliyatiga qaramasdan, faqat maqsadli tayyorgarlik shaxsning ijodiy fazilatlarini yuqori darajada rivojlantirishni ta'minlaydi. Shaxsning kreativligini rivojlantirish jamiyat farovonligining eng muhim manbalari va ko'rsatkichlaridan biridir. Bo'lajak mutaxassisning kreativligini shakllantirish oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga zamonaviy yondashuvda asosiy talablardan biri bo'lib, bu birinchi navbatda jamiyat talablari bilan bog'liqdir. Bunday shaxsni shakllantirishda uning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga, faol hayotiy pozitsiyaga munosabatni rivojlantirishga, yoshlarning turli xil amaliy faoliyat turlarini o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifalardan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.- T.:”O‘zbekiston”, 2016 - 16 b.
2. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.].
3. Falsafa: (O‘quv qo‘llanma) E.Y.Yusupovning umumiy tahriri ostida.- T.:”Sharq”, 1999 - 496 b.
4. Hasanova Z.D. “Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarida axloqiy - estetik dunyoqarashni rivojlantirish”. B.:”Buxoro”, 2016.
5. Samiyeva S. Yangi o‘zbekistonda bo‘lajak mutaxassislar kreativ qobiliyatini tarbiyalashning zamonaviy yo‘nalishlari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
6. Samiyeva Sh., Narzulloyeva F. Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.
7. Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 55; Mualliflar bu jadvalni o‘z navbatida quyidagi manbadan olganiga ishorat qiladilar: Odegov Y.G. Upravleniye personalom v strukturno-logicheskix sxemax.-M.: Akademicheskii proyekt. 2005. – S.348. Yana qarang: Abdurahmonov Q.X.. Inson taraqqiyoti. (Darslik) T.: - Fan va texnologiya, 2013. -475 b.
7. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.
8. Авазбоев Атажан Исмоилович, Пардабоев Жасур Эшбоевич Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришининг самарали йўллари // Современное образование (Узбекистан). 2018. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-kreativlik-sifatlarini-rivozhlantirishning-samarali-y-llari> (дата обращения: 29.05.2023).

## HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING PEDAGOGIK MULOQOT OMILLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINATLARI

*Abdullayev Amrullo Nassulloyevich,  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti*

*Maqolada harbiy ta'lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga e'tibor qaratilgan. Yosh xodimlarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirish, vatanparvarligi, ma'naviyati, axloqi va saviyasini ko'tarish, unga ijobiy ta'sir etuvchi mexanizmlar ilmiy tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik muloqot, psixologik determinat, vatanparvarlik, tarbiya, axloq, ma'naviyat, qadriyat, insonparvarlik, adolatparvarlik, mentalitet.

## PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FORMATION OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION FACTORS OF STUDENTS IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*The article focuses on the formation of pedagogical communication factors of students in military educational institutions, issues of military patriotism and spiritual and moral education. The formation of pedagogical communication factors, raising patriotism, spirituality, morality and level of young employees, the mechanisms that positively affect it have been scientifically analyzed.*

**Keywords:** pedagogical communication, psychological determination, patriotism, upbringing, morality, spirituality, value, humanity, justice, mentality.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФАКТОРОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

*В статье уделяется внимание формированию факторов педагогического общения курсантов военно-учебных заведений, вопросам военного патриотизма и духовно-нравственного воспитания. Научно проанализированы факторы формирования педагогического общения, повышения патриотизма, духовности, нравственности и уровня молодых сотрудников, механизмы, положительно влияющие на это.*

**Ключевые слова:** педагогическое общение, психологическая целеустремленность, патриотизм, воспитание, мораль, духовность, ценность, гуманность, справедливость, менталитет.

**Kirish.** Harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentiimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: "...Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart ..." [2], - deb ta'kidladi. Buning uchun esa harbiy ta'lim jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim.

Talaba yoshlarning oshirish, harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash o'sib kelayotgan yosh avlodning millati, tili, kasbi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Vatanga bo'lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning maqsadli, tizimli, ko'p bosqichli va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga aytiladi. Yoshlarni pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning, harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Sababi yoshlarning asosiy vaqti ta'lim muassasida ta'lim-tarbiya olishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, professional ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida beriladi.

Jahonda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda harbiy ta'lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning, harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan

davlat ta’lim standartlarini joriy etish, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg’or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda harbiy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning xalqaro standartlar asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularda harbiy vatanparvarlik, strategik mobillik, millatlararo bag’rikenglik, tolerantlik tafakkurini hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo’lajak ofitserlarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning mexanizmlarini takomillashtirish harbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, eng ilg’or innovatsion yondashuvlarga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o’quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng ko’lamda foydalanishni yangi sifat darajasiga ko’tarishni talab etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo’lgan ofitser-kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ayni vaqtda, aytish joizki, ko’rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to’liq javob bermaydi. ...harbiy o’quv yurtlarida zamonaviy shart-sharoitlarni xo’jako’rsinga yaratganimiz yo’q.

Aksincha, kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta’lim sohasida eng ilg’or, innovatsion bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz” [2].

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida ham “oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan [1].

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarini I.Y.Inoyatov, A.M.Qambarov, S.Y.Ahrorov, S.O.Otamurodov, R.S.Samarov, A.Sotivoldiyev, U.S.Temirova N.J.Eshnayevo kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni intensivlashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish va unga qo’yiladigan didaktik talablarning ilmiy-nazariy asoslari mamlakatimiz olimlari R.H.Djo’rayev, R.G.Isyanov, U.Sh.Begimqulov, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, N.J.Isakulova, E.R.Yuzlikayeva, M.B.Urazova, Sh.S.Sharipov, Sh.A.Akramovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo’stligi davlatlari olimlaridan A.A.Bashlakova, V.N.Gerasimov, V.A.Jilsov, A.I.Zaxarov, V.S.Dobrovolskiy, A.K.Kiselev va V.V.Yudinlarning pedagogik tadqiqotlarida harbiy kadrlarni tanlash, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, ko’nikma va malakalarini shakllantirish muammolari tadqiq qilingan.

Harbiy ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo’nalishi bo’lajak ofitserlarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning, kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish bilan bog’liq. Shu nuqtayi nazardan, oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo’lajak ofitserlarning nazariy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, kreativ tafakkur tarzini qaror toptirish mazkur sohadagi zamonaviy tendensiyalardan biri sifatida qaralmoqda.

Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash muammolarining metodologik, psixologik, didaktik va uslubiy aspektlari V.I.Baydenko, A.G.Bermus, A.A.Bodalev, H.N.Boritko, A.A.Verbitskiy, R.Isyanov, N.V.Kuzmina, I.I.Legostaev, A.A.Muraley, E.G’oziev, I.V.Petrova, A.M.Novikova, V.A.Slastenin, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, B.X.Xodjayev, A.X.Maxmudov va boshqa olimlarning ishlarida o’rganilgan.

Mazkur tadqiqotlarning aksariyati “bilish” konsepsiyasini amalga oshirishga asoslangan bo’lib, ularda bitiruvchilarning kognitiv faollik darajasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilim va ko’nikmalarning ma’lum bir jamlanmalarini o’zlashtirish belgilangan.

**Natijalar.** Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo’lajak ofitserlarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning, kasbiy kompetentligini takomillashtirish darajasiga sezilarli ta’sir etuvchi asosiy omillar (texnologik, harbiy-pedagogik, diagnostik va kasbga taalluqli) tizimli tahlil qilish asosida aniqlandi. Harbiy-pedagogik (analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish darajasi, maxsus harbiy vazifalar va taktik vaziyatlarni hal qilishda to’plangan tajribalar, yuqori darajadagi o’z-o’zini tartibga solish, o’z-o’zini boshqarish va kasbiy javobgarlik); texnologik (tezkor-taktik, rasmiy va maxsus vazifalarni rejalashtira olish tajribasi; zamonaviy

qurol-aslahalardan samarali foydalanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmalari); diagnostik (yakka va jangovar tartibda bajariladigan vazifalar sifatini ob‘ektiv va ishonchli baholash tizimidan foydalanish; tayyorgarlikning barcha bosqichlarida kasbiy takomillashtirishning uzluksiz diagnostikasini amalga oshirish; bo‘lajak ofitserlarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish darajasini baholashda klaster, test usullaridan foydalanish va boshqalar); muhim xizmat vazifasi (talabalarda axloqiy va ruhiy tarbiyaning yuqori darajasi, kuchli iroda, ma‘naviy-axloqiy va vatanparvarlik fazilatlarini; muloqotchanlik, ijodkorlikning zarur darajada rivojlanganligi va boshqalar) shular jumlasidandir. Belgilangan asosiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi va ta‘sirining baholanishi harbiy ta‘lim muassasalarida talabalarining pedagogik muloqot omillarini shakllantirish, ular o‘rtasida kasbiy bilimlarni takomillashtirish uchun zarur pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni yaratishni ta‘minlaydi [3].

**Muhokama.** “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda harbiy ta‘lim muassasalarida talabalarining pedagogik muloqot omillarini shakllantirish, ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, mamlakatimizda Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish va talabalar orasida harbiylik kasbga hurmat va ye‘tiborni yanada kuchaytirish maqsadida “ma‘naviyat soatlari”da O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga oid, harbiy kasb va harbiylar hayotiga oid mavzularda mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish;

ikkinchidan, ajdodlarimiz jangovar an‘analari, buyuk sohibqiron Amir Temurning harbiy salohiyati va jang qilish san‘ati merosi, O‘zbekistonlik jangchilarning jangovar va ma‘naviy ma‘rifiy tayyorgarlikda erishgan yutuqlari, Vatanga qasamyod va harbiy burch, harbiy kasb haqidagi ma‘ruzalarni tashkillashtirishda harbiy rahbarlar, harbiy qismdan ofitserlarni, zahiradagi ofitserlarni, ota-onalarni, Davlat organlarida xizmat burchini o‘tayotgan bitiruvchilarni taklif qilish;

uchinchidan, 14 yanvar “Vatan g‘imoyachilari kuni” munosabati bilan boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan harbiy xizmatchilar hamda urush qatnashchilari, boshqa jangovar harakatlar qatnashchilari ishtirokida talaba-yoshlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli vektorinalar tashkil qilish, muddatli va kontrakt asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va talaba yoshlar o‘rtasida harbiy sport musobaqalarini tashkillashtirib borish;

to‘rtinchidan ta‘lim muassasalarida harbiy sportga oid to‘garaklarni tashkil etish, jumladan, “Merganlik”, “Yozgi biatlon”, “Qo‘l jangi” kabi sport turlaridan to‘garaklar ochish va talaba yoshlarni qatnashishini ta‘minlash.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy bilimlarini takomillashtirish quyidagi zarur pedagogik va psixologik shartlarni vujudga keltiradi. Bular: zamonaviy fanlar bo‘yicha maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarida yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirish; bo‘lajak ofitserlarning mustaqil o‘zlashtirish faoliyatini faollashtirish imkonini beruvchi usullarni qo‘llash; harbiy-kasbiy xizmat ko‘rsatishda muhim shaxsiy sifatlarini faol rivojlantirish usul va vositalaridan to‘g‘ri foydalanish; tashkiliy boshqaruv vazifalarini, turli kasbiy topshiriqlarni va tezkor-taktik vaziyatlarni hal qilish tajribasini egallashda amaliy tayyorgarlikning ustuvorligi; zamonaviy usullar va didaktik vositalar, shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va simulyatsion dastur vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish; bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ijodiy texnologik jarayon bilan almashtirish; bo‘lajak ofitserlarning jismoniy tayyorligini oshirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirish texnologiyasining barcha bosqichlarida uzluksiz tashxis tadbirlarini amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

**Talabalarining pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning psixologik determinatlari va mezonlari.**

O‘zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi, vatanparvarligida namoyon bo‘ladi, ularning ma‘naviy qiyofasini belgilaydi.

Shu asnda yoshlar jamoasida vatanparvarlikni shakllantirish ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir a‘zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish, mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularning o‘zligini anglashlari, vatanparvarlik va fidoiylilik tuyg‘ularini, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarini: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Mustaqil, ma’rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli insonlar sifatida kamol toptirish, ularni o‘z Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish lozim:

- ijobiy fazilatlar mohiyati va mazmunini to‘g‘ri tushunish hamda tahlil qilish, shaxsiy munosabatini bildira olish;
  - jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;
  - barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish metodlarini belgilash.
- Bu sifatlarni auditoriya va auditoriyadan tashkari ta’lim shakllarida amalga oshirish mumkin (1-rasm)



**1-rasm. Talabalarga pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning auditoriyadan tashkari tadbir turlari**

Insonshunoslik fanida “inson-jamiyat”, “jamiyat-inson” shaklida o‘zaro ta’sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to‘g‘ri, ham teskari aloqani o‘rnatishi joiz. Shu sababli yoshlarning harbiy vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganishda auditoriyadan tashqari tadbirlarda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarining ahamiyati salmoqli.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish uchun jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.

“Ma’naviyatning asosini bilim tashkil qilar ekan, uning qismlarini diniy, tabiiy, texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar, axloq – odob, fazoviy va boshqa bilimlar tashkil qiladi”-deydi o‘zbek olimasi S. Nishonova. Haqiqatdan ham ma’rifatli bo‘lishga intilish, inson ma’naviy madaniyatining eng muhim mezonlaridan biridir. Ma’rifat, eng avvalo ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, ma’rifat ma’naviyatni shakllantiradi. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan Yoshlarda har bir o‘quv fani bo‘yicha olib borilgan ma’ruzalar, mashg‘ulotlar davomida umumnazariy tushunchalarga ega bo‘lish bilan bir paytda ma’naviyatning asosini bilim tashkil qilishini anglatish lozim bo‘ladi. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini baholashda o‘ziga xos ma’naviy ehtiyoj sifatida, ular orasida bilimga bo‘lgan ehtiyoj yetakchi o‘rinni egallaydi.

Agar inson sog‘lom bo‘lsa, unda tinmay bilim olish ehtiyoji mavjud bo‘ladi. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”larda bilim egallash – jamiyatga va o‘ziga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishda muhim omil - deb qayd qilingan. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka, jaholatga, razolatga olib keladi, bilimsiz jamiyatda ana shunday salbiy tushunchalar hukmron bo‘ladi. Bilim, asosan, ta’lim - tarbiya orqali egallanadi. Bilimning insonga boshqa kishilar tomonidan berilish jarayoni ma’rifat deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida oliy ta’lim berish, yoshlarning mutaxassisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini berish bilan birga yosh avlodni ma’naviy madaniyatli, yuksak axloqli va ma’rifatli qilib tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an‘analariga, urf –odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanadi. Yoshlarni tarbiyalash va ularni har tomonlama komil insonlar qilib voyaga yetkazish ta’lim muassasalari faoliyatida ustuvor maqsad va vazifa hisoblanadi. Umumiy hamda maxsus pedagogik jarayonda vatanparvar, ma’naviy madaniyatli shaxslarni tarbiyalash amalga oshiriladi hamda bu jarayon doimiy takomillashtirib boriladi.

Oliy ta’lim tizimi talabalarini vatanparvar, ma’naviy madaniyatli insonlar qilib tarbiyalashda o‘qitiladigan barcha maxsus va nomutaxassislik fanlari, ayniqsa ijtimoiy –gumanitar fanlar ahamiyati salmikli. Bunda “Milliy istiqloq g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Tarix”, “Axloqshunoslik”,

“Nafosatshunoslik”, “O‘zbek tili” “O‘zbek adabiyoti” kabi fanlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu fanlarning mohiyat-mazmuni talaba –yoshlarning siyosiy saviyasining o‘shishiga, dunyoqarashini shakllantirishga, o‘tmishda bo‘lgan va hozirgi kunda bo‘layotgan xalqaro siyosiy voqealarni to‘g‘ri baholashga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti muammolariga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitishda talaba yoshlarning ta‘lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishga, mustaqil dunyoqarash, ish yuritish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e‘tibor beriladi.

**Xulosa.** Yoshlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirish, har tomonlama tayyorgarlikka ega, kuchli va bilimli, halol, vatanparvar, mard va jasur harbiy xizmatchi sifatida tayyorlash, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat‘iy e‘tiqodi, intellektual salohiyatini, ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas‘uliyatini mustahkamlash hamda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo‘naltirish, har tomonlama yetuk va komil harbiy xizmatchilarni shakllantirish tadqiqotning asosiy mazmunini tashkil etadi. Talabalarning jismoniy tayyorligini oshirish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oliy ta‘lim muassasalarining o‘rni nihoyatda yuqori bo‘lib, ta‘lim muassasasida ta‘lim berish bilan birga tarbiyaviy ishlar birgalikda amalga oshiriladi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining pedagogik muloqot omillarini shakllantirishda umumharbiy fanlar majmuasida, pedagogik-psixologik fanlarni o‘zlashtirish bosqichlarida, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy fanlarni o‘rganish, tezkor va taktik fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bo‘lajak ofitserlarning pedagogik muloqot omillarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. B.268.
2. Mirziyoev Sh. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqi. //—Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil, №3.
3. Achilov, T. S. (2020). Ozdorovitelniy beg, prinsipi samostoyatelnoy trenirovki. Maktab va hayot, 4(152), 43-44.

## FORMATION OF PROFESSIONAL SELF-CONCEPTION, ENTREPRENEURIAL SKILLS IN ADOLESCENTS AND FACTORS AFFECTING THIS PROCESS

*Agamurodov Sarvar Istamovich,  
Bukhara State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of pedagogy*

*In this article, the problem of choosing a profession in teenagers and its socio-psychological features, various contradictions, psychological states and mental experiences that arise in the process of choosing a profession are extensively investigated. Problems such as the formation of professional qualities and characteristics are also illustrated in detail. This article scientifically approaches such complex psychological processes as taking into account the individual psychological characteristics of the individual in the process of choosing a profession in life, directing the adolescent personality to the profession, satisfied with the skills, qualifications and abilities that exist in the individual. In addition, special attention is paid to loyalty to the profession, productivity of professional activity, the formation of special abilities inherent in the profession in the person of a teenager, various psychological stresses that arise in the process of professional activity.*

**Keywords:** *Psychology, teenager, the problem of choosing a profession, professional qualities, psychological development, self-awareness.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОЦЕНЦИИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У ПОДРОСТКОВ ЯВЛЯЮТСЯ ФАКТОРАМИ, ВЛИЯЮЩИМИ НА ЭТОТ ПРОЦЕСС

*В данной статье подробно рассмотрена проблема выбора профессии у подростков и ее социально-психологические особенности, различные противоречия, психологические состояния и психические переживания, возникающие в процессе выбора профессии. Также подробно освещаются такие проблемы, как формирование профессиональных качеств, черт. В данной статье с научной точки зрения рассматриваются такие сложные психологические процессы, как учет индивидуально-психологических особенностей личности в процессе выбора профессии в жизни, профориентация личности подростка на основе имеющихся у него навыков, умений и навыков.*

**Ключевые слова:** *психология, подросток, проблема выбора профессии, профессиональные качества, психологическое развитие, самосознание.*

## O‘SMIRLARDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASH, TADBIRKORLIK QOBILIYATLARI SHAKLLANISHI VA BU JARAYONGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR

*Mazkur maqolada o‘smirlarda yuzaga keladigan kasb tanlash muammosi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli xil qarama-qarshiliklar, psixologik holatlar va ruhiy kechinmalar keng tahlil etilgan. Shuningdek, kasbga xos fazilatlar, xususiyatlarni shakllantirish kabi muammolar ham batafsil yoritilgan. Ushbu maqolada hayotda kasb tanlash jarayonida shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish, shaxsda mavjud ko‘nikma, malaka va layoqatlardan kelib chiqqan holda o‘smir shaxsini kasbga yo‘naltirish kabi murakkab psixologik jarayonlarga ilmiylik jihatidan yondashilgan. Qolaversa, kasbga bo‘lgan sadoqt, kasbiy faoliyat unumdorligi, o‘smir shaxsida kasbga xos maxsus qobiliyatlarni shakllantirish, kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli xil psixologik zo‘riqishlarga alohida e‘tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *psixologiya, o‘smir, kasb tanlash muammosi, kasbiy fazilatlar, psixikologik rivojlanish, o‘zini-o‘zi anglash.*

**Introduction.** As Uzbekistan is joining to the developed countries of the world and following its independent path, has achieved many achievements in applying to society the practical and theoretical work carried out in this area. One of our such important goals is the issue of personnel, that is, the creation of personnel who are competitive, educated and able to approach creatively and serve to the development of society. In such a situation, adolescents have a very complex task, that is, a number of problems associated with the choice of profession, which require a huge amount of willpower from the individual. When choosing a profession, it is an important socio-psychological process by which adolescents recognize their



“I”. Adolescence and early adolescence are considered to be associated with self-awareness, during which they become interested in their “I”. It is much more necessary when choosing a profession while taking into account this process. “I” in a teenager is a process in which he/she finds him/herself in social life, with his/her self-awareness, with his/her self-assessment, with his/her determination of his/her place in his family. The realization of one's own “I” is a very complex phenomenon. It will be possible to shape “I” by practicing, feeling “I” in the past and present. Realizing oneself “I” is the feeling of one's own individuality in one's own essence. In this, a person will have to feel how he/she is in reality and what distinguishes him/her from others.

**Main part.** Choosing a profession is a rather complicated process, in which hesitations, mistakes, crisis processes occur when choosing a profession. The choice of profession is not always at the same level. This will also be associated with most psychological, physiological processes in a person. Each of us meets the concept of “crisis” several times throughout our lives. Crisis means “inqiroz” in Uzbek language. In our daily life, this concept is used by us in many ways, that is, we are talking about the periods of crisis in production, psychological crisis and crisis of the sick. By joining the developed countries of the world, Uzbekistan, following its independent path, has achieved many achievements in bringing to life the practical and theoretical work carried out in this area. One of our important goals is the issue of personnel, that is, the creation of personnel that serve the development of society and are competitive, educated, and able to approach creatively. Stabilization of market relations in our independent country, liberalization of the economy, development of entrepreneurial activity, labor in people, and material goods assume a change in attitudes towards blessings. Currently, the introduction of effective methods and means of entrepreneurial activity in business, family business, joint ventures, the upbringing of personal qualities that allow such entrepreneurial activity, and the formation of new ideas and ideas in the thinking of people presuppose a consistent and continuous study of entrepreneurial activity calculated from important issues of psychology.

Young people are choosing professions for themselves by using opportunities which are created in our society extensively. In this, practical and theoretical works related to the education and young people are being implemented to our life by society. Today the issue of youth orientation to the profession is inextricably linked with specific requirements. Above all comes from issues related to the education of young people in our society. According to psychological sources, a person is a social reality. His sociability is manifested in everyday life, in his behavior, in his attitude towards himself and others, and in his interactions with people. Currently, young entrepreneurs are one of the urgent tasks of the field of social psychology to understand the social essence of labor activity, to know the mechanisms of formation and change of social characteristics in them under the influence of the market economy, and to research them in modern ways.

It turns out that the orientation of young people to the profession will be primarily associated with society and the conditions created in it. From this, objective factors of professional orientation are formed. By focusing on the profession and examining the many issues facing it, it can be seen that it will be possible to study these issues on the basis of objective and subjective issues. While objective issues are considered factors in a society that do not depend on the direction of this profession, subjective issues are those that depend on the young people themselves. From these, we strive to consider and analyze the factors that influence on professional orientation. From the analysis of scientific sources, it can be seen that the main essence of adaptation is manifested in the fact that a person perceives and assimilates the requirements of the social environment in pursuit of social conditions and goals set by a person, surrounded by his environment. When we analyze this definition, it implies that the person is familiar with the activities that he must carry out at the moment, changing his behavior in accordance with the demands of the new environment.

#### **The role of the family in the formation of abilities.**

In each period, young people will have a solid vision of their chosen profession. Young people have visions of the profession based on demands and needs in society. Concepts about the profession in young people are formed on the basis of evolutionary development from the age of youth. The professional orientation of young people develops in connection with specific age periods. In the preschool period, plot - role-playing games are widespread in children, a number of which acquire the character of professional games. Children play rollami such as Doctor, salesman, educator, teacher, driver, cook. Later, in children, the direction for the profession bembchi is very important to strive for the first labor, that is, to assemble the house, look at the flowers, clean their clothes, and so on. Such processes arouse interest in labor in the child. These form the positive motivations that form the basis of any activity and enrich the knowledge of the labor of adults in general. The result of professional role - playing games is the performance of simple labor processes, the observation of the labor that adults do is considered a manifestation of the “choice of profession” of preschool children, on the basis of which they lead to the differentiation of professions,

knowledge of various types of Labor. And at a small school age, children go in imitation of adults. It is here that the assessment of adults, teachers, parents, relatives, close acquaintances begins to be made of what occupation the children have. The second important aspect here is the process of reading, which is a feature in children - that is, the appearance of achievement and main activity in motives. Understanding children's abilities based on their activities in Reading, play activities and work leads them to form their own perception of the profession they want. The development of abilities in a child at a small school age clearly demonstrates individual differentiation in them, which develop spectra indicating which profession they like. Reading and labor activity lead to the development of a (creative) fantasy in children with a repeater and result. On the basis of such abilities, an understanding of the essence of various types of Labor is formed, imagining oneself to work in this activity. The child develops a professional imagination in colors, which has its own influence on what kind of profession he chooses in his future. Adolescence is a period in which a teenager for the first time begins to choose a profession based on his selfishness. Adolescence is the most important period of formation as a person, associated with a sense of responsibility. This period is the period when moral relationships are established to different types of Labor. This is the period associated with the formation of a system of values associated with the choice of different professions.

#### **Problems in choosing a profession.**

It is easy for young people to choose a profession only when they realize their future, determine their interests and interests, and understand their needs in organizing their lives. The profession is the main factor that feeds a person and the basis that makes up his life. Occupational Psychology focuses a person on the areas of the profession that he needs throughout his career, which he is always interested in. In order to advise the growing youth, ulami performs many practical tasks such as vocational guidance, knowledge of professions, satisfaction of skills development needs, attestation, helping them to grow up to be masters of their profession. The reader realizes that he needs to build his own life and that to ensure this life, he needs to choose the profession he likes, which is the basis for him to build his next life. In this, the reader gets to know people who are older than him with a way of living, realizing that they have families, that in order to support this family, they are busy with some kind of activity, which comes from the professions that they have identified for themselves. The children who follow this process realize that in the future they will also live in such a way and prepare for such a life. Children who realize the future of their lives will try to make themselves the owner of a profession that their labor is necessary for society, for themselves, and of course in the construction of their future life. As a teenager, his mind can now answer many questions. Development especially mental development raises many more questions in a teenager. The knowledge gained at school, the observation of the people around them, the interaction of their parents and their communication with their children can give children a lot of life knowledge. Now they also strive to test this knowledge. But in front of the permitted and forbidden border around, they will always be in thought. These processes lead to the development of psychological states and processes in them in their own right. When choosing a profession the choice of a profession is the will of the elector, that is, the desire to turn away from him and choose another profession with interest and see his difficulties, indicates his unwillingness. The choice of a profession is visible to the person who chooses the will in his desire to master it well, without changing the profession chosen by the need, and, if necessary, in his desire to reach the level of Master of the same field. The profession requires that the elector expend energy to pursue the profession he loves, for which he must have patience, endurance, ambition. Even in reality, will is a process that motivates a person to activity and is considered the main means by which a person can fulfill his hobbies, desires of Dreams, Wishes and desires. Adolescents are driven by volitional effort throughout their career choices, seeking to take control of themselves and pursue their chosen careers. Of course this process does not go the same in everyone. This can also become a kind of envy and lead to a change in the profession of your choice in the future.

The reader realizes that he needs to build his own life and that to ensure this life, he needs to choose the profession he likes, which is the basis for him to build his next life. In this, the reader gets acquainted with the way of living people who are older than him, the fact that they have families, this family

Vocational guidance is a much needed direction as an area that helps young people to have careers that they are capable of and that they are interested in. Issues related to the direction of the modern profession are due to many factors of the present time. Especially the transition of our society to market relations requires a lot of research in this area.

The desire of young people to become who they are at the moment not only makes them associated with the answers to this question, but also requires competence, ability, creative approach and so on. Growing demands, on the other hand, lead young people to think more seriously about their professional

orientation. Professional orientation, which is a social problem, it becomes necessary to overcome above all objective contradictions, as well as non - uniform subjective specific aspects.

**The importance of interest in choosing a profession.**

The place and importance of interest in a person's life is great. One of the main motives in choosing a profession is the interest of a person in the direction of this profession. In order for a person to develop certain interests, certain psychological processes occur in him. In childhood, as he observes adults, a passion, desire, aspiration appears in himself to certain processes, phenomena that occur in these processes. That is why games are played in their games, repeating these processes. On the basis of these, children develop interests and aspirations. Interest constitutes one of the important psychological characteristics of the individual. In curiosity, individual - psychological characteristics inherent in a person will be embodied. Interest is a psychological process in which a person is associated with his desires, aspirations, inherent in a person on the basis of his worldview, knowledge, arising from his needs, interests. Interest contributes to the development of personality ability in conscious, thorough and stable, conscious acquisition of knowledge, to a more perfect understanding of the world, to the expansion of the level of knowledge. Interest in a person arises primarily from his needs. A person focuses his attention on this object when he needs something. The object attracts the attention of a person with its necessity and feels a certain need for it. When this object that attracts the attention of a person is interesting for human life activity, satisfies its need, then this object causes a person to aspire.

**Factors that motivate the profession.**

Based on the task of vocational guidance it can be indicated that it is required to give a coordination according to the state institution like school, family, professional-technical, secondary specific, higher education and others, their organizational work on a continuous and modern scientific basis, which they must perform, professional orientation, giving a professional characteristic to a school teacher and prognoses which are derived from socio-economic status. Career orientation is also significant in that it forms an important part of the upbringing of a person with a harmonious development in all respects, that is, as a person with moral, labor, mental, political, aesthetic and physical development, is an important branch of the educational process. Thus, it can be said that professional orientation is an important process in the development of each person, as well as in the functioning of society as a whole. From here it can be seen that vocational guidance is understandable to all, and this is a phenomenon associated with vocational guidance of schoolchildren, career choice.

**Conclusions and recommendations.** Young people choosing a profession have important psychological characteristics necessary for choosing a profession. First of all, this is their physical health, and another important element is the mental health of young people. The development of psychological characteristics in a person in accordance with his age increases his opportunities in choosing a profession. Young people choosing a profession must first of all have a strong will, normality of thinking, a unique formation of imagination, sensitivity, ability to focus on objects of interest, experience, skills, knowledge, ability to carry out these set processes, Many aspects, such as their attitude towards the profession they are interested in, are very necessary phenomena.

**References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. We will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan together.- Tashkent: "Uzbekistan", 2016-y, 56b.
2. Karimova V.M. Occupational psychology.- T., TTYI, 2013.
3. Goziev E. General psychology.- T. 2010-y. 201 b
4. Jalalov.How to choose a profession.- T., 2010-y
5. Abdurakhmanov F.R., Abdurakhmonova Z.E. “Occupation psychology”:- T., 2018. 295 b

## O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY TASHKIL ETISHDA KASBIY REFLEKSIYANING O'RNI

*Asranbayeva Munajatxon Halimjanovna,  
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, androgogika, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot obyekti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etayotgani, o'qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi ekanligi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emasligi, o'qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirishning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'qituvchi mehnatini tashkil etishning ustuvor tamoyillari va nazariy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda mazkur faoliyat natijasini o'rganish tajribalari natijalari keltirilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, psixologlar va pedagogik refleksiya muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *adekvatlik, mikroijtimoiy, kompleks, ustanovka, taraqqiyot.*

## РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ В НАУЧНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЧИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ

*В данной статье рассматривается тот факт, что рефлексия, изучаемая в настоящее время как философская категория, приобретает актуальное значение как объект исследования психологии, социологии, синергетики, логики, андрогогии, кибернетики и многих других сложных наук, развития педагогического мастерства. В педагогической деятельности важна рефлексивная система, считается, что она является необходимой творческой частью способностей учителя и что без рефлексивной системы невозможно совершенствоваться учителю как высококвалифицированному педагогу. Также представлены результаты экспериментов по практической реализации приоритетных принципов и теоретических идей организации труда учителя и результаты этой деятельности. Статья предназначена студентам, педагогам, психологам и специалистам, занимающимся проблемой педагогической рефлексии.*

**Ключевые слова:** *адекватность, микросоциальный, комплекс, становление, развитие.*

## THE ROLE OF PROFESSIONAL REFLECTION IN THE SCIENTIFIC ORGANIZATION OF TEACHER WORK

**Abstract:** *In this article, the fact that reflection, which is currently being studied as a philosophical category, is gaining actual importance as a research object of psychology, sociology, synergetics, logic, androgogy, cyberethics and many other complex sciences, the development of the teacher's reflexive system is important in pedagogical activity. It is considered that it is a necessary creative part of the teacher's abilities and that it is impossible for a teacher to improve as a highly skilled pedagogue without a reflexive system. Also, the results of experiments on the practical implementation of the priority principles and theoretical ideas of the organization of teacher's work and the results of this activity are presented. The article is intended for students, pedagogues, psychologists and specialists dealing with the problem of pedagogical reflection.*

**Keywords:** *adequacy, microsocal, complex, establishment, development.*

**Kirish.** Bugun Respublikamizda ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Belgilangan maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, hozirgi kunda ta'lim sohasida yuksak samaradorliklarga erishilmoqda. Bunda o'qituvchilar bilan birga keng jamoatchilik, butun xalqimizning fidokorona mehnatini e'tirof etib, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrfarni bayon etadi: “Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir”[1].

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya

olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasida fidokorona mehnat qilayotgan o'qituvchilarning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi kerak.

Bu ulkan javobgarlik hissi o'qituvchilarda pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi. So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiya tashkil etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Refleksiya (lotincha “reflexio” - orqaga qaytish) - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir [3]. Inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmnnini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart) [2]. Suqrot, Platon, J.Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi [5]. Kant, Gegel, Shelling kabi yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar [7]. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning itison o'tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog'liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi [4].

Bugungi zamonaviy falsafada esa refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta'rifdan boshqasiga o'tish imkoniyatini beradigan metod sifatida, ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni. Bunda isbatlash olchovi ustidan nazorat ta'minlanishi kerak.

Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, androgogika, kiberaetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot ob'yekti sifatida e'tirof etilib tadqiq qilinmoqda. Biz “refleksiya” kategoriyasiga pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan ta'rif beramiz va uning mohiyatini o'rganishda o'qituvchilar kasbiy faoliyatidagi o'rnini tahlil qilishga batafsil to'xtalamiz.

Psixologiyada refleksiya “sub'yekt tomonidan o'zining ichki psixik jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish” mazmunida talqin qilinadi [6]. O'qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o'rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ta'rif mukammal ekanligi e'tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi [8].

Shaxsning psixik rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, S.L.Rubinshteyn insonning mavjudligini va uning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatlarini refleksiya bilan bog'laydi: “Refleksiya - bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib qo'yadi va insonni xayolan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi” [9].

Insonning ijodiy muammolarini hal etishda ro'y beradigan fikrlashidagi refleksiyaning o'rganib, olimlar uni fikrlovchi sub'yektaing o'z - o'zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (IN.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta'rif berib baholaydilar [12].

I.S.Ladenko refleksiyaning intellektual tizimlarning o'z-o'zini tashkil qilishidagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning idrok va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog'laydi. U “Refleksiya - ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha biridan boshqasiga o'tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi. Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi va amalda qo'llash usullari takomillashtiriladi” deb hisoblaydi [10].

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning IN.Semyonov tonxonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi [11]:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.
2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.
3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jaiayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib

munosabat qflashni ta'minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o'rganib ko'plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo'yadilar, aynan ushbu usullar o'qituvchining pedagogik faoliyatida va o'quvchilar bilan muloqotida ko'proq namoyon bo'ladi, deb hisoblaydilar (VAKrivoshev, G.P.Shedrovitskiy va boshqalar) [13]. Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bolganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o'rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma'no jihatidan bir - birlari bilan o'zaro bog'liq,

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning mazmuni, sheringining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida sub'yektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir - birlarini ko'zguda kabi aks etirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlama jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir [13].

Refleksiv qobiliyatlamini o'qituvchi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetroya, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko, L.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradilar [8].

A.V.Xristeva refleksiv vaziyatlar mohiyatiga kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo'lajak o'qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emas deb ta'kidlaydi olima [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada o'qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi ekanligi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emasligi, o'qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirishning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, psixologlar va pedagogik refleksiya muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Tahlillar va natijalar.** O'qituvchi mehnatini tashkil etishning ustuvor tamoyillari va nazariy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda mazkur faoliyat natijasini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba maydonlari sifatida Andijon va Namangan viloyatlarida joylashgan ikkita kollejlardan tanlandi. Tajriba maydoni bo'lgan kollejlardan tajriba-sinov ishlari jalb etilgan o'qituvchilarning soni jami 70 nafarni tashkil etdi.

1-jadval.

Tajriba maydonlari sifatida belgilangan kollejlardan o'qituvchilari soni

№	Joylashgan shahar		O'qituvchilar soni
	Tartib raqami		
1.	Andijon shahri	Andijon Baliqchi transport sanoat kolleji o'qituvchilari	34
2.	Namangan shahri	Namangan pedagogika kolleji o'qituvchilari	36

O'qituvchi mehnatini tashkil etishga oid maxsus metodikani amaliyotga tatbiq etish, uning amaliyot uchun mosligi va samaradorligini tekshirish maqsadida jami o'qituvchilardan tasodifiy tanlov asosida tajribaga jalb etildilar.

Psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari shaxsning psixik faoliyati va xulq - atvori hamda ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilish xususiyatlariga bog'liqligi xususidagi professional bilimlarga asoslanib, o'qituvchi faoliyatida o'quvchilarga individual yondashadi. Bu esa kollejda ta'lim - tarbiya ish samaradorligini oshirishga, ijtimoiy aktiv, ma'naviy etiqodli shaxsning shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Andijon Baliqchi transport sanoat kolleji o'qituvchilari va Namangan pedagogika kolleji o'qituvchilarida anketa savollari orqali o'qituvchi - o'quvchi munosabatlari darajasini aniqlashga erishildi.

O'qituvchilardan tomonidan to'ldirilgan texnologik xaritalar bilan tanishish va ularda qayd etilgan holatlarni tahlil qilish asosida, ma'naviy-axloqiy va shaxsiy-amaliy jihatdan ijtimoiy munosabatlarga moslashuvlari quyidagi darajalarni ifoda qilishi aniqlandi:

Quyidagi 2-jadval ko'rsatkichlaridan anglanganidek, tajriba darajalari o'rtasida farq sezilarli emas. Eng yuqori ko'rsatkichlar tajribali o'qituvchilarida namoyon bo'lsa, past ko'rsatkichlar yosh o'qituvchilarda aks etadi. Suhbatlar, savol-javoblar natijasi hamda ushbu jamoadagilarni psixologik xususiyatlari ular

tomonidan darslarni ilmiy tashkil etishda va ularni ta’lim mohiyatining to’g’ri anglanmaganligi past ko’rsatkichlarning qayd etilishiga sabab bo’lgan.

2-jadval.

**O’qituvchilarning ilmiy-metodik xususiyatlari**

Asosiy sifatlar	Yil boshida		Yil yakunida	
	Daraja ko’rsatkichlari (foiz hisobida)			
	Past	Yuqori	Past	Yuqori
Ilmiy ehtiyojlarga egalik;	47,9	52,1	43,4	56,6
Muloqot ko’nikmalarga egalik;	91,6	8,4	93,8	6,2
Ma’naviy qadriyatlarga munosabat;	19,3	80,7	21,9	78,1
Estetik ta’sirlarga munosabat;	24,6	75,4	27,1	72,9
Ta’sirchanlik;	27,5	72,5	24,6	75,4
Qo’zg’aluvchanlik;	33,7	66,3	36,7	63,3
Salbiy hissiy sifatlar (o’z-o’zini baholay olmaslik, o’z-o’zini boshqara olmaslik, o’z-o’zini anglamaslik va hokazolar)ga egalik;	14,2	85,8	16,1	83,9

3-jadval.

**O’qituvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatleri**

Asosiy sifatlar	Yil boshida		Yil yakunida	
	Daraja ko’rsatkichlari (foiz hisobida)			
	Past	Yuqoi	Past	Yuqori
Axloqiy qadriyatlarga egalik	24,6	75,4	22,5	77,5
Ijtimoiy subyektlarga ijobiy munosabatda bo’lish	56,2	43,8	51,6	48,4
Ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanishi.	93,2	6,8	91,9	8,1
Mikromuhitda o’z o’rniga ega bo’lish	20,3	79,7	25,7	74,3
Tabiatda, hayotdan misollar keltirish	28,4	71,6	26,4	73,6
Nutqida ilmiy terminlarni qo’llanishi	94,2	5,8	94,5	5,5
Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi.	86,9	13,1	83,1	16,9

Yuqoridagi 3-jadval ko’rsatkichlari bilan tanishish ham o’qituvchlarning darajasi ularning mikromuhitda, jamoa orasida o’z o’rniga ega bo’lishning uddasidan chiqishda past natijalarga erishayotganliklarini ko’rsatadi. Shu bois tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida ijobiy munosabatlarni o’rnatish va bu jarayonda faollik ko’rsatishlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

4-jadval.

**O’qituvchilarning shaxsiy sifatlariga egaliklari darajasi**

Asosiy sifatlar	Yil boshida		Yil yakunida	
	Daraja ko’rsatkichlari (foiz hisobida)			
	Past	Yuqor	Past	Yuqori
Ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish	34,1	65,9	31,5	68,5
Dialogik nutq ko’nikmalarga egalik	75,2	24,8	72,3	27,7
Mexanik xotiraga egalik	24,7	75,3	27,8	72,2
Tasavvur qila olish layoqatiga egalik	28,6	71,4	30,1	69,9
Ko’rgazmali-obrazli tafakkurga egalik	30,3	69,7	27,6	72,4
Nutqli-mantiqiy tafakko’rga egalik	18,3	81,7	19,4	80,6
Faollik	16,7	83,3	15,8	84,2
Harakatchanlik	64,3	35,7	66,6	33,4
Liderlik	18,6	81,4	22,4	77,6
Mehnat ko’nikmalariga ega bo’lish	38,5	61,5	40,4	59,6
Savodxonlik	18,2	81,8	17,5	82,5
Muayyan qobiliyatga egalik	22,6	77,4	20,9	79,1

Jadval ko'rsatkichlari keyingi tajriba bosqichlaridan nutqli-mantiqiy tafakkurga egalik, liderlik, savodxonlik va ilmiy xotira kabi sifatlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri bo'lishi lozimligini anglatadi. Shu bilan birga kollej jamoasida faoliyatida ularning ta'lim (tilni bilish, kompyuter savodxonligi), sport yoki badiiy yo'nalishlardan biri bo'yicha qobiliyatga ega ekanliklarini aniqlash va ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash zarur ekanligi ayon bo'ldi.

Tahlil natijalariga ko'ra o'qituvchi mehnatini tashkil qilish 62,5 foizigina ijtimoiy munosabatlarga kirishiga ruhan tayyor ekanliklari ma'lum bo'ldi. Bundan anglanadiki, o'qituvchi mehnatini tashkildan qolgan 37,5 foiz o'qituvchi mehnatini tashkil etishda turli xildagi muammolarga duch keladi. Bu esa o'z navbatida ularning muayyan “tayyorgarlik”ni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli sinov ishlarining keyingi davrida bu kabi salbiy holat bartaraf etilishi lozim.

Pedagogik ta'limot g'oyalari ko'ra shaxsda yuksak axloqiy sifatlarning shakllanishi va uning ijtimoiylashuvida mehnat faoliyati alohida o'rin tutadi. Shunga ko'ra o'qituvchi mehnatini tashkil qilish ham o'qituvchining ana shu sifarga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Tajriba davrida ham pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga e'tibor qaratish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Tajriba – natijalari o'qituvchi faoliyatiga tayyorlash borasida ham keng ko'lamli amaliy ishlarni tashkil etish zarurligini tasdiqladi.

Tajriba-sinov ishlarining so'nggi bosqichi bo'lgan ta'kidlovchi tajriba davrida ham o'qituvchilarning ilmiy va axloqiy boshqarish darajasi, shuningdek, shaxsiy sifatlarga egaliklari darajasini aniqlash maqsadida o'qituvchilar o'rtasida anketa so'rovlari qayta tashkil etildi. Anketa so'rovlarini tashkil etish vaqtida kollej jamoasida o'qituvchilarini shaxsiy sifatlarga egalik darajasi borasidagi shaxsiy munosabatlarini bildirdilar. Ana shu maqsadda texnologik xarita to'ldirildi. O'qituvchilarning bu boradagi munosabatlari jadval ko'rsatkichlarida quyidagi namoyon bo'ldi (o'qituvchilarning 42,8 foizida malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi aniq).

Jadval natijalaridan ta'kidlovchi tajriba davrida o'qituvchilarning o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil darajasida sezilarli ravishda oshganligini anglash mumkin. Bu esa dastlabki holatdan 23,5 foizga ortiq ekanligidan darak beradi.

Jadval ko'rsatkichlaridan asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar natijalariga ko'ra tajriba o'qituvchi mehnatini amaliyotdagi xolati samaraliroq ekanligini yaqqol anglash mumkin. Mazkur xulosaning haqqoniyligini, qolaversa natijalarini matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlash orqali ham tasdiqlash mumkin.

**Xulosalar.** O'qituvchi mehnatini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy psixologik muammo bo'lib, uni o'rganish natijasida o'qituvchilar faoliyatini ma'lum darajada ijobiy tomonga yo'naltirish, o'qituvchi mehnatini tashkil etishda ma'lum darajada ilmiy bo'lishi imkoniyati yaratiladi.

1. O'qituvchi mehnatini tashkil etish va faoliyatini ijtimoiylashtirish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.
2. O'qituvchi mehnatini tashkil etish maxsus kasbiy tayyorgarlik negizida yo'lga qo'yilishi o'qituvchi faoliyatini samarali yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.
3. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish va ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, fiziologik, psixologik va ijtimoiy og'ishlarning oldini olish hamda qayta tiklash, salbiy ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan immunitetni hosil qilish, ularni psixologik zo'riqishdan himoyalash, boshqaruv ta'limiga tayyorlash, shuningdek, ijodiy rivojlantirish kabi yo'nalishlar ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.
4. O'qituvchi mehnatini tashkil etishda ma'naviy-axloqiy va psixologik-irodaviy jihatlarni inobatga olish mazkur jarayonning muvaffaqiyatli kechishini kafolatlaydi.
5. O'qituvchi mehnatini tashkil etish o'qituvchilarning fiziologik, jismoniy, ma'naviy jihatdan shakllanishlari muhim ahamiyatga ega.
6. O'qituvchi mehnatini tashkil etish mazmunida o'zbek xalqining milliy mentalitetiga xos bo'lmagan umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ular xarakteriga mos bo'lishi zarur.
7. O'qituvchi mehnatini tashkil etish o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikka erishish maqsadga muvofiq bo'lib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish o'qituvchilarni yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.
8. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish zarur:
  - o'z kasbiga boigan munosabati asosida kasbiy ehtiyojini kuchaytiradi;
  - kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;
  - pedagogik maborat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluv-chanlikni shakllantiradi;
  - o'z ilmiy mehnati uchun ahamiyatga ega bo'lgan ijodkorlik sifatlari majmuasining yuzaga kelishini



ta'minlaydi.

**O'qituvchilardagi pedagogik refleksivlikni samarali diagnostika qilishni ta'minlash va ularni rivojlantirish maqsadida pedagoglar, amaliy psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin;**

1. O'qituvchi mehnatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, shakl va metodlarini izlab topish.

2. O'qituvchi mehnatini tashkil etishga doir turkum qo'shimcha mashg'ulotlarning tashkil etilishini yo'lga qo'yish.

3. O'qituvchi mehnatini tashkil etish jihatdan xorijiy mamlakatlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish hamda milliy va mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda “O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash” institutida keng tatbiq etish.

4. “O'qituvchi mehnatini tashkil etishda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida ularning faoliyatiga axloqshunos, iqtisodchi, psixolog, fiziolog hamda pedagog olimlar, shuningdek, tibbiyot xodimlari, diniy hamda soliq idoralarining vakillarini jalb qilish.

5. Kollej oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish asosida o'qituvchi mehnatini tashkil etish bo'yicha metodik yordamlarni uyushtirish.

#### Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.

2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: O'OMTV, 2007. 173 b.

3. Nishonaliev U.N., SHodiev N.SH., Muslimov N.A. Mehnat ta'limidan "Kasbga yo'naltirish asoslari" kursi bo'yicha metodik qo'llanma. -Toshkent, 2004. 12 b.

4. Асранбаева, М. Основные направления и факторы подготовки детей к социальной жизни в неполных семьях. ученый XXI века Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45.

5. Xalimjanovna, A. M. (2022). Manifestations of stress in professional activity and ways to eliminate it. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 841-844.

6. Asranbaeva, M. X. (2020). Improving mechanisms of preparing children for social life in disabled families. *Theoretical & Applied Science*, (12), 125-129.

7. Асранбаева, М. Х. (2015). Методы и приёмы коррекционной работы с тревожными детьми. in современные подходы к трансформации концепций государственного регулирования и управления в социально-экономических системах (pp. 43-47).

8. Asranbaeva, M. H. (2020). Characteristics of forming motives of labour activities in an incomplete family. *Theoretical & Applied Science*, (1), 121-123.

9. Xalimjanovna, A. M. (2022). Education of children in the works of our great scientists. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 45-49.

10. Xalimjanovna, A. M. Pedagogical Conditions for Preparing Children for Social Life in Single-parent Families. *JournalNX*, 7(12), 153-160.

11. Асранбаева, М. Х. (2022). Основные направления и факторы подготовки детей к социальной жизни в неполных семьях. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 43-45.

12. Асранбоева, М. Х. (2016). Формирование стрессоустойчивости у учащейся молодежи вузов. *NovaInfo. Ru*, 2(42), 257-260.

13. Асранбоева, М. Х. (2017). Противодействия стресс-факторам в процессе педагогической деятельности. Теория и практика современной науки, (1 (19)), 67-70.

14. Asranbaeva, M. H. (2020). Characteristics of forming motives of labour activities in an incomplete family. *Theoretical & Applied Science*, (1), 121-123.

## SHAXSIY HAMDA IJTIMOY DARAJADAGI TAHDIDLARDAN HIMOYA MEXANIZMLARI

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,*

*Farg'ona davlat universiteti psixologiya fanlari nomzodi, dotsent  
mamurjon9697@mail.ru*

*O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli jamiyatlar fuqarolari ijtimoiy ongiga, ularning ijtimoiy mavjudligiga tahdidlarning kuchayishi, qadriyatlar tizimini vayron qilish hamda qadriyatlar ziddiyatini keltirib chiqarishga, o'zaro va oilaviy munosabatlarni beqarorlashtirish orqali ular bilan bog'liq qadriyatlarni obro'sizlashtirish vositasida yot qadriyatlar va g'oyalarni ijtimoiy ongga joylashtirishga intilishlarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda global axborot muhiti va ular orqali turli usullar yordamida amalga oshirilayotgan targ'ibot va tashviqot jarayoni asosiy rol o'ynamoqda. Aynan shu vaziyat turli soha vakillarida tahdidlardan himoya mexanizmlari muammolariga katta qiziqish uyg'otmoqda. Maqolada ushbu muammolar yechimlari masalalari muhokama qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *global axborot muhiti, tahdidlar, ta'lim, tarbiya, individual psixologiya, psixologik ta'sir, qadriyatlar yo'nalishi, ijobiy xulq-atvor, ijobiy xarakter, mafkuraviy tarbiya, mafkuraviy immunitet, mentalitet, milliy madaniyat, milliy til.*

## МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ОТ УГРОЗ ЛИЧНОГО И СОЦИАЛЬНОГО УРОВНЯ

*Со второй половины прошлого века рост угроз общественному сознанию граждан различных обществ, их социальному существованию, разрушение системы ценностей и создание ценностных конфликтов, дестабилизация взаимных и семейных отношений, являются средством дискредитации связанных с ними ценностей. Усиливается стремление внедрить ценности и идеи в общественное сознание. В этом процессе ключевую роль играет глобальная информационная среда и осуществляемый через нее процесс продвижения и пропаганды различными методами. Именно эта ситуация вызывает большой интерес к проблемам механизмов защиты от угроз у представителей различных сфер. В статье рассматриваются пути решения этих проблем.*

**Ключевые слова:** *глобальная информационная среда, угрозы, образование, воспитание, индивидуальная психология, психологическое воздействие, ценностная ориентация, позитивное поведение, позитивный характер, идеологическое воспитание, идеологический иммунитет, менталитет, национальная культура, национальный язык.*

## PROTECTION MECHANISMS AGAINST PERSONAL AND SOCIAL LEVEL THREATS

*Since the second half of the last century, the increase in threats to the social consciousness of citizens of various societies, their social existence, the destruction of the value system and the creation of value conflicts, the destabilization of mutual and family relations, are the means of discrediting the values associated with them. There is an increase in efforts to place values and ideas in the social consciousness. In this process, the global information environment and the process of promotion and propaganda carried out through them using various methods play a key role. It is a situation that arouses great interest in the problems of protection mechanisms against threats among representatives of various fields. The article discusses the solutions to these problems.*

**Keywords:** *global information environment, threats, education, upbringing, individual psychology, psychological influence, value orientation, positive behavior, positive character, ideological education, ideological immunity, mentality, national culture, national language*

**Kirish.** *Hozirgi davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, globallashuv jarayonining tezlashishi, global axborot muhitida intensivlikning ortishi va bosimning kuchayishiga to'g'ri proporsional ravishda etnik paradigmanning o'sishi, milliy o'z-o'zini anglash hamda etnik identichlilikka intilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayni paytda milliy o'ziga xoslikka, etnik qadriyatlarga tahdidlar kuchaymoqda va bu tahdidlar tobora turli ko'rinishlarga transformatsiya qilinmoqda. Shu sharoitda milliy psixologik qiyofa xavfsizligiga tahdidlar va ulardan himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash muammosi o'ta dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. “Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Bular*

oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda „o'zbek“, „o'zbekistonlik“, „O'zbekiston“ degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi” - deya ta'kidlab o'tgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Turli tahdidlar va ulardan himoya mexanizmlari muammolari hamda muammoni hal qilish metodologiyasi masalalari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 104 b.”; “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 B.”; “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 5-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.”; “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 B.”; “Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutq”larida bayon etilgan.

**Natijalar.** Ta'sir va manipulyatsiyaga qarshilik va himoya reaksiyalarini shakllantirish, qarshi tashviqotning samarali usullarini izlash va qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ijtimoiy darajada himoya – psixologik ta'sirning ilmiy tadqiqotlarda asoslangan quyidagi shakllarini ta'kidlash lozim:

1. Ta'lim – omon qolish, rivojlanish va takomillashtirish maqsadlari bilan ta'lim sub'ektining xatti-harakatlarini o'zgartirish va moslashtirish faoliyati. Xozirda ta'lim – yoshning istalgan davrida ixtiyoriy tarzda mavjud bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonidan iborat bo'lib qoldi. Majburiy maktab ta'limidan tashqari shaxs yoshining istalgan davrida motivatsiyaga ko'ra kasbini o'zgartirishi, qayta tayyorlovdan o'tishi, mustaqil, masofadan ta'lim olishi, malakasini oshirishi mumkin. Demak, ta'limning mohiyati uning ixtiyoriyligi, shaxsning motivatsiyasiga bog'liqligida.

2. Tarbiya – shaxsni ijtimoiy-madaniy me'yoriy modellarga muvofiq ijtimoiy va madaniy hayotda ishtirok etishga tayyorlash uchun uni maqsadli shakllantirish. Tarbiya – bolani jamiyat va madaniyat tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar, norma, cheklov va taqiqlarga rioya qilishga majburan o'rgatish. Demak, tarbiyaning mohiyati uning majburiyligida, uning mazmuni esa bilim emas, balki xulqda namoyon bo'ladigan harakatlar va xarakterda namoyon bo'ladigan munosabatlardan iborat. “Tarbiyaning buyuk maqsadi – bilim emas, balki harakatdir”, deb ta'kidlagan edi ingliz mutafakkiri Gerbert Spenser.

3. Ta'lim va tarbiyaning inson hayoti davomidagi o'rnida tafovut mavjud. Bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarni o'zlashtirish, ta'limning sifati va samaradorligi ta'lim oluvchining motivatsiyasiga, maqsadiga bog'liq, motivatsiya esa odatda tarbiya jarayonida shakllantiriladi. Demak, tarbiya ta'limdan oldinda yurishi, ta'limni yetaklashi, uni harakatga keltiruvchi kuch vazifasini o'tashi lozim.

4. Individual psixologiya maktabining asoschisi Al'fred Adlerning fikricha, “ustunlikka intilish — bu, tug'ma intilish, tendentsiya bo'lib, har bir odam tomonidan shaxsiy, qaytarilmas hayot usuli doirasida turlicha amalga oshiriladi. Hayot usuli — bu, inson hayot faoliyatining asosida yotadigan xulq usullari va shaxs harakterining birlashmasidir. To'rt yoki besh yoshlarda shakllanib, hayot usuli shaxsda mustahkam o'rnashadi va keyinchalik qat'iy o'zgarishlarga uchramaydi. Hayot usuli odam psixik jarayonlarining o'ziga xos kuchaytiruvchisi rolini o'ynab, ularni bir butun, yaxlitga birlashtiradi”. Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalari shundan dalolat beradiki, bolalarda aynan olti yoshgacha bo'lgan davr jamoachilik, boshqalar bilan maqsadga muvofiq ijtimoiy aloqalar o'rnata olish, hamkorlik va hamjihatlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki yuqorida ta'kidlangan hayot usuli aynan shu malakalardan tashkil topadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maqomi o'zini oqlamaydi, maktabgacha ta'lim bola psixikasini jaroxatlaydi, uning salbiy, patologik oqibati bir necha o'n yillardan keyin ham namoyon bo'lishi mumkin. Qolaversa xali birona tadqiqotchi 4-5 yoshida o'qishni, yozishni, tilni o'rgangan bola geniyga aylanganini isbotlagani yo'q, “tezlashtirilgan” taraqqiyot qonuniyatga ko'ra keyin o'zini roslab, maromiga tushib oladi. Maktabgacha yosh davrida bolalarda taqlidchanlik va ishonuvchanlik eng yuqori darajada bo'ladi, shu sababdan bu davr bolalarni ortiqcha zo'riqishsiz va psixik jarohatlarsiz mavjud qadriyatlar, norma, cheklov va taqiqlarga majburan amal qilishga o'rgatish uchun maqbul davr hisoblanadi.

5. Maktabgacha yosh davri ta'lim jarayoniga tayyorlanish va o'quv faoliyati motivatsiyasining shakllanish davri, shuning uchun maktabgacha tarbiya davrida faoliyatni o'yinlar, ertaklar, musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarni diqqatini boshqarish va taqsimlash, sezgi organlari faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, adekvat idrok, so'z-mantiqiy tafakkur, tasavvurlarini rivojlantirishga, borliqni adekvat aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga, o'zaro va kattalar bilan munosabat usullarini o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirish, o'quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirishga yo'naltirish lozim;

6. Muntazam psixologik ta'sir – davlatning o'z mafkurasi, maqsadlari, strategiyasi, qadriyatlari tizimini o'z jamiyatiga, xalqiga, xalq tarkibidagi turli millatlar, elatlar, axolining turli tabaqalari, turli yosh davrlari, ijtimoiy guruh va qatlamlarga singdirish uchun mavjud barcha usul va vositalar yordamida amalga oshiradigan targ'ibot va tashviqot jarayonini amalga oshirish bo'lib, bu jarayon jamiyatda vakolatli qurilmalar tomonidan muntazam va beto'xtov amalga oshirilishi lozim.

7. Mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantirish. Qadriyat - biror narsaning ahamiyati, foydasi, foydaliligi. Tashqi tomondan, qadriyat ob'ekt yoki hodisaning xususiyati sifatida ishlaydi, biroq, ahamiyat va foydalilik tabiatan ularga xos emas, ob'ektning ichki tuzilishi bilan bog'liq emas, balki insonning ijtimoiy mavjudligi sohasida ishtirok etadigan o'ziga xos xususiyatlarning sub'ektiv bahosi bo'lib, ular bilan odam qiziqadi yoki ularga ehtiyoj sezadi. Qadriyatlar tizimi insonning ob'ektiv va ijtimoiy voqeligidagi kundalik predmetlar, uning atrof-dagi ob'ektlar va hodisalarga turli amaliy munosabatlarini belgilash rolini o'ynaydi. Qadriyatlar ijtimoiy ongda urf-odatlar, marosimlar, an'analar, tartib-tamoyillar ko'rinishida namoyon bo'ladi, aynan shu omillar avlodlar o'rtasida vorislilik, seterotiplar uzatilishini ta'minlaydi.

8. Shaxsning mustahkam qadriyatlari yo'nalishini shakllantirish – insonning asosiy hayotiy tamoyillari, uning manfaatlari, harakatlari, niyatlari, shaxslararo munosabatlarni qurish usullarining dunyoqarashi va axloqiy yo'nalishini shakllantirish bo'lib, bu sifatlar shaxsda mustahkam hayotiy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

9. Ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash – atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning ma'lum bir o'rnatilgan usulini, ichki va tashqi omillar ta'sirida o'z harakatlarini o'zgartirish qobiliyatini tarbiyalash. Insonning xulq-atvori - shaxsning o'zi va javobgarligi o'zining zimmasida bo'lgan shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlaridir.

10. Ijobiy xarakterni tarbiyalash – shaxsning munosabatlari va xulq-atvorining xususiyatlarini aniqlaydigan nisbatan doimiy psixik xususiyatlarning tuzilishini, uning barcha ko'rinishlari va harakatlariga ma'lum bir tus beradigan xususiyatlar va fazilatlar to'plamini, ma'lum bir xulq-atvor, turmush tarzini belgilaydigan shaxsning muhim xususiyatlarini shakllantirish va mustahkamlash.

11. Intizomni mustahkamlash, o'quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, xulqqa ijobiy ta'siri, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qilish kabi tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olib barcha bosqich ta'lim muassasalarida o'quvchi, talaba va o'qituvchilar uchun maxsus kiyim bosh (forma) joriy qilish. Bu tadbir jamiyatda o'quvchi, talaba va o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini ko'tarish, ularga nisbatan xurmat va ehtirom tuyg'usini uyg'otishga ham xizmat qiladi.

12. Maktabgacha yosh davrida bolalarda jamiyat va madaniyat talablarining shaxsiy manfaatlardan ustunligi pozitsiyasini tarbiyalash.

13. Shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli yot mafkuraviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiluvchi tizim – mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadida mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish.

**Muhokama.** Jamiyatda ijtimoiy psixologik himoyani amalga oshirish hamda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash zimmasiga yuklatilgan mavjudlari bilan birga quyidagi qurilma va tashkilotlarning bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Ommaviy axborot vositalari: radio, televidenie, vaqtli matbuot, internet saytlarida uzatilayotgan axborotni taxlil qiladigan va tozalaydigan (fil'trlaydigan) qurilma (maxsus ekspertlar guruhi);

2. Ma'naviy-ma'rifiy hamda mafkuraviy targ'ibotni tashkil qiladigan va bevosita davlat va jamiyat xavfsizligi maqsadlariga bo'ysundiradigan qurilma (ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimida);

3. Milliy madaniyatni o'zida mujassamlashtirgan badiiy adabiyot, she'riyat, xalq amaliy san'ati, ishlab chiqarishda milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismlari: milliy madaniyat, milliy til, milliy xarakter, milliy xulqni shakllantirish mexanizmlarini joriy qiluvchi va nazorat qiluvchi qurilma (ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimida);

4. Nazorat va targ'ibot funksiyasini amalga oshiruvchi huquq tartibot idoralari (mavjud);

5. Ushbu organlar faoliyatini yagona maqsadga yo'naltiradigan va muvofiqlashtiradigan maxsus qurilma.

Yuqorida taklif qilinayotgan qurilmalar mavjudligi zarurati, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini, ma'naviy xavfsizlikni har bir davlat faqat o'z milliy mentalitet xususiyatlari, madaniyati, milliy ma'naviyati va mafkurasiga tayanib ta'minlashi mumkin, bu jarayonda boshqa bir davlatning har qanday ko'magi teskari samara beradi, degan qoidaga asoslanadi. Qolaversa, har qanday jamiyat normal taraqqiyotining zarur sharti uning tashqi salbiy ta'sirlarga nisbatan chidamliligi, shuningdek ichki ijtimoiy barqarorligi sanaladi. Shu fikr o'z vaqtida Platon tomonidan uning “Timey”, va “Davlat” asarlarida ta'kidlangan. Odatda jamiyatning bunday xususiyatlarini ifodalash uchun “xavfsizlik” atamasi qo'llanadi, bu atama an'anaviy tarzda xatar kimgadir, yoki nimagadir xavf tug'dirmayotganligini anglatadi. Xozirda bu tushuncha o'zining an'anaviy mazmuni doirasidan chiqdi. N. Makiavelli, T. Gobbs, Sh. Montesk'e, G. Leybnits kabi mutafakkirlarning

ta'limotlarida xavfsizlik faqat davlat tomonidan o'zi maxsus tashkil qiladigan kuch ishlatish qurilmalari yordamida ta'minlanishi va kafolatlanishi mumkin, deb hisoblangan.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida turli ilmiy manbalarda yoritilgan ilmiy tadqiqotlar va muallif tomonidan amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslanib himoya mexanizmlarining quyidagi tasnifi taklif qilinadi.

1. Shaxsning tahdidlarga dosh berishi, jismoniy, shaxsiy yoki ijtimoiy farovonligiga tahdid paydo bo'lgan vaziyatlarda amalga oshiradigan muayyan harakatlar strategiyasi, tashqi muhit talablari va ichki resurslar o'rtasidagi muvozanatni saqlash faoliyati sifatida ongli himoya mexanizmlari hisoblanadigan yengish xulqi – adaptiv, qisman adaptiv va noadaptiv koping-strategiyalar;

2. Ongni ichki va tashqi ziddiyatlar, tashvish va noqulaylik holatlari bilan bog'liq noxush, jarohatlovchi tajribalardan himoya qilishga qaratilgan, funksional maqsadi ongsiz instinktiv impulslar va ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan zo'riqishlar bilan tashqi muhitning o'rganilgan talablari o'rtasidagi shaxsiy ziddiyatni (kuchlanish, tashvishni) zaiflashtirishdan iborat bo'lgan regress, siqib chiqarish (repressiya), reaksiyani shakllantirish, izolyatsiya, bekor qilish, proeksiya, introeksiya, o'ziga qarshi yo'naltirish, transformatsiya va sublimatsiya shaklidagi himoya mexanizmlari. Ushbu ziddiyatni zaiflashtirib, himoya insonning xatti-harakatlarini tartibga soladi, uning moslashuvchanligini oshiradi va psixikani muvozanatlashtiradi;

3. Ayrim davlatlar tomonidan jamiyat, xalq, turli ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy iyerarxiyaning turli pog'onasida turgan qatlamlarga o'z g'oyalari, qarashlari, qadriyatlarini tizimini singdirish uchun barcha vositalar, usullar yordamida amalga oshiradigan maxsus psixologik operatsiyalariga qarshi davlatning vakolatli qurilmalari tomonidan o'z mafkurasi, maqsadlari, strategiyasi, qadriyatlarini tizimini o'z jamiyatiga, xalqiga, xalq tarkibidagi turli millatlar, elatlar, aholining turli tabaqalari, turli yosh davrlari, ijtimoiy guruh va qatlamlarga singdirish uchun mavjud barcha usul va vositalar yordamida vakolatli qurilmalar tomonidan muntazam va beto'xtov amalga oshiradigan targ'ibot va tashviqot jarayonidan iborat maxsus psixologik ta'sir jarayoni. Bunda himoya mexanizmlari muntazam targ'ibot va tashviqot sohasi hisoblangan aniq maqsadga yo'naltirilgan, mustahkam qadriyatlar tizimi, psixik jarayonlar, xususiyatlar hamda holatlarni shakllantiradigan milliy tarbiya, vatanparvarlik hamda milliy g'oya uyg'unligidagi milliy ta'lim modeli, yoshning barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan mafkuraviy tarbiyadan iborat.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar' /Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 B;

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 5-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.

4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022.–416 B.

5. Mirziyoev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 2023 yil 22 dekabr' kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutq.

6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995 yil 23 fevral.

7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. O'zbekiston, 1997 - 326 b.

8. Abdullaev Sh.M. Etnosotsial'nie i etnopoliticheskie protsessi v Ferganskoy doline (osnovnie problemi, tendentsii i protivorechiya. 70-80 godi XX veka). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora istoricheskix nauk.T. 1994.

9. Baeva I.A. Psixologicheskaya bezopasnost' v obrazovanii: Monografiya. SPb: Soyuz, 2002. 271 s.

10. Berdyayev N. Sud'ba Rossii. Opiti po psixologii voyni i natsional'nosti. M., 1990.

11. Val'tsev S. V. Sotsial'no-psixologicheskii analiz funktsiy natsional'noy psixologii// Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya. 2012. № 4 (4). S. 53-55.

12. Val'tsev S. V. Faktori formirovaniya natsional'noy psixologii // Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya. 2012. № 2 (2). S. 20-22.

13. Vashekin N.P., Dzliev M.I., Ursul A.D. Stabil'nost' gosudarstva. Rossiyskaya model'. M.: MGUK, 1997. 154 s.
14. Grachev G.V. Informatsionno-psixologicheskaya bezopasnost' lichnosti: sostoyaniya i vozmozhnosti psixologicheskoy zashiti. M.: RAGS, 1998. 125 s.
15. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot (Universitetlar va pedagogika institutlari uchun qo'llanma), Toshkent, «Universitet», 1999.

## PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

*Atavullayeva Maxbuba Qobilovna,  
Head of the General Sciences Department  
Asia International University  
atavullayevamahbubaqobilovna@oxu.uz*

*This article reveals the scientific and theoretical foundations of the formation of the professional competence of primary school teachers, as well as the role and importance of factors influencing this. In our country in recent years, special attention has been paid to the radical reform of the education system, further improvement of the personnel training system and raising the level of professional training of specialists in this field. Of particular importance in this regard are studies to improve the professional competence of teaching staff.*

**Keywords:** *psychological competence, "I-concept", social perception, reflex, stress, aggression, altruism, aggressiveness, social courage, social maturity, socio-psychological competence.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителей начальных классов, а также роль и значение факторов, влияющих на это. В нашей стране в последние годы особое внимание уделяется радикальному реформированию системы образования, дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров и повышению уровня профессиональной подготовки специалистов в данной области. Особое значение в этой связи имеют исследования по повышению профессиональной компетентности педагогических кадров.*

**Ключевые слова:** *психологическая компетентность, "Я-концепция", социальное восприятие, рефлекс, стресс, агрессия, альтруизм, агрессивность, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность.*

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, shuningdek, bunga ta'sir qiluvchi omillarning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ushbu soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *psixologik kompetentsiya, ijtimoiy idrok, refleks, stress, tajovuzkorlik, altruizm, tajovuzkorlik, ijtimoiy jasorat, ijtimoiy yetuklik, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya.*

Through examination of scholarly literature within the realm of social psychology addressing the socio-psychological determinants influencing the formation of communicative competence among primary school teachers, our objective was to engage in a theoretical analysis of the social-psychological intricacies oriented towards investigating methodologies for cultivating communicative competence in this professional cohort. It is deemed imperative to critically assess the extant scientific-psychological perspectives pertaining to communicative competence in elucidating its developmental processes among educators at the primary school level [1].

Eminent scholars of international repute, including D. Goleman, D. Myers, K. Rogers, J. Piaget, D. Vygotsky, G. Eysenck, L.F. Bachman, A. Palmer, and Jan Van Ek [2], have systematically explored the components and factors inherent in this complex issue. Initial scrutiny underscores that scholars undertaking investigations into the functions of communicative competence, such as A.A. Bodalev, A.A. Derkach, N.I. Shevandrin, V. Shtern, E.S. Mikhailova, N.V. Kuzmina, N.D. Lakosina, T.V. Kudryavtsev, A.K. Markova,

N.V. Bakhmanova, V.G. Bogin, V.A. Slastenin, and others, endeavor to interpret its functions within a defined framework based on the nuanced characteristics of communicative competence [3].

Cognitive competence, herein understood as the ability to surmount psychological obstacles in the course of professional activities, adeptly solve professional tasks, navigate through challenging situations employing diverse psychological methodologies, accurately assess situations, and synthesize information, assumes paramount significance.

Communicative competence, as a foundational element of psychological acumen, assumes a paramount role in shaping interpersonal dynamics. This multifaceted competency encompasses the capacity to not only establish meaningful and positive connections with others but also to express one's thoughts and viewpoints cogently and persuasively. Moreover, it extends to the adept organization and orchestration of communication in varied contexts, contributing significantly to the nuanced fabric of effective interpersonal relationships.

In contrast, intellectual competence manifests as an extensive reservoir of knowledge coupled with the ability to judiciously apply this cognitive wealth to problem-solving within complex and challenging situations. Particularly pertinent in the realm of healthcare, medical professionals are mandated to possess a comprehensive understanding of psychology, including aspects related to individual personalities, communication dynamics, and other facets of the discipline. The judicious application of such psychological insights becomes imperative in fostering meaningful and therapeutic interactions with patients and the broader community.

Further delving into the intricacies of professional competence, social competence emerges as a distinctive attribute encompassing the adeptness to foster high-level social adaptation. This proficiency extends beyond the mere articulation of ideas and opinions, emphasizing a holistic ability to positively engage in various social spheres. Successful cultivation of personal authority within the social milieu further underscores the significance of social competence in navigating the complexities of social life.

In essence, the amalgamation of communicative, intellectual, and social competencies forms a cohesive framework for professionals, particularly those in the medical field, to navigate the intricacies of interpersonal relationships, problem-solving, and societal engagement with sagacity and proficiency.

Self-psychological competence encapsulates a multifaceted ability, encompassing the adept management of one's own behavior, a judicious evaluation of personal attributes, and the nuanced engagement in self-assessment and self-regulation. This intricate construct holds considerable significance in the realm of psychological studies, reflecting an individual's capacity to navigate and regulate their own psychological and behavioral processes.

In the scholarly domain, American researchers L. Strauss and J. Moreno contribute to the discourse by characterizing competence as a holistic amalgamation of skills essential for the proficient execution of specialized professional activities. Their conceptualization extends beyond mere skill acquisition, delving into the cognitive orientation that emerges as a byproduct of embodying a profound sense of responsibility for the manifestation and application of these acquired skills. This nuanced perspective underscores the interplay between cognitive processes and a heightened sense of professional responsibility.

Within the academic discourse, there exists a notable effort by several scholars to explicate socio-psychological competence by establishing a correlation with the possession of professional knowledge. The nexus between cognitive acumen and the effective navigation of social and psychological dimensions is a theme that permeates this exploration, shedding light on the intricate interplay between intellectual proficiency and adept social functioning.

Turning our attention to the realm of education, particularly the formative years in primary school, a notable gap in research becomes apparent. The scant attention devoted to examining and developing the psychological mechanisms that facilitate the cultivation of communicative competence among primary school teachers is evident upon a comprehensive analysis of the existing literature. This dearth of research warrants consideration, as communicative competence stands as a cornerstone in fostering effective teacher-student interactions and, consequently, has far-reaching implications for educational outcomes.

The outcomes derived from the aforementioned scientific-theoretical analysis prompt a reflection on the broader implications of communicative competence among primary school teachers within the scientific literature. The paucity of dedicated research in this domain underscores the need for a more concerted scholarly effort to unravel the intricate interplay between psychological mechanisms and communicative proficiency in the educational context.

Self-psychological competence constitutes a multifaceted and nuanced capacity, encompassing the adept management of one's own behavioral responses, a discerning evaluation of personal attributes, and the sophisticated engagement in self-assessment and self-regulation. This intricate construct holds substantial



significance within the purview of psychological studies, as it reflects an individual's ability to effectively navigate and regulate their psychological and behavioral processes, thereby contributing to their overall well-being and interpersonal interactions.

In the scholarly discourse, the contributions of American researchers L. Strauss and J. Moreno serve to enrich our understanding of competence by characterizing it as a holistic amalgamation of skills essential for the proficient execution of specialized professional activities. Moving beyond the mere acquisition of skills, their conceptualization delves into the cognitive orientation that emerges as a natural byproduct of embodying a profound sense of responsibility for the manifestation and application of these acquired skills. This nuanced perspective not only underscores the interconnectedness of cognitive processes but also highlights the pivotal role of a heightened sense of professional responsibility in shaping and directing these cognitive abilities.

Within the academic arena, a notable endeavor by various scholars to elucidate socio-psychological competence involves establishing a correlation with the possession of professional knowledge. This linkage reflects a recognition of the intricate interplay between cognitive acumen and the effective navigation of social and psychological dimensions. The exploration of this nexus brings to light the profound implications that intellectual proficiency has on adept social functioning, emphasizing the symbiotic relationship between cognitive prowess and social competency.

Directing our focus towards the educational landscape, particularly within the formative years of primary school, a conspicuous lacuna in research becomes evident. The limited attention dedicated to examining and developing the psychological mechanisms that facilitate the cultivation of communicative competence among primary school teachers underscores a significant gap in the current scholarly landscape. Communicative competence, as a cornerstone in fostering effective teacher-student interactions, assumes a pivotal role in shaping the educational experience and, consequently, holds far-reaching implications for educational outcomes.

In conclusion, the insights gleaned from the aforementioned scientific-theoretical analysis prompt a contemplation of the broader implications associated with communicative competence among primary school teachers within the scientific literature. The identified research gap underscores the exigency for a more concerted scholarly effort to unravel the intricate interplay between psychological mechanisms and communicative proficiency in the educational context, with potential ramifications for pedagogical practices and student learning outcomes.

#### References:

1. Кузьмина Н.В. Методы исследования педагогической деятельности. – Л., 1970.
2. Жуков Ю.М., Петровская Л.А., Растяжников П.В. Диагностика и развитие компетентности в общении. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1990. – 368 с.
3. Куницына В.Н. Потребности и мотивы личности // Психология. Учебник (под ред. А.А. Крылова), М.: Проспект, 1998. - С.188-195.
4. Белицкая Г.Э. Социальная компетентность личности. // Сознание личности в кризисном обществе -М.,1995. -122 с.
5. Qobilovna A. M. (2023). Communicative competence as a factor of teacher's professional competency. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(09), 32-44.
6. Ataulayeva M. (2023). Communicative competence as a factor of personal and professional development of a future specialist. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(10), 109-114.
7. Qobilovna A. M. (2021). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetentlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue), 102-105.
8. Qobilovna A.M. (2023). Program for the development of factors of communicative competence of primary school teachers. *International Journal of Pedagogics*, 3(11), 131-137.
9. Qobilovna A.M. (2023). Program for the development of primary school teachers'communicative competence factors. *International Journal of Pedagogics*, 3(12), 169-175.
10. Djalilova Z. (2022). Politeness in women's discourse in english and uzbek languages. *Academic research in modern science*, 1(11), 29-34.
11. Джалилова З. (2022). Реализация максим вежливости в английском и узбекском диалогах. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(21), 22-33.

12. Obidovna D.Z. (2022). A Speech Etiquette Formula for the Gender Communication Strategy. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 44-50.
13. Djalilova, Z. (2022). Discursive elements and the category of politeness. *Academic research in modern science*, 1(12), 8-14.
14. Джалилова З.О. (2022). Нутқ харакатларида хушмуомалаликнинг гендер хусусиятлари. *Международный журнал искусство слова*, 5(5).

## O'SMIRLAR INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI IJTIMOY QO'RQUVNI BARTARAF ETISH USULLARI

*Badritdinova Madina Baxromovna,*

*Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada o'smirlar intellektual rivojlanishiga innovatsion yondashuv orqali ulardagi ijtimoiy qo'rquvni bartaraf etish usullari, o'qitishga texnologik yondoshuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi, zamonaviy ta'lim texnologiyasida innovatsion yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning tafakkur uslubiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini samarali diagnostika qilishni ta'minlash va ularni rivojlantirish maqsadida pedagoglar, amaliy psixologlar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *fobiya, innovatsion yondashuv, tafakkur, jarayon, ta'lim, psixologiya, o'smirlik, individual xususiyat.*

## МЕТОДЫ УСТРАНЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО СТРАХА ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМУ РАЗВИТИЮ ПОДРОСТКОВ

*В данной статье рассмотрены методы преодоления социального страха у подростков посредством инновационного подхода к интеллектуальному развитию, применения технологического подхода к обучению в образовательном процессе путем объединения его с идеями узбекской народной педагогики, повышения качества подготовки кадров в мировом образовании. особое место в согласовании со стандартами, подчеркнута важность инновационного подхода в современных образовательных технологиях. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации для педагогов и прикладных психологов, позволяющие обеспечить эффективную диагностику индивидуальных особенностей стиля мышления учащихся и их развитие. Статья предназначена педагогам и психологам.*

**Ключевые слова:** *фобия, инновационный подход, мышление, процесс, образование, психология, подростковый возраст, индивидуальная особенность.*

## METHODS OF ELIMINATING SOCIAL FEAR THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH TO ADOLESCENT INTELLECTUAL DEVELOPMENT

*In this article, methods of overcoming social fear in adolescents through an innovative approach to intellectual development, applying the technological approach to teaching to the educational process by combining it with the ideas of Uzbek folk pedagogy, improving the quality of personnel training in world education its special place in coordination with standards, the importance of innovative approach in modern educational technology is highlighted. In addition, suggestions and recommendations for pedagogues and applied psychologists have been developed in order to ensure effective diagnosis of individual characteristics of students' thinking style and to develop them. The article is intended for pedagogues and psychologists.*

**Keywords:** *phobia, innovative approach, thinking, process, education, psychology, adolescence, individual characteristic.*

**Kirish.** Bugungi islohotlar davri o'qitishning samarali metodlarini yaratishni, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg'ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'lim sohasiga ham milliy didaktik nuqtayi nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflagan edilar: “Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi” [1; 15-b.]. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, pedagogik jarayondagi ta'lim va tarbiya samaradorligini

oshirish uchun o'qitish sifatini tubdan yangilash, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo'lga qo'yish, o'zaro sog'lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz zarurdir.

O'quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi ular tafakkurining tezligi, izchilligi, mazmundorligi, mustaqilligi, chuqurligi va boshqa bir qator xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurga xos kognitiv uslubini o'rganish va diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

**Adabiyotlar tahlili.** O'smirlik davridagi bolalarda ta'lim jarayonida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki, bu davrda o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'lib, ilmiy nazariy bilimlarni egallab olishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'la boshlaydi.

O'smirlar tafakkurining rivojlanishini ko'pgina psixolog olimlar turlicha mexanizmlar, manbalar, omillar (faktorlar) bilan bog'lab tushuntiradilar. Masalan, atoqli psixolog P.P.Blonskiy o'smirlarning aqliy rivojlanishini to'g'ridan-to'g'ri maktab o'quv dasturlarining mazmuniga bog'lab talqin qilishga intiladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi deydi [3; 98-b.].

J.Piajening ta'kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi” [6; 47-b.]. Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan o'smir tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi.

N.S.Leytesning fikricha, tevarak-atrof, borliq, jamiyat, tabiat, mikro va makro muhitdagi narsalar hamda hodisalar o'rtasidagi ichki bog'lanishlar, munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni aks ettirish, voqelikni ijodiy tarzda qayta o'zgartirish imkoniyati o'smir tafakkurini rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [7; 264-b.].

11-12 yoshdan boshlab o'smirlarda mantiqiy fikrlash rivojlana boshlaydi. O'smirlar bu yoshda kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydilar. Xolodnayaning fikricha, o'smirlar tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi, uning intellektual jihatdan rivojlanishini ham belgilab beradi.

O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda atrofdagilar tomonidan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar, hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smirlarning tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada o'smirlar intellektual rivojlanishiga innovatsion yondashuv orqali ulardagi ijtimoiy qo'rquvni bartaraf etish usullari, o'qitishga texnologik yondoshuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi, zamonaviy ta'lim texnologiyasida innovatsion yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar uchun mo'ljallangan.

**Tahlillar va natijalar.** D.B.Bogoyavlenskaya o'smirlik davridagi intellektual faollikning uchta darajasi aniqlaydi:

1. Reproktiv daraja. Yuqori chegarasi - qiziqish, quyi chegarasi - sinalayotgan odamning vazifaga nisbatan sustligi. O'zlashtirilgan holatlar chegarasidan, doirasidan chiqadigan umumiy xulosalarning qariyb yo'qligi.

2. Evristik daraja. Faoliyatni takomillashtirishga intilish paydo bo'ladi, yechimning yangi usullarini qidirishga, topishga nisbatan moyillik (intilish) vujudga keladi.

3. Kreativlik darajasi. Bu intellektual faollikning yuqori darajasi bo'lib, uning yordamida vazifani yo'lga qo'yishdagi tashabbus, umumiy nazariy xulosalar, o'zaro bog'liqliklar, sabab-oqibatlar aniqlanadi [5; 24-b.].

J.Piajening fikricha, o'smir yoshdagi bolalarda intellektning asosiy funktsiyalari; uyushqoqlik, tartiblilik rivojlana boshlab, ular intellektning funktsional invariantligi deb yuritiladi. Uning fikricha, bu davr konkret operatsiyalar davri bo'lib, predmetlar bilan aloqada ekanligini ta'kidlaydi [4; 36-b.]. Konkret operatsiyalar davri asta-sekinlik bilan formal (rasmiy) operatsiyalar davri bilan o'rin almashina boshlaydi. Intellekt davrining o'zaro o'rin almashishi tafakkur o'sishini bildiradi.

N.A.Menchinskaya maktab o'quvchilarining aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash jarayonida ularning

mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish holatini belgilashga harakat qiladi. Muallif bu asnodda o'zlashtirish sur'atiga, yaqqollik va mavhumlikka, yaqqol va mavhum tafakkurning o'zaro aloqasiga, analitik-sintetik faoliyat bosqichiga alohida ahamiyat beradi. Bunda tadqiqotchi uchun eng muhim mezon o'quvchilar fikrini xususiydan umumiy mulohazaga almashtirish imkoniyati hisoblanadi. Uning fikricha, aqliy taraqqiyot o'z ichiga o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati, o'qish motivlari, bilishga qiziqish masalalarini qamrab olishi kerak, deb hisoblaydi [8; 74-b.].

E.N.Kabanova-Meller metodi bo'yicha o'quvchilarning tafakkurining rivojlanishi 3ta mezon (o'lchov, parametr) bilan aniqlanadi:

1. Ta'lim jarayonida shakllantiriladigan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyat usullarida yangi sharoitga ko'chish muammosining mavjudligi (har xil yo'llari, ko'rinishlari, turlari va hokazo).

2. O'quvchilarda tarkib topgan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyat usullaridan shaxsning o'z aqliy faoliyatini o'zi bevosita idora qilishga, boshqarishga o'tishi.

3. Tashqi ta'sir natijasida o'quvchilarning bilishga qiziqishi qay darajada ekanligini aniqlash va boshqalar [9; 89-b.].

**Xulosalar.** Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, maxsus ravishda tashkil etilgan ta'lim tizimi natijasida, ya'ni nazariy tafakkurga asoslanib, mazmundor umumlashtirishga suyanib, umumlashgan o'quv usulini shakllantirish orqali o'quvchilarning mavhum fikr yuritish darajasini rivojlantirish mumkin.

Bugungi kunda respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishi munosabati bilan o'smir yoshdagi o'quvchilarda amaliy tafakkur ham ancha erta rivojlanmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar: tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar kiradi. Bu sifatlarni bolalarda rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq, ularning qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishda qo'llash orqali amalga oshirish mumkin. O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu ularning temperamentiga ham bog'liq boladi. Barcha o'smirlarni tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularga biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan uni yechishning umumiy qoidalarini o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsidagi va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgolanadi.

O'quvchilarning tafakkur uslubiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini samarali diagnostika qilishni ta'minlash va ularni rivojlantirish maqsadida pedagoglar, amaliy psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir ta'lim muassasasi amaliy psixologlari tomonidan o'quvchilarning bilish jarayonlari, xulq-atvori va o'zaro munosabatlaridagi individual xususiyatlarni diagnostika qilishning psixodiagnostik metodlari bazasini yaratish;

2. O'quv faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish orqali ularning tafakkuriga xos individual xususiyatlarni rivojlantirishga imkoniyat beruvchi vaziyatlarni yaratish;

3. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatuvchanlikka, atrof-muhitdagi har qanday yangiliklarga qiziqish bilan munosabatda bo'lishga, ijodkorlik va muloqotchanlikka o'rgatib borish;

4. Ta'lim muassasalaridagi o'quv mashg'ulotlari sifatini yaxshilash orqali tafakkur uslubiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini rivojlantirishga erishish lozim.

5. Tolerantligi quyi bolalarni o'qitishda ijodkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, bu qiyin vaziyatga har xil tomondan qarashga yordam beradi. Kognitiv uslublar asosida o'rganishning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi - o'quvchilar uslub ko'rinishlarining profilini va darajasini o'zgartirish. Uni hal qilishda o'qituvchi nafaqat «xavf guruhi» o'quvchilari uchun qulay, mojarolarsiz o'quv muhitini yaratibgina qolmay, balki ularning imkoniyatlarini rivojlantirishi, ma'lumotni o'zlashtirish usullari ro'yxatini kengaytirishi, tevarak-atrofga moslashuvini yaxshilashi kerak.

6. Ijtimoiy qo'rquvga moyilli o'qituvchilar muhim detallarni ajratishga qiynalishlarini hisobga olib, ta'lim jarayonida o'rganilayotgan hodisaning muhim, asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish lozim. Shuningdek bunday kognitiv uslubdagi o'quvchilar bilimlarni ko'chirishda qiyinchilik his qilishlarini hisobga olib, muammoli-izlanuvchilik metodlarini, reproduktiv ta'lim bilan birga olib borish, mavzuni yanada mustahkamlash uchun ko'proq topshiriqlar berish maqsadga muvofiq.

Bu tavsiyalarga amal qilish jismoniy va aqliy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, barcha xususiyatlariga ko'ra boshqalardan ajralib turuvchi shaxsni tarbiyalash imkonini beradi. Taqdim etilgan

ilmiy-uslubiy tavsiyalar ijtimoiy faol, yuqori intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalash uchun zamin yaratadi.

**Adabiyotlar:**

1. Бадритдинова, М. (2019). Когнитив услуб билан боғлиқ метауслубларнинг ривожланиши. Илмий ахборотнома.
2. Бадритдинова, М. (2019). Когнитив услуб билан боғлиқ метауслубларнинг ривожланиши. Илмий ахборотнома.
3. Бадритдинова, М. Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. *Oriental Art and Culture*, (II), 158-161.
4. Бадритдинова, М. (2015). Талабалар интеллектуал фаолиятини ўрганишга нисбатан системали ёндашув. Илмий ахборотнома.
5. Turg'unboeva, A., Badritdinova, M., G'aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). Description of the methods of diagnosing the cognitive style of pupils in the educational process. In *E-Conference Globe* (pp. 306-308).
6. Badritdinova, M. B. (2019). The development of metamethods associated with cognitive methods. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(6), 483-489.
7. Badritdinova, M., Mo'Minova, D., & G'Aniyeva, N. (2021). Kichik maktab yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 433-436.
8. Badriddinova, M. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini barqarorlashtirish usul va vositalari. ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.
9. Badritdinova, M. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur uslubini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari. ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.
10. Badritdinova, M. B., & Rustamova, T. N. (2021). Psychological characteristics of development of thinking in students in the educational process. *Science and Education*, 2(2), 331-337.
11. Badritdinova, M. (2015). Ta'lim jarayonida idrokga xos kognitiv uslub shakllanishining psixologik mexanizmlari. Илмий ахборотнома.
12. Badritdinova Madina Baxromovna, B., & Gulsanam, K. (2022). Xomiladorlikni rejalashtirishda psixologik tayyorgarlik. *Scientific Impulse*, 1(5), 1867-1873.

## TA'LIM RIVOJLANISHINING HOZIRGI SHAROITDAGI PEDAGOGNING INNOVATSION FAOLIYATI

*Hotamova Maftuna Madatovna,*

*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti*

*Maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyati va unga qo'yilgan talablar, innovatsiya tushunchasining mohiyati, ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarining ushbu jarayonga tayyorgarligi, pedagogning innovatsion muhitni yarata olish mahorati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim islohotlari, malakali kadr, innovatsiya, innovatsion muhit, texnologiya, jarayon, interfaol metod, zamonaviy yondashuv, ijodiy faoliyat.

## ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕДАГОГА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

*В статье рассказывается о приоритетных направлениях системной реформы высшего образования в Республике Узбекистан, подготовке высококвалифицированных кадров, модернизации высшего образования, инновационной деятельности учителя в образовательном процессе на основе передовых образовательных технологий и предъявляемых к нему требованиях, сущности понятия инновации, подготовке педагогических коллективов образовательных учреждений к этому процессу, умении педагога создавать инновационную среду речь идет.*

**Ключевые слова:** образовательная реформа, квалифицированный персонал, инновации, инновационная среда, технология, процесс, интерактивный метод, современный подход, творческая деятельность.

## INNOVATIVE ACTIVITY OF THE TEACHER IN THE CURRENT CONDITIONS OF EDUCATIONAL DEVELOPMENT

*The article will talk about the priorities of the systematic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, the training of highly qualified personnel, the modernization of Higher Education, the innovative activities of the teacher in the educational process based on advanced educational technologies and the requirements imposed on him, the essence of the concept of innovation, the preparation of pedagogical teams of educational institutions.*

**Keywords:** educational reform, qualified frame, innovation, innovative environment, technology, process, interactive method, modern approach, creative activity.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettirdi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoriylashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berildi. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz

kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.” [2]

**Asosiy qism.** O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat”ga quyidagicha ta‘rif berilgan: “innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta‘minlaydigan yangi ishlanma”, “innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha faoliyat” deb, ta‘rif berilgan [2].

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. O‘zining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o‘rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [6].

**Adabiyotlar tahlili.** Ingliz professori V.R. Spenser “Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin” [10] deb ta‘rif beradi. Rossiyalik olimlar A.Kulagin “Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalaridagi yangilikdir” [14] deb ta‘rif bergan. D.Foreman “innovatsion imkoniyatlar - bu muntazam ravishda kombinatsiyalashgan bilimlarni kashf qilish, ulardan foydalanish demakdir. Bunda kombinatsiyalashgan jarayonlarda asosiy e‘tibor beriladigan jihat – bu bilimdir” [10] deb ta‘kidlaydi. I.Balabanov “Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir” [11] deb ta‘riflagan.

J.Yo‘ldoshev “innovatsiya (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishni o‘zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi”, innovatsion faoliyat esa, “yangi ijtimoiy talablar bilan a‘nanaviy me‘yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me‘yorlarni mavjud me‘yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualari muommallarni yechishiga qaratilgan faoliyat” [3] deb ta‘kidlaydi. Tadqiqotchi E.G‘affarov “Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatini ta‘minlovchi yangilikdir” [12] deb ta‘rif bergan. Innovatsion faoliyat bu avvalo ijodiy faoliyat hisoblanadi. Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta‘limning ham mazmun hamda tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlarning asosi bo‘lib oxirgi uch, o‘n yillikda A.A.Abdulina, YE.V.Bondarevskaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slasteninlar tomonidan pedagogik ta‘lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo‘ldi.

Pedagogik ta‘lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo‘nalishlari ichida xususiy innovatsion nazariyani, shaxsiy va xususiy yo‘nalishli ta‘lim sohasidagi ishlanmalarni, ta‘limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta‘limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Oxirgi o‘n yillikda pedagogik innovatsiyani nazariy asoslari ishlab chiqilyapti. Ayniqsa, K.Anglovskiy M.V. Klarin, V.Y.Lyudis, M.N.Potashnik, S.D.Polyakov, T.I.Shamova, O.T.Xomeriki, N.R.Yusup-bekova, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida pedagogik professionalizmi rivojlantirishning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash va oliy ta‘limda o‘qitish jarayonida bo‘lg‘usi o‘qituvchining innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning bahs mavzusi bo‘lib qolmoqda. Shaxsiy yo‘nalishli ta‘lim konsepsiyasi pedagog olimlardan L.S.Vigotskiy, A.A.Leontev, D.B.Elkonin, E.V.Ilenko, V.V.Davidov, G.P.Shedrovitskiy, A.G.Asmolovning madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvga asoslanadi va bugungi kunda umummetodologik jihatdan V.V.Serikov, V.G.Sukerman, V.P.Zinchenko, L.N.Kulikovlarning ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati yuqori. Tashkiliy-boshqaruv darajasida ushbu muammo bilan M.N.Kostikov, V.A.Boltovlar shug‘ullangan. Ushbu konsepsiyaning yetakchi g‘oyalaridan biri pedagogik ta‘limda predmetli tayyorlashning roli va o‘rnini anglab yetish, predmetlarni o‘zlashtirish bilan asosiy e‘tibor o‘quvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida predmetni o‘qitishga asosiy maqsad qaratiladi.


Ushbu konsepsiyaning boshqa bir g‘oyasi o‘quv shakllarini konstruksiyalash bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ta‘lim jarayoni yagona jarayon sifatida qaraladi, (xususiy o‘quv faoliyati) unda materialni anglab yetish va tadqiqot ishi birgalikda bo‘lajak pedagogning shaxsiy pedagogik pozitsiyasi bo‘lib shakllanadi. Mazkur yondashuvda asosiy talablar quyidagi izchillikda: shaxs o‘zi uchun va boshqalar uchun ham asosiy boyluk bo‘lib, bunda ta‘lim-oliy ta‘limdagi yaxlit pedagogik jarayon sifatida yo‘naltirilgan shaxsni



o‘zgartirishga qaratilgan jarayondir.

Bunday ta’limning bosh natijasi egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar emas, balki shaxs o‘shiga qobiliyat, empatik o‘zaro munosabatlar va shaxsiy samaradorlikka qaratilgan yuqori ijtimoiy faollik tushuniladi. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson o‘z faoliyatini ongli tarzda qayta yo‘lga qo‘yadi va buning uchun ta’lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo‘lga qo‘yish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g‘oyasi pedagogik subektivlikni rivojlanishi bilan bog‘liq: talaba “o‘rganuvchi”, “o‘quvchi”, “o‘qitadigan” pozitsiya orqali o‘tadi.

Psixolog olim D.B.Elkoninning ta’biri bilan aytganda, agar oliy o‘quv yurti “o‘qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo‘lish maydoni”, deb qaralsa, u holda ushbu oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta’lim olayotgan talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o‘zini qayta qurish subyekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi. O‘qituvchi faoliyati ham o‘zgaradi: “usta” ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi “fasilitator” pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko‘ra innovatsion va integrativ ta’lim texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib qoladi. Har bir pedagog o‘z darsini ehtiyojlarga asoslangan holda loyihalash, o‘z fanini o‘qitish sohasida tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirishga oid kasbiy kompetentlik va pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak.



1-rasm. O‘quv jarayonida inrefaol metodlarni qo‘llash tizimi

Oliy pedagogik ta’limni ko‘p bosqichli mazmuni bizning sharoitimizda ikki darajali model: umumiy - bazaviy-bakalavriat va to‘liq - magistratura ko‘rinishida amalga oshiriladi va ular quyidagi talablarni o‘zida aks ettiradi:

- yaxlit tizim ko‘rinishiga ega;
- bozor iqtisodiyoti talablariga to‘la javob beradi;
- ta’limni ko‘pgina yo‘llari orqali egallash imkonini beradi;
- o‘qiyotganlarni akademik va kasbiy yo‘naltirishga rag‘batlantiradi;
- uzluksiz bilimlarni egallashga yo‘naltiradi;
- kasbiy mahorat va kompetentlikka ega bo‘lishning boshlang‘ich ko‘nikmalarini tarkib toptiradi;
- shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga undaydi;
- o‘z-o‘zini anglash, uning qimmatli yo‘nalishlarini va hayot tarzini belgilash asosida shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlashda:

- ilmiy asoslangan nazariya bo‘yicha talabalar faolligini ta’minlash;
- zamonaviy yondashuvlarga asoslanish;
- yuqsak axloqiy sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘zini-o‘zi va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qilish;

- boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga ega bo'lish;
- psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatli bo'lish;
- vaziyatni obyektiv baholash;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni hal qilish;

-talabalar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlashda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Oliy ta'limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to'plandi, o'quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o'rtasida “subyekt-subyekt” munosabatlari rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'layotganini kuzatish mumkin. Ushbu tizim orqali talabalarning mustaqil ishlashga ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta'minlansa, pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o'sib borishi kuzatiladi. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim usullarini olib kirish bir qator talablarga asoslanadi (1-rasmga qarang).

Yuqorida taklif etilayotgan tavsiyada ko'plab kuzatilgan tajribalarga tayangan holda ta'lim muassasalari pedagogik jamoalarining ushbu jarayonga tayyorgarlik va kirishishini samarali ta'minlovchi aniq boshqaruv harakat tizimini belgilab olish imkonini ko'rsatish mumkin. Pedagogning innovatsion muhitni yarata olish mahorati har qanday holatda faqat individual xarakter kasb etadi. Shunga ko'ra aniq qadamlarni belgilab olishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1) innovatsion jarayonlarni amalga oshirish uchun hamma pedagogik jamoa a'zolarini alohida tayyorlash zarur, bu esa o'z yo'lida barcha ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan alohida e'tibor va qo'shimcha harakat qilishni talab etadi, chunki har bir ishtirokchini ham pedagogik, ham texnik shakllangan motivatsiya va rejalashtirilgan yangilikni ijobiy o'zlashtirishning muhim sharti va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

2) rivojlanish rejimini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan barcha boshqaruv qarorlari jamoaviy bo'lishi zarur, chunki ayni mana shu shartlar ko'pchilik pedagogik jamoani innovatsion jarayonga tezkor, ishonchli va muvaffaqiyatli kirishini ta'minlaydi.

Ta'lim muassasalarini rivojlanish rejimiga o'tkazish jarayonida quyidagi bosqichlarni e'tiborga olish kerak:

1-bosqich. Bo'lg'usi o'zgarishlar yangiliklarning muhimligini, zarurligini va shart ekanligini ta'lim muassasalarining boshqaruv guruh a'zolari, ya'ni kelajak g'oyalarni “rivojlantiruvchi” va “generator” larini mavjudligini anglab yetishdan iborat. Tajriba shuni ko'rsatadiki, keyingi harakatlar uchun yetakchi tashabbuskor bo'lib, yetakchi o'zining vakolatiga ega –maktab direktori hisoblanadi.

2-bosqich. Ular tomonidan nafaqat ma'muriy (menejerlik) guruhini tuzish muhim va zaruriy shart bo'lib, shuningdek u yoki bu yangilikni tatbiq etuvchi metodik va texnologik tayyorgarlikka ega g'oyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi pedagogik jamoani (komandani) shakllantirishdan iborat.

3-bosqich. Pedagogik jamoani motivlashtirish va o'qituvchilarni innovatsion jarayonlarga tayyorgarligini shakllantirish. Bizning maktablarimizda bunday o'zgarishlarga qanday ehtiyoj bor? Bunday o'zgarishlardan biz o'qituvchilar nimaga ega bo'lamiz? Bularning hammasi nima uchun zarur? Yuqoridagi savollarga mazkur bosqichda javob olish mumkin. Bunga ushbu pedagogik jamoani 5/4 a'zolari qo'llab-quvvatlagandagina va tushungandagina erishish mumkin. Bu shunday “tanqidiy maydon” bo'lib, bularning bildirgan fikrisiz u yoki bu o'zgarishlarni boshlash o'rinsiz va xavfli hisoblanadi. Umuman olganda ushbu bosqichda ta'lim muassasasining rahbari pedagogik va texnik xodimlarning motivatsiya shakli va metodlarini belgilab beradi.

4-bosqich. Maktabning muammoli tahlili, “muammoli maydon” qurish va o'zining, ta'lim muassasasining bugungi kundagi asosiy (eng kerakli) muammosini aniqlashdan iborat.

5-bosqich. Muammoli tahlil va asosiy muammoni aniqlash natijalariga ko'ra – yaqin kelajak uchun maktab rivojlanishining loyiha g'oyasini ishlab chiqish. Bu yangilik kiritish obyektini tanlash bo'lib, bu yangilik mazkur maktabni hayotiy zaruriyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ko'pchiligi tomonidan anglab yetilishi zarur. Ushbu bosqichda prinsipial masala: bo'lg'usi innovatsiya sohasi qanday bo'ladi? Bu innovatsiya o'quv yoki o'quv jarayonidan tashqaridagi faoliyatga tegishli bo'ladimi? Bularning ichidan qaysi biri yetakchi? Masalan, tajribaning ko'rsatishicha, darsdan tashqari faoliyat qishloq joylardagi maktablarda bo'lg'usi innovatsiyaning samarali sohasi, hisoblanadi. Lekin, qaysi soha bo'lsa ham ushbu masalani pedagogik jamoaning o'zi belgilaydi. Yangilik kiritish obyektini tanlashga bevosita ta'lim muassasasi belgilagan muammo ta'sir ko'rsatadi.

6-bosqich. Ishlab chiqilgan g'oyani amalga oshirish uchun aniq boshqaruv harakatini aniqlash, ya'ni uni amalga oshirish rejasi va dasturini tuzish kerak bo'ladi.

7-bosqich. Kelajak boshqaruv harakatini korreksiyalash maqsadida loyiha g'oyasini amalga oshirishning dastlabki qadamlarini ko'rsatishdan iborat.

**Xulosa.** Ta'lim muassasalarini rivojlanish rejimiga o'tkazish bo'yicha taklif etilayotgan algoritm eng kamida ikki xil ahamiyatga ega bo'ladi:

birinchidan, bu shakllanish mexanizmi va pedagogik jamoani keyingi innovatsion imkoniyatlarni rivojlanishi hisoblanadi;

ikkinchidan, maktabda rivojlanuvchi pedagogik jamoaning mavjudligi mazkur ta’lim muassasasining rivojlanish rejimini samarali va muvaffaqiyatli ta’minlovchi yetarli jarayon va vosita sifatida kafolatlanadi.

Bugungi globallashuv va davlatlararo raqobat tobora kuchayib, internet va innovatsion texnologiyalar har sohaga chuqur kirib borayotgan, dunyoda an’anaviy jamiyatdan axborotlashgan jamiyat sari harakatlar kechayotgan davrda mamlakatimizda har bir mutaxassisni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda faollik ko’rsatadigan, qiyinchiliklarni qo’rqmasdan yengib o’ta oladigan, raqobatbardosh, o’z Vatanga sodiq shaxs sifatida kamolga yetkazish oliy ta’lim sohasining eng asosiy, ustuvor vazifasi bo’lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24- iyuldagi O‘RQ-630-son “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni..
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ- 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni..
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
6. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M., Direkt-Media, 2007. 4.
6. Santo B. Innovatsiya i globalniy intellektualizm // Innovatsii. — 2006. — № 9; 5.
7. Fatxutdinov R. Innovatsionniy menejment. 6-ye izd. – SPb.: Piter, 2008.
8. Kondratyev N.D. Problemi ekonomicheskoy dinamiki. – M.: Ekonomika, 1989;
10. Innovatsii: teoriya, mexanizm, gosudarstvennoye regulirovaniye: Uchebn. posobiye /Pod red. Y.V. Yakovsa. – M.: RAGS, 2000.
10. Balabanov I. Innovatsionniy menejment. Piter, 2001.
11. Kantorovich L. Sitemniy analiz i nektoriye problemi nauchno-texnicheskogo progressa. M.:Nauka, 1986.
12. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma.– T.:O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
13. G‘affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 10-son. 153-157 betlar.
14. Kulagin A. Otsenka i samootsenka nauchnoy organizatsii. Innovatsionnaya ekonomika. 2011 g. St. 54-55.

## TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJIRIBALARIDAN FOYDALANISH

*Ibrohimova Sunbula Asilbek qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi  
1-bosqich magistranti*

*Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi qiyosiy tahlil qilingan. Ta'limda o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllarini yangilashda Yaponiya, Fransiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar ilg'or xorijiy ta'lim tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim tuzilmasi o'rganilgan. Rivojlangan davlatlar pedagogik faoliyati qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, unda ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish asnosida ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, o'qitishning yangi metodlarini joriy etish xususida fikr bayon etilgan. Shuningdek O'zbekistonning ayni damdagi yutuqlari e'tirof etilib, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi yutuqlari, ta'lim standartlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hamda, jahon tajribalarini qunt bilan o'rganish orqali raqobatbardosh bo'la oladigan milliy ta'lim tizimi tuzilmasi yaratish bo'yicha takliflar berilgan*

**Kalit so'zlar:** xorijiy ta'lim, rivojlangan davlatlar, Yaponiya, Fransiya, AQSH, Germaniya, ilg'or xorijiy pedagogik tajriba, milliy ta'lim tizimi.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

*В данной статье в целях повышения эффективности образования в Узбекистане проводится сравнительный анализ образовательной системы развитых стран. Развитые страны, такие как Япония, Франция, США, Германия, продвинуты в обновлении форм работы, которые теряют свою актуальность в образовании. Изучаются зарубежная образовательная структура, опыт и современная образовательная структура. Сравнительно анализируется педагогическая деятельность развитых стран, в которой при изучении передового зарубежного опыта высказываются мнения о кардинальном изменении качества образования и внедрении новых методов обучения. Также отмечены текущие достижения Узбекистана, представлена информация о достижениях системы образования страны и образовательных стандартах. При этом прозвучали предложения по созданию структуры национальной системы образования, способной быть конкурентоспособной за счет усердного изучения мирового опыта.*

**Ключевые слова:** зарубежное образование, развитые страны, Япония, Франция, США, Германия, передовой зарубежный педагогический опыт, национальная система образования.

## USING THE EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN IMPROVING EDUCATIONAL EFFICIENCY

*In this article, in order to improve the effectiveness of education in Uzbekistan, the educational system of developed countries is comparatively analyzed. Developed countries such as Japan, France, the USA, and Germany are advanced in updating the forms of work that are losing their relevance in education. Foreign educational structure, experience and modern educational structure are studied. Pedagogical activities of developed countries are comparatively analyzed, in which, while studying advanced foreign experiences, opinions are expressed about the fundamental change in the quality of education and the introduction of new teaching methods. Also, the current achievements of Uzbekistan are recognized, and information is provided about the achievements of the country's education system and educational standards. At the same time, proposals were made to create a structure of the national education system that can be competitive by diligently studying world experiences.*

**Keywords:** foreign education, developed countries, Japan, France, USA, Germany, advanced foreign pedagogical experience, national education system.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda ta'lim jarayonida ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, zamonaviy pedagogik tajribalar hamda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'l ochildi. Ushbu imkoniyatlarni kengaytirish

uchun rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi innovatsion ish uslublarini o’rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish va ilg’or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg’or xorijiy tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o’rganish orqali ta’limda o’z dolzarbligini yo’qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo’lish bilan birga uni munosib tarzda yangilashda qo’shimcha boy manbaalarga ega bo’linadi. Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qilib chet el ta’limidagi ibratli jihatlarni mamlakatimiz ta’lim tizimiga olib kirishi orqali taraqqiy etib borayotgan respublikamizda o’quv –tarbiyaviy ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtira olamiz

**Asosiy qism.** O’zbekististonning yangi taraqqiyot davrida jahon miqyosida raqobatbardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yaratish va uni kompleks rivojlantirish maqsadlariga katta kuch va mablag’ sarf qilinmoqda. Ushbu islohotlar va o’zgarishlar natijasi maktab ta’limiga borib taqalmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bayon etilgan quyidagi fikrlar milliy ta’lim tizimini boyitishda yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega: “...Ilm yo’q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to’g’ri yo’ldan adashish bo’ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “ Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz zamonaviy bilimlarni o’zlashtirishimiz, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak ” [1].

Ushbu fikrlarda kelib chiqqan holda rivojlangan davlatlar bilan har jabhada raqobatbardosh bo’la olish uchun ta’limni modernizatsiyalash shuningdek, ta’limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o’rganish, taqqoslash, tahlil qilish, amalda tatbiq etish va ta’lim mazmunini rivojlantirishga yordam berishda doimo izlanishda bo’lishimiz talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda, xorijiy davlatlarning tajribasini o’zlashtirib yangi zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilishimiz kerak. Chet el tajribalarini o’rganishda ularning ijobiy jihatlarni har bir xalqning milliy madaniy mentaliteti, o’ziga xosligi, urf-odatlarini an’analarni saqlagan holda ko’chirishni amalga oshirish lozim. Chunki, G’arbda ta’limning o’zi maqsadga erishish vositasi sifatida qaraladi, Sharqda esa ko’pincha ta’limga axloqiy qadriyatlarni singdirganligi sababli xorijiy pedagogik tajribalarni o’rganishda ushbu jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalombor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e’tibori bu yo’ldagi sa’y-harakatlari bilan o’lchanadi. Bugungi kunda ta’lim mazmuniga bo’lgan e’tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart-sharoitlarga ham bog’liqdir. Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlarning boshlang’ich ta’lim tizimini tahlil qilib o’tamiz.

#### **Yaponiya ta’lim tizimi.**

Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo’yicha dunyoda 2-o’rinda turadi. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868-yillarda mamlakat hukmdori Meydzining o’z oldiga qo’ygan ikki qat’iy shiori: biri- mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi- ilg’or G’arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bosh omili ta’lim tizimini tubdan o’zgartirish va yangilashdan iborat islohotlarga borib taqaladi.

#### **Yaponiya ta’lim tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

- maktabgacha ta’lim;
- boshlang’ich ta’lim;
- kichik o’rta maktab;
- katta o’rta maktab;
- kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- magistratura;
- doktarantura.

Bugungi kunda deyarli barcha boshlang’ich ta’lim davlat maktablarida olib boriladi. Ota-onalar farzandlarini o’z tumanlarida joylashgan maktablarda borishini istamasalar xususiy pullik ta’lim muassasalariga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga qiyin tanlov orqali qabu qilinadi. Davlat maktablarida o’qish bepul garchi shunday bo’lsada, oilalar maktab tushliklari, jihozlar va qo’shimcha kitoblar kabi maktabdan tashqari xarajatlarni to’lashlari kerak.

Yaponiyada maktabga 6yoshdan boriladi. Boshlang’ich maktab ta’limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. O’quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. O’qitiladigan akademik bo’lmagan fanlar orasida san’at(yapon xattotligi), qo’l san’atlari, musiqa, hayku yoki yapon an’anaviy she’riyati, uy qurilishi, jismoniy tarbiya va axloqiy tarbiya kiradi. Axbarot texnologiyalari ta’limni yaxshilash uchun tobora ko’proq foydalanilmoqda va aksariyat maktablar Internetga kirish imkoniyatiga ega. Boshlang’ich ta’lim majburiy va bepul. Boshlang’ich maktablar 7:50da boshlanadi, darslar esa 8:30da boshlanadi. Har bir kunning birinchi 15daqiqasi maktabdagi yig’ilish yoki e’lonlar uchun

ajratiladi. Mashg'ulotlar har biri 40dan 45minutgacha bo'lib, ular orasidagi tanaffus 5dan 10minutgacha. O'quv yili 3ta chorak-trimestrga bo'linadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uyga vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, shunday bo'lsa-da Ta'lim Vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida.

Yaponiya boshlang'ich maktabi ko'rinishidan samarali, lekin ba'zi muammolarsiz emas, xususan o'quvchilarning darsga qatnashmaslik muammolari, o'qishni rad etish holatlari, dars davomida bezovtalik miqdori kun sayin ortib bormoqda. Bundan tashqari uzoq vaqtdan beri Yaponiyada bo'lmagan va Yaponiyaga qaytgan yosh bolalarning chet elda o'tkazgan davrlari muammodir. Hukumat xorijda istiqomat qiluvchi yapon bolalarining ta'lim olishi bilan ham shug'ullanadi.

#### **Fransiya ta'lim tizimi.**

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning butun ta'lim tizimi uzoq tarixga ega. 2004-yil 15-martda yangi Ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasbkorga ega qilishdan iboratdir.

#### **Fransiya ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

- maktabgacha ta'lim;
- boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim;

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Sinflarning o'rtacha haftalik dastlari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o'rtacha soni 35-40 nafar, o'quv yili 5 chorakka bo'linadi. O'quv yili sentabr boshidan iyul oyining boshigacha davom etadi. Maktab taqvimini butun mamlakat bo'ylab standartlashtirilgan.

Fransiyada boshlang'ich sinflarda o'qish asosan 3 bosqichga bo'linadi:

-Tayyorlov bosqichi — 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqaga, mehnat qilishga o'rgatiladilar.

-Navbatdagi bosqich — elementar kurs bo'lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o'qituvchi ishlaydi, elementar bosqichda ikki o'qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi.

-Boshlang'ich maktabning 3-bosqichi — chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Fransiyadagi barcha ta'lim dasturlari Milliy ta'lim vazirligi tomonidan tartibga solinadi. O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga to'la erkinlik ham beriladi.

1990-yildagi hukumat qaroriga muvofiq, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari bir yilga, yarim yilga, choraklar bo'yicha alohida-alohida tuzilishi mumkin. So'nggi yillarda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga puxta bilim berish, ota-onalar tomonidan esa o'z farzandiga yetarli sharoit yaratish, ularning bilim olishlariga mas'uliyat bilan qarash ifodalangan bitimlar tuzish odat tusiga kirib bormoqda.

#### **AQSH ta'lim tizimi.**

Ta'lim tizimlariga mablag' ajratish bo'yicha AQSH dunyo mamlakatlari o'rtasida yetakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim dasturi shtatdan shtatga va maktab okrugiga qarab farq qilishi mumkin, ammo barcha shtatlar qonun bo'yicha davlat maktablari o'quvchilarini kerakli minimal ta'lim darajasiga erishishlarini tekshirishlari kerak.

#### **Qo'shma Shtatlardagi ta'lim alohida bosqichlardan iborat :**

- maktabgacha ta'lim;
- boshlang'ich ta'lim;

- o'rta ta'lim;
- oliy ta'lim.

Taxminan 5 yoshdan bolalar boshlang'ich maktabga boradilar (inglizcha: elementary school), nol sinfga (nemischa: kindergarten). Ko'pgina shtatlarda nol sinfi ixtiyoriydir. Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo'lib, ular o'quvchilarning umumiy savodxonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi. Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni to'raligicha har bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ich maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. Ya'ni boshlang'ich ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin. O'quvchilar shu davr ichida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiyena, matematika, hunarmandchilik va san'at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. Maktablarda o'quv yili 180 kun, bir soat dars 45-50 minutni tashkil qiladi. O'quvning boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq o'quvchilar uchun turli to'garaklar, sayohatlar tashkil etiladi, lekin ular pullik hisoblanadi. Kam ta'minlangan oila farzandlariga bu borada ba'zi imtiyozlar beriladi. AQSh maktablarida o'qish har bir o'quvchi uchun faxr-iftixor bo'lishiga o'quvchi bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonch hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi.

### **Germaniya ta'lim tizimi.**

Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlardan iborat bo'lib, har bir shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud. Germaniya ta'lim tizimi “Grundgesetz” asosiy qonunining qoidalari asosida ishlaydi. Federal ta'lim, Madaniyat va fan vazirliklari ta'lim, fan va san'at siyosati yo'riqnomalarini ishlab chiqish, tegishli qonunlar va ma'muriy qoidalarni qabul qilish uchun asosiy vakolatdir.

### **Germaniya ta'lim tizimi quyidagicha:**

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- oliy ta'lim.

Grundschule (boshlang'ich maktab) 6 yoshli bolalar uchun maktab ta'limining majburiy ta'limini taklif qiladi.[2] Germaniyada ikkita boshlang'ich ta'lim tizimi mavjud. 5 kunlik maktab haftasida ta'limgacha bo'lgan tizimda yiliga 188 ta o'quv kuni mavjud. 6 kunlik maktab haftasidagi maktabgacha ta'lim tizimida har oyda 2 shanba davomida o'qitishni ham o'z ichiga olgan holda yiliga 208 kun o'qitish mavjud. Boshlang'ich maktab o'quvchilari 1 haftada 20 dan 29 gacha kurslarga va 20-22 birinchi kursga borishlari shart. Boshlang'ich maktab kurslari odatda 45 daqiqagacha davom etadi. 1 kun davomida 6 tagacha kurs o'qitilishi mumkin. Nemis tili boshlang'ich ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilar o'rtasida muhim tushuncha, ko'nikma, qobiliyat va asosiy kompetentsiyalarni rivojlantirishdir [3] Nemis boshlang'ich maktablarida o'qitiladigan fanlar - nemis tili, matematika, umumiy fanlar, chet tili, san'at, hunarmandchilik dizayni, musiqa, sport va din. Germaniyada o'quv ma'lumotnomasi sifatida foydalaniladigan boshlang'ich maktab darsliklari tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanishi kerak. Nemis boshlang'ich maktablarida baholash tizimi quyidagicha: 1-sinf darslarini tugatgandan so'ng, bolalar avtomatik ravishda 2-sinfga o'tkaziladi, bunday o'quv jarayonida erishilgan bilim darajasidan qat'i nazar. 2-sinfdan boshlab bu bolalarga o'qish davomida erishgan bilim darajasiga qarab tegishli baho beriladi. Agar bahoni o'ta olmasa, bolalar yana bir marta sinf darslarini takrorlashlari kerak. O'quvchining maktab hisobotida “Zeugnis” o'quv yili davomida erishgan barcha baholari ko'rsatilgan holda chiqariladi va shunga ko'ra bola keyingi sinfga o'tadimi yoki xuddi shu sinfni takrorlashi kerakmi, qaror qabul qilinadi.

Nemis boshlang'ich maktablarida o'quvchilarning muvaffaqiyati 6 balli baholash tizimi bo'yicha quyidagicha baholanadi:

- 1 (juda yaxshi)
- 2 (yaxshi)
- 3 (qoniqarli)
- 4 (etarli)
- 5 (yomon)
- 6 (juda yomon)

Ushbu maqolada Yaponiya, Fransiya, Germaniya va AQSH davlatlari kabi rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tuzilmasi bilan tanishib chiqildi. Ushbu davlatlarning ta'lim tizimi bosqichlari bilan O'zbekistonning boshlang'ich ta'limini qiyoslab ko'ramiz.

**O'zbekiston va Yaponiya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari:**

**1. Yaponiya ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

- maktabgacha ta'lim;
- boshlang'ich ta'lim;
- kichik o'rta maktab;
- katta o'rta maktab;
- kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- magistratura;
- doktaranturani o'z ichiga oladi.

**O'zbekiston ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keying ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi.

**2. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi shuningdek majburiy va bepul.**

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim 4 yil davom etadi, majburiy va bepul

**3. Yaponiyada o'quv yili 3 trimestrga bo'linadi:** 1-trimestr 6-apreldan 20 iyulgacha va yozgi ta'til boshlanadi, 2-trimestr 1-sentabrdan 26-dekabrgacha va qishki ta'til boshlanadi, 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha va bahorgi ta'til boshlanadi.

O'zbekistonda o'quv yili 4-chorakka bo'linadi: 1-chorak sentabrdan noyabrgacha davom etadi va kuzgi ta'til boshlanadi. 2-chorak noyabrdan dekabrgacha davom etadi va qishgi ta'til boshlanadi. 3-chorak yanvardan martgacha davom etadi va bahorgi ta'til boshlanadi. 4-chorak martdan maygacha davom etadi va yozgi ta'til boshlanadi.

**4. Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi.**

O'zbekistonda o'qish 5 kunlik, har shanba va yakshanba dam olish kuni hisoblanadi.

**5. Yaponiyada trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin.**

O'zbekistonda choraklarning boshlanishi va tugallanishi hamma maktablarda bir xil sanaga to'g'ri keladi.

**6. Yaponiyada maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlangan standartlarga asoslanadi.**

O'zbekistonda maktablarda o'qitish dasturi Davlat Ta'lim standartlariga asoslanadi.

**7. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili, matematika, biologiya, fizika, kimyo, tarix, etika, musiqa, rasm, jismoniy tarbiya, uy xo'jaligi kabi darslarni o'qishadi.**

O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili, matematika, o'qish savodxonligi, tabiiy fan, tasviriy san'at, tarbiya, jismoniy tarbiya, musiqa, rus tili, ingliz tili kabi darslarni o'qishadi.

**8. Yaponiyada boshlang'ich maktablarda odatda bir kunda 3ta dars bo'ladi. Kamdan kam hollarda 4ta dars bo'lishi mumkin.**

O'zbekistonda boshlang'ich maktablarda odatda bir kunda 4-5soat dars bo'ladi. Dars tugagach qo'shimcha darslar o'tiladi.

**9. Yaponiyada farrosh xizmatidan foydalanilmadi, o'quvchilarning o'zlari dars tugagach, xonalarini tozalashadi shu orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik shakllantiriladi.**

O'zbekistonda sinf xonalari farroshlar tomonidan tozalanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorij davlatlarining ilg'or pedagogik tajribalari ushbu davlatlarning rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning – Bir yilni ko'zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko'zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko'zlasangiz farzand tarbiyalang degan hikmatidan bugungi kunda deyarli xorijiy davlatlarning barchasi foydalanib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida rivojlarga davlatlar tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi Bugungi kunda, bizning mamlakatimiz unib-o'sib kelayotgan barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmoqda shu bilan birgalikda, mamlakatimiz ezgu maqsad uchinchi Renessans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa, albatta, bugungi kunda voyaga yetgan avlod amalga oshiradi.



**Adabiyotlar:**

1. SH.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. 2017-yil 14-yanvar
2. The Educational System in Germany Case Study Findings, U. S. Department U.S. Department of Education .2014
3. The Common-school System of Germany and Its Lessons to America, E. L. Kellogg & Company, 6-dekabr, 2007, Levi Seeley
4. Ikromov A.A., Davronova G.N., Ikromov A.A.. “Qiyosiy pedagogika”. - Buxoro, BDPI, 2022. – b. 150.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. “Qiyosiy pedagogika”.- Toshkent, TDPU,2015.- b.229.

## PEDAGOGIK TEXNIKA—KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

*Imomova Shafolat Mahmudovna,*

*Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida dotsenti  
s.m.imomova@buxdu.uz*

*Pedagog kadrlarni pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning o‘zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o‘zlashtirilishi oliy ta‘lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta‘minlashni kafolatlaydi. Maqolada pedagogik texnika-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida ekanli haqida ma‘lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik-texnika, mahorat, pedagogik mahorat, kasbiy faoliyat, pedagogik muloqot, pedagog xulq, pedagogik qobiliyat.

## КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНИКО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

*Знакомство педагогических кадров со структурными элементами педагогического мастерства, усвоение информации о педагогических приемах, культуре речи, педагогической деонтологии, коммуникативных навыках, педагогическом конфликте, а также имидже современного педагога и приобретение необходимых навыков на основе этих знаний. гарантирует повышение качества педагогического процесса, организованного в организациях высшего образования, обеспечивая его эффективность. В статье представлена информация о педагогической технике как основном факторе развития профессиональных компетенций.*

**Ключевые слова:** Компетентность, профессиональная компетентность, педагогическая техника, умение, педагогическое мастерство, профессиональная деятельность, педагогическое общение, педагогическое поведение, педагогические способности.

## PEDAGOGICAL TECHNIQUE AS THE MAIN FACTOR OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT

*Familiarization of teaching staff with the structural elements of pedagogical skills, assimilation of information about pedagogical techniques, speech culture, pedagogical deontology, communication skills, pedagogical conflict, as well as the image of a modern teacher and the acquisition of necessary skills based on this knowledge guarantees the improvement of the quality of the pedagogical process organized in higher education institutions, ensuring its effectiveness. The article provides information about pedagogical technique as the main factor in the development of professional competencies.*

**Keywords:** Competence, professional competence, pedagogical technique, skill, pedagogical skill, professional activity, pedagogical communication, pedagogical behavior, pedagogical abilities.

**Kirish.** Zamonaviy voqelikda, kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar tez o‘zgarib turadigan talablarga duch keladi, bu esa ulardan yangi, kengroq va murakkabroq kompetensiyalar to‘plamini talab qiladi.

Ta‘lim amaliyotida kompetentlik yondashuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo‘lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to‘laonli tarzda tegishli.

**Metodlar.** O‘qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta‘minlovchi, o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi,

uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va tinglovchilar bilan uzaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Mazkur maqolada pedagogik texnika-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida ekanligi pedagogning shu xususiyatlar orqali namoyon etildi.

**Natijalar va munozara.** Aytish mumkinki, o‘qituvchi professionalizmi - bu shaxs va faoliyat subyekting murakkab, ko‘p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o‘qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me‘yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (me‘yoriy professionalizm); v) o‘qituvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik kasbiy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni belgilash mumkin.

Bular “Mahorat - Uslub – Salohiyat – Mohirlik (texnika) - Ijod – Artistizm” formulasida o‘z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik kompetensiyalar ning ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

O‘qituvchi professionalizmi – bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlar jarayonida namoyon buladigan “ta’lim va tarbiya berish san’ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod”dir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o‘qituvchidan mohirlik, ya’ni texnikani – pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishni talab etadi.

Pedagogik texnikaga A.S Makarenko quyidagicha ta’rif beradi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin”.

Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari: 1. O‘qituvchining o‘zini boshqara olishi. 2. Shaxs va jamoaga ta’sir eta olishi. 3. Pedagogik muloqotni o‘rnatish. 4. Diqqatni jalb etish usullari.

Yakka shaxs va jamoaga ta’sir qilishning ikki usuli mavjud: “ishontirish usuli” va “yoqish usuli”. Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin.

Pedagogik texnika – har bir ta’lim oluvchi va jamoaga ta’sir o‘tkazishda samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar, usullar majmuasi.

Pedagogik texnikaning asosiy tarkibiy qismlari:

- nutq malakasi va texnikasini o‘zlashtirish;
- tushunarli, ta’sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash, mimika va pantomimik xarakterlar, jestlardan o‘z o‘rnida foydalanish;

- ma’noli va ochik chexrali nigoh bilan qarash;

- hissiy-psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish;

- turli vaziyatlarda o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish;

- kulgi va tabassum-la samimiyligni e’tirof etish;

- tinglovchilar, hamkasblar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish;

- savodli va sof adabiy tilda so‘zlash; ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.

Pedagogik mahoratni oshirishda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda ta’lim jarayonini boshqarish mutaxassislik fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi.

Bugungi kunda davlatimiz ta’limi sohasi oldiga qo‘yayotgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlardan biri inson sha’ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmatini, avvalo, umumiy ishga qo‘shayotgan hissasining salmog‘i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o‘z mehnatining salmog‘i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O‘qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmatini uning mansabi, kasbi-koridan ko‘ra ham ko‘proq o‘z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog‘liqdir.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi.

Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo‘yicha maxsus bilimlarga

ega bo‘lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o‘zlashtirishda o‘qituvchi ta’lim oluvchi hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko‘ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir.

“Pedagogik texnika” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) pedagogning o‘z diqqati hamda ta’lim oluvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;
- 2) pedagogik faoliyatda jarayonning, ta’lim oluvchilar harakatining sur‘atini his qilish.

O‘qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o‘zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to‘g‘ri tuta bilishi, yig‘inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, ta’lim oluvchilarga nisbatan e‘tiborida yaqqol aks etadi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi yuzini o‘rinsiz, qo‘pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo‘l qo‘ymasligi, imo-ishoralarning sun‘iy bo‘lishidan saqlanishi, ma‘nosiz bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Zero, bularning barchasi o‘qituvchining ta’lim oluvchi oldida hurmat qozona

olmasligiga olib keladi. Yosh o‘qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, ta’lim oluvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog‘oz solingan yig‘majildlarni qaerga, qanday qo‘yishi, xona bo‘ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, ta’lim oluvchi, talabalar bilan muloqotda o‘zini qanday tutishi va b.ham katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur.

Vazmin, xushmuomala, o‘ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq ta’lim oluvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o‘qituvchi, eng avvalo, o‘z hissiy holatlarini, tuyg‘ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning ta’lim oluvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega.

O‘qituvchi pedagogik jarayonga o‘zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e‘tibor berishi lozim: o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga ishonish; xushmuomala bo‘lish va kelajakka ishonch bilan qarash; o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish; aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o‘zaro uyg‘unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o‘qish, yaqinlar, do‘stlar bilan hazil-mutoybani tashkil etish); pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli, samarali kechishiga o‘zini o‘zi ishontirish; kasbiy faoliyatni katta ishtiyoq, ko‘tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish; turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta’sir etishiga yo‘l qo‘ymaslik; salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening va avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o‘zlashtirish.

Ruhiy barqarorlikka erishish muayyan shartlar asosida kechadi. Bu o‘rinda V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ta’kidlaydi: qosh-qovoqni uyub yurmaslik; boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko‘rsatmaslik; hazil-mutoyba moyil bo‘lish; xushmuomala bo‘lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

O‘qituvchi o‘z faoliyatida pedagogik texnika metodlari bilan birga pedagogik texnika vositalaridan ham foydalanadi.

Pedagogik texnika vositalari – pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma’noli ifodalanishini ta’minlovchi vositalar.

Mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnika vositalari nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot jarayonida qo‘llaniladigan vositalar sanaladi.

Pedagogik amaliyotda yosh o‘qituvchilarning pedagogik texnikasida quyidagi juz‘iy kamchiliklar uchraydi:

- 1) ta’lim oluvchilar bilan sidqidildan so‘zlasha olmaslik;
- 2) g‘azabni to‘xtata olmaslik yoki uni o‘z o‘rnida ishlata olmaslik;
- 3) o‘zida ishonchsizlikni yenga olmasligi;
- 4) nutqni ravon bayon eta olmaslik;
- 5) ortiqcha qattiqqo‘llik;
- 6) xushmuomala bo‘lishdan qo‘rqish;
- 7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda);
- 8) ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo‘llarini qaerga qo‘yishni bilmaslik;
- 9) o‘z gavdasini tutishda muayyan kamchiliklarga yo‘l qo‘yish (bukchayib, yerga qarab yurish, o‘rinsiz kulish, ortiqcha harakat, qo‘lida turli jismlarni aylantirib yurish);
- 10) monoton – bir ohangda so‘zlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi;
- 11) ifodali o‘qish, so‘zlarni aniq, to‘g‘ri talaffuz qila olmaslk (noto‘g‘ri diksiya), sinf xonasi, auditoriya uchun zarur tovush balandligini belgilay olmaslik.

O'qituvchining ta'lim oluvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega.

Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi. Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat.

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo'ruvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yoringing buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi.

Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'riqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini namoyon bo'ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o'ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarining o'zlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq, bu degani, ta'limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o'rni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo'ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirishga yo'naltiradi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Pedagogik muloqotni tashkil etishda, ayniqsa, pedagog yordamiga muhtoj ta'lim oluvchilarga alohida e'tibor berishi, har bir ta'lim oluvchida turli o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim.

Xulosa qilib, biz pedagogik texnikani pedagog xulqining boshqarish omili sifatida namoyon bo'ladi, deb aytishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: “Sano standart”
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Imomova Shafolat Mahmudovna, Qobilov Komil Hamidovich. Oliy Ta'lim Muassasalarida Masofadan O'qitish Jarayonini Takomillashtirish// Miasto Przynszości, Vol. 31 (2023), C.312-314.
4. Imomova Shafolat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish// Miasto Przynszości, Vol. 32 (2023), C.47-49.
5. Imamova Shafolat Mahmudovna. A simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// international journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
6. Imomova Shafolat Mahmudovna. Matematik tizimlarda talabalarining kasbiy kompetentligini imitasion-trenajyor asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari // Ilm-fan va texnologiyalar №2(1), 2023, C. 19-23.
7. Imomova Shafolat Mahmudovna. Computer simulators in science// international conference bridge to science: research works September 10 - December 15, 2023. San Francisco, California, USA
8. Imomova Shafolat Mahmudovna. Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 14 | 2023, C.1075-1081
9. Imomova Shafolat Mahmudovna., Botirova Nigora Qoyirovna. Google classroom - “Virtual sinf” texnologiyasi//Pedagogik mahorat. Maxsus son(2022 yil, derkabr),2022, C.81-85.
10. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Роль социальных сетей в образовании//Universum: технические науки. №10(103), 2022. С. 30-32.

## TA'LIM JARAYONIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ORQALI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

*Ismoilova Mahsuma Narziqulovna,*

*Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti  
Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası, dotsenti.  
<https://orcid.org/0000-0003-0496-9217>*

*Zamonaviy ta'lim tizimi shakllanayotgan bir davrda raqamli texnologiyalardan amaliyotda foydalanish, virtual texnologiyalarni ommalashtirish, ta'limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga, belgilangan o'quv dasturlarining o'quvchilar tomonidan to'la bajarilishiga, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini orttirishiga xizmat qiladi. Shu bois ayni paytda o'quvchilarni mobil texnologiyalardan samarali foydalanish madaniyatini oshirish ta'limning dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu kabi muammolarni yechimi sifatida, o'quvchilarning mobil texnologiyalardan foydalangan holda fanlarni, shu jumladan, amaliy topshiriqlarni o'rgatish metodikasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Ushbu maqolada sinf sharoitida amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalaniladigan mobil texnologiyalarga asoslangan o'qitish metodlarining maqsadi, foydalanish shartlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, kutiladigan natija va unga erishish mezonlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** mobil texnologiyalar, mobil ta'lim, o'qitish metodlari, mobil ta'lim metodlari.

## ПРЕИМУЩЕСТВА ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ С ПОМОЩЬЮ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*В настоящее время, когда формируется современная система образования, особое внимание уделяется использованию цифровых технологий на практике, популяризации виртуальных технологий, созданию новых методических моделей обучения и их применению в образовательном процессе. Это, в свою очередь, послужит коренному улучшению качества образования, полному выполнению учащимися установленных учебных программ, повышению личной заинтересованности обучающихся. Поэтому одной из актуальных проблем образования в настоящее время является повышение культуры эффективного использования мобильных технологий учащимися. Решение подобных задач может быть достигнуто путем разработки методики обучения учащихся предметам, в том числе практическим заданиям, с использованием мобильных технологий. В данной статье рассматривается назначение, условия использования, деятельность учителя и ученика, ожидаемый результат и критерии его достижения методов обучения на основе мобильных технологий, используемых при выполнении практических заданий в аудиторных условиях.*

**Ключевые слова:** мобильные технологии, мобильное образование, методы обучения, методы мобильного образования.

## ADVANTAGES OF ORGANIZING PRACTICAL LESSONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS THROUGH MOBILE TECHNOLOGIES

*Currently, when the modern education system is being formed, special attention is paid to the use of digital technologies in practice, the popularization of virtual technologies, the creation of new methodological models of teaching and their application in the educational process. This, in turn, will serve to radically improve the quality of education, the full implementation by students of the established curricula, and increase the personal interest of students. Therefore, one of the urgent problems of education at present is to increase the culture of effective use of mobile technologies by students. The solution of such problems can be achieved by developing a methodology for teaching students subjects, including practical tasks, using mobile technologies. This article discusses the purpose, conditions of use, the activities of the teacher and student, the expected result and criteria for achieving it of teaching methods based on mobile technologies used when performing practical tasks in the classroom.*

**Keywords:** mobile technologies, mobile education, teaching methods, methods of mobile education.

**Kirish.** Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, mobil texnologiyalar ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ta'sirlashuvni tashkil etish uchun katta


imkoniyatlarni yaratmoqda. Mobil texnologiyalar ta’lim muassasalarida o’qitish metodlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi, chunki ular o’quvchi faoliyatini maqsad sari yo’naltirib, o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini tashkil etish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Texnologik asosi mobil texnologiyalarga asoslangan didaktik masalani yechish metodini mobil ta’lim sifatida o’rganiladi. Shu ma’noda mobil ta’lim elektron ta’limning bir turi hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan mobil ta’lim o’quvchilarga mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida maxsus tashkil etilgan o’quv materiallarini o’rganishni o’z ichiga oladi.

Didaktikadagi o’quv jarayoniga qo’llanadigan har bir o’qitish metodi aniq bir fan mazmuni bilan bog’liq bo’lmagan holda o’ziga xos xususiyatlariga va hal etiladigan didaktik masalalarga bog’liq holda turlicha samaradorlikka ega. Bu esa o’z navbatida, ta’lim muassasalarida mobil texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan o’qitish metodlari tizimini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

**Metodlar.** Mobil ta’limning ahamiyatli jihati shundan iboratki, bunda ishlash juda samarali o’rin egallaydi va amaliy topshiriqlarni bajarish uchun qulay vosita hisoblanadi. Hozirgi axborotlashtirish sharoitida kerakli ma’lumotni olish, uni tahlil qilib amaliy topshiriqlarni bajarishga qo’llash olish katta ahamiyatga egadir.

Darsda mobil ilovalardan foydalanish turli xil topshiriqlarni va ularni bajarish uchun ma’lumotlarni taqdim etadi va shu bilan birgalikda ushbu ma’lumotlarni o’rganish, shuningdek, yangi ma’lumotlarni qidirishni rag’batlantirish; tizimli qayta aloqani tashkil etish; o’quvchining mustaqil faoliyatini o’z vaqtida nazorat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu imkoniyatlar o’quvchilarda mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni, turli xil axborot manbalaridan mustaqil foydalanish va shu asnoda amaliy topshiriqlarni bajarishga sharoit yaratadi.

Mobil ta’lim metodlari tizimi deganda esa turli xil didaktik muammolarni yechishda bir-birini to’ldiruvchi va yagona texnologik asosga ega bo’lgan o’qitish metodlari majmuini tushunamiz. Quyidagi rasmda dars jarayonida amaliy topshiriqlarni bajarishda mobil texnologiyalarining ahamiyati ko’rsatib berilgan:



1-rasm. Mobil ilovalarni amaliy topshiriqlar bajarishdagi ahamiyati

Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni amalga oshirish bosqichlari bo'lib, motivatsiyani oshirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, amaliy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlar metodik tizimini tashkil etish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib, talabalarga informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini o'rganishda muhim bir qadam bo'lib hisoblanadi. Shu sababli darsni maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari keng tarqalib bormoqda va bu o'z navbatida o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi. Darsni maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi bu-Internetda mavjud bo'lgan onlayn resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi va bu resurslar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu metodikalar o'quvchilarning bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatini ham yanada kengaytirib beradi. Boshqa amaliy mashg'ulotlar metodikasi bilan solishtirganda, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari talabalarning o'z-o'zini sinovdan o'tkazib ko'rishi uchun xavfsiz muhit yaratadi. Zamonaviy ta'limning dolzarb muammosi - informatikadan amaliy mashg'ulotlarning metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Informatika fanining ta'limdagi o'rni yuqori bo'lganli sababli uni nazariy holda o'rganish umuman olganda mumkin emas, ammo bu nazariyalarni amaliy holga keltirish uchun va axborot texnologiyalaridan foydalanishlari faol bo'lishi globallashtirish davrida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalangan holda ish jarayonlarini tashkil etishlari talab etiladi. Ta'lim berayotgan o'qituvchidan tortib o'quvchigacha internet ma'lumotlaridan va kompyuter vositalaridan foydalanishlari va dars xonalarining ham aynan, zamon talabiga mos holda jihozlangan bo'lishi talab etiladi. O'quvchilar Internetda o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan materiallarni izlashadi va bu ularning yaratuvchi ko'nikmalarni yanada rivojlantirishi uchun ham ayni yuqorida keltirilgan talablar va Internet vositalari brauzerlari bilan to'liq ta'minlangan bo'lish va internet tarmoqlariga ulangan o'quv xonalari bo'lishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan onlayn dasturlar va ilovalar orqali ham amaliy mashg'ulotlar tashkil etish imkonini beradi. Bu usulda talabalar informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yanada samarali o'rganib, amalda qo'llashga tayyorlanadilar. Natijada, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashni osonlashtiradi. Bu usul o'quvchilarning motivatsiyasini yanada kengaytirib boradi va ularning ma'lumotlarini mustahkamlab boradi. Shuningdek, bu usul talabalarning yaratuvchi hamkorlikni rivojlantirishigada yordam beradi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar ortib borayotgan sharoitda o'quvchilarning informatika fanidan zarur kompetensiya va ko'nikmalarni egallashiga imkon beruvchi zamonaviy uslubiy tizimlarni yaratish zarur.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning maktab informatika fanidan amaliy topshiriqlarni tashkil etish uchun mobil ilova ishlab chiqib, uning asosiy maqsadi sifatida informatika fanida mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va samaradorligini sinab ko'rishdan iborat, deb belgilab oldim. Mobil ilovadan foydalanishda informatika fanidan amaliy ishlarni tashkil etishda ilovada taklif etilgan o'quv resurslarini o'rganish jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadli va tartibli faoliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu ilova quyidagi bloklardan tashkil topgan: mundarija, ilovadan foydalanish, muallif haqidagi ma'lumotdan iborat.



2-rasm. Mundarija bo'limi



3-rasm. Dars mashg'ulotlari bo'limi



Mundarija bo'limi dars mashg'ulotlari bo'limi 7-sinf informatika kursini to'liq qoplab olgan bo'lib, unda amaliy topshiriqlar bilan birgalikda nazariy ma'lumotlar ham to'liq yoritib berilgan. Dars mashg'ulotlari bo'limi o'z tarkibiga barcha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchi har bir darsni avval nazariy qismi bilan tanishib, o'rganib chiqqandan so'ng, amaliy qismga o'tadi. Amaliy qismda mashqlar berilishi bilan birgalikda shu mashqni bajarish uchun ko'rsatmalar ham berilgan. Ushbu ilovadan foydalanganda o'quvchi amaliy mashg'ulotlarni bajarishda qiziquvchanlik darajasi ortadi va samaradorlik yuqori ko'rsatkichni beradi.

Globalashuv davrining muhim xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan bu kabi metodlar orqali dars sifati va o'quvchi yoshlarning bilim olishidagi, o'zlashtirishidagi muommolarning yechimi hal etiladi. Ushbu ishdan maqsad mobil ilovalar asosida informatikadan amaliy mashg'ulotlarning metodik tizimini tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Informatikadan amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqish uslubiy tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Mashg'ulotlarni individuallashtirish. Har bir o'quvchi o'zining tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlariga mos keladigan topshiriqni oladi.

2. O'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligi. O'quvchilar masalalarni yechishda va kompyuter dasturlaridan foydalanishda faol ishtirok etishlari kerak. Bu esa axborot texnologiyalarining o'quv jarayonidagi faolligi bilan bir qatorda dasturiy vositalar bilan ishlash va foydalanishdagi kamchiliklardan bir qancha yiroqlashishga sabab bo'ladi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalardan informatika fanini o'qitish va amaliy ishlar olib borish uchun ayni damda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

4. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Bugungi kunda eng dolzarb bolgan masala tanqidiy fikrlash hisoblanib, informatika fani amaliy jihatdan o'rganayotgan har bir o'quvchi internet va axborot texnologiyalaridan foydalanoyganda, albatta foydalanish uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar qay darajada to'g'riligi haqida fikr muloha qilishga o'rganadi.

**Natijalar. Mulohaza.** Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, informatika fanidagi amaliy darslarni tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va ko'p yo'l bilan o'rganishga imkon beradi. Informatika fanini ushbu texnologiyalar orqali o'rganish jarayonida maktab o'quvchilari bu fanni o'zlari qiziqqan holda bemalol mustaqil ravishda o'rganishni davom ettirishlari va bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etgan holda uyda ham davom ettirishlari mumkin. O'quvchilarning informatika fani bo'yicha tayyorgarligining samarali tizimini ishlab chiqish mobil ilovalar bilan birgalikda qo'shib ishlab chiqilganda samarali natijalarni beradi.

**Xulosa.** Mobil ta'lim asosida dars tashkil etilganda dars mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari yetarli darajada kengaytira olish imkoniyati tug'iladi, ta'lim olish vaqtini belgilangan chegaralaridan ham oshirish imkoni yaratiladi. Raqamlashayotgan jamiyatda axborot oqimining psixologik ta'siri juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u hayotiy faoliyatda shaxs idrok va tafakkuri shakllanishi qay darajada bo'lishini belgilab berish xususiyatiga ham egaligini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida ham raqamlashtirish jarayonini zamon talabidan kelib chiqqan holda tezlashtirish yoki moslashtirish zarur. Ta'lim jarayonida mobil qurilmalarning ahamiyati o'quvchilarning raqamli ta'limga yo'naltirilgan resurslardan foydalana olishi, muloqot qilishi, hamkorlik qilishi bilan baholanadi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga yangi axborot- kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratilgan elektron ta'lim resurslarini agarda ular aniq didaktik vazifalarni yechishga yo'naltirilgan yangi imkoniyatlarni taqdim etgan vaqtda joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Исмоилова М.Н., Муродова Г.И. Физика фанидан виртуал лаборатория машгулотларининг вазифалари ва имкониятлари// Учёный XXI века международный научный журнал №4-3(17). 2016. С 21-24.

2. Исмоилова М.Н., Муродова Г.Н. Maple математик пакет ёрдамида тенглама ва тенгсизликлар системаларини ечиш// Учёный XXI века международный научный журнал №4-3(17), 2016. С 25-27

3. Исмоилова Махсума Нарзикуловна, Нилуфар Бахтиёровна Мавлонова. Использование Современных Информационных Технологий В Освоении Профессиональных Навыков// Актуальные научные исследования в современном мире. 2016 - № 5-3. С. 143-145.

4. Исмоилова М.Н. The role of modern technology in teaching foreign languages// Ученый XXI века. № 11 (24), 2016 г. С 46.

5. Исмоилова М.Н. Имомова С.Х. Бизнес жараёнларни моделлаштиришнинг роли ва аҳамияти// Ученый XXI века.международный научный журнал № 12 (25). 2016. С 59-61 .
6. Ismoilova M.N, Karimova N.M. Using advanced information technologies in the assimilation of consciousness of students of national ideas// Ученый XXI века. № 11 (24). 2016 г.С 42-43.
7. Исмоилова М.Н., Турсунова М.А. Lectora дастуридан дарс жараёнида фойдаланиш имкониятлари// Ученый XXI века международный научный журнал № 1-1 (26). 2017 г. С 59-61.
8. Исмоилова М.Н., Мавлонова Н.Б. Касб-хунар коллежларида медиатаълимдан фойдаланиш имкониятлари// Ученый XXI века международный научный журнал№ 1-1 (26). 2017. С 61-64.
9. Исмоилова М.Н. Бошланғич синфларда масалани моделлаштириш// Ученый XXI века международный научный журнал№ 6(20) . 2017. С 35-37.
10. Д.Р Арашова, М.Н Исмоилова. Методика преподавания индивидуализация обучения в вузах// Теория и практика современной науки. №12(30). 2017. С. 39-42.
11. Максудов Ш, Исмоилова М.Н. Роль телекоммуникационных технологий и спорта в развитии студентов// Теория и практика современной науки. №1(31). 2018. С 317-319.
12. Исмоилова М.Н, Султонова З.Ш.Требования к методике обучения// Ученый XXI века. № 3-2 (38). 2018 . С 84-88.
13. Исмоилова М.Н. The role of modern technology in teaching foreign languages// Ученый XXI века. № 11 (46). 2018. С 55-58.
14. Махсума Нарзикуловна Исмоилова, Шафоат Махмудовна Имомова. Интерполяция функции// Вестник науки и образования 2020. № 3-3 (81). С.5-8.
15. Шафоат Махмудовна Имомова, Махсума Нарзикуловна Исмоилова. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad// Academy. № 6(57), 2020. С.9-10.
16. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом//Universum: Технические науки. №10(79), 2020. С. 22-25.
17. Исмоилова М.Н.,Тураева Г.Х. (2021) Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. Стр. – 65-67.
18. Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Alisher qizi The use of integrated technologies in the educational process// International Conference Bridge to science: research works. September. 10 - December. 15. 2020. San Francisco, California, USA. 95-97 p

## DUAL TA'LIM: MAVZUGA YANA BIR NAZAR

*Jurayev Farxod Niyozovich,*

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*

*Ta'limning Dual shakli olimlar tomonidan, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirilgan, ta'lim hodisasi sifatida qaraladi. Shunday ekan, bozor munosabatlariga yo'naltirish ta'lim tizimida katta o'zgarishlarni talab qiladi. Ishga qabul qilishda, biznes vakillari ta'lim muassasalari bitiruvchilarining “bilimlari” formati bilan emas, balki ularning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi bilan qiziqishadi. Ushbu maqolada biz, dual ta'limning ayrim e'tiborli tomonlariga nazar tashlaymiz. O'qishning bu tizimida o'rganilgan va o'rganishga moil jihatlarini yana bir bor ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *dual ta'lim, inklyuziv ta'lim, eksternat tartibidagi ta'lim, intellektual faoliyat, ustoz-shogird tizimi, konseptsiyasi, menejment ko'nikmalari, motivatsiya.*

## ДУАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ДРУГОЙ ВЗГЛЯД НА ТЕМУ

*Дуальная форма обучения рассматривается учеными как образовательный феномен, успешно адаптированный к условиям рыночной экономики. Таким образом, ориентация на рыночные отношения требует значительных изменений в системе образования. При приеме на работу представителей бизнеса интересуется не формат “знаний” выпускников учебных заведений, а их готовность к осуществлению профессиональной деятельности. В этой статье мы рассмотрим некоторые примечательные аспекты дуального обучения. Давайте еще раз посмотрим на аспекты обучения, которые изучаются и подвержены обучению в этой системе обучения.*

**Ключевые слова:** *Дуальное обучение, инклюзивное образование, обучение экстернату, интеллектуальная деятельность, система наставник-ученик, концепция, управленческие навыки, мотивация.*

## DUAL EDUCATION: ANOTHER LOOK AT THE SUBJECT

*The dual form of education is considered by scientists as an educational phenomenon successfully adapted to the conditions of a market economy. Thus, the orientation towards market relations requires significant changes in the education system. When hiring business representatives, they are not interested in the format of “knowledge” of graduates of educational institutions, but their readiness to carry out professional activities. In this article, we will look at some notable aspects of dual learning. Let's take another look at the aspects of learning that are studied and exposed to learning in this learning system.*

**Keywords:** *Dual training, inclusive education, externship training, intellectual activity, mentor-student system, concept, management skills, motivation.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-sonli “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda 647-son “Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qarorlarida qayd etib o'tilgan, ta'lim olish shakllari (15-modda) quyidagilardan iborat<sup>[1]</sup>:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

**Asosiy qism.** Ushbuga qonunga muvofiq “Dual ta'lim (17-modda) ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi”<sup>[1]</sup>.

Yevropa ta’lim tizimining amaliyoti shuni ko’rsatadiki, dual ta’lim, kelajakdagi mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy moslashuvi uchun, ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilarning o’zaro ta’sirining mahsulidir. Talaba o’quv jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq korxonada xodimi sifatida ishlab chiqarish jarayoniga biriktirib qo’yiladi. Shotlandiyalik iqtisodchi va axloq faylasufi Adam Smit o’zining mashhur "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations" (1776) asarida, dual ta’limda ustoz-shogirt tizimlarini, ish joyida kasb-hunar o’qitishning an’anaviy usullari deb hisoblash kerakligini ta’kidlagan, chunki usta yonida ishlagan yosh shogirt kasb asoslarini puxta o’rganadi[6].

Smitning fikricha, Glazgoda o’qitish Oksfordda o’qitishdan ancha ustun bo’lib, uni intellektual jihatdan bo’g’ib qo’yan. “Xalqlar boyligi” ning V kitobidagi II bobida u shunday deb yozgan edi: “Oksford universitetida ko’p yillar davomida jamoat professorlarining aksariyati o’qituvchilik da’volaridan butunlay voz kechishdi”. Xabarlariga ko’ra, Smit do’stlariga Oksford rasmiylari uni bir vaqtlar Devid Yunning “Inson tabiati haqidagi risolasini” o’qiyotganini topganidan shikoyat qilgan va keyinchalik ular uning kitobini musodara qilib, o’qigani uchun qattiq jazolashgan.

“Xalqlar boyligi” nomli beshinchi kitobida Smit ingliz universitetlarida shotlandiyalik hamkasblariga qaraganda o’qitishning past sifati va intellektual faoliyatining kamligini ta’kidlaydi.

Bozor munosabatlariga yo’naltirish ta’limi tizimda katta o’zgarishlarni talab qiladi. Ishga qabul qilishda, biznes vakillari ta’lim muassasalari bitiruvchilarining “bilimlari” formati bilan emas, balki ularning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi bilan qiziqishadi[5].

Kasb-hunarga o’qitishning dual tizimi hunarmandlarning o’rta asr ustaxonalari faoliyatiga asoslangan. Bo’lajak hunarmand ustaxonaga talaba sifatida kirdi, uning vazifasi ustaning ishini kuzatish va uning harakatlarini takrorlash edi. Muvaffaqiyatli mashg’ulotlardan so’ng talaba shogirdga aylandi, ammo mustaqil ishlash yoki o’z ustaxonasini ochish uchun u ustaga imtihon topshirishi kerak edi. Bu esa, o’z navbatida boshqa ustalardan o’rganishni talab qilardi. Ta’limning dual shakli olimlar tomonidan, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirilgan, ta’lim hodisasi sifatida qaraladi. O’ziga o’xshagan talabani alohida usta sifatida tayyorlash an’anasi o’rniga iqtisodiyot korxonalar va kasb-hunar maktablarining ijtimoiy sherikligi asosida mutaxassislar tayyorlashning yangi shaklini talab qiladi.

Ushbu muammo bo’yicha pedagogik tadqiqotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimida Germaniyada kadrlar tayyorlash amaliyoti ayniqsa dolzarbdir. Uning kelib chiqishi urushdan oldingi Germaniyada yosh ishchilarni tayyorlash va tarbiyalashning asosiy usuli sifatida, dual shakl kontseptsiyasida, ta’lim muassasasida o’qitish ishlab chiqarishda yarim kunlik ish bilan birlashtirildi.

Ikki tomonlama maqsadli tayyorgarlik bilan talaba mashg’ulotning dastlabki bosqichlarida ma’lum kasbiy kompetentsiyalarga, shuningdek jamoada ishlash qobiliyati, texnologik echimni maqbul tanlash ko’nikmalari va tayinlangan faoliyat sohasi uchun javobgarlik kabi shaxsiy fazilatlarga ega bo’lardi. Ish jarayonida u kelajakdagi mutaxassislikni yangicha tushunadi va tanlagan kasbining to’g’riligi haqida qaror qabul qiladi. Bundan tashqari, vijdonan ishlaydigan kelajakdagi mutaxassis, zamonaviy sharoitda ishlash uchun juda zarur bo’lgan qo’shimcha daromad va ish stajini ta’minlay oladi[6].

Turli mamlakatlarda mehnat resurslarini tayyorlashni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, talabalarni ishlab chiqarish texnologiyalari va kasbiy muhit bilan o’zaro aloqada vakolatli, tadbirkorlik va ichki menejment ko’nikmalariga ega bo’lgan xodim yoki tadbirkorning ijtimoiy rollariga tayyorlash, tanlangan kasb doirasida yangi g’oyalarni amalga oshirishga qodir ijodiy shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Dual ta’lim tizimining afzalliklari:

- mutaxassislarni tayyorlashning dual tizimi nazariya va amaliyot o’rtasidagi tafovutni bartaraf etadi;
- dual tayyorgarlik tizimining mexanizmi mutaxassisning shaxsiyatiga, kelajakdagi xodimning yangi psixologiyasini yaratishga ta’sir qiladi;
- xodimlarni o’qitishning dual tizimi bilim olish va ishda ko’nikmalarni egallash uchun yuqori motivatsiyani yaratadi;
- nazariy va amaliy jihatdan tayyorlangan mutaxassisni ishga qabul qilishda korxonada rahbarlarining qiziqishi;
- korxonada hamkorlikda ishlaydigan ta’lim tashkilotlari ish beruvchilarning kelajakda o’qitish jarayonida mutaxassislar tomonidan qo’yiladigan talablarini hisobga oladi.
- talabaning birinchi kurslaridan boshlab ish beruvchi, dunyoning ko’plab lagerlarida bo’lgani kabi, kelajakdagi mutaxassisga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo’ladi.
- Dual ta’lim tizimining keng qo’llanilishi universitet bitiruvchilariga bir tomondan tanlangan mutaxassislik bo’yicha ish topishga imkon beradi, boshqa tomondan, mehnat bozorida qaysi mutaxassisliklar va qancha talab borligi muammosi hal qilinadi.

Shu bilan birga, dual o’qitish tizimi malakali mutaxassislarni tayyorlashni ham ta’minlaydi. Nemis dual ta’lim modeli g’oyalarni eng mashhur ommalashtiruvchisi D.A. Toropov, har qanday rivojlangan

mamlakat mehnat bozorida, uning ishtirokchilariga doimiy ravishda yangilanib turadigan, talablarning paydo bo‘lishi ta’lim tizimiga ta’sir qiladi, deb yozadi. Bu fakt doimiy iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologik inqilob sur’atlarining oshishi bilan bog‘liq [4].


Dual tizimning kamchiliklari:

- korxonada o‘qitish motivatsiyasi ta’lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin;
- har doim ham ishchi dasturlar ishlab chiqarishda bajariladigan ishlarning mavsumiy ketma-ketligiga mos kelmasligi;
- Ta’lim tashkiloti doimo ham korxonalar uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini o‘z vaqtida o‘rgata olmaydi;
- Korxonalarining o‘qitishga tayyor emasligi natijasida ishlab chiqarishda o‘quv joylarining yetishmasligi;
- Korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulot narxini oshirish orqali ta’lim uchun mablag‘ topishga majbur bo‘lishi (yetishmayotgan uskunalar, o‘quv auditoriya, moliyaviy yetishmovchilik va boshqalar).

Ishlab chiqarish uchun dual ta’lim - bu xodimlarni aniq “buyurtma asosida” tayyorlash, ularning barcha talablariga maksimal darajada muvofiqqligini ta’minlash, ishchilarni qidirish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish xarajatlarini tejash imkoniyati. Bundan tashqari, eng yaxshi bitiruvchilarni tanlash imkoniyati mavjud, chunki amaliy mashg‘ulotlar davrida ularning kuchli va zaif tomonlari aniq bo‘ladi. O‘z navbatida, bu yondashuv talabalarni ko‘rgazma uchun o‘qimaslikka undaydi. Yosh mutaxassislar darhol to‘liq daromad va samaradorlik bilan ishlashlari mumkin, ular korxonada hayotini yaxshi bilishadi va o‘zlarini “ularniki” kabi his qilishadi. Bularning barchasi birgalikda xodimlarni birlashtirishga va tovar ayirboshlashni kamaytirishga yordam beradi, bu korxonalar uchun muhimdir.

Shu o‘rinda masalaning boshqa tomonlariga nazar tashlasak. Ta’lim shaklining, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalar va ta’lim muassasasining o‘z kadrlari (pedagog) bo‘yicha ahamiyatli tomonlari qanday. Ushbu masalaning yechimi sifatida, ta’lim shaklining kunduzgi va sirtqi talabalari, hamda yosh pedagog-o‘qituvchilardan 1-jadval asosida so‘rovnomaga o‘tkazdik (javoblar songa nisbatan foizlarda berilgan).

1-jadval.



Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari, mutaxassislar, o‘rta darajadagi va malakali ishchilarning o‘qitishning dual tizimi to‘g‘risida xabardorligini bashorat qiluvchi savol:

Dual ta’lim haqida bilasizmi?

2-jadval.

	Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari	Mutaxassislar, o‘rta darajadagi va malakali ishchilar
Ha, bu model nima ekanligini yaxshi bilaman	33,0	16,0

Qisman bilaman, lekin barcha tafsilotlarni bilmayman	41,0	19,0
Yo‘q, bilmayman	23,0	54,0
Javob berishga qiynalaman	3,0	11,0

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalarining ta’lim muassasasi o‘qituvchi kadrlari (pedagog) bo‘yicha bashorat qiluvchi savol:

**Siz tahsil olayotgan oliygo‘h o‘qituvchilarining texnik uskunalar va o‘lchov asboblari ishlatish qobiliyati qanday?**

3-jadval.

	Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi) talabalar	Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalar
Yaxshi, ishlatishni bilishadi	57,0	27,0
Qisman bilishadi	13,0	9,0
Ayrimlari bilishmaydi	2,0	5,0
Ishlatishmaydi, faqat laborantlar ishlatishadi	28,0	41,0

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalar va ta’lim muassasasi o‘qituvchi kadrlarining (pedagog) dars o‘tish joyini bashorat qiluvchi savol:

**Qayerda ko‘proq dars o‘tilishini ma’qullaysiz?**

4-jadval.

	Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari	Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi) talabalar	Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalar
O‘quv yurti, auditoriyada	67,0	27,0	76,0
Ishlab chiqarish, korxonada	30,0	61,0	5,0
Menga farqi yo‘q	3,0	12,0	19,0

**Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki**, ushbu o‘rganishlardagi nomutanosiblik, yana bir bor dual o‘qitish tizimining takomillashuviga olib kelishi kerak. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan (sirtqi) talabalar, ular o‘zi ishlab turgan korxonadagi mashina, uskuna va priborni undan oldingi ustoz o‘rgatganidek ishlatishadi. Bu talabalarining nazariy qismga ehtiyoji katta, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan (kunduzgi) talabalar esa aksincha, amaliyotga ehtiyoji bor. Masalada qatnashayotgan uchinchi shaxs – bu yosh pedagog kadrlar. Mening nazarimda, har qanday isitkich yoki sovutkich mashinalaridan nazariy bilimni “qoyillatib” dars berayotgan o‘qituvchi, uning asl nusxasi va murakkab qismlari to‘risida bilishi juda muhim. Bu o‘rinda, ular mahalliy korxonalarda tez-tez amaliyot o‘tab turishlari zarur.

Dual ta’limning muvaffaqiyatli rivojlanishiga o‘qituvchilarning konservativ munosabati jiddiy to‘siqdir. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida, ixtisoslashtirilgan forumlarda, konferensiyalarda

va hokazolarda kasbiy tayyorgarlikning yangi modelini joriy etish bo'yicha erishilgan natijalarni keng yoritish zarur, shu bilan birga ko'rib chiqilayotgan modelni amalga oshirishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va ta'lim faoliyati sifatini nazorat qilishni ta'minlash alohida e'tibor talab qiladi[5].

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida” Qonuni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Toshkent sh.,.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori..
3. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. asosiy qoidalar” O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida Buyrug'i.
4. Горопов Д. А. Обеспечение качества профессионального образования в Германии: автореф. дисс. д-ра педаг. наук: 13.00.01 – Казань, 2005. – 42 с.
5. Дудырев Ф. Ф., Романова О. А.. Мониторинг экономики образования. «Высшая школа экономики» № 13 (98). - 2019
6. [\\_https://ru.wikipedia.org/wiki/](https://ru.wikipedia.org/wiki/)

## TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA OPERATIV-MANTIQIY TUZILMANING O'RNI

*Kurbanova Gulnoz Negmatovna,  
Buxoro davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d, (DSc)*

*Maqolada kasbiy ta'lim jarayonida talabalar kasbiy tafakkurini shakllantirishning mexanizmlari, mezonlari hamda mantiqiy tuzilmasi mazmuni yoritilgan. Shuningdek, kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida talabalar ijodiy faoliyatining qobiliyat, layoqatni tarbiyalashdagi ahamiyati ko'rsatildi.*

*Kalit so'zlar: tafakkur, kasb, madaniyat, ijodiy faoliyat, shakllantirish, mexanizm, mezon, mashq, vaziyat, yechim.*

## РОЛЬ ОПЕРАТИВНО-ЛОГИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

*В статье описаны механизмы, критерии и логическая структура формирования профессионального мышления студентов в процессе профессионального образования. Также показано значение творческой деятельности студентов в воспитании умений и навыков в процессе формирования профессионального мышления*

*Ключевые слова: мышление, профессия, культура, творческая деятельность, формирование, механизм, критерий, упражнение, ситуация, решение.*

## THE ROLE OF OPERATIONAL-LOGICAL STRUCTURE IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF STUDENTS OF HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

*The article describes the mechanisms, criteria and logical structure of the formation of professional thinking of students in the process of vocational education. The importance of students' creative activity in developing skills and abilities in the process of forming professional thinking is also shown.*

*Keywords: thinking, profession, culture, creative activity, formation, mechanism, criterion, exercise, situation, decision.*

**Kirish.** Nazariy, amaliy tayyorgarlik hamda pedagogik amaliyot bilan bog'liq holda yaxlit o'quv-tarbiya jarayonida talabalarida kasbiy tafakkurni shakllantirish maqsadida interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish muhim samara beradi.

Ko'p yillik tajribamiz va tadqiqotimiz davomida talabalarda kasbiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan kreativ (ijodkorlik) qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqdik hamda tegishli ilmiy metodik tavsiyalar berdik.

Talabalarda kasbiy tafakkurni shakllantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etib, tadqiqot doirasidagi «tafakkur», «kasbiy tafakkur», «pedagogik kreativlik», «interfaol o'qitish», «interfaol o'qitish sharoiti», «talabalarda kasbiy tafakkurni shakllantirish» kabi asosiy tushunchalarga nisbatan o'zining mustaqil qarashlari va nazariy mushohadalarini aniq va tartibli bayon qilishlariga erishdik.

**Adabiyotlar sharhi.** Respublikamiz olimlaridan N.Azizxodjaeva, H.Abdukarimov, R.Djuraev, X.Ibragimov, N.Muslimov, A.T.Nurmanov, B.X.Raximov, O'.Tolipov, Sh.Shodmonova, B.X.Xodjaev, N.Egamberdieva kabilarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, shart-sharoitlari, pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari o'z aksini topgan. A.Begmatov, Z.Ibodullaev, I.Iminaxunova, M.Israilova kabilar tomonidan tibbiy psixologiya, tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Rus olimlar K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.Brushlinskiy, M.Kashapov, V.A.Kan-Kalik, Ss.T.Kargin, S.Yu.Temina, B.M.Teplov, M.Klarin, A.K.Markova, V.M.Monaxov, V.Polikarpov, A.M.Stolyarenko kabilar bo'lajak pedagog-mutaxassislarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalashning mazmuniy-jarayonli hamda texnologik jihatlarini o'rganganlar. G.I.Aksenova, A.I.Artyuxina V.V.Boluchevskaya, I.V.Novgorodseva, V.P.Andronov, A.F.Bilibinlarning ilmiy izlanishlarida tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, tadqiqotchilik faoliyati asosida klinik fikrlashini shakllantirish masalalari o'rganilgan.

**Asosiy qism.** Belgilangan tadqiqot vazifalarining amaldagi ijrosini ilmiy tadqiqot ishining umumiy mazmunida mavzuga oid falsafiy, ilmiy-pedagogik, psixologik manba va mavjud holatni tahlil qilish asosida



zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar misolida yoritdik. Bu jarayonda pedagog-psixolog olimlarning fikriga qo‘shilgan holda talabalarning aql darajasi, tafakkuri hamda bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo‘llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini ta’kidlamog‘chimiz:

a) barcha ta’lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash (talabalarga diqqat bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularni o‘quv-biluv jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o‘zaro o‘qitish muhitini yaratish, ta’limning faoliyatli mazmuni, o‘rgatuvchi o‘yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy «muvaffaqiyat zinapoyasi»da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual-shaxsiy qo‘llab-quvvatlash (talabani shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o‘qishni takt bilan tashxislash; har bir talabani rivojlanish jarayonini kuzatib borish; pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zaruratini talabani individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’minlash va b.).

Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo‘naltirilganligini to‘laqonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning mayllarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu asosda shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasb tanlash omillarini tahlil etar ekanmiz, kasbiy faoliyatning ahamiyatini talabalar qay darajada anglashlariga e’tibor qaratdik.

Shu asosda quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

- o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishning mavjudligi;
- muayyan predmetni o‘zlashtirish istagining mavjudligi;
- o‘zini o‘quvchilarga, ta’lim-tarbiya berishga bag‘ishlashga intilishning ustunligi;
- o‘zining pedagogik layoqatini anglashi;
- oliy ta’lim olish istagining kuchliligi;
- o‘qituvchilik kasbining jamiyat uchun muhimligi haqidagi tasavvurining mavjudligi;
- pedagogik ijodkorlikka moyillikning mavjudligi;
- moddiy jihatdan ta’minlanish ehtiyojining kuchliligi kabilar.

O‘qituvchilik kasbini tanlagan talabalarni mazkur faoliyatni egallashga moyilligi, o‘quvchilarga bo‘lgan qiziqishlari nuqtai nazaridan mujassamlashtiradigan bo‘lsak, 70%dan ortiq bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu kasbni o‘zlarining kasbiy mayllari va o‘quvchilar bilan ishlashga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tanlaganliklari ayon bo‘ldi. Bizning ilmiy tadqiqotimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilar muayyan xarakterdagi quyidagi pedagogik-psixologik vazifalarni bajarishlari lozim:

– o‘z ijodiy faoliyati natijalarini ro‘yobga chiqarishning qimmatini, maqsadini, istiqbollari, betakrorligini anglashda o‘rganuvchilarga ko‘maklashish va shu yo‘lda ular bilan hamkorlik qilish;

– o‘rganuvchilarning moddiy borliqqa nisbatan tahlilii, tanqidiy, konstruktiv munosabatini ijodiy, yaratuvchilik maqsadlariga yo‘naltirish; – o‘rganuvchilarda nazariy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va muntazam rivojlantirish;

– o‘rganuvchilarning o‘z ijodiy faoliyatlariga nisbatan hissiy va konstruktiv munosabatlarini tartibga solish;

– o‘rganuvchilarni hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga jalb etish uchun qulay pedagogik sharoitlarni vujudga keltirish;

– o‘rganuvchilarning ijodiy jihatdan o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlari va o‘zliklarini namoyon qilishlari uchun yordam ko‘rsatish;

– o‘rganuvchilarning mustaqil rivojlanishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan to‘siqlarni bartaraf etish yo‘lida ular bilan hamkorlik qilish va ko‘maklashish;

– o‘rganuvchilarning shaxsiy muammolarini ijodiy fikrlash mazmuniga ko‘chirishlariga zamin hozirlash kabilar.

O‘rganuvchilar ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning natijalari ularning o‘ziga xosliklari va ijodiy sifatlarini chuqurlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Tafakkur qilish orqali, ijodiy fikrlash, o‘z navbatida, talabalarni:

- mustaqil va ongli ravishda bilim olish;
- doimo olg‘a intilish;
- turli ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish;
- noan’anaviy va yangicha fikr yuritishga o‘rgatadi.

**Muhokama va natijalar.** Ijodiy faoliyat – tafakkur, fikrlash shakllari bo‘lib, ular qobiliyat, layoqat, havasni tarbiyalash yo‘li bilan rivojlantiriladi, yangilik, ijodkorlik ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi. Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, talabalar faoliyatiga ko‘ra, ijodiy topshiriqlarni uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Ular:

- ijodiy mustaqil ish;
- ijodiy mashq;
- o‘quv muammolari.

Ijodiy mustaqil ish ijodiy topshiriqlarning boshqa turlaridan ikki jihati bilan farq qiladi: operativ tashkil etish va o‘quv-biluv faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega ekanligi. Ijodiy mustaqil ish ta’limning shunday vositasiki, uni ta’limga tatbiq etish yo‘li bilan:

– o‘qish, o‘rganishga ishtiyiq davom ettiriladi, dars doirasida hosil qilingan motivlarning davom etishi ta’minlanadi;

– talabalarni bilishga, bilim, malaka doirasini kengaytirishga olib keladi;

– o‘rganilayotgan o‘quv materiali ustida o‘rganuvchilarning o‘z faoliyatlarini mustaqil davom ettirishga zamin tayyorlaydi;

– talabalar faoliyatiga rahbarlik qilishni ma’lum darajada osonlashtiradi.

Ijodiy mashq. Har doim bilimlarni esga tushirib, mashq qildirish ta’limda o‘rganuvchilarning zerikishiga sabab bo‘ladi. Mashq qilish jarayonida o‘rganuvchilarning zerikishini bartaraf etish uchun ijodiy mashqlardan foydalaniladi.

Ijodiy mashq ikki xil xususiyatga ko‘ra farq qiladi:

1) o‘rganilgan bilimlar doirasini kengaytiradi. Bunda o‘rganuvchi oldin o‘rganilgan o‘quv materialiga takroriy qaytib kelganda, o‘z tushunchasi doirasini keng bilim, tasavvur, fakt, bog‘lanishlar bilan yanada boyitadi;

2) ijodiy mashqlar doimiy shug‘ullanishga mo‘ljallangan mashqlardan farqli ravishda ham xotiraga, ham tafakkurga moslab tuziladi. Bunda o‘rganuvchi mavzu bilan birga qo‘shimcha axborot, faoliyat usullarini ham ijodiy o‘rganadi. Muammoli mashq – o‘rganuvchidan unga noma’lum bilimlarni talab etuvchi o‘quv materiallaridan foydalanishdir. Bu undan faol fikrlashni talab etadi.

3. O‘quv muammolari «o‘quv topshiriqlar majmui» bo‘lib, ularni ijodiy topshiriqlar tizimi shaklida tasavvur qilish mumkin. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda, avvalo, ularning o‘zlari ushbu faoliyatga mas’ul ekanliklarini anglatish lozim.

Ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta’lim boshqa ta’lim turlaridan farqli ravishda o‘rganuvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni shakllantiradi. Muammoli topshiriq o‘rganuvchini mustaqil ijodiy izlanishga yo‘llashdan iborat. Masalan, insho, referat yozish, biror narsa ixtiro qilish, tajribadan o‘tkazish kabilar muammoli topshiriq asosida amalga oshiriladi, bu esa, o‘z navbatida, interfaol ta’lim muhitini yaratadi.

Interfaol ta’limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi – interfaol o‘qitish metodlaridir.

Interfaol o‘qitish metodlari o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshirishiga yordam beradi. Bular o‘rganuvchidan faol fikrlashni talab etadi, u dalillarni tahlil qiladi, ob’ektlarning kelib chiqishini o‘rganadi. Bu texnologiyaning tayanch tushunchasi turli murakkablik darajasidagi muammoli topshiriqlarda o‘z ifodasini topadi, ularni yechish orqali o‘quvchi yangi bilim va faoliyat usullarini egallaydi, natijada unda ijodiy layoqat: mahsuldor tafakkur, tasavvur, bilish motivatsiyasi, intellektual tuyg‘u shakllanadi.

Muammoli savol oddiy savoldan farq qiladi, u orqali o‘rganuvchining o‘zlashtirgan bilimlariga shunchaki murojaat etilmay, balki undan o‘z mustaqil fikrini bildirish talab etiladi. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘zining qulayligi bilan diqqatni jalb etadi: u barcha ta’lim bosqichlarida, barcha o‘quv fanlari misolida qo‘llanishi mumkin. Fan o‘qituvchisi dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan muammoli ta’lim texnologiyasini yaxshi o‘zlashtirib olgani ma’qul.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari tarkibida taqdim etiluvchi sinkveyn, «Beshinchisi ortiqcha», «Charxpalak», «Bumerang», «Muloqot treningi», «Blis-o‘yin», «Zanjir», «Munozara», «Guruhlarda ishlash», «Taqdimot», yangi mavzuni bayon qilishda «Kichik ma’ruza», «Rolli o‘yin», «Hamma hammaga o‘rgatadi», «Impuls», «Hayot yo‘li», «Vaziyatlar», «Aql charxi» kabi qator interfaol usullar va kichik texnologiyalarni darsning maqsadidan kelib chiqqan holda loyihalashtirib qo‘llash dars sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular o‘quvchining nazariy bilimlarni puxta egallashi; vaqtdan unumli foydalanishi; ijodiy fikrlashi; darsni faollashtirish; o‘zgalar fikrini tinglay bilishi; bildirilgan fikrlardan xulosa chiqarishiga olib keladi[10].

O‘rganuvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim alohida ahamiyat kasb etadi. Unda o‘rganuvchiga beriladigan topshiriqlar uning o‘zligini rivojlantirishi, namoyon etishi, anglashi va baholashiga qaratiladi. Shunga ko‘ra, topshiriq turlarida o‘z-o‘zini baholash, o‘z xatolarini tahlil qilish, o‘quv faoliyatidagi o‘rmini baholash, o‘z qobiliyati va iqtidorini yuzaga chiqarishga alohida e‘tibor beriladi.

**Xulosa.** O‘rganuvchiga o‘quv topshirig‘i yoki o‘quv faoliyati turlari (mavzuni yaxlit yoki bo‘laklarga bo‘lib o‘zlashtirish)ni tanlash imkoni beriladi. U guruh tarkibida o‘z qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirishi lozim. Shunga ko‘ra, ta‘lim oluvchilarning hamkorlikda ishlashiga sharoit yaratish uchun aqliy hujum, «rolli o‘yinlar», guruhlarda ishlash, loyiha metodi kabilardan samarali foydalaniladi. O‘quv jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, muammoli va rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari bilan bog‘liq interfaol usul va o‘yinlarni darsning maqsadidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- o‘rganuvchilarning o‘qishga qiziqishlari ortadi;
- o‘quv motivatsiyasi kuchayadi;
- o‘rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikda ishlashi ta‘minlanadi;
- o‘rganuvchilarning nutqi va mantiqiy tafakkuri o‘sadi;
- o‘rganuvchida ijodiy ishlash ko‘nikmalari va faol fikr rivojlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdullayev Q.F. Didaktik ta‘lim vositalari talim jarayoni samaradorligini oshirish omili sifatida // Экономика и социум. 2023. №3-2 (106).
2. Kurbanova Gulnoz Negmatovna - К вопросу изучения профессиональных кризисов у преподавателей- eurasian journal of academic research// 9.03.2023
3. Kurbanova Gulnoz Negmatovna - The concept of professional thinking and its pedagogical essence// philosophy and culture// 2(2)42-48p//6.02.2023
4. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- The significance of pedagogical communication in the development of students’ professional thinking// central asian journal of education and innovation// 2(2)56-61p/6.02.2023
5. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- Central asian journal of education and innovation// значение педагогического общения в развитии профессионального мышления студентов// 2(2)49-55p/6.02.2023
6. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- Central asian journal of education and innovation// понятие профессионального мышления и его содержание// 2(2), 35-41p /6.02.2023
7. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- Військовий інститут київського національного університету імені Тараса Шевченка/колективні системи навчання//© Військовий інститут Київського національного університету імені Тараса Шевченка, 2023
8. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- Некоторые аспекты педагогического общения в формировании профессионального мышления у студентов в системе высшего образования узбекистана// Шымкент 2023
9. Kurbanova Gulnoz Negmatovna- Mechanism of developing the professional thinking of students//Journal of Advanced Zoology// Volume 44 Issue Special Issue-2 Year 2023 Page 2306:2326
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. / Ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: Iste‘dod, 2008. –180 b

## TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA BO‘LGAN “TALAB”NI YANADA SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MODELI

*Mardonova Saodat Muzaffarovna,  
Buxoro davlat universiteti  
Ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti*

*Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasasi talabalari orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va o‘quv jarayonida talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan “talab”ni yanada shakllantirish pedagogik modelni to‘g‘ri tanlash to‘g‘risida boradi.*

***Kalit so‘zlar:** talabalar, salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj, jismoniy tarbiya.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ПОТРЕБНОСТИ МОЛОДЁЖИ В ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ В ПРОЦЕССЕ ИХ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ

*В данной статье рассмотрено понятие «потребность», выявлены теоретические подходы к проблеме формирования потребности студентов вуза в здоровом образе жизни, представлена педагогическая модель формирования потребности студентов в здоровом образе жизни в процессе обучения.*

***Ключевые слова:** студенты, здоровье, здоровый образ жизни, потребность, здоровой образ жизни, физическое воспитание*

## FORMATION OF STUDENTS' NEEDS IN A HEALTHY LIFESTYLE DURING THEIR TRAINING IN HIGH SCHOOL

*The paper considers the concept of “need”. Theoretical approaches to the problem of formation of students' needs in a healthy lifestyle are identified. The pedagogical model of the formation of students' needs in a healthy lifestyle during their training in high school is presented.*

***Keywords:** students, health, need in a healthy lifestyle, physical training.*

**Kirish.** Salomatlik - har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda salomatlikka qaratilgan chora-tadbirlarning olib borilishi, zamonaviy tibbiyotning rivojlanishiga qaramasdan, yoshlarimizning dunyo qarashi o‘zgachaligi, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga qaramasdan sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj, zaruriyat asosiy talablardan bo‘lib qolmoqda.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalari salomatligini saqlash va mustahkamlash, shaxsni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish, ilmiy asoslab berish vazifasi asosiy rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tufayli kasalliklar hamda ularning xavf omillarining oldini olish, davolash va nazorat qilish, aholining barvaqt o‘lim hamda kasallanishini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Turmush tarzi tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan insonlar hatti harakatining, faoliyatining majmuiy ko‘rinishidir. Sog‘lom turmush tarzi - o‘z ichiga insonning hayotga intilishlarini, sog‘ligini mustahkamlash va uning buzilishini oldini olishga qaratilgan hatti - harakatlarining yig‘indisini qamrab oladi. Sog‘lom turmush tarzi - bu odamlarni o‘z salomatliklarini saqlash va yaxshilashga qaratilgan faoliyatidir.

**Asosiy qism.** Ilm olish va ma‘lum yo‘nalishga xos mutaxassislikka erishish jarayonida salomatlikni saqlash va doimiy jismoniy faollikda bo‘lish tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishning asosiy qismidir.

Oliy ta‘lim o‘qish mobaynida talabadan o‘ziga xos aqliy mehnat, ya‘ni intellektual, hissiy, irodaviy va boshqa vazifalarni doimiy va uzoq vaqt faol bo‘lishni talab etadi, bu jarayonni bemalol talabalik mehnat faoliyati deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, aynan oliy ta‘limda o‘qish jarayonida talaba o‘z salomatligini yo‘qotmasligi kerak.

Hozirgi davr odamlarning sog‘lig‘i muammosi asr yoshlarining kasb tanlashidan qat‘iy nazar, sog‘lig‘ini mustahkamlash va saqlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda ishtirok etishni taqozo etmoqda. O‘qish mobaynida talaba sog‘lig‘ini mustahkamlash va saqlash, yoshlarning kasb tanlashidan qat‘iy nazar ularning jismoniy faollik bilan shug‘ullanishda davom etishini ishtirok etishni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish o'qish jarayonida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish asosiy ehtiyoj bo'lib hisoblanadi. Bo'lg'usi mutaxassis bo'lib yetishadigan talaba talabalik davridayoq sog'lig'iga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirishi zarur, shuning uchun ham sog'lom turmush tarziga rioya qilgan talaba, mashaqqatli aqliy va jismoniy mehnatdan keyin tanani tiklash uchun ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lgan mutaxassisga aylanadi.

Talabalarga "salomatlik" deganda tananing turli a'zolari va tizimlarining jismoniy yoki ruhiy funktsional holati, ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy fazilatlarining rivojlanish darajasini tushunish imkonini beradi.

Darhaqiqat, aksariyat talabalar chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va giyohvand moddalarni iste'mol qilish zararli ekanligini bilishadi, lekin ularning ko'pchiligi yomon odatlarga moyil.

Talabalarning jismoniy faollikni doimiy shior qilib olishlari zarur, lekin ko'pchilik talabalar jismoniy faol harakatni olib bormaydilar yoki pala-partish tarzda olib boradilar.

Noto'g'ri, ratsional ovqatlanish ortiqcha vaznli o'quvchilar sonining ko'payishiga va natijada semiz talabalarning ortishi kabi oqibatlariga olib keladi. Bu esa talabalar orasida moddalar almashinuvi buzilishi bilan og'riydigan talabalar soni ortib boradi.

Ko'pincha bu holatlarning asosiy sabablarini zamonaviy tahlili ko'rsatadiki, hayot qiyinchiliklari ijobiy his-tuyg'ular uchun kam joy qoldiradi va shuning uchun ijobiy his-tuyg'ularga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun talabalar ularni sog'liq uchun zararli bo'lgan sun'iy stimulyatorlar (alkogol, tamaki, giyohvand moddalar, uglevod va sin'iy moddalarga to'la bo'lgan fast-fudlar iste'mol qilish va boshqalar) orqali olishga harakat qilishadi.

Shuningdek, sport bilan shugullanmaslik, kompyuter o'yinlariga berilish, kun tartibiga rioya qilmaslik, stress, sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi bilimlarning kamligi, muhit ta'siri to'laqonli sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish uchun asosiy o'rin tutadi.

Talabalarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini shakllantirish uchun universitet talabalari sog'lom turmush tarzida "talab" tushunchasini aniqlash va ko'rib chiqilayotgan jarayonga nazariy yondashuvlarni aniqlash kerak. Shaxsning rivojlanish tarixi uning ehtiyojlarining rivojlanish tarixi bilan bog'liq. Insonning umri davomida yaxshi va qoniqarli sharoitda yashashga bo'lgan ehtiyojlari uni faoliyatga (harakatga) undaydi. Bizning tushunchamizda "talab" - bu biror narsaga muhtoj bo'lgan shaxsning ichki talabi va uni qondirish uchun ehtiyoj ob'ektiga va ushbu ob'ektga nisbatan uning faoliyati manbaiga bo'lgan munosabatining ifodasidir.

Talabalarni sog'lom turmush tarziga rioya qilishga o'rgatish, ularni kundalik hayotda jismoniy tarbiyaning turli usullari va shakllaridan muntazam ravishda foydalanishga qiziqtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj individual hatti-harakatlarning asosiy rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi kuchidir. Talabalarning salomatlik tushunchalari haqidagi dunyoqarashni oshirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini egallashlari, ularda jismoniy tarbiya va sportga, sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan talablar va ularni yaratib berish-ularning salomatlik darajasini oshiradi va rivojlantiradi.

**Tadqiqot.** Talabaning darsdan so'ng sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni yaratishda:

- harakat va jismoniy faoliyatga bo'lgan talab;
- do'stlar bilan bo'sh vaqt o'tkazish;
- muloqot, aloqalar olib borish va turli o'yinlar tashkillashtirish;
- kun tartibini (uyquning yetarli bo'lishi, yaxshi dam olish, uy ishlariga yordamlashish, ertalabki badantarbiya, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, kitob o'qish) kabi zarurlarni ota-ona va pedagog bilan birgalikda paralel tarzda olib borish shart.

Aslida, sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish hayotimizning boshi hisoblanmish bolalikdan boshlanadi va maktab va talabalik yillarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish zarurati davom ettirilib, dolzarb masala sifatida qaraladi, albatta buning uchun talaba yetuk shaxs sifatida o'zida sog'lom turmush tarzini mujassamlashtirgan bo'lib bo'lishi kerak, tashqi muhit omillarining ta'siri o'z aksini ko'rsatmasligi kerak.

Talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vazifasi salomatlik to'g'risidagi kerakli bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, onglilik, milliy g'urur, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminallik, fuqarolik burchini his etishdek zarur fazilatlar tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasida sog'lom turmush tarzini tashkil qilish uchun asosiy:

- axloqiy;
- sog'lomlashtiruvchi;
- rivojlantiruvchi;

tarkibiy qismlar asosiy ahamiyatga ega.

***Sogʻlom turmush tarzining tashkillashtirishning axloqiy tarkibiy qismida:***

-OTM da salomatlik toʻgʻrisidagi fanlarning oʻtilishi, salomatlik toʻgʻrisidagi tadbirlarning tashkillashtirilishi (1-dekabr OITSGa qarshi kurash kuni, 7-aprel-Butunjaxon salomatlik kuni, 26-iyun-Giyohvandlikka qarshi kurash kuni, salomatlik klublarining faoliyat olib borishi, “Salomatlik- bebaho boʻylik”, “OITS-asr vabosi”, “Reproduktiv salomatlik”... va hk.)

Salomatlik toʻgʻrisidagi ahloqiy tadbirlarning tashkillashtirilishi va oʻtkazilishi talabalar ongida sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tushunchalarning ortib borishiga, mustahkamlanishiga, turli salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlarni OTMda tashkillashtirishda turli mutaxassislarining ishtirok etishi, tadbirlar mobaynida oxirgi statistik maʼlumotlarning berib borilishi, taqdimot materiallarining tarqatilishi va koʻrsatilishi muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarining bu boradagi bergan maʼlumotlari OTM talabalarida qiziqarli va taassurotli talabni qondiradi.

***Sogʻlom turmush tarzining tashkillashtirishning sogʻlomlashtiruvchi tarkibiy qismida:***

OTMlarning barcha yoʻnalishlarida ayniqsa boshlangich bosqichida jismoniy tarbiya darslarining qoʻyilishi barcha talabalar uchun sogʻlom turmush tarzi koʻnikmasi hosil boʻlishiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya darslarida talabalar yoshga va jinsga mos boʻlgan, oliy taʼlim vazirligining tasdiqlab bergan fan dasturi asosida jismoniy mashgʻulotlarni tashkillashtirib oʻtadilar. Jismoniy mashgʻulotlarning toʻgʻri va qiziqarli tashkillashtirilishi natijasida talabalar aqliy mehnatdan cheklanib, jismoniy tarbiyaga jalb etiladilar, vaqtinchalik boʻlsada talabada ruhiy zoʻriqish oldi olinadi, kayfiyatining koʻtarilishi, ishtahaning ochilishiga uyquchanlikdan chiqishga, qon aylanishning yaxshilanishi natijasida immun tizimi faolligining ortishiga, turli kasalliklarning oldini olish va jismoniy rivojlanishiga turtki boʻladi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining darsni qiziqarli oʻtishi va sport zallaridagi yahshi yaratilgan sharoitlar talabalar kayfiyatini koʻtarib, sportga boʻlgan qiziqishini orttiradi.

Shuningdek, universitet talabalarining sogʻlom turmush tarziga boʻlgan ehtiyojini shakllantirishning faoliyat komponenti talabalarining ommaviy jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish tadbirlarida ishtirok etishini nazarda tutadi; taqlabalarining sogʻligʻi va jismoniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda faol dam olish, koʻngilochar tadbirlarda, turnirlarda, festivallarda, sogʻlomlashtirish kunlarida, piyoda sayohatlarda, spartakiadalarda, oʻquvchilarning sogʻlomlashtirish va sport oromgohlarida, turistik markazlarda boʻlishi va boshqalar.

***Sogʻlom turmush tarzining tashkillashtirishning rivojlantiruvchi tarkibiy qismida:***

Oliy taʼlim muassasasida taʼlim olayotgan talaba oʻqish mobaynida ham aqliy, ham jismoniy jihatdan oʻsadi, shakllanadi va rivojlanadi. Sogʻlom turmush tarzi tarkibiy qismlari (komponentlari) toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlgan talaba doimiy tarzda bu borada oʻz bilimini oshiradi, oʻz ustida shugullanadi, keng dunyoqarashga ega boʻladi. Bu bilimlari uni kelajakda oʻz mutaxassisligi ustida ishlash vaqtida ham hayot faoliyati davomida ham doimiy qoʻl keladi. Oliy taʼlim muassasida oʻqish mobaynida talaba salomatlik toʻgʻrisidagi bilimlarini egallaydi: salomatlik va kasallik, ruhiy salomatlik, stress, depressiya, zararli odatlar va ularning oldini olish, yuqumli kasalliklar, reproduktiv salomatlik, sportning organizmga taʼsiri va boshqa turli mavzular yuzasidan maʼlumotlarga ega boʻladilar. Universitet talabalarining sogʻlom turmush tarziga boʻlgan ehtiyojlarini shakllantirishda talabalar oʻz sogʻligʻiga ongli, faol munosabatga erishishiga undaydi, bunga albatta talabalarga jismoniy tarbiya, sport katta yordam beradi. Talaba uchun sogʻlom turmush tarzining aynan oʻqish bilan bogʻliqligi real kunlik ehtiyojga aylanib ulgurushi kerak.

**Natija.** Sogʻlom turmush tarziga boʻlgan ehtiyojning shakllanish darajasini aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalanamiz:

1. Axborot-kognitiv
2. Hissiy-irodaviy
3. Motivatsion-faollik
4. Refleksiv
5. Aksiologik
6. Tarbiyaviy

Axborot-kognitiv mezon koʻrsatkichlariga quyidagilar kiradi: sogʻlom turmush tarzi tarkibiy qismlari (ratsional ovqatlanish, uyquning normalligi, ish va dam olishning muttanosibligi, shahsiy va jamoa gigiyenasiga rioya qilish, faol harakatning doimiyliigi, zararli odatlardan voz kechish va bq.) . Bu kabi mezonlar toʻgʻrisida oʻz bilimini doimo oshirib borish;

Hissiy-irodaviy mezon koʻrsatkichlariga quyidagilar kiradi: sportga va faol harakatga boʻlgan ishtiyoqning borligi va doimiy amalda qoʻllash, sport targʻibotida ishtirok etish, jismoniy barkamollikka erishish va namuna boʻlish;

Motivatsion-faollik mezon ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: Talaba-yoshlarning kundalik hayotida muhim rol o'ynaydi. Sog'lom turmush tarziga doimiy rioya qilish va undan foydalanish, kun tartibiga rioya qilish, tartib va jismoniy faoliyatining muntazam rejimiga rioya qilish.

Refleksiv - mezon ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: Shaxsiy xususiyatlarni bilish, o'z salomatligiga befarq bo'lmaslik, salomatlik bo'yicha doimiy o'z-o'zini nazorat qilish, salomatlikka oid yangiliklarga befarq bo'lmaslik, atrof-muhitdagi o'rtoqlarining salomatligiga nisbatan befarq emasligi;

Aksiologik-yoshlarda salomatlik insonning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lgan ne'mat, muhim qadriyat sifatidagi barqaror tushuncha ekanligini tushuntirish, targibot, tadbirlar orqali yetkazish;

Tarbiyaviy-salomatlikni saqlash, mustahkamlash va qadrlash kabi xususiyatlarni kasbiy va amaliy salomatlikka oid fanlar orqali (Jismoniy tayyorgarlik asoslari, Valeologiya, Hayot faoliyati havfsizligi, Yosh fiziologiyasi, anatomiyasi va gigiyenasi kabi fanlar) orqali keng darslar tashkilatirilgan holda, seminar-treninglar, bilim, ko'nikmalar orqali shakllashtirish va targibot qilish;

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizning oliy ta'lim muassasasida o'qishi mobaynida sog'lom turmush tarziga rioya qilishini parallel tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir:

Buning uchun albatta ular:

- faol jismoniy harakat qilish, chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish;

- kun tartibini oqilona rejalashtirish va unga doimo amal qilish;

- jismonan va ruhan toliqishga yo'l qo'ymaslik;

- aqliy va jismoniy mehnatni gigiyenik talablar asosida to'g'ri rejalashtirish;

- to'g'ri va sifatli ovqatlanish;

- shaxsiy va umumiy gigiyena talablariga rioya qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatga erishish;

- yuqumli kasalliklar, jarohatlanish va baxtsiz hodisalarning ro'y berishini oldini olish;

- to'g'ri jinsiy tarbiya olish;

- psixogigiyena talablari (haddan tashqari asabiylashish va hayojonlanishning oldini olish)ga amal

qilish;

- zararli odatlarga berilmaslik (tamaki mahsulotlarini iste'mol qilmaslik, ichkilikbozlik va giyohvandlikka yo'l qo'ymaslik va h.k.).

Oliy ta'lim muassasasi talaba-yoshlarining sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning sog'lom avlod g'oyasini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega:

- milliy genofondni saqlash, milliy mentalitetni kuchaytirish;

- jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalash;

- erkin va mustaqil, kuchli va sofdil avlodni o'stirish;

- iqtidorli va sog'lom fikrli, to'g'ri mulohaza yurituvchi erkin yoshlarni tarbiyalash;

Bu g'oyalar talabani jismoniy, psixologik jihatdan sog'lom bo'lishiga, salomatlik asosida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatishga, organizmning umumiy va reproduktiv salomatligi bilan tanishtirishga, bundan tashqari barkamol avlodni shakllantirishga, shaxs va millat salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Sog'lom turmush tarziga o'rgatishning va uni tashkil etishning haqiqiy amaliyotida ulg'ayib borishning turli bosqichlarida motivatsiyani shakllantirishning eng samarali uslublarini va uslubiy usullarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar:

1. Mardonova S.M., Sharofutdinova R.I., Tolibova Z.H. Hayot faoliyati xavfsizligi Darslik. Buxoro.-2022.

2. Arziqulov Rahmon Sog'lom turmush tarsi asoslari (valeologiya), O'quv qo'llanma. Toshkent—2009

3. Шарипова Д.Ж., Фузаилова Г.С., Шахмурова Г.А., Тоирова М.Т.л., Маннапова Н.Ш., Арбузова Т.Л., Тошманов Н.Д., Туркменова М., Зуфарова Д. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, Ўқув услубий қўлланма. Фарғона нашриёти-2010

4. Mardonova S.M. Sport tibbiyoti va rehabilitologiya. Darslik. Buxoro-2022.

5. Mardonova S.M. Влияние вредных факторов на здоровье человека и широкое применение требований к здоровому образ жизни у молодежи. Научный журнал "Вестник магистратуры" 2020/12 Т-111

6. Mardonova S.M. Зарарли омиларнинг инсон саломатлигига таъсири ва ёшларда соғлом турмуш тарзитабаларини кенг татбиқ этиш. Научный журнал "Вестник магистратуры" Россия, 2020/12-2 Т-112-115b

7. Mardonova S.M Хаёт хавфсизлиги коидаларини ўқитишнинг самарадорлиги, Science and education, volume 3, issue 9 september 2022,492-496b
8. Mardonova S.M Efficiency of creation and use of multimedia training courses in the education system, Faculty of Natural Sciences, Bukhara state university, Uzbekistan, September, 10-December, 15, 2020. San Francisco, California, USA
9. Mardonova S.M. Efficiency Of Creation And Use Of Multimedia Training Courses In The Education System, 2021 San Francisco, California, USA.Том-1
10. Mardonova S.M The influence of bad habits on the human body, vol-6-issue-1- february - 2021,129-139b



## OILAVIY NIZOLARNING FENOMENOLOGIYASI: MOHIYATI, ANIQLOVCHI XUSUSIYATLAR

*Narmuradova Rayhon Uktamovna,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Oilaning barqarorligi, tinch va totuvligi shu oilaning barcha aʼzolariga birdek bogʻliq. Shuningdek, chetki taʼsir koʻrsatuvchi obyekt va subyektlar ham muhim ahamiyatga ega. Oilaviy nizolar nafaqat er-xotin oʻrtasida, balki oilaning boshqa aʼzolari oʻrtasida bevosita yoki bilvosita sodir boʻlishi mumkin. Ushbu ilmiy maqolada aytib oʻtilgan masalaning fenomenologik xususiyatlari, mohiyati va bartaraf etish omillari tahlil etiladi hamda ayrim takliflar keltiriladi.*

**Kalit soʻzlar:** *er-xotin, oila aʼzolari, nizolar, mahalla, psixolog, metod, yarashtirish, soʻrov, kelishuv.*

## ФЕНОМЕНОЛОГИЯ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ: СУЩНОСТЬ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

*Семейная стабильность, мир и согласие в равной степени зависят от всех членов этой семьи. Также важны объекты и предметы, оказывающие периферическое воздействие. Семейные споры могут возникать не только между супругами, но и между другими членами семьи прямо или косвенно. В данной научной статье анализируются феноменологические характеристики, сущность и факторы устранения указанной проблемы, а также даются некоторые предложения.*

**Ключевые слова:** *пара, члены семьи, конфликты, соседство, психолог, метод, примирение, запрос, соглашение.*

## PHENOMENOLOGY OF FAMILY CONFLICTS: ESSENCE, DETERMINING CHARACTERISTICS

*Family stability, peace and harmony depend on all members of this family equally. Also, objects and subjects that have peripheral effects are also important. Family disputes can occur not only between spouses, but also between other family members directly or indirectly. This scientific article analyzes the phenomenological characteristics, essence and elimination factors of the mentioned issue and makes some suggestions.*

**Keywords:** *couple, family members, conflicts, neighborhood, psychologist, method, reconciliation, inquiry, agreement.*

**Kirish.** Oila — jamiyatning asosiy boʻgʻini, muqaddas maskan. Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat — Bosh Qomusimizda oila masalasiga alohida urgʻu berilgani ham bejiz emas, albatta. Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy boʻgʻini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega ekanligi belgilab qoʻyilgan. Har qaysi millatning oʻziga xos maʼnaviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning oʻrni va taʼsiri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuygʻulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bagʻrida shakllanadi. Yaʼni oila maʼnaviy jihatdan butun boʻlsagina, mustahkam boʻladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta, qudratli boʻladi. Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlari oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, nafaqat er-xotin, ayni chogʻda voyaga yetmagan farzandlarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga molik. Oilaviy ajrimlar bugungi kunda dolzarb muammo, jamiyatimizning ogʻriqli nuqtasiga aylanib ulgurdi. Yurtimizda jar yoqasiga kelib qolgan oilalarni asrab qolishga, bolalarni tirik yetim, onalarni yolgʻiz qoldirmaslikka jiddiy eʼtibor qaratilyapti. Mahalla faollari, diniy ulamolar, maʼnaviyat va maʼrifat targʻibotiga daxldor tashkilotlar va keng jamoatchilik saʼy-harakatlariga qaramay, afsuski, oilaviy ajrimlar soni keskin kamaymayapti. Shu oʻrinda bir savol tugʻiladi: Xoʻsh, nega ajrimlar, oilada nizoli holatlar vujudga kelyapti? Oqibatlar oʻrganilganda, oilalarning ajralib ketishiga moddiy yetishmovchilik, uchinchi shaxs aralashuvi, befarzandlik, jufti haloliga xiyonat, uzoq vaqt birga yashamaslik, oʻzaro bir- birini tushunmaslik sabab boʻlayotgani oydinlashadi. Tan olish kerak, oilalarning buzilib ketishiga qaynona-kelin munosabatlarining yomonlashuvi, achinarlisi, jahl ustida aytilgan birgina achchiq gap ham sabab boʻlmoqda. Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, oʻzaro muhabbatning yoʻqligi, feʼl-atvorning toʻgʻri kelmasligi, er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, ayrim

yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** N.S. Alikariev shunday deydi: o‘‘sib kelayotgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash o‘‘z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olmog‘i lozim [2]:

1. Nikoh-oila va demografiya xususida davlat siyosatini ochib beruvchi, shuningdek, nikoh-oila munosabatlari, oilaning o‘‘rni, oilaviy qadriyatlar, ota-ona va kelin-kuyovlarning ijtimoiy roli xususida jamiyatning fikrini ifoda etuvchi ijtimoiy-demografik;

2. O‘‘z ichiga quyidagi axloqiy fazilatlarini: o‘‘zga jins vakiliga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lish, ota-onasiga, katta-kichikka nisbatan hurmat, bolalar tarbiyasiga ehtiyoj, mas‘uliyatlilik, ishonch, halollik, o‘‘zini tutish, muloyimlik, yon bosish, umr yuldoshiga, bolalarga nisbatan burchni his etish, intim hissiyot madaniyati kabilarni qamrab oluvchi axloqiy-etnik;

3. Nikoh va oilaga oid qonunchilikdan boxabar bo‘lish, oila huquqining ahamiyatga molik yo‘riqnomalarini bilish, kelin-kuyovlarning bir-biriga, bolalarga va jamiyatga nisbatan majburiyatlarini bilish singari huquqiy;

4. Shaxsning rivojlanishi tushunchasini shakllantiruvchi o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarining ruhiy jihatlari, nikoh va oilaviy hayotning ruhiy asoslari, boshqalarning ruhiyatini tushuna bilishi, turmush va oila hayotida zarur bo‘luvchi tuyg‘ularning rivojlanishi, muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish singari ruhiy;

5. Jinsiy hayot, shaxsiy gigiena masalalarini, erkak va ayolning jismoniy alohidaligi kabi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan jismoniy-gigienik;

6. Bolalar tarbiyasida oilaning roli, uning pedagogik salohiyati, oilaviy tarbiyaning xususiyatlari, ota va onaning tarbiyaga yondashuvlari, ota- onalarda pedagogik madaniyatni oshirish yullari shakllanishi bilan bog‘liq pedagogik;

7. Oila jamg‘armasi, maishiy madaniyat, uy xo‘jaligini yuritish va boshqalarni o‘z ichiga olgan xo‘jalik-iqtisodiy.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Ajralish tufayli noto‘liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto‘liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo‘lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy yo‘l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning barchasi asosan ajralish oqibatida yuzaga kelgan hamda noto‘liq oilalarda bo‘layotgani achinarli.

Ajrimlarning oldini olish uchun nimalarga e‘tibor berishimiz kerak:

- Avvalambor, nikoh har doim ikkala tomonning roziligi asosida bo‘lishita‘minlanishi;
- Yangi turmush qurgan yoshlar birga yashab, bir-birlarini o‘rganib, tushunib olishlari uchun vaqt lozim. Bu orada turli kelishmovchiliklar bo‘lishi tabiiy. Shunday holatda atrofdagilar mayda-chuyda kelishmovchiliklarga ham aralashavermasligi, yoshlarning o‘zlari hal qilishlariga qo‘yib berishlari kerak. Chunki ko‘pincha birovlarining noto‘g‘ri aralashuvi oilaning buzilishiga olib keladi;
- Ayollar o‘z burchini bajarib, turmush o‘rtog‘iga munosib rafiqqa bo‘la olishmas ekan, turmush o‘rtoqlaridan ham yaxshi er chiqishini kutmasliklari kerak;
- Erkaklar ham ayoli har qancha mehr-muhabbat ko‘rsatmasin, ularga yaxshi muomalada bo‘lishmasa, bir kuni xotinning ham sabr kosasi to‘lishi mumkin. Shuni esdan chiqarmangki, yolg‘izlik yagona Allohga xosdir. Biz esa ojiz bandalarmiz. Uzoq safarimizda hamrohga, yelkadoshga muhtoj yo‘lovchilarmiz.

Oila avlodlar almashuvi jarayoni ta‘sirida doimo o‘zgarib turadi. Bugungi kunga kelib o‘zbek oilalari ba‘zi muammolarga duch kelib turibdi. Yoshlar salomatligi, ayollarning reproduktiv salomatligi, shar‘iy nikoh, otalikni belgilash, ajrimlarning ko‘payishi, noto‘liq oilalarning ortib borishi, chin yetimlik ko‘rsatkichining ortishi va migratsiyasining ortishi kabi dolzarb muammolar o‘z yechimini talab etmoqda.

Oila kodeksiga ko‘ra, shar‘iy nikohlar qonun bilan kafolatlanmaydi. Musulmonlar idorasi muftiysining fatvosiga asosan, nikohi qayd etilmagankelin-kuyovlarga shar‘iy nikoh o‘qish ma‘n etiladi. Ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublikada shar‘iy nikoh asosida oila qurayotganlar soni ortibbormoqda. Bu holat yolg‘iz onalik va otalikni belgilash kabi salbiy ko‘rsatkichlar oshib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Oila shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta‘sir etuvchi jarayon nikohning bekor qilinishi, ya‘ni oiladan ajralishdir. Nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko‘zda tutadi.

Ajralganlarning ko‘pchiligi yosh oilalar bo‘lib, ularda hayotiy ko‘nikma va tajriba yo‘qligi hamda bir-biriga yon bosishni xohlamasligi ajralish uchun asosiy sabablaridan biriga aylangan. Yoshlarning oila qurishdagi ijtimoiy- iqtisodiy va ma‘naviy yetukligining past darajadali oilaning muvaffaqiyatli yashab ketishida bir qancha muammolarni yuzaga keltirmoqda va ajralishga sabab bo‘lgan.

*Sevgi va baxtli turmush kechirishning asosiy tarkibiy qismlari*

Oilaviy turmushda erkak va ayol — nafaqat hamxona, birga yashovchilar, balki umumiy intilishlar va hissiyotlar bilan birlashgan alohida shaxslardir. Hayvonot dunyosining ko‘pgina vakillaridan farqli ravishda ayollar va erkaklar qisqa muddat ichida naslni davom ettirish maqsadida qovushmaydilar, balki ular uzoq muddat davomida birgalikda hayot kechirishadi.

Oilaviy hayot sharoitida o‘z individual xususiyatlarga ega bo‘lgan er va xotin ko‘p yillar davomida birga turmush kechiradi, bu esa ularning bir- biriga moslashishi, ko‘nikishi ehtiyojini keltirib chiqaradi. Yoshlik davrlarida keksalikka nisbatan inson ruhiyatida ro‘y berayotgan jarayonlarda katta plastiklik, ulardagi oson o‘zgarish ko‘zga tashlanadi. Tabiiyki, erta tuzilgan nikohlar katta yoshda tuzilgan nikohlardan ko‘ra mustahkam bo‘ladi, degan tasavvur ham kelib chiqishi mumkin. Lekin doim ham shunaqa bo‘lavermaydi. Quyida oila qurayotgan yoshlar o‘zaro munosabatining psixofiziologik asoslarini sxematik tarzda keltiramiz.

*Qiz.* Uning eng yaqin insoni va barcha masalalar bo‘yicha maslahatgo‘yi onasi bo‘ladi. Aynan ona qizining to‘yga oladigan kiyimlari, kimlarni chaqirish, yoshlarning qaerda yashashi kabi masalalar borasida maslahatlar beradi. Ona ko‘pincha kuyovning xarakteridagi ijobiy va salbiy jihatlar, uning moliyaviy imkoniyatlarini ochiq muhokama qiladi.

Kelin ularning barchasini eshitishni istashi yoki istamasligidan qat’i nazar, onasini tinglashga majbur, chunki yosh oila hali moddiy jihatdan ota- onalarga qaram bo‘ladi. Biroq kelin o‘z ko‘nglida to‘ydan so‘ng "barchasi boshqachabo‘ladi" deb hisoblaydi: u o‘z turmush o‘rtog‘i bilan o‘z hayotini o‘zi xohlagan tarzda qura oladi. Uning tasavvurida eri oilalarida yetarlicha hurmat va o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan otasidan farq qiladi.

Qiz bola uchun kuyov bilan munosabatlar va sevilish istagi odatiy "muloyim so‘zlar musiqasi" va umumiy e‘tibordan iborat bo‘ladi, jinsiy yaqinlik esa unda hatto qo‘rquvni vujudga keltiradi. Albatta, u nikohdan keyingi oilaviy hayotda jinsiy yaqinlashuv ro‘y berishini biladi, ammo, ko‘pincha er-xotin munosabatlarida uning qanday ahamiyatga ega ekanligi qiz bolani qiziqitirmaydi va unga intilmaydi ham. Uni birinchi navbatda xotin, oila bekasi sifatidagi yangi rolga o‘tish ko‘proq qiziqtiradi.

*Yigit.* Ota-onasining maslahatlari u uchun katta ahamiyatga ega emas. U kelinga nisbatan muhabbat va nazokat bilan to‘lib-toshgan, moliyaviy masalalar uni ko‘p qiziqitirmaydi. Yigitda rashk tuyg‘usi eng asossiz sabablarga ko‘ra ham uyg‘onishi mumkin. U kelindan e‘tibor, muloyimlik va mehribonlik qilishini kutadi: kelinning sovuqqonligi uni sarosimaga solibqo‘yadi va uni hayronlik hissi qamrab oladi, chunki u kelin ham o‘z boshidan kechirayotgan tuyg‘ularni boshidan kechirishi lozim, deb hisoblaydi.

Yigitda jinsiy hayotga bo‘lgan intilish shu darajada yuqori bo‘ladiki, u deyarli hamma vaqt o‘z sevgilisiga egalik qilishni orzu qiladi. Yuqorida keltirilganlar albatta, sxema, ammo shularning o‘zi ham yosh oilalar oldida ko‘plab psixologik va fiziologik muammolar turganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlar amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi, ushbu qonunchilik asosini nikoh va oila to‘g‘risidagi Kodekslar tashkil etadi.

*Nikoh* — bu erkak va ayol o‘rtasidagi hamda ularning farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi, tarixiy nuqtai nazardan asoslangan, tasdiqdan o‘tgan va jamiyat tomonidan boshqariladigan munosabatlar shakli. Nikoh yuridik huquqiy ahamiyatga ega bo‘lishining eng muhim shartlaridan biri davlat tashkiloti — FHDYO bo‘limida ro‘yxatdan o‘tish sanaladi. Erkak va ayol o‘rtasidagi birgalikdagi yashash to‘g‘risidagi kelishuv, shu jumladan, jinsiy munosabatlar ro‘yxatdan o‘tmasdan turib er- xotinlik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirmaydi. Bu ham davlat va jamiyat manfaatlarini hamda er-xotin va ularning bolalari huquqlarini himoya qilish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan.

*Inson temperamenti va ruhiy moslik*

Oilaviy hayotning muvaffaqiyatli bo‘lishida nafaqat fiziologik muvofiqlik, balki ruhiy moslik ham katta ahamiyatga ega. Oilaviy yashash insonlar oldiga nafaqat tarbiya va atrof-muhitdagi voqelikni baholash, balki irsiyat bilan ifodalanadigan oliy asab faoliyati xususiyatlari — temperament bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni ham qo‘yadi [4]. Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, insonning temperamentini o‘zgartirish imkoniyatimavjud emas.

Insonlarning ruhiy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanishini bundan bir necha ming yillar ilgari Gippokrat yozib ketgan edi. U quvnoq sangvinik, vazmin flegmatik, qiziqqon xolerik va sustkash melanxolikning xarakterini ta’riflab bergan edi.

*Temperament oliy asab tizimi tipi* — asab tizimining asosiy xususiyatlari yig‘indisi: kuch, vazminlik va qo‘zg‘alish hamda tormozlanish jarayonlarining harakatchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Temperamentlardan birini nisbatan "yuqori" toifali, yana birini esa nisbatan "past" toifali deb baholash xato bo‘lar edi. Turli temperamentli shaxslar orasidan nafaqat iqtidorli, balki daholarni ham ko‘plab uchratish mumkin. Sangvinik va flegmatik yuqori ish qobiliyatiga ega deb sanaladi. Taniqli qo‘mondonlar va siyosiy arboblar

orasida melanxoliklar deyarli uchramaydi, shu bilan birga ilmiy xodimlar va ijodkorlar orasida ularning soni ko‘pchilikni tashkil etadi.

Temperament er-xotinning oilaviy hayotdagi xatti-harakatlariga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy hayotda insonlarning u yoki butemperamentdagilar bilan munosabatini modellashtirishga urinib ko‘ramiz.

Melanxolik ta’bi nozik va o‘ta ta’sirchan. Unga o‘zini ranjitishayotgandek va yerga urayotgandek tuyuladi; past ovozda gapiradi, hayotdagi ko‘ngilsizlik va qiyinchiliklarni fojia sifatida qabul qiladi. U bugungi kundan ko‘ra yaxshiroqdek tuyuluvchi o‘tmish haqida gapirishni yaxshi ko‘radi, kelajak haqida vahima bilan fikr yuritadi. Ko‘pincha hayotdan, ishdagi muvaffaqiyatsizliklar va kasalliklardan noliydi. Er-xotin o‘rtasidagi har qanday keskin suhbat uzoq vaqt davomida unga azob beradi; uni ataylab ranjitishmoqchi va haqoratlashmoqchi bo‘lishgan, deb qabul qiladi.

Flegmatik eng murakkab vaziyatlarda ham vazminlikni saqlab qoladi, lekin barchasini ichiga yutadi: uning yuzidan hech narsani anglab bo‘lmaydi. U konservativ, odatlarini kamdan-kam hollarda o‘zgartiradi, tanishlari va do‘stlari kam bo‘ladi, insonlar bilan chiqishib ketishi qiyin, ammo uning sadoqatiga bemalol ishonish mumkin. Flegmatiklar mehnatkash, oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda sabotli, puxta va ko‘pincha muhabbatiga sadoqatli bo‘lishadi. Oilaviy nizolar vaqtida vazminligini saqlab qola oladi, ammo nizolarni uzoq vaqt davomida unuta olmaydi.

Xolerik faol, tirishqoq, ziyrak, ammo undagi bu sifatlar beqarordir. Ko‘pincha besabr, o‘zini tuta olmaydi, dadilligi kuchsiz ifodalangan. O‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga kamdan-kam erishadi, hech narsa uni to‘xtata olmaydi. Kayfiyati juda tez o‘zgaradi, ayrim hollarda bir daqiqadan so‘ng o‘zini qanday tutishini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Qo‘pollik qilishi, haqoratlashi, ammo darhol to‘xtatishi mumkin! O‘zini tiya olmasligini jiddiy qabul qiladi, kechirim so‘raydi. Xatti-harakatlardagi bunday beqarorlik ko‘pincha oila nizo chiqishiga olib keladi.

Sangvinik bilan oilada xotirjam va quvnoq yashash mumkin. U jo‘shqin, yuqori ish qobiliyatiga ega, mehnatsevar, ro‘zg‘or ishlarida ham faol ishtirok etadi — bularning barchasi unga muammo tug‘dirmaydi. Jamoatchilik orasida o‘zini ishonchli tarzda va xotirjam tutadi, insonlar bilan tez chiqishib ketadi, maydachudalardan xafa bo‘lmaydi, hayotga maksimalistik nuqtai nazari bilan qaraydi, hazilni yoqtiradi. Sangvinik o‘tmish bilan o‘ralashib o‘tirmaydi va kelajak haqida ham keop‘ qayg‘urmaydi, u bugungi kun bilan yashaydi. Oilaviy nizolar paytida o‘zini xotirjam va ehtiyotkor tarzda tutadi, sherigini ranjitmaslikka harakat qiladi. Atrof-muhitga oson ko‘nikadi.

Oila qurishda temperamentlardagi tafovutlarni inobatga olmaslik mumkin emas. Tasavvur qiling, xolerik va melanxolik oila qurishdi. Birinchi navbatda xolerik o‘zining beqaror va tiyiqsiz xarakteri bilan dastlabki kunlardayoq o‘z sherigini shunchalik ko‘p xafa qiladiki, turmush o‘rtog‘i bu xafagarchiliklarni jiddiy qabul qilishi oqibatida ularning hayotida murakkab jarayonlar vujudga keladi. Yoki er va xotin — ikkalasi ham melanxolik — bu hayot o‘ta zerikarli va rangsiz bo‘ladi, har ikki tomon ham o‘z salomatligi haqida, kasalliklarni chetlab o‘tish borasida qayg‘uradi. Agar har ikkalasi ham xolerik bo‘lsa-chi? Bu vaziyatda nafaqat og‘zaki aytilishuvlar, balkimushtlashuvlar ham yuz berishiga shubha qilmasak ham bo‘ladi.

Oila uchun nisbatan yaxshi juftlikni quyidagi temperamentlar tashkil etadi: sangvinik va melanxolik, flegmatik va xolerik, sangvinik va xolerik. Sangviniklar bilan har qanday temperamentdagi insonlar muvaffaqiyatli hayot qurishi mumkin, chunki sangvinik sherigiga moslashishning imkonini topadi oilaviy hayotni kerakli o‘zanga tushira oladi.

**Natijalar.** Bugungi kunda psixologiyada nikoh-oila munosabatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator metodikalar mavjuddir. Lekin shunga qaramay, oilaviy konsultatsiya sohasidagi eng nozik masala mijozning oila-nikoh munosabatlari to‘g‘risida to‘liq, aniq va ob‘ektiv ma’lumot ola bilishdir. Diagnostika aniq qo‘yilishi, korreksion ishning yo‘nalishini va metodlarni to‘g‘ri tanlash, hamda ko‘rsatilayotgan yordamning samarasi aynan shu ma’lumotga bog‘liq bo‘ladi.

Ekspert tizimini ishlab chiqish tajribasi ko‘rsatishicha, psixodiagnostika tizimini yaratish jarayonini 5 bosqichga ajratish mumkin [6]:

1. Muammoni identifikatsiya qilish – bu bosqichda vazifa aniqlashtirib olinadi, muammoga oid bilimlar manbasi topiladi (kitoblar, mutaxassislardan olingan ma’lumot, metodikalar).

2. Konseptualizatsiya – bu bosqichda olingan bilimlar tizimi shakllantiriladi: asosiy tushunchalar ro‘yxati tuziladi, tushunchalar orasidagi bog‘liqliklar, mantiqiy hukmlar ishlab chiqiladi. Konseptualizatsiya bosqichi vazifasi bilimlarni norasmiy tarzda tavsiflash bo‘lib, bunda asosiy konsepsiyalar va tushunchalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqliklargrafiklar, jadvallar, diagrammalar ko‘rinishida keltiriladi.

3. Formalizatsiya – bunda o‘rganilayotgan soha konsepsiyalari shakllantiriladi, mantiqiy metodlar va samarali modellar tanlanadi.

4. Realizatsiya – ekspert tayyorlangan va shakllantirilgan bilimlar bazasini tuzish uchun o‘ziga xos maxsus mahsulot bo‘lishi kerak. bu bosqichning asosiy vazifasi instrumental vositalar orqali dasturiy

majmua ishlab chiqishdan iboratdir.

5. Test o‘tkazish – yaratilgan ekspert tizimining ishlashini, hayotiy talablarga javob berishini tekshirish uchun hamda oldingi bosqichlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Oila diagnostikasida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish muhim ahamiyatga egadir [7]:

- oilaviy munosabatlar muammosining zamonaviy ilmiy va ommabop adabiyotlardagi holatini ko‘rib chiqish;

- nikoh-oila munosabatlari diagnostikasi metodikalarini aniqlashtirish;

- taklif etilgan metodikalarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berish;

- oilaviy munosabatlar bo‘yicha tadqiqotning nima maqsadda va qanday o‘tkazilishini psixodiagnostik metodikalarni qo‘llagan holda yoritib berish.

**Xulosa va munozara.** Psixologlarning fikricha, sog‘lom psixologik barqaror muhitga ega bo‘lgan oilani quyidagicha tavsiflash mumkin: oilaviy qadriyatlarining o‘xshashligi, rollarning yuqori adekvatligi, hayotning turli jabhalarida nizolarning kam bo‘lishi, bir-biriga hurmatning balandligi va emotsional yoqimlilik. Xorij va yurtimiz psixologlari tomonidan nikoh-oila munosabatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, insonlarni majburlab baxtli qilib bo‘lmaydi, lekin mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan psixodiagnostik metodikalar yordamida, kompleks yondashuv asosida nikoh-oila munosabatlarini o‘rganishni professional tashkillashtirish va konsultativ ko‘mak berish darz ketgan oilaviy munosabatlarni tuzatishga ma‘lum darajada hissa qo‘shishga ishonchimiz komil.

#### Adabiyotlar:

1. Yusupov Rustam Davronovich «Ichki ishlar organlarining hududlarda “mahallabay”, “oilabay” va “fuqarobay” tartibida ishlashni tashkil etish va boshqarish. 2022
2. Alikariev.N.S, karimova N.Ya (2021) Yosh oilalarda ajrimlarni oldiniolish choralari.
3. Trofimova I.N. "Inson xulq-atvorini prognozlash ekspert psixodiagnostika tizimining vazifasi sifatida" / "Psixologiya savollari", 2014 yil, № 3.
4. Chalov V.N., Belyalova M.A., Moroz V.A. Nikoh munosabatlarining diagnostikasi. Method.guide. Krasnodar, 2016. - 198 b.
5. Materiallar » Oila ichidagi munosabatlarni diagnostika qilish uchun maxsus psixologik usullar. <http://www.psworks.ru>
6. Aleshina Yu.E., Gozman L.Ya. Dubovskaya E.M. Nikoh munosabatlarini o'rganishning ijtimoiy va psixologik usullari. Ijtimoiy psixologiya bo'yicha maxsus seminar. - M.: MDU, 2017. - 126 b.
7. Isaeva M. Oilaviy munosabatlar psixodiagnostikasi //Internauka. – 2020. – №. 23-3. – b. 63-66
8. Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. - T.: «Ibn Sino», 1994.
9. To‘raeva O‘. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.: «O‘zbekiston», 1990.
10. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shaklla- nishi: Psixol. fanl. dokt. ... diss. - Farg‘ona, 1994. -322-b.
11. Niyozmetova G. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixolog. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: TDPU, 2010. -24-b.

UDK 37.013.46

## PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING KREATIV USULI

*Haydarov Orifjon Rustamovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

*Maqolada pedagog-o'qituvchilarning o'z faoliyati davomida umumta'lim maktablarda, kollej, texnikum, akademik litsey, oliy o'quv yurtlarida ta'lim berish sifatini samarali tashkil etish hamda malakasini oshirishda zamonaviy krativ yondoshuv shuningdek o'quv jarayonini tashkil etish va undan foydalanish, pedagogik sohasida boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni, ta'lim sohasida yuzaga keladigan muammolarni o'z o'rnida bartaraf etish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogika, ta'lim, kreativ, zamonaviy texnologiya, illyustratsiyalar, interfaol, onlayn platforma, topshiriq, videokonferensiya, 3D, ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ, o'qituvchi.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

*В данной статье рассматриваются организация и использование современного образовательного процесса в повышении качества образования в общеобразовательных школах, колледжах, техникумах, академических лицеях и высших учебных заведениях, процессы, связанные с особенностями управления в сфере, проблемы образования, возникающие в представлении поля лимов и методы их устранения.*

**Ключевые слова:** *современные технологии, иллюстрации, интерактив, онлайн-платформы, задания, видеоконференция, 3D, социальная компетентность, личностная компетентность, психологическая, методическая, познавательная, творческая, инновационная, коммуникативная.*


## USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

*In this article, the organization and use of the modern educational process in improving the quality of education in general education schools, colleges, technical schools, academic lyceums and higher educational institutions, processes related to management features in the field, education problems that occur in the field of lim and methods of their elimination are presented.*

**Keywords:** *modern technology, illustrations, interactive, online platforms, assignments, video conference, 3D, social competence, personal competence, psychological, methodical, informative, creative, innovative, communicative.*

**Kirish.** Hozirgi globalashuv davrida ta'lim sifati har bir sohada muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Birgina umumta'lim maktablarini oladigan bo'lsak, keyingi yetti yilda Respublikamizdagi maktab va maktabgacha ta'limini tizimli isloh qilish, ma'naviy o'sishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ajdodlarga munosib tarbiyalanayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishi uchun sifatli ta'lim tizimini tajriba asosida sifatli tashkil etish, ta'lim tizimini yanada yangi bosqichga ko'tarish ta'limning innovatsion usullarini keng ko'lamda amalga oshirish, o'quv jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi" PF-5538-son qarori hamda boshqaruv tizimini izchil takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilganligini inobatga olgan holda ushbu konsepsiyadan kelib chiqqan holda, bugungi maktablarning holatini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ushbu maqola oxiridagi xulosada berilgan zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning muhim jihati ekanligi haqida fikrlar berib o'tilgan. Haqiqatdan ham zamonaviy texnologiya va vositalar pedagog-o'qituvchilarga o'qitishning yangi uslublaridan foydalanish imkonini beradi, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.


Elektron darsliklar va manbalar: O‘qituvchilar elektron darsliklar va onlayn resurslardan dars materialini boyitish, qo‘shimcha illyustratsiyalar, videolar yoki interfaol tadbirlarni taqdim etish uchun foydalanishlari mumkin. Bu o‘quv jarayonini o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va jozibador qilishga yordam beradi.



1-rasm. Onlayn ta'lim platformalari

Moodle, Google Classroom, Schoology va boshqalar kabi ko'plab onlayn platformalar mavjud bo'lib, ular o'qituvchilarga virtual sinflar yaratish, materiallar, topshiriqlar, testlarni joylashtirish va talabalar bilan onlayn muloqot qilish imkonini beradi[5]. Bu o'qituvchilarga masofaviy ta'limni osonlik bilan tashkil etishga va har bir talabaga shaxsiy yordam ko'rsatishga yordam beradi.

Videokonferensiya va vebinarlar: Videokonferensiya va vebinarlar yordamida o'qituvchilar malaka oshirishda ishtirok etishlari, boshqa mintaqalar yoki mamlakatlardagi hamkasblari bilan tajriba almashishlari, seminarlar va mahorat darslarida qatnashishlari mumkin. Bunday tadbirlar o'qituvchilarga ta'lim sohasidagi so'nggi tendensiyalar va ilg'or tajribalardan xabardor bo'lishda yordam beradi.



2-rasm. Mobil ilovalar

Quizlet, Khan Academy, Edmodo va boshqalar kabi mobil ilovalar va onlayn vositalar o'qituvchilar va talabalarga turli fanlarni o'rganish, ko'nikmalarni rivojlantirish va bilimlarini sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Bu kabi vositalar qo'shimcha va individual mashg'ulotlar uchun samarali va foydali bo'ladi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat: Virtual va kengaytirilgan haqiqat o'qituvchilarga interfaol darslar va simulyatsiyalar yaratish imkoniyatini beradi, bu esa talabalarga kurs materiallariga sho'ng'ish va amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, vizualizatsiya va 3D modellar yoki mavhum tushunchalar bilan o'zaro aloqani talab qiladigan sohalarida o'rganish uchun foydalidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ma'lumki, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'lim sifatini oshirish turki adabiyotlar bilan ishlashga undaydi, Pedagoglardagi bu malaka va dabaiyotlar bilan ishlash o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishlarini yanad oshirishga xizmat qiladi. Bu kabi adabiyotlar bilan ishlash samarali ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, qaysi adabiyot bilan ishlanishi o'qituvchilarning bilim va saviyasi yoshlarni o'qitish amaliyotiga qanday kiritilishiga bog'liq. Adabiyotlarni aniq belgilash, yangi vosita va usullarni o'rganish, ularni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini samarali baholash pedagog uchun muhim ahamiyatga ega.

**Natijalar.** O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Ushbu vositalar qanday foydali bo'lishi mumkinligiga ba'zi misollar:

Onlayn kurslar va veb-seminarlar: O'qituvchilar uchun o'qitish texnikasidan tortib sinfda muayyan texnologiyalardan foydalanishgacha bo'lgan mavzularda kurslar va vebinarlarni taklif qiluvchi ko'plab onlayn platformalar mavjud. Ushbu manbalar o'qituvchilarga yangi bilim va ko'nikmalarni qulay formatda o'rganish va bitiruv sertifikatlarini olish imkonini beradi.

Onlayn jamoalar va professional ijtimoiy tarmoqlar: O‘qituvchilar Edmodo, TeachAde kabi onlayn hamjamiyatlarga qo‘shilishlari yoki Facebook yoki LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoq platformalarida professional guruhlarda ishtirok etishlari mumkin. Bu ularga hamkasblari bilan muloqot qilish, tajriba almashish, savollar berish va yordam olish imkoniyatini beradi.

Ta’lim bloglari va podkastlari: O‘qituvchilarga ta’lim sohasidagi yangi g‘oyalar, tendentsiyalar va ilg‘or tajribalar bilan tanishishni taklif qiluvchi ko‘plab ta’lim bloglari va podkastlari mavjud. O‘qituvchilar eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish va o‘zlarining professional ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mashhur bloglar va podkastlarni kuzatishlari mumkin.

Veb-asboblar va ilovalar: O‘qituvchilar interfaol darslar yaratish, baholash va fikr-mulohaza bildirish, hamkorlikni osonlashtirish va boshqalar uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan keng turdagi veb-asboblar va mobil ilovalar mavjud. Bunday vositalarga misol sifatida Padlet, Kahoot, Google Forms, Flipgrid va boshqalar kiradi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat: Virtual va kengaytirilgan haqiqat o‘qituvchilarga immersiv va interaktiv o‘quv muhitini yaratish uchun yangi imkoniyatlarni taklif qiladi. Masalan, ular o‘quvchilarni uzoq joylarga olib borish uchun virtual sayohatlardan foydalanishlari yoki murakkab tushunchalarni tasavvur qilish uchun kengaytirilgan haqiqatdan foydalanishlari mumkin.

Bular o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy ta’lim vositalarining bir nechta misollari. O‘qituvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan vositalarni tanlash va bu vositalarni o‘rganish va o‘zlashtirish uchun vaqt ajratish muhimdir.

**Muhokama.** Hozirgi kunda yangi O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda, jumladan, o‘zbek pedagogikasi hamda bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi mustaqil izlanishlarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ayni shu kunlarda, madaniyatni o‘z ichiga olgan pedagogika sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy madaniyatni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi”. O‘zida g‘oyatda keng, chuqur g‘oya, maqsad va mohiyatni ifodalovchi “estetik olamni sog‘lom asosda shakllantirish” degan ushbu fikr pedagog-o‘qituvchilarning oldida turgan eng dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoda[2]. Bu ma’naviy maydonni kreativ badiiy zamonaviy taraqqiyot yo‘nalishlarini, yetakchi xususiyatlarini belgilovchi tadqiqot ishlari olib borish vazifasi turganini ko‘rsatad. Ayniqsa maktablar, kollej, texnikum va oliy o‘quv yurtlarining o‘quv xonalarini yangi qulay, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash zamon talablariga javob beradigan holatda bo‘lishi maqsadga muvofiq va yuqori muhokamalarga olib keladi.

Birgina innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb yuritilishida o‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o‘tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

“Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.”-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o‘qituvchi va o‘quvchi mushtarakligiga erishish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg‘unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tiborkundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchi-talabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo‘ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o‘zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so‘nngi ilm-fan yutuqlaridan, o‘zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tishi talab etiladi.



Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo’yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini xalqaro 1000 talik ta’lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o’rganish va unlarni tadbiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda[1].

Fikrimizni aniqroq bayon etish uchun turli xildagi abituriyent tayyorlash o’quv kurslarini misol qilib keltirsak, bir tayyorlov kursi pedagogining maqsadi eng avvalo nomi eng yaxshilar safiga kirishi emas, mehnati samarasi bo’lgan tahsil oluvchilarning ko’zlangan maqsadiga erishishi bo’lib hisoblanadi. Misol uchun, ingliz tilidan IELTS kurslarini tahsil oluvchilari ushbu sertifikatni yuqori ballarda egallashi, fanlar bo’yicha abituriyentlarning o’zi tanlagan oliy ta’lim muassasasigaga yuqori natijalar bilan o’qishga kirishi-o’sha pedagogning birinchi o’rindagi maqsadi bo’lib hisoblanadi va shu maqsadga erishishi o’z-o’zidan uni eng yaxshi kurslar qatoriga kiritib qo’yadi. Ushbu yutuqlarning barchasi o’sha pedagogning nafaqat kuchli bilimiga, balki shu bilimni yetkazib berishga doir pedagogik texnologiyasiga ham bog’liqdir.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo’yicha mutaxassislardir. Mana shu yo’nalishlar ko’proq ochilsin oliy ta’lim muassasalarida va shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo’b, innovatsion texnologiyalar asosida o’qitishsin. Mana shu kabi sohalarida yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta’minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o’tiladigan oliy ta’lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb o’ylaymiz. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o’qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo’lishi kerak. Mohiyatiga ko’ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

**Xulosa.** Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktablar, kollej, texnikum va oliy o’quv yurtlarining pedagog-o’qituvchularining malaka va ko’nikmalarini, innovatsion tahlil qilish olib borilayotgan dars jarayonlarining yoshlar ruhiyatiga va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiluvchi muhim omil bo’lib xizmat qila olishiga e’tibor qaratish muhim sanaladi. O’quvchilarni fikrlashga, o’ylashga, matn yaratishga o’rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo’yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo’lmaydi. Bu esa keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta’limda tahlil yuzasidan bilim, ko’nikma, malakalarga ega bo’lib, til bo’yicha nazariy ma’lumotlarini mustahkamlab borishda yordam bera olmaydi. Shu sabab biz tahlillarimizni xulosalashda o’quvchilar bilim darajasini oshirishda ta’lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib kelinishida, nafaqat fanlarni o’zaro bog’lash orqali, balki o’zaro uyg’unlashishi mumkin bo’lgan va yoshlarga ijobiy ta’sir etadigan obyektlar orqali pedagog o’qituvchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga ko’maklashish kerak.

Ma’naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o’z-o’zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Tabiiyki, bu ulkan ishda pedagoglar ta’limining o’rni alohida ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi Farmoni.
2. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. - Yangi pedagogik texnologiyalar- Darslik.
3. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. “Pedagogika nazariyasi (darslik).” T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
4. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o’quv- uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
5. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога //Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
6. Ibragimovich X. I. O’zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul texnologiyalarini qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari //integration of science, education and practice. scientific- methodical journal. – 2021. – С. 209-214.
7. <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>

**TALABALARDA DO'STONA MUNOSABATLAR VA IJTIMOY HAMKORLIK  
KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHDA ISHCHAN O'YINLARNING DIDAKTIK  
AHAMIYATI**

**Qozoqov Sodiq Ramazonovich,**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti “Reabilitologiya, jismoniy  
tarbiya va sport tibbiyoti” kafedrasida dotsenti  
sodiqqozoqov@gmail.com*

*Ushbu maqolada o'quvchilarda do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan ishchan o'yinlar, mazkur o'yinlarni tashkillashtirish bosqichlari, o'yinlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish metodikasi va o'qituvchilarning o'z faoliyatlarida o'yinlardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion faoliyat, modernizatsiya, dialog, didaktika, obyektiv, obraz, interaktiv o'yinlar, rebus, syujetli-rolli va imitatsion o'yinlar, interaktiv, retrospektiv o'yinlar.*

**ДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕЛОВЫХ ИГР В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ  
ДРУЖЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ И СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА У  
СТУДЕНТОВ**

*В данной статье рассматриваются трудовые игры, служащие формированию у учащихся навыков сотрудничества на основе дружеских отношений, этапы организации этих игр, методика применения игр в учебной практике, а также использование педагогами игр в своей деятельности, навык использования.*

**Ключевые слова:** *Инновационная деятельность, модернизация, диалог, дидактика, предметные, образные, интерактивные игры, ребус, сюжетно-ролевые и имитационные игры, интерактивные, ретроспективные игры.*

**DIDACTIC SIGNIFICANCE OF BUSINESS GAMES IN FORMING FRIENDLY  
RELATIONSHIPS AND SOCIAL COOPERATION SKILLS IN STUDENTS**

*In this article, work games that serve to form students' cooperative skills based on friendly relations, the stages of organizing these games, the methodology of applying games to educational practice, and teachers' use of games in their activities the skill of use are discussed.*

**Keywords:** *Innovative activity, modernization, dialogue, didactics, objective, image, interactive games, rebus, plot-role and imitation games, interactive, retrospective games.*

**Kirish.** Didaktik o'yinlar o'z navbatida juda ko'plab tarkibiy qismlarga bo'linib, “ishchan o'yinlar” didaktik o'yinlarning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik atamalar lug'atida “ishchan o'yinlar”ga shunday ta'rif berilgan: “Ishchan o'yinlar o'quvchini o'yin asosida faollashtirish va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim metodi [1]”dir. Bu jarayonda o'quvchilar faollashish bilan bir qatorda, ular orasida do'stona muhit va ijtimoiy hamkorlik munosabatlari ham vujudga keladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida “hamkorlik” tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, “Hamkorlik – 1. Ish-faoliyatda birga, hamkor bo'lish, ayni bir ishda birgalashish, uni teng bajarish. 2. Biror sohada o'zaro bog'lanib, birgalikda, hamkor bo'lib ish olib borish[2]” ma'nolarini anglatadi.

“Do'stlik - ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi[3]”.

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi do'stona munosabatlari o'quv manfaatlarining birligi va uyg'unligiga asoslanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamkorliklari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda ular ijtimoiy, ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar. Bunday hamkorlik ta'lim jarayoni sub'ektlarining hamkorlikdagi ijodiy faoliyatini ifodalaydi. Ijtimoiy hamkorlik asosida o'quvchilarning jamiyat va hayotga munosabatlari, hayotiy tajribalari, o'zaro do'stliklari, qarashlari, e'tiqodlari rivojlanadi va uyg'unlashadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda har bir o'qituvchi u yoki bu darajada darsning noan'anaviy shakllarini qo'llaydi. Bu o'qituvchilarda yangi pedagogik tafakkur va innovatsion faoliyat tajribasining shakllanayotganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda o'qituvchining pedagogik tafakkuri ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilayotgan vazifalarni jadal tarzda yechishga yo'naltirilgan bo'lib, bu faoliyat talabalarni izlanish, ijod qilishga undashiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning natijasida o'quv jarayonini jadallashtirish va modernizatsiyalash imkoniyatlari kengayadi.

O'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan o'qitish shakllanining asosiy vositasi muayyan ta'sir ostida shunchaki yangilanmaydi. Birinchi navbatda ta'lim jarayonida talabalarining imkoniyatlarini kengaytirib, o'quv materiallarini o'yin shaklida o'zlashtirish jarayoniga ko'chiradi. Darhaqiqat, o'qituvchi o'z imkoniyatlari darajasida darsda talabalarni o'z vaqtining aksariyat qismini kutubxonalarda o'tkazib, mustaqil bilim olishga sarflashi zarurligiga ishonirishi kerak. Shu bilan bir qatorda, talabalar didaktik jarayonda faol o'yinchi shaklida ham namoyon bo'la olishlari muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tomondan esa, zamonaviy o'qituvchi oldiga o'quv fani mazmunini yangicha nuqtai nazardan tahlil qilish vazifasi qo'yilmoqda. Shu tariqa u talabalarga muammolarni yechishning muqobil yo'llarini taqdim eta olishi kerak. Talabalar voqea-hodisalarni bashorat qilish, ularning harakatini axloqiy-estetik jihatdan baholay olishlari lozim. Buning uchun talabalar dialog va do'stona muloqotga kirishish tajribasini o'zlashtirishlari talab etiladi. Talabalar muayyan voqelik haqida bahslashishlari va muloqotga kirishishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar orasida mohirona tashkil etilgan muloqot rivojlanayotgan talabalar faoliyatining garovi hisoblanadi. Muloqotga asoslangan dialog hamda hayotiy vaziyatlarni modellashtirish layoqati insonda shakllanishi zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar hisoblanadi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchilar darsning noan'anaviy shakllaridan unumli foydalana olishlari lozim. Mazkur darslarni tashkil etish tajribasini o'zlashtirish o'qituvchining innovatsion faoliyati bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunga kelib munozara darslarini tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Talabalarni har tomonlama rivojlantirish uchun birinchi navbatda ularga bilish faoliyatini kengaytirishga asoslangan o'yin topshiriqlarini berish lozim. Bu jarayonda talabalarining javoblari ijodiy xarakter kasb etishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun didaktikaga oid manbalarda noan'anaviy darslarning tasnifi berilishi muhim ahamiyatga ega. Bunday darslarning loyihalarida talabalarining rollarini aniq aks ettiradigan o'quv modellari va dars bosqichlari aniq aks etishi kerak.

O'yin asosida tashkil etiladigan darslar o'quv mashg'ulotlarining faol shakli hisoblanib, bunday o'quv jarayonida muayyan voqelik faol tarzda modellashtiriladi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – o'yin holatini vujudga keltirish orqali talabalarda ob'ektiv voqelikka nisbatan hissiy munosabatni tarkib toptirishdan iborat. Bunday vaziyatda talabalar muayyan voqelikning ishtirokchilariga aylanib, ularning o'zlari o'yinlarning turli turlarini ijod qiladilar. [4]

O'yinlar talabalarni kattalar kabi fikrlashga va ijtimoiy rollarni bajarishga o'rgatish vositasi hamdir. Talabalar bir-birlarining his-tuyg'ulari, hatti-harakatlarini tushunishlari orqali muayyan voqelikni modellashtiradilar. Bu jarayonda har bir talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar shaxsiy ahamiyat kasb etadi, hissiy bo'yoqdorlikka ega bo'ladi. Bu jarayonda har bir talaba o'z tamsolini davr talablari nuqtai nazarlari tomonidan yondashgan holda chuqur bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday vazifalarni bajarish uchun talabalar o'zlari o'zlashtirgan barcha bilim va ko'nikmalarni safarbar qilishlari, yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va muntazam chuqurlashtirishlari, o'z dunyoqarashlarini kengaytirishlari, kattalarga xos bo'lgan ko'nikmalar majmuini egallashlari, muloqotga kirishish va obrazli harakatlarini bajarish tajribasini o'zlashtirishlari kerak. Bunday faoliyat natijasida talabalarda atrofdagilarga ijobiy, do'stona nazar bilan qarash ko'nikmasi tarkib topadi.

Ishchan o'yinlar ikkita muhim xususiyatga ega: a) o'yin ishtirokchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish; b) muayyan vaziyatlarni mohiyatini idrok etishga talabalarni odatlantirish. Talabalarda bunday ko'nikmalarni shakllantirish va muntazam rivojlantirish uchun dars jarayonida bir qator o'yin turlaridan foydalanish mumkin.

Ma'lumki, o'yinlar turli turlariga ko'ra tavsiflanadi. Jumladan, maqsadiga ko'ra, ishtirokchilarining soniga ko'ra, voqelikning ifodalanish xarakteriga ko'ra.

Pedagogikada imitatsion, ramziy, tadqiqotchilikka asoslangan o'yin turlari mavjud. Talabalarining aqliy mehnat faoliyatlarini o'yin faoliyati bilan bog'lagan holda modellashtirish hamda aniq ramzlar va qoidalarga asoslangan jarayonni shakllantirish hamda yangi bilimlar va faoliyat usullari bilan bog'liq holda loyihalashtiriladigan faoliyat tarzi o'yinlarning asosiy xarakterini belgilaydi.

Mazkur yo'nalishda quyidagilar aniqlangan: 1) darslikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan interaktiv o'yinlar; bular jumlasiga rebuslar, krossvordlar, skonvordlar, chaynovdrlarni kiritish mumkin; 2) talabalarga ta'sir ko'rsatadigan o'yinlar; bular jumlasiga ishchan, syujetli-rolli va imitatsion o'yinlarni kiritish mumkin;

3) interaktiv xarakterga ega bo'lmagan o'yinlar; o'yin xarakteridagi individual topshiriqlar shular jumlasidandir. [5]

Mutaxassislar o'yinlarni ijro paytidagi darajasiga ko'ra tasniflashga harakat qilganlar: 1) rolli va syujetli o'yinlar; 2) aniq qoidalarga tayangan, foydali syujetga ega bo'lgan o'yinlar; 3) syujetsiz o'yinlar. Masalan, krossvordlar, skonvordlar, chaynvodrlar.

Umumiy tarzda mutaxassislar o'yinlarni syujetli, rolli, ishchan, imitatsion va dramalashtirilgan o'yinlarga ajratadilar (G.K.Selevko).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tasniflarda shu narsa ayon bo'ladiki, har bir tasnifda muayyan fikr mavjud. Pedagoglar tomonidan o'yinlar va ularning mazmun-mohiyatini belgilovchi tashqi qoidalar orasidagi farqlar aniq ajratib ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, modellashtirilgan jarayonning ichki mantiqiga asoslangan o'yinlar ham mavjud. Bu o'yinlar o'zaro bir-biridan nafaqat maqsadi va mazmuni bilan farqlanadi, balki talabalarning intellektual va hissiy sohalariga ta'sir ko'rsatishi bilan ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ayniqsa tarixiy voqelikni tasavvur etishga yo'naltirilgan o'yinlar hamda ishchan o'yinlar talabalarni hissiy-intellektual jihatdan rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Ishchan o'yinlar muayyan voqelik bilan bog'liq tarzda modellashtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida talabalar muayyan vazifalarni bajarishga safarbar etiladilar. Bunday o'yinlarda mardona hatti-harakat ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. [6]

Bulardan biri – muhokamaga asoslangan o'yin hisoblanadi. Bu jarayonda voqelikni idrok etishga asoslangan bahs-munozara vaziyati vujudga keladi. Bunday o'yinlar o'zining ta'limiy asosiga ko'ra munozara faoliyatiga juda yaqin turadi. Shu bilan bir qatorda mazkur o'yinlar dialog negizida tashkil etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur o'yinlarni amalga oshirish vaqtida talabalarning improvizatsiyasi (badihasi)ga keng yo'l ochiladi.

Ishchan o'yinlarning boshqa bir shakli – tadqiqotchilik o'yinlari bo'lib, vaziyatlarni idrok etishga asoslangan holda quriladi. Ular muayyan talabalarning shaxsiy xatti-harakatlariga tayanilgan holda amalga oshiriladi.

Retrospektiv o'yinlar loyihachilik o'yinlari sifatida ham talqin etilib, o'tmishni tushunish va xatti-harakatlarni loyihalash ma'nolarini anglatadi. Bunday o'yinlarni loyihachilik o'yinlari sifatida talqin etish va tavsiflash lozim. Mazkur o'yinlar jarayonida hayotiy vaziyatlar va talabalarning o'quv harakatlari modellashtiriladi, voqelikka olib kiriladi va ushbu voqelikning ishtirokchilari sifatida harakat qilishlariga undaladi. Mazkur jarayonda har bir talaba jamiyatdagi muayyan ijtimoiy guruhning a'zosi sifatida harakatlanishiga sharoit yaratiladi va o'zini to'laqonli shaxs sifatida namoyon qilishga muvaffaq bo'ladi. Bunday turdagi o'yinlarning asosiy belgisi ishtirokning samaradorligidadir. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, bunday o'yinlar jarayonida talaba oldinga intilib, jasurlik va haqqo'ylik sifatlarini egallaydilar.

Bunday o'yinlarni tashkil etish jarayonida talabalar dalillar, kasbkorlar, o'zining ijtimoiy holati va muvaffaqiyatlari haqida o'ylaydi. Bu jarayonda talabalar o'yin qahramonlarining xarakteri, hissiyotlari, shaxsiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Loyihachilik o'yinlari talabalarga voqelikka singish, jamiyat hayoti, ijtimoiy taraqqiyot imkoniyatlarini to'la his qilish, muayyan vaziyatda aniq xatti-harakat qoidalarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. [7]

Loyihachilik o'yinlarining barchasi bir xil didaktik imkoniyatlarga ega emas. Shuning uchun ham ular bir-birlaridan farqlanadi.

I.V.Kucherukning ta'biricha ular quyidagi turlarga ega:

1) shaklan qayta quruvchi xarakterdagi o'yinlar, ular voqelikni namoyish qilish, mavjud holatlarni idrok etish, muayyan jamiyat talablarini ifodalashga ko'maklashadi;

2) formal-loyihachilik xarakteridagi o'yinlar, mazkur o'yinlar jarayonida talabalar ijtimoiy voqelikka shaxsiy baho beradilar, bunda ular bilish tajribalariga tayanadilar;

3) noformal-loyihachilik o'yinlari, mazkur o'yinlar talabalarning tasavvurlari va faoliyatlarining kengayishi uchun keng ko'lamli asos yaratadi, bunda ular aniq voqelikdan kelib chiqqan holda harakat qiladilar.

Shu bilan bir qatorda, retrospektiv o'yinlarni didaktik jihatdan kengroq tavsiflashga ehtiyoj mavjud. Ishchan o'yinlarning barchasini rolli va rolsiz o'yinlarga ajratish mumkin.

Rolsiz o'yinlar o'zining tashqi qoidalarga ko'ra o'yinlarga juda yaqin turadi. Shu bilan bir qatorda, ular talabalarni mantiqiy fikrlashga ko'proq undaydi. Bunday o'yinlar sirasiga tanlovlarni kiritish mumkin. Bu jarayonda talabalar vaziyatlarni izchil tarzda modellashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Chunki bunday o'yin vaziyatlarida o'qituvchi bir tomondan talabalarning bilimlarini tanlov asosida aniqlashga muvaffaq bo'lsa, ikkinchi tomondan mazkur bilimlarni mos vaziyatlarda qo'llashlari uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda talabalarning ijtimoiy voqelik, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlari kengayadi va chuqurlashadi. Bunday

o'yinlardagi musobaqalashish ruhi talabalarni ruhlantiradi, jadal faoliyat ko'rsatish va mavjud voqelikni chuqurroq bilishga undaydi.

Bunday o'yinlarning boshqa bir turi – yo'nalishli o'yinlar bo'lib, sayohat asosida talabalarning tasavvurlarini kengaytirishga qaratilgan didaktik jarayon hisoblanadi. Yo'nalishli o'yinlar darsning alohida shakli bo'lib, muayyan vositalar yordamida sayohat jarayonida talabalarning voqelik haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi. Bu jarayonda ular voqelikning hosil bo'lish o'rnini aniq bilish va idrok etishga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun ular shaxsiy yo'nalishni belgilab, to'xtash joylari, kishilar bilan suhbat mavzularini aniq rejalashtiradilar. [8]

Yo'nalishli o'yinlar va tanlovlarda aniq rollar mavjud bo'lmasada, talabalar voqelik bilan hamnafas bo'ladilar, mavjud hodisalarning mohiyatini anglab yetish imkoniyati kengayadi. Bu jarayonda o'yinlar ikkiyoqlama xarakter kasb etib, bir vaqtning o'zida rolli hamda tanlovga asoslangan didaktik jarayonni mujassamlashtiradi. Loyihachilik xarakteriga ega bo'lgan ishchan o'yinlar yutuqlarga asoslangan bo'lib, talabalar muayyan vaziyatlarni aniq idrok etish orqali o'z g'alabalarini ta'minlaydilar. Talabalarning hamkorligi va do'stona munosabatlariga asoslangan bu jarayon o'zining muayyan ko'rinishlariga ega.

Ishchan o'yinlarning shunday ko'rinishlaridan biri – teatrlashgan o'yinlardir. Bunday o'yinlar aniq tasvirlangan ssenariyga ega bo'lib, bunda talabalar tomonidan muayyan sahnalashtirilgan harakatlar amalga oshiriladi. Bu jarayonda talabalar turli obrazlar yordamida aniq voqelikni aks ettiradilar va uni idrok etishga erishadilar. Teatrlashgan o'yinlarning barcha qismlari manzaralar, liboslar muayyan ahamiyatga ega. Bunday o'yinlardan ko'zlangan asosiy maqsad, voqelikni jonlantirishdangina iborat emas, balki o'zaro hamjihatlik asosida uni muhokama qilish, idrok etish va ijtimoiy hayot me'yorlarini o'zlashtirish jarayonini jadallashtirishni ham nazarda tutadi. Bu jarayonda talabalar jamiyatdagi do'stona munosabatlarga kirishish me'yorlarini o'zlashtirib, voqelikning mavjud jihatlarini aniq tasavvur etishga erishadilar.

Ishchan o'yinlarda uning ssenariylarini talabalarning o'zlariga tuzdirish ham ularni hamjihatlikka undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlarning asosiy belgisi talabalarning keng ko'lamda improvizatsiyalashuvidir. Ularda o'rganilayotgan mavzu asosida mavjud voqelikni modellashtirish muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham, talabalarni hamkorlikka undashga xizmat qiladigan umumiy dastur va o'yin ssenariysi o'qituvchilar tomonidan tuzilishi lozim. Bu dasturga barcha talabalarning amal qilishlari talab etiladi. Bunday o'yinlarning xarakterli jihatlari shundaki unda sinfdagi barcha talabalarni bir yo'la jalb etish ikoniyati mavjud. Bu jarayonda istalgan bir talaba aktyor sifatida o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega.

Ishchan o'yinlarning yana bir turi – munozarali o'yinlar hisoblanadi. Uning asosida talaba idrok etishi zarur bo'lgan muayyan voqelik aks etadi. Bunda talabalarning muloqotlari muhokama qilinadigan mavzu atrofida tashkil etiladi. O'yin jarayonida talabalarning bahs-munozaraga kirishishlari nazarda tutiladi. Bu jarayonda o'qituvchi vaziyatga juda kam aralashishi kerak. U talabalar oldiga muammolar qo'yishi, ular bajaradigan rollarni taqsimlashi va oraliq savollar bilan talabalarga murojaat etishi nazarda tutiladi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarni o'zlari bajaradigan rollarga tegishli bo'lgan muammolarni yechishga safarbar eta olishi lozim. Qo'yilgan muammolarning yechimlari oldindan ma'lum bo'lmaydi. Shuning uchun ham talabalar muammolarni yechishda bir-birlariga ko'makdosh, hamkor va hamjihat bo'ladilar. O'yin yakunida talabalar o'zaro hamjihatlik asosida bir nechta qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu o'rinda muammoning yechimida har bir talabaning tutgan o'zni va ishtiroki hamkorlik nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

O'yinlarning navbatdagi turini amaliyotchilar tomonidan loyihachilikka asoslangan ishchan o'yinlar sifatida baholangan o'yinlar bo'lib, ular oraliq o'yinlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Bunday turdagi o'yinlar o'zida turlicha o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan talabalarni ham jalb qilishi mumkin. Ular turli savollar va muammolarni birgalikda hamjihatlik bilan muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda talabalar orasida o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan ishchan muloqot muhiti qaror topadi. Ular ma'ruzalar, tantanali chiqishlar, bahsmunozaralar, bayram kechalari vaziyatiga olib kiriladilar. Muayyan voqelikka asoslangan ijtimoiy vaziyatlar modellashtirish imkoniyati vujudga keladi va muntazam tarzda yangi elementlar qo'shilgan holda modellashtiriladi.

Ishchan o'yinlarni farqlashda quyidagi uch mezonga asoslanish lozim:

- a) talabalar bajaradigan rollarning o'ziga xos jihatlariga ko'ra;
- b) mashg'ulotlarda idrok etiladigan vaziyatlarning vujudga kelish sharoitiga ko'ra;
- v) o'yin jarayonida talabalarning improvizatsiyasi va o'yinning mavjud ssenariysiga ko'ra.

Ishchan o'yinlarning muhim ko'rinishlaridan biri – talabalarning faoliyat algoritimiga asoslangan o'yinlardir. Ularni aksariyat pedagoglar trening shaklidagi o'yinlar deb ham ataydilar. Bunday o'yinlar sirasiga:

- 1) stol ustidagi o'yinlar, ularga shaxmat-shashka, domino, loto, pole chudes kabilarni kiritish mumkin;

2) algoritmlarga asoslangan o'yinlar, bular sirasiga rebuslar, krossvordlar, boshqotirmalar, chaynvordlar kabilar kiradi;

3) treninglar asosida voqelikni idrok etishga yo'naltirilgan syujetli o'yinlar. [9]

Mazkur o'yinlar didaktshunoslar tomonidan muayyan darajada tahlil etilgan bo'lib, biz tadqiqotimiz jarayonida ularning talabalarda do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ochishga e'tibor qaratdik.

**Xulosa.** Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, dars jarayonida amalga oshiriladigan o'yinlar o'ta jiddiy bo'lib, o'zining muayyan pedagogik xususiyatlariga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muayyan didaktik ahamiyatga ega bo'lgan ishchan o'yinlarni dars jarayonida tashkil etish o'qituvchidan katta tayyorgarlik, bilim, tajriba va mahoratni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, bunday o'yinlar o'qituvchi hamda talabalarni hamkorlik, hamjihatlik, ijodiy izlanuvchanlikka undab, ta'lim jarayoni mahsuldorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

#### Adabiyotlar:

1. Pedagogik atamalar lug'ati. T. Fan, 2008. 54-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2008. 500-b
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 3-tom. 2002. 400-b.
4. Тупичкина Е.А. Интеллектуально-развивающие игры как средство формирования способности младших школьников к творчеству: Автор. канд. пед. наук. – М., 1989. – 17 с.
5. Usmonxo'jaev T.Meliev H. Milliy harakatli o'yinlar.T.: O'qituvchi, 2000.- 191b.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: O'zRFA “Fan” nashr, 2005. – 205 b.
7. Galiev Sh.O'zbek bolalari o'yin folklori. T.: Fan, 1998. -141 b.
8. Газман О.С. Проблема формирования личности школьника в игре: Межвуз. сб. науч. тр. “Педагогика и психология игры” – Новосибирск: Новосиб. гос. пед. ин-т, 1985. – С. 14 – 27.
9. Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Ped.fan.nom.... dis. T.: 1996. – 145 b.

## TALABALARDA O‘QUV FAOLIYATIDAN QONIQQANLIK DARAJASI O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH XUSUSIYATINING ASOSI SIFATIDA

**Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li,**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,*

*“Psixologiya” kafedrasida dotsent v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*azimbek\_qurbonboyev@mail.ru*

*Mazkur maqolada talabalik davrida o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasining o‘zini o‘zi faollashtirish jarayonidagi ahamiyati, xorij psixolog olimlarining psixologik qarashlari hamda o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi faollashtirishning ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talaba shaxsida o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi shaxs o‘zini o‘zi faollashtirish tizimiga ta’siri doirasida olib borilgan tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi, shaxs faolligi, o‘quv faoliyati, o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi, o‘quv motivatsiyasi, tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik, hayot, byudjet, bo‘sh vaqt va sog‘liqdan qoniqqanlik.*

## УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СТУДЕНТОВ КАК ОСНОВА ХАРАКТЕРИСТИК САМОАКТУАЛЬНОСТИ

*В данной статье широко освещены значение уровня удовлетворенности учебной деятельностью в студенческий период в процессе самодеятельности, психологические взгляды зарубежных психологов, важные аспекты самодеятельности в учебной деятельности. Также представлен количественный и качественный анализ исследовательской работы, проведенной в рамках влияния уровня удовлетворенности учебной деятельностью студента на систему самоактивации личности.*

**Ключевые слова:** *самоактивация личности, личная активность, учебная деятельность, уровень удовлетворенности учебной деятельностью, учебная мотивация, удовлетворенность учебным процессом, удовлетворенность жизнью, бюджет, свободное время и здоровье.*

## LEVEL OF SATISFACTION WITH LEARNING ACTIVITY IN STUDENTS AS THE BASIS OF SELF-ACTUALIZATION CHARACTERISTICS

*In this article, the importance of the level of satisfaction with educational activities during the student period in the process of self-activation, the psychological views of foreign psychologists, and the important aspects of self-activation in educational activities are widely covered. Also, the quantitative and qualitative analysis of the research work carried out within the framework of the influence of the level of satisfaction with the educational activity of the student on the system of self-activation of the individual are presented.*

**Keywords:** *self-activation of a person, personal activity, educational activity, level of satisfaction with educational activity, educational motivation, satisfaction with the educational process, satisfaction with life, budget, free time and health.*

**Kirish.** Talabalik davri shaxs kamolotida muhim bosqichlardan hisoblanadi. Ayniqsa, talaba shaxsida yetakchi faoliyat sifatida o‘quv faoliyati hisoblanadi. O‘quv faoliyati talaba shaxsida bilim, ko‘nikma va malakalarning tarkib topganligi bilan izohlanadi. Shu bois talabalik davrida o‘zini o‘zi faollashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan, o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi talaba shaxsining o‘quv faoliyatida yanada faollashib borishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** “O‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasi insonda qaror topishi lozim bo‘lgan qandaydir “o‘zlik” mavjudligini nazarda tutadi. A.Maslou fikricha, o‘zlik inson hayoti mazmunini tashkil etuvchi shaxsiy mohiyat va qadriyatlar bilan ifodalanadi. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, shaxsning mohiyati va qadriyatlari turmushning u yoki bu tashqi ijtimoiy baholari bilan to‘siladi. Kelgusida kishi tomonidan assimilyasiyalanuvchi o‘zgaralar bahosi uning shaxsiy fikriga soya soladi va uni o‘zini o‘zi faollashtirish yo‘lidan chetga ulotiradi. Shu sababli o‘zini o‘zi faollashtirishga eng birinchi qadam insonning o‘zgaralarga emas, balki o‘z bahosi va fikrlariga ishonishga, “o‘z o‘zligining ichki ovozigga quloq tutish”ga qobilligi hisoblanadi [2].

K.Rodgers butun xulq-atvorni, o‘zini o‘zi faollashtirishga intilish deb nomlagan qandaydir motiv bilan ruhlantirilishi va boshqarilishi haqidagi farazni ilgari surdi. U “shaxsni saqlash va rivojlantirish uchun o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga tananing o‘ziga xos intilishini” o‘zida ifoda etadi. K.Rodgers nazariyasining asosiy mazmunida o‘zini o‘zi faollashtirishga intilish – bu insonning to‘laqonli ishlay oladigan shaxsga aylanish maqsadida butun umri davomida o‘z ichki yashirin imkoniyatlarini amalga oshirish jarayonidir. Bunga erishishga urinib, inson mohiyat, qidiruv va hayajonlarga to‘la umrini yashab boradi [4].

K.Rodgers bo‘yicha, inson nimaga faol ekanligini tushunish uchun qandaydir o‘ziga xos motivasion qurilma qismlari (o‘ziga xos mayllar) talab etilmaydi; har bir inson nima bilan yashasa o‘sha bilan motivlashgandir. Motiv va mayllar tananing maqsadga yo‘nalgan faoliyatini tushuntirmaydi. Inson o‘zining xususiy tabiati kuchiga ko‘ra o‘z asosida faol va o‘zini o‘zi faollashtiruvchi sanaladi.

K.Rodgers ta’kidlashicha, barcha motivlarni chetga surish uchun biror inson shu darajada o‘zini o‘zi faollashtirgan shaxsga aylana olmaydi. Unda har doim rivojlanish uchun qobiliyatlar, kamolotga erishish ko‘nikmalari, biologik ehtiyojlarni qondirish uchun yanada ta’sirli va yoqimli usullar qolaveradi. Biroq, ko‘proq o‘zini o‘zi faollashtirishga erishgan odamlar to‘g‘risida shuni aytish mumkinki, ular boshqalarga nisbatan yanada to‘laqonli, ijodiy va avtonom ishlash darajasigacha ilgarilab ketganlar [4].

K.Rodgers ham A.Maslou kabi, inson o‘zining kimga aylanishi mumkin bo‘lgan holatiga qarashini istagan. K.Rodgers bo‘yicha bu to‘yinib, to‘la anglab, inson borlig‘ini to‘la his etib yashash, ya’ni “to‘laqonli ishlay olish”ni bildiradi.

G.Ollport nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zida “yadrosi inson “Men”idan iborat bo‘lgan rivojlanib boruvchi va ochiq psixofiziologik tizimni” namoyon etadi. Bu tizimning o‘ziga xos xususiyati shaxsning o‘z hayotiy ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, o‘zini o‘zi qaror toptirishga intilishidir. G.Ollport fikricha, shaxs o‘zining namoyon bo‘luvchi sifatlarida biologik motivlardan ko‘ra, ijtimoiy motivlarga ko‘proq amal qiladi, va bunga asoslanib, turli tipdagi odamlar yo‘naladigan madaniy qadriyatlarning tadrijiyligini eksperimental o‘rganishga kirishdi. Shuningdek, G.Ollport biologik asosda paydo bo‘ladigan motivlar keyinchalik, unga bog‘liq bo‘lmay qoladi va mustaqil tarzda ishlay boshlaydi degan qarashni ilgari suradi [3].

S.L.Rubinshteyn fikricha, subyektning asosiy belgilari uning o‘zini rivojlantirishga, o‘zini aniqlashga, o‘zini kamol toptirishga qobilligi, boshqacha aytganda, o‘zini o‘zi rivojlanishining oliy, optimal darajasiga erishish qobiliyatidir. U tomonidan, “o‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasi, ham dinamik, ham mazmunli, ham aks etuvchi, ham munosabatli (emotsional) shaxs tavsifi sifatidagi “yo‘nalganlik” kategoriyasi bilan ta’riflanadi. Bu yerda shaxsning irodaviy sifatleri “shaxs qay daraja va qaysi yo‘nalishda o‘z mayl, istaklarini birlashtira oldi va ularni shaxsiy-qadriyatli va ijtimoiy-ahamiyatli shakllarda amalga oshirish uchun o‘z irodasini qo‘llay oldi” degan mazmundan kelib chiqib yangi bosqichda ochib berilgan.

B.S.Bratus shaxsdagi o‘zini o‘zi faollashtirishga intilishni “inson psixikasining yaratuvchan ijodiy faolli, uning ham ijtimoiy jamoat jarayonlari, ham o‘zini rivojlantirishga xayoliy ta’siri” sifatida ko‘rib chiqadi.

Falsafiy-metodologik va madaniy jihatlardan o‘zini o‘zi faollashtirish nazariyasi L.I.Antropova, I.A.Vitin, N.L.Kulik, K.Ch.Muxamedjanovlarning shaxs nazariyalarida rivojlanib boradi. O‘zini o‘zi faollashtirish ular tomonidan hayot mazmunini qidirishga undovchi manba va ma’naviy rivojlanish omili sifatida ko‘riladi. N.I.Kulik o‘zini o‘zi faollashtirishda insonning faoliyatga doir sifatlarini, uning muhim kuchlarini inson borlig‘i usullariga, “inson olami”ga, insoniy madaniyatning predmetli olamiga aylanishining real jarayonini ko‘radi. Insonning o‘z ijodiy faoliyati bu jabhada shaxsning o‘zini yuzaga chiqarish usuli, bu faoliyatning ichki mazmuni hamda inson va jamiyatga yagona munosib turmush usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunga I.A.Vitin qarashlari ham hamohang bo‘lib, u “o‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasini zamonaviy ilmiy gumanitar bilimlar markazi deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘zini o‘zi faollashtirish nazariyasi zamonaviy ijtimoiy sharoitda, nafaqat, shaxs muammosini qo‘yish, balki uni (ma’lum doirada) yechishning ham eng muvaffaqiyatli urinishlaridan biridir. Rossiyada shaxs jamoaning bir qismi sifatida tushunishdan voz kechish hamda shaxs rivojlanishining betakrorligi, yagonaligi, birligidan iborat yanada murakkab modellarini qidirish bilan bog‘liq ravishda bu nazariyani ishlab chiqish ahamiyati o‘zib bormoqda. I.A.Vitin o‘zini o‘zi faollashtirishni shaxs tomonidan xususiy va jamoat taraqqiyoti istiqbollari anglanishi, muqobillarini ko‘ra olishi, o‘z tanlovi uchun mas’uliyatni anglashi, insonning o‘zining aylanish ishi tufayli faoliyatning individual usulini egallashini nazarda tutuvchi uzluksiz jarayon sifatida ko‘radi.

Psixologiya va pedagogikada A.G.Asmolov, P.I.Pidkasiy, V.I.Slobodchikov, L.M. Fridman va boshqalar o‘zini o‘zi faollashtirish nazariyasini rivojlantiradilar. V.I.Slobodchikov va Y.I.Isayev falsafiy-antropologik jihatdan inson shaxsini personallashtirgan, o‘zgaralar orasida, boshqalar uchun, va shu holatdagina, o‘zi uchun o‘z-o‘zini anglagan o‘zlik sifatida ko‘radilar. Bu ma’noda o‘zini o‘zi faollashtirish insonning o‘z



hayotiy faoliyati subyektiga aylanish jarayoni bo‘lib, odamlarning jamiyatda birgalikda yashash tarzini boshqaruvchi insoniy faoliyatning me‘yor va usullarini, umumiy yashash qoidalarini, asosiy mazmun va qadriyatlarni o‘zlashtirishni talab etadi. O‘z-o‘zligini haqiqiy, to‘liq ma‘noda tushunish – haqiqiy olamda uning ideal, yaqqol anglangan turmush zaruratini ko‘ra bilish demakdir. Bu haqiqiy ma‘naviy reallikni anglashgina insonga o‘zlikni ko‘chirish sifatidagi o‘z subyektiv ro‘yosini ochish imkonini beradi.

Qoniqish –u yoki bu obyektlar hayot sharoiti va faoliyati umuman olganda hayotni odamlar bilan munosabatni insonlarning o‘zi va jumladan shaxsan o‘zining ham xususiyatlarini subyektiv baholashdir. Hayotdan qoniqishning yuqori darajasini baxt yaqin tuzilishini psixologik komfort deb atasak bo‘ladi.

Qoniqish-juda keng ma‘noga ega bo‘lgan keng ko‘lamda qo‘llaniladigan va shu o‘rinda chek-chegarasiz ta‘rif-tavsiflarga ega bo‘lgan amamadir.

Butun hayotdan qoniqish va aniq inson bilan bo‘lgan munosabatdan qoniqish haqida gapirganda bu insonning shaxs uchun qanchalik ahamiyatga egalik darajasidan qat‘iy nazar fikr bildirish lozim.

Qoniqishni shaxs uchun ahamiyatli darajasiga ko‘ra, turli xildagi voqea-hodisalar ta‘siridan his etish mumkin. Masalan, bir necha yillar davomida yozilgan kitobni muvaffaqiyatli tugatish va mazali tushlikdan so‘nggi hislar.

**Natija.** Tadqiqot ishimiz davomida talabalik davrida o‘quv faoliyatidagi o‘zini o‘zi faollashtirish aynan ularning ta‘lim tizimidan qoniqqanlik darajasiga bog‘liqligi tekshirishga harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarda L.V.Mishenkoning “O‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasini aniqlash” metodikasini o‘tkazdik. Talabalardan ushbu metodika orqali olingan ma‘lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadval shaklida keltirildi:

1-jadval.

**Talabalarining o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi**

Shkalalar nomi	O‘quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik	O‘quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik	Tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik	Tanlangan sohadan qoniqqanlik	Kursdoshlar bilan o‘zaro munosabatdan qoniqqanlik	Fakultet boshqaruvchisi va o‘qituvchilar bilan o‘zaro ta‘siridan qoniqqanlik	Hayot, byudjet, bo‘sh vaqt va sog‘liqdan qoniqqanlik
1-bosqich	-	32,3%	29%	16,1%	12,9%	3,2%	6,5%
3-bosqich	-	12,5%	12,5%	37,5%	25%	6,25%	6,25%

Metodika natijalariga ko‘ra, o‘quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarining 32,3% va 3-bosqich talabalarining 12,5% yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etishdi. Bunday toifadagi talabalar nafaqat o‘zlarining o‘qishi natijalaridan, balki o‘quv jarayonining o‘zidan ham rohatlanishadi. Ular universitetda ta‘lim olish o‘zlarining ijodiy va intellektual salohiyatining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi, u yerda olingan bilim va ko‘nikmalar esa kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatlilikini ta‘minlaydi, deb hisoblashadi. Bundan tashqari, bunday talabalar fikricha, universitetdagi o‘quv faoliyati o‘zlarida muhim va kerakli bo‘lgan kasbiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi, uyga berilgan topshiriqlar esa mustaqil ravishda o‘qishni va mustaqillikni rivojlantiradi. Shuningdek, ular kurs ishida, ilmiy-tadqiqotlarda faol ishtirok etishga harakat qilishadi. Umuman olganda, bu toifaga kiradigan talabalar o‘quv jarayonining mazmunidan qoniqqan shaxslar hisoblanadi.

Tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik bo‘yicha 1-bosqich talabalarida 29%, 3-bosqich talabalarida esa 12,5% ko‘rsatkichi qayd etildi. Bunday talabalar o‘zlari tahsil oladigan fakultetda bugungi kunda jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishni o‘rganish uchun barcha imkoniyatlar mavjud deb hisoblashadi. Shuningdek, universitet va fakultetda o‘tkaziladigan tadbirlar insonni faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalashiga, o‘z ustida ishlashni o‘rgatib, mutaxassisning perspektiv modelini yaratishiga ishonishadi. Bundan tashqari, ular fakultet rahbariyatining talabalar bilan olib borayotgan boshqaruv faoliyati, xayrixohlik va o‘zaro yordam berish muhitidan qoniqish hosil qilishgan.

Tanlangan sohadan qoniqqanlik bo‘yicha 1-bosqich talabalarida 16,1%, 3-bosqich talabalarida esa 37,5% ko‘rsatkichi aniqlandi. Bunday talabalar o‘zi tanlagan kasbini yoqtirishadi, shuning uchun ham yuqori

malakali mutaxassis bo‘lish uchun doimo bilim darajasini oshirishga harakat qilishadi. Shuningdek, o‘zlari tanlagan kelajakdagi kasbiy faoliyati orqali ijtimoiy tan olinishga va jamiyatda hurmat topishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Ular tanlagan kasbi o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga imkon yaratishiga, kelajakdagi kasbiy faoliyati o‘zini va oilasini moddiy ta‘minlashiga ishonganliklari sababli o‘z kasbidan qoniqqan hisoblanishadi.

Kursdoshlar bilan o‘zaro munosabatdan qoniqqanlik shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarining 12,9% va 3-bosqich talabalarining 25% yuqori natijalar qayd qilindi. Bunday talabalar o‘zi tahsil olayotgan guruhdagi kursdoshlarining munosabatlaridan qoniqish hosil qilgan insonlar hisoblanishadi. Shu sababli ular kursdoshlari oldida o‘z fikrini bemalol bayon eta olishadi, ular bilan hamkorlikdagi ishlarda ishtirok etish, birgalikda bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishni yoqtirishadi. Shu bilan bir qatorda, bunday toifadagi talabalar doimo o‘quv faoliyati va guruh hayoti bo‘yicha jamoaviy qarorlarni qabul qilishda faol ishtirok etishadi. Shuning bilan birga o‘z kursdoshlari bilan bo‘lgan munosabatda ular qo‘llab-quvvatlash va ma‘qullash ustunlik qiladi, tanqidni yaxshi niyatda aytishadi. Ular kursdoshlariga o‘zining ishlari haqida ochiq aytib bera oladi va do‘stlarining har birini e‘tibor bilan tinglashga doimo tayyor bo‘lishadi.

Fakultet boshqaruvchisi va o‘qituvchilar bilan o‘zaro ta‘sirdan qoniqqanlik shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarining 3,2% va 3-bosqich talabalarining 6,25% yuqori natijalarni ko‘rsatishdi. Ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan talabalar o‘zlari ta‘lim olayotgan fakultet rahbariyati va o‘qituvchilarining munosabatlaridan qoniqqan hisoblanadi. Shu boisdan ham ular o‘qish jarayonida o‘qituvchilar odatda o‘zlarining ichki holatini va psixikasining nozik hamda qiyin jihatlarini to‘g‘ri baholay oladilar, deb bilishadi. Shuningdek, ularning fikricha, o‘qituvchilar va dekanat har bir talabaga mehr beradi va hurmat ko‘rsatadi, bu o‘z navbatida fakultetga o‘rganib qolish hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, ular dekanat tomonidan o‘quv faoliyati uchun qulay muhit yaratilganligi sababli, o‘qishga doimo yaxshi kayfiyatda kelishadi. O‘qituvchilar talabalarga zarur ko‘nikma va malakalarni doimo tez va chuqur o‘zlashtirishini ta‘minlab berganligi uchun, ular o‘z ustozlariga hurmat bilan qarashadi.

Metodikaning hayot, byudjet, bo‘sh vaqt va sog‘liqdan qoniqqanlik shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarida 6,5% va 3-bosqich talabalarida esa 6,25% ko‘rsatkichi qayd etildi. Bunday toifadagi talabalar o‘zlarining kundalik shaxsiy hayotidan va yashash sharoitidan qoniqqan insonlardir. Shu sababli, ular, odatda, tetik va yaxshi kayfiyatda uyg‘onishadi, o‘z vaqtini rasional tarzda taqsimlashadi va bu vaqt ularning dam olishiga ham, o‘qishiga ham yetadi. Shu bilan bir qatorda, bunday shaxslar o‘z hayot tarzini maqsadga muvofiq deb hisoblashadi, buning sababini ovqatlanish tartibi, mehnat va dam olish vaqti o‘zlarining ehtiyojlarini qondirishi bilan izohlashadi. Ular o‘z xarajatlarini rasional tarzda taqsimlaydi, shu sababli pullari barcha oylik chiqimlariga yetadi. Bundan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarini bajarish jarayonida, o‘zlarida charchoqni his qilishmaydi, shuningdek, o‘zlarini kuch, energiya va sog‘liqqa to‘la sezishadi.

Metodika natijalariga ko‘ra tadqiqotda ishtirok etgan talabalarimiz orasida o‘quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik bo‘yicha ahamiyatli natijalar qayd qayd etilmadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tajriba natijalaridan ko‘rinadiki, talabalarining o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ulardagi o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi bilan bog‘liq. Ta‘kidlash joizki, o‘quv faoliyatidan talaba shaxsining qoniqqanlik darajasi o‘quv motivatsiyaga va o‘zini o‘zi faollashtirish jarayoniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi tadqiqot natijalaridan aniqlandi. Xulosa qilib, aytish mumkinki, talabalik davrida o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi faollashtirish o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Леонтев, А. Н. Деятелност. Сознание. Личност. /А.Н Леонтев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Маслоу А. Мотивация и личност. - М., 1954. – электронный ресурс сайта [http://www.koob.ru/age\\_psychology/](http://www.koob.ru/age_psychology/)
3. Олпорт, Г. Становление личности: избранные труды/Г. Олпорт - М: Смысл, 2002. - 464 с
4. Роджерс, К. Взгляд на психотерапию. Становление человека./ К. Роджерс- М.: Прогресс, 1998, 480 с.
5. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с

UDK 37.013046

## TEKNOLOGIYA MASHG‘ULOTLARINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ORQALI TASHKIL QILISH

*Ro‘zmetova Zulfya Xayitboevna,*

*Urganch davlat universiteti “Texnologik ta’lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
urinposhsha.q@urdu.uz*

*Texnologiya mashg‘ulotlarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini o‘quvchilar faolligini oshiruvchi noan’anaviy metodlardan foydalanish asosida amalga oshirish bu jarayonning samaradorligini oshiradi.*

*O‘quvchilarni ijodiy ishlashlariga ko‘mak beruvchi usullardan biri, konferensiya tarzida texnologiya darsini tashkil etish va o‘tkazishdir. Noan’anaviy metod sifatida konferensiya tarzida o‘tkaziladigan dars ishlanmasini misol keltiramiz.*

**Kalit so‘zlar:** *noan’anaviy, an’anaviy, dizayn, konferensiya, metod, qobiliyat, ilmiy-fantastik, modellashirish, tikuvchi.*

## ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Реализация профориентационной работы на технологических занятиях, основанная на использовании нетрадиционных методов, повышающих активность учащихся, повышает эффективность этого процесса.*

*Один из способов помочь учащимся проявлять творческий подход - это организовать и провести технологический урок в виде конференции. В качестве нетрадиционного метода приведем пример разработки урока, проведенного в стиле конференции.*

**Ключевые слова:** *Нетрадиционное, традиционное, дизайн, конференция, метод, талант, научная фантастика, моделирование, портной.*

## ORGANIZING TECHNOLOGY TRAINING THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES

*The implementation of career guidance in technology classes based on the use of non-traditional methods that increase student activity increases the effectiveness of this process.*

*One way to help students for being creative is to organize and conduct a conference-style technology class. As an unconventional method, we give an example of the development of a lesson held in the style of a conference.*

**Keywords:** *Unconventional, traditional, design, conference, method, talent, sci-fi, modeling, tailor.*

**Kirish.** O‘quvchilarni kasblar olami, zamonaviy kasb-hunarlar, kasblarni insonga qo‘yadigan talablari, kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi bilan tanishtirish, umumiy o‘rta ta’lim predmetlari mazmunini iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish korxonalari ehtiyojlari hamda kasblar bilan bog‘lagan holda o‘zlashtirishlariga erishish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Texnologiya mashg‘ulotlarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini o‘quvchilar faolligini oshiruvchi noan’anaviy metodlardan foydalanish asosida amalga oshirish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Konferensiya, seminar, bahs-munozara, har xil yozma ishlar, integratsiya (fanlararo bog‘lanish), sinov, viktorina, test, teatrlashtirilgan darslar, texnika vositalarini qo‘llab, ilmiy-fantastik kitoblar ustida ishlab, o‘yinchoqlar yordamida noan’anaviy darslarni o‘tkazish o‘quvchilarning izlanuvchanligi, ijodkorligi, mustaqil fikrlashni oshiradi, fanlararo aloqadorlikni ta’minlaydi.[1]

O‘quvchilarni ijodiy ishlashlariga ko‘mak beruvchi usullardan biri, konferensiya tarzida texnologiya darsini tashkil etish va o‘tkazishdir. Noan’anaviy metod sifatida konferensiya tarzida o‘tkaziladigan dars ishlanmasini misol keltiramiz. U quyidagi yo‘nalishda bo‘ladi:

- a) an’anaviy metod yordamida o‘tkaziladigan konferensiya tarzidagi darsi
- b) maxsus mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish
- v) kasbga qiziqtirish darsi

**Asosiy qism.** Konferensiya tarzida o‘tkaziladigan dars o‘quvchilarning kitob ustida mustaqil ishlashlariga, yangiliklar bilan tanishtirish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga katta yordam

beradi. Darsning muvaffaqiyatli o‘tishi uning sifatiga, tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bunday tayyorgarlikka quyidagi bosqichlar kiradi:

-konferensiya tarzida o‘tkaziladigan darsning vazifalari va unda muhokama qilinadigan savollar doirasini aniqlash;

- o‘qituvchining tegishli adabiyotlarni o‘rganishi;
- o‘quvchilar o‘rtasida ma‘ruzani to‘g‘ri taqsimlash;
- o‘quvchilar uchun qo‘shimcha maslahatlar berish;

Darsning mavzusi shunday tanlanishi kerakki, u birinchidan qiziqarli, ikkinchidan, uni atroflicha va chuqur o‘rganishga erishish, uchinchidan, mavzuning texnika va zamonaviy texnologiya talablariga mosligi yoritib berilishi lozim.

Texnologiya fanidan “Qiz bollar ko‘ylagini tikish” mavzusini o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar tolalarning tarkibi, xossalari, gazlamalarning to‘qilishi, xossalari, o‘lcham olish, andoza tayyorlash, kiyimni bichish va tikish mavzularini bilishlari talab qilinadi. Bu mavzularni o‘zlashtirish natijasida olingan bilimlarni kengaytirish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini oshirish uchun dars konferensiya tarzida tashkil qilinadi. Guruh o‘quvchilari to‘rtga bo‘linadi:

- 1-guruh: gazlamashunoslar;
- 2-guruh: modeler-dizaynerlar;
- 3-guruh: tikuvchilar;
- 4-guruh: tadbirkorlar;

O‘qituvchi konferensiya tarzida o‘tkaziladigan darsdan oldin guruhga qanday adabiyotlardan foydalanish, dars uchun kerakli bo‘lgan didaktik vositalar, asbob-uskunalar, chizmalar, tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollar haqida ko‘rsatma beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari manbalar: adabiyotlar, radioeshittirish, teleko‘rsatuv va matbuot materiallari hamda natural namunalardan foydalanishni o‘quvchilarga tavsiya etadi.[2]

Ushbu dars rejasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Darsning maqsadi:

- 1) o‘quvchilarni gazlamalarning turlari, xossalari bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, kengaytirish va ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish;
- 2) o‘quvchilarni inson mehnatini qadrlash, ularda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- 3) o‘quvchilarning tikuvchilik, dizaynerlik, sotuvchilik, tadbirkorlik kasblariga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Dars uchun quyidagi jihozlar hozirlanadi:

- 1) turli gazlamalardan namunalar;
- 2) turli fasondagi qiz bolalar ko‘ylagining rasmlari;
- 3) qiz bolalar ko‘ylaklaridan namunalar;
- 4) andoza olish, kiyimni bichish va tikishga kerakli asbob-uskunalar;
- 5) sotuvchilik rastasi

Konferensiya quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

Boshlovchi: Assalomu alaykum. hurmatli o‘quvchilar!

Bugun “Qiz bolalar ko‘ylagini tikish” mavzusiga bag‘ishlangan konferensiyamizni boshlaymiz. Konferensiyada yosh gazlamashunoslar, modeler-dizaynerlar, tikuvchilar, tadbirkorlar qatnashmoqda. So‘z yosh gazlamashunoslarga, marhamat!

1-gazlamashunos. Gazlamashunoslik bo‘limida tikuvchilik buyumlari uchun ishlatiluvchi materiallarni olinishi texnologiyasi, materiallarning sifat, xususiyatlarini aniqlash va uskunalar bilan ishlash usullari o‘rgatiladi.

Tikuvchilik sanoatida ishlatiladigan materiallarni barchasini vazifasiga ko‘ra 6 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Asosiy kiyimlar-kiyimlarni ustki qismiga ishlatiluvchi materiallar (gazlamalar, sun‘iy va tabiiy mo‘ynalar, charmlar)
2. Astarli materiallar turli hildagi paxtadan, tabiiy va sun‘iy ipakdak ishlab chiqarilgan shoyi va yupqa, satin trikotaj usulida to‘qilgan matolar.
3. Kiyimning issiqlik saqlay olishini oshiruvchi materiallar (paxta, vatin, sun‘iy mo‘ynalar)
4. Kiyim bo‘laklarini biriktirish uchun ishlatiluvchi materiallar (iplar, kalava, yelimlovchi moddalar)
5. Bezak materiallar (jiyaklar, tasmalar, turli xildagi bog‘ichlar)
6. Yordamchi materiallar (tugma, iplar)

Yuqorida nomlari keltirilgan tikuvchilik materiallari asosan to‘qimachilik sanoati mahsuloti bo‘lib, tolalardan ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham gazlamashunoslikda to‘qimachilik tolalarining tuzilishiga va boshqalarga katta e‘tibor beriladi [3]

2-gazlamashunos. Paydo bo‘lishi, olinishi va kimyoviy tarkibiga qarab, tolalar har xil guruhlariga ajratiladi, ya‘ni tasniflanadi. Barcha tolalar ikki katta guruhga: tabiiy va kimyoviy tolalarga bo‘linadi. Tabiatda mavjud bo‘lgan tolalar tabiiy deb, kimyoviy sharoitda olinadigan tolalar kimyoviy deb ataladi. Tabiiy tolalarga o‘simliklardan olinadigan tolalar (paxta, zig‘ir, kanop va hakoza), hayvonot tolalari (jun, tabiiy ipak), minerallardan olinadigan tolalar (asbest) kiradi.

3-gazlamashunos. Kimyoviy tolalar sun‘iy va sintetik xillarga bo‘linadi. Sun‘iy tolalar o‘simliklardan, hayvonlar junidan va mineral jinslardan olingan xom ashyodan tayyorlanishi mumkin. Shuning uchun ular tabiiy tolalarga o‘xshab, sellyulozali (viskoza, asetat, triasetat, mis, ammiak va hokazo) oqsilli (kazein), mineral (shisha va metal) tolalarga bo‘linadi.

Nisbatan oddiy moddalar molekulalarining birlashtirilish yo‘li bilan olinadigan tolalar sintetik tolalar deyiladi.

Kapron, lavsan, nitron, xlorin, vinol, polietilen, poliropilen va boshqalar sintetik tolalardir.

Boshlovchi: Endi navbatni modeler -dizaynerlarga beramiz. Marhamat!

1-modeler -dizayner. “Dizayn” so‘zi italyanча “disegno” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, loyihalash, rasmlar va g‘oyalar asosida bajarilgan ishlar ma‘nosini bildirgan, inglizcha (“disegn”) “dizayn” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, chizma naqsh, g‘oya va loyihalash va konstruksiyalash jarayoni, ya‘ni badiiy loyihalashtirish ma‘nosini anglatadi. Dizayn faqatgina texnikaning go‘zalligini o‘rganish bilan shug‘ullanmaydi, balki texnikaning zamonaviylashuvini va qulaylashtirishni ham nazarda tutadi.

Dizaynning muhim nazariy asosi-bu texnik estetikadir. Dizayn ob‘ektlarni shunday loyihalashtiradiki, bunda shakl ob‘ektning nimaga mo‘ljallanayotganidan kelib chiqib, uning tejimli va go‘zal bo‘lishini ta‘minlaydi.

Dizayn-bu bizni qurshab turgan narsalar dunyosini estetik jihatlariga qarab badiiy loyihalash va konstruksiyalashdir. Dizayn-bu foydalilik va go‘zallikning tabiiy birligi bo‘lib, amalda va shaklda bir butunlikka ega bo‘lgan narsalar muhim hisoblanadi.[4]

2-modeler-dizayner. Yangi narsani yaratish-bu murakkab, ijodiy ishlab chiqarish jarayonidir, bunda turli mutaxassislar: olimlar, muxandislar va dizaynerlar qatnashadilar. Ayniqsa bu jarayonda dizaynerlarning roli katta. U narsani o‘ylab topadi, ya‘ni bunda u faqat uning shaklini emas, balki undan qanday foydalanishni, o‘ziga xosligini va boshqa narsalar ichida ajralib tura olishligini ham e‘tiborga oladiki, bundan narsaning iste‘molchilarga, yaroqliligi va sifatleri aniqlanadi. Dizaynerning keng dunyoqarashga, yuksak madaniyatga ega bo‘lishi kerak, tarixni chuqur his qila bilishi va o‘zidan oldingi avlodlar tajribasidan foydalana olishi zarur. U zamonaviy texnologiyalarni, sanoat ishlab chiqarishning murakkab texnikaviy muammolarini tahlil qila bilishi kerak.

3-modeler-dizayner. “Model” so‘zi buyumning shu turkumdagi boshqa buyumlarga nisbatan ko‘rinishi, shakli, materiali, bezagi yoki boshqa sifatleri yangicha bo‘lgan namunasini bildiradi.

Modellashtirishning maqsadi o‘z san‘ati, qudrati bilan jamiyatni estetik tarbiyalash, madaniyatini yuqori pog‘onalarga ko‘tarishdir, o‘z zamonasining turmush tarzi, fan va texnika yutuqlari, milliy urf-odatleri, iqlimi, sharoitini aks ettirishdir.

Modellashtirish-bu turli shakl va bichimdagi buyum modelining konstruksiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagi modellar konstruksiyasini tuziladigan asosiy konstruksiya bazasidan olish mumkin. Bu jarayon texnik modellashtirish deb ataladi. Texnik modellashtirish konstruksiya asosini yangi model konstruksiyasiga aylantirishdan iborat.

Yangi narsani yaratish-bu murakkab, ijodiy ishlab chiqarish jarayonidir, bunda turli xildagi mutaxassislar: olimlar, muxandislar va dizaynerlar qatnashadilar.

Dizayner keng dunyoqarashga, yuksak madaniyatga ega bo‘lishi kerak, tarixni chuqur his qila bilishi va o‘zidan oldingi avlodlar tajribasidan foydalana olishi zarur. U zamonaviy texnologiyalarni, sanoat ishlab chiqarishning murakkab texnikaviy muammolarni tahlil qila olishi kerak.

Boshlovchi: Mana biz yuqorida yosh gazlamashunos va modeler dizaynerlarning fikrlari bilan tanishdik. Endi navbatni tikuvchilarimizga bersak. Marhamat!

1-tikuvchi. Zamonaviy kiyim murakkab tizim bo‘lib, unga xos loyihalashning shakllanish qonuniyatlarini tushunmoq uchun, kiyimning uzoq o‘tmishdagi ko‘rinishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak.

Kiyim hozirgi mukammal ko‘rinishga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bochqichlarida iqlim ta‘siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Kiyimning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo‘lib yashagan vaqtiga to‘g‘ri kelgan.

Bu davrda insonlar daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog‘lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongining rivojlanishi tufayli u ham rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko‘rinishi turli o‘simlik va hayvonot mahsulotlaridan to‘qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o‘rab yurishdan iborat edi.

Avval insonni iqlimiy ta’sirlardan muhofaza qilish uchun yaratilgan kiyimning, keyinchalik, turli tarixiy o‘zgarishlar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, milliy xususiyatlar va jamiyatdagi estetik tasavvur evolyusiyasi ta’siri ostida shakli va xillari o‘zgarib, kiyim amaliy san’at ob’ektiga aylandi.[5]

2-tikuvchi. Kiyimni yakka buyurtma yo‘li bilan tikishda o‘lchab-hisoblab loyihalash usuli juda mos keladi, chunki bu usulda gavnani aniq o‘lchangani tufayli gavnaning o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda o‘lchab-hisoblab loyihalash usullari bo‘yicha kiyim detallari chizmasini tuzish keng tarqalgandir. Bu usulda gavadan kerakli o‘lchovlar olinadi, hisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buyumning asos chizmasi chiziladi. Bu usuldan maktablarda, o‘quv muassasalarida, to‘garaklarda qo‘llaniladi. Bu usulning bir necha o‘nlab turlari mavjud. Chizma chizishni, andaza tayrlashni o‘rganayotgan kishilar uchun bu usul qulay hisoblanadi. Gavnani o‘lchashdan oldin hech narsani esdan chiqarmay to‘g‘ri o‘lchash uchun o‘lchash belgilari ro‘yxati yozilgan qag‘oz tayyorlab olishni maslahat beramiz. Qiz bolalar garderoibi uzun tungi ko‘ylak yoki pijama, ko‘ylaklar, fartuklar, nimchalar, sarafan, bluzka, shim, kurтка, palto va kombinzondan iborat. Kiyim assortimenti avvalgicha qoladi, lekin shakllarning bo‘linishlarida o‘zgarishlar bo‘ladi. Ko‘ylaklarni kichkina koketkali, unchalik enli bo‘lmagan qo‘sh etaklar, plessi yoki taxlama bilan bezash mumkin. Kiyimning asosiy shakllari trapesiyasimon va to‘g‘ri. Bolalarni mustaqil ravishda kiyinib-yechinishlarini rag‘batlantirish maqsadida qulay taqilmalar qilindi, ular albatta kiyimning old qismida joylashishi kerak, tugmalar qulay shakl va o‘lchamlarda bo‘lib, soni ko‘p bo‘lmasligi kerak. Kiyimlarning old bo‘laklari yorqin applikatsiyalar, kashtalar bilan bezatilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimlari yorqin, serbezak, shakllari erkin va yumshoq bo‘lishi kerak. Ranglari yorqin va tiniq, detallari o‘zaro proporsional, bezaklar ifodali bo‘lgan kiyim nafaqat estetik, balki tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi.

3-tikuvchi. Milliy kiyimlar bayramona uy liboslari yoki kundalik kiyimlarni tikishning manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Milliy kostyum uchun rangdor matodan foydalanish kiyimning chiroyli chiqishida muhim rol uynaydi. Qizlar qo‘l mehnati bilan shug‘ullanganda, (ustozning boshchiligida) gulli rangdor sharfchalar, kichkina nimachalar to‘qishlari, bluzkalarga gulli kashtalar tikishlari va boshqa turli xildagi murakkab ishlarni bajarishlari mumkin.

Boshlovchi: Rahmat.Endi navbatni yosh tadbirkorlarga bersak, ular o‘zlarining tajribalaridan, bozorning sir-asrorlaridan so‘zlab beradilar. Marhamat!

1-sotuvchi-tadbirkor: Hozirgi davrda tadbirkorlik faoliyati har bir sohaga kirib kelmoqda. Inson yaralibdiki, hayotning har bir kunida bir necha marotaba savdo-sotiq, mol ayribolash, iqtisod bilan bog‘liq masalalarga duch keladilar.

Tadbirkorlik ishlab chiqarishni tashkil qilish, yo‘lga qo‘yish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sota bilish, tushgan pulni joy-joyiga sarflay olishdir. Biz tayyor buyumlarni o‘z egasiga yetkazib beramiz.

2-sotuvchi-tadbirkor: Qiz bolalar ko‘ylagini tayyorlash uchun qancha xom ashyo ketishini, unga ketgan sarf-harajatni, olinadigan foyda hisobini aniqlaymiz.Buyumlarni tannarx asosida sotish uchun baho belgilaymiz. Baho belgilash bozorni o‘rganish, undagi talab va takliflar natijasida amalga oshiriladi.

Iqtisod bilan ish yuritishimiz esa halol mehnat evaziga daromad olish va uni aqd-idrok, tejamkorlik bilan zaruriy jylarga ishlatishdir.Savdo sohasida to‘g‘rilik, halollik talab qilinadi. Savdoda sotuvchiga shirinso‘zlik, xushmuomalalik, so‘zamollik kabi xislatlar kerak bo‘ladi.

Boshlovchi: Mana hurmatli konferensiya ishtirokchilari, yuqorida kasb egalarining fikr-mulohazalari, tavsiyalari, tajribalari bilan tanishdik.

Qiz bolalar ko‘ylagini tikishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, gazlamani qanday tejab ishlatish kerakligini bilib oldik.

Yuqoridagi kasblar bir-biriga bog‘liq ekan. Gazlamashunos modeler-dizaynersiz, modeler-dizayner-tikuvchisiz, tikuvchi-sotuvchi-tadbirkorsiz o‘z faoliyatini yurita olmasligining guvohi bo‘ldik.

Shu tarzda darsda aytilgan fikrlar umumlashtiriladi. Kasblarning ajralmas uzviy aloqadorligi ularning faoliyati misolida ko‘rsatib beriladi.

**Xulosa.** Konferensiya tarzida o‘tkaziladigan dars jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etadilar. O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan kasb egalari qiyofasiga kirib, ziyraklik, chaqqonlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xislatlarni namoyish qiladilar. Ushbu dars misolida o‘quvchilarning texnologiya faniga oid nazariy va amaliy bilimlari mustahkamlanadi, kasblar xususiyatini farqlay bilish orqali ularni kasbga to‘g‘ri yo‘naltiriladi, mulohaza yuritish, fikrlash, xulosa chiqarish malakalari hosil qilinadi.

**Adabiyotlar:**

1. Tolipov O‘.Q., Barakaev M., Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika.-T.2001
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A Ta’limda innovatsion texnologiyalar.-T.2003
3. Abdullaeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish.-T.2006
4. Jabborova M.Sh.Tikuvchilik texnologiyasi T-1994
5. Anorqulova G.M.Texnologiya ta’limi praktikumi T.-2018 y

## TALABALARDA INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA IJTIMOY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

*Rustamov Shavkat Shuxratovich,*

*Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrası,  
p.f.f.d (PhD) dotsent*

*Mazkur maqolada talabalarda innovatsion ta'lim sharoitida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning konseptual asoslari hamda talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik muloqot va qadriyat kabi komponentlari o'qituvchilik mavqeyini anglashga undovchi prognostik, konstruktiv, tashkiliy, refleksiv loyihalarni kasbiy o'zini anglash muhitida samarador ta'sir dinamikasida qo'llanilishiga ko'ra asoslangan. Bundan tashqari ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish va pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik amaliyot, innovatsion faoliyat, metodologiya, xarakter, ijodkorlik, kasbiy faoliyat, temperament, konstruktiv, refleksivlik.*

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В данной статье рассматриваются концептуальные основы развития социальной компетентности у студентов в условиях инновационного образования, а также такие компоненты развития социальной компетентности у студентов, как педагогическая коммуникация и ценностные ориентиры, основанные на применении прогностических, конструктивных, организационных, рефлексивных проектов, способствующих осознанию педагогической позиции, в динамике эффективного воздействия на среду профессионального самосознания. Далее речь идет о совершенствовании педагогических механизмов развития социальной компетентности и совершенствовании педагогической системы развития социальной компетентности учащихся в процессе педагогического образования.*

***Ключевые слова:** педагогическая практика, инновационная деятельность, методика, характер, творчество, профессиональная деятельность, темперамент, конструктивизм, рефлексивность.*

## CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF INNOVATIVE EDUCATION IN STUDENTS

*In this article, the conceptual foundations of the development of social competence in the conditions of innovative education in students, as well as components of the development of social competence in students, such as pedagogical communication and value, are based on the application of prognostic, constructive, organizational, reflexive projects that encourage the realization of a teaching position in the environment of professional self-awareness. It also talks about improving pedagogical mechanisms for the development of social competence and improving the pedagogical system for the development of social competence of students in the process of pedagogical education.*

***Keywords:** pedagogical practice, innovative activity, methodology, character, creativity, professional activity, temperament, constructive, reflexivity.*

**Kirish.** Respublikamizda oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarish va bu jarayonga ilg'or xorijiy tajribalarni jalb etishning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtirilgan. "Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini rivojlantirish" vazifalari belgilab berilgan. Bu esa talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali omillari, tashkiliy-metodik, psixologik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni hamda pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash



to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Olimlaridan R.Sears, R.O.Renye, A.Maslou, S.Sho, B.Oskarsson, A.Shelton, V.I.Baydenko, A.M.Novikov A.I.Subetto, A.V.Xutorskiy, L.I.Amanbayeva, A.V.Belyayev, M.V.Bogomaz, L.S.Vigotskiy, Dj.Karpara, S.I.Karpushkin, L.G.Kovalenko, S.Yu.Korolkova, N.F.Kriskaya, L.V.Kuznesova, V.G.Maralov, A.Mudrik, L.B.Osipova, pedagog, psixolog olimlar shaxsda ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish kabi muammolar yuzasidan o‘z nazariy qarashlarini bayon qilgan.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy innovatsion kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Professor N.A. Muslimov bu borada keng qamrovli tadqiqotlarni olib borib, kasbiy kompetentlikni yettita turga bo‘lib o‘rganadi. Olimning fikricha, global kompetentlik; ijtimoiy-madaniy kompetentlik; ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik; axborot olishga kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; o‘quv-bilishga oid kompetentlik; amaliy faoliyatga oid kompetentlik turlari mavjud bo‘lib, fikrimizcha, bular shaxs kompetentsiyalari, kasbiy individual xislatlari va sifatlarini aniqlovchi mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

G.K.Ushakov fikricha, talabalarni innovatsion kompetentligini psixologik munosabatlar tashkil qiladi. Psixologik munosabat deganda, talabalarining jamoa o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat psixologik usullar va malakalardan o‘z o‘rnida samarali foydalanish tushuniladi.

Talabalarda ijtimoiy kompetentlikning yetarlicha tarkib topmasligi kelajakda kadrlar qo‘nimsizligini keltirib chiqaradi. Ya‘ni o‘zining kasbiy tanlovida barqarorlikni his qilmagan talaba nafaqat akademik traektoriyasini to‘g‘ri va maqsadli tuzishda, balki kasbiy makonda tan olinish, pedagogik muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarda erkin ishtirok etish va qulay harakatlanish imkoniyatiga etarlicha ega bo‘lmaslikdan qiynaladi. Bu bilan bog‘liq ravishda ta‘lim jarayoni talabaga kasb sirlarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rgatishdan tashqari, unga jamiyat a‘zosi sifatida, o‘ziga va hatti-harakatlariga nisbatan mas‘uliyat bilan yondashadigan shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishi taqozo etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ta‘lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish yaxlit tizim sifatida bir qansha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. Biz ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini ajratishda I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifiga tayandik. Unga ko‘ra kasbiy etuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- kasbiy shukur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo‘naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik

Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda ta‘limning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo‘llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin: 1) ta‘lim mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida.

**Yangiliklarni joriy qilishning yo‘llaridan qat’iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:**

a) tizimli, rejali, oldindan o‘ylangan;

b) kutilmagan, oz-ozidan paydo bolgan, to‘satdan paydo bo‘lgan. Yangiliklarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat’iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o‘tish mumkin:

a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;

b) qisman, kichik, mayda.

Yangilikning paydo bo‘lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin: a) tashqi b) ichki.

Talabada o‘zlashtirishga nisbatan motiv hosil bolsa, o‘quv materialini tez va oson o‘zlashtiradi. Ta‘lim jarayoniga yangiliklarni joriy qilishda talabalarda motiv komponenti hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishda motivlarni hosil qilishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

1. Berilgan bilim va ko'nikmalarning zarurligini tushuntirish;
2. Shaxsiy mas'uliyat hissini yaratish;
3. Ta'lim jarayonida vaqtida talabalarning qiziqishini uygotish va saqlab turish;
4. Orttirilgan bilimlardan hayotda qanday foydalanish mumkinligini tushuntirish;
5. Ma'qullash, e'tirof etish, rag'batlantirish;
6. Sog'lom raqobat;
7. Olingan bilimlardan kelajakda talabalar qanday muvaffaqiyatlar qozonishlari mumkinligi haqida muloqot qilishga imkon berish;
8. Tanlash imkoniyatini yaratish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kasbiy yetuklik (professionallashtirish) kayaxlit hodisa sifatida qarash, uni tashkil etuvchilarning roli va ahamiyatini pasaytirmaslik pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish masalasi ham umumiy shaxs rivojlanishi muammosi singari qarama-qarshiliklar jarayoni va natijasidir.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda aksiologik yondashuvlarning roli katta. Talabalarning kasbiy faoliyatni qadriyat darajasida anglashi va uni egallashga mas'uliyatli ravishda yondashishiga erishish lozim. Buning uchun talabalarning ichki dunyosi, kasbiy faoliyatga motivatsion-maqсадli yo'nalganligini inobatga olish talab etiladi. Natijada maydonga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayanish ehtiyojlari chiqadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko'ra, kasbiy madaniyat - bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Tarbiya esa, ikki tomonlama ta'sir etuvchi faoliyatni taqozo etadi. Bu vaziyatda esa, faoliyatli yondashuv o'zining ijtimoiy imkoniyatlari bilan maydonga chiqadi.

Faoliyatli yondashuvga ko'ra, kasbiy madaniyat - bu pedagogik qadriyatlar, tamoyillarning tatbiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchilik faoliyatining o'ziga xos harakatlari majmuidir. Demak, talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish pirovardida kasbiy madaniyatga olib boruvchi yo'ldir.

**Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:**

1. ijtimoiy madaniyatni qaror toptirish;
2. ijtimoiy kasbiy qadriyat va ijtimoiy madaniyatni izchil sur'atda oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;
3. ijtimoiy bilimlar targ'ibotini tashkil etuvshi ma'rifiy muhitni yaratish, uning samaradorligini oshirib borish;
4. ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar doimiyligidan uzluksiz xabardor etib borish;
5. davlatning yoshlarga oid siyosati mazmuni, mohiyati va ahamiyati borasidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash;
6. ma'naviy-ijtimoiy mavzularga doir amaliy tadbirlar o'tkazib turish hamda jarayonda talabalar jamoasining har bir a'zosi faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish;
7. milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari asosida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy yo'nalishlardagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish hamda amaliy yordam ko'rsatish.

*Uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion kompetentlikni shakllantirish tizimiga qo'yiladigan talabalar Oliy ta'limning bakalavriat bosqichida qo'yiladigan talabalar majmuasi:*

- 1) Global kompetentlik. Mustaqil hayot yo'lini topa olishi, jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi.
- 2) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasini kengaytirish.
- 3) Ijtimoiy-faoliyatga kompetentlik. Fuqarolik, ijtimoiy-mehnat sohasidagi bilim va tajribalarni egallash.
- 4) Axborot olishga kompetentlik. Audio-video vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish.
- 5) Kommunikativ kompetentlik. O'zaro munosabatlar, ularning usullarini o'zlashtirish,
- 6) O'quv-bilishga kompetentlik. Maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish bo'yicha bilim va malakalar majmuasini egallash.
- 7) Amaliy faoliyatga kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalarini shakllantirish.
- 8) Global bilimlarga egalik. O'z kasbi doirasida yetarli darajadagi bilimga ega bo'lish.
- 9) Fanlarni integratsiyalay olishlik. Zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda o'qitiladigan barcha fanlarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash.
- 10) Konstruksiyalay olishlik. Obyekt va jarayonlarning tuzilishi va o'zaro joylashuvlarini tuza bilishning tizimli faoliyati bo'yicha malakalarga ega bo'lish.

11) Modellashtira olishlik. Biror-bir hodisa, jarayon yoki obyektlar tizimini ideal yoki real modelini qurish va uni o‘rganish orqali ularning xususiyatlarini aniqlash.

12) Loyihalay olishlik. Obyekt va jarayonlarni rejalashtirish, modelini tuzish, ularning xususiyatlarini aniqlash.

13) Bashorat qila olishlik. Manbalar asosida istiqbolda aniqlash lozim bo‘lgan natija xususida oldindan fikr yuritish.

14) Motivasion xislatlarga egalik. Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

15) Intellektual salohiyatga egalik. Fikrlash, erudisiya, sezgirlik, ziyraklik, bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, tasavvur, ijodkorlik malakalarini shakllantirish.

16) Irodaviylik. O‘zaro muloqotda chidam, faoliyatni amalga oshirishda, maqsadlarga erishishda, o‘zligini rivojlantirish.

17) Hissiylik. Ta‘lim oluvchilarning o‘y-kechinmalari, o‘quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlarini e‘tiborga olish, hamfikirlik va ruhiy muhitni boshqara olish.

18) Qobiliyatlilik. Muayyan faoliyat yuzasidan layoqatlilik va ishni muvaffaqiyatli bajarishdagi o‘ziga xos imkoniyatlarga egalik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

19) O‘z-o‘zini takomillashtira olishlik. O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o‘z individualligini rivojlantira olish.

20) Global fikrlashga egalik. Intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarni rivojlantirish.

**Pedagogik ta‘lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy komponentlari quyidagilar:**

1. **Erkinlik va ijodiy barqarorlik.** Erkin shaxsni tarbiyalash: o‘z-o‘zini anglashning yuksak darajasi; fuqarolik, o‘z qadr-qimmatini his qilish, o‘zini hurmat qilish, intizomlilik, to‘g‘rilik; ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va mas‘uliyatni his qilish; hayotiy faoliyat mazmunini erkin tanlash.

2. **Tan olish va hurmat.** Tolerantlik, insonning mavjud noyobligini tan olish ham talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim omildir. Ayniqsa, insonparvar shaxs tarbiyasiga erishishda mehribonlik, yaxshilik, sabrlilik, chidamlilik, kamtarlik, tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar negiziga asoslangan tushunshalarning mohiyati talabalar tomonidan to‘liq anglanishiga erishish lozim.

3. **Ma‘naviyat va ma‘rifatda qadriyatlilik.** Bilish va o‘z-o‘zini anglash, go‘zallik, refleksiya, muloqot, hayot mazmunini chuqur tushunishga ehtiyojni talabalarda uyg‘otishning pedagogik mexanizmlarining ommabopligi va foydalanishga qulayligini ta‘minlash lozim.

**Xulosa.** Mamlakatimizda oliy ta‘limni isloh qilish bo‘yicha dastur va qonun hujjatlarida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish zarur. Pedagog psixolog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirishga yangicha munosabat bildirish va sohada ijobiy o‘zgarishlar uchun zaruriy asosni yaratish maqsadida tizimda faoliyat olib borayotgan pedagog-psixolog xodimlar malakasini oshirishni jamg‘arib boriladigan birliklar asosida tashkil etish, malaka oshirish va pedagog xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berishni integratsiyalash orqali takomillashtirish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Abduraimov Sh.S. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta‘minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – 120 b.

4. Beluxin D.A. Основы личностно ориентированной педагогики. – Воронеж: МОДЕК, 2005. – 286 с.

5. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла. Дис. канд. пед. наук. – T.: 2002. – 146 с.

6. Ro‘zieva D. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007. – 255 b.
7. G‘oziev Ye. Oliy ta’lim muassasasi psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 184 b.
8. Юсупов Е. Мустақиллик ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 175.
9. Шабанов А.Г. Социальная активность молодежи как социопедагогической феномен // НГУ, 2007. – С. 384-392.
10. Соколова Э.С. Социальная активность современной российской молодежи Проблемы педагогики и психологии // МГУ, 2011. – №1. – С. 197-202.

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNIG NAZARIY ASPEKTLARI

*Ruzimova Intizor Xujamuratovna,  
Urganch davlat pedagogika instituti  
“Pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi*

*Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ro'y berayotgan ilmiy amaliy o'zgarishlar va yangiliklarning negizida ilmiy faoliyat va ilmiy tadqiqot faoliyatini oshirish yotadi. Hozirda ta'lim jarayonida yosh kadrlarning tadqiqotchilik faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot faoliyatlari olib borilmoqda, albatta, bu faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyati va kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari yuzasidan munozaralar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, kompetensiya, ilmiy tadqiqot faoliyati, World skills, online aloqa, Master of Education.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

*Основой реализуемых сегодня в системе высшего образования реформ, научно-практических изменений и инноваций является повышение научной активности и научно-исследовательской деятельности. В настоящее время проводится ряд научно-исследовательских мероприятий по развитию исследовательской деятельности молодых кадров в процессе обучения, и эта деятельность, безусловно, имеет большое значение. В данной статье высказываются мнения о теоретических и практических основах развития исследовательской деятельности и компетентности будущих педагогов. Также будут обсуждаться технологии развития исследовательской компетентности будущих учителей.*

**Ключевые слова:** система образования, компетенция, исследовательская деятельность, мировые навыки, онлайн-коммуникация, мастер образования.

## THEORETICAL ASPECTS OF DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

*The basis of the reforms implemented in the higher education system today, scientific and practical changes and innovations is the increase of scientific activity and scientific research activity. Currently, a number of scientific research activities are being carried out on the development of research activities of young personnel during the training process, and this activity is of course of great importance. In this article, opinions are expressed about the theoretical and practical foundations of the development of research activity and competence of future pedagogues. Also, there will be discussions on technologies for developing research competence in future teachers.*

**Keywords:** education system, competency, scientific research activities, World skills, online communication, Master of Education.

**Kirish.** Bugungi kunda pedagogik ta'lim o'qituvchisini doimiy ravishda tayyorlashning ijtimoiy va madaniy jihatdan shartlangan jarayoni sifatida qaraladi, u rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan turli xil vaqt va tarkibdagi asosiy kasbiy ta'lim dasturlari asosida amalga oshiriladi: madaniyat, tarix, fan sohasidagi bilim va ko'nikmalar tizimi, inson va jamiyat to'g'risida har tomonlama bilim, ta'limning ma'lum bir yo'nalishi hisoblanadi.

Amaliy va akademik bakalavr darajasi doimiy ravishda o'qitiladigan kadrlar tayyorlash dasturining bir qismidir. Amaliy bakalavr va akademik o'rtasidagi farq (ilmiy daraja) bitiruvchining ma'lum bir malakaga ega bo'lishidir. Bakalavrning an'analari va xususiyatlari o'qituvchilarni tayyorlashning xorijiy va mahalliy tizimida shakllangan. Bir qator tadqiqotchilar AQShda akademik bakalavr dasturlarini sinovdan o'tkazishga misol keltiradilar[2. 87-89 betlar]. Biz asosan xalqaro ta'limdasturlari (International education programm) haqida gapiramiz, ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular akademik martaba rejalashtirayotgan talabalarga qaratilgan. Aynan ushbu dasturlar AQShda oliy ta'limining muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam

berdi. Ular yurtimizda o'qituvchini tayyorlash talablariga o'xshash o'qituvchi mutaxassisligini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni tayyorlashning akademik dasturi ya'ni tadqiqotchilik faoliyatini o'zgaruvchan model sifatida tuzilishi kerak, bu talabalarga boshqa har qanday mutaxassislik bitiruvchilarini tayyorlashning pedagogik yo'nalishlariga o'tishga imkon beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyati asosan magistratura bosqichida shakllanadi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun magistrlik dasturlari ikkita variantga ega: amaliy va tadqiqot magistrleri. Amaliy magistratura o'qituvchini maktabda amaliy ish uchun tayyorlashga mo'ljallangan va tadqiqot magistr darajasini (*Master of Education*) tayinlashni o'z ichiga oladi. Amaliy dasturlar doimiy ravishda yangilanib turadigan kasbiy va pedagogik muammolar va muammolarni hal qilishga qodir mobil va ijodiy o'qituvchini tayyorlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- ❖ *jamiyatni raqamlashtirish sharoitida yosh avlodni ijtimoiylashtirish;*
- ❖ *madaniy va gumanitar tamoyillarga muvofiq ta'lim munosabatlarini o'rnatish va aloqani tashkil etish;*

- ❖ *fikrlashning yaxlit turini rivojlantirish (kontseptual);*
- ❖ *o'qituvchi maqomini oshirish;*
- ❖ *o'qituvchining ta'limdagi roli va funksiyasini aniqlashtirish jarayon.*

Biroq, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning barcha bosqichlari va darajalarida bo'lajak o'qituvchining ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini o'qitishning maqsadga muvofiqligi va mazmunli jihatlari to'g'risida savol tug'iladi. Agar bir qator zamonaviy tadqiqotchilar pedagogik kadrlarni tayyorlashda kasbiy va amaliy kompetensiyalar ustuvor deb hisoblasalar, unda o'qituvchini fundamental tayyorlash nazariyalarida kasbiy pedagogik va ilmiy-tadqiqot madaniyatining barqaror integratsiyasiga ustuvor ahamiyat beriladi.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning uzluksiz pedagogik ta'lim strategiyalari nuqtai nazaridan tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning uslubiy jihatlari va tashkiliy shartlarini o'rganish edi.

Tadqiqot usullari quyidagilardan iborat edi: o'qituvchining uzluksiz kasbiy tayyorgarligi yondashuvlari va strategiyalarini uslubiy tahlil qilish, o'qituvchining kasbiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tadqiqot kompetensiyasining rivojlanish darajasini ko'rib chiqish.

Uzluksiz kasbiy pedagogik ta'lim g'oyasi 1990-yillarning oxiridagi ta'lim jarayonlarining evolyutsion hodisasi sifatida shakllandi va 2020-yillarning boshlariga qadar ta'limni isloh qilish tendentsiyalari, bu quyidagi uslubiy yo'nalishlarda taqdim etilishi mumkin:

- pedagogik ta'lim mazmunini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish tendentsiyasi;

- kontseptual darajada-pedagogik jamoatchilik tomonidan pedagogik ta'lim mazmunini tuzish muammolarini muhokama qilish (masalan, madaniy kontseptsiyada ta'lim mazmuni umuminsoniy madaniyat tuzilishiga muvofiq ishlab chiqilgan);

- normativ va o'quv-uslubiy darajada – ilmiy asoslangan kasb-hunar va malaka xususiyatlarini ishlab chiqish;

- pedagogik ta'lim mazmunining shaxs-faoliyat yo'nalishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish tendentsiyasi;

- pedagogik ta'lim mazmunining psixologik va pedagogik yo'nalishini kuchaytirish;

- pedagogik ta'lim mazmunining pedagogik madaniyat va mahoratni shakllantirishga yo'naltirilganligi, bo'lajak o'qituvchining pedagogik ijodga, kasbiy va shaxsiy fazilatlariga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish.

Pedagogik ta'limni isloh qilishning hozirgi tendentsiyalarini quyidagi pozitsiyalarda ifodalangan o'qituvchilarni uzluksiz o'qitishning izchil strategiyalari sifatida belgilash mumkin:

- o'qituvchining pedagogik faoliyatni yuqori darajada tahlil qilish va pedagogik muammolarning maqbul yechimini topish qobiliyatini kafolatlaydigan o'qituvchining akademik tayyorgarligining ustuvorligi (*bu yondashuv nazariy va amaliy pedagogikani o'zaro boyitishga ham yordam beradi*);

- o'qituvchilarni tayyorlash o'qituvchining sinxron kasbiy va shaxsiy rivojlanishining integratsiyalashgan jarayoni sifatida qaraladi (*shaxsiy va kasbiy rivojlanish bo'yicha o'qitish texnologiyalari*);

- muvaffaqiyatli martaba strategiyasi va uni rejalashtirish ko'nikmalarini o'rgatish (*learning succession planning*);

masofaviy hamkorlik madaniyatini o'qitish va rivojlantirishning tarmoq formati (*online aloqa texnologiyalari, communication learning*)[3. 45- 52 betlar].

L. V. Goryunovanning so'zlariga ko'ra, pedagogik ta'limda pedagogik kadrlarni tayyorlashning quyidagi variantlari ustunlik qiladi:

birinchi yo'nalish talabalarni birinchi kursdan boshlab o'qituvchi kasbiga tayyorlashni o'z ichiga oladi ("*pedagogik ta'lim*", "*psixologik va pedagogik ta'lim*" yo'nalishlarini tanlashda);

ikkinchi yo'nalish pedagogik kasbni tanlash pedagogik tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lmagan amalga oshiriladi, ya'ni, "kasbiy bo'lmagan" o'qituvchi ixtisoslashtirilgan fanlarni o'qitishi mumkin, shu bilan birga uni pedagogik kasbga qabul qilish kasbiy psixologik va pedagogik qayta tayyorlash, malaka imtihonini topshirish, yakuniy malaka ishlarini himoya qilish va boshqalar orqali amalga oshiriladi [4. 10-24 betlar].

Shunday qilib, bakalavriat va magistratura dasturlari o'qituvchilarni ikki darajali o'qitishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ushbu tizimning maqsadli munosabatlari quyidagilardan iborat: psixologik-pedagogik, umumiy madaniy, aniq ilmiy bilimlarni birlashtirish qobiliyati, shuningdek ilmiy g'oyalar va uslubiy madaniyat asosida ularni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati; tizimli va tanqidiy fikrlash bilan ishlash; pedagogik dizayn, modellashtirish va aks ettirish, shu jumladan psixologik, pedagogik va didaktik texnologiyalar.

Tadqiqot kompetensiyasi tushunchasi o'quv va tadqiqot faoliyati toifalari va ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi bilan uslubiy bog'liqdir. Turli uslubiy yondashuvlar nuqtai nazaridan tadqiqot kompetensiyasi quyidagicha ko'rib chiqiladi:

➤ muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish uchun professional ma'lumotlarni izlash uchun texnologiya darajasida tadqiqot faoliyati ko'nikmalari va usullariga egalikni belgilaydigan o'qituvchi shaxsining xususiyatlari;

➤ tadqiqot faoliyati funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan fazilatlar to'plami yoki maqsadli tadqiqot faoliyatini amalga oshirish qobiliyati, shu jumladan tadqiqot muammolarini loyihalash va hal qilish;

➤ o'qituvchining kasbiy va pedagogik kompetensiyasining tarkibiy qismi, uslubiy bilim va ko'nikmalarga, tadqiqot qidirish texnologiyalariga va ta'limning amaliy sohasiga ilg'or pedagogik bilimlarni joriy etish modellariga ega bo'lgan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari;

➤ o'qituvchining qobiliyatlari to'plami, unga quyidagilar kiradi: ilmiy ma'lumotlarni boshqarish va istiqbolli o'qitish texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati;

➤ dastur variantlarini tanlash va baholash va mualliflik loyihalarini yaratish qobiliyati;

➤ ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va qo'llash, shuningdek tadqiqot ma'lumotlari statistikasining zamonaviy usullarini qo'llash va ularni tahlil qilish.

Talabalarning o'quv-tadqiqot faoliyati-bu ijodiy qidiruv ilmiy faoliyati ko'nikmalarini egallash va rivojlantirish jarayoni, shu jumladan ma'lumotlarni mustaqil tizimlashtirish va tahlil qilish, tadqiqot mavzusi bo'yicha izohlar, tezislar, ma'ruzalar va xabarlarini yozish.

O'quv-tadqiqot ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlaridan farqli o'laroq, fan va ishlab chiqarishning yirik uslubiy muammolarini hal qilishga qaratilgan emas, aksincha ilmiy izlanish modellarini o'zlashtirishga, fanning ma'lum bir sohasidagi tadqiqot faoliyati usullari va usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqot faoliyatiga uslubiy algoritmlar va yondashuvlar, o'quv-tadqiqot faoliyatining mantig'i, tuzilishi va protseduralari o'rganilayotgan fan nazariyasi va amaliyoti sohasini o'rganish uchun umumiy talablarga to'liq javob beradi.

Tadqiqot kompetensiyasi o'qituvchining kasbiy mahoratining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, quyidagi xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

➤ o'qituvchining kasbiy muhitda o'zini takomillashtirish motivatsiyasi;

➤ tadqiqot izlash ko'nikmalari va ma'lumotlarini o'quv jarayoniga o'tkazish qobiliyati; diagnostika va tahliliy bilim va ko'nikmalarni egallash;

➤ uslubiy, texnologik va axborot tayyorgarligi.

Pedagogik xodimning ilmiy-tadqiqot madaniyati kasbiy madaniyatning yaxlit modeliga mos kelishi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi mumkin:

❖ kognitiv muammolarni anglash va shakllantirishda ifodalangan ko'nikmalar to'plami, ilmiy qidiruvni amalga oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish qobiliyati;

❖ ma'lumotni algoritmlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, tadqiqot muammosining muhim xususiyatlarini namoyish etish, tadqiqot natijalarini to'g'ri taqdim etish va shakllantirish);

❖ aksiologik kasbiy manfaatlarni shakllantirish darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishning pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish uchun motivatsiya va tashabbuskorlik darajasi;

❖ maqsadlarni belgilash qobiliyatini, talabalar va hamkasblar bilan birgalikdagi faoliyatning ahamiyatini anglashni, ijodiy faoliyat orqali shaxsiy va kasbiy motivatsiyani namoyon etishni o'z ichiga oladi;

❖ dizayn va texnologik kompetensiyalar majmuasini shakllantirish: tadqiqot usullari va usullariga ega bo'lish;

❖ tadqiqot qidirish dasturi doirasida axborot qidirish, tizimlashtirish va dolzarb ma'lumotlarni tahlil qilishda mustaqillik;

❖ mualliflik pedagogik loyihalarini yaratish va sinab ko'rish qobiliyati;

❖ tadqiqot loyihasi doirasida ilmiy hamkorlik va birgalikda yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

❖ tahliliy va tanqidiy ko'nikmalar, tadqiqot qidiruv natijalarini bashorat qilish.

Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida o'qituvchining tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning tashkiliy modelini uch darajada ko'rib chiqish mumkin:

• professionalgacha (*o'quv va ilmiy ish*);

• kasbiy va pedagogik (*kasbiy pedagogik muammolarni hal qilish tajribasini rivojlantirish*);

• akmeologik (*ilmiy va innovatsion qidiruv, o'qituvchilarning malakasini oshirish*).

World Skills (hayot ko'nikmalari) standartlarini tahlil qilish tadqiqot kompetentsiyasini o'qituvchining ko'nikmalari majmuasi sifatida tavsiflashga imkon berdi:

- talabalar individual va jamoaviy o'quv faoliyati taraqqiyotini o'rganish uchun turli diagnostika usullarini ishlab chiqish va qo'llash;

-diagnostika va statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- tadqiqot loyihasi faoliyatining turli formatlari va bosqichlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- talabalar individual va guruhli tadqiqot va loyiha faoliyatini ilmiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash[6].

Davlat ta'lim standartiga muvofiq talabalarda ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasi (ta'lim sohasidagi tadqiqot muammolarini shakllantirish va hal qilish uchun tizimlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishga tayyorlik) va (talabalar individual o'quv va tadqiqot faoliyatini boshqarish qobiliyati) kasbiy vakolatlari doirasida taqdim etiladi. Shu bilan birga, ushbu kompetentsiyaga erishish ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

❖ pedagogik ko'rinishning zamonaviy metodologiyasini, ushbu faoliyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning mazmuni va natijalarini bilish;

❖ zamonaviy ilmiy bilimlar va pedagogik tadqiqotlar natijalariga asoslanib, muammoli pedagogik vaziyat sharoitlaridan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyatni loyihalashning maqsad va vazifalarini aniqlash qobiliyati;

❖ ilmiy va pedagogik yutuqlar va tadqiqotlar asosida pedagogik faoliyatning dolzarb shakllarini loyihalash ko'nikmalariga ega bo'lish.

O'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini rivojlantirishni ta'minlaydigan o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarining pedagogik yo'nalishi "ta'limda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish" qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Dastur doirasida kompetentsiyalar shakllantiriladi. Dasturni o'rganishning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

• pedagogik fan metodologiyasining terminologik apparatini, ilmiy tadqiqotning asosiy xususiyatlarini, fan rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, ilmiy izlanish tuzilishini, ilmiy tadqiqot usullarining xususiyatlarini, eksperimental ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

• o'qituvchining ilmiy faoliyati muammolarini hal qilishda qo'llaniladigan nazariy tushunchalardan foydalanish ko'nikmalari va ko'nikmalarini rivojlantirish;

• tadqiqot xarakteridagi ijodiy loyihalarni ishlab chiqish;

• ilmiy munozaralar o'tkazish;

• ijodiy va tadqiqot qobiliyatlarini o'z-o'zini tashxislash.

Dasturda o'rganilayotgan masalalar mavzusi o'qituvchining tadqiqot kompetentsiyasini shakllantirishning eng muhim jihatlarini qamrab oladi:

✚ ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy ijodkorlik;

✚ ilmiy tadqiqotlar mantig'i;

✚ gipotezalar va ularning ilmiy tadqiqotlardagi o'rni;

✚ ilmiy va pedagogik tadqiqot usullari;

✚ kompleks pedagogik tajriba va eksperiment natijalarini talqin qilish;

✚ ilmiy konferentsiyalar va seminarlarni tashkil etish va o'tkazish usullari;

✚ ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslari tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

✚ ilmiy matn bilan ishlashning xususiyatlari;

✚ ilmiy tadqiqotlar natijalarini nashr etish;

✚ ilmiy tadqiqotlar etikasi va tadqiqotchi o'qituvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish.

Talabalar ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasi darajasini o'rganish ikkita usul bo'yicha amalga oshirildi: uslubiy madaniyat darajasini aniqlash uchun test so'rovi; ko'rsatkichlar toifasi bo'yicha hisobot



tadqiqot loyihalarini reyting baholash: loyihaning dolzarbligi, uslubiy ahamiyati, texnologik qo'llanilishi, natijalarni sinovdan o'tkazish, haqiqiy materialning mavjudligi, loyihaning taqdim etilishi, ma'lumotlarning izchilligi va mavjudligi. Dasturni ishlab chiqish natijalariga ko'ra ijobiy tendentsiyalarni ta'kidlash mumkin: o'qituvchilarning nashr etish faoliyatini faollashtirish, universitetning ilmiy-uslubiy seminarlari va konferentsiyalarida faol ishtirok etish, ilmiy qiziqish doirasini kengaytirish.

**Xulosa.** Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini rivojlantirish nazariy va amaliy tayyorgarlikni integratsiyalashning uzluksiz jarayoni sifatida tashkil etiladi, bu esa o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga bevosita jalb qilishni nazarda tutadi. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining shakllari nostandart kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilishga va o'quv va ilmiy izlanishlarning samarali usullarini o'zlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqot kompetentsiyasini metodik, boshqaruv, kommunikativ va innovatsion kompetentsiyada tizimli ravishda namoyon bo'ladigan kasbiy mahoratining yuqori darajasini qayd etishga imkon beradigan professional o'qituvchining meta-predmetli xarakteristikasi, deb hisoblash mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” 2012 y. 65 bet.
2. Каспржак А.Г., Калашников С.П. Приоритет образовательных результатов как инструмент модернизации программ подготовки учителей // Психологическая наука и образование. 2014. Т. 19. № 3. С. 87.
3. Соколова И.И., Илюшин Л.С., Шилова О.Н. Влияние социокультурных условий на изменение подготовки современного учителя // Человек и образование. 2015. № 3 (44). С. 45.
4. Горюнова Л.В. Сущность современного отечественного педагогического образования: проблемы и перспективы // Современная высшая школа: инновационный аспект. 2015. № 4. С. 12.
5. Бычков А.В. Научный потенциал учителя // В сб.: Образовательное пространство в информационную эпоху. М.: ФГБНУ ИСРО РАО, 2021. С. 117.
6. <https://worldskills.moscow/insertfiles/ДОС/Положение%20о%20стандартах%20ВорлдСкиллс.pdf> (дата обращения: 16.12.2021).

## AKADEMIK MOBILLIK ZAMONAVIY TA'LIMNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

*Ruziyeva Shoxida Fatillovna,  
Buxoro davlat universiteti,  
Pedagogika kafedrası 1-bosqich doktoranti*

*Akademik mobillik va uning turlari o'rganildi, akademik mobillik kontsepsiyalarining nazariy tahlili o'tkazildi, talabalarning akademik mobilligining tarkibiy qismlari ko'rib chiqildi. Maqolaning maqsadi talabalarning akademik mobilligi muammolarini o'rganib, akademik mobillik shartlarini optimallashtirishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** akademik mobillik, ERASMUS, akademik mobillik turlari, akademik mobillik modellari, amaliyot almashinuvi.

## АКАДЕМИЧЕСКАЯ МОБИЛЬНОСТЬ – НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Изучены академическая мобильность и ее виды, проведен теоретический анализ понятий академической мобильности, рассмотрены составляющие академической мобильности студентов. Цель статьи – изучить проблемы академической мобильности студентов и оптимизировать условия академической мобильности.*

**Ключевые слова:** академическая мобильность, ERASMUS, виды академической мобильности, модели академической мобильности, обмен практикой.

## ACADEMIC MOBILITY IS AN INTEGRAL PART OF MODERN EDUCATION

*Academic mobility and its types were studied, theoretical analysis of academic mobility concepts was conducted, components of students' academic mobility were considered. The purpose of the article is to study the problems of academic mobility of students and to optimize the conditions of academic mobility.*

**Keywords:** academic mobility, ERASMUS, types of academic mobility, models of academic mobility, practice exchange.

**Kirish.** Ishlab chiqarish va texnologiyani rivojlantirish bilan bog'liq yangi talablar ta'limning barcha sohalarida, shu jumladan, kadrlar tayyorlashda ham yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kelajakdagi mutaxassisni ish beruvchi tomonidan ko'proq talab qiladigan global jarayonlardagi ishtirokida ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonida akademik mobillikning oliy ta'limni rivojlantirishda muhim tarkibiy qism sifatida ko'rsatiladi.

Xorijiy oliy o'quv yurtlarida o'z ona tili o'qituvchilari va akademik almashinuv sohasida esa boshqa o'qituvchilar tadbirlarni amalga oshirishadi. Bunday ishlarning natijasi shundaki, mamlakatlar o'z universitetlarida tahsil olayotgan talabalar orasida ishonchli yordamchilarga ega bo'lib, xorijiy oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar orqali ularning tili va madaniyati keng tarqaladi.

**Asosiy qism.** Talabalar uchun akademik mobillik turli universitetlarda o'qish, o'qituvchilar va boshqaruv xodimlari uchun esa tajriba almashish va yangi kompetensiyalarni egallash maqsadida boshqa universitetlarga tashrif buyurish imkoniyati sifatida qaraladi. Boloniya shartnomasini yaratuvchilarga ko'ra, ba'zi mamlakatlarning geografik va eng muhimi, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatlari ularda yagona mehnat bozori uchun sharoit yaratish qiyinchiligini keltirib chiqaradi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda fazoviy harakatchanlikni (ya'ni, boshqa davlatga to'g'ridan-to'g'ri sayohat) amalga oshirish biroz iqtisodiy muammolarga olib kelmoqda. Shu sababli, I.V. Bogolovskiy va boshqa bir qator olimlar talabalarning mobilligini amalga oshirishning ikki turini ilgari surishdi. Gorizonttal va vertikal. Gorizonttal talabalarning o'qishini cheklangan muddatda olib borish; vertikal- talabalarning to'liq muddatda o'qishini ta'minlashdan iborat.

Akademik mobillik zamonaviy ta'limning ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Akademik mobillik – talaba yoki o‘qituvchilarning mamlakatidagi yoki xorijdagi OTMlarda kelishuv asosida ma’lum muddat o‘qish yoki dars berishini anglatadi.

Ma’lumki, xalqaro darajadagi ta’lim sohasi o‘zgarishlari “Boloniya shartnomasi” asosida olib boriladi. Shu jihatdan olib qaralganda, akademik mobillik ham xalqaro Boloniya shartnomasiga muvofiq o‘tkaziladi.

Tizimli o‘zgarishlar sharoitida kasb-hunar ta’limi darajalarining uzluksizligi yuqori sinf o‘quvchilari va o‘quvchilarida alohida sifat – akademik mobillikni shakllantirishni ta’minlash maqsadida uning tarkibiy qismlari va funksiyalarining mutanosibligi, izchilligi va o‘zaro ta’siri orqali erishilishi olimlar tomonidan aniqlangan.

Akademik mobillik zamonaviy ta’limning ajralmas xususiyatiga aylandi. Shu sababli, mamlakatimizning Boloniya jarayonidagi ishtiroki bilan bog‘liq holda, oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va umuman manfaatlarni ta’minlash uchun undan foydalanishda ushbu jarayonning barcha jihatlarini o‘rganish va tahlil qilish zarurati paydo bo‘ldi.

Boloniya jarayoni:

- 1999-yil 19-iyundan boshlab 46 ta ishtirokchi davlat;
- Yevropa bo‘ylab yagona darajalar: uch bosqichli tizim "bakalavr" - "magistr" - "doktorant";
- mobillik formulasi: 4 + 2 + 3: 4 yil - bakalavr darajasi, 2 yil magistratura, 3 yil aspirantura (Yevropa doktoranturasi);
- “bakalavr” maqomi to‘liq oliy ta’lim, har qanday holatda “tugallanmagan oliy ma’lumot”;
- yagona Yevropa ta’lim maydoni - masalan, bir nechta Yevropa universitetlarida parallel ravishda o‘qish mumkin;
- Yevropa bo‘ylab yagona baholash;
- chet tillarini o‘qitish;
- Yevropalik ish beruvchilar uchun mos keladigan diplomlar

“Akademik mobillik - uzluksiz ta’lim sub’ektining yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga qarab , individual ta’lim yo‘nalishini qurish va amalga oshirish orqali ko‘p qirrali ta’lim makonida harakat qilish qobiliyati”. S. N. Ryagin [1] akademik harakatchanlikning asosiy turlarini aniqladi. Bular quyidagilar:

- darajali - bir ta’lim darajasidan boshqasiga o‘tish, masalan, o‘rta maktab o‘quvchisi - bakalavr, bakalavr - magistr va boshqalar;
- mazmun bilan bog‘liq – fanlarni o‘zlashtirish darajasini tanlash bilan bog‘liq (asosiy, takomillashtirilgan, kengaytirilgan, kengaytirilgan chuqurlashtirilgan va boshqalar);
- faoliyatga asoslangan – o‘quv fanini o‘rganish usuli bilan belgilanadi (mantiqiy, obrazli, aralash va boshqalar);
- vaqtinchalik – akademik ta’lim muddatlari va shakllarini tanlash bilan bog‘liq harakatlar (shakllar: kunduzgi, sirtqi, kechki va boshqalar; muddatlar: 4 yil – bakalavr, 2 yil – magistratura, 5 ta yillar - mutaxassis);
- geografik - ta’lim joyi bilan bog‘liq harakatlar ( shahar, mintaqaviy, federal yoki xalqaro darajadagi ta’lim muassasasi va boshqalar).

YuNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, 129 mamlakatdan minglab universitetlar chet elliklarga o‘z ta’lim xizmatlarini taklif qilishadi, garchi asosiy raqobat G‘arbiy Yevropa, AQSh, Avstraliya va Yaponiya o‘rtasida bo‘lib, barcha chet ellik talabalarning 4/5 qismi tahsil olsada, bu ko‘rsatkichning yanada yuqori bo‘lishi kelgusida davlatlar o‘rtasidagi nafaqat, ta’limiy balki, sanoatning ham rivojiga ulkan hissa qo‘shadi.

“Harakat erkinligini samarali amalga oshirish yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tish orqali harakatchanlikni rag‘batlantirish , ayniqsa quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligini qayd etgan holda, Boloniya deklarasiyasi mobillik maqsadlarini quyidagicha belgilaydi:

- talabalar uchun – ta’lim muassasalari va tegishli xizmatlardan foydalanish;
- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va ma’muriy xodimlar uchun Yevropa mamlakatlarida ilmiy tadqiqot, o‘qitish va qayta tayyorlash maqsadlarida , ularning maqomi va qonuniy huquqlarini buzmaganda holda o‘tkazgan davrlarini tan olish va tasdiqlash”[2,15]

Shu maqsadlarni amalga oshirgan holda, olib borilgan akademik mobillik kelgusida o‘z natijasini ko‘rsatishi shubhasiz.

Akademik mobillik Boloniya jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, turli xil ta’lim va ilmiy dasturlarga ega bo‘lgan va taqqoslash, o‘zaro tan olinishi va imkoniyatlari tufayli ularning optimal o‘zaro ta’siriga ega bo‘lgan yagona Yevropa ta’lim va ilmiy makonni shakllantirish jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Universitetlar va ilmiy markazlarning samarali o‘zaro ta’siri, shuningdek, ta’lim trayektoriyalarini individuallashtirish natijasida akademik mobillik yuzaga keladi. Talabalar, tadqiqotchilar va o‘qituvchilar akademik mobillik dasturlarida ishtirok etib, yuqori sifatli ta’lim va tadqiqot dasturlariga kirish huquqiga ega bo‘ladilar va yangi bilim bazasi bilan o‘z mamlakatlariga qaytadilar. Akademik mobillikni rag‘batlantirish va

rag'batlantirish jahon mehnat bozorida munosib o'rin egallashga va milliy iqtisodiyotning mehnat resurslari sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan sifat jihatidan yangi mehnat resurslarini shakllantirishga yordam beradi. Bilim va ko'nikmalarni baholashning umumiy mexanizmlari, ta'lim jarayonlari modellarini birlashtirish, o'quv kurslarini tavsiflash uchun umumiy xususiyatlardan foydalanish, shuningdek ularning modulli tuzilishi orqali taqqoslash qobiliyatiga erishiladi. Olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni o'zaro tan olish bir qator huquqiy hujjatlar, xususan, 1997-yildagi "Yevropa mintaqasida oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida" Lissabon konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Natijada:

- universitetlar uchun samarali raqobat va o'zaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda;
- talabalar uchun individual ta'lim yo'nalishini tanlash, shuningdek, yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini olish imkoniyati paydo bo'lib, malakali kadrlarni ishga joylashtirishga yordam beradi;
- o'qituvchi va olimlar uchun ta'lim va fan sohasida samarali hamkorlik istiqbollari ochilmoqda;
- davlatlar ta'limni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etishni faollashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega; Bundan tashqari, bir qator mamlakatlarda ta'lim xizmatlari bozorida olinadigan foyda ortib bormoqda.

Xorijiy tajribalarni to'plash zamonaviy fan talablaridan biri ekanligi shubhasiz. Bundan tashqari, Yurtimizda xorijiy tajribalarni egallashlari uchun xorijiy amaliyotlar olib boriladi. Lekin, akademik mobillik xorijiy amaliyotlardan farq qilgan holda,

1) talabalar xorijiy universitetlarda ham cheklangan, ham uzoq muddatga – bir semestrda o'quv yiliga o'qish imkoniyatiga ega ;

2) bunday xizmat safarlarida ular to'liq o'qitiladi, chet tilini, o'quv rejasiga muvofiq individual fanlarni o'rganadi, agar talaba tegishli hujjatlarni taqdim etgan bo'lsa, tayanch universitetga qaytib kelganida hisobga olinadi. Asosiy universitet deganda talaba o'qishga kirgan va dastlab diplomini olmoqchi bo'lgan universitet tushuniladi.

Bu kabi farqlarning yana bir nechtasini misol qilishimiz mumkin, amaliyot tartibi esa “Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro munosabatlar sohasida tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalarida tashkil etish to'g'risida”gi nizomda o'z aksini topgan.

**Nazariy tahlillar.** Bugungi kunga kelib, akademik mobillikning ahamiyati yanada rivojlanib kelayotgani shubhasiz. Buning bir qator modellari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

**Eng mashhur Yevropa modellari:**

“**Erasmus** va keyin (1995-yildan beri) Sokrat. Erasmus modeli (1987-yilda Yevropada umumiy bozorni yaratishga ko'maklashish maqsadida boshlangan ) va u bilan bog'liq harakatlanish sxemalari, masalan, Comet, Lingua va boshqalar, oliy ta'limning Yevropa modelini yaratishga qaratilgan. Erasmus - bu turli mamlakatlardagi universitetlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish dasturi. Dasturning yakuniy maqsadi - madaniyatlararo tushunish uchun mustahkam asos yaratish va yangi turdagi professionallikni rivojlantirish ( Hamdo'stlik mamlakatlarda ishlashga yo'naltirilgan). Dastur o'z nomini Uyg'onish davri gumanisti Rotterdamlilik Erasmusdan (1469-1536) o'rta asr talabalari va professorlarining yuqori madaniyatlararo harakatchanligi ramzi sifatida oldi. Ushbu model doirasida talabalar almashinuvi mutaxassislar va malakali ishchilar uchun umumiyevropa bozorini rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida qaraladi. 2003 -yilda allaqachon Erasmus modeli doirasida Erasmus Mundus maxsus loyihasi yaratilgan bo'lib, u jarayonga talaba va o'qituvchilarning harakatchanligini kiritishni o'z ichiga oladi. Erasmus Mundus dasturi Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladi”[3].

**Kometalar modeli** oliy ta'lim va sanoatning o'zaro ta'sirini uning turli turlarida mustahkamlashga qaratilgan; mintaqaviy yoki tarmoq konsorsiumlari shaklidagi universitet-sanoat tuzilmalari; universitet - sanoat kadrlar almashinuvi; iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun universitet-sanoat ta'lim loyihalarini o'z ichiga olgan model[4].

Yevropa Ittifoqi qarori bilan 1989 -yildan beri amalda bo'lgan “Lingua” dasturi o'z oldiga kamida bitta yevropa tilini ommaviy o'zlashtirishni yoyishdan iborat bo'lib, o'rganilayotgan til mamlakatlarda talabalar va o'qituvchilarning amaliyotini ta'minlashdan iboratdir. Lingua dasturi 1990-yil 1-yanvarda kuchga kirdi. Birinchi yil asosan tayyorgarlik ishlariga bag'ishlangan bo'lganligi sababli, 1993-yil Lingua dasturi samarali faoliyat ko'rsatgan uchinchi yil bo'ldi (markazlashtirilmagan harakatlar uchun 1992/1993 yillar natijalari birinchi bo'lib hisoblanadi). o'tgan yil bilan haqiqiy taqqoslash mumkin). 1993-yil (jami byudjet = 41,8 MECU) Lingua dasturini miqdor va sifat jihatidan sezilarli darajada mustahkamlash va rivojlantirishga imkon berdi.[5].

Tempus – Yevropa Ittifoqi hamkor mamlakatlarida ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni rag‘batlantirish va oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Yevropa Ittifoqi modellaridan biri. Model eng uzun modellardan biri bo‘lib, uning birinchi bosqichi 1990 yilda boshlangan:

Tempus I - 1990–1994; Tempus II – 1994–1998; Tempus II bis – 1998–2000; Tempus III - 2000–2006 Keyingi bosqich – Tempus IV – 2007 -yilda boshlandi. Rossiyada dastur 1994-yildan beri amalda. Tempus modelining asosiy maqsadi Yevropa Ittifoqi va hamkor davlatlar o‘rtasida oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishdan iborat [6].

**Tempus Erasmus Mundus** modeli bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi, uning doirasida talabalar va aspirantlar magistratura va doktoranturada Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o‘qish/stajirovka o‘tash uchun stipendiyalar bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, Tempus Erasmus Mundus: Yevropa Hamkorligiga Oyna modeli bilan to‘ldirilib, Yevropa Ittifoqi va hamkor davlatlar o‘rtasida keng ko‘lamli akademik mobillikni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan bir qator dasturlarni taklif etadi. Shuning uchun Tempus dastur maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan cheklangan miqdordagi qisqa muddatli harakatchan faoliyat olib borishlari talab etiladi.

Akademik harakatchanlikni amalga oshirishning ko‘rib chiqilayotgan modellarida ishtirok etish bakalavriyat va magistratura talabalari uchun elita ta’lim olish, ilmiy tadqiqotlar olib borish yoki amaliy mashg‘ulotlardan o‘tish uchun alohida imkoniyatlarni ochib beradi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Boloniya dasturida qatnashgan talabalar akademik mobillik uchun asosiy to‘siq- tilni qayd etishadi va bu to‘siqlardan yana biri bu “kredit-modul” tizimida kreditlarning to‘planilmay qolishidir[7].

Ammo akademik almashinuv dasturlaridan birida qatnashish uchun pul to‘lashga qodir talabalar chet elda o‘qishda ham qiyinchiliklarga duch kelishadi. Boshqacha qilib aytganda, yuqorida aytib o‘tilgan akademik harakatchanlikni cheklovchi omillar tufayli talabalar o‘zlariga savol berishadi: xorijiy universitetda o‘qib vaqtimni yo‘qotdimmi? Bu savol mutlaqo adolatli, chunki o‘z universitetiga qaytgan talabalar o‘tkazib yuborilgan semestr dasturini olishga majbur bo‘lishadi. Psixologik nuqtai nazardan, va‘da qilingan narsalar va aslida mavjud bo‘lgan narsalar o‘rtasida ichki qarama-qarshilik paydo bo‘ladi.

**Xulosa.** Xorijiy universitetlarda ta’lim dasturlari va kurslari tuzilmalarida farqlar mavjud. Ushbu muammo 2002-yilda Stokgolm seminarida taklif qilingan ta’lim dasturlari mezonlariga mos kelmasligidan kelib chiqadi. Bu mezonlarning asosiylari quyidagilardir:

- umumiylikni aks ettiruvchi yagona hujjat berish;
- akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi ikkita universitet tomonidan o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini tasdiqlash ;
- bitiruvchilarning yakuniy bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar qabul qilinishi, yagona tizim tanlanilmaganligi;
- akademik almashinuv dasturlari talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini ta’minlamaganidan iborat[8].

Bundan kelib chiqadiki, har qanday o‘zgarishni amalga oshirish davomida bir qator to‘siqlarga duch kelinsa ham, ortga qaytilmaydi, shu sababli, akademik mobillik kelajakda o‘zining natijasini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Ryagin S.N. O‘rta va oliy kasbiy ta’limning tizimli yondashuv asosida uzluksizligini tavsiflash muammosi bo‘yicha . *Shaxs haqidagi fan: gumanitar tadqiqotlar*, 2014, (2): 167–175. (Rus tilida.)
2. Grebnev LS London kommyunikesi: Boloniya jarayonining yakuniy bosqichi. *Vysshee Obrazovanie v Rossii*, 2007, (9):3–13. (Rus tilida.)
3. *Kompetensiyaga asoslangan yondashuv: Yevropa universitetlari tajribasi*, ed. Baidenko VI Moskva, 2007, 215. (Rus tilida)
4. Koropchenko AA Boloniya jarayoni kontekstida akademik harakatchanlik va malakalarni tan olish muammolari. *Barents Evro-Arktika mintaqasining ilmiy va ta’lim makonini yaratish: holati, muammolari, istiqbollari*. Arxangelsk, 2007, 73–85. (Rus tilida.)
5. Commition of the European Communities “Lingua Programme” ., 2005 (Ingliz tilida)
6. Znovenko LV *Uzluksiz ta’lim sharoitida pedagogika universiteti talabalarining akademik harakatchanligini rivojlantirish* . Cand. Ped.Sci. Diss. Omsk, 2008, 272. (Rus tilida)
7. Bogoslovskii VI, Pisareva SA, Triapitsyna AP *Akademik harakatchanlik: Boloniya jarayonida amalga oshirish*. St. Sankt-Peterburg: Izd-vo RGPU im. AI Gertsena, 2007, 55. (Rus tilida)
8. Manaeva N.N. Universitet talabalarining axborot harakatchanligi zamonaviy dunyoda ta’lim sifatining tarkibiy qismi sifatida., 2015, (10): 54–59. (Rus tilida.)

## OLIV O`QUV YURTI TALABALARI UCHUN MA`RUZA MASHG`ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI

*Niyozov Erkin Dilmurodovich,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Tabiiy fanlar fakulteti dekani t.f.n. dots*

*Saidov Olimjon Amon o`g`li,*

*Buxoro davlat universiteti*

*“Umumiy va noorganik kimyo” kafedrasida 1-bosqich magistranti*

*Shukurov Hidoyat O`ktam o`g`li,*

*Buxoro davlat universiteti*

*“Umumiy va noorganik kimyo” kafedrasida 2-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada oliy o`quv yurtlarida ma`ruza mashg`ulotlarini samarali tashkil etish usullari va strategiyalari ko`rib chiqilgan. Unda ushbu mavzu bo`yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish, so`ngra talabalarning faolligini oshirish, metod o`rganish, texnologiyalardan foydalanish va fikr-mulohazalarni baholash va taqdim etishning turli usullari muhokama qilinadi. Natijalar talabalarning bilimlarini oshirishda yaxshi tuzilgan ma`ruzalarning muhimligini ta`kidlaydi va o`qituvchilar uchun amaliy tushunchalarni taqdim etadi. Xulosa qilib aytganda, maqolada oliy ta`limda tashkil etilgan ma`ruzalarning ahamiyati ta`kidlangan va amalga oshirish bo`yicha takliflar berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *ma`ruza mashg`ulotlari, an`anaviy dars, noan`anaviy dars, talabalarni jalb qilish, faol ta`lim, texnologiya, baholash, fikr-mulohaza.*

## МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

*В данной статье рассмотрены методы и стратегии эффективной организации лекционных занятий в высших учебных заведениях. В нем будет проведен всесторонний анализ доступной литературы по этой теме с последующим обсуждением различных способов оценки и предоставления обратной связи для повышения вовлеченности учащихся, активного обучения, использования технологий и обратной связи. Результаты подчеркивают важность хорошо структурированных лекций для улучшения знаний учащихся и предоставляют преподавателям практическое понимание. В заключение, в статье подчеркивается важность организованных лекций в высшем образовании и даются предложения по внедрению.*

**Ключевые слова:** *лекции, традиционные уроки, нетрадиционные уроки, вовлечение учащихся, активное обучение, технология, оценка, обратная связь.*

## METHODS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF LECTURE SESSIONS FOR STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*This article examines the methods and strategies for the effective organization of lecture classes in higher education institutions. It discusses a comprehensive analysis of the available literature on this topic, followed by various methods of increasing student activity, active learning, technology use and assessment and presentation of feedback. The results highlight the importance of well-structured lectures in improving student knowledge and provide practical insights for teachers. In conclusion, the article emphasizes the importance of lectures organized in higher education and offers for implementation.*

**Keywords:** *lectures, traditional lessons, non-traditional lessons, student engagement, active learning, technology, assessment, feedback.*

**Kirish.** *Darhaqiqat, barcha kasblar ichida o`qituvchilik kasbi muhim ahamiyat kasb yetadi. Chunki o`qituvchi yosh qalblar kamolotining me`moridir. Bugun u yoshlarni g`oyaviy- siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o`rgatadi, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlab kasb-hunar egallashlarida ko`maklashadi va jamiyat uchun muhim bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hal etadi. Ana shu ma`suliyat o`qituvchidan o`z kasbining mohir ustasi bo`lishini, talabalarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste`dodi va amaliy ko`nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo`llarini izlab topadigan kasb egasi bo`lishini talab etadi.*

Bugungi kunda kimyo fanini o'qitishda interfaol usullaridan foydalanish asosiy metodikaga juda muhim hisoblanadi. O'qitishning interfaol shakllari va usullaridan foydalanish, talabalarning kognitiv faolligini oshirishda, o'quv materiallarini mustaqil ravishda tushunishga yordam beradi. Interfaol usullar bilim, ko'nikma, yangi malakalarni ya'ni talabani asosiy kompetentsiyalari bo'lmish: o'rganish, izlash, fikrlash, hamkorlik qilish kabi o'z ustida ishlab, mashq qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Aynan interfaol ta'lim o'qituvchiga bilish faoliyatini tashkil etishga yordam beradiki, deyarli barcha o'rganuvchilar izlanish, o'rganish jarayonida ishtirok etadilar.

**Asosiy qism.** Har qanday yuqori saviyadagi an'anaviy usulda, ya'ni faqat o'qituvchi tomonidan o'tkazilgan ma'ruza, garchand u faktlarga boy bo'lsada, agar u uzoq vaqt davom etsa, o'quvchi-talabalarning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Shuning uchun yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan ma'ruzalar samarali bo'ladi. Olimlar aniqlashicha inson miyasi faqat 15 – 25 daqiqa davomida diqqatini yaxshi to'play olar ekan va shu vaqt oralig'ida 5 daqiqa dam olgan holda darsini davom ettirsa inson miyasi toliqmas ekan va ko'p ma'lumot qabul qila olar ekan shunga asoslangan holda biz quyidagi zamonaviy ma'ruza o'tish usulini qo'lladik va ijobiy natijalarga erishdik.

Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Har bir blokni 10-15 daqiqa davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, savol-javob o'tkaziladi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rta tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga talaba-o'quvchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Uning fikri diqqat bilan tinglanadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlari tinglanadi. Bu holat ma'ruzaga nisbatan bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. Talaba-o'quvchilarni suhbatga tortish 5 daqiqa davom etadi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta talaba-o'quvchining kundalik faoliyatiga bog'lash boshlanadi, asta-sekin ularga ham qisqa munozaralar asosida javob topiladi.

Shu holda kechgan ma'ruzalarda talaba-o'quvchilar vaqt qanday o'tib ketganini bilmay qoladilar. Ma'ruzaning yana davom etishini xohlab, befarqlik o'rmini hushyorlik, ichki intilish, yechim qidirish egallaydi o'zlari ham yechimni topishda shaxsan ishtirok etishga hissa qo'shishga intiladilar.

Bunday ma'ruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshiradi. Navbatdagi munozaralarga chorlaydi. Talaba-o'quvchilar bunday ma'ruzada ishtirok etar ekanlar, qolgan ma'ruzalar yana davom etishini ustoz bilan yana qachon uchrashishlarini istab qoladilar.

Oliy ta'limda ma'ruzadan tashqari o'qitishning boshqa tashkiliy shakllaridan ham foydalaniladi – seminar, laboratoriya ishi, amaliy mashg'ulot talabalarning mustaqil ishi, ishlab chiqarish amaliyoti, boshqa o'quv yurtida yoki chet el o'quv yurtida stajirovkada yoki chet el professor o'qituvchilarini bevosita o'quv jarayoniga jalb qilish va boshqalar.

**Aralash dars:** Uning tuzilishi: tashkiliy qismi, berilgan topshiriqlarni tekshirish, yangi materialni o'rgatish, yangisini ilgari o'rganilgan material bilan solishtirish (taqqoslash) va mustahkamlash, amaliy topshiriqlarni bajarilishi va uni nazorat qilish, darsga yakun yasash va uyga topshiriqlar berish. Yangi materiallarni o'rganish darsi talabalarni o'qitishda qo'llaniladi. Ushbu dars doirasida quyidagi darslar olib boriladi – ma'ruza, muammoli dars, dars – konferentsiya, kino dars, dars – tadqiqot, bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi, seminar, amaliy, ekskursiya, mustaqil ishlar hamda laboratoriya mashg'uloti ko'rinishida olib boriladi va mustahkamlanadi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi fanni to'liq o'zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dasturning asosiy masalalari bo'yicha o'quv materialining katta qismlarini tizimli takrorlashga qaratilgan bo'ladi. Bunday darsni o'tishda o'qituvchi talabalar oldiga muammoni qo'yadi, qo'shimcha ma'lumotlar olish manbalarini ko'rsatadi, hamda o'xshash masala va amaliy mashqlar beradi, topshiriqlar va ijodiy xarakterdagi ishlarni topshiradi. Bunday dars paytida talabalarning uzoq vaqt davomida – chorak, yarim yillik, o'quv yili davomida bir necha mavzular bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalari tekshiriladi, fanni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchining bilimi baholanadi.

**Oksidlanish qaytarilish reaksiyalari:** Tirik organizmdagi barcha reaksiyalar oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari asosida amalga oshadi. Nafas olish, ovqat hazm qilish, turli biokimyoviy sintezlar asosida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari bilan bog'liq. Organizmda mikroelementlar yetishmasligi ana shu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida o'zgarishlar ro'y beradi.

Organik moddalar ishtirokida sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga alohida e'tibor qaratsak. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari umumiy kimyo kursida to'liq o'rganiladi. “Organik kimyo” kursidan mavzularni o'rganishda o'quvchilarga ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Organik kimyoda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari eng katta qiziqish uyg'otadi, chunki bir oksidlanish holatidan ikkinchisiga o'tish reaktivni to'g'ri tanlashga va reaksiya sharoitlariga kuchli bog'liqdir [1].

**Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari qanday?**

Barcha kimyoviy reaksiyalarni ikki turga ajratish mumkin:

**Birinchisi**, reaksiyaga kirishuvchi moddalarni tashkil etuvchi atomlarning oksidlanish darajasini o`zgartirmasdan davom etadigan reaksiya turlari.

**Ikkinchi**, turga reaksiyaga kirishuvchi moddalarni tashkil etuvchi atomlarning oksidlanish darajasini o`zgartiruvchi barcha reaksiyalarni o`z ichiga oladi.

Mavzuni to`liq tushuntirish uchun 2.1-NGK-23 guruhini ikki guruhga bo`ldik. Har bir guruhga yangi metodlar bo`yicha darsni tashkil qildik.

**“Har kim – har kimga o`rgatadi” metodi.**

Ushbu metod o`quvchilarga o`rgatuvchiga aylanish, ma`lum bilimlarni o`zlashtirgach, tengdoshlari bilan baham ko`rish imkonini beruvchi o`qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o`quvchilarga o`qitish jarayonida zarur bo`lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o`quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg`otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o`quvchi ma`lum vaqt davomida uni iloji boricha ko`proq tengdoshlariga yetkazadi.


**Qo`llanilishi:**

- \* o`quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg`otish uchun;
- \* axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- \* sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

**Afzalligi:**

- \* o`z fikrini lo`nda bayon etishi;
- \* tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- \* fanga yoki mavzuga bo`lgan qiziqishini uyg`otishi.

O`quvchilar kichik guruhlarga bo`lindi. Hamma guruh a`zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatildi va masalani yechish shartlari tushuntirililadi:



➤ An'anaviy usulda o`quvchilar berilgan topshiriqni tushunib bajarib kelganlar soni va umumiy o`quvchilar soni

**1-jadval.**

№	O`quvchilar soni	Topshiriqni bajargan o`quvchilar soni	Xato bajarib kelganlar	Bajara olmaganlar
1	22	15	5	1

1-jadvaldan ko`rinib turibdiki, an'anaviy ta`limda 2.1-NGK-23 22 o`quvchidan 15 tasi mavzuni to`liq tushungan deb olish mumkin. Bunda o`zlashtirish ko`rsatgichi 68% ni tashkil qiladi





➤ Noanʻanaviy usulda yangi metodlardan foydalanish oʻrgatilganidan keyin natijalar qayd etildi va oʻzlashtirish koʻrsatkichlari oʻrganildi

2-jadval.

№	Oʻquvchilar soni	Topshiriqni aniq bajargan oʻquvchilar soni	Xato bajarib kelganlar	Bajara olmaganlar
1	22	20	2	0

2-jadvaldan koʻrinib turibdiki, Noanʻanaviy taʼlimda 22 oʻquvchidan 20 tasi mavzuni toʻliq tushungan deb olish mumkin. Bunda oʻzlashtirish koʻrsatkichi 91% ni tashkil qiladi.

**Xulosa.** Oliy oʻquv yurtlarida talabalar uchun maʼruza mashgʻulotlarini tashkil etish tarkibni samarali yetkazib berish va talabalarni darsga faolligini taʼminlash uchun puxta rejalashtirish va amalga oshirishni talab qiladi. Biz Buxoro davlat universitetida kimyo yoʻnalishidagi ikkita guruh talabalariga “Oksidlanish va qaytarilish reaksiyalari” mavzusini ikki xil usulda anʻanaviy hamda yangi metodologik usuldan foydalangan holda maʼruza oʻtkazdik. Anʻanaviy usulda birinchi guruhga maʼruza qilib test olganimizda talabalar 68% natijani qayd etdi. Yangi metodologik usuldan foydalangan holda maʼruza mashgʻulotlarini olib borgan guruhimiz esa sezilarli darajada yuqori natijalar koʻrsatib testlardan oʻrtacha 91% natija koʻrsatdi.

#### Adabiyotlar:

1. Kartsova A.A., Levkin A.N. Organik kimyoda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari // Maktabda kimyo. - 2004. - 2-son. - 55-61.
2. Nurutdinova F. et al. Advantages of electronic textbooks in increasing the efficiency of laboratory lessons in chemistry //International scientific and practical conference on" Current problems of the chemistry of coordination compounds. – 2022. – T. 22. – С. 645-647.
3. Feruza N., Khafizov U., Saidov O. Use of electronic textbooks in physical chemistry //Taʼlim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 5. – С. 42-45.
4. Khafizov U., Saidov O. Education and Development.
5. Худойназарова Г.А., Мавлонов Б.А., Бахромов Х., Пирниёзов К. Талабаларнинг билимини баҳолашда бахтли воқеа ўйинидан фойдаланиш методикаси // «Таълим муассасалари ўқув тарбия жараёнига педагогик технологияларни жорий этиш ҳамда уларнинг таълим самарадорлигига таъсири» респ. илмий-амал. конф. матер. Бухоро. 2009. Б.48-51
6. Худойназарова Г.А., Қосимова Н.К. “Моддаларнинг табиатда айланиши” темасига оид биологик кечаси // “Ўқувчиларнинг экологик – таълим тарбияси”. Конференция қатнашчиларининг маърузалари. Бухоро. 1992. Б.48-49
7. Худойназарова Г.А., Ҳафизов У.У. Ахмедова Г.Т. Ўқувчиларга экологик тарбия беришда кимёвий кечаларнинг аҳамияти // Internatinal scientific conferense “Recent issuesof modern science” Сборный научных трудов. Выпуск 10. Часть 2. Переяслав-Хмельницкий 2017. 26-27 Феврал. С.103-107
8. Худойназарова Г.А., Бозорова М.А. Худойназарова Ш.А. Кимё дарсларнинг самарадорлигини оширишда дидактик ўйинларнинг аҳамияти. Internatinal scientific conferense “Recent issuesof modern science” Сборный научных трудов. Выпуск 10. Часть 2. Переяслав-Хмельницкий 2017. 26-27 Феврал. С.107-110
9. Худойназарова Г.А., Ҳожиева М. Оксидланиш-қайтарилиш реакцияларига доир тестлар ва уларнинг таҳлили.Ижодкор ёшлар ва фан-техника тараққиёти. Вилоят илмий-назарий анжумани. Илмий маърузалар тўплами. Бухоро. 2003. Б.67-69
10. Бобомуродова Н, Худойназарова Г. Моддаларнинг табиатда айланиши мавзусига доир экологик кеча // Педагогик маҳорат. 2003. №3 Б.75-79

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA FANLARNI O'QITISH

*Shirinov G'ayrat Qodirovich,*

*Buxoro davlat universiteti, Umumiy va  
noorganik kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Mazkur maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida fan mavzularini o'qitishda talabalarda bilim, ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ta'lim samaradorligini oshirish, treningni individuallashtirish hamda talabalarning motivatsiyasini oshirish kabi bir qator afzalliklari ko'rib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** axborot-kommunikatsion texnologiyalar, didaktik sistema, multimedia, muammolik prinsipi.*

## ПРЕПОДАВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

*В данной статье рассмотрен ряд преимуществ, таких как условия реализации новых подходов к преподаванию предметов химии с помощью информационно-коммуникационных технологий, повышение эффективности образования, индивидуализация обучения, повышение мотивации учащихся.*

***Ключевые слова:** информационно-коммуникационные технологии, дидактическая система, мультимедиа, проблемный принцип.*

## TEACHING BASED ON INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*This article discusses a number of advantages, such as the conditions for the implementation of new approaches to teaching chemistry subjects using information and communication technologies, increasing the effectiveness of education, individualizing learning, increasing student motivation.*

***Keywords:** information-communication technology, didactic system, multimedia, problem's principles.*

**Kirish.** Ta'limni, shu jumladan kimyo fanlarini axborotlashtirish dasturlari turli darajadagi rasmiy hujjatlarda yoritilib kelinmoqda. Bundan tashqari, kimyo darslarini modernizatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan ko'pchilik tadqiqotlarda axborotlashtirish prinsipi albatta eslatilib o'tiladi. Lekin bunday tadqiqotlarda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning (AKT) ulkan imkoniyatlari faqatgina kimyoviy eksperiment natijalarini qayta ishlash uchun ofis dasturlarini qo'llash, molekular strukturasini modellashtirish uchun Chem Office maxsus paketlarini qo'llash, kompyuterda test olishga qaratilgan tavsiyalar bilan cheklanadi.

**Asosiy qism.** Bu holat obyektiv va subyektiv xarakterdagi sabablar bilan tushuntirilishi mumkin. Birinchisiga OTMlarda kompyuter sinflarning ta'minlanganlik darajasi etarlicha yuqori bo'lmaganligini, tarmoqlarning o'tkazish qobiliyati pastligini, dasturiy va metodik ta'minotning etishmovchiligini kiritish kerak. Sub'yektiv xarakterdagi sabablar esa, bir qator tadqiqotchilar fikriga ko'ra, pedagoglar va ta'lim sistemasining konservatizmi (eskilikni yoqlashi), pedagogik kadrlarning zaif tayyorgarligi hisoblanadi. Oliy ta'limda AKTning kam qo'llanilishiga asosiy sabab shundaki, katta mehnat stajiga ega bo'lgan pedagog o'zining sinovdan o'tgan ta'lim metodikasini yangisiga almashtirishga va shu sababli o'quv jarayonida kompyuterni qo'llashga hali tayyor bo'lmaganligidir. Boshqa tomondan, multimedia mahsulotlarining asosiy kamchiligi – o'quv kursining zaif metodik ssenariysi hisoblanadi, chunki bunday dasturlarning ko'pchiligi shu sohaning mutaxassislari tomonidan yaratilmaydi.

Lekin asosiy muammo, buni ko'pchilik ta'kidlab o'tmoqda, pedagogika fani tomonidan qabul qilingan kompyuterli ta'lim prinsiplarining mavjud bo'lmaganligidir. Shu sababli kimyoni o'rganishda kompyuterni qo'llash, kimyo o'qituvchisining axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan yangicha yondashuv va metodikalarni yaratish zarurati tug'iladi.

Kompyuter va telekommunikatsion vositalar va texnologiyalar qo'llanilishining turli aspektlariga ko'pgina mualliflarning tadqiqotlari qaratilgan. Masalaning qo'yilishi va tadqiqotlarda ko'tarilgan muammolarning turiga qarab, mualliflar terminologiyasida tafovutlar kuzatiladi. Hozirgi vaqtda pedagogik adabiyotlarda “kompyuter texnologiyalari”, “axborot texnologiyalari”, “zamonaviy axborot texnologiyalari”,

“o‘qitishning axborot texnologiyalari”, “yangi axborot texnologiyalari”, “ta’limning axborot texnologiyalari” kabi atamalar ishlatiladi [1].

Ba’zi tadqiqotchilar o‘qitishning axborot texnologiyalari deganda o‘qitish jarayonida kompyuter tarmoqlari, jumladan Internet global tarmog‘ining qo‘llanilishini tushunadilar. Ularning fikriga ko‘ra, Internet o‘qituvchi bilan raqobat qilishi hamda tezkor va qiziqarli shaklda kurs mazmunini o‘quvchiga etkazishi mumkin. Shuningdek, u nafaqat xohlagan savolga javob berish, balki shu savolni to‘g‘ri ifodalashni o‘rgatish uchun ham xizmat qilishi mumkin [2].

Darhaqiqat, kompyuter tarmoqlari – bu ma’lumotlarning ulkan makoni hisoblanadi. Lekin Internet barcha savollarga javob berish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, shu ma’lumotlarning to‘g‘riligi xususida shubhalar ham yo‘q emas. Masalan, hammaga ma’lum bo‘lgan Internetning WWW xizmati MS Word, MS Excel dasturlari yordamida yaratilishi mumkin bo‘lgan web-sahifalarni birlashtiradi. Natijada tarmoqdagi bunday sahifalarning soni yuz millionlarga etadi, shu sababli ularda saqlanadigan ma’lumotning haqqoniyligiga hech kim kafolat bermaydi [3].

Shunga qaramasdan, kasbiy kompetentlik, zamonaviy dunyoqarash, ijodkorlik qobiliyati kabi ta’lim maqsadlarini faqatgina axborot resurslari asosida amalga oshirish mumkin. Mana shu bosqichda aynan global tarmoqlar ilmiy va o‘quv-metodik ma’lumotlar bazasiga kirish imkoniyatlarini; o‘quv muassasalari, o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida axborot almashinishni; telekonferensiyalar o‘tkazishni ta’minlaydi, ya’ni kam vaqt sarflab va moliyaviy xarajatsiz qiziqtirgan savol bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni olishga imkon beradi.

Ma’lumki, tarmoq – bu kompyuterlar, ular orasidagi bog‘lanmalar va dasturiy ta’minotlar birlashmasidir. Intelektual kompyuter sistemalari va telekommunikatsion tarmoqlarning birlashishi ta’lim jarayonlarida o‘z aksini topishi kerak. Shu sababli ular *axborot-kommunikatsion texnologiyalar* deb yuritilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shularga asosan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar deganda *o‘qitishning pedagogik texnikasi, kompyuter va kommunikatsion vositalarni qo‘llashga asoslangan o‘qitish usullari va pedagogik texnologiyalar majmui* tushuniladi.

Ya’ni ta’limning axborot-kommunikatsion texnologiyalari – bu zamonaviy kompyuter va kommunikatsion vositalarni qo‘llashga asoslangan, ta’lim standartlariga erishishni ta’minlaydigan tashkiliy shakllar, pedagogik texnologiyalar va o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalarining qo‘shilishidir.

Kimyoni o‘qitish, o‘qituvchini tayyorlash sistemasini modernizatsiyalashdagi AKTning ahamiyati uni ta’lim jarayonida qo‘llanilish prinsiplarining (didaktik prinsiplarning) tahlilini taqozo etadi. Oliy ta’lim pedagogikasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida o‘quv jarayonida AKT qo‘llanilishining metodologik talablari aniqlanayotganda an’anaviy didaktik prinsiplar yangilariga almashtirilishi emas, balki hozirgi sharoitda ularni asosli qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lgan mazmun bilan to‘ldirilishi va qayta ko‘rib chiqilishi kerak [4].

Oliy ta’lim amaliyotiga AKT kiritilishining shartlaridan biri o‘qituvchi va talabalarning ularni qo‘llash tayyorgarligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, afsuski, ko‘pchilik o‘qituvchilar AKTning o‘quv jarayoniga kiritilishini oliy ta’lim sistemasiga EHMning joriy qilinishi sifatida qarab chiqadilar. Ehtimol, bu – muammo mohiyatini sodda va bir tomonlama tushunishdir. U esa o‘quv jarayonini yuqori darajada yangicha tashkil qilishni, shuningdek, OTM ning barcha sohalariga AKTni keng joriy qilish asosida insonning kompyuter bilan optimal bog‘liqligini tashkil qilgan holda o‘qitish texnologiyasining yangi didaktik modelini yaratishdek jarayonlarni qamrab oladi.

Jadal sur’atlarda o‘zgarishlar amalga oshayotgan zamonaviy sharoitda quyidagi tendensiyalarni ajratish mumkin: o‘qituvchi ba’zi didaktik, xususan, nazorat qilish funksiyalaridan ozod bo‘lib, ijodiy-yondashuv funksiyalarga ko‘proq e’tibor qaratadi; uning o‘rni ancha o‘zgaradi va talabalarning bilish faoliyatini boshqarish bo‘yicha imkoniyatlari kengayadi; pedagogning kompyuter savodxonligiga qo‘yiladigan talablar oshadi. S.I. Arxangel-skiyning fikriga ko‘ra: “o‘qituvchilar faoliyatining xarakteri o‘zgaradi, u “ijodiy-maslahat” ko‘rinishga ega bo‘ladi”.

Shuni ta’kidlash joizki, AKTdan foydalanish shariotida o‘qituvchining o‘rni nafaqat etakchi bo‘lib qoladi, balki yanada murakkablashadi. U mashg‘ulot uchun o‘vuv materiali yig‘adi, talabalarning AT bilan o‘zaro ta’sir strukturasi va algoritmlarini ishlab chiqadi, talabalar faoliyatini boshqarish mezonlarini shakllantiradi va hokazo. Faoliyatining mohiyati o‘zgaradi, uning ishi borgan sari konsultativ xarakterga ega bo‘lib, undan doimiy ravishda nafaqat bilimi va kasbiy mahoratini, balki uslubiy kompetentligini yangilash talab qilinadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, AKTni qo‘llash sharoitida ayrim o‘qituvchilarda kompyuter savodxonligi bo‘yicha qiyinchiliklar tug‘ilib, ular yangi texnika bilan ishlash qo‘rqquvida, ko‘pchilik o‘qituvchilarda EHMni qo‘llash tajribasining mavjud bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayonini

axborotlashtirish kabi hodisaning yangiligi, o‘qituvchiga qo‘yiladigan qo‘shimcha yuklamalar ba‘zi o‘qituvchilarda beixtiyor muayyan ishonchsizlikni, o‘ziga xos psixologik to‘siqni shakllantiradi.

Bunday sharoitda pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligining muhim sharti bu – kompyuter madaniyati hisoblanadi. Ya‘ni o‘quv jarayonida EHMni qo‘llayotgan o‘qituvchi o‘zining sohasida kompyuterning imkoniyatlarini bilishi va AKTni qo‘llash sharoitida u bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi, o‘quv materialini tanlashni va tegishlicha ularni qo‘llashni bilishi, o‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda darslarda muammoli vaziyatlarni yaratishi yoki dasturchilar bilan hamkorlikda o‘rgatuvchi dasturiy vositalarni yozishni bilishi kerak.

AKT qo‘llanilishining yana muhim shartlaridan biri – pedagogning uni qo‘llashdagi qiziqishi hisoblanadi. Bu shuni bildiradiki, ba‘zi pedagogik masalalarni samarali hal qilishda (masalan, o‘rganilayotgan o‘quv materialining ahamiyatini ochishda, uning o‘zlashtirilish intensivligini oshirishda, amaliy ishlar malakasini rivojlantirishda va mustahkamlashda, o‘quv faoliyatini boshqarishda, o‘quv materialining o‘zlashtirilish natijalarini qayd etishda) ushbu texnologiya yordam berishini, shuningdek, noijodiy xarakterga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning bosqichlarini avtomatlashtirish hisobiga ko‘proq bo‘sh vaqtga ega bo‘lishini o‘qituvchi ko‘ra olishi kerak. Ta‘kidlash joizki, afsuski, ko‘pchilik OTMlarda AKTni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar markazlashgan xarakterga ega emas, o‘qituvchilarning real mehnat xarajatlari ularning shaxsiy ish rejalarida inobatga olinmaydi.

AKTni qo‘llash sharoitida o‘qituvchining faoliyati ancha qiyinlashadi. Chunki o‘qituvchi uni yangi pedagogik muhitda va yangi o‘qitish vositalari bilan amalga oshiradi. U AKT orqali, shu muhitda amalga oshiriladigan o‘qitish strategiyasi orqali talabalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday sharoitlarda o‘qituvchi faoliyatining xarakteri o‘zgaradi: undan an‘anaviy o‘qitishda umuman mavjud bo‘lmagan ba‘zi funksiyalarni amalga oshirish talab qilinadi. Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hozirgi kunga kelib professor-o‘qituvchilar tarkibining kompyuter tayyorgarligi zamon talablaridan orqada qolmoqda. Ularning AKTni qo‘llashdagi psixologik-pedagogik tayyorgarligi ham talab darajasida emas. Masalan, umumiy texnik va maxsus fanlar o‘qituvchilarining 90% va barcha o‘qituvchilarning 70% qismi tayanch psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega emas. Demak, bu holat maxsus amaliy ko‘rsatmalarning yaratilishini taqozo qiladi.

Yetakchi OTMlar tajribasining tahlili ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda professor-o‘qituvchilar tarkibining psixologik-pedagogik tayyorgarligi turli shakllarda olib boriladi, masalan, malaka oshirish markazlari, o‘quv-metodik yig‘inlar, ilg‘or tajribalar almashinuvi, yosh o‘qituvchilar maktablari va boshqalar. Ularning dasturlari oliy ta‘limdagi pedagogika va psixologiyaning barcha bo‘limlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, qamrov kengligi, dasturlarning murakkabligi berilgan dars mobaynida zamonaviy pedagogikaning ko‘pgina muhim qirralarini chuqurroq o‘rganishga imkon bermaydi. Dasturlarda esa ushbu masalalar bo‘yicha seminarlar yoki amaliy mashg‘ulotlar ko‘pincha ko‘zda tutilmaydi.

Qayd etilgan dasturlarning yana bir kamchiligi shundan iboratki, ular barcha kafedralarning o‘qituvchilari uchun ham mo‘ljallanmagan, ularning spesifikasi va tayyorgarlik darajasi inobatga olinmagan. Bu narsa o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligiga umumiy xarakter kasb etadi, u asosiy narsani – muayyan yo‘nalishni e‘tibordan chetda qoldiradi.

Professor-o‘qituvchilar tarkibining AKTni qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligi taklif qilinayotgan dasturni uchta asosiy bo‘limga ajratgan holda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dasturning bir bo‘limi umumiy OTM ko‘lamida, keyingisi turdosh kafedralar bo‘yicha kafedralararo masshtabida, uchinchi bevosita kafedralarda o‘rganiladi. Dasturning birinchi va qisman ikkinchi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish uchun OTMning pedagogika va psixologiya o‘qituvchilari jalb qilinadi. Dasturning uchinchi va qisman ikkinchi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlar tegishli kafedralarning tajribali o‘qituvchi-uslubshunoslariga topshiriladi.

O‘qitiladigan o‘quv fanlarning mazmun-mohiyatini, shuningdek davlat ta‘lim standartlari talablarini e‘tiborga olgan holda turdosh kafedralar guruhlarini quyidagicha bo‘lish mumkin: 1-guruh – gumanitar fanlar kafedralari; 2-guruh – tabiiy-ilmiy fanlar kafedralari; 3-guruh – umumkasbiy fanlar kafedralari; 4-guruh – maxsus fanlar kafedralari. Ushbu guruhlardagi o‘qituvchilar psixologik-pedagogik tayyorgarligining mazmuni differensial prinsip asosida tuzilishi, ya‘ni AKTni qo‘llash bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar ikkiga bo‘linishi kerak: umumdidaktik (har qanday fanlarni o‘tishda zarur bo‘ladigan) va maxsus (muayyan fanlarni o‘tishda zarur bo‘ladigan).

Oliy ta‘limda AKTni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili hamda bir qator ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari bilan suhbatlar shundan dalolat beradiki, ularni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga ega bo‘lishi kerak.

Umumdidaktik bilimlar: AKT tushunchasi, ularning ahamiyati, didaktik funksiyalari va ularning imkoniyatlari; kompyuter va axborot vositalarining sinflari va turlari, AKTni qo‘llash prinsiplari, o‘quv

jarayonida AKTning o‘rni va ahamiyati; AKTni qo‘llashning psixologik-pedagogik shartlari; o‘quv jarayonida AKT qo‘llanilishining samaradorligi; AKT asosida o‘qitish usullari va shakllari, ularni loyihalashtirish texnologiyasi.

Umumdidaktik ko‘nikmalar va malakalar: AKT strukturasi ayrim kompyuter vositalirining o‘rni va ahamiyatini aniqlash, ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, psixologik-pedagogik omillar asosida dasturiy vositalarni tanlash, uni o‘quv jarayonida qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan o‘quv materiallarini tayyorlash va hokazo.

Maxsus bilimlar: OTM ta‘lim jarayonida AKTning o‘rni va ahamiyati, ularda qo‘llaniladigan vositalarning ekspluatatsion-texnik xarakteristikalar va didaktik imkoniyatlari, dasturiy vositalarni kompleks qo‘llash spesifikasi, turli o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda AKTni qo‘llash texnologiyasi va boshqalar.

Maxsus ko‘nikmalar va malakalar: fanlar kesimida turli o‘quv mashg‘ulotlarida ayrim dasturiy vositalarning o‘rni va ahamiyatini asoslab berish; muayyan AKT uchun o‘quv materialini (mavzu, laboratoriya ishini) aniqlash; AKT muhitida o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishning optimal variantini tanlash; didaktik materiallar yaratish, amaliy dasturiy mahsulotlar uchun algoritmlar yaratish va ishlab chiqish, ular uchun uslubiy ko‘rsatmalar tuzish, kommunikatsion vositalar va uning dasturiy ta‘minoti bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish; AKT asosida o‘tiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligi aniqlash va tahlil qilish.

Shunday qilib, o‘qituvchilar tayyorgarligining umumdidaktik qismida AKTni qo‘llash bo‘yicha umumiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar sistemasi shakllanadi, maxsus bo‘limda esa ular mustahkamlanadi va konkretlashtiriladi.

O‘qituvchilar tayyorgarligi hamda ularning AKTni qo‘llash darajasini tekshirilishining yakuniy bosqichi – olingan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning o‘quv mashg‘ulotlarida amaliy joriy qilinishi hisoblanadi. Shu asnda o‘qituvchilarning tayyorgarligi o‘zining mantiqiy yakuniga etadi.

Pedagogik kasbni endigina egallagan yosh o‘qituvchilar tayyorgarligi diqqatga sazovordir. Ular uchun AKT qo‘llanilishi haqidagi bilimlarni mehnat faoliyatining dastlabki bosqichida olishi juda muhimdir. Buning uchun malaka oshirish markazlarida “Ta‘lim jarayonida o‘qitishning axborot texnologiyalari” kabi maxsus bo‘limni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Qator tadqiqotlarda bayon etilgan umumdidaktik qoidalarga asosan AKTni oliy ta‘limda qo‘llash prinsiplarining mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

*Didaktik sistemaning o‘qitish qonuniyatlariga muvofiqlik prinsipi* boshqalarga nisbatan asosiy prinsiplardan hisoblanadi, chunki u talabalarining o‘quv faoliyatini uning obyektiv qonuniyatlari asosida tashkil etilishini taqozo etadi. O‘qitish qonuniyatlarining asosiy mohiyati o‘quvchi tomonidan o‘quv fanining ilmiy mazmunini bosqichli o‘zlatirishidan iboratdir. Natijada, AKT qo‘llanilishida o‘qitish maqsadlari bosqichma-bosqich, bir qator xususiy didaktik masalalarni echish yo‘li bilan erishilishi kerak.

*Nazariy bilimlarning ahamiyatlilik prinsipi* AKT ishtirokidagi didaktik jarayonni tashkil etishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi. Bunda dastlabki bosqichda talabalar mavzuning nazariy mazmuni haqida ma‘lumot olishadi, so‘ng oraliq bosqichlarda har bir masalaning ayrim ko‘rinishlarini o‘zlashtirishadi va oxirgi bosqichda butun mavzuning o‘zlashtirilishini kerakli darajaga etkazishadi.

*O‘qitishning ilmiy, tarbiyaviy va o‘zlashtiruvchi funksiyalarining birdamlik prinsipi.* Bu prinsipni amalga oshirish imkoniyatini elektron ilmiy resurslarni loyihalash vaqtidan boshlab tashkil etish kerak. O‘zida o‘quv materialini saqlagan bunday resurslar nafaqat jarayonning, balki o‘qitishning ilmiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarining maqsadli aspektlarini amalga oshiradi. Metodik jihatdan oqilona yaratilgan kompyuter dasturi o‘qituvchining shaxsiy malakasiga bog‘liq bo‘ladi va u albatta, o‘quvchilarning tuyg‘u va hissiyotlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, kompyuterli laboratoriya praktikumi bilan ishlash jarayoni talabaning fikrlash qobiliyatini mukammallashtiradi, o‘zining qarorlarini asoslab berish ko‘nikmasini rivojlantiradi, natijada ularda hallollik, javobgarlik, vijdonlilik kabi ma‘naviy sifatlar shakllanadi.

*Muammolilik prinsipi* bilim va faoliyat usullarini ijodiy o‘zlashtirish, ijodiy faoliyat malakasini egallash qonuniyatlarini aks etadi. Bu prinsip AKTni qo‘llashda o‘qituvchini muammoli vaziyatlarni yaratishga va shu bilan o‘quv jarayonini faollashtirishga (jadallashtirishga) yo‘naltirib, unga ijodkorlik, tadqiqotchilik kabi faoliyat xususiyatlarini kasb etadi.

*Multimedialik prinsipi* an’anaviy ko‘rgazmalilik prinsipining yangi sifat darajasida rivojlangan prinsip deb qabul qilish mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, o‘qitish multimediali bo‘lishi kerak. Bu prinsipga muvofiq AKTga asoslangan o‘qitish jarayoni fanlararo bog‘liqliklar negizida tashkil etilishi zarur.

*Talabaning mustaqil ta‘limini faollashtirish prinsipiga* asosan AKTning qo‘llanilishi shaxsni rivojlantirishga, sub’ekt sifatidagi o‘quvchining qobiliyatlarini aniqlashga, uning sub’ektiv tajribasini tan olishga hamda shu tajribaga tayangan holda pedagogik aloqadorlikni tuzishga qaratilgan bo‘lishi kerak. AKT

negizidagi o‘rgatuvchi muhit talabani faoliyatini cheklab qo‘ymasdan, balki individual rivojlanish yo‘lini mustaqil tanlash sharoitlarini yaratishi kerak.

**Adabiyotlar:**

1. Стариченко Б.Е. Компьютерные технологии в вопросах оптимизации образовательных систем/ Урал.гос.пед.ун-т. – Екатеринбург, 1998. – 208 с.
2. Карлов И., Кудрявцева И. Ноосфера образования. Область удаленного доступа к знаниям // Алма матер ВВШ. – 2001. -№3.–С.41-44.
3. Шампанер Г. На рынке обучающих программ // Высшее образование. – 1999. -№3.–С.122.
4. Образцов П.И. Психолого-педагогические аспекты разработки и применения в вузе информатсионных технологий обучения. – Орел, 2000. – 145 с.

**OLIV O'QUV YURTI TALABALARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI  
MEDIATA'LIM VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

*Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,  
Termiz davlat universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori.  
shomirzaevm@tersu.uz*

*Maqolada elektron ta'lim vositalari yordamida oliy o'quv yurtlari talabalarining texnologik kompetensiyasini rivojlantirishda mediata'lim texnologiyasi asosida ta'lim sifatini oshirishning imkoniyatlari, jumladan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, qidiruv faoliyati, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** elektron ta'lim vositalari, uzluksiz ta'lim, dastur, darslik, multimedia, elektron ish, elektron portfolio, o'quvchi, ta'lim, salohiyat, imkoniyat, mediata'lim, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, ta'lim, multimedia, mediata'limning maqsadi, pedagogik mahorat, kommunikatsiya.*

**РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ НА  
ОСНОВЕ СРЕДСТВ МЕДИАОБУЧЕНИЯ**

*В статье рассматриваются возможности повышения качества образования на основе медиаобразовательной технологии в развитии технологической компетентности студентов высших учебных заведений с помощью электронных образовательных средств, в том числе гибкости, мобильности, системности, поисковой активности, стремления к инновациям, объясняется сущность развития речи и творческого воображения.*

***Ключевые слова:** Электронные средства обучения, дополнительное образование, программа, учебник, мультимедиа, электронная работа, электронное портфолио, студент, образование, потенциал, возможность, медиаобразование, медиаграмотность, медиакультура, образование, мультимедиа, медиата цель обучения, педагогические навыки, общение .*

**DEVELOPMENT OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION  
STUDENTS BASED ON MEDIA EDUCATION TOOLS**

*In the article, the possibilities of improving the quality of education based on media education technology in the development of technological competence of students of higher educational institutions with the help of electronic educational tools, including flexibility, mobility, consistency, search activity, striving for innovation, the essence of the development of speech and creative imagination are explained.*

***Keywords:** Electronic learning tools, continuing education, program, textbook, multimedia, electronic work, electronic portfolio, student, education, potential, opportunity, media education, media literacy, media culture, education, multimedia, media, the purpose of education, pedagogical skills, communication.*

**Kirish.** Oliy ta'lim muassasalari talabalari istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatlariga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, uslublari hamda tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo'llash fikrlash moslashuvchanligi va qarorlar qabul qilish salohiyatiga ega bo'lgan, to'plangan tajriba va ilg'or g'oyalarni qayta ko'rib chiqa oladigan, ishlab chiqarish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalashtira oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabalarni zamonaviy mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun ta'lim va tarbiya jarayonida elektron vositalardan foydalanishni tizimli va maqsadli yo'lga qo'yish zarurligi aniq.

Hozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limni rivojlanishini “media” (ya'ni: televidenie, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Axborot makonini globallashuvi va uning “ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda.

“2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi yildagi PF-134-sonli Farmonida, Xalq ta'limi

vazirligiga multimedia ilovalarini ishlab chiqish talabi qo'yilgan, unga ko'ra maxsus elektron tizimlar orqali multimedialar berib borilishi aytib o'tilgan[1]

**Metodlar.** Texnologik kompetentsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda shunday o'quv jarayoni ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, bu aniq belgilangan maqsadlarga izchil yo'naltirilgan o'quv jarayonining texnologik konstruksiyasiga erishishni kafolatlashi kerak". Bu maqsadlar o'rganilayotgan fan yoki fanning mazmuni, professor-o'qituvchilar va talabalarining o'zaro bog'liq faoliyati hamda talaba shaxsini rivojlantirishning ichki jarayonlaridan kelib chiqib belgilanadi. Texnologik kompetensiya doirasidagi o'quv maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalangan o'quv natijalari orqali shakllanadi. Talabalarining texnologik kompetentsiyasini rivojlantirishda mediata'lim texnologiyasi asosida ta'lim sifatini oshirishning imkoniyatlarini beradi. [2]

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga elektron ta'lim vositalarining joriy etilishi, media ta'lim tushunchasi hamda ulardan o'qish va bilim olishda foydalana olsa, kasbga qiziqish va fazilatlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Multimedialar orqali o'quvchilar o'zlariga mediata'lim beradilar. Turli mamlakatlarning ko'plab olimlari "media muhiti", "media madaniyati", "media ta'limi", "media savodxonligi" kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o'tishgan.

Media ta'lim - (ing. media education, lot. media - degan ma'noni anglatadi). "Ta'lim" tushunchasining o'zi nafaqat kasbiy va ilmiy bilimlarni, balki ma'naviy me'yorlar va madaniy qadriyatlarni takror ishlab chiqarishni, to'plashni ta'minlaydigan ijtimoiy institutdir. Media ta'lim talabalarni ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televideniye, radio, kino, video, internet va boshqalar) qonuniyatlarini o'rganishga qaratadi. [3]

Media ta'limning asosiy vazifalari: yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash, turli ma'lumotlarni idrok etish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglash, ta'sir qilish usullarini o'zlashtirish va og'zaki bo'lmagan shakllarga asoslangan muloqot texnik vositalardan foydalangan holda munosabatga kirishish demakdir. Jamiyat va davlat rivojida ta'lim va media ta'limning roli kattadir.

Mediata'lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim sohasining ustuvorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta'limga erishish uchun ta'limni axborotlashtirish va o'qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur.

Media-ta'lim hozirgi davrda shaxs-ning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. [4]

Manbalardan kelayotgan axborot oqimi-dan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media - resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi.

Masalan, ta'lim jarayoniga: aqliy, vizual, sensor, audio bo'lgan faoliyat, tezkor media-ta'lim sohasida metodik ko'nikmalarini darajasi, masalan, media-manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish.

Mediata'lim maqsadlari quyidagi ko'rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o'rgatish;
- ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o'zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;
- talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish [5]

**Tahlil va natijalar.** Mediamadaniyat - turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi.

Mediamadaniyat - shaxs madaniyati uchun zarur qism bo'lib, ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni kasbiy, kunda lik, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo'llay olish qobiliyatlarining yig'indisi. Mohiyatiga ko'ra shaxs tomonidan mediamadaniyatning o'zlashtirilishi stixiyali jarayon bo'lmay, bir necha bosqichda evolyutsion rivojlanishga asoslanadi. Shaxsda mediamadaniyatni shakllanish jarayonining umumiy mohiyati: mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat va mediakompetentlikda o'zining to'liq ifodasini topadi. Mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma'naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqni, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. [4]

Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ta'riflanishicha, mediata'lim – (media education) olingan axborot asosida o'z fikrini bildirishga qodir bo'lgan mas'uliyatli talabalarni tarbiyalash maqsadida mediaga tanqidiy va



o‘ylab munosabatda bo‘lish sifatida tushunish kerak bo‘lgan mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim. Bu talabalarga zarur axborotlardan foydalanish, uni tahlil qilish, ular bilan bog‘liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni identifikatsiya qilish imkonini beradi.


Mediata‘limning mohiyati va xususiyatlari borasidagi fikrlar so‘nggi yillarda pedagogik muhitda eng muzokarali masalaga aylandi. Professor H.Rashidov zamonaviy olamdagi mediata‘limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to‘laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash, mediatexnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi.

Dunyoda mediata‘limning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tashkilotining tavsiyalarida alohida ta‘kidlanib, mediata‘lim rivojlanishi qo‘llab-quvvatlangan (media education barcha turlari – elektron, bosma, grafik, media va boshqalar). YUNESKO hujjatlari mediata‘limni (ingl. media education, lotincha media – vosita) quyidagicha aniqlaydi: Mediata‘lim (media education) media (bosma va grafik, tovush, ekran va boshqa) va har xil texnologiyalar turlari bilan bog‘liq; u bo‘ljak muhandislarga ularning ommaviy axborot vositalarini qay tarzda qo‘llanilishini tushunishga, boshqalar bilan aloqa qilganda mediadan foydalanish qobiliyatlarini egallashga imkoniyat beradi; quyidagilar bo‘yicha inson bilimini oshiradi:

- mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;
  - mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va yoki madaniy manfaatlarini hamda kontekstini aniqlash;
  - media tomonidan tarqatilyotgan mediamatnlar va qadriyatlarini sharhlash;
  - mediamatnlarni yaratish, ularni tarqatish hamda ularga qiziqish bildirgan auditoriyaga ega bo‘lish maqsadida tegishli medialarni tanlash;
  - qabul qilish va ishlab chiqarish maqsadida mediaga erkin ravishda kirish imkoniyatiga ega bo‘lish
- [5].

Mediata‘lim – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradigan, oddiy yo‘nalishlardagi media axborot tilini o‘rganishga ko‘maklashadigan, o‘quvchilar badiiy salohiyatining o‘sishi, rivojlanishiga hissa qo‘shadigan, mediamatnlarni qabul qilish, o‘rganish va malakali tahlil etish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini ifodalaydi [4].

Xorijiy davlatlardagi shu sohada tadqiqot olib borayotgan bir qator olimlarning fikriga ko‘ra, mediata‘lim tarbiyaviy, ta‘limiy ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarni ta‘lim-tarbiya jarayonida tanqidiy-tahliliy fikrlashga o‘rgatadi.



1-rasm. Media vositalar

Mediata‘lim shaxslarni xabarlarini talqin qilish va yaratish, kommunikatsiya uchun tobora mos keladigan mediani tanlashga o‘rgatadi. Mediata‘lim odamlarga o‘zlarining axborot olish huquqini amalga oshirish imkonini beradi, bu nafaqat ularning shaxsiy o‘sishiga ko‘maklashadi, balki ijtimoiy (hayotda)

ishtiroki va interfaolligini oshiradi. Bu ma'noda mediata'lim demokratik fuqarolik va siyosiy tushunishga tayyorlab boradi. Mediata'limni insonning butun hayoti mobaynidagi ta'lim konsepsiyasining qismi sifatida rivojlantirish zarur [6].

Mediata'lim natijasi auditoriyaning mediakompetentligi, mediasavodxonligi darajasining ortishidan iborat bo'ladi. Mediakompetentlik ko'p o'lchamli bo'lib, bilimlarning rivojlangan strukturasi asoslangan keng istiqbollarni talab etadi.

Media vositalar faoliyati - zamonaviy muhandislik va muhandislik ishlarining omilidir, bu ommaviy axborot texnologiyalari tizimlarini ishlab chiqish, loyihalash va ishlashni o'z ichiga oladi. Media texnologiyalari faoliyati barcha texnik tizimlar uchun algoritm (texnik topshiriqni tayyorlash, loyiha loyihasini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va joriy qilish, amaliyot va baholash) uchun xizmat qiladi. (1-rasm).

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki, mediata'lim asosida oliy o'quv yurtlari talabalarining bilimni rivojlantirish — ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediamadaniyat pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o'rin tutadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni va uning 1-ilovasi - // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. Полонский, В. М. Инновации в образовании (методологический анализ) [Текст]» // Инновации в образовании. 2007. - №2. - С. 13.
3. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – P. 17.
4. Mahmudova N.J. “Mediata'lim texnologiyasi asosida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari” Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. 2022/3, B.59.
5. Федоров А.В. Медиаобразование в зарубежных странах. Монография // – Таганрог: Изд-во Кучма, 2003. – С. 238.
6. Nabiulina L.M., Bakieva Z.R. Multimedia tizimlari va texnologiyalari //Darslik. – T., 2017.-B.78.

UDK:378

## TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Xalmamatova Lola Amankulovna,*  
*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti,*  
*Atadjanova Surayyo Egamovna,*  
*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi,*

*Maqolada talablarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari, kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv va tarbiya jarayonida yangi g‘oyalarni yaratish haqidagi fikrlar yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kreativlik sifatlari, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat, shaxs kreativligi, kasbiy ijodkorlik.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

*В статье излагаются идеи для разработки эффективных способов развития креативных качеств студентов, создания новых идей в процессах обучения и воспитания, формирования студентов творческими людьми.*

**Ключевые слова:** креативные качества, знания, навыки, квалификация, творческая деятельность, креативность личности, профессиональное творчество.


## USING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FORMING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS

*There is discussed in the article ideas for teaching effective ways of creativity among students, development, to forming the students as creative thinking persons.*

**Keywords:** qualities of creativity, knowledge, skills, qualifications, creative activity, creativity, professional creativity.

**Kirish (Introduction).** Ma‘lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning Yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi.

Kreativlik (lot., ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. [3,236]



1-rasm.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi (1-rasm). Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lish uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Kreativlik sohasiga fikr bildirilar ekan, mavzu yuzasidan g‘arb, sharq pedagoglarning adabiyotlariga e‘tibor qaratish lozim. Xususan, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasi Ken Robinsonning fikrlariga murojaat qilsak, uning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan‘anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e‘tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

Oliy ta‘lim xizmatlari mamlakat mehnat bozorining yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ishchi kuchi sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarini yuqori malakali kadrarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘rta va uzoq muddatli istiqbollarga mo‘ljallangan oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategik dasturlar qabul qilingan bo‘lib, ular qatoriga 2030 yilgacha oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish kontsepsiyasi va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi kabi davlat dasturlarini kiritish mumkin.[1]

Shu o‘rinda mamlakatimizda aholining oliy ta‘lim xizmatlari bilan qamrov darajasiga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Tahlillarga ko‘ra, 2014-2020 yillarda mamlakatimizda oliy ta‘lim xizmatlari bilan aholining qamrab olish ko‘rsatkichi 13,9 foiz punkt birlikka ortgan holda, 2014 yildagi 8,1 foizlik ko‘rsatkichdan 2020 yilda 22,0 foizga yetdi.

Oliy ta‘lim tizimida o‘qish faoliyatida bo‘lgan talabalar kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarida an‘anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalar haqida fikr yuritishi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega bo‘lgan pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, talabalarining o‘quv faoliyati, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e‘tibor qaratadi. [2]

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta‘minlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratishi zarur.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala Yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatning rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga

nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Talaba shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, his-tuygʻulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi.

Aytib oʻtilganidek, barcha shaxslarda boʻlgani kabi boʻlgʻusi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari oʻz-oʻzidan rivojlanmaydi. Shunga koʻra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yoʻllari mavjud. [4,38]

**Birinchi yoʻl** - kreativ fikrlash koʻnikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urgʻu kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish asosiy eʼtibor markazida boʻlib, talabalar feʼllar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yoʻnaltiriladi. Xususan, oʻqituvchilar kreativ fikrlash koʻnikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur feʼllarning boʻlishiga eʼtibor qaratadilar. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan «yurak va qon aylanish tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼriflab bering» mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi «taʼriflab bering» tushunchasi oʻz mohiyatiga koʻra «mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib oʻting» deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi soʻz (feʼl)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yoʻliga koʻra pedagoglar turli, antiqa, noanʼanaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi soʻz (feʼl)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, «bogʻliqlikni toping», «yarating», «bashorat qiling», «fikrni mantiqan bayon eting», «tasavvur qiling» kabi soʻz (feʼl)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog talabalardan «yurak va qon aylanish tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼriflab berish»ni talab qilish oʻrniga, «yurak va qon aylanish tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlikning barcha turlarini keltirish»ni soʻrashi lozim boʻlsa, natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va gʻoyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega boʻladi.

Pedagoglar birinchi yoʻlni qoʻllash – talabalarda kreativlik koʻnikmasini shakllantirishda yosh oʻqituvchilarning «Kreativlik xaritasi»dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

**Ikkinchi yoʻl** – amaliy kreativ fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda koʻrsatmali metod va usullardan foydalanadilar. Bu oʻrinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, u talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

**Uchinchi yoʻl** - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yoʻlda talabalarni muammoni Yechish va innovatsion gʻoyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urgʻu beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qoʻllanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, talabalara «Yurak va qon aylanishi tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlikni topish» topshirigʻini bajarar ekanlar, odamning qon aylanishi tizimi bilan bogʻliq turli muammolarni tahlil qiladilar. Natijada ushbu jarayonda koʻp tomonlama fikrlash, mushohada yuritish roʻy beradi.

**Toʻrtinchi yoʻl** - kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yoʻlni tutishda pedagog talabalarga «Odamning qon aylanish tizimi» mavzusida Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirigʻini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash koʻnikmalari faol rivojlanadi. [5]

Talabalar oʻzlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda toʻla namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qoʻrquv hissi mavjud boʻlsa, fikrni notoʻgʻri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qoʻrqsalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash koʻnikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin boʻlmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash koʻnikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash koʻnikmalarini baholashda qoʻllaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻqituvchi kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantiruvchi feʼllarni (birinchi yoʻlni) qoʻllashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (uchinchi yoʻl) ustida ish olib borayotgan talabalarni kreativ fikrlash strategiyalaridan (ikkinchi yoʻl) foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (toʻrtinchi yoʻl) ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Kreativ fikrlash koʻnikmasini mashq qildirish natijasida talabalar faqatgina oʻrnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, maʼnoga boy aloqalarni oʻrnatish, yangi gʻoyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil boʻladilar.

Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega boʻladi. Inson miyasi doimo toʻgʻri ishlashga odatlangan, yaʼni miya uchun faqat birgina

to‘g‘ri javob mavjud bo‘ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – talabalarining o‘z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to‘g‘ri bo‘lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talabalar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Talabalarining kreativlik qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o‘qituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lish va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Xato qilish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish, haddan tashqari baholarga e‘tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrash, kamsitilishdan qo‘rqish kabi hislatlar talabalarda kreativlikni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.[6]

Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq talabalarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog‘liq. Kreativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi (1-jadval). Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o‘qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o‘z ichiga oladi». [7,14]

Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi alohida o‘rin tutadi. Vaholanki, o‘qituvchi auditoriyada talabalar o‘zini erkin seza oladigan va o‘z fikrlari, g‘oyalari bilan bo‘lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar kreativlikni auditoriyada o‘z g‘oya va fikrlarini turli yo‘llar bilan ifoda etishlari lozim.

Talabalar ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o‘rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. O‘qituvchi talabalardagi kreativlikni noodatiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchining talabalar berayotgan kreativ g‘oyalarga nisbatan to‘g‘ri munosabati ularning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o‘qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo‘lib, talabalar muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishlari lozim.

**1-jadval.**

**Talabalarda kreativlikni shakllantirish [7,15]**

Talabalarda kreativlikni shakllantirish	
Talabalarni ...	- qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan - ta‘minlash
Talabalarga ...	- kreativlik muvozanatsizlik hissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo‘rquv hissidan xalos bo‘lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko‘nikmalarini boshqa ko‘nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - «qutqarib» qolish emas, balki yo‘l-yo‘riq - ko‘rsatish
Talabalarni ...	- suhbatlar orqali rag‘batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta‘minlash; - yangi ko‘rsatmalar bilan tanishtirib borish
Talabalar ...	- o‘zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo‘lishlari uchun poydevor bo‘ladigan muhitni yaratish

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishda to‘sqinlik qiladi:

- o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo‘lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. [4]

O‘qituvchi talabalarni yangi ma’lumot va manbalar bilan ta’minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo‘llaganda, ularning ongi «uyg‘onadi» va e’tibor qaratadi. Masalan, biror-bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o‘xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o‘rnini almashtirish, o‘yinlar o‘ynash (bu o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o‘zgartirish.

Oliy ta’lim muassasalarida ham o‘qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo‘lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Talabalarda kreativ sifatlarni rivojlantirishda quyidagilarni xulosa qilamiz:

- birinchidan, pedagoglar o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashib, talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishiga e’tibor qaratishi;
- ikkinchidan, tayyorlangan o‘quv materiallarining g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikligini inobatga olish;
- uchinchidan, topshiriqlar talabalar yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi hamda talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- to‘rtinchidan, kreativlik sifatlarni rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish;
- beshinchidan, talabalarning kreativlik qobiliyatlari rag‘batlantirilsa va o‘qituvchi tomonidan samimiy muhit talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2019.
4. Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.
5. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: Toxtaxodjayeveva M.X. va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida. – T.: «Iqtisod-moiya», 2010.
6. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘llanma. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.
7. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

## MUSIQACHILAR MARKAZIY MIYA TIZIMINING FAOLIYATI

*Xoliqov Komil Buronovich,*

*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti “Pedagogika” kafedrasida dotsenti*

*Maqolada musiqachilar his-tuyg'ulari, eshitishlari hamda xotirasini ta'minlaydigan gipotalamusda yetib boruvchi ma'lumot insonga qay darajada ta'sir etishi ochib berilgan. Markaziy asab sistemasi hayvonlar va odamlar asab tizimining asosiy qismi ekanligi, neyronlar faoliyati va yordamchi meyilinlar faoliyati ochib berildi. Xotiraga aylanishdan oldin, ma'lumot birinchi navbatda hissiy signallar tarzida qabul qilinishi, so'ngra ma'lumotga aylanishi, so'ngra miyaning hissiy tizimlari tomonidan qayta ishlanishi va u joydan hipokampusga o'tishi ko'rsatib berilgan. Xotira shakllanishining birinchi bosqichida kiruvchi ma'lumotlar xotira iziga kodlanishi ko'rsatib berilgan. Dvigatel xotirasi - bu turli motor tizimlari haqidagi ma'lumotlarni saqlash yoki eslab qolishi mumkinligi gipoteza tarzida ilgari surilgan, masalan, pianinochi yoki biron bir cholg'uchining qo'llari va barmoqlarining ravonligi hamda ularning musiqa asarini takrorlashi bunga yaqqol misol bo'la oladi.*

**Kalit so'zlar:** *his-tuyg'u/ musiqiy xotira/ markaziy asab tizimi faoliyati/ aniq xotira, deklarativ xotira.*

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ МОЗГА У МУЗЫКАНТОВ

*В статье фокусируется, в какой степени на человека влияет информация, поступающая в гипоталамус, обеспечивающий эмоции, слух и память музыкантов. Выявлено, что центральная нервная система является основной частью нервной системы животных и человека, активности нейронов и активности вспомогательных нейронов или часть нейрона как называемый дендрит. Раскрывается сигнал, прежде чем стать воспоминанием, информация сначала поступает в виде сенсорных сигналов, затем преобразуется в информацию, а затем обрабатывается сенсорными системами мозга и передается оттуда в гиппокамп. На первом этапе формирования памяти поступающая информация кодируется в след памяти. Предполагается, что двигательная память способна хранить или вспоминать информацию о различных двигательных системах, например, беглость рук и пальцев пианиста или любого другого музыканта, играющего на любом другом инструменте, и повторение ими музыкального произведения является ярким примером этого.*

**Ключевые слова:** *эмоция/музыкальная память/деятельность центральной нервной системы/специфическая память, декларативная память.*

## THE ACTIVITY OF THE CENTRAL BRAIN SYSTEM IN MUSICIANS

*The article reveals to what extent the information reaching the hypothalamus, which provides the emotions, hearing and memory of musicians, affects a person. It was revealed that the central nervous system is the main part of the nervous system of animals and humans, the activity of neurons and the activity of auxiliary neurons. It has been shown that before becoming a memory, information is first received in the form of sensory signals, then transformed into information, and then processed by the sensory systems of the brain and transferred from there to the hippocampus. In the first stage of memory formation, incoming information is encoded into the memory trace. Motor memory is hypothesized to be able to store or recall information about various motor systems, for example, the fluency of the hands and fingers of a pianist or any other instrument player and their repetition of a piece of music is a clear example of this.*

**Keywords:** *emotion/ musical memory/ central nervous system activity/ specific memory, declarative memory.*

**Kirish.** *Vaqtinchalik paydo bo'luvchi signallar lobning tuzilmalarida eshitish, nutqni idrok etish, vizual xotira, deklarativ (og'zaki) xotira va hissiyot uchun muhimligi ko'rsatib berilgan. O'ng temporal lobning shikastlanishi bo'lgan bemorlar odatda og'zaki bo'lmagan eshitish stimullarini (masalan, musiqa) idrok etish keskinligini tushuna olmaydilar.*

*Markaziy nerv sistemasi hayvonlar va odamlar nerv sistemasining asosiy qismi bo'lib, neyronlar, ularning jarayonlari va yordamchi gliadan iborat bo'lishi fanga ma'lum bo'lsada, lekin ularning miyaga yetib borishi hali isbot qilinmagan. Umurtqasizlarda u bir-biri bilan chambarchas bog'langan nerv ganglionlari, yoki polisakkaritlar faoliyati tizimi bilan ifodalanadi, umurtqali hayvonlarda (shu jumladan odamlarda) orqa miya va miya bilan bog'langan bo'lishi bilan ifodalanadi.*



Markaziy asab tizimi inson asab tizimining asosiy qismidir. U ikkita bo'limdan iborat: miya va orqa miyadir. Asab tizimining asosiy vazifalari tanadagi barcha hayotiy jarayonlarni nazorat qiladi. Miya fikrlash hamda nutqni muvofiqlashtirish uchun javobgardir. Bu oddiy harorat sezuvchanligidan ko'rish va eshitishgacha bo'lgan barcha sezgilarning ishlashini ta'minlaydi. Orqa miya esa, ichki organlarning faoliyatini tartibga soladi, miya nazorati ostida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi va tanani harakatga keltiradi. Markaziy asab tizimining ko'plab funktsiyalarini hisobga olgan holda, miya yoki orqa miya tarmoqlarini ko'rsatadigan klinik belgilar juda xilma-xil bo'lishi mumkin: xatti-harakatlarning buzilishidan tana qismlarining ixtiyoriy harakatlarini bajara olmaslik, tos a'zolarining disfunktsiyasi paydo bo'lishiga olib keladi.

Miya va orqa miya hujayradan iborat bolib, ularning xususiyatlari, funktsiyalarini maxsus hujayralardan tashkil topgan bo'ladi. Faqat asab tizimiga xos bo'lgan hujayralar neyronlar va neyroglialardir, boshqacha qilib aytganda, aksonlarni meyilin qobig'i o'rab turgan bo'lishi bilan birga, ularning o'zi ham bir butun polisakkaritlarda chirmashib, bir - biriga ma'lumotlarni yetkazib turadi. Neyronlar asab tizimining ishchi otlari hisoblanadi. Ular miyaga va miyadan signallarni shunchalik ko'p va murakkab o'zaro bog'lanishlar tarmog'i orqali yuboradilarki, bu qabul qilinuvchi signallar, ularni sanash yoki to'liq diagramma qilish mutlaqo mumkin emas. Eng yaxshi holatda, taxminan aytishimiz mumkinki, miyada yuz milliardlab neyronlar mavjud bo'lib, ular orasidagi bog'lanishlar bir necha baravar ko'p.

**Asosiy qism.** Markaziy asab tizimining asosiy va o'ziga xos funktsiyasi shundan iboratki, oddiy va murakkab reflekslarni amalga oshirish ham markaziy asab tizimisiz amalga oshmaydi. Odamlarda markaziy asab tizimining pastki va o'rta bo'limlari - orqa miya, uzunchoq miya, o'rta miya, diensefalon va serebellum - yuqori darajada rivojlangan organizmning alohida a'zolari va tizimlarining faoliyatini tartibga soladi, aloqa va o'zaro ta'sirni amalga oshiradi. Ular o'rtasida organizmning birligini va faoliyatining yaxlitligini ta'minlaydi. Markaziy asab tizimining yuqori bo'limi - miya yarim korteksi va eng yaqin subkortikal shakllanishlar - asosan tananing atrof-muhit bilan aloqasi va munosabatlarini tartibga soladi.

Hayvon va odam nerv sistemasining neyronlardan tashkil topgan asosiy qismi, ularning jarayonlari va yordamchi glia; umurtqasiz hayvonlarda u bir-biri bilan chambarchas bog'langan nerv tugunlari (ganglionlar), odamlarda - orqa miya va miya bilan bog'langan holda faoliyati olib boradi. Markaziy asab tizimi ma'lumotlarni qayta ishlash va tanamiz faoliyatini muvofiqlashtirish uchun javobgardir. Buning uchun u periferik asab tizimidan signallarni yuboradi va oladi.

Boshqa hech qanday san'at musiqa kabi kayfiyatga ta'sir qila olmaydi va uni yarata olmaydi. Barcha musiqiy asarlarni faollashtiruvchi va tasalli beruvchi, tinchlantiruvchi qismlarga bo'lish mumkin. Hatto "aql uchun" ham musiqa turli xil dodekafoniyalardan iborat bo'lishi mumkin. Musiqani idrok etish psixik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq, ya'ni musiqa - diqqatni, kuzatishni, aql-zakatni talab qiladi. Eshitish retseptorlari tomonidan qabul qilingan musiqa butun organizmning umumiy holatiga ta'sir qiladi, qon aylanishi va nafas olishning o'zgarishi bilan bog'liq reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Musiqa qiyin hayotiy vaziyatlarni yengishga yordam berishini hamma payqagandir. Bundan tashqari, u to'g'ri kayfiyatni yaratishga va saqlashga qodir.

Klassik musiqa insonga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Olimlar ko'pincha klassik asarlarga shunchaki mo'jizaviy ta'sir etuvchi narsa deb ko'rsatadilar. Klassik musiqadan farqli o'laroq, shifokorlar uzoq vaqt davomida rep, rock va heavy metal asboblarini chaladigan hamda qo'shiqlarini kuylaydigan guruhlarini tinglashni tavsiya etmaydilar. metal rock deb ataluvchi guruhlar ko'pincha ongsiz tajovuzni keltirib chiqaradi, rep ham salbiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va og'ir metal hatto ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Boshqa janrlarga kelsak: blyuz, jazz ba'zi kishilarni depressiyadan chiqarishi mumkin, estrada musiqasi kimningdir kayfiyatini ko'tarishi mumkin, lekin kimningdir kayfiyatini buzishi mumkin, melodik rok mushaklar va asabiy taranglikni yengillashtiradi, og'ir rok esa, aksincha, sizni ahmoqlikka soladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, musiqiy janrlar individual imtiyozlarni istisno qilmaslik kerak.

Aniq xotira deklarativ xotira deb atalib, mavjud tajriba yoki axborot ixtiyoriy va ongli ravishda yangilanadigan xotira turi xisoblanadi. Odamlar kun davomida aniq xotiradan foydalanadilar, masalan, uchrashuvdagi bir lahzani eslash yoki o'tmishdagi voqeani eslashadi.

Protessual xotira faqat o'rganilgan harakatlarda bevosita ishtirok etadigan neyron tarmoqlarda sodir bo'ladigan biokimyoviy va biofizik o'zgarishlarga asoslanadi. Deklarativ xotira o'tmishdagi shaxsiy tajribalarning aniq va tushunarli hisobini ta'minlaydi. Xuddi mana shu xotira musiqachilarning asarlarini o'rganishlarida yoki avval o'zlashtirgan asarlarini eslashlarida juda kerak bo'ladi.

Xotiraning tasnifi quyidagilardan iborat:

- Vizual (ko'rib eslab qoluvchi) xotira
- Dvigatel (kinestetik) xotira

- Ovoz (eshitish) xotirasi
- Tatib ko'rish yoki tam bilish xotirasi
- Xid bilish xotirasi

• Eydetik xotira yodlashning fenomenal turi xisoblanadi. Inson har qanday ob'ektni aqliy ravishda suratga olishi va keyin barcha tafsilotlarni hisobga olgan holda uni qayta ishlatishi mumkin, ya'ni, fotografik xotira turlariga ajratib o'rganiladi. Musiqachilarning ba'zilarida fotografik xotira kuchli rivojlangan bo'ladi. Chunki musiqa sistemali aniq bir qolipga solinganligi, keying asarni o'rganishda ko'makchi vazifasini bajara oladi.

Deklarativ bo'lmagan (protsexual) xotira - bu turdagi xotira g'oyalar bilan bog'liq bo'lmagan oldingi tajriba elementlarini saqlashni ta'minlaydi: ko'nikmalar, shartli reflekslar, ustuvorlik effekti –primingdan iborat bo'ladi.

Musiqachilar uchun oldingi tajribaning musiqiy elementlari: musiqa tuzilishi, musiqaning turli elementlari: lad, temp, ritm, ohang va boshqalarning saqlanishini ta'minlaydigan musiqachilar uchun muhim bo'lgan deklarativ bo'lmagan xotira, ya'ni uni hamma vaqt eslab yurilmaydi, chunki faqat kerak bo'lgan vaqtdagina qo'llashga to'g'ri keladi.

Xotiraga aylanishdan oldin, ma'lumot birinchi navbatda hissiy tajribalar shaklida miyaga kiradi, umuman olganda ma'lumot dendridlar orqali signallar tarzida o'zlashtiriladi, so'ngra akson tepaligidan tezlashtirilgan signallar aksonda ma'lumotga aylanadi, so'ng miyaning hissiy tizimlari tomonidan qayta ishlanadi va u yerdan gipokampusga boradi. Gipotalamusda sintezlanib, reflektorli yoyda qayta ishlangan ma'lumot avval olingan ma'lumotlar bilan solishtirilib, unga javob tariqasida reaksiya qilinadi. Xotira shakllanishining birinchi bosqichiga kiruvchi ma'lumotlar gipokampus ichida xotira iziga kodlanadi. Xotira turlari uning shakllanishining irsiy ketma-ketligiga qarab tasniflashni P.P.Blonskiy taklif qilgan. U xotiraning to'rtta asosiy shaklini-harakat, emotsional, obrazli va semantik shakllarini aniqlagan.

Dvigatel - harakatlanuvchi xotira - bu turli motor tizimlari haqidagi ma'lumotlarni saqlash yoki yodlash, masalan, pianinochi yoki biron bir cholg'uchining qo'llari va barmoqlarining ravonligi va ularning musiqa asarini takrorlashi paytida esga olinadi. Ushbu xotira qobiliyati tufayli biz yurishimiz, o'tirishimiz yoki musiqa asbobini chalishimiz mumkin. Bu turdagi xotira amaliy faoliyat bilan bog'liq turli ko'nikmalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari olinadigan bilimlar polisakkaritlar tomonidan birdaniga bir necha ma'lumotlarni baravariga olish imkoni paydo bo'ladi. Polisakkoritning o'zi nima? Degan savolning tug'ilishi turgan gap. Poli degani ko'p degani, sakkoritlar esa birgalikda qabul qiluvchi aksonlarning birgalikdagi xarakati demakdir.

Xotiraning ikkinchi turi - affektiv xotira yoki hissiy xotira - xotiraning tajribali his-tuyg'ularni va ularni eslab qolish qobiliyati, faktlar va vaziyatlar bilan mustahkamlamasdan, hamda shahvoniylkning jismoniy hissiyotlariga e'tibor berishidan paydo bo'luvchi turi hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani oldinga surgan olim K. S. Stanislavskiy bo'lib, hissiy xotira tizimni yaratish uchun asos sifatida olingan. Hissiy xotira kompozitor o'z g'oyasini yetkazmoqchi bo'lgan g'oyalarning tajribasi va hissi bilan chambarchas bog'liq va muayyan asarning ijrosi bastakorning g'oyalari bilan mos kelishi kerak deb hisoblagan. Ijrochi asarni tushunishi va his qilishi va tinglovchilarga hissiyotlarni yetkazishi uchun, kompozitorning hayotini bilishi, uning xarakterini bilishi, ijrochining xarakteri bilan to'g'ri kelishi asarni chiroyli chalinishi hamda tinglovchiga yetib borishini ta'minlay oladi, bu musiqachi tushunishi kerak bo'lgan juda muhim va murakkab xususiyatdir.

Tasviriy xotira – bu ob'ektlar va hodisalarning hissiy tasvirlarini yodlash va takrorlash bilan bog'liq bo'lgan xotira turi hisoblamadi. Bundan tashqari, majoziy xotira ular orasidagi xususiyatlarni, munosabatlarni va aloqalarni qayta ishlab chiqarishga qodir. Tasviriy xotiraga musiqiy xotira, eshitish xotirasi, taktil xotira va boshqalar kiradi. Tasviriy xotira - bu bizga ma'lum afzalliklarni beradigan barcha rasmlar, hidlar, tasvirlar, tovushlarni o'z ichiga oladi. Asarni o'rganishdan oldin uni tahlil qiladigan vaqtda asarning umumiy ko'rinishini akkordlar tarzida, yoki akkordlarning aylanishini bilish, olingan bilimlarni esga olish, o'lchov ritmo-metrik ko'rinishni bilish va uni amaliyotda qo'llashga tayyorgarlik ko'rishda as qotadi. Musiqiy asarda uchraydigan musiqiy elementlarni ongimizda tasviriy xotira orqali eslab ko'rib musiqa asarini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Mana shu paytda tasviriy xotira bizga yordamga keladi.

Musiqa amaliyoti eshitish xotirasini yaxshilaydi - improvizatsiya, yodlash, ritmga kirish va asbobni sozlash uchun zarur bo'ladi, bu keyinchalik hayotda xotira hajmini oshirishga yordam beradi, bu muloqot va kognitiv qobiliyatlarni osonlashtiradi. Mumtoz musiqa osoyishtalik, zo'riqishni susaytirishga yordam beradi. Vivaldi, Motsart, Chaykovskiy, Betxoven, Shubert, Grig va Shumann asarlarini tinglaganimizda farovonlik va faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi ko'pincha qayd etiladi. Olimlarning ta'kidlashicha, eng foydali musiqa klassik va folkloridir. Klassik musiqa inson fiziologiyasiga, shuningdek, intellektual qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ovozni idrok etishning tug'ma qobiliyatidan qat'i nazar, musiqachilarning miyalari

cholg'u asbobini chalmaydiganlarga qaraganda kuchliroq strukturaviy va funktsional aloqalarga ega. Yillar davomidagi tayyorgarlik musiqachilarning miyasiga ta'sir qiladi. Musiqani mutlaq eshita oladigan musiqachilar ayniqsa ajralib turadi. Mutlaq eshitish qobiliyatiga ega musiqachilar hech xato qilmay har tovushni aniq balandligini o'zligicha eshita oladilar, va o'rganadigan asarlarini bexato chala oladigan xususiyatga ega bo'ladilar. Klassik musiqani tabobatda ham qo'llay boshladilar. Ota – bobolarimizdan Ibn Sino o'zidan oldin o'tgan allomalarning fikridan foydalanib, jarrohlikni amalga oshiradigan vaqtda klassik musiqalarni eshittirib operatsiyani amalga oshirish kerakligini ta'kidlab o'tgan edi.

Gipertimiya, gipertimetik sindrom - odamning o'z hayoti haqida, bo'lib o'tgan voqealarni eslashi, yoki esiga tushurishi mumkinligi juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni eslab qolish va takrorlash qobiliyati, ajoyib avtobiografik xotiraga ega kishilar xisoblanishadi. Aksariyat musiqachilarda bu sindrom mavjud, ular ajoyib avtobiografik xotiraga ega. Ushbu atamaning tibbiy terminologiyadagi holati hozircha noaniq, turli manbalarda u "gipermeziya" tushunchasi bilan almashtiriladi.

Bunday xulosaga Yevropa nevrologiya akademiyasi matbuot xizmati Italiyaning Kyeti shahri universiteti tadqiqotchilari bastakor Wolfgang Amadeus Motsart musiqasi epileptik miya faoliyatini kamaytirishi mumkin, deb xabar berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ikki pianino uchun sonata tinglash epileptik faollikni 32%ga kamaytiradi - deb xisoblashadi. Mumtoz musiqa inson xotirasini mustahkamlashini.

"Entrepreneur" jurnalida yozilishicha, inson "chap miya" yoki "o'ng miya" rivojlangan bo'lishi mumkin emas, har bir yarim shar bir xil ahamiyatga ega bo'ladi. O'ng yarim sharda tasavvur, vizualizatsiya va ijodkorlik, shuningdek, qo'shiq aytish, rasm chizish, raqsga tushish va boshqalar kabi ijodiy qobiliyatlar uchun javobgar bo'lsa, miyaning chap tomoni esa til, yozish, o'qish va hisob-kitoblar uchun javobgardir - bu bizga tahlil qilish va fikr yuritishga yordam beradi.

Agar siz miyangizning bir tomoni boshqasiga qaraganda rivojlanganligini his qilsangiz, bu to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq, har bir yarim sharni o'rgatish uchun mashqlar mavjud. Chap yarim sharning bir nechta sohalari nutq funktsiyasi bilan shug'ullanadi. Bular Vernik markazi va Broka maydon markazida sodir etiladi.

Miyaning pastki frontal qismida yuz, til, farenks, jag'lar mushaklarini boshqaradigan korteks bo'limi mavjud - Broka maydoni, bu harakat organlarining nutq sohasi, ya'ni. nutqning motor qobiliyatlari. Vernikning nutq markazi, nutqni tushunish uchun mas'ul, eshitish nutq markazi (ikkilamchi eshitish sohasi deb yuritiladi). Bu temporal lobning yuqori orqa qismida, yuqori temporal girusning orqa qismida, asosiy eshitish qobig'iga yaqin (orqa) katta maydon hisoblanadi. U yuqori temporal girusning orqa uchdan bir qismini va pastki parietal lobulaning bir qismini egallaydi.

Uning asosiy vazifasi eshitish signallarini mos keladigan tasvirlar yoki tushunchalarni faollashtiradigan so'zlarning neyron kodlariga aylantirishdir. Aynan Wernicke sohasida nutqni chaqiruvchi signallar asosiy eshitish qobig'idan yuboriladi. Bu sohaning shikastlanishi odamning nutq tovushlarini lingvistik jihatdan mazmunli idrok etish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Yoysimon fasikulus Broka va Vernik markaziga bog'lab, nutq uchun mas'ul sistemani tashkil qiladi. Vernik markazining shikastlanishi, bemor eshitilgan nutqni yoki yozma matnni idrok etishda qiyinchilik tug'dirsa, lekin gapirishga qodir bo'lsa, sensorli afaziyani keltirib chiqaradi.

В заключении статьи подчеркивается, что в эпоху цифровизации образовательного процесса развитие критического мышления среди преподавателей в области информационных технологий становится особенно важным. Исследование показывает, что внедрение современных цифровых инструментов, таких как интерактивные учебные платформы, имитационные модели и педагогические ресурсы, способствует формированию навыков критического мышления у будущих преподавателей. Основной упор делается на курирование академических материалов, дифференцированное использование технологических решений и интеграцию с дополнительными учебными ресурсами.

Такой комплексный подход, подчеркнутый в статье, обеспечивает не только глубокую экспертность будущих специалистов, но и их способность к критическому анализу, интеграции и применению знаний в практическом контексте. В результате цифровая agenda в образовательной сфере создает условия для новых моделей развития критического мышления, что повышает гибкость, адаптивность и результативность образовательного процесса.

#### Литературы:

1. Serin O. The critical thinking skills of teacher candidates: Turkish Republic of Northern Cyprus sampling. *Egitim Arastirmalari-Eurasian Journal of Educational Research*. 2003;53:231-248.



2. Ennis R. H. Critical Thinking Assessment. In: Fasko D. Critical Thinking and Reasoning: Current Research, Theory, and Practice. Hampton Press, 2003. ISBN 978-1572734609
3. Walsh, Catherine, M. California Critical Thinking Disposition Inventory: Further Factor Analytic Examination. Perceptual and Motor Skills. 2007;104(1):141–151. doi:10.2466/pms.104.1.141-151
4. Paul R. Critical Thinking: How to Prepare Students for a Rapidly Changing World. 4th ed. Foundation for Critical Thinking, 1995. ISBN 0-944583-09-1.
5. Attard L., Busuttill L. Teacher Perspectives on Introducing Programming Constructs through Coding Mobile-Based Games to Secondary School Students. Full-text available Dec 2020. Available at: <https://www.researchgate.net/profile/Lara-Attard-2>
6. Visser J.; Visser. M. Seeking Understanding: The Lifelong Pursuit to Build the Scientific Mind. Leiden: Brill, 2019, p. 233. ISBN 978-90-04-41680-2.
7. Baugher B., Haldeman Ph. Teaching College Students Critical Thinking Skills by Posing as a Registered Psychic. Skeptical Inquirer. Center for Inquiry. 2019;43(4):50–52.
8. Saeli M., Perrenet J., Jochems Wim M.G., Zwaneveld B. Teaching Programming in Secondary School: A Pedagogical Content Knowledge Perspective, Informatics in Education 2011, no. 1, 73-88, DOI 10.15388/infedu.2011.06
9. Sulistyowati R., Slameto S., Dwikurnaningsih Y. Pengembangan model pembinaan sekolah imbas adiwiyata berbasis partisipasi. Universitas Kristen Satya Wacana. 2017;4(1):97-108. DOI:10.24246/j.jk.2017.v4.i1.p97-108. Available at:: <https://core.ac.uk/display/234029265>
10. Slameto U. Developing Critical Thinking Skills through School Teacher Training 'Training and Development Personnel' Model and Their Determinants of Success. International Journal of Information and Education Technology. 2014;4(2):161-166. DOI:10.7763/IJiet

## ИНФОРМАТИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИ КОМПЛЕКС РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МЕТОДИК ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Саломова Раъно Вассиевна,*  
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Сурхондарё вилояти Олий таълим, фан ва инновациялар бошқармаси шўба бошлиғи

Мақолада таълим жараёнини индивидуаллаштириши таълим жараёнининг барча таркибий қисмларида тингловчиларнинг индивидуал типологик хусусиятларини ҳисобга олишининг психологик-педагогик муаммоси сифатида таҳлил қилинган.

Информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантиришида таълимни индивидуаллаштириши ўрганиши қобилияти ва меҳнат қобилиятини ўз ичига олган ҳолда, шу билан бирга у умуман тингловчи шахсини - унинг қизиқиши, ўқишга муносабати, ҳиссий ва иродавий фазилатларини ҳисобга олган ҳолда илмий асосланган.

**Калит сўзлар:** индивидуаллаштириши, профессионал таълим, сторителлинг, ишбилармонлик ўйини, секундмент, моделлаштириши, роли ўйин, кейс-стади методи, баскет методи.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКСНОЙ РАЗРАБОТКИ НЕПРЕРЫВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИ ИТ

В статье анализируется индивидуализация образовательного процесса как психолого-педагогическая проблема учета индивидуально-типологических особенностей обучающихся во всех компонентах образовательного процесса.

Индивидуализация образования в комплексном развитии непрерывной профессиональной подготовки учителей информатики научно обоснована, в том числе обучаемость и трудоспособность, при этом учитывается личность слушателя в целом - его интерес, отношение к учебе, эмоциональные и волевые качества.

**Ключевые слова:** индивидуализация, профессиональное обучение, сторителлинг, деловая игра, командирование, моделирование, ролевая игра, метод кейса, метод корзины.

## IMPROVING THE METHODOLOGICAL SYSTEM FOR COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF CONTINUOUS PROFESSIONAL TRAINING OF IT TEACHERS

The article analyzes the individualization of the educational process as a psychological and pedagogical problem of taking into account the individual typological characteristics of students in all components of the educational process.

Individualization of education in the comprehensive development of continuous professional training of computer science teachers is scientifically substantiated, including learning ability and ability to work, while taking into account the personality of the student as a whole - his interest, attitude to learning, emotional and volitional qualities.

**Keywords:** Individualization, professional training, storytelling, business game, business trip, modeling, role-playing game, case method, basket method.

**Қириш.** Жамиятимиз тараққиётининг ҳозирги босқичи ижтимоий тараққиёт инсоният томонидан маданий кадриятларни ўзлаштириш ва юксалтириш жараёни сифатида ҳаракат қила бошлаган тарихий истиқболда босиб ўтилган йўлнинг камчиликлари ва ютуқларини танқидий тушуниш истаги билан тавсифланади. Шу билан бирга, жамиятни инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш: ишлаб чиқариш, таълим, фан даражаси сезиларли даражада ошади [1].

Профессионал таълим ёшларни меҳнатга тайёрлашнинг кучли бўғинларидан бири сифатида фақат ўқитувчилик характеридаги вазифалар билан чекланиб қолмайди. Бу тингловчиларни нафақат амалий кўникма ва малакалар билан қуроллантириш, балки уларни меҳнатга виждонан муносабатда бўлишга ўргатиш, ақлий фазилатларини ривожлантириш, танлаган касбига бўлган қизиқишини чуқурлаштиришга қаратилган. Шу боис информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантиришнинг истиқболлари, унинг ижтимоий меҳнат таксимотидаги ўрни ва роли ҳақида аниқ тушунча, берилган вазифадан ғурурланиш, ўз касбини тўғри танлашга

ишончни шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу шуни англатадики, информатика ўқитувчиларини узлуксиз касбий тайёрлаш ва мадака ошириш бўйича барча ишларни тубдан қайта қуриш керак.

**Тадқиқотнинг методологияси ва объекти.** Информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантириш мақсадида ўтказиладиган малака ошириш курсларида фойдаланиладиган замонавий (ўзига хос) методлар сифатида қуйидагиларни тавсифлаймиз:

- Сторителлинг (storytelling) янги ходимларга жамоа ҳаётдан ҳикоялар ва латифалар ёрдамида ташкилот фаолиятининг анъаналари ва ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумот бериш;

- Ишбилармонлик ўйини - ҳақиқий профессионал ҳаракатларни эслатувчи ўйин шароитларига кириш [13];

- секундмент (secondment – хизмат сафарига юбориш). Секондмент ходимни ташкилотнинг бошқа бўлинмасидан янги жойга кўчириш шаклида, кейинчалик олдинги вазифаларини бажаришга қайтиш билан бир муддатга ротациясини ўз ичига олади [10].

- Моделлаштириш - лойиҳани ишлаб чиқиш, аниқ белгиланган кўрсаткичларга эга моделлар ва керакли натижаларни ҳисоблаш.

- Ролли ўйин - бу иштирокчиларнинг муаммоли вазиятга ечим топишлари учун аниқ ролларни белгилаш билан реал ёки типик ишлаб чиқариш вазиятлари яратиладиган метод.

- Кейс-стади методи – муайян муаммоли вазиятларни кейс шаклида ечиш орқали ўрганишга асосланган фаол муаммоли-вазиятли таҳлил методидир [2].

- Баскет методи (ўқитиш шаклида) амалий шароитларда тез-тез учраб турадиган вазиятларни баҳолаш (масалан, ишчи ҳужжатларни таҳлил қилиш) учун чекланган вақт давомида маълумот йиғиш методидир. [11]

- buddying методидан фойдаланган ҳолда ўқитиш - бу методнинг маъноси шундан иборатки, ходимга шерик (дўст) бириктирилади, у билан ўзаро муносабат ишдаги камчиликларни аниқлашга ва доимий фикр-мулоҳазаларни шакллантиришга ёрдам беради [6].

- Коучинг - бу мураббий-устоз раҳбарлигида ҳаракат йўли билан ўрганиш бўлиб, унда корхонада юзага келадиган реал амалий муаммолар ҳал қилинади.

- Ақлий ҳужум — гуруҳ муҳокамасида тўғри ечим топиш.

- Бенчмаркинг - бу янги ҳаракатларни ишлаб чиқишда мавжуд натижалар тажрибасини қўллаш.

Ҳозирги вақтда махсус адабиётларда “иккинчи авлод” методлари деб аталадиган янги ўқитиш методларини топиш мумкин. Буларга қуйидагилар киради: Мерлин машқи, Диалог тренинги, сценарийни режалаштириш, ҳаракатни ўрганиш, машқ зоналари ва билимларни бошқариш лойиҳаси ва бошқалар.

Бу методларни қўллаш билан биргаликда индивидуал ёндашув тамойилидан фойдаланиш ўқув фаолиятига таъсир қиладиган ва таълим натижалари боғлиқ бўлган хусусиятларини ҳисобга олишни ўз ичига олади. Улар шахснинг асаб тизимининг хусусиятлари, характер ва ирода хусусиятлари, мотивация, қобилият, истеъдод ва бошқалар каби турли жисмоний ва руҳий фазилатлари ва ҳолатлари бўлиши мумкин. Булар тингловчининг иш фаолиятига, шунингдек, унинг жамоадаги ҳолати, маиший ва бошқа ташқи таъсирлар каби турли хил ижтимоий омилларига таъсир қилади. Натижада, таълим жараёнида бир томондан, шахснинг кўплаб индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш зарурати туғилади, иккинчи томондан, оммавий таълимда ушбу эҳтиёжни амалга ошириш имкониятлари жуда чекланганлиги ўртасида қарама-қаршилик пайдо бўлади.

**Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси.** Информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантириш ҳамда профессионал таълимда малака ошириш жараёнида индивидуаллаштириш тамойилини қўллаш муаммосига бағишланган адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, педагогикада бу тенденция 1960 йилларнинг ўрталарида шаклланган.

Н.А.Менчинскаянинг тажрибалари тингловчиларнинг ривожланишини тезлаштириш мумкинлигини кўрсатди [4]. Бунга тегишли ўқув материални танлаш орқали эришилади. М.Н.Скаткин тингловчининг ўқув-билиш фаолияти нафақат фикрлаш, балки диққат, хотира ва иродавий жараёнлар билан ҳам боғлиқ эканлигига эътиборни қаратади, уларнинг интенсивлигини ошириш учун тингловчиларни ўрганиш жараёнини фаоллаштиришга йўналтириш керак [8].

60-йилларнинг ўрталаридан бошлаб В.С.Мерлин индивидуал фаолият услубини шакллантириш шартларини ва кейинчалик - шахснинг интеграл индивидуаллигини ўрганди. В.С.Мерлин шахс ривожланишининг ҳар бир иерархик даражасида (биокимёвий, нейрофизиологик, психофизиологик, фаолиятли, ижтимоий) инсон ривожланишининг асосий шarti фаолиятнинг ноаниқлик зонаси: ҳаракат фаолияти, ҳаракатлар, мулоқот эканлигини кўрсатиб берди [5]. 90 йилларнинг бошидан индивидуаллаштириш тадқиқотчилар томонидан восита сифатида эмас, балки индивидуалликни

ривожлантириш мақсади сифатида кўриб чиқилди. Ушбу ёндашув И.Э.Унт, ва бошқаларнинг монографияларида тасдиқланган [9].

Ушбу тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилиш қуйидаги хулоса оли келади:

- ривожланиш эришилган даражадан бошланиши керак, аммо бир хил ёш гуруҳидаги тингловчилар учун бу даража жуда фарқ қилади, яъни ҳар бир тингловчига нисбатан ўқитиш фақат шу тингловчини индивидуаллаштириш орқали ривожланиш даражасига мослаштирилган тақдирдагина ривожланиши мумкин;

- эришилган даражадан чиқиш зарурати ҳар бир тингловчи учун ушбу даражани аниқлаш талабини келтириб чиқаради. Бундай ўрганишни таълимни индивидуаллаштиришнинг зарурий шarti сифатида кўриб чиқиш керак;

- индивидуаллаштириш нафақат ривожланишнинг бошланғич нуқтаси сифатида зарур, балки эҳтиёж бутун ўқиш даврида сақланиб қолади;

- қобилиятларни ривожлантириш мазмуни жиҳатидан оптимал қийинчиликка эга бўлиши ва ақлий меҳнатнинг оқилона кўникмаларини шакллантириши керак бўлган вазифаларни ишлаб чиқадиган махсус воситаларни ўз ичига олади. Демак, индивидуал таълим учун тегишли ўқув воситаларига эҳтиёж келиб чиқади;

- замонавий шароитда индивидуаллаштириш таълим мақсади сифатида тобора кўпроқ тушунилмоқда, бу шунингдек, шахс билан бир қаторда индивидуалликни ривожлантириш, тингловчининг ўзига хослигини, бажарувчи, яратувчи сифатида кадр-қимматини англаш учун шароит яратишни ўз ичига олади;

- ўқув жараёнини индивидуаллаштириш йўллари аста-секин ўзига хос усуллардан, методик воситалардан, фаолиятдан атроф-муҳит, ўқитувчи билан шахсий алоқа ва бошқалар томонидан шакллантириладиган бундай яхлит шарт-шароитларни ташкил этишга ўтмоқда, бу эса турли хил индивидуаллаштириш ғоясига асосланган педагогик омиллар фаолиятнинг бўйсунуши, тузилишини тақлиф қилади.

Шундай қилиб, таълим жараёнини индивидуаллаштириш биз томонидан таълим жараёнининг барча таркибий қисмларида тингловчиларнинг индивидуал типологик хусусиятларини ҳисобга олишнинг психологик-педагогик муаммоси сифатида тушунилади.

Мавжуд ўқув ишини индивидуаллаштириш тажрибасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, шахснинг қайси хусусиятлари эътиборга олинишига асосланиб, икки хил индивидуал ёндашувни ажратиш кўрсатиш мумкин:

- тингловчининг турли хусусиятлари комплексини ҳисобга олиш;

- ҳар қандай ўзига хос хусусиятни ҳисобга олиш.

Ушбу муаммони ўрганувчи олимларнинг аксарият ишлари уни билим, кўникма, қобилият ва когнитив қобилият даражаси устунлик қиладиган шундай хусусиятлар мажмуасига асосланиб ҳал қилишга асосланган. Масалан, Е.С.Рабунский асосан тингловчиларнинг учта хусусиятидан келиб чиқди:

- ўзлаштириш даражаси;

- билиш мустақиллиги даражаси;

- ўрганишга қизиқишнинг ҳақиқийлик даражаси [7].

Информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантиришда таълимни индивидуаллаштириш ўрганиш қобилияти ва меҳнат қобилиятини ўз ичига олади, шу билан бирга у умуман тингловчи шахсини - унинг қизиқиши, ўқишга муносабати, ҳиссий ва иродавий фазилатларини ҳисобга олиш керак бўлади.

Бизнинг фикримизча, профессионал таълимда малака ошириш тизимида информатика ўқитувчиларида узлуксиз касбий тайёргарликни комплекс ривожлантиришнинг методик тизимини такомиллаштириш бўйича ишларни индивидуаллаштиришда биринчи навбатда ва барча тингловчилар нуқтаи назаридан эътиборга олиниши керак бўлган хусусиятларини танлашда қуйидаги мезонлардан келиб чиқиш керак:

- ўқув жараёнининг сифати кўпроқ боғлиқ (масалан, ақлий ривожланиш) бўлган;

- бир хил нуфуздаги ўқитувчиларнинг ўртача кўрсаткичларига нисбатан ўзгарувчанлиги юкори бўлган;

- таълимнинг мақсади тингловчилар ўртасидаги фарқларни шакллантириш бўлган ва тингловчи шахсини шакллантириш учун асос бўладиган (масалан, қизиқишлар).

Интизом, мулоқот, темперамент, шахснинг психофизик хусусиятлари каби хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ташкилий характернинг тўртинчи мезони ҳам мавжуд.

1-расмда ўқув жараёнининг муваффақиятига таъсир қилувчи сифат, ўзгарувчанлик, мақсадлар ва ташкилотнинг ички ва ташқи мезонлари кўрсатилган.



1-расм. Таълим самарадорлиги мезонлари

Куйида ўқув ишларини индивидуаллаштириш ва бу хусусиятларни диагностика қилишда биринчи навбатда эътиборга олинishi керак бўлган хусусиятларни кўриб чиқамиз.

Аввало, буларга тингловчиларнинг шахсий хусусиятлари киради, уларнинг ўзгарувчанлиги тингловчилар гуруҳида айниқса юқори. Иш тажрибаси шуни кўрсатадики, ҳар йили тингловчилар ўртасида информатика фанидан дастлабки билим даражасида фарқлар ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Тингловчиларнинг салмоқли қисми компьютерда яхши билимга эга, фан бўйича кўшимча билимларни таълим муассасаси доирасидан ташқарида ўзлаштиради, шунинг учун уларга таълим муассасасида таклиф этилаётган дастур кўпинча уларнинг билим эҳтиёжларига жавоб бермайди. Уларга нимани ўргатиш ва фан бўйича билимларини қандай баҳолаш керак деган савол туғилади.

Кейинчалик, бу шахснинг мураккаб хусусиятини - **тингловчининг ақлий ривожланиш даражаси**, яъни қисқа вақт ичида ўзлаштиришнинг юқори даражасига эришиш қобилиятини ўз ичига олади. Ўқиш қобилиятини аниқлаш мезонлари ўзлаштириш тезлиги, фикрлаш жараёнининг мослашувчанлиги ва тафаккурда ўзига хос ва мавҳум компонентларнинг боғланиши ҳисобланади.

Ақлий ривожланишни диагностика қилишнинг асосий методларидан бири тест методи, яъни тингловчиларга ўқув материали билан боғлиқ бўлмаган вазифаларни тақдим этиш ҳисобланади. Уларни амалга ошириш турли билиш жараёнларининг иштирокини талаб қилади. Таклиф этилган топшириқларнинг сифатига кўра тингловчиларнинг ақлий қобилиятлари аниқланади.

Тингловчини ўқув фаолиятига рағбатлантирадиган бошқа омиллар орасида энг муҳими **ўқув мотивацияси** бўлиб, у тингловчи ўқув фаолиятининг турли томонларига йўналтирилганлиги сифатида аниқланади. Бу мотивация соҳасида тингловчиларнинг индивидуал хусусиятларини: билишга қизиқишлар, ўз-ўзини тарбиялаш мотивлари ва ижтимоий мотивларни ҳисобга олиш зарурлигини англатади. Индивидуаллаштириш нуқтаи назаридан, бу мажмуадан “шахс фаолиятининг кучли рағбатлантирувчиси” бўлган манфаатлар ажралиб туради [12].

Билишга қизиқиш:

- 1) таълим воситаси бўлиши мумкин;
- 2) мотив сифатида ҳаракат қилади;
- 3) юқори даражада шахснинг ўзига хослигига айланади.

Қизиқишлар индивидуал хусусиятга эга. Бу сифат қизиқиш тушунчасида мавжуд. Билишга қизиқишларни ўрганиш учун энг кенг тарқалган методлар кузатиш, суҳбат ва анкета ҳисобланади.

Билимни диагностика қилиш орқали қизиқишларни ўрганиш мумкин. Шу билан бирга, улар ҳар қандай билим соҳасига қизиққан тингловчи бу ерда нисбатан кўпроқ билимга эга бўлади. Масалан, олдинги билимларнинг диагностикаси қизиқишларни ўрганиш учун ҳам ишлатилиши мумкин [9].

Тингловчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш зарурати буларнинг барчасини ташкилий жиҳатдан қандай қилиш мумкин деган савол туғдиради. Замонавий умумтаълим мактаблари ва касб-хунар лицейларида бир ўқитувчи бир вақтнинг ўзиде катта гуруҳ тингловчилари билан ишлайди, бу таълимни индивидуаллаштиришнинг асосий муаммосидир. Замонавий таълим учун оммавий таълим ва индивидуал шахсларнинг эҳтиёжлари ўртасидаги қарама-қаршилик характерлидир. Қуйида таълим ишларини индивидуаллаштиришнинг ташкилий имкониятлари ҳақида қисқача маълумот берилган. Бунинг учун ўзимизда ва чет элда кўплаб индивидуаллаштириш вариантлари амалда қўлланилган:

- 1) таълимни табақалаштириш;
- 2) очиқ таълим;
- 3) таълимни гуруҳ ичида индивидуаллаштириш [9].

Таълимнинг табақалаштириш деганда тингловчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда индивидуал таълим учун ҳар қандай хусусиятлар асосида гуруҳларга бўлинган шакл тушунилади [3]. Қоида тариқасида, “табақалаштириш” тушунчаси кенгрок маънода қўлланилади: таълим мазмунини шакллантириш ва ўқув ишини ташкил этишда табақалаштириш ёши, жинси, худудий иқтисодий, миллий, касбий ва бошқа хусусиятларига кўра содир бўлади.

Очиқ таълим муаммоси бугунги кунда бутун дунёда долзарбдир, чунки у индивидуаллаштиришнинг асосий мақсади бўлган ҳар бир тингловчининг индивидуал шахсини шакллантириш ва сақлаш учун яхши имкониятларни англатади. Очиқ таълимнинг умумий сифати шундаки, таълим бу ерда қатъий тартибга солинган доиралар билан чекланмайди, у ўқитувчи ёки тингловчининг хоҳишига кўра тўлдирилади ва ўзгартирилади, яъни уларда тингловчи назорат объектдан ўз фаолиятини бошқариш субъектига айланиши мумкин бўлган танлаш эркинлиги қолади. Очиқ таълим таълим мазмунини, унинг шакллари ва методларини қамраб олиши мумкин, бундан ташқари, у таълимнинг ижтимоий томони билан боғлиқ бўлиши мумкин: очиқ таълим билан тингловчилар биргаликда ҳаракат қилишлари ва ўз фаолиятини эркин режалаштиришлари мумкин.

Касб-хунар мактабида очиқ таълим қуйидаги ҳолларда амалга оширилади:

- факультатив ва муқобил фанларни ўрганишда;
- ўқув ишининг турли шаклларида (уй вазибалари, кутубхонада мустақил ишлаш, устахона ёки синф хонаси, техник воситалар ёки компьютерлар билан ишлаш, танловлар ва мусобақалар доирасидаги синфдан ташқари машғулотлар);
- ўқитувчи фаолиятидаги тартибга солишни қисқартиришда ва бошқалар.

Барча ўқув ишларининг очиқлик даражаси юқори даражада халқ таълимининг бошқарув органлари томонидан, қуйи даражада эса таълим муассасаси маъмурияти ва ўқитувчи томонидан тартибга солинади.

Гуруҳ ичида индивидуаллаштириш зарурати қанчалик долзарб бўлса, гуруҳ таркиби турлича бўлиб, индивидуаллаштириш объекти бўлиб хизмат қилади. Бундай гуруҳда индивидуаллаштириш синф ишининг учта: фронтал, гуруҳ ва индивидуал шаклида содир бўлиши мумкин.

Хорижий педагогикада назарий таълим жараёни фронтал ишда индивидуаллаштиришнинг асосий имконияти сифатида ўқитувчининг қатъий раҳбарлиги остида ўтказиладиган ва маълум бир дарс мавзуси билан боғлиқ бўлган ёки унинг мавзуси дастур ўқув материали билан қисман боғлиқ бўлган эркин ўқув суҳбати шаклида ўтказилади. Суҳбатда тингловчиларга шахсий тажрибалари ва қизиқишлари билан боғлиқ ўз фикрларини эркин ифодалаш имконияти берилади.

Гуруҳ иши индивидуаллаштириш учун бир қатор имкониятларни ҳам тақдим этади. Кичик гуруҳда тингловчи ўзининг индивидуал хусусиятларига мувофиқ ҳаракат қилиш қобилияти нуқтаи назаридан бутун синф билан фронтал ишладан кўра қулайроқ шароитда бўлади. Кичик гуруҳ ичида у ўз қизиқиши ва қобилиятига мос равишда ўқув ва амалий муаммоларни ҳал қилишда фаол иштирок эта олади. Маълум бир тарзда тузилган гуруҳлар индивидуаллаштириш учун қулай имкониятдир. Бу, биринчи навбатда, тингловчиларнинг ривожланиш даражасидан келиб чиққан ҳолда ўқитувчи томонидан тузиладиган гуруҳларни ўз ичига олади. Бундай ҳолларда кучлироқ гуруҳга қийинроқ, заифроқ гуруҳга эса осонроқ топшириқлар берилади. Гуруҳ тингловчиларнинг хоҳишларига кўра тузилиши ҳам мумкин. Бунда қизиқишлари, иш услуби ва дўстона муносабатларга эга бўлган тингловчилар биргаликда ишлайди. Бундай гуруҳда ишлаш шахсий сифатларнинг намоён бўлиши учун айниқса қулай шарт-шароитларни яратади.

Бироқ, гуруҳ иши амалиётда жуда камдан-кам қўлланилади, чунки кўпчилик фанлар учун гуруҳ ишининг методикаси ишлаб чиқилмаган.

**Хулоса.** Таълимни индивидуаллаштиришнинг энг кенг имкониятлари - бу яқка тартибда ва индивидуал суръатда амалга ошириладиган индивидуал мустақил ишлардир. Бу ерда индивидуаллаштириш тингловчиларга бир хил топшириқлар эмас, балки тингловчиларнинг индивидуал хусусиятларига қараб ўзгариб турадиган топшириқлар, шунингдек, синф ичидаги тингловчиларни турли мезонлар бўйича гуруҳлаш йўли билан амалга оширилади. Демак, вазифаларни белгилашда улар материалнинг миқдори, вазифани шакллантиришдаги мавхумлик даражаси, ҳал қилиш йўли ва унинг мустақиллик даражаси каби мезонларга кўра фарқланиши керак.

#### Адабиётлар:

1. Беляева А.П. Дидактические принципы профессиональной подготовки в профтехучилищ; ах: метод, пособие / А.П. Беляева. - М.: Высш. шк., 1991. - 208 с.
2. Долгоруков, А. М. Метод case-study как современная технология профессионально ориентированного обучения [Электронный ресурс]. — URL: <https://evolkov.net/case/case.study.html> (дата обращения 29.01.2021).
3. Мелехин В.А. Дифференциация и индивидуализация содержания и 168 процесса теоретического обучения по специальным предметам с использованием компьютерных профессионально-педагогических технологий / В.А. Мелехин; под ред. А.П. Беляевой.- СПб.: Ин-т профтехобразования, 2002. - 85 с.
4. Менчинская Н.А. Проблемы учения и умственного развития школьника / П.А. Менчинская. - М.: Педагогика, 1989. - 219 с.
5. Мерлин В.С. Очерк интегрального исследования индивидуальности / В.С. Мерлин. - М., 1986. - 256 с.
6. Основы менеджмента. Полное руководство по кейс-технологиям / А. П. Панфилова, Л. А. Громова, И. А. Богачек, В. А. Абчук; под ред. проф. В. П. Соломина. — СПб.: Питер, 2004. — 206 с.
7. Рабунский Е.С. Индивидуальный подход в процессе обучения школьников: (на основе анализа их самостоятельной учебной деятельности) / Е.С. Рабунский. -М. : Педагогика, 1975. - 184 с
8. Скаткин М.Н. Активизация познавательной деятельности учащихся в обучении / М.П. Скаткин.- М.: Педагогика, 1965. - 112 с.
9. Унт И. Индивидуализация и дифференциация обучения / И. Унт. - М.: Педагогика, 1990.- 192 с.
10. Чуланова, О. Л. Секондмент как эффективная технология обучения персонала [Электронный ресурс] / О. Л. Чуланова, Д. В. Веретельник // Мир науки. - 2014. - № 4. - URL: <http://mir-nauki.com/PDF/38EMN414.pdf> (дата обращения 30.01.2021).
11. Чуланова, О. Л. Возможности и риски наставничества и баддинга как методов обучения и развития персонала / О. Л. Чуланова // Материалы Афанасьевских чтений. — 2018. — № 1 (22). — С. 37—48.
12. Щукина Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе: учеб. пособие для пед. ин-тов / Г.И. Щукина. - М.: Просвещение, 1970.-160 с.
13. Ярушева, С. А. Современные направления развития человеческих ресурсов через повышение квалификации кадров / С. А. Ярушева, К. П. Санатина // Управление будущим в контуре экономической и социальной реальности: сб. ст. участников Междунар. науч.-практ. конф. Челябинск, 11 апр. 2019 г.) / под общ. ред. Е. П. Велихова; отв. за выпуск Е. А. Колесник. — Челябинск: Изд-во Челяб. гос. ун-та, 2019.

## ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНДА ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМЛИГИ

*Хайдарова Хилола Газикуловна,  
Тошкент шаҳар 2-сонли руҳий асаб  
касалликлари диспансери психологи*

*Ушбу мақола педагогик жараёнда психологик саломатликни таъминлашда шахснинг ижтимоий-психологик хусусиятларини шаклланиши, ривожланиши ва такомиллашувига бағишланган. Бунда асосий эътибор, суицидал мойилликнинг олдини олувчи шахс хусусиятларига қаратилди.*

**Калит сўзлар:** психологик саломатлик, педагогик маҳорат, шахс эҳтиёжлари, суицид, суицидал мойиллик, шахс хусусиятлари.

## ВАЖНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

*Данная статья посвящена формированию, развитию и совершенствованию социально-психологических характеристик личности в педагогическом процессе. Основное внимание уделялось личностным качествам, предотвращающим суицидальные тенденции.*

**Ключевые слова:** психологическое здоровье, педагогическое мастерство, личностные потребности, суицид, суицидальные тенденции, особенности личности.

## THE IMPORTANCE OF ENSURING PSYCHOLOGICAL HEALTH IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

*This article is about formation, development and improvement of socio-psychological characteristics and pedagogical processes. The main focus was on personality traits that prevent suicidal tendencies.*

**Keywords:** psychological health, pedagogical mastery, personality needs, suicide, suicidal tendencies, personality traits.

**Кириш.** Жамиятимизда амалга оширилаётган барча соҳалардаги ҳар қандай ислоҳотлар, аввало инсон учун, унинг ҳаётини фаровон этиш учун амалга оширилмоқда. Чунки, жамиятнинг ҳақиқий бойлиги – бу инсон ҳисобланади. Президентимиз томонидан долзарб вазифа сифатида Республикаимизнинг бугунги ва эртанги тақдири ёш авлоднинг маънавий тараққиёти, жисмоний, руҳий соғломлигига боғлиқлиги эътироф этилмоқда.

Эркин фуқаролик жамиятини ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш, инсон кадри-қиммати ва унинг қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган кенг кўламли ислоҳотларимиз янги поғонага кўтарилди[1]. Халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоши-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш мақсадимиздир[2]. Ушбу мақсад ҳар бир жамият аъзосининг зиммасида эканлигига қарамасдан, давр талабидан келиб чиқувчи ҳаётнинг табиий кескинликларида шахсда, шахслараро ижтимоий муносабатларда глобал муаммолар таъсири юзага келмоқда.

Зеро, келажак авлоднинг баркамоллигини таъминлаш асосан таълим жараёнининг самарадорлиги, сифатлилиги билан белгиланади. Таълим жараёнида ҳар бир ўқувчига алоҳида эътибор бериш, яъни унинг ижтимоий аҳволига, руҳий ҳолатига, шахсиятига, маънавиятига таъсир этишининг хавфсизлигини таъминлаш ўқувчининг психологик соғломлигига зарар етказмасликни кафолатлайди. Бунда маълум соҳа педагогининг психологиядан хабардорлиги муҳим аҳамият касб этади. Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг 1948 йилда қабул қилинган низомида сиҳат-сломатлик куйидагича таърифланади: саломатлик – бу инсоннинг нафақат бирон касаллик ва жисмоний камчиликдан холи бўлган ҳолати, балки унинг жисмоний, руҳий, ижтимоий жиҳатдан тўлиқ муваффақиятли ҳолатидир[7]. Ушбу таърифнинг кўп ҳолларда ҳаётга мос келвермаслигини ҳисобга олган ҳолда саломатликни куйидагича таърифлаймиз:



**Асосий қисм.** Шахнинг саломатлиги унинг яшаб турган турмуш шароитида меъёрий инсоний бутунлигини ва яғоналигини англашидир. Бу эса унинг психологик соғломлигини таъминлайди. Шахнинг психологик соғломлиги учун асосий омил – бу шахнинг ўзи ҳақидаги адекват (тўғри) фикри ҳамда атрофдаги нарса-ҳодисаларга нисбатан эркин фикри ҳисобланади. Ушбу омил шахнинг ўз имкониятларини эркин ва кенг қамровли намоён қилишини ҳамда шахсиятининг саломатлигини белгилайди[11].

Шахсга таълим бериш жараёнида психологик соғломликнинг бузилиши асосида девиант хулқнинг таркибий қисмлари яъни, шахнинг воқеиликка мос ҳолда субъектив ривожланмаганлиги ёки нотўғри ривожланганлиги ётади[6]. Яъни шахнинг ижтимоий-психологик адаптация (мослашиш) хусусиятининг меъёрдан огишиши билан узвий боғлиқликда келади. Масалан, бундай ҳолларни қуйидаги ҳолатларда кўриш мумкин:

- атрофдаги воқеиликни идрок этишда реализмга асосланиш (перцептив лик)нинг бузилиши - шахнинг ўзгаларга тобелигини, боғлиқлигини доимо ҳис қилиши ва ўзлигини чегаралашини;

- шахнинг атроф-муҳитга мослашиш истагининг (мотивацияга асосланганлик) бузилиши - ўз фикридан келиб чиқиб, мустақил қарор қабул қила олмаслики;

- атрофдагиларни қандай бўлса, шундайлигича “қабул қила олиш” қобилиятининг (регулятивлилик) меъёрий эмаслиги - ўз-ўзи билан бўлиб қолиш, одамовилик кабиларни юзага келтириши мумкин.

Келтирилган ушбу ҳолатлар шахсдаги ўз-ўзига бўлган баҳонинг пасайишига олиб келиб, шахсда аутоагрессияни юзага чиқаради. Аутоагрессия девиант хулқнинг шаклларида бири бўлиб, агрессиядан фарқли равишда атрофдагиларга эмас, балки ўзига-ўзи зарар етказиш мотиви билан келадиган, шахнинг ўзига йўналтирилган агрессиясидир. Аутоагрессия – шахс хулқида вербал равишда ўзини-ўзи айблаши, ҳеч нарсага яроқсизлигини таъкидлаши, ўзини ҳақоратлаши, ерга уриши кўринишида устунлик қилади. Аутоагрессив хулқ икки хил шаклда: ўз жонига қасд қилиш (суицидал хулқ) ва ўзига-ўзи шикаст етказиш (парасуицидал хулқ) кўринишида юзага келади[3].

Шахслараро муносабатларни ва ички психик жараёнларнинг бузилиши оқибати сифатида юзага келган аутоагрессия, яъни ичга йўналтирилган “мулоим агрессия” ташқи вазиятнинг осойишталигини сақласа-да, аммо бундай агрессияни бошидан ўтказувчи шахс кучли руҳий азоб исканжасида бўлиади. Ушбу психологик зиддиятнинг энг кескин, чегара ҳолатларида, шахсдаги аутоагрессия ўз хохиши билан ўлиш истагининг хаёлий уйинларида ўз аксини топади[5]. Масалан, “Агар мен ўлиб қолсам, бошқа мавжуд бўлмасам, атрофдагилар қандай аҳволга тушар экан?” каби тасаввурларни шахс ўзига безътибор бўлганларга жазо, чақирик, қасд сифатида баҳолаб, ундан қониқиши суицид хавфига олиб келиши мумкин. Шахс хаёлларининг мунтазам равишда ўз жонига қасд қилиш орқали бошқаларни жазолаш фикри билан банд бўлиши оқибатида, унинг онгида суицидал хатти-ҳаракатлар дастури тайёрланиб боради. Натижада, бошқалар учун унчалик аҳамиятга эга бўлмаган, арзимас сабаб ёки вазиятларда қутилмаган равишда ушбу дастур ишга тушиши ва суицидга олиб келиши мумкин.

Шахсни мана шундай девиант хулқдан ҳимоя қилишда педагогик маҳоратнинг роли жуда муҳимдир. Педагогнинг ўқувчиларга таълим бериш жараёнида уларнинг психологик соғломлигига алоҳида эътибор қаратиши шахнинг ижобий установкалари, ҳаётий позицияси суицидал ниятни амалга оширишига қаршилик кўрсатувчи шахсий хусусиятларни, яъни антисуицидал омилларни шакллантиради.

Суицидга мойиллик – асосан қалб изтироблари сабабли юзага келишини ҳамда бу изтиробларнинг негизини фрустратив психологик эҳтиёжлар ташкил этишини назарда тутган ҳолда, биз Э.Шнейдман[8] ишлаб чиққан психологик эҳтиёжлар сўровномасининг мослаштирилган вариантини таълим тизимидаги психологлари, педагогларига тавсия этамиз. Бунда ўқувчининг ўзини ва атроф муҳитга муносабатини баҳолашда турли эҳтиёжларнинг таъсирини ўрганиш ҳамда мақсадли тарзда савол бериш, суҳбатлашиш имкониятига эга бўлиш мумкин. Ушбу сўровномада шахнинг 20 та асосий психологик эҳтиёжлари таърифлангандир. Қуйида сўровнома келтирилмоқда:

1-жадвал.

Психологик эҳтиёжлар сўровномаси		
№	Эҳтиёжлар	балл
1	Бўйсунуш (ўз кадр-қиммати, обрўсини бўйсунуш орқали тиклаш)	
2	Муваффақият. (қийинчиликларни енгиб муваффақиятга эришиш)	
3	Мансублик, алоқадорлик. (маълум бир гуруҳ қисми бўлишни, яқинларнинг қўллаб-қувватлашини ишташ)	

4	Агрессивлик (қаршиликларни куч билан енгиш)	
5	Мустақиллик (чекловларни енгиш, бутунлай эркин бўлиш)	
6	Қарши курашиш (такрорий уринишлар билан йўқотишлар ўрнини тўлдириш)	
7	Химояланиш (танқид ёки айбловларга қарши ўзини оқлаш, ўзини-ўзи химоя қилиш)	
8	Ўрнатилган, иззат-эҳтиром (атрофдагиларни қойил қолдириш, ўзига эътибор қаратиш ва шу мақсадда намунали инсонларга тақлид қилиш)	
9	Ўстунлик қилиш (бошқаларни назорат қилиш, бошқариш, раҳбарликка интилиш)	
10	Намойишкороналик (бошқаларда ўзига нисбатан қизиқиш уйғотиш, мафтун этиш, кўнглини очиш)	
11	Хавф-хатардан қочиш (оғрик, жарохат, касаллик ва ўлимдан эҳтиётланиш, қочиш)	
12	Дахлсизлик (ўзини ва ўзининг руҳий оламини химоялаш)	
13	Ғамхўрлик қилиш (бошқаларга ёрдам бериш, юпатиш, химоялаш, таъминлаш, тарбиялаш каби)	
14	Тартиб (ўз нарсалари ва фикрларининг тартибли бўлишига интилиш)	
15	Ўз-ўзини ҳақорат, завқ-шавқ олишга интилиш	
16	Рад этиш (бошқа бир одамдан холи бўлиш, ўзидан четлатиш)	
17	Хиссиётлилик (ижобий, эстетик хис-туйғуларни бошдан кечириш, роҳатланишга интилиш)	
18	Уялиб қолишдан эҳтиётланиш, қочиш (камситилганлик ва уят ҳиссидан четланиш)	
19	Қўллаб-қувватланиш (севимли бўлиш)	
20	Тушуниш (содир бўлаётган воқеа-ходисаларнинг сабаб-оқибатларини тушуниш, бу ҳақда тўлиқ маълумот, ахборотга эга бўлиш)	

Сўровномани белгилашда синалувчилар ҳар бир эҳтиёжнинг ўзи учун аҳамиятлилик даражасига қараб, шундай балл бердиларки, натижа 100 бални ташкил этиши лозим. Диагностик маълумот ҳар бир синалувчига аҳамиятли бўлган алоҳида эҳтиёжлар кўрсаткичлари орасидаги фарқлар орқали олинади. Педагог ўз фаолиятида ушбу сўровнома натижаларидан фойдаланиши орқали, ўқувчиларнинг айнан қайси психологик эҳтиёжларига қондирилиш талаби юқори эканлигини аниқлаб, шу асосда педагогик маҳоратини оширишда фойдаланиши мумкин. Натижалар асосида ота-оналарга, педагогларга, гуруҳ раҳбарига ҳар бир ўқувчи учун индивидуал тарздаги тавсияларни бериш имкониятига эга бўлади. Бу эса ўз навбатида ҳар бир шахснинг ривожланишида кузатилиши мумкин бўлган суицидал мойилликнинг юзага келиш хавфининг олдини олишга хизмат қилади.

Суицидал мойилликни чекловчи омилларни ўрганиш мақсадида, умуман суицидал фикрга эга бўлмаган ва суицидга уринмаган шахсларнинг (Р.Кеттел, Г.Айзенк, А. Басс ва И. Дарк методикалар ёрдамида) ижтимоий-психологик хусусиятлари психологик сўровномалар орқали ўрганилди[10]. Тадқиқотлар натижасида олинган эмпирик маълумотларни факторли таҳлил этиш асосида қуйидаги етакчи антисуицидал омиллар ҳосил бўлди (1-жадвал):

2-жадвал.

**Назорат гуруҳидаги шахсиятидаги етакчи омиллар**

№	Факторлар	қиймат
1	иродалилиқ	0,842
2	мулоқатмандлик	0,814
3	меъёридаги хиссиётлилик	0,579
4	воқеиликка ижобий муносабат	0,558
5	ижобий йўналган мустақил фикрлилик	0,548
6	ташаббускорлик	0,514
7	эмоционал барқарор экстровеертлик	0,488
8	қатъиятлилик	0,487

9	меъёрий ижтимоийлашув	0,470
10	суицидал мойилликларни ифодалашдаги журъатсизлик	0,431

Ушбу натижалар шахс суицидал мойиллигининг чекланишига таъсир этувчи турли ижтимоий-психологик хусусиятларни ажратишимизга имкон бермоқда. Унга кўра:

-эмоционал етуклик, хулқ-атвор ва ҳиссиётларни яхши назорат қила олиш - иродаликни таъминлашни;

-атрофдагилар билан ўзаро қўллаб-қувватланиш жараёнига асосланган мулоқатмандлик - ҳаётга бўлган иштиёқни рағбатлантиришни;

-таъсирчанликнинг эҳтиёткорлик, стрессларга чидамлик, мантиқий фикр юритиш билан биргаликда ифодаланиши - ҳиссиётликни меъёрида бўлишига хизмат қилишни;

-ўзига бўлган ишонч, меъёрий агрессия (жисмоний, вербал шаклдаги) ва воқеиликка нисбатан ижобий муносабатнинг узвийлиги – оптимизм ва фаолликни таъминлашни;

-шахсий ташаббус, мустақил фикрга таяниб, муваффақиятга қатъият билан интилиш, доимо ҳаракатда бўлиш, муаммоларга танқидий ёндошиш, муаммолар юзага келтирадиган мавҳумликларга нисбатан чидамликнинг омили бўлиши мумкинлигини;

-зиддиятларда, муаммоларда теварак-атрофдаги одамларни айбламаслик, ташқи ҳодисаларга йўналишнинг ижтимоий шартларга асосланганлиги - меъёрий ижтимоийлашувга хизмат қилишни;

- муваффақият томон эҳтиёткорлик, қатъият билан ҳаракатланиш, интилиш, суицидал мойилликка сабаб бўлувчи салбий ҳолатларни олдини олишни таъминлаши мумкинлигини;

-мустақил, танқидий фикрлик – глобал ахборот оқимларидаги (интернет сайтлари, оқимлар, кинофильм сюжетларидаги) очик ёки яширин тарзда ифодаланаётган суицидал даъватлар таъсирга берилиш кўринишидаги суицидал хавфдан ҳимоя қилишни;

-ижодий тафаккур, бой тасаввур, ўз оламига йўналганлик ҳамда хавф-хатар эҳтимолига юқори сезувчанликнинг бирга келиши - аутизм ҳолатида юзага келувчи суицидал мойилликларни ифодалашни чеклаши мумкинлигини кўрсатмоқда.

Таълим босқичларида амалга оширилаётган таълим-тарбия жараёнида педагогнинг ушбу таҳлилни назарда тутган ҳолда ўқувчи шахсига ёндошуви, унинг педагогик маҳоратига хизмат қилиб, ўқувчи, талабанинг психологик соғломлигига зарар етказмаслиги, таълим-тарбия жараёнида таъсир этишининг хавфсизлигини таъминлашни, ўқувчи шахсида жисмоний, психик, интеллектуал ва руҳий, маънавий кучларни тўплашга ёрдам беради. Уларнинг ўз ички қарама-қаршилигини англаши ва ундан чиқишни таъминловчи, ҳаётини юқори, фаол шаклини намоён қилувчи хусусиятларни уйғота олишга таъсир эта олади.

**Хулосалар.** Фикримизча, таълим тизимида педагогнинг маҳорати асосида шахсда маъсулият ва бурч ҳиссининг ривожланганлиги; ҳали фойдаланилмаган ҳаётимқониятларига ишончи; ҳаётимқоний, ижодий, оилавий ва бошқа режаларининг мавжудлиги; психологик мослашувчанлик; стрессларга чидамлиги; руҳий тушкунлик ва салбий кечинмалардан қутилишда шахсий усулларга эга бўлиши; долзарб қадрият ва мақсадларнинг мавжудлиги, ҳаётга қизиқишнинг ортиши; ўзининг яқин келажагини режалаштириш кабилар, унинг ҳаётдаги ҳар қандай кескин, инқирозли ҳолатларда психологик соғломликни сақлаб, суицидал мойилликларсиз, муваффақиятли ўтишига хизмат қилади.

Хулосаларга асосан қуйидаги **таклифлар** киритилади:

**Оилада.**

- шахсни салбий фикрлари билан ёлғиз ташлаб қўймаслик;
- шахсни тушуниш ва ҳамдард бўла олиш;
- шахсда ўз кучи ва имқониятларига ишончни орттиришга ёрдам бериш;
- умид ва оптимистик кайфиятни барқарорлаштириш;
- шахслараро муносабатларни таҳлил қилиш ва коррекциялаш.

**Таълим-тарбия тизимида.**

- шахслараро муносабатни эмоционал яқинлик асосида, шахс чегараларини бузмаган ҳолда ўрнатиш малакаларини тарбия дарсликларида, синф соати дастурларига киритиш;
- мустақил фикрлашни рағбатлантириш, мустақил қарор қабул қилиш, маъсулиятликни мустаҳкамлаш малакаларини шакллантириш;
- оилада, мактабгача таълим тизимидан бошлаб болада ўз кадр-қимматини адекват баҳолашлари учун шароит яратиш, яъни тарбиявий жараёнда ҳар бир ишда бенуқсонликни талаб қилмасдан, ўз камчиликларни адекват қабул қилишга ва такомиллаштиришга ўргатиш;
- шахс томонидан авторитет, референт гуруҳ сифатида қабул қилинганларнинг эмоционал далда бера олиш, маъсулиятлик, бурч ҳиссининг етуклиги малакаларини шакллантириш орқали,

шахсда ўз ҳтссиётларини бошқариш кўникмаларини ҳосил қилишга, ташқи вазиятлар таъсиридаги ожиз шахс бўлиб эмас, балки ҳар қандай муаммони қабул қилиш, ҳал этиш қобилиятига эга, маъсулиятли, мустақил шахс сифатида шахсий намуна кўрсатиш;

- шахсни ўз мақсади, кадриятлари, қизиқишларига, қарашларига, мустақил фикрга эга бўлишга (шахсий ғоялари, кадриятларини сингдирмаган ҳолда) тўғри йўналтириш.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққити ва халқ фаровонлиги гарови. Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -16 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон. Б.53.

3. Амбурова А.Г., Тихоненко В.А. Диагностика суицидального поведения метод, рекомендации. М., 1980;

4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Питер, 2001. 288с.

5. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Избранные психологические труды/Под ред. Д.И. Фельдштейна: Вступительная статья Д.И. Фельдштейна. -3-е изд. -М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: НПО “МОДЭК”, 2001.-352. (Серия “Психологи отечества”.)

6. Гоголева А.В. Аддиктивное поведение и его профилактика – 2-е изд., стер. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЕК», 2003.;

7. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг 2020 йил маълумотлари. “Саломатлик калити журнали” Тошкент 2020.

8. Малкина-Пых И.Г. Экстремальные ситуации. (Справочник практического психолога). – М.: Изд-во Эксмо, 2005. – С. 678-727.

9. Практическая психология образования: учебное пособие / под ред. И.В. Дубровиной. – 4-е изд. – Санкт Петербург: Питер, 2004. -592 с.

## ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ЛОЙИХАЛАШ КОНСТРУКТОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Химматалиев Дўстназар Омонович,  
Чирчиқ давлат педагогика университети,  
педагогика фанлари доктори, профессор*

*Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш аниқ белгиланган чегараларга эга эмас, чунки у мураккаб тушунчадир. У математика, география, биология, физика, иқтисод ва бошқа ҳар қандай фан билан бирлаштирилиши мумкин, бу ҳам асосий, ҳам истиқболли мета-фанлар билан интеграциялаш имконини беради.*

*Мақолада интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш модели, шунингдек касбий компетенцияларнинг таркибий қисмлари ёритиб берилган.*

*Калит сўзлар:* ўқув предмети, интеграция, босқич, технология, компетенция, билим, қобилият, кўникма, қобилият, тайёрлик.

## ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

*Развитие проектно-строительных компетенций студентов на основе интегративного подхода не имеет четко определенных границ, так как представляет собой комплексное понятие. Его можно интегрировать с математикой, географией, биологией, физикой, экономикой и любой другой дисциплиной, обеспечивая интеграцию как с фундаментальными, так и с перспективными метанауками.*

*В статье описана модель развития проектно-строительных компетенций студентов на основе интегративного подхода, а также компоненты профессиональных компетенций.*

*Ключевые слова.* предмет, интеграция, этап, технология, компетентность, знание, умение, умение, возможность, готовность.

## ISSUES OF DEVELOPMENT OF DESIGN AND CONSTRUCTION COMPETENCIES OF STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

*The development of design and construction competencies of students based on an integrative approach does not have clearly defined boundaries, since it is a complex concept. It can be integrated with mathematics, geography, biology, physics, economics and any other discipline, providing integration with both basic and advanced metasciences.*

*The article describes a model for the development of design and construction competencies of students based on an integrative approach, as well as components of professional competencies.*

*Keywords.* subject, integration, stage, technology, competence, knowledge, skill, opportunity, readiness.

**Қириш.** Замоनावий таълимнинг асосий вазифаларидан бири таълимнинг янги, замоनावий сифатига эришишдир. Таълимнинг янги сифати деганда талаба шахси, унинг билим ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга қаратилганлиги тушунилади. Олий таълим муассасаларида талабаларнинг билимлари, қобилиятлари, малакалари ҳамда мустақил фаолият тажрибаси ва шахсий масъулиятининг янги тизимини, яъни замоनावий асосий компетенциялари шакллантирилиши керак.

С.А.Татьяненокнинг [11] тадқиқотларида, бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини шакллантириш, муҳандислик фаолиятининг тузилиши, асосий хусусиятлари ва таърифлари таҳлил қилинган. Ушбу таҳлил асосида у “муҳандислик фаолияти” тушунчасининг умумлаштирилган тузилмавий схемасини қуради, унинг асосий элементлари куйидагилар:

- техник тараққиёт мақсадида ишлаб чиқариш, ижодий фаолият эҳтиёжларини аниқлаш;
- лойиҳалаш-конструкторлик, техник, муҳандислик вазифаларини ҳал қилиш;
- муҳандислик тадқиқотлари, лойиҳалаш, конструкциялаш;
- техник тизимларни (ишлаб чиқаришни) тартибга солиш ва ишлатиш фаолияти;

- муҳандисдан тизимли ёндашувни талаб қиладиган инновацион муҳандислик фаолияти.

В.Г.Горохов [5]нинг таъкидлашича, ҳозирги босқичдаги муҳандислик фаолияти ижтимоий, гуманитар, табиий ва техник фанларнинг бутун мажмуаси жалб қилинадиган мураккаб илмий-техник муаммоларни ҳал қилишда тизимли ёндашув билан тавсифланади. Лойиҳалаш маданиятининг янги шакллари, замонавий муҳандислик фаолиятининг тизимли ва методологик йўналишларини ривожлантириш, экологик, биотехнологик ва ижтимоий муаммоларни лойиҳалаш ва унинг тегишли соҳаларга кенгайтириш билан боғлиқ анъанавий муҳандислик тафаккурининг инқирози туфайли воқеликни билиш ва ривожлантиришнинг гуманитар методларига киришига олиб келади. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, олимлар этикаси, илмий ва муҳандислик фаолиятининг қайтариб бўлмайдиган ижтимоий оқибатларини башорат қилиш - замонавий олим ва муҳандиснинг анъанавий иш ва тафаккур услубини қайта қуришни талаб қилади. Ушбу қайта қуриш “мураккаб объектларни ўрганиш ва лойиҳалашда кенгрок, тизимли ёндашувни ишлаб чиқиш билан боғлиқ бўлиб, унинг асосий талаби илмий ва муҳандислик фаолиятининг турли хил омиллари ва оқибатларини ҳисобга олиш зарурати ҳисобланади” [5].

М.Вражнова [4] таъкидлаганидек, ишлаб чиқариш ва қўлланиладиган технологияларнинг мураккаблашиши муқаррар равишда асосан лойиҳалаш ёки муҳандислик тадқиқотлари, ёки ишлаб чиқариш ва тайёрлаш технологиясини ташкил этиш соҳасида ишловчи муҳандисларнинг ихтисослашувига олиб келади. Бироқ, “муҳандислик фаолиятининг турли соҳалари ва турлари тараккий этиши бўйича фарқланиши билан бирга, унинг интеграцияси кучайиб боради. Уни амалга ошириш учун махсус мутахассислар - муҳандислар - тизим техниклари керак” [4]. Муаллиф иқтисодий рақобатбардошлигининг шартли сифатида инновацион фаолиятни ривожлантириш зарурлигига эътибор қаратади. Ушбу тезисни кўприк қурилиши соҳасига қўллайдиган бўлсак, технология, янги тизимлар ва кўприк лойиҳалари соҳасида тўпланган ютуқлардан фойдаланган ҳолда корхона қурилиш бозори эҳтиёжларини доимий равишда қузатиб бориши, ўз қурилиш объектлари сифатини юқори бўлишини таъминлаши, ўз ишлаб чиқариш соҳасида етакчи бўлишга ҳаракат қилиши керак.

**Методика.** Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш муаммоларини кўриб чиққан муаллифларнинг ишларида юқоридаги барча хусусиятлар билан бир қаторда талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш масаласига хос бўлган хусусиятлар тавсифланади. Бундан ташқари, шуни таъкидлаш керакки, интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш бу масалани кўплаб ташкилотлар билан мувофиқлаштиришни талаб қилади. Талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш келажакда объектни лойиҳалаш ва қуриш билан шуғулланадиган талабаларнинг компетентликларини оширишни талаб қилади.

Кўпаб педагоглар ва психологлар олий таълим муассасаларида ўқиш жараёнида малакали рақобатбардош мутахассисни тайёрлаш муаммосини ҳал қилишни *касбий компетентликни* шакллантириш билан боғлашади. *Компетентли ёндашув* ривожланишининг бошланиши ўтган асрнинг 90-йилларига тўғри келади, бунда “компетентлик” феномени бўйича биринчи илмий (диссертация) тадқиқотлар олиб борилган [писарева]. “Компетентлик” тушунчасининг таърифи, компетентликни шакллантириш ёки ривожлантириш тузилмаси ва механизмларини аниқлаш кўплаб ўқитувчилар ва психологлар томонидан ўрганилган.

“Компетентлик” тушунчаси “компетенция” (лотинча *competo* - эришаман; мос келаман, яқинлашаман) сўзидан олинган бўлиб, Катта энциклопедик луғатда қуйидагича таъриф берилган: 1) муайян орган ёки шахснинг қонун, низом ёки бошқа ҳужжатларда кўрсатилган ваколатлари, 2) маълум бир соҳадаги билим, тажриба [20]. “Компетентли” сўзи 1) билимдон, тушунчага эга, обрўли, 2) компетенцияларга эга (ваколатли) маъноларини билдиради. Бироқ, ушбу атамаларни мутахассиснинг касбий фаолиятга тайёрлиги мезонини аниқлашда ишлатадиган олимлар ўз тадқиқотларида уларни турли усулда изоҳлайдилар, масалан:

С.Е.Шишов ва И.Г.Агаповлар: “*Компетенция* деганда биз шахснинг ўқув-билиш жараёнида мустақил иштирок этишига йўналтирилган, шунингдек, уни меҳнат фаолиятига муваффақиятли киритишга қаратилган, таълим орқали олинган билим ва тажрибага асосланган умумий қобилияти ва фаолиятга тайёрлигини тушунамиз. ...*Компетенция* бир вақтнинг ўзида муайян фаолият шароитига мослаштирилган билим, кўникма ва хулқ-атвор муносабатларини сафарбар қилишни чамбарчас боғлайди” [13];

В.А.Козырев, Н.Ф.Радионова, А.П.Тряпицына: “Таълимни модернизация қилиш шароитида сифатнинг интеграл кўрсаткичи *мутахассиснинг* маълум миқдордаги билим ва кўникмалар билан

белгилашмайдиган, балки шахсининг олган билим ва тажрибасини муайян вазиятда сафарбар қилиш қобилиятини тавсифловчи *компетентлиги* деб ҳисобланиши мумкин. ...*Махсус компетенция* етарлича юқори даражада шахсий касбий фаолиятга эга бўлишни, ўзининг кейинги касбий ривожланишини лойиҳалаш қобилиятини назарда тутати” [7].

А.В.Хуторский *компетенция*ни таълим олувчини тайёрлаш учун берилган талаб (меъёр), компетентликни эса “унинг мавжуд бўлган шахсий сифати (сифатлар тўплами) ва маълум бир соҳадаги фаолиятга нисбатан минимал тажрибаси” деб ҳисоблайди [12].

Ушбу масала бўйича илмий адабиётларни таҳлил қилиб, хулоса қилишимиз мумкинки, кўпчилик муаллифлар “*компетенция*” тушунчасини маълум бир лавозимни эгаллаган мутахассис эга бўлиши керак бўлган касбий қобилиятларга (кўникмаларга) қўйиладиган талаблар тўплами сифатида қарайдилар. Мутахассиснинг бир қатор касбий вазифаларни, ваколатларини юқори малакали даражада бажаришда муайян вазиятда намоён бўладиган қобилияти (маҳорати)ни *компетентлик* деб аташ мумкин.

**Натижа ва муҳокамалар.** Асосий компетенцияларга умумлаштирилган, универсал компетенциялар киради, уларни эгаллаш битирувчининг таълим даражаси, ривожланиши ва танлаган касбидан қатъи назар, кейинги ўқиши, шахсий ривожланиши, ҳаётда ўзини ўзи англаши учун зарурдир. Бошқача қилиб айтганда, компетенциялар рўйхати у ёки бу тарзда инсон фаолиятининг асосий турларининг маълум бир рўйхатини такрорлайди.

Ҳозирги вақтда асосий компетенцияларнинг мазмунини аниқлаш мезонлари ишлаб чиқилмоқда. Улар таълимни талаба шахсини ривожлантиришга йўналтириш стратегиясига асосланади.

Компетенцияга асосланган ёндашув ўқув жараёнини ва уни тушунишни бир бутунга бирлаштиришни ўз ичига олади, бунда талабанинг шахсий позицияси ва унинг фаолияти мавзусига муносабати шаклланади. Ушбу ёндашувнинг асосий ғояси шундаки, таълимнинг асосий натижаси индивидуал билим, қобилият ва кўникмалар эмас, балки инсоннинг турли хил ижтимоий аҳамиятга эга вазиятларда самарали ва самарали фаолиятга қобилияти ва тайёрлигидир. Шу муносабат билан, компетенцияга асосланган ёндашув доирасида билимларнинг оддий “ҳажмини ошириш” эмас, балки турли хил операцион тажрибаларни ўзлаштиришни таҳлил қилиш мантиқан тўғри келади. Компетенцияга асосланган ёндашувда биринчи ўринлардан бири инсоннинг жамиятда муваффақият қозонишига имкон берадиган шахсий фазилатларга берилади. Шу нуқтаи назардан, фаол, шунингдек, гуруҳ ва ҳамкорликда ўқитиш усуллариининг афзалликлари қуйидагилардан иборат:

- ижобий ўзини-ўзи ҳурмат қилиш, бағрикенглик ва эмпатияни ривожлантириш, бошқа одамлар ва уларнинг эҳтиёжларини тушуниш;
- рақобатга эмас, балки ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришга устувор аҳамият бериш;
- гуруҳ аъзолари ва уларнинг ўқитувчиларига бошқаларнинг маҳоратини тан олиш ва кадрлаш имкониятини бериш, шу орқали ўз кадр-қимматини тасдиқлаш;
- тинглаш ва мулоқот қобилиятларини ривожлантириш;
- инновация ва ижодкорликни рағбатлантириш.

Замонавий таълим муассасаларида кучайиб бораётган компетенцияга асосланган ёндашув жамиятнинг нафақат билимли, балки ўз билимларини қўллаш оладиган инсонларни тайёрлашга бўлган эҳтиёжини акс эттиради. Ушбу компетенцияларга эга бўлган талабалар турли фаолият турларининг мақсад ва воситаларини эркин ва мустақил равишда танлашлари, ўз фаолиятини бошқаришлари, шу билан бирга уларни амалга ошириш қобилиятларини такомиллаштириш ва ривожлантиришлари мумкин.

С.А.Татьяненко [11]нинг тадқиқотида “бўлажак муҳандиснинг касбий компетентлиги” тушунчасининг тузилма схемаси қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади:

- касбий фаолият: касбий фаолият турлари (илмий-тадқиқот, лойиҳалаш-конструкторлик, ташкилий-бошқарув, ишлаб чиқариш-технологик ва эксплуатация), касбий фаолият босқичлари (муҳандислик вазифасини бажариш алгоритми);
- шахсининг касбий сифатлари: физиологик, психологик, ижтимоий, ахлоқий-мотивацион-мақсадли.

Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантиришга оид психологик-педагогик тадқиқотларнинг назарий таҳлили асосида касбий компетенцияларнинг қуйидаги таркибий қисмларини ажратиш кўрсатиш мумкин:

- *билиш* компетенцияси, тизимли шаклланган касбий аҳамиятли билимлар, қурилиш мутахассислиги бўйича турли муҳандислик муаммоларини ҳал қилиш методлари, узлуксиз касбий таълим қобилиятига жавоб беради;

- *аксиологик* компетенция - мутахассиснинг касбга бўлган муносабатини қадрият сифатида тавсифловчи ва мақсадлар, шахснинг касбий фаолиятда ўзини ўзи амалга оширишдаги муваффақият мотивациясини ўз ичига олган шахсий сифати;

- *коммуникатив* компетенция, бу мутахассиснинг ўз жамоасидаги ҳамкасблари, буюртмачилар ва пудратчилар билан, лойиҳани тасдиқлаш пайтидаги (она тили ва хорижий тиллар, график тиллар ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда) касбий мулоқот қилиш қобилиятини ўз ичига олади;

- *ижтимоий-психологик* компетенция, жисмоний, психологик соғломлик, замонавий ижтимоий тажриба мавжудлиги ва маълум шароитларда ўз вақтида барча шахсий касбий компетентликларни муваффақиятли амалга оширишга ҳисса қўшишга жавобгар;

- *касбий тажриба* компетенцияси- мутахассиснинг олий таълим муассасаларида ўқишнинг биринчи кунларидан (ёки олий таълим муассасаларида ўқишдан олдин касбий тажрибага эга бўлган тақдирда, қурилиш соҳасидаги биринчи иш кунларидан) босқичма-босқич тўпланадиган барча шахсий касбий тажрибасини ўз ичига олади.

Замонавий шароитда таълимга педагогик ёндашувларнинг янгиланиши жамиятнинг меҳнат бозорида рақобатбардош, нафақат яхши билим базасига эга, балки ўз-ўзини ривожлантириш ва шахсий ривожланишга тайёр бўлган муваффақиятли шахсни шакллантириш буйруғи билан боғлиқ. Бугунги битирувчилар илм-фан ва ижтимоий амалиётнинг ҳозирги ривожланиш даражасига мос келадиган, дунёқараши яхши шаклланган бўлиши, унинг қадрият мазмуни ва ўз касбини амалга ошириш имкониятларини тушуниш асосида келажакдаги касбни онгли равишда танлаш имкониятига эга бўлиши керак. Шунинг учун ҳам шахснинг муваффақиятини белгиловчи педагогик шарт-шароитларни яратиш таълим жараёнини ташкил этишда асосий нарсага айланади.

Замонавий таълим технологияларини интеграциялаш, шунингдек, таълим жараёнига мета-предметли алоқаларни жорий этиш талабаларнинг асосий компетенцияларига эришиш воситасидир. Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантиришда бошқа ўқув фанлари билан ҳамда ўқув фаолиятига замонавий ўқитиш технологиялари, жумладан, АКТ билан интеграцияни амалга ошириш талабаларга дунёни яхлит кўриш имконини беради ва ижодий қобилиятларни ривожлантиришга ёрдам беради, талабаларда билим олишга бўлган мотивацияни оширади.

АКТ ва бошқа замонавий ўқитиш технологиялари билан интеграциялашган ҳолда таълим технологияларидан фойдаланиш нафақат таълим жараёнининг кўринишини ошириш ва талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради, балки талабаларнинг келажакдаги касбларини онгли равишда танлашга бўлган мотивациясини оширади.

Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантириш аниқ белгиланган чегараларга эга эмас, чунки у мураккаб. У математика, география, биология, физика, иқтисод ва бошқа ҳар қандай фан билан бирлаштирилиши мумкин, бу ҳам асосий, ҳам истиқболли мета-фанлар билан интеграциялаш имконини беради.

Интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантиришнинг иккита модели мавжуд:

- бир ёки бир нечта таълим йўналишларидан бир нечта фанларни ўзида мужассамлаштирган ва турли фанлар мазмунининг нисбати бир хил бўлган ва уларнинг ўзаро кириб бориши мазмунни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш имконини берадиган курс яратиш;

- тенг шартлар асосида ҳаракат қиладиган, бироқ улардан бири ўзига хослигини сақлаб қолган, қолганлари эса ёрдамчи асос бўлиб хизмат қиладиган ўзаро боғлиқ таълим соҳаларининг турли ўқув предметларининг интеграцияси.

Интеграция педагогик жараённинг турли босқичларида амалга оширилиши мумкин: мазмун даражасида, талабаларнинг фаолият соҳалари даражасида (интеграциялашган дарслар, экскурсиялар, конференциялар, лойиҳалар), замонавий педагогик технологиялар даражасида.

Интегратив дарс - бир тушунча, мавзу ёки ҳодисани ўрганишда бир вақтнинг ўзида бир нечта фанлар бўйича ўқитишни бирлаштирадиган махсус дарс туридир.

С.Г.Шербакова [14] таъкидлаганидек, ўқитувчилар интегратив ёндашувдан дарсда камдан-кам ҳолларда ва асосан қуйидаги ҳолларда фойдаланишади:

- ўқув дастурлари ва дарсликларда бир хил материалнинг такрорланиши аниқланганда;
- мавзуни ўрганиш учун вақт чегараси ва параллел фандан тайёр таркибдан фойдаланиш истаги мавжуд бўлса;



• инсон ҳаёти ва фаолиятининг турли жабҳаларини қамраб олувчи фанлараро ва умумий категорияларни (ҳаракат, вақт, ривожланиш, катталиқ ва бошқалар), қонуниятларни, тамойилларни ўрганишда;

• турли фанларда бир хил ҳодисалар, ҳодисалар, фактларни тасвирлаш ва изоҳлашда қарама-қаршилиқларни аниқлашда;

• ўрганилаётган ҳодисанинг кенгроқ намоён бўлиш соҳасини кўрсатишда, ўрганилаётган мавзу доирасидан чиқиб кетиш;

• фанни ўқитишнинг муаммоли, ривожлантирувчи методикасини яратишда.

Интегратив ёндашувни қўллашда ўзаро боғлиқ бўлган фан соҳалари бўйича билимларни янгилаш, мета-мавзули боғланишларни амалга оширишга имкон бериш, кимё фанидан маълум бир мавзунини янги ўрганиш объектлари бўйича янгиланган билимларни аниқлаштириш катта аҳамиятга эга, бу ҳолат турлича бўлиши ва талабаларнинг тайёргарлик даражасига қараб белгиланиши мумкин.

Амалий дарслар асосий компетенцияларни шакллантиришга жиддий эътибор қаратиш имконини беради. Ушбу блокда талабалар амалий муаммоларни, шу жумладан, ҳар доим ноаниқлик элементи мавжуд бўлган реал ҳаётнинг вазиятларни акс эттирувчи масалаларни ҳал қилишади.

Ҳар бир таълим предметида (таълим соҳаси) ўрганилаётган ўзаро боғланган реал объектларнинг зарур ва етарли сонини, муайян компетенцияларнинг мазмунини ташкил этувчи билим, кўникма, малака ва фаолият усулларини аниқлаш зарур. Келажак таълимга катта талабларни қўяди, шунинг учун бугунги куннинг энг муҳим вазифаси талабалар томонидан эришилган компетенцияларнинг талаб қилинадиган даражасини, шунингдек, тенгликни сақлашга имкон берадиган тегишли ўлчаш воситаси, усулларни ишлаб чиқиш, асосий компетенциялар шаклида индивидуал ютуқларга эришишга имкон берувчи муносиб таълим олиш ҳуқуқини беришдан иборат.

Таълим ва тадқиқот кўникмаларини шакллантириш, биринчи навбатда, дарсда содир бўлади. Дарс фаолиятининг мантиқий давоми бу дарсжадвалдан ташқари дарсдан ташқари ишлар (танловлар, синф ва мактабдан ташқари лойиҳа тадбирлари, илмий-амалий конференциялар)ни ўтказишдир.

Билиш фаолиятининг асосий усулларидан фойдаланиш - кузатиш, таққослаш, умумлаштириш ва бошқалар илмий-тадқиқот ишлари жараёнида талабаларнинг мантиқий тафаккури шаклланиб, сезгини ривожлантириш, билимларни тизимлаштириш, турли ахборот манбалари билан ишлашда фойдали тажриба тўплашга олиб келади.

**Хулоса** сифатида айтиш мумкинки, замонавий таълим тизимида интегратив ёндашувга уни такомиллаштиришнинг истиқболли йўналиши сифатида қаралиши мумкин. Айнан шу нарса илмий билимларни умумлаштириш, унинг мураккаблиги ва изчиллигини ошириш, талабаларнинг ахборот-когнитив, қиймат-меъёрий ва коммуникатив компетенцияларини шакллантиришга ҳисса қўшиш шартидир.

Замонавий жамият маданиятлараро ўзаро муносабат ва ҳамкорликка қодир бўлган очиқ фикрли шахсни талаб қилади. Шу сабабли, педагогик фаолиятнинг етакчи вазифаларидан бири интегратив ёндашув асосида талабаларнинг лойиҳалаш конструкторлик компетенцияларини ривожлантиришдан иборат.

#### Адабиётлар:

1. Алиев И. Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. — 55 б.

2. Баранников А.В. Содержание общего образования. Компетентностный подход - М., ГУ ВШЭ - 2002

3. Бодалев А.А. Личность и общение Избр. тр. - М., Педагогика, 1983

4. Вражнова М. Инженерная профессия сегодня// Высшее образование в России. - 2004. - №5. - С. 115 - 119.

5. Горохов В.Г. Знать, чтобы делать: История инженерной профессии и ее роль в современной культуре. - М.: Знание, 1987. - 178 с.

6. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. — Тошкент, 2017. — 230 б.

7. Козырев В.А., Радионова Н.Ф., Тряпицына А.П. Направления модернизации педагогического образования// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. - Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002. - С. 3 - 10.

8. Компетентностный подход в педагогическом образовании. Под ред. В.А. Козырева, Н.Ф. Радионовой - С Пб, 2004
9. Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. — 209 б.
10. Писарева С.А. Диссертационные исследования «компетентности» учителя и ученика// Модернизация педагогического образования в Сибири: проблемы и перспективы. Часть 1: Сборник научных статей. - Омск: Изд-во ОмГПУ, 2002.-С. 180- 190.
11. Татьянаенко С.А. Формирование профессиональной компетентности будущего инженера в процессе обучения математике в техническом вузе: Дис... канд. пед. наук. — Тобольск, 2003. - 240 с.
12. Хуторской А.В. Ключевые компетенции. Технология конструирования - М., Педагогика, 2003, №5
13. Шишов С.Е., Агапов И.Г. Компетентностный подход к образованию: прихоть или необходимость? // Стандарты и мониторинг. - 2002. - №2. -С. 58 -62.
14. Щербакова С.Г. Проблема интеграции в школе URL: <http://festival.1september.ru/articles/415794/>

## TALABALARNING AXBOROT-LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

*Hakimov Jamshid Oktamovich,*

*Toshkent davlat texnika universiteti, “Energiya mashinasozligi va professional ta’lim” kafedrasini professori*

*Ushbu maqolada hozirgi zamon axborot muhitida talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari haqida soʻz yuritiladi. Boʻlajak mutaxassislarining axborot-loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayoni quyidagi komponentlarni oʻz ichiga oladi: mazmuniy, funksional-boshqaruv, refleksiv-natijaviy.*

**Kalit soʻzlar:** kompetentlik, axloqiy-estetik gʻoyalar, ijtimoiy tajriba, nazariy holat, modullik tamoyili, axborot-loyihalash, modulli-kompetensiyaviy, elektron laboratoriya praktikumi.

### ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ДИЗАЙНСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

*В данной статье говорится о дидактических условиях развития информационно-проектной компетентности студентов в современной информационной среде. Процесс формирования информационно-проектной компетентности будущих специалистов включает в себя следующие компоненты: содержательный, функционально-управленческий, рефлексивно-результативный.*

**Ключевые слова:** компетентность, морально-эстетические идеи, социальный опыт, теоретическая ситуация, принцип модуляции, информационное проектирование, модульная компетентность, электронная лабораторная практика.

### DIDACTIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND DESIGN COMPETENCE OF STUDENTS

*This article refers to the didactic conditions for the development of information and project competence of students in the modern information environment. The process of formation of information and design competence of future specialists includes the following components: meaningful, functional and managerial, reflexive-effective.*

**Keywords:** competence, moral and aesthetic ideas, social experience, theoretical situation, modulation principle, information design, modular competence, electronic laboratory practice.

**Kirish.** Ilmiy izlanishlar, pedagogik kuzatuvlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish natijalari shuni koʻrsatadiki, talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayonida toʻgʻri tanlangan va joriy etilgan qadriyatlar tizimi axborotga tegishli munosabatni shakllantirish, axborotni qadriyat sifatida idrok qilish, Internet tarmogʻida, forumlarda, guruhlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Boʻlajak mutaxassislarni axborot-loyihalashga tayyorlash jarayonining motivatsion komponenti taʼlim oluvchining eʼtiborini zamonaviy axborot texnologiyalar rivojlanishiga oshirish va qiziqishini kuchaytirish, oʻqish motivatsiyasi uchun emotsional jihatdan qulay muhitni, kelgusidagi kasbiy-pedagogik faoliyatga motivatsiyani yaratishga tayanadi. Bu talabalarni axborot bloki fanlarini oʻzlashtirish boʻyicha oʻquv ishiga jalb qilishga yordam beradi.

Taʼlim olishda motivatsiyaning mavjudligi bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, lekin kutilayotgan natijalarga erishishini kafolatlamaydi. Taʼlim jarayonini aniq boshqarishgina didaktik jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanganligi taʼminlaydi [1].

Bundan tashqari, shuni esda tutish kerakki, talabaning axborot olamiga kirib borishi natijasida (ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, forumlarda muloqot qilish, shaxsiy blogni olib borish, saytni loyihalash va yaratish) qadriyatlari tizimida ham oʻzgarishlar yuzaga keladi, uni ham shakllantirish va tuzatish lozim.

Insonning qadriyatlari tizimi uning olamga boʻlgan munosabatining “asosidir”. Qadriyatlar – bu insonning moddiy va maʼnaviy ijtimoiy neʼmatlarga boʻlgan nisbatan barqaror, ijtimoiy jihatdan shartlangan, tanlashga asoslangan munosabatidir.

**Metodika.** Talabalarning oʻquv faoliyati muvaffaqiyatining shartlaridan biri, bu – taʼlim subyektlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni oʻrganishning

qadriyatlarini bilish, ularning kelgusidagi kasbiy-pedagogik faoliyat va real hayotiy vaziyatlari bilan muvofiqligidir. Modelning mazmuniy komponent axborot blokidagi fanlarni o‘qitishning standart mazmunini qayta qurish va unga tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi. Qayta qurish nafaqat fanlararo modulning mazmunini ishlab chiqish (axborot blokiga tegishli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda bosqichma-bosqich o‘rganish, loyihalash)ni, balki kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risidagi fanlarni bilimlarni; axborotlashtirishning pedagogik muammolari haqidagi bilimlarni; kasbiy-pedagogik faoliyatning axborot-kommunikativ komponentining nostandart masalalarini (axborotlarni izlashni asosida ularning yechimini topish mumkin), global va mahalliy tarmoqlar vositasida muloqot qilish, axborot-kasbiy hamkorlikni tashkil etish va kasbiy muammolar yechimining ilmiy-texnik hamda ijtimoiy oqibatlarini prognoz qilishni nazarda tutadi [2].

Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini ta‘limning paradigmatal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayoni modelining mazkur komponentini loyihalashdan oldin fanlararo modulni o‘rganish jarayonida o‘zlashtiriladigan ta‘lim mazmunini tanlashga nazariy yondashuvlarni aniqlab olish zarur.

Ta‘lim mazmuni deganda o‘qitish jarayonida ta‘lim oluvchilar egallashi zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek dunyoqarashga oid va axloqiy-estetik g‘oyalar tizimini tushunish lozim. Bu avlodlar ijtimoiy tajribasining bir qismi bo‘lib, insonni rivojlantirish uchun qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq ravishda tanlanadi va unga axborot ko‘rinishida uzatiladi.

Ta‘lim mazmuni qat‘iy ilmiy asosda qurilishi, faqat fanda isbotlangan faktlar va nazariy holatlarni o‘z ichiga olishi, o‘quv material fanning zamonaviy holatiga muvofiq bo‘lishi, ta‘lim oluvchilarning o‘z nuqtai-nazarini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Ta‘lim mazmuni ko‘nikmalar, malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va olamga emotsional-qadriyatlarini munosabat bilan bog‘liq bilimlarni o‘z ichiga oladi. Uning xarakteri va hajmi ta‘lim tizimining ijtimoiy buyurtmasiga ko‘ra aniqlanadi. Ta‘lim mazmuni har bir davrga xos madaniyat, falsafa va pedagogik nazariyaga mos holda shakllantiriladi. Ta‘limning turli daraja va yo‘nalishlari mazmunini aniqlab beruvchi asosiy hujjat Davlat ta‘lim standarti va malaka talablari bo‘lib, uning asosida o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklar va qo‘llanmalar ishlab chiqiladi.

Zamonaviy ta‘lim nazariyasida ta‘lim mazmunini tanlashda tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash e‘tirof etilgan, biroq bizning tadqiqotimizda ta‘lim mazmunini tanlashda modulli-kompetensiyaviy va mantiqiy-informatsion yondashuvlar pozitsiyasi hisobga olinadi.

Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini ta‘limning paradigmatal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayoni modelining mazkur komponentining o‘ziga xos xususiyati rivojlanish sur‘atlari tobora oshib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jadal o‘zgarishlar; kasbiy pedagogik axborot-loyihalash kompetensiyasiga ega bo‘lish nazarda tutilgan pedagogik kasbiy standartning joriy qilinishi asosida ish beruvchilar talablarining o‘zgarishi, ta‘lim jarayoniga kompyuter va multimedia texnologiyalarining joriy qilinishi asosida masofaviy ta‘lim texnologiyalarini amalga oshirish bilan belgilanadi. Ana shunga bog‘liq ravishda ta‘lim mazmuniga muttasil ravishda tuzatish kiritib borish zaruriyati yuzaga keladi.

Professional ta‘lim mazmuni ta‘lim texnologiyasining asosiy qismi bo‘lib, ko‘p jihatdan maqsadlarga bog‘liq, ularning tubdan o‘zgarishi mazmunning o‘zgarishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, ta‘limning protsessual jihatini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi.

Modullik tamoyiliga asoslangan axborot-loyihalashga tayyorlash mazmunini qayta qurish quyidagilarni nazarda tutadi [3]:

- o‘quv fanlaridan mavzularning takrorlanishini istisno qilish maqsadida mavjud ta‘lim dasturlari mazmunini oldindan chuqur fanlararo tarzda tadqiq qilish;
- ta‘lim moduli doirasidagi ta‘lim yo‘nalishlarini aniqlash;
- ta‘lim muassasi moddiy-texnik bazasini, axborot muhitini sifat jihatdan yangilanishini talab qiladigan ta‘lim modullarini amalga oshirish tizimini ishlab chiqish;
- pedagoglar jamoasining ta‘limga modulli yondashuvni joriy etish masalalari bo‘yicha malakasini oshirish.

Fanlararo modulni ishlab chiqishda axborot blokidagi fanlar mazmuni integratsiyasi taqozo etiladi. Ta‘lim mazmunini tanlashda integrativ jarayonlarning uch turini qabul qilish taklif etilgan [4]:

1. Mavzular, boblar, bo‘limlararo (fan ichidagi) integratsiya.
2. Fanlararo integratsiya.
3. Ilmiy bilimlar integratsiyasi.

Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini ta‘limning paradigmatal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayoni mazmuni integratsiyasining optimal variantini biz quyidagi paradigmada ko‘ramiz: muhandislik loyihalashtirishda informatika, kompyuter texnologiyalari, jarayonlar va texnologik tizimlarni

loyihalashtirish. Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini ta’limning paradigmatal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirishning bunday mantig’i, bir o’quv fani doirasida axborot-loyihalashga tayyorlashning barcha bosqichlarini amalga oshirish mumkin emasligi bilan bog’liq, shuning uchun mazkur jarayonni axborot blokidagi bir necha fanlarni o’rganish jarayonida o’zaro aloqadorlik tamoyili asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu axborotning takrorlanishiga yo’l qo’ymaslik, nazariyaning amaliyot bilan aloqasini ta’minlash, axborot faoliyatida kasbiy bilimlarni amalda qo’llash imkonini beradi.

Fanlararo modul maqsadli funksional qism sifatida tasavvur etilib, unda integrativ o’quv mazmuni va uni egallash texnologiyasi yuksak daraja sifatida tizimga birlashtiriladi.

Fanlararo modul o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi [5]:

1. O’rganishga mo’ljallangan, nazariy materialdan iborat, o’zlashtirish va uzatish bo’yicha o’quv elementlar va metodik ko’rsatmalardan tuzilgan axborot bloki.

4. Bu nazariy ma’lumotlar, video va audio materiallar, taqdimotlardan tarkib topgan multimedia o’quv qo’llanmasi; o’quv qo’llanmaning nazariy material bilan giperhavolalar orqali bog’langan asosiy tushunchalar glossariysi.

2. Bajarishga mo’ljallangan blok (ijro bloki), elektron laboratoriya praktikumi, axborot-loyihalash kompetentligini rivojlantirish mo’ljallangan turli darajali axborot-loyihalash topshiriqlarni o’z ichiga oladi.

3. Nazorat bloki test topshiriqlari bazasi, nazorat ishlarini bajarish uchun topshiriqlar, referat va esselar mavzulari, multimedia qo’llanmasi bo’yicha nazorat savollarini o’z ichiga oladi.

4. Metodik blok kompyuterli loyihalashga tayyorlashda fanlararo moduldan foydalanish bo’yicha o’qituvchi uchun metodik tavsiyalar, shuningdek axborot-loyihalashtirish, topshiriqlar, nazorat ishlari, laboratoriya ishlari bo’yicha hisobotlar, esse va referatlar yozishni bajarish uchun metodik tavsiyalardan tarkib topgan.

Fanlararo modulni o’rganishda quyidagilar taqozo etiladi [6]:

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ko’nikmalari: amaliy dasturiy vositalardan foydalanish ko’nikmalari (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint);

– Internet tarmog’ida axborotni izlash, qayta ishlash, saqlash malakalari, “bulutli” texnologiyalar va xizmatlarni egallash, axborot-kommunikatsion savodxonlik;

– avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT) yordamida o’qitish vositalarini ishlab chiqish, yutuqlar elektron portfoliosini jamlash usullaridan foydalanish, axborot ta’lim makoni bilan ishlash, avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimlarini qo’llash: texnologik jarayonlar va tizimlarni loyihalashtirish asoslarini bilish, AutoCAD yordamida mashinasozlik konstruksiyalarini loyihalashtirish ko’nikmasi, kelgusidagi faoliyatga, texnologik jarayonlar va tizimlarning matematik modellarini yaratish;

– texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirishni amalga oshirish uchun axborot texnologiyalarini qo’llash: amaliy dasturlar yordamida ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish ko’nikmasi, Autodesk Inventor va Mathcad dasturlari axborot kompetensiyalarini shakllantirish yordamida texnologik jarayonlar va tizimlarni modellashtirish texnologiyalarini bilish.

Fanlararo modul modulli-kompetensiyaviy o’quv-metodik jarayon sharoitidagina muvaffaqiyatli o’zlashtiriladi. U bilimlar mazkur sohasini chuqurroq o’rganish, ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish va boshqarish va mazkur modulning amaliy topshiriqlarini bajarishda zarur bo’ladigan ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Modulli-kompetensiyaviy o’quv-metodik jarayon mazmuniga quyidagilar kiritiladi: fanlararo modulga kirgan fanlar ishchi dasturlari, elektron o’quv qo’llanma, elektron laboratoriya praktikumi, axborot-loyihalashtirish topshiriqlar tizimi, test topshiriqlari bazasi.

Faoliyatli-boshqaruv komponent o’quv mashg’ulotlari va mustaqil ishlarni o’tkazish jarayonida talabalarning motivatsion, dialogik va reflektiv-ijodiy funksiyalarini faollashtiruvchi axborot kompetensiyalarini shakllantirishning metodik ta’minotining maxsus vositalarini ishlab chiqish, joriy qilish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Faoliyatli aspekt kompyuterli loyihalashga tayyorlash jarayonida o’qitishning multimedia vositalaridan foydalanish bilan bog’liq. Uning tarkibiga multimedia ma’lumotlari formatida yo’riqnoma va taqdimotlar, turli darajadagi axborot-loyihalash topshiriqlari tizimi, o’quv-metodik yo’riqnomalarni, tarmoqli kompyuter nazorat vositalari, Internet tarmoqlari vositasida mustaqil ishlashni qo’llab-quvvatlash bo’yicha maslahat tizimidan tarkib topgan didaktik ta’minot kiradi.

Qarab o’tilayotgan komponentlarning tizimlilik va integratsiyasi fanlararo modulni o’rganishda ishlab chiqilgan talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini ta’limning paradigmatal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayoni modeli o’ziga xosligini bildiradi va raqobatbardosh, axborot-kommunikatsion va kasbiy safarbarligi tayyorgarligi yuksak mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayonining kompleks yo’nalganligini ta’minlaydi.

Modelning reflektiv-natijaviy komponenti talabalar tomonidan tomonidan o’z-o’zini baholash, o’zining o’quv faoliyatini va o’zaro tahlil qilish (o’z imkoniyatlarini baholash va kasbiy faoliyatida axborot-

kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlari, faoliyat natijalarining boshqa talabalar tomonidan baholanishi)ni; aniq sharoitda maqsadlar, vazifalar, me'yorlarni vaziyatga mos belgilash va amalga oshirishning samaradorligini baholash, bajarilgan ishlar, ularning natijalarini tushinish, tanlangan usullar, axborot vositalari va dasturiy mahsulotlarning to'g'ri tanlanganligi baholashni o'z ichiga oladi.

Refleksiv-natijaviy komponent bo'lajak mutaxassisning axborot-loyihalash kompetentligi rivojlanganligi darajasini aniqlaydi. Uni quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi: past, o'rtacha, o'rtachadan yuqori va yuqori.

Ta'limga refleksiv yondashuv intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi va talabani o'z aqliy resurslaridan samarali foydalanish uchun safarbar etadi.

Axborot-loyihalashga tayyorlashning refleksiv-natijaviy komponentida ta'lim oluvchining faoliyati, ya'ni axborot-kommunikatsion kompetensiyalari, bilim va ko'nikmalari, tayyorgarlik darajasi baholanadi.

Baho – dasturda keltirilgan, o'qituvchi tomonidan talabani bilim olish va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasining muayyan ifodasi, u shartli belgilar – ballarda baholanadi. O'qituvchi uchun baholash faoliyatining maqsadi – o'qituvchi-talaba muloqotining aks sadosi sifatida qaytadigan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasi.

L.G.Semushinaning fikricha, baholash katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. U talabani ta'lim faoliyati natijalarining tavsifi, uning bilim va ko'nikmalari holati va ularning nazorat talablariga muvofiqligi darajasi to'g'risida tushuncha beradi, o'qituvchining o'zi haqida qanday fikrga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Bularning hammasi talabani o'ziga nisbatan berilgan bahosini to'g'rillaydi.

Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha bo'lajak mutaxassisni axborot-loyihalashga tayyorgarligini mutaxassis uchun eng muhim xususiyat sifatida ko'rsatib, biz axborot bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish nuqtai-nazaridan baholangan asosiy ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratamiz.

Tadqiqotchilar baholash vositalari jamg'armasini quyidagi tarkibini taklif qiladilar: ta'limning barcha davrlari uchun nazorat-baholash harakatlari dasturi; ta'limning muayyan bosqichlarida ta'lim natijalarini baholash uchun mo'ljallangan monitoring va baholash materiallari to'plami; tekshiruvning barcha bosqichlarida ta'lim natijalarini baholash tartibini belgilaydigan uslubiy qo'llanmalar; baholash natijalarini qayta ishlash texnologiyalari va usullari; nazorat vazifalariga ko'ra baholash shkalasi va bilim va ko'nikmalarni shakllanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari majmui; baholash natijalarini talqin qilish bo'yicha tavsiyalar va o'quvchilar bilan natijalarni muhokama qilish tartibini belgilovchi uslubiy materiallar; baho yig'ish va ulardan talabani portfoliosida foydalanish bo'yicha tavsiyalar; statistik axborot banki va yutuqlarni monitoring qilish dasturi; portfolioning tarkibi va mazmuni; bitiruvchilar uchun yakuniy malaka ishini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar; baholash vositalari jamg'armasini yangilash bo'yicha tavsiyalar.

Qoida tariqasida bilim va ko'nikmalarni shakllanganligi darajasini baholashda quyidagi uslublar qo'llaniladi:

1. Faoliyatning moddiy yoki intellektual mahsuloti baholanadi: real vaziyatda (haqiqiy ish jarayoniga yaqinlashgan vaziyatda); modellashgan vaziyatda (ta'lim jarayonida).

2. Faoliyat jarayoni baholanadi: real vaziyatda (haqiqiy ish jarayoniga yaqinlashgan vaziyatda); modellashgan vaziyatda (ta'lim jarayonida).

Biz, bo'lajak mutaxassislarni axborot-loyihalashga tayyorlash jarayoni modeliga bevosita ta'sir ko'rsatish, fanlararo modul mazmuniga tuzatish kiritish, axborot-loyihalashga tayyorgarlik jarayonini boshqarilishini ta'minlash, fanlararo modulni o'rganishni kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradigan didaktik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqdik.

Tadqiqotda quyidagi didaktik shart-sharoitlar belgilandi:

– talabalarining informatsion, pedagogik va ishlab chiqarish-texnologik bilimlarini integratsiyalovchi fanlararo modulni ishlab chiqish;

– fanlararo modul mazmunini professional ta'lim tizimi va ish beruvchilarning zamonaviy talablari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishdagi asosiy tendensiyalar va kasbiy-pedagogik faoliyatning xususiyatlariga muvofiq belgilash va unga tuzatishlar kiritish;

– laboratoriya amaliyoti, axborot-loyihalash tizimi, test topshiriqlarini o'z ichiga olgan va ta'limni individual qiziqishlarga ko'ra loyihalash imkonini beradigan axborot-kommunikatsion texnologiyalarni takomillashtirish modulli-kompetentli o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, bo'lajak mutaxassislarni fanlararo modul doirasida axborot-loyihalashga o'rgatish, ularning bilim olish jarayonini samarali boshqarish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Bu esa o'z ustida ishlash, o'zining o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati ustidan mustaqil nazorat qilishga urg'u berilgan o'quv jarayonini tashkil etishni shakl va uslublarini loyihalashni nazarda tutadi.

**Xulosa.** O‘z ustida ishlashni tashkil etish, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganishda dolzarbdir, chunki dasturiy ta‘minot avlodlari kun sayin o‘zgarib bormoqda, kompyuter texnikasining hisob-kitob salohiyati o‘smoqda, ta‘lim va ishlab chiqish jarayonlarini vizuallashtirish va virtuallashtirishning yangi imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda.

Shunday qilib, axborot-loyihalashga tayyorgarlikni samarali tashkil etish, tegishli o‘quv-uslubiy ta‘minotni yaratish zarur, u talabalar o‘quv faoliyatini yo‘naltirib, shaxsiy ta‘lim olish trayektoriyasini belgilashga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Голиш Л.В. Современные технологии обучения: содержание, проектирование и реализация // Проект ТАСИС «Содействие реформированию профессионального образования в Узбекистане». – Ташкент: 2001. 20 б.

2. Маматов Д.Н. Электрон ахборот таълим мухитида касбий таълим жараёнларини педагогик лойиҳалаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. 13.00.06. – Тошкент: 2017. 150 б.

3. Ортиқов И.С. Ўқитиш технологиясини лойиҳалаштириш методи. Kasb-hunar ta‘limi. № 1, 2012. 2-5 б.

4. Семушина, Л.Г. Содержание и технологии обучения в средних специальных учебных заведениях: учеб. пособие для преп. учреждений сред. проф. образования / Л.Г.Семушина, Н.Г.Ярошенко. – Москва: Мастерство, 2001. 272 с.

5. Федулова М.А. Формирование специальной компетенции будущих педагогов профессионального обучения: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Федулова М.А. – Екатеринбург. 2008. 32 с.

6. Урозова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича докторлик диссертацияси. 13.00.05. – Тошкент: 2015. 260 б.

## OLIV TA'LIM JARAYONIDA INDIVIDUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI

*Arslonova Gulsora Kurbonovna,*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi (936297194)*

*Maqolada oliy ta'lim jarayonida individual ta'limni tashkil etishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Rus va xorij olimlarining individual yondashuv va ta'limni individuallashtirishga oid nazariyalari keltirilgan. Ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Oliy ta'lim jarayonida individual ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** individual ta'lim, muhit, shaxs, rivojlanish, dinamika, intellekt, iqtidor, tyutor, korreksion, traektoriya, subyekt, obyekt, ta'lim marshruti algoritmi.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В статье представлены педагогические аспекты организации индивидуального обучения в процессе высшего образования. Представлены теории российских и зарубежных ученых об индивидуальном подходе и индивидуализации образования. Выделены педагогические особенности применения индивидуального подхода к образовательному процессу. Описаны научно-методические рекомендации по организации индивидуального обучения в процессе высшего образования.*

***Ключевые слова:** индивидуальное обучение, среда, личность, развитие, динамика, интеллект, талант, наставник, коррекция, траектория, предмет, объект, алгоритм образовательного маршрута.*

## PEDAGOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING INDIVIDUAL EDUCATION IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION

*The article presents pedagogical aspects of organizing individual learning in the process of higher education. The theories of Russian and foreign scientists about the individual approach and individualization of education are presented. The pedagogical features of the application of an individual approach to the educational process are highlighted. Scientific and methodological recommendations for organizing individual training in the process of higher education are described.*

***Keywords:** individual learning, environment, personality, development, dynamics, intelligence, talent, mentor, correction, trajectory, subject, object, educational route algorithm.*

**Kirish.** Oliy ta'lim jarayonida individual muhit yaratish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida anchadan buyon tadqiq etilmoqda. Bugungi davr pedagoglari o'z sohasi bo'yicha ta'lim berishda nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki talabalarining shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishni maqsad qilib olishi kerak. Biroq, an'anaviy ta'limda har doim ham shaxs rivojlanishi va ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishga, har bir talaba shaxsini rivojlantirishga e'tibor qaratilmaydi. Oliy ta'lim muassasalarida individual ta'limni tashkil etishning quyidagi sabablari mavjud:

1. Odatda har bir talabaning individual xususiyati inobatga olinmaydi, butun guruh a'zolarini bir xil ta'lim olishi nazarda tutiladi.

2. Talabalarining ko'zga ko'ringan jihatlari masalan aqliy qobiliyati rivojlantiriladi xolos. Ularning xarakteri yoki temperamentiga asosan individual yondashilmaydi.

3. Ba'zan faqat iqtidorli talabalarining qaysidir sohadagi yutuqlarigina rivojlantiriladi.

4. Individuallashtirish o'quv faoliyatining barcha qismida amalga oshirilmaydi, ayrim jarayondagina e'tibor qaratiladi.

Mavzuga oid izlanishlar tahlili. Amaliyotdagi kuzatuvlarimiz oliy ta'lim jarayonida talabalarining shaxs sifatida rivojlanishiga e'tibor berilmasligi, ularning ichki motivlari, ehtiyoji va qiziqishlarini inobatga olinmayotganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, dars mashg'ulotlarida har bir talabaning individual xususiyati inobatga olinmaydi, bu esa ularni puxta o'zlashtirmasliklariga sabab bo'lishi mumkin.

Tajriba–sinov davrida o'quv jarayoni frontal ravishda yoki o'rta darajada tashkil etilayotganligi kuzatildi. Chunki, pedagoglarning fikricha, guruhdagi talabalarining rivojlanish dinamikasi har xil bo'lib, o'zlashtirishi ham turlicha namoyon bo'ladi. Talabalarining bilim olish ishtiyoqi past yoki qoniqarsiz degan



fikr-mulohazalar bildirildi. Fikrimizcha, o‘quv jarayonida ta‘labalarning xohish-istaklari inobatga olinmasa, ularda tanlagan sohasiga qiziqish butunlay so‘nadi, o‘zlashtirish darajasi ham pasayadi. Iqtidorli talabalarga ham umumiy tarzda yondashilsa, ularning ham intellektual rivojlanishi sustlashadi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi yo‘qoladi, chunki ularning qiziqishiga ko‘ra ta‘limiy faoliyat tashkil etilmayapdi. Mazkur pedagogik vaziyatdan chiqish uchun professor-o‘qituvchilar talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab individual o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishi va o‘z fani doirasida ularning bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim. Ya‘ni ushbu holatda pedagoglar ta‘lim jarayonida individual yondashuvdan foydalanishi talab etiladi.

Individual ta‘lim maqsadi, talabalarning imkoniyatlari va ichki potensialini e‘tiborga olgan holda ularni kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

Xorij pedagoglari tomonidan ta‘lim jarayonini individuallashtirish masalasi o‘rganilgan. Xususan Germaniya va Angliya mamlakatlarida maktablar va oliy ta‘lim muassasalarida individual ta‘lim jarayoni yo‘lga qo‘yilgan. Uning muhim komponenti pedagogning tyutorlik faoliyati hisoblanadi, unda talabalar bilim olishga yo‘naltiriladi, ta‘limiy, ijtimoiy, korreksion va tarbiyaviy jihatdan maslahat beriladi. Xorij tajribalarining muhim jihati ta‘limni individuallashtirishda, talabalarga o‘quv fanini erkin tanlash huquqi beriladi. Qaysi fanni o‘zlashtirmoqchi bo‘lsa, o‘zi mustaqil ravishda yoki tyutor yordamida fikr bildiradi. Shundagina talabalar qiziqish bilan tanlagan fanini o‘zlashtiradi.

Individual ta‘lim o‘quv jarayonining samarali shakli va modeli bo‘lib, unda o‘qituvchi faqat talaba bilan yakka tartibda ishlaydi va ta‘sir qiladi. Ya‘ni ta‘lim vositalarini o‘quv qo‘llanma, darslik yoki axborot resurlarini talabalarning ehtiyojlariga ko‘ra tanlaydi va o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Individual ta‘limning afzaligi shundaki, o‘quv faoliyati metodlari, mazmuni va maqsadi talabalarning qobiliyatiga ko‘ra belgilanadi. Ularning hatti-harakati kuzatiladi va o‘quv topshiriqlari, vazifalarini bajarishini nazorat qiladi. Talabalar faoliyatini maqsadga muvofiq yo‘naltiradi va bilimga intilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bularning barchasi talabadan rejali ishlashni, o‘z imkoniyatlarini doimo nazorat qilishni, vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishni hamda yuqori natijalarga erishishni talab etadi.

Individual yondashuvda o‘quv-tarbiyaviy ishlar talabalarning shaxsiy xususiyatlari va individual dasturi asosida tashkil etiladi. Mazkur jarayonda mavjud texnologiyalardan foydalaniladi. O‘qituvchi muloqot o‘rnatishda talabaning individual xususiyatini inobatga oladi. Ta‘lim jarayonida talabaning imkoniyati va xohishlarini ko‘zda tutadi. Psixologik-pedagogik sharoit yaratish nafaqat talabalarning rivojlantirish, balki ularning har birining kamol topishini kafolatlaydi. Ta‘limni individuallashtirishga mustaqil tizim sifatida ham qaraladi chunki pedagogik texnologiyaning barcha belgilari va sifatleri namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta‘limni individuallashtirishda Inge Unt tomonidan ta‘limni individuallashtirish texnologiyasi tatbiq etilgan, bunda ta‘lim oluvchilarning uyda va oliy ta‘lim muassasasida mustaqil ishlashi nazarda tutiladi [6].

Ta‘limni adaptivlashtirish tizimi g‘oyasini A.S. Graniskaya ishlab chiqqan, o‘qituvchi darsning 60-80 foiz vaqtini ta‘lim oluvchilar bilan ishlashga ajratadi.

Ma‘lumki, 1-bosqich talabalarida oliy o‘quv yurtiga moslashish qiyin kechadi, bunda individual yondashuv samara beradi. Shuningdek, talabalar bilan o‘qituvchi munosabati amalga oshiriladi. Talabalar o‘z istaklarini erkin bayon etish imkoniga ega bo‘ladi. Eng muhimi ularda shaxsiy rivojlanish dasturi amalga oshadi.

V.D.Shadrikova o‘quv rejani individual-yo‘naltirilgan ta‘limga asoslangan holda tuzishni tavsiya etadi.

Talabalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga murakkab vazifalar topshirish, o‘quv faoliyatiga motivatsiya berish kerak, ammo uning bugungi imkoniyati va qiziqishini inobatga olgan holda pedagogik sharoit yaratish zarur. O‘quv dasturlarini o‘zlashtirishlarini tahlil qilish va o‘zlashtira olmayotganligi haqida ogohlantirish pedagogning vazifasi hisoblanadi. U talabalarda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi va bilish faoliyatini rivojlantirishi muhim. Shaxsiy fazilatlarini shakllantirish ya‘ni mustaqillik, mehnatsevarlik va ijodkorlik kabilar. Individuallashtirish-ta‘lim jarayoni strategiyasi sanaladi. Individuallashtirish-individuallikni shakllantirishning muhim omilidir. Individual ishlar o‘quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiya qilinadi. Ta‘limni individuallashtirishning muhim pedagogik sharti, talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, o‘quv ko‘nikmalari, o‘zlashtirganlik, bilishga qiziqishini aniqlashdan iborat. Individual ishlar umumiy o‘quv ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini talab qiladi.

**Natija va mulohazalar.** Yuqorida keltirilgan muammolar oliy ta‘lim jarayonida yangicha yondashuv, jamiyat talabalarini qondiradigan malakali mutaxassis tayyorlashni tashkil etishni taqozo etadi. Professor-o‘qituvchilar o‘qitishni variativ shakllarini qo‘llashi hamda individual ta‘lim muhitini yaratishi dolzarb sanaladi. Ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish muhim hisoblanadi. Talabalarning shaxsiy

imkoniyatlari va potensialini namoyon etishlariga sharoit yaratish zarur. Ma’lumki ilm-fanda qandaydir yangilik paydo bo’lsa, uni joriy etishda muammolar yuzaga keladi. Ta’limni individuallashtirish jarayonida ham qator noaniqliklar ro’y beradi, masalan: “*ta’lim jarayonini individuallashtirish*” va “*ta’limda individual yondashuv*” tushunchalari o’rtasida aniq chegara sezilmaydi.

Rus olimlari pedagogika fanida mazkur tushunchalarni o’rgangan va ilmiy tahlil qilgan jumladan A.N.Tubelskiy, P.G. Shedrovskiy, D.B.Elkonin. So’nggi yillarda esa T.M.Kovaleva, G.N.Prozumentova, Ye.A.Suxanova, I.D.Fruminlar tomonidan tadqiq etilgan.

T.M. Kovalevaning izlanishlarida ta’limni individuallashtirish va individual yondashuvning farqli jihatlari aniqlangan.


Ta’limda individual yondashuv ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishga yo’naltiriladi, bunda pedagog ta’limiy muhitning asosiy subyekti hisoblanadi, har bir talabani individual xususiyati e’tiborga olinadi, so’ngra o’zlashtirish darajalari tahlil qilinadi, tayyorgarlik va muvaffaqiyatga erishish sabablari aniqlanadi. Keyin esa har bir talaba uchun emas, balki umumiy guruh talabalariga qo’llaydigan shakl, usul va vositalar tanlanadi. Individual yondashuvda har bir talabani o’zlashtirish darajasi emas, balki ular boshqa talabalarining muvaffaqiyati va yutuqlari bilan taqqoslanadi. Past o’zlashtiruvchi talaba a’lo darajaga erishgan talaba bilan qiyoslanadi, yakunida aniq bir talabani o’zlashtirishdagi o’sish emas, butun jamoaning faoliyati aniqlanadi.

V.F.Shatalov fikricha “individual yondashuvda bir vaqtda barcha ta’lim oluvchilar ko’zda tutiladi. Har bir talaba o’quv materialini puxta o’zlashtirishi uchun pedagog mavzuni aniq namoyon etishi va tushuntirishi, ko’rgazmali quroldan foydalanishi, mantiqan o’quv materialiga bog’liq ma’lumotlar uzatishi lozim” [5]. Individual yondashuvda *subyekt-pedagog* (tahlil-ta’lim shakllarini saralaydi) *obyekt-talaba*-butun guruhning bir xil ta’lim olishiga erishiladi. Individual yondashuvda pedagog ta’lim jarayoni subyekti rolini bajaradi, talabalarining o’ziga xos xususiyatlariga tayanadi, o’qitish loyihasini tuzadi, eng muhimi bir nafar talabani emas, butun guruh ishtirokchilarini o’zlashtirishi nazarda tutiladi. Bunda talabalar ta’lim jarayoni ob’ekti hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini individuallashtirishda T.M.Kovalevaning ta’kidlashicha, talabani qarashlari ustuvorlik qiladi, u ta’lim subyekti sifatida faol qatnashadi [2; 45]. Individuallashtirishning asosiy vazifasi-avvalo talabalar mustaqil ravishda o’zining “*ta’lim olish traektoriyasini*” tuzadi va boshqaradi. O’quv jarayonida pedagog talabalarga yordamchi, yo’naltiruvchi ustoz, faslitator, kouch sifatida yordam beradi. Mazkur yondashuvda professor-o’qituvchilar talabalarga shaxsiy qiziqishlari, ishlash uslubi, taktikasi va individual ta’lim dasturini ishlab chiqishi va namoyon etishiga ko’maklashadi.


Ta’lim jarayonini individuallashtirish subyekt(talaba)-pedagog↔(talabani individual xususiyatini tahlil qilish, individual o’zlashtirish dasturini saralash, individual rivojlanish traektoriyasini ishlab chiqish) ↔ subyekt (talaba) ⇒ ta’lim jarayoni natijaviyligiga talabani shaxsiy rivojlanishi orqali erishiladi.

Oliy ta’limda individuallashtirish jarayonining psixologik xususiyatlari mavjud bo’lib, ular quyidagilar.



Ta’limni individuallashtirishda zamonaviy ta’limning muhim vazifasi maxsus pedagogik vosita, usul hamda shakllarni izlash va tatbiq etish orqali bugungi kundagi ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’tarishdan iborat.

I.E.Unt tomonidan ta’limni individuallashtirish jarayonining to’rtta asosiy pedagogik sharti aniqlangan bo’lib, ular talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan [6] (1-rasm).



1-rasm. I.E.Unt. Ta’limni individuallashtirish jarayoni

**Xulosa va takliflar.** Sanab o’tilgan pedagogik shartlar amalga oshirilsa, oliy ta’lim sifati ortadi, o’z navbatida o’quv dasturlari va “*individual ta’lim marshruti algoritmi*” ishlab chiqiladi (talabanning shaxsiy rivojlanish traektoriyasi asosida). Professor-o’qituvchi roli pozitsiyasidan tyutor roliga transformatsiya qilinadi. Shuning uchun oliy ta’lim fan dasturlari, silabuslar ta’lim oluvchilarning yosh xususiyati va imkoniyatlariga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim. Biroq talabalar ta’lim subyekti sifatida ishtirok etishlari ko’zda tutilishi lozim. Individual o’quv dasturlarining har bir qismi aniq vazifalar asosida shakllantirilishi lozim. Shuningdek, ta’lim oluvchilar nafaqat subyekt balki, kelgusi pedagogik faoliyatini ham rivojlantirishga qaratilgan o’quv-ta’limiy faoliyat tashkil etish malakasiga ega bo’lishi ko’zda tutiladi. Ta’lim jarayonini tashkil etish, tyutorlik g’oyalari asoslanadi hamda talabalarni subyektiv qarashlari rivojlantiriladi. Ta’lim qadriyatlariga tayanish va talabalarning mustaqil ta’lim olishi va o’zlashtirishga erkinlik yaratish talab etiladi.

Oliy ta’lim o’qituvchisining roli individual ta’lim muhitini yaratish va talabalarning ehtiyoj va xohishlarini e’tiborga olish bilan belgilanadi. Shundagina jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi bo’lgan zamon talabi darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashga erishiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Крутецкий В.А. Психология обучения и воспитания школьников. М.: «Просвещение», 1976.
2. Ковалева Т.М. Тьюторское сопровождение как ресурс развития процесса индивидуализации. М.: 2009. 7-15с. <https://elibrary.ru/item.asp?id=20888972>. Лебединцев В.Б. Индивидуализация обучения в общеобразовательной школе как психолого-педагогическая проблема // [http://www.superinf.ru/view\\_helpstud.php?id=4088](http://www.superinf.ru/view_helpstud.php?id=4088)
4. Унт, И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. Монография. Изд-во: М.: Педагогика, 1990-190 с.
5. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. «Куда и как исчезли тройки» «Педагогическая проза» «Точка опоры. М.: 1990-300 с
6. [http://referatwork.ru/pedagogika\\_bileti/section-1-16.html](http://referatwork.ru/pedagogika_bileti/section-1-16.html)

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

### BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA SHAKLLANTIRILADIGAN HAYOTIY KO‘NIKMALAR TAVSIFI

*Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi,*

*Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi tayanch doktoranti*

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan hayotiy ko‘nikmalar tavsifi va bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablar haqida so‘z borgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich sinf, metodika, o‘quvchilar, ko‘nikma, globallashuv, jarayon, fan-texnika, taraqqiyot, innovatsiya, jamiyat, ehtiyoj, yoshlar, innovatsion tafakkur, intellektual salohiyat, moslashuvchanlik.*

### ОПИСАНИЕ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ, СФОРМИРОВАННЫХ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ.

*В статье описаны жизненные навыки, которые формируются у учащихся начальных классов, а также современные глобализационные процессы, научно-технический прогресс, потребность в инновационном обществе создают множество возможностей для молодежи. Им рассказали о жизненно важных требованиях быстрого принятия решений, формирования инновационного мышления, повышения интеллектуального потенциала, верности национальным и общечеловеческим ценностям.*

**Ключевые слова:** *начальный класс, методика, учащиеся, навыки, глобализация, процесс, наука и техника, развитие, инновации, общество, потребность, молодежь, инновационное мышление, интеллектуальный потенциал, гибкость.*

### DESCRIPTION OF LIFE SKILLS FORMED IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

*The article describes the life skills that are formed in elementary school students and today's globalization processes, scientific and technical progress, the need for an innovative society create many opportunities for young people. They were told about the vital requirements of making quick decisions, forming innovative thinking, increasing intellectual potential, and being loyal to national and universal values.*

**Keywords:** *primary class, methodology, students, skills, globalization, process, science and technology, development, innovation, society, need, youth, innovative thinking, intellectual potential, flexibility.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro me‘zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish,

mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Jamiyat va hayotda sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta‘lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta‘lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarini o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uzlüksiz ta‘lim davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ta‘lim oluvchilarda universal kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Zamonaviy adabiyotlarda ushbu kompetensiyalarni izohlashga oid bir nechta yondashuvlar mavjud. Xususan, ko‘nikmalarning “hayotiy” va “moslashuvchanlik” tushunchalari qo‘llanilmoqda. Ushbu mavzudagi ilmiy ishlarning tahlili tushunchalar mazmun-mohiyatidagi nozik farqlar, uzlüksiz ta‘limda ushbu tushunchalarni qo‘llashning muhim sohalari va foydalanishning imkoniyatlari haqidagi xulosa chiqarishga yordam beradi.

2022-yilning may oyida Toshkentda “O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: mazmun va metodika” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Respublika ta‘lim markazi Axborot xizmati ma‘lumotiga ko‘ra, 2020-yildan boshlab Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan ilg‘or xalqaro tajriba asosida zamonaviy ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi va baholash tizimini qamrab olgan Milliy o‘quv dasturi loyihasi amalga oshirilmogda. Milliy o‘quv dasturi loyihasi doirasida fanlar oldiga har bir sinf kesimida o‘quvchida rivojlanishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar belgilab berildi. Milliy o‘quv dasturi doirasida 2021- yilda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o‘quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanib, maktablarning 1- va 2-sinflarida joriy qilindi. Milliy o‘quv dasturi hamda yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash jarayonlarida jami 246 nafar milliy ekspert, jumladan, 119 nafar maktab o‘qituvchisi, oliy ta‘limdan 105 nafar professor-o‘qituvchi, 22 nafar fan metodist, shuningdek, YUNICEF, USAID va boshqa xalqaro doner tashkilotlari orqali jalb qilingan 16 nafar xorijiy ekspert ishtirok etmogda.

Milliy o‘quv dasturi asosida yangilanayotgan o‘quv dasturlarida mavzularning 50 foizi, ya‘ni teng yarmi amaliy mavzular ekani ahamiyatlidir. Mavzularning amaliyotga yo‘naltirilishi o‘quvchida hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma shakllanishi, olingan bilimni hayotda qo‘llay olish imkonini beradi. Xususan, Milliy o‘quv dasturi uchun 20 ta eng muhim hayotiy ko‘nikmalar tayanch kompetensiyalar sifatida tanlab olingan. Jumladan, fanlar mazmuni hamda yangi o‘quv metodikalar o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat, faol fuqarolik va tashabbuskorlik, ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlash, muloqot qilish ko‘nikmalari, IT- va mediasavodxonlik, jamoada ishlash va hayot xavfsizligi, bag‘rikenglik va xayrixohlik, tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlik, mehnatsevarlik hamda liderlik, ekologik madaniyat ko‘nikmalari rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Ta‘lim sohasidagi O‘zbekiston davlatining siyosati Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining uzlüksiz ta‘limning barcha turlarida amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu konsepsiyaning dolzarbligini shu bilan izohlanadiki, raqamli iqtisodiyotni tez sur‘atlarda o‘sib borishi bilan kadrlarning doimiy o‘z ustida ishlab borishga zaruriyati hamda nafaqat tor doiradagi mutaxassislikka yo‘naltirilgan ko‘nikmalar majmuasiga ega kadrlar, balki keng ko‘lamli universal kompetensiyalarga ega mutaxassislariga ehtiyojning mavjudligidadir. Universal kompetensiyalar hozirda hayotiy va moslashuvchanlik ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik bilan izohlanadi. Hayotiy va moslashuvchanlik ko‘nikmalarini muhim va tayanch bilim, ko‘nikmalar sifatida ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, ular inson uchun o‘zi tanlagan kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlab ketishiga imkon berishini yaqqol ko‘rish mumkin.

Shuningdek, ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar mahalliy ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarni yanada boyitadi. Ushbu mavzudagi 2009-2019-yillardagi ilmiy maqolalarni tasodifiy izlash natijasida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari bo‘yicha shug‘ullangan mualliflarning 46 dan ziyod ilmiy ishlari aniqlandi. Ushbu maqolalarning g‘oyasi uzlüksiz ta‘lim tamoyili doirasida birlashadi.

Milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Bu esa yuqorida qayd etilgan Konsepsiya ushbu dasturning zamonaviy talqindagi mantiqiy davomi ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, dasturning vazifalari sirasiga kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishga qaratilganligi ta‘lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirilishi ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Biroq, bugungi kunda mavjud an‘anaviy ta‘lim tizim, ya‘ni uzlüksiz ta‘lim tizimida qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari, o‘quv jarayonlari hamda “kelajak kompetensiyalari” da‘vo qiladigan talablar o‘rtasidagi jarlik mavjuddir. Bu esa hayotiy ko‘nikmalarni uzlüksiz ta‘lim tizimga

qo‘llashning yanada dolzarbligini oshiradi.

Hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘linganlikni hech qanday diplom bilan tasdiqlab bo‘lmaydi. Bu shaxsning kirishimlili, vazminligi, kreativligi, vaziyatga ko‘ra moslasha olish, keskin vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik va adekvat ravishda harakatlarini boshqara olishidir. Ushbu ko‘nikmalarni chig‘iridan o‘tkazishda miyaning o‘ng katta yarim sharlari (ijodiy) ishlaydi, EQning (emosional intellekt) yuqori darajasiga ega bo‘lgan ma‘qulroqdir.

Hayotiy ko‘nikmalar kasbiy bilimlardan ko‘ra, hayotiy bilimlar kabi ifodalanadi. Bu tushuncha zamirida esa nomutaxassis faoliyat shakli bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui bilan birga kasbga oid sifatlar tushuniladi.

Hayotiy ko‘nikmalar insonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish harakatlari bilan bog‘liq emas, lekin ushbu ko‘nikmalar unga o‘z kasbida yuqori mahsuldorlikka erishishga imkon beradi va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni nisbatan muvaffaqiyatliroq bajarishga yordam beradi. Bunda ish beruvchilar bunday moslashuvchan ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni jon dila bilan ishga qabul qiladilar. Biroq, hozirgi davrga qadar har qaysi bir oliy ta‘lim muassasasida (xususan, bizning mamlakatimizda) ushbu ko‘nikmalar ongli ravishda talabalarga ongiga singdirilmaydi.

Shu kunga kelib, moslashuvchan yoki hayotiy ko‘nikmalarni umumiy tasnifi mavjud emas, chunki ushbu ko‘nikmalar ta‘rifi doirasida mos keluvchi sifat va ko‘nikmalarining aniq miqdori qayd qilinmagan. Shuningdek, ushbu ko‘nikmalar tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari – tezlik, kreativlik, moslashuvchanlik, tizimlilik – bilan to‘ldiriladi.

*Taraqqiyotni o‘zi nima tezlashtiradi?*

Inson o‘z ustida ishlash yo‘nalishini aniqlagan paytida tanlov yo‘nalishi bo‘yicha taraqqiyotga olib boruvchi harakatlarni bilishga intiladi.

*Insonni nimalar rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi:*

1. Noaniq maqsadlar, chalkash rejalar, qaysi yo‘nalishda harakatlar olib borish va buni nima uchun bajarish kerakligini yetarlicha tushunmaslik.

2. O‘z ishida va shaxsiy hayotida nimanidar tubdan o‘zgartirishga tayyoremaslik.

3. Hali hech kim bajarib ko‘rmagan, yangi ishni boshlashga cho‘chish. “Yaxshilab sinalgan yo‘l”dan borishni ma‘qul topish.

4. O‘z xatti-harakatlari va erishgan natijalarini mulohaza qilishga vaqt ajratishni xohlamaslik.

5. Ikkinchi tomonning manfaatdor emasligi.

*Hayotiy ko‘nikmalarga xos kompetensiyalar.*

Yuqorida qayd etilganidek, hayotiy ko‘nikmalar aniq tasnifga ega bo‘lmasa ham, biroq mutaxassislar uni to‘rt yetakchi yo‘nalishlarga ajratgan holda o‘rganadilar:

**Kommunikativlikning tayanch ko‘nikmalari.** Ular o‘zaro munosabatlarni rivojlanishiga imkon beradi, suhbatni olib borish qobiliyatini shakllantiradi, keskin vaziyatlarda adekvat holda harakat qilishga yordam beradi.

1. Self-menejment (o‘zini o‘zi nazorat qilishi) ko‘nikmalari. Ular insonni o‘z xatti-harakatlari, holati ustidan nazorat qila olishiga, ratsional ravishda vaqtdan foydalanishga yordam beradi.

2. Mahsuldor tafakkurlash. Fikrlarini boshqarish, to‘g‘ri moslasha olish, yo‘naltira olishga ega bo‘lishlik bilan ifodalanadi.

3. Boshqaruv ko‘nikmalari. Rahbarlik lavozimini qaysidir ma‘lum bosqichda qabul qiluvchi har bir insonga zarurdir.

Har bir yo‘nalishga mos keladigan hayotiy ko‘nikmalari mavjud. Kommunikativlik o‘z tarkibiga tinglay olish, ishontira olish va dalillash, munosabatlarni qurish va ularni ta‘minlab turish, muzokaralar olib borish, ijtimoiy taqdimotlar olib borish kabilarni oladi.

Self-menejment – o‘zini boshqara olishi, stress holatlarini nazorat qilish, shaxsiy takomillashayotganini kuzatish, taym-menejmentni bilishi, tashabbusini namoyon qilishi, qat‘iyatli bo‘lish, ishtiyoq bilan ishga yondoshish kabi qobiliyatlar mavjudligini nazarda tutadi.

Hayotiy ko‘nikmalarni qanday rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar barchaga faol ravishda olg‘a intilishga yordam beradi. Bunda quyidagi umumiy qoidalarni inobatga olmoq zarur:

Rivojlanishni uzluksiz jarayonga aylantirish lozim. O‘z navbatida tajribaga ega bo‘lish, murakkab vazifalarni hal qila olish, oddiy usuldan ko‘ra yaxshiroq harakat qilmoq lozim. Asosiysi to‘xtab qolmaslik kerak.

1. Taraqqiyot bosqichlarini savodli rejalashtirishni o‘rganish.

2. Turli xil shakllardan foydalanish.

3. Qiziquvchanlikni namoyon qilish, atrofdagi sodir bo‘layotgan hodisalarni o‘rganish.

4. Ishidagi haqiqatdan ham dolzarb ahamiyatga molik bo‘ladigan yo‘nalishlarni tanlash juda

muhimdir.

5. Ko‘proq o‘qish odatini shakllantirish juda a‘lo yechim hisoblanadi.

Demak, har bir ishni rejali boshlash ushbu ishning oldindan sodir bo‘ladigan salbiy oqibatlarini vaqtida bartaraf etishga, eng asosiysi ishning muvaffaqiyatli yakunlashiga yordam beradi.

Ijodiy shaxsni shakllantirish hozirgi bosqichda pedagogik nazariya va amaliyotning muhim vazifalaridan biridir. Uning rivojlanishi maktabgacha yoshdan samaraliroq boshlanadi. V.A. aytganidek Suxomlinskiy: "Bolalarning qobiliyatlari va iste'dodlarining kelib chiqishi. Tasavvur bilan aytganda, eng nozik iplar barmoqlardan chiqadi - ijodiy fikr manbai bo‘lgan oqimlar. Boshqacha qilib aytganda, bolaning qo‘lida qanchalik mahoratli bo‘lsa, bola shunchalik aqlli bo‘ladi. " Ko‘p o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, barcha bolalar qobiliyatli. Shu sababli, vaqt o‘tishi bilan bu qobiliyatlarni sezish, his qilish va bolalarga ularni amalda, haqiqiy hayotda namoyish etish imkoniyatini berish uchun imkon qadar tezroq harakat qilish kerak. Kattalar yordamida badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirgan holda, bola yangi asarlar yaratadi (rasm, dastur). Har safar biron bir ob'ektni yaratish usullarini sinab ko‘rganida, o‘ziga xos bir narsa paydo bo‘ladi. Bola qanchalik ko‘p ko‘rsa, eshitsa, boshdan kechirsa, uning tasavvuridagi faoliyati shunchalik muhim va samaraliroq bo‘ladi. Bolalikda ma'lum bo‘lganidek, bolaning hayollari va hayollari juda muhim rol o‘ynaydi.

**Xulosa.** Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ior pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta‘lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zaxirasi mavjud. Sifatli ta‘limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an‘anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o‘qituvchilar anglab yetdi. Boshlang‘ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o‘qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o‘zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o‘qish va orfografik til me‘yorlariga amal qilishni dars jarayonida tatbiq etish lozim. Loyihaga asoslangan darslar qachon uyushtiriladi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o‘z fikrini bildirish, uni himoya qilish, sog‘lom muloqot qilish, muhokama qilish, bahs-munozara qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta‘minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Bu loyiha amaliyotga o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlarining o‘zaro tutashuvi tekisligida, o‘qitish va o‘qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo‘lish shakllari yo‘q, sababi umumiy holda o‘qitish metodi o‘zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o‘z o‘rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o‘quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta‘minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi” Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni.

5. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – C. 69.

6. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.

7. Hamroyev R.A Ona tili ta‘limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.

## O‘QISH DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN MULTIMEDIALI DASTURIY-PEDAGOGIK VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

*Davronov Dilshod Ismoilovich,  
Buxoro davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası, o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida qo‘llaniladigan multimediyali dasturiy-pedagogik vositalar va ularning imloniyatlari zamonaviy ta‘lim texnologiyaning ta‘lim jarayonida qo‘llash borasida ma‘lumot keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta‘lim, ravon nutq, psixologik-irodaviy, didaktik imkoniyati, mediaxabar.

### МУЛЬТИМЕДИЙНОЕ ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ НА ЗАНЯТИЯХ, И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ

*В данной статье представлена информация о мультимедийных программно-педагогических средствах и их возможностях, применяемых на уроках чтения начальных классов по применению современных образовательных технологий в образовательном процессе.*

**Ключевые слова:** современное образование, беглая речь, волевая, дидактическая способность психолога, медиасообщество.

### MULTIMEDIA SOFTWARE AND PEDAGOGICAL TOOLS USED IN CLASSES AND THEIR OPPORTUNITIES

*This article provides information on multimedia software and pedagogical tools and their capabilities used in classes for reading elementary grades on the use of modern educational technologies in the educational process.*

**Keywords:** modern training, fluent speech, psychologist-volitional, didactic opportunity, media news.

**Kirish.** Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta‘limiga o‘quv fani emas, balki butun ta‘lim tizimini uyushtiruvchi ta‘lim jarayoni sifatida qaraladi.

“Ona tili dasturi”ning asosiy tamoyillaridan biri ham nutqni rivojlantirishga qaratilgan ekan, bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun har bir o‘qituvchi, birinchidan, nutq o‘stirish bo‘yicha ishlar mazmuni, ya‘ni o‘quvchiga berish lozim bo‘lgan aniq nutqiy malakalarni, ikkinchidan, ta‘limni tashkil qilish usullari, ya‘ni tegishli mashq turlarini aniq tasavvur qilishi lozim. Boshqacha aytganda, u yoki bu grammatik-orfografik malakalarni egallayotganda nutq nuqtai nazaridan nimalarga o‘rgatish va buni qanday amalga oshirishni bilishi lozim.

Ta‘kidlab o‘tilganidek, boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritilgan badiiy matnlarni o‘qish o‘quvchilarning ma‘naviyatini shakllantirish, tasavvurlarini kengaytirish hamda his-hayajonini tarbiyalashga ham ko‘maklashadi. Shu jarayonda ularning nutqi ham yangi-yangi so‘z va iboralar bilan boyiydi.

Metodist-olimlarning fikricha, o‘qish matndan axborotni aniqlash, faol qayta ishlash va anglashdan iborat bo‘lgan nutqiy faoliyat ko‘rinishidir. To‘g‘ri, matni o‘qish unda bayon etilgan axborotni aniqlash hisoblanadi. Biroq bu uning o‘ziga xos tavsifi emas. Chunki umuman nutqni eshitish, hikoya qilingan yoki kimdir ovoz chiqarib o‘qiganini tushunish ham axborotni aniqlash, faol qayta ishlash, anglashdir. Demak, o‘qishning muhim xususiyati axborotni olishda emas, balki axborotni olish qanday asosda kechganligidadir. O‘qish jarayoni matn bilan chambarchas bog‘liq. Hatto eng yaxshi o‘qiydigan o‘quvchi ham qiyin so‘z yoki murakkab matnga duch kelsa, qiyinchilik bilan sekin o‘qiy boshlaydi.

**Metodlar.** R.Yo‘ldoshev o‘z monografiyasi[64]da ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida o‘quvchilarni o‘zbek tilida gapirishga o‘rgatish, bunda, asosan, ularning og‘zaki nutqini o‘stirish metodikasi haqida so‘z yuritgan. Monografiyada muallif o‘quvchilarni o‘zbek tilida gapirishga o‘rgatishning psixologik, lingvopsixologik va psixofiziologik asoslari, grammatik nutqiy namunalarni modellashtirish, so‘zlash mashqlarini leksik jihatdan ta‘minlash, og‘zaki nutq o‘stirishga qaratilgan o‘zbek tili darslarining tuzilishi va



boshqa shu kabi muammolar haqida batafsil to‘xtalغان. Muallif tomonidan matn asosida og‘zaki nutqni o‘stirishning muammo sifatida qaralishi, namuna asosida savol-javob qilish yoki hikoyalashning nutq o‘stirishdagi ahamiyati, ushbu muammolarning uzoq yillik tajribalarga tayangan holda chuqur tadqiq qilinishi diqqatga sazovor.

N.Bekniyazova monografiyasi[34]da esa boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatishning nazariy, amaliy, lingvometodik asoslari tadqiq qilingan, matnning tashkiliy va leksik-grammatik jihatdan ichki tuzilish xususiyatlari, matn yaratishni o‘rgatishdagi mashqlar tizimi, tuzilgan matnni takomillashtirishni o‘rgatish borasida qimmatli fikrlar aytilgan.

Safo Matchonovning tadqiqot ishi[78]da o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish orqali mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ko‘rsatib berilgan. Unda matn turlari, ularning bir-biridan farqi hamda matn ustida ishlash bosqichlari muallifning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari mahsuli misolida yoritilgan.

D.Toshxo‘jayevaning tadqiqot ishi [129] ham rusiyzabon o‘quvchilarni matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatish orqali nutq o‘stirish masalalariga bag‘ishlangan. Bu borada muallif “Bola matn mazmunini so‘zlashga tayyor darajada nutqiy ko‘nikmaga ega bo‘lgandan keyin hikoya qilish bilan oldinma-keyin qayta hikoya qilishga o‘tiladi”, – deb ta‘kidlaydi. Tadqiqot ishida, shuningdek, matnni o‘z so‘zlari bilan qayta hikoyalashning psixologik va metodik asoslari, o‘quvchilarni matn mazmunini tushunib o‘qishga tayyorlash uchun bajariladigan ayrim leksik va grammatik mashq turlari ham bayon qilingan.

A.Nisanbaevaning tadqiqot ishi [96]da esa o‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida yoritilgan.

M.Hamdama o‘zining ilmiy ishi [161]da 1- va 2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishni keng ko‘lamda aks ettirib, ona tili va o‘qish darslari misolida masalaga umumiy jihatdan yondashgan. Tadqiqotchi nutq va uni o‘stirish masalasi haqida so‘z yuritar ekan, “nutq o‘stirishda matnlar ustida tizimli tarzda ishlash o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini aniqlash va rivojlantirib borish, so‘z ma‘nolarini to‘g‘ri anglash, o‘z nutqlarida to‘g‘ri ishlatish imkoniyatlarini tug‘diradi” degan qimmatli fikrni ham aytib o‘tgan.

T.G‘afforova va X.G‘ulomovalarning “O‘qish darslari” qo‘llanmasi [155]da 1-sinf o‘qish darslari bo‘yicha dars ishlanmalari keltirilgan. Dars ishlanmalariga matn ustida ishlash va nutq o‘stirishning turli usullari amaliy jihatdan to‘g‘ri singdirilgan. “Asar tahlilida asar tilini o‘rganish o‘quvchi lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi”, – deb ta‘kidlaydi mualliflar [155; 10-b.]. Shu bilan birga ushbu qo‘llanmada o‘qish darslarida qo‘llaniladigan ko‘pgina ish turlari ham birma-bir sanab ko‘rsatilgan, matnni ifodali o‘qish, unga reja tuzishga oid tavsiyalar hamda hikoya, ertak va she‘rni o‘rganishning metodik modellari namuna sifatida keltirilgan.

Statistik tahlilni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $n_j$  takroriylik

$$(chastota)larni mos statistik ehtimollik  $P_i = \frac{n}{n_i}$  va  $q_j = \frac{m}{m_j}$  (3.4)$$

$$\begin{cases} X_i & 3, & 2, & 1 \\ P_i & 0,38; & 0,33; & 0,29. \end{cases} \quad \text{va} \quad (3.5)$$

$$\begin{cases} Y_j & 3, & 2, & 1 \\ q_j & 0,21; & 0,30; & 0,49. \end{cases} \quad (3.6)$$

Statistik tahlil har ikki sinf bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash va ularni o‘zaro qiyoslashdan boshlanadi. O‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i x_i = 0,38 \cdot 3 + 0,33 \cdot 2 + 0,29 \cdot 1 = 1,14 + 0,66 + 0,29 = 2,09 \quad (3.7)$$

$$\text{Foizda} \quad \bar{X} \% = \frac{2,09}{3} \cdot 100 \% = 69,7\% \quad (3.8)$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{n=3} q_j y_j = 0,21 \cdot 3 + 0,30 \cdot 2 + 0,49 \cdot 1 = 0,63 + 0,6 + 0,49 = 1,72 \quad (3.9)$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,72}{3} \cdot 100\% = 57,3\% \quad (3.10)$$

Demak, tajriba sinfidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat sinfida qayd etilgan o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan  $(69,7 - 57,3)\% = 12,4\%$  ga yuqori ekan. Bu esa o‘z navbatida  $\frac{69,7\%}{57,3\%} = 1,21$  barobar ortiqqligini anglatadi.

O‘zlashtirishni aniqlash jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab o‘rtacha kvadratik va standart xatoliklar aniqlanadi.

O‘rtacha kvadratik xatoliklar:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^{n=3} P_i x_i^2 - (\bar{x})^2 = 0,38 \cdot 3^2 + 0,33 \cdot 2^2 + 0,29 \cdot 1^2 - 2,09^2 = 0,38 \cdot 9 + 0,33 \cdot 4 + 0,29 \cdot 1 - 4,3681 = 3,42 + 1,32 + 0,29 - 4,3681 = 5,03 - 4,3681 = 0,6619 \quad (3.11)$$

$$S_y^2 = \sum_{i=1}^{n=3} q_j \delta_j^2 - (\bar{y})^2 = 0,21 \cdot 3^2 + 0,30 \cdot 2^2 + 0,49 \cdot 1^2 - 1,72^2 = 0,21 \cdot 9 + 0,30 \cdot 4 + 0,49 \cdot 1 - 2,9584 = 1,89 + 1,20 + 0,49 - 2,9584 = 3,58 - 2,9584 = 0,6216 \quad (3.12)$$

Standart xatoliklar esa:

$$S_x = \sqrt{0,6619} = 0,81. \quad S_y = \sqrt{0,6216} = 0,79. \quad (3.13)$$

Ushbu har ikki statistik tanlanma bo‘yicha o‘rta qiymat aniqliklarini bir variatsiya koeffitsientlari orqali aniqlaymiz:

$$V_x = \frac{S_x}{x} \cdot 100\% = \frac{0,81}{2,09} \cdot 100\% = 38,9\% \quad (3.14)$$

$$V_y = \frac{S_y}{y} \cdot 100\% = \frac{0,79}{1,72} \cdot 100\% = 45,9\% \quad (3.15)$$

Demak, tajriba sinfidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi aniqligi nazorat sinfidan 7 foiz yuqori ekan.

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini  $\alpha = 0,05$  deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta  $t_{kr}$  ni

$$\Phi(t_{kp}) = \frac{1 - 2\alpha}{2} = \frac{1 - 2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45 \quad (3.16)$$

tenglikdan aniqlaymiz:  $t_{kr} = 1,67$ . Bundan baholashning Neyman g‘oyasi asosida ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_{\delta} = t_{\gamma} \cdot \frac{S_x^2}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,6619}{\sqrt{117}} = 1,67 \cdot \frac{0,6619}{10,82} = \frac{1,1054}{10,82} \approx 0,1 \quad (3.17)$$

ga teng, nazorat sinfida esa:

$$\Delta_{\epsilon} = t_{\gamma} \cdot \frac{S_y^2}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,6216}{\sqrt{118}} = 1,67 \cdot \frac{0,6216}{10,86} = \frac{1,0381}{10,86} \approx 0,1 \quad (3.18)$$

ga teng. Qo‘lga kiritilgan natijalardan tajriba sinfi uchun ishonchlilik intervali topiladi (3.19- va 3.20-formulaga qarang):

$$\bar{X} - t_{kp} \cdot \frac{S_x^2}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{kp} \cdot \frac{S_x^2}{\sqrt{n}} \quad (3.19)$$


$$2,09 - 0,1 \leq \hat{a}_x \leq 2,09 + 0,1 \quad 1,99 \leq \hat{a}_{\delta} \leq 2,19 \quad (3.20)$$

Nazorat sinfi uchun ishonchli interval quyidagilarga teng (3.21- va 3.22-formulaga qarang):

$$\bar{Y} - t_{kp} \cdot \frac{S_y^2}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{kp} \cdot \frac{S_y^2}{\sqrt{n}} \quad (3.21)$$

$$1,72 - 0,1 \leq \hat{a}_y \leq 1,72 + 0,1 \qquad 1,62 \leq \hat{a}_\delta \leq 1,82 \quad (3.22)$$

Har ikki sinf bo'yicha yakuniy natija qiymatlari quyidagicha geometrik shaklda tasvirlanadi:



Bundan  $\alpha = 0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba sinfidagi o'rtacha baho nazorat sinfidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\bar{X} = 2,09$ ;  $\bar{Y} = 1,72$ ;  $\Delta_\delta = 0,1$ ;  $\Delta_\epsilon = 0,1$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$\hat{E}_{\delta\epsilon a} = \frac{(\bar{O} - \Delta_\delta)}{(\bar{Y} + \Delta_\epsilon)} = \frac{2,09 - 0,1}{1,72 + 0,1} = \frac{1,99}{1,82} = 1,09 > 1; \quad (3.24)$$

$$\hat{E}_{\delta\epsilon a} = (\bar{O} - \Delta_\delta) - (\bar{Y} - \Delta_\epsilon) = (2,09 - 0,1) - (1,72 - 0,1) = 1,99 - 1,62 = 0,37 > 0;$$

**Xulosa va tavsiyalar.** Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirishda o'quvchilarning badiiy asarni to'g'ri va to'laqonli qabul qilishiga ko'mak berish, ya'ni ularni “fragmentar daraja”dan “komillik darajasi”ga olib borish nutq rivojida katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutq o'stirishda o'qish va ona tili darslari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikdan unumli foydalanish kutilgan natijaning qo'lga kiritilishini ta'minlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q., Shodmonova Sh., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: O'qituvchi, 2008. – 128 b.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2002. – 276 b.
3. Aminova F. Muloqot matni yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2006.–100 b.
4. Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.
5. Boqiyeva H., Ahmedova N., Azizova N., Nosirova D., Teshaboyeva B., Ismailova U., Teshaboyeva B., Egamberdiyeva B. Savodga o'rgatish darslari 1 (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – T.: Extremum-press, 2014. – 120 b.
6. Djuraev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G', To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Fan, 2008. – 198 b.
7. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.– 144 b.
8. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
9. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dokt. ...dis. – T.: TDPU, 1998. – 300 b.
10. Matchanov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.

**ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI TA’LIMIDA O‘QUV –BILUV TOPSHIRIQLAR  
USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI  
SHAKLLANTIRISH**

*Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Boshlang‘ich ta’lim kafedrasida tayanch doktoranti*

*Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limida o‘quv –biluv topshiriqlar ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy-mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarni kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan fikr bayon etilgan. Jumladan, ona tili va o‘qish savodxonligi fani, o‘quv-biluv topshiriqlarining boshlang‘ich sinflardagi o‘rni va bu orqali o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich sinf, metodika, islohot, mantiqli, o‘quvchi, elektron darslik, o‘simlik, hayvon, verbal, intellekt, ijodiy, mahorat, vosita, o‘quv-biluv, nutq, samaradorlik.*

**ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ РАБОТЫ  
НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАЧАМИ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ И ВОСПИТАНИЕ ГРАМОТНОСТИ  
ЧТЕНИЯ**

*В статье рассматриваются вопросы роли воспитания в обучении родного языка и читательской грамотности. Основной целью, которого является формирование творческих способностей учащихся путем работы над учебными материалами. Учащиеся приобретают навыки и умения выражать свои мысли, осмысленно и логично в письменной и устной формах. Ученики сознательно осваивают основные правила грамотности узбекского языка, а также расширяется их кругозор, углубляется чувство любви к нашей Родине, богатому смыслу, оставленному нашими предками, направленное на воспитание в духе любви к национальным традициям и обычаям. В частности, обсуждается тема родного языка и читательской грамотности, роль учебных задач в начальных классах и формирование это творческих способностей учащихся.*

**Ключевые слова:** *методика, реформа, логика, ученик, электронный учебник, растение, животное, вербальная речь, интеллект, творчество, умение, средство, обучение, речь, эффективность, учащиеся начальных классов.*

**FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY WORKING ON EDUCATIONAL  
TASKS IN MOTHER TONGUE AND READING LITERACY EDUCATION**

*In the article, in the education of mother tongue and reading literacy, the main goal of teaching the science of mother tongue and reading literacy is to form the creative abilities of students by working on educational tasks to express their thoughts freely and effectively, meaningfully and logically in written and oral form, to teach them to consciously master the Uzbek language and the rules of the law, as well as to expand their circles of thought, to teach our motherland, the rich meaning left by our ancestors the opinion aimed at educating in the spirit of love for our character and national traditions are stated. In particular, the subject of mother tongue and reading literacy, the role of educational tasks in primary grades and the formation of students' creative abilities through this were discussed.*

**Keywords:** *primary class, methodology, reform, logical, student, electronic textbook, plant, animal, verbal, intellect, creative, skill, tool, learning-knowledge, speech, efficiency.*

**Kirish.** Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzda o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o‘quv faoliyati fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o‘quvchilarning og‘zaki va

yoza nutqidagi nuqsonlar yo‘qola boradi. O‘quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og‘zaki va yozma nutqiga va ularning ijodiy qobiliyatlarini e‘tiborga olgan holda ularning shaxsiy intellektlari kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o‘quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o‘rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to‘g‘ri va aniq ifodalab berishga o‘rgatish, o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan juda katta mas‘uliyatni talab qiladi. Biz mana shu oldimizga qo‘yan maqsadlarimiz sari olg‘a borib, yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash sari ildam qadamlar bilan, aniq rejalar asosida o‘quvchilarga bilimlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bunda bizga boshlang‘ich sinf darsliklari asosiy darslik sifatida yordam beradi. Boshlang‘ich sinf fanlariga oid darsliklarni yaratishda o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqqan holda, ma‘lumotlar ilmiy jihatdan asoslanishiga alohida e‘tibor beriladi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ma‘lumotlarning pedagogik talablaridan kelib chiqqan holda osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga e‘tibor qaratiladi. Mazkur tamoyil, o‘quv materiallari mazmunida ifodalangan bilimlarning asl manbalari mohiyatini tahlil qilishda o‘quv topshiriqlari asosida ish ko‘rishning afzalliklari ko‘p. Avvalo biz o‘quv-biluv topshiriqlari o‘zi nima va ular qanday jarayon ekanligiga to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

**Muhokamalar.** Boshlang‘ich ta‘lim vositalari sifatida o‘quv matnlari asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quv matnlari ayni vaqtda ta‘limning yangi vositalarida (elektron darsliklar, videofilmlar, audio darslar, audio va videokassetalar, videodisk va boshqa axborot texnologiyalari) ifodalanmoqda.

Boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan elektron darslik - muayyan fan yoki uning biror bo‘limini kompyuter yordamida mustaqil yoki o‘qituvchi hamkorligida o‘zlashtirish imkoniyatini ta‘minlaydigan dastur-metodik majmuadir.

*Elektron darslikda* fan mazmuni quyidagicha ifodalanadi: o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida; o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklida; multimedia qo‘llanmalar, ya‘ni ma‘lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishida, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida; taktil (his qilinuvchi) xususiyatli, biror jarayonning amalga oshish faoliyati yoki ob‘ektning harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

*Videofilm* – boshlang‘ich ta‘lim o‘quv kursining biror bo‘limi yoki mavzusini oynajahon orqali ko‘rsatishga moslashtirilgan videotasvir asosida yaratilgan metodik vosita hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta‘limdan *audio darslarni* ishlab chiqish o‘quvchilarga ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish, atrof-muhitga hissiy-qadriy munosabatni tarkib toptirishga mo‘ljallangan metodik vositani yaratishdir. Audio darsni ishlab chiqish aniq ifodalangan “personajli” xarakterga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, ayniqsa, syujetli, rolli o‘yin texnologiyalari asosida o‘simlik, hayvon personajlarini yaratish, material mazmunini ochib berishda personajlarining ovozlari o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun bir-biridan farqli bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga materialni eshittirish orqali ular tomonidan mavzu mazmunini bimalol tushunishlariga imkoniyat yaratiladi.

*Audio* va *videokassetalar, videodisklarda* o‘quv materiallari joylashtirilib, o‘quvchilarning alohida yoki jamoaviy qo‘llashlari uchun o‘quv xonalari qo‘yiladi. Jamoaviy foydalanilgan holda, o‘quvchilar orasida muloqot va muhokama etish imkoniyati ham mavjud. Darsliklar o‘quv materiallarining mazmuni va metodik strukturasi qanchalik mukammal, to‘g‘ri, ilmiy asoslangan (yangi pedagogik texnologiyaga rioya qilingan) va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan bo‘lsa, o‘qituvchining kafolat bilan yuqori samarali dars berishi shunchalik aniq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda o‘qituvchining kasbiy mahorati, u tomonidan dars loyihasi hamda o‘quv materiallarini tarkiblashtirish shakl, metod va vositalarining to‘g‘ri tanlay olishi ham muhim o‘rin tutadi. O‘quv faoliyatini boshqarish, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini MD talablari darajasida o‘zlashtirishlari, shuningdek, ularning bilish tafakkurini kengayishida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy izlanishi, o‘quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlarini to‘g‘ri belgilay olishi katta ahamiyatga ega. O‘quv topshiriqlari bu- boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan barcha topshiriqlar o‘quv topshiriqlari deyiladi. O‘quv topshiriqlari darsliklarda har xil mazmunda va har xil shaklda berilgan. Dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini yo‘naltirishga imkon beradigan muammoli vaziyatlarning yaratilishi, muammoning qo‘yilishi, avval o‘rganilgan materiallarni eslash, yangi material mazmunida ilgari surilayotgan asosiy g‘oyalarni mustaqil ravishda ajratish, ziddiyatlarni oqilona hal etish va ularning ijodiy izlanishga undash mavjud imkoniyatlarning kengayishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mustaqil faoliyatni tashkil etish va o‘quvchilar harakatini boshqarish o‘qituvchining o‘quv materiali mohiyatini mantiqiy tahlil qilishdan boshlanadi. Shu tarzda o‘qituvchi bir soatlik dars loyihasini ishlab chiqadi. Dars loyihasini ishlab chiqishda uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, ketma-ketlik, uzviylik, darsning aniq maqsadi, o‘quv materialining mazmuni, o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari hamda maktab sharoiti hisobga olinadi. Yuqorida qayd etilganidek, o‘quv materiallarini loyihalashga nisbatan pedagogik yondashuv

ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlash hamda o'zlashtirish sifatini oshirishga yordam beradi, shuningdek, o'quv jarayonining samaradorligini kafolatlaydi.

Biluv topshiriqlari bu – grammatik mashqlar bilan ona tiliga oid o'quv muammolari o'rtasidagi oraliq vosita bo'lib, o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishning yetakchi omilidir. Ulardan unumli foydalanish bolalarda mustaqil ijodiy ishga layoqatini o'stiradi. Biluv topshiriqlari dars jarayonida ta'limga tatbiq qilinadi. Biluv darslari quyidagi jihatlarini aks etadi:

- yangi bilimlarni idrok qilish,
- malaka hosil qilish,
- ona tilidan o'rganilgan bilimlarni takrorlash.

Mavzu doirasida bolalarning bilimi, ijodiy faoliyat tajribasini kengaytirish bosqichlarida biluv topshiriqlaridan foydalaniladi. Ona tilidan o'rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash bosqichlarida biluv topshiriqlari ta'limga tatbiq qilinadi. Ona tilidan bolalarning bilim va malakalarini umumlashtirish darslarining ikki yoki undan ortiq mavzuda o'rganilgan bilimlarga oid dalillarni taqqoslash, dalillardan umumiy xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosani murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish bosqichlarida biluv topshiriqlari tashkil etiladi. Biluv topshiriqlarini ta'limga tatbiq etish jarayonida ona tili o'quv predmetining barcha nuqtai nazarlari hisobga olinadi. Biluv topshiriqlari bolalarda-fonetik hodisalarni (nutq tovushi va harf, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, uning turlari, bo'g'in ko'chirish, urg'u) ajrata olish, o'tilgan mavzular yuzasidan o'qituvchi o'zi mustaqil ulaning salohiyati va egallangan bilimni qay darajada o'zlashtirilganligiga qarab turli xildagi tuziladigan mashqlar desak bo'ladi. Bilish faoliyati maqsadlari ob'ektiv xarakterga ega. U kishilar tomonidan topilmaydi. Aksincha, bilish faoliyati maqsadi jamiyatning taraqqiyoti, fan va texnikaning, san'at va adabiyotning rivojiga o'z hissasini qo'shadi, binobarin, u ijtimoiy tajribani o'zlashtirish talablari, ehtiyojlariga ko'ra belgilanadi.

Agar o'quv faoliyati maqsadi bilimlarni egallash, ko'nikma, malakalarni shakllantirish e'tiyajlari zaminida shakllantirilsa, bilish faoliyati maqsadlari yanada keng, mazmun jihatdan boy hodisalarga borib taqaladi. Bunday hodisalar qatoriga bolaning jamiyatda o'z o'rnini anglashga intilishi, sinfdosh va tengdoshlari bilan fikrlashish ishtiyoqi, o'zini yaxshi fazilat, odatlarga tayyorlash uchun kurashi, o'quv predmetlaridan birontasini boshqalarga nisbatan qo'lay olishi, unga urinishi kabilar kiradi.

Ana shularga ko'ra bilish maqsadlarining quyidagicha ko'rinishlarini ajratamiz:

Ijtimoiy maqsadlar: ular istiqbolga yo'nalgan maqsadlar bo'lib, bolaning kelajakka intilishi va o'zini unga tayyorlashida ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy maqsadlar xususidagi bolalarning tasavvurlari juda erta, maktabgacha tarbiya yoshida shakllana boshlaydi. Bu hodisani onasining ikki qo'lidan ushlab yuriyotgan va ko'tarishidan zavqlangan bola "katta bo'lsam, men ham sizni ko'taraman" yoki mashinada otasi bilan yonma-yon o'tirgan bolaning "men ham sizni mashinada olib yuraman" degan jumllarida ko'ramiz. Ijtimoiy maqsadlar ota-ona, atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida shakllanib, bolaning atrofdagi kishilar, Vatanni sevish, xalqiga xizmat qilish orzu-istaklarini rivojlantirib, yillar osha takomillashib boradi. Bola sinfdan sinfga o'tgan sayin ijtimoiy maqsadni asosli ang'lay boradi. Maqsadni ang'lash bolani o'z ustida qunt bilan ishlashga, o'qish- o'rganishga undaydi.

Fikrlashish, so'zlashuv maqsadi bolani o'qish- o'rganishga, o'z fikrlarini o'zgaralar: ota-ona, sinfdosh, o'qituvchi bilan baham ko'rishga yetaklovchi maqsaddir.

Axloqiy maqsad. Unda barkamol shaxsni shakllantirishga oid orzu-istaklar aks etadi.

Jamiyatda, jamoada o'z o'rnini ang'lash, ota-ona, o'qituvchi, sinfdoshlar oldidagi o'z burchini ang'lash bolani o'qish- o'rganishga oid qiyinchiliklarni bartaraf etishga yetaklaydi.

O'z- o'zini tarbiyalash, faollashtirish maqsadi — o'z faoliyatida yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etishga intilish, faoliyatdagi yutuqlarni ko'paytirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid maqsadlardir. Bola u yoki bu masalani qanday, qaysi yo'llar bilan bajarganini tahlil qilish, insho yoki yozilgan hikoyani qayta ko'rib chiqish qaysi bilan bunday maqsadni amalga oshiradi. Bilish maqsadlari va bilish motivlarining o'zaro chatishib ketganini hisobga oladigan bo'lsak, bilish motivlarining ham qator guruhlarini ajrata olamiz:

- ijtimoiy motivlar;
- aloqalashuv motivlari;
- fikrlashuv motivlari;
- ahloqiy motivlar;
- o'z- o'zini boshqaruv motivlari.

Agar biluv maqsadlari va motivlari dars tizimida amal qilsa, bilish maqsad va motivlari esa jamiyat, aholi, muloqot, o'z- o'zini tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib, ular maktabdan tashqaridagi hodisalar bilan boshlg'iqdir.

Biluv faoliyatining yana bir tarkibiy iismi biluv vositalaridir. Biluv vositalari — bu bilish jarayonida o‘quvchi o‘zi bilan biluv predmeti sarasiga kiradigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. Muammo, o‘quv topshiriqlari, turli chizma va jadvallar moddiy narsalar qatoriga kirsa, biluv topshiriqlari ta’limda aqliy faoliyat usullari moddiylashgan narsalar sirasiga kiradi. Moddiy vositalar ta’limga tashqaridan olib kirilsa, moddiylashgan narsalar ( biluv mehnati usullari) bolalarning o‘zida.

Bilish maqsadlari bevosita biluv materiallarini o‘rganish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy aloqalashuv, ahloqiy, o‘z- o‘zini faollashtirish maqsadlarini amalga oshirish bilish maqsadlarini reallashtirish, ongli amalga oshirishga olib keladi. O‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitga tatbiq etish, masala, misol, mashqlarni yangicha usullar bilan bajarishga intilish, mavzuga oid yangi faktlarni izlab topish va shu kabilarni bilishga oid maqsadlarni amalga oshirishga olib keladi.

O‘quv muammosi yoki biluv topshirig‘ida aks etgan pozitiv (ijobiy) ziddiyat oldin o‘rganilgan bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajriba vositasida hal etilsa, unda o‘quvchi o‘z temperamentidan kelib chiqib o‘quvchida u yoki bu o‘quv predmeti bo‘yicha to‘plangan bilim, usul, hayotiy tajribalar tizimi) kerakli bilim, faoliyat usuli vositasini izlaydi. Zaruriyat tug‘ilganda kerakli bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajribani izlash va uni berilgan yangi o‘quv holatiga tatbiq etish o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, u bolalarda tanlay olish layoqatini rivojlantiradi.

Ta’lim sharoitida o‘quv materialini ijodiy o‘rganish quyidagi bosqichlarga rioya qilishni taqozo qiladi: berilgan savol, topshiriq, muammolarning mazmunini tahlil etish va uni real borliqqa ko‘chirish; bilish jarayonida paydo bo‘lgan tasvirni anglash va uni hal etish vositalarini izlash; tanlangan usul, vositalarni berilgan o‘quv holatiga tatbiq etish; o‘quv holati xususiyatlari asosida xulosalar chiqarish; chiqarilgan xulosani amaliyotga tatbiq etish.

O‘quvchi va o‘quv materialining o‘zaro ta’sirini biluv materialiga ko‘ra nazariy tahlil qilish va ta’limning davriyligi qonuniyati asosida ta’lim jarayonining quyidagi bosqichlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini eksperimental o‘rganishni rejalashtiramiz.

1. Yangi bilimlarni o‘rganish va dastlabki mustahkamlash jarayonlarida:

— yangi bilimlarni o‘rganishga tayyorlash;

— yangi bilimlarni turli manbalardan idrok etish;

— yangi bilimlarni mustahkamlash xarakteridagi ijodiy ishlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish subyekti mavqeini oshiradi.

2. O‘rganilgan bilim, faoliyat usulini yangi sharoitga tatbiq etish va malakalarni takomillashtirish jarayonlarida:

— qo‘yilgan muammo, topshiriqlarni bajarish uchun yaroqli bilim, faoliyat usulini tanlash;

— bilim, faoliyat usuli tatbiq etiladigan yangi sharoitni tahlil etish;

— bilim, faoliyat usulini yangi sharoitga tatbiq qilish;

— muammo, topshiriqning bajarilishidan xulosalar chiqarish xarakteridagi ijodiy ishlarni tashkil etish yo‘llari bilan o‘quvchi ta’lim jarayoni sub’ektiga aylantiriladi.

3. O‘rganilgan bilim va faoliyat usullarini faollashtirish jarayonlarida:

— muammo, topshiriqlarni bajarishga yaroqli informatsiya, faoliyat usullarini tanlash;

— bilimlarni o‘xshash sharoitlarga ko‘chirish;

— o‘rganilgan tushuncha mazmunini yangi axborotlar bilan kengaytirishga oid muammo, topshiriqlarni bajarish bolalar faolligini oshiradi, ularni ijodiy izlanishga yo‘llaydi.

Biluv faoliyati vositalari

Maktab ta’limi muammolari o‘quvchidan tashqarida emas, aksincha, uning o‘zida. Binobarin, yoshlarning o‘quv-tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar, pedagogik amaliyot masalalari bolalarning hayoti, ularning real bilish imkoniyatlari bilan uzviy boshlangan holda o‘rganilishi va sharhlanishi lozim. Bunga o‘qituvchini ta’limning o‘quvchi bilan teng holda sub’ekti sifatida tasavvur etish va shu tasavvurga ko‘ra o‘quv yumushlarini tashkil etish yo‘li bilan erisha olamiz.

Bular o‘zaro ta’sirning jarayondagi xususiyatlari tasavvurlarimizni kengaytirishga olib keldi. O‘zaro ta’sir bosqichlari o‘rtasida osoyishtalik nuqtalari mavjud bo‘lib, ularning oldingisidan keyin navbatdagi yanada sermazmun bosqich boshlanadi. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ongli o‘tish o‘quv ishlarining samaradorligini ta’minlaydi. Shunday qilib, o‘zaro ta’sirni o‘quv materialiga ko‘ra tahlil qilish yo‘li bilan chiqarilgan xulosalar o‘shirish — o‘suvi faoliyatining jarayoniy tavsifidir. Ilmiy bilish jarayoniga sxshab bolalarning siuv-biluv faoliyatida ‘am maisad, vosita, natija szaro boshlangan ‘olda ishtirok etadi.

Maqsad keng ma’noda, anglangan, hali erishilmagan natijadir. Maqsad insonning barcha harakatlari — jismoniy va aqliy intilishlarini ma’lum yo‘nalishga soladigan, ijtimoiy qiymatga ega motiv, emotsiyalarni ishga tushiradigan, bolaning qiziqishini oshiradigan, uni aqliga zo‘r berib faoliyatga undaydigan, shaxsiy

dunyoqarashini boyitishga yo‘nalgan, ongda sabab-oqibat boshlanishlarning amal qilishini ta‘minlaydigan sub‘ektiv — ruhiy hodisadir.

**Xulosa.** Jamiyatimizdagi bo‘layotgan katta o‘zgarishlar o‘qitish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan o‘zgarishlar kiritib, davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o‘qituvchilar bugungi dars qanday bo‘lishi kerak, oldingi shakllangan darsdan nimasi bilan farq qilishi lozim - degan savolga javob qidirishmoqda. Shundan kelib chiqib, o‘quv tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilandi. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat standarti, yangi pedagogik texnologiya ishlanib, hayotga tatbiq etildi. Maktabdagi ta‘lim-tarbiya jarayonining sifatiga, o‘quv jarayonini tashkil etishga e‘tibor kuchaydi. Biroq jamiyatdagi shaxslarning bunday holatlarga hali tayyor emasligi maktab hayotidagi tengsizlik, formalizm, ijodkorlarga e‘tibor bermaslik, faqat buyruqbozlik asosida ishlashga qaratilgan maktab hayotidagi kamchiliklar hali ham uchrab turadi.

Birinchi, sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o‘qituvchilarga hurmat-ehtirom, ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga sharoitlar yaratish;

Ikkinchi, o‘quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat o‘quvchilarga o‘quv materiallarining ahamiyatiningina bildirib qolmasdan, ularga o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan bilim olishning, ko‘nikma metodi bilan usullariga ishonchni qaratish orqali;

Uchinchi, o‘quvchilarning bilim olishda belgili bir xulosaga ega bo‘ladigan ishonch metod va usullar bilan tanishtirish (tushuncha, yodga, olgan bilimini amalda qo‘llana olishga qaratilgan metod va usullar bilan tanishtirish deb tushuncha berish). Bu o‘quvchilarning yaxshi o‘qishiga, ta‘lim-tarbiya olishda faollikka, ijodkorlikka olib boradigan foydali yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi deb qarash;

To‘rtinchi, o‘quvchining amaliy dasturda olib borilishini, o‘quvchilarning mustaham, yaxshi bilim olishiga, (bilim olish bu nazariy olgan bilimlarini hayotda qo‘llay bilish degan so‘z) bu esa o‘quvchining o‘z bilim va kuchiga ishonchni yanada ortirishga olib keladi;

Beshinchi, barcha o‘quvchilarning oliy darajada bilim olib, uni yangi sharoitda qo‘llay olish imkoniyatlariga sharoit yaratish. Darsda o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini to‘g‘ri xulosali tashkillashtira olish va ularning o‘z mehnatining mevasidan qanoatlana oladigan sharoitlar yaratish;

Hozirgi paytda darsda o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida ishonch, bir-biriga hurmat-ehtirom, mustaqil muhit, ijodkorlik yo‘nalishida birgalikda ishlash muammolari ayniqsa muhim bo‘lib turibdi. Maktab-umuman aytganda xalq maktabiga, milliy mazmuniga ega bo‘ladi. Shuning bilan birgalikda oilaning ham davomi sanaladi. Shu tufayli, maktab zamon talabiga mos jamiyat tomonidan oldiga qo‘ygan vazifani bajaruvchi sanaladi. Maktab va unda xizmat qiladigan o‘qituvchilar jamiyatida asosiy figura bo‘lib hisoblanadi. Ijodkor bo‘lishi uchun o‘qituvchi umumiy pedagogik, didaktik va metodik jihatdan ilmga ega bo‘lishi bilan birga, uni amalga oshirish usullarini ham bilishlari lozim. Ushbu aytilgan fikr har bir o‘qituvchining qalbiga to‘la o‘rnashib, o‘rganuvchanlik yo‘li orqaligina mavjud bilim va imkoniyatlarimizni, is‘tedodimizni maktab oldiga qo‘ygan vazifalarni bajarishga harakat qilmog‘imiz darkor. O‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishni har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o‘quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa ularda, sog‘lom mayllar va qiziqishlar hosil bo‘ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar. An‘anaviy ta‘lim sharoitida bilish faoliyati o‘qituvchining o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o‘tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o‘quvchilarga tayyor tarzda uzatilmaligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘ldilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo‘lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B. Umumiy didaktika,- Toshkent, 2009
2. Safarova R. Nutqiy ko‘nikmalarni tekshirish asoslari. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali. T.: 1997. 5-son.
3. Matchonov S., G‘ulomova X. Nutq madaniyati. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali. T.: 2013 yil. 1-son.
4. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limini ijodiy tashkil etish : Monografiya
5. www.ziynet.uz



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BLUM TAKSONOMIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Husenova Aziza Sharipovna,*

*Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
a.sh.husenova@buxdu.uz*

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasining pedagogik va psixologik xususiyatlari, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zarurati, mohiyati va metodikasi berilgan. O‘quvchilar mustaqil ta‘limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, mustaqil ish, mustaqil ta‘lim, taksonomiya, kognitiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash, o‘quvchi, metodika.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТАКСОНОМИИ БЛУМА НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

*В статье рассматриваются педагогические и психологические особенности таксономии Блума на занятиях по читательской грамоте в начальной школе, необходимость и сущность обучения новым самостоятельным видам деятельности и упражнениям в результате самостоятельного повторения полученных знаний в этой области, сочетания их с приобретенными навыками. даны компетенции и методология. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.*

***Ключевые слова:** начальный класс, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, таксономия, познавательное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, ученик, методика.*

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF BLOOM'S TAXONOMY IN ELEMENTARY SCHOOL READING LITERACY CLASSES

*In the article, the pedagogical and psychological features of Bloom's taxonomy in elementary school reading literacy classes, the necessity and essence of learning new independent activities and exercises as a result of independently repeating the knowledge acquired in this field, combining them with acquired skills and competencies and methodology are given. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.*

***Keywords:** primary class, independent work, independent education, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, assessment, student, methodology.*

**Kirish qismi.** Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilganligi, maktab ta‘lim tizimining ma‘naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta‘lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta‘lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Hozirda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohotlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, ya‘ni ta‘limning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, ko‘proq samaradorlikka erishishga qaratilgan. Blumning taksonomisi - bu o‘rganishda ishlatiladigan bilim qobiliyatlari uchun tasniflash tizimi. O‘qituvchilar ushbu taksonomiyadan darslarni rejalashtirish uchun foydalanadilar. Amerikalik mashhur

psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o‘quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta’lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O‘quv maqsadlari taksonomiyasio‘quvchilar o‘zlashtirishining ma’lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o‘zaro bog‘liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** “Taksonomiya” atamasi yunoncha taxis (tartib bo‘yicha joylashuvi) va nomos (qonun) so‘zlaridan iborat bo‘lib, obyektlarni o‘zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma’nosini anglatadi.

Blum taksonomiyasi o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O‘quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo‘yicha mustaqil ta’lim jarayonidagi holati haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Kognitiv soha. Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zaruratiga tegishli o‘quv maqsadlari kiritiladi.

2. Affektiv soha. Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta’sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.

3. Psixomotorli soha. Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq maqsadlar kiritiladi.

**Taksonomiya** - borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Blum taksonomiyasi bosqichlari

1. Bilish
2. Tushunish
3. Qo‘llash
4. Tahlil qilish
5. Sintez

6. Baholash bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstrakt bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o‘zgartira oladi (so‘zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, no’anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma’lum bir model, formula, ko‘rsatma asosida to‘g‘ri qo‘llaydi.

Bilish, Tushunish, Qo‘llash Blum taksonomiyasi bosqichlari darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. O‘quvchilarning Blum taksonomiyasi bo‘yicha bilishga oid o‘quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchi mavzu bo‘yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta’rif berishi, ma’lumotlarni qayta ishlashlari, o‘z fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishi kerak bo‘ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Blum taksonomiyasi nima? Bloom taksonomiyasi - bu o‘quv maqsadlarini murakkablik va o‘ziga xoslik darajalariga ajratish uchun ishlatiladigan uchta ierarxik modellar to‘plami. Uch ro‘yxat kognitiv, affektiv va hissiy sohalarida o‘quv maqsadlarini qamrab oladi. Bloom taksonomiyasi 1956-yilda pedagogik psixolog Benjamin Bloom boshchiligida faktlarni eslab qolishdan ko‘ra tushunchalar, jarayonlar, protseduralar va tamoyillarni tahlil qilish va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash shakllarini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida yaratilgan. U ko‘pincha o‘quv va o‘quv jarayonini rivojlantirishda qo‘llaniladi. Muxtasar qilib aytganda, taksonomiya bolalarning eslab qolish, tushunish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rganish ta’sirini tahlil qilish uchun samarali vositadir.

Taksonomiya - bu oilani, jinsni va turlarni o‘z ichiga olgan biologik tasniflar kabi tushunchalar yoki narsalarni guruhlar va buyurtma qiluvchi tizimdir. 1956-yili, ta’lim psixologi Benjamin Bloom o‘rganish uchun zarur bo‘lgan bilim qobiliyati taksonomisi yaratdi.

Olti darajali intellektual ko‘nikmalar

Bloomning taksonomiyasi oltita darajadagi intellektual qobiliyatga ega, har biri avvalgi darajadagi: bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash.

Ushbu taksonomiya odatda oltita bo‘linishga bo‘lingan piramidadir. Pastki bo‘lim - bu bilim. Bu darajada bolalar haqiqatlarni va tafsilotlarni yodga olishadi. Bu barcha boshqa bilim qobiliyatlari uchun asosdir va shuning uchun ko‘p vaqt maktablarda unga bag‘ishlanadi. Ikkinchi daraja tushunishdir. Faqat ma‘lumot va tafsilotlarni eslab qolish uchun etarli emas, bola tushunchalarni tushunishi kerak. Bolalar tushunchalarni tushunishganda, ular turli vaziyatlarda ularni qo‘llashlari kerak.

Piramidani yuqoriga ko‘targanimizda, bilim qobiliyatlari talabchan bo‘lib qolmoqda. Tahlil qilish talabalarni nimani o‘rganishlarini va nimani nazarda tutayotganlarini o‘ylashni talab qiladi. Masalan, ular ikki narsani solishtirib ko‘rishlari kerak.

Piramidaning oxirgi, eng yuqori darajasi baholashdir. Ushbu bosqichda o‘quvchilar fikrni shakllantirish va fikrlarini asoslab berishga harakat qilishadi.

Bunday fikr-mulohazalar o‘quvchilar bilimlarni qo‘lga kiritish darajasidan yuqoriga ko‘tarilishni talab qiladi.

Bloomning taksonomiyasini qayta ko‘rib chiqish

1990-yillarda taxalluslar ismlarni fe‘llarga almashtirish bilan qayta ko‘rib chiqilgan. Ma‘lumotni tushunish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash o‘rniga, qayta ko‘rib chiqilgan versiyalarni eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish kabi ro‘yxatlar mavjud. Baholash eng yuqori daraja emas. U sintezning o‘rnini oladi va keyinchalik yuqori qismga o‘tadi.

Texnik jihatdan, baholashni sintez qilish faqat joylarni o‘zgartirdi. Kalit orqasidagi g‘oya, kimdir yangi narsa yaratmasidan oldin - sintez qilish - u allaqachon mavjud bo‘lgan axborotni baholashi kerak. Tuzilish yoki sintezlash eng qiyin aqliy qobiliyat deb hisoblanadi.

Har bir darajada talab qilinadigan muayyan ko‘nikmalar va har darajadagi savollarga javob olish uchun interaktiv Bloomning Taksonomiya piramidasi ko‘rib chiqing.

Bloomning taksonomiyasini qobiliyatli bolalar bilan ishlatish

Bloomning taksonomiyasini tasvirlaydigan piramidaning pastki qismidagi ko‘nikmalar past darajadagi fikrlash qobiliyatlari deb hisoblanadi. Ular master qilishning eng oson ko‘nikmalari.

Tajribalar yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari deb hisoblanadigan piramidani yuqoriga ko‘tarishda murakkablashadi.

Ko‘pgina bolalar o‘z vaqtlarini ancha yuqori darajaga ko‘tarishdan oldin past darajadagi mahoratga sarflashlari kerak. Misol uchun, bolalar birinchi marta haqiqatlarni eslab qolishlari kerak. Keyinchalik ko‘p vaqtni bilib olgan tushunchalarni tushunishlari kerak. Ular tushunchalarni o‘rgandilar va tushunishganda, ular yangi vaziyatlarga murojaat qilishlari mumkin. Bularning barchasi past darajadagi mahoratdir. Bolalar birinchi darajali ko‘nikmalarni egallab bo‘lmaguncha, bolalar yuqori darajadagi ko‘nikmalarga o‘tishlari mumkin emas.

Piramid iste’dodli bolalar uchun teskari tarjima qilinishi kerak. Iqtidorli bolalar past darajadagi mahorat bilan kamroq vaqt sarflashlari kerak. Ular falsafiy va tafsilotlarini o‘zlarining aql-idrokiga yarasha tengdoshlariga qaraganda tezroq xotiraga olishlari va tushunchalarni tushunish uchun kamroq muammolarga ega bo‘lishlari mumkin. Ular o‘zlarining yuqori darajadagi ko‘nikmalariga o‘tish uchun tezroq tayyorgarlik ko‘rishadi. Bu oliy darajadagi iste’dodli bolalar o‘zlarining ilmiy mashg‘ulotlarining ko‘pchiligini oladi. Xorijiy olimlardan Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o‘quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir.

O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘shida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash

hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi. Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

**Xulosa.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil ta’limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosida yondashuv ularning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum taksonomiyasi asosida o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta’lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zaxirasi mavjud. Sifatli ta’limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an’anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o‘qituvchilar anglab yetdi.

Boshlang‘ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o‘qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o‘zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o‘qish va orfografik til me’yorlariga amal qilishni dars jarayonida tadbiq etish lozim. Yangi O‘zbekistonni qurishimiz uchun avvalo ta’lim tizimimizni yangilashimiz, yangi g‘oyalar kiritishimiz, yangi islohotlar o‘tkazishimiz kerak. boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi.

Yosh maktab o‘quvchilarining fikrlashlari aniq, dunyoga qarashlari obyektivdir. Topishmoq yozish orqali ular o‘z e’tiborini haqiqatda idrok etilgan yoki tasavvurda qayta yaratiladigan aniq ob’ektga jamlash

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuni yodda tutish kerakki, kichik maktab o‘quvchilari obyektlarni idrok etishda hali yetarli tajribaga ega emaslar. Shuning uchun kuzatishni o‘tkazish belgilarning butun majmuasiga emas, balki ma’lum bir obyekt yoki hodisa uchun eng yorqin, eng muhim va bundan tashqari, oson qabul qilinadigan alohida belgilarga e’tibor berishni o‘z ichiga oladi. Ijodiy vazifalar, intellektual rivojlanish texnologiyalari, og‘zaki rasm chizish va ekskursiyalar yosh maktab o‘quvchilarining barkamol rivojlanishiga yordam beradigan qiziqarli, hayajonli darslarni o‘tkazishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida (lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel, PF 5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida Farmoni.
3. Проектирование результатов обучения с использованием модифицированной таксономии Блума // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. 2015. №46.
4. Khusenova, A. (2022). The process of integrating the activities of the teacher in the design of mother tongue education. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 216-227.
5. Sharipovna, K. A. (2021). The Role of Learning Activities in the Design of Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons. *Central asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(10), 111-114.
6. Husenova, Aziza Sharipovna. "Training of Future Teachers of Primary Classes to Guide Project Activities of Students." *World science: problems and innovations*. 2021.
7. Sharipovna, Husenova Aziza. "Effectiveness of teacher modeling in integration of mother language and reading lessons in primary class." " *USA" International scientific and practical conference topical issues of science*. Vol. 8. No. 1. 2023.
8. Sharipovna, H. A. (2023). The Practical Importance of Bloom's Taxonomy in Elementary Reading Literacy Lessons. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 203-206.
9. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. -128 b
10. G‘aforovna, J. H. (2023). Xalqaro tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 489-489.
11. G‘aforovna, J. H. (2023). Interfaol metodlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 666-666.
12. Jumayeva, H.G.‘ (2023). Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 45-47.
13. G‘aforovna, J. H. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: Jumayeva Habiba G‘aforovna Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 226-231.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING ONA TILI TA‘LIMIDA “4K” MODELINI ASOSIDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

*Jumayeva Habiba G‘aforovna,*

*Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi  
h.g.jumayeva@buxdu.uz  
habibajumayeva89@gmail.com*

*Maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining ona tili ta‘limida “4K” modeli asosida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta‘lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, o‘qituvchi, sinf, axborot, elektron texnologiyalar, boshlang‘ich ta‘lim, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq, inson, muammo, shaxs, tuyg‘u, pedagogika, yondashuv, ijodiy qobiliyat, iqtidor, ijodiy faoliyat, innovatsiya, kreativlik darajalari.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «4К» В ОБУЧЕНИИ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

*В статье рассматривается развитие навыков творческого мышления на основе модели «4К» в родном языке обучения учащихся младших классов и современной методике преподавания в начальных классах, актуальность развития творческой активности детей с младшего школьного возраста в современном обществе описаны элементарные педагогические возможности и важность обучения студентов творческой деятельности, эффективность организации творческих способностей студентов на основе современных образовательных подходов.*

**Ключевые слова:** ученик, учитель, класс, информация, электронная техника, начальное образование, мотивация обучения, мышление, память, интеллект, логика, человек, проблема, личность, чувство, педагогика, подход, творческие способности, талант, творческая деятельность, новаторство, уровни творчества.

## DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE "4K" MODEL IN MOTHER TONGUE EDUCATION

*In the article, the development of creative thinking skills based on the "4K" model in the mother tongue education of elementary school students and the modern methodology of teaching in elementary classes, the relevance of developing children's creative activity from elementary school age in today's society, elementary pedagogical opportunities and importance of teaching students to creative activities, effectiveness of organizing students' creative abilities based on modern educational approaches are described.*

**Keywords:** student, teacher, class, information, electronic technology, primary education, learning motivation, thinking, memory, intellect, logic, human, problem, personality, feeling, pedagogy, approach, creative ability, talent, creative activity, innovation, levels of creativity.

**Kirish qism.** O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy qoidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko‘rsatma berilgan. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo‘lib qolayotganligi aytiladi. Davlat ta‘lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotganligi ta‘kidlab o‘tiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta‘lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta‘lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar** Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta‘lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya‘ni bu tamoyilda quruq ma‘lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

**Kreativ fikrlash** - bu qimmatli va asl g‘oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo‘nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda “kundalik” ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san‘at bilan bog‘liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarida funktsional bo‘lgan vazifalarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Maktablar kreativ fikrlash ko‘nikmasi, aqliy ko‘nikmalar, bilim sohasining tayyorligi, yangi g‘oyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash ko‘nikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik), qiyinchilikka duch kelganda o‘z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish shu bilan birga, topshiriqni bajarishga ragbatlantirilganlikni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o‘ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o‘zaro chambarchas bog‘langan. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag‘batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o‘z-o‘zidan shakllanadi.

**Kreativ fikrlash:** O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta‘limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratadi. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘z ichida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta‘limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta‘lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta‘limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta‘lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta‘limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma‘naviy boyitishdan iboratligi ta‘kidlangan. Ta‘limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma‘naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Yurtimizda ta‘lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma‘noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma‘noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** *Ijodkorlik* - o'quvchi egallayotgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashni ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, o'quvchilar kundalik yoki hayoti davomida, kelajakda yangi ixtiro va tadqiqotlar olib-borishlarida, bo'lajak mutaxassislarining fan asoslarini o'zlashtirishda, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda ijodiy ish shakllarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik faoliyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik

*Ijodkorlik* – bu nafaqat xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ijobiy samarali texnik yechim, balki obyektiv borliqni bilish yo'li hamdir. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bilan, ikkinchisi – o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari uchun tanish bo'lgan jarayonlarda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi. Odatda ijodkor o'quvchilar eng yaxshi ma'lumotlarni o'zlashtirishga va amaliy tajribalarni egallashga intiladilar. Ijodkorlik faoliyatini eng yuqori natijasi sifatida ixtirolar ilmiy kashfiyotlar kabi, ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash jarayonida yaratiladi.

*Ijodkorlik* - bu aqliy faoliyatning eng yuqori shakli, mustaqillik, yangi va o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyati. Ijodiy faoliyat insonni belgilaydi, shuning uchun ijodiy shaxsni shakllantirish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ma'noga ega.

O'qituvchi faoliyatining samaradorligi o'quv jarayonining har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashi, ijodiy shaxsni shakllantirish va uni bilim, ijodiy ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Bolalar maktabga turli rivojlanish darajalari bilan keladi. Ko'pgina bolalarda qobiliyatlar o'zini namoyon qilmaydi, ular chuqurlikda yashiringan. Ularni aniqlash va rivojlantirishning asosiy ishi o'qituvchi zimmasiga tushadi. O'quvchilarning qobiliyatlari va maqsadli rivojlanishini aniqlash ta'lim va rivojlanishning eng muhim va asosiy vazifalaridan biridir. Tabiat har bir bolaga rivojlanish imkoniyatlarini saxiylik bilan berdi va har bir bola ijodiy faoliyatning eng yuqori cho'qqilariga ko'tarilishi mumkin.

Ikkinchi shart - erta boshlash. Imkon qadar bolani turli xil faoliyatni rag'batlantiradigan va samarali rivojlanishga hissa qo'shadigan shunday muhit va munosabatlar tizimi bilan o'rab olish kerak.

Uchinchi shart - mashaqqatli mehnat. Qobiliyatlar "tayyor" olinmaydi. Daho qobiliyatlari bilan ham ish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

To'rtinchisi - qiziqish. Majburlash ijodkorlikning dushmanidir. Shuning uchun, faqat o'sha sinflar bolaning ehtiros bilan, o'z xohishi bilan ishlaydigan natijalarini beradi va bu holda qobiliyat tezroq



shakllanadi. Qobiliyatlar qanchalik muvaffaqiyatli rivojlansa, bola o‘z faoliyatida ma‘lum bir chegaraga qanchalik tez-tez erishsa va keyin uni yanada balandroq va balandroq ko‘taradi.

Insonning madaniyat darajasi, tafakkuri, aql-zakovati ko‘rsatkichlaridan biri uning nutqidir. Nutq aql-idrokni rivojlantirish kanali ekanligiga ishoniladi. Til qanchalik tez o‘zlashtirilsa, bilim shunchalik to‘liq o‘zlashtiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlagan har bir kishi o‘qituvchi uchun qanchalik qiyinligini yaxshi biladi. Yigitlar haddan tashqari faol, ularning e‘tibori beqaror va tartib-intizom bilan ko‘p qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

Bola uchun jiddiy mashg‘ulotni qiziqarli qilish - bu boshlang‘ich ta‘limning vazifasi." Bu K.D.Ushinskiyning so‘zlari. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining e‘tibori beqaror, shuning uchun u jasorat bilan darsga o‘yinlar va o‘yin vaziyatlarini kiritishni boshladi. Bolalar har doim qiziqarli narsalarni yaxshiroq eslashadi. Bolalar bilan uslubdagi o‘zgarishlar, birinchi sinf o‘quvchilarining o‘rganish usuli va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida o‘yinga kuchli e‘tibor mening ishimga quvonch keltirdi. Shuni unutmashimiz kerakki, tasavvurga tayanadigan o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotida muhim o‘rin tutadi.

Tasavvur ijodkorlikning manbaidir. Darsdagi o‘yin, birinchi navbatda, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, u bolaning dars materialiga beqaror e‘tiborini jalb qilishi, yangi bilimlar berishi, uni qattiq o‘ylashga, tasavvurni rivojlantirishga, chidamlilik, qat‘iyatlilikka o‘rgatishi va kollektivizm tuyg‘usini tarbiyalashi kerak.

Nutqni rivojlantirish darslari o‘qish san‘atini o‘rganish darslari deb hisoblayman. Shuning uchun, ko‘pincha darsda ular bola ertakning ma‘nosini tushunishi uchun, uning qalbida eng yaxshi tuyg‘ular uyg‘onishi uchun ustalarning ertaklarini - so‘zlarni badiiy o‘qigan yozuvlarni yoqadilar va men ham o‘qishni mohirona tashkil qilaman. ertaklar (tanlama, “zanjirda”, rollar bo‘yicha. Bolalar ham ertak yozishni yaxshi ko‘radilar, bu esa bolalarning tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi, o‘z syujetini o‘ylab topadi, qahramonlarning harakatlarini baholay oladi, to‘g‘ri xulosalar chiqarish, frazeologik birliklardan, matal va maqollardan foydalanish.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, yangi O‘zbekistonni qurishimiz uchun avvalo ta‘lim tizimimizni yangilashimiz, yangi g‘oyalar kiritishimiz, yangi islohotlar o‘tkazishimiz kerak. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta‘lim talablarini aniqlash, muammoli vaziyatlar yaratish va ta‘limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi.

Yosh maktab o‘quvchilarining fikrlashlari aniq, dunyoga qarashlari obyektivdir. Topishmoq yozish orqali ular o‘z e‘tiborini haqiqatda idrok etilgan yoki tasavvurda qayta yaratiladigan aniq obyektga jamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuni yodda tutish kerakki, kichik maktab o‘quvchilari obyektlarni idrok etishda hali yetarli tajribaga ega emaslar. Shuning uchun kuzatishni o‘tkazish belgilarning butun majmuasiga emas, balki ma‘lum bir obyekt yoki hodisa uchun eng yorqin, eng muhim va bundan tashqari, oson qabul qilinadigan alohida belgilarga e‘tibor berishni o‘z ichiga oladi. Ijodiy vazifalar, intellektual rivojlanish texnologiyalari, og‘zaki rasm chizish va ekskursiyalar menga yosh maktab o‘quvchilarining barkamol rivojlanishiga yordam beradigan qiziqarli, hayajonli darslarni o‘tkazishga yordam beradi. 1-sinfda integratsiyalashgan darslarni o‘tkazaman.

Maktablar kreativ fikrlash ko‘nikmasi, aqliy ko‘nikmalar, bilim sohasining tayyorligi yangi g‘oyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash ko‘nikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik), qiyinchilikka duch kelganda o‘z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish shu bilan birga, topshiriqni bajarishga ragbatlantirilganlikni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Sinfdan kreativ fikrlashni bunday o‘ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o‘zaro chambarchas bog‘langan. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan ragbatlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o‘z-o‘zidan shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” Farmoni.
3. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
5. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprelda 187-son Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi// Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
8. Qo‘ldoshev R. Maktab o‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – T. 22. – №. 22.
9. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. -128 b
10. G‘aforovna, J. H. (2023). Xalqaro tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. Pedagog journal, 1(1), 489-489.
11. G‘aforovna, J. H. (2023). Interfaol metodlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. Pedagog journal, 1(1), 666-666.
12. Jumayeva, H.G. (2023). Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 45-47.
13. G‘aforovna, J. H. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: Jumayeva Habiba G‘aforovna Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 226-231.

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA ART PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

*Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna,*

*Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti*

*Maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida maktabgacha ta'lim tizimiga e'tiborning kuchayganligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunning mazmun-mohiyati, mazkur tizim sifatini oshirish va sohaga oid yangicha qarashlar va ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsiyalarni, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni, ilg'or usullarni joriy etish va moddiy texnik bazani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, ART pedagogikasi vositalaridan foydalanish zaruratining dolzarbligi haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ta'lim va tarbiya, innovatsiya, ilg'or usullar, pedagogik texnologiya, ART pedagogikasi, ijodkorlik, didaktik tamoyillar.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В статье отмечается повышенное внимание к системе дошкольного образования на новом этапе развития Узбекистана, содержание закона О дошкольном образовании и воспитании, повышение качества этой системы и новые взгляды на сферу образования и воспитания. - изложены мнения о проводимой работе по внедрению в воспитательный процесс современных инноваций, новых педагогических и информационно-коммуникационных технологий, передовых методиках и развитию материально-технической базы, анализе литературы по теме, актуальности необходимости использования средств арт-педагогика.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, образование и воспитание, инновации, прогрессивные методы, педагогическая технология, художественная педагогика, творчество, дидактические принципы.

## EFFECTIVENESS OF USING ART PEDAGOGY IN IMPROVING THE QUALITY OF PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

**Abstract:** *In the article, increased attention to the preschool education system at the new development stage of Uzbekistan, the essence of the law on preschool education, improving the quality of this system and new views on the field and education- opinions are expressed on the implementation of modern innovations in the educational process, new pedagogical and information and communication technologies, the introduction of advanced methods and the development of a material technical base, the analysis of thematic literature, the relevance of the need to use the means of art pedagogy.*

**Keywords:** *preschool education, education and upbringing, innovation, advanced methods, pedagogical technology, art pedagogy, creativity, didactic principles.*

**Kirish.** Bugungi kunga kelib, yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining oshib borayotganligi, raqobat jarayonining kuchayib borayotganligi mazkur yo'nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar ta'lim sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmonida “...ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish” masalalari belgilab berilganligi, maktabgacha ta'lim tizimini uzluksiz ta'limning boshlang'ich shakli sifatida e'tirof etilganligi, tizimga nisbatan qo'yilgan vazifalarning bajarilishida alohida ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish lozimligini belgilaydi [1].


**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual,

axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq musiqiy tarbiyalash va ta’lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko’rsatmoqda. Haqiqatan ham, xalqimizning kelajagi, mustaqil davlatimizning istiqboli ko’p jihatdan tarbiyachiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligi, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liq.

**Adabiyotlar tahlili.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish muammosiga oid pedagog olimlardan F.R.Qodirova, L.R. Mo’minova, G.E. Djanpeisova, Sh.A. Sodiqova, G.A. Mardonova, G.Nazirova, N.SH. Abdullayeva, D.A. Abduraximova, M. Abdullayeva, Z.A. Botirova, A.E. Rustamova o’z ilmiy tadqiqot ishlarini bag’ishlagan. F.R. Qodirova, Sh.Q.Toshpo’latova, N.M. Qayumova, M.N. A’zamova va Sh.A. Sodiqova maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayonlari sifatini oshirish bo’yicha ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasining ilmiy-nazariy asoslarini o’rganib, maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, bosqichlari, bolalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi biologik va ijtimoiy omillar, maktabgacha yoshdagi bola psixik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ta’limning didaktik tamoyillari, bolalarga pedagogik ta’sir ko’rsatish, maktabgacha ta’limni tashkil etish shakl va metodlari hamda maktabgacha ta’lim va tarbiyada pedagogik texnologiyalarni qo’llashning nazariy asoslarini ilmiy yoritib berishgan.

**Natija va mulohazalar.** O’zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta’limning barcha sohalari, shu jumladan, maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor yanada kuchaytirildi. O’zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risidagi Qonuni hamda maktabgacha ta’lim tizimini uzoq va qisqa muddatli istiqbolini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, huquqiy asos yaratildi. Maktabgacha ta’limda bolalar qamrovini oshirish, ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsiyalarni, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda ilg’or usullarini joriy etish va moddiy texnik bazasini rivojlantirish bo’yicha belgilangan ishlar uzluksiz ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasida xalqaro standartlarning faol integratsiyalashuvini ta’minlash uchun ta’lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ishlarning amalga oshirilayotganligi bunda ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarning ijodkorligini rivojlantirishni ta’minlovchi badiiy pedagogika texnologiyalaridan foydalanish asosiy tamouillardan biri deb belgilangan. Bu faoliyatni samarali tashkil yetish bevosita maktabgacha ta’lim jarayonida ijodkor, iqdidorli va faol uoshlarni tarbiyalash uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Bunda yesa, uuqoridagi imkoniatni tizimlashtirish ta’lim jarayonining uzviy integratsion bog’liqligini amalga oshirish va qator hamkorlikdagi faoliyatning ishtirokchi sub’uyektlarini aniqlashtirish lozim bo’ladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Maktabgacha ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida bolalar ijodkorligini rivojlantirishga yo’naltirilgan obyekt-subyekt faoliyatining mazmuni**

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda ART pedagogikasi vositasidan foydalanish tayyorlov guruhi bolalarning muayyan iqtidorlari uordamida ularning muayyan sohasidagi faoliyatlari rivojlanishiga asos bo’ladi. Bu esa uosh avlodning rivojlanishi uchun potensial imkoniatlarni vujudga keltiradi. Yosh avlodda ijodkorlik ko’nikmalarining rivojlantirilishi, bilish faolligining oshishi ko’p jihatdan mavjud shart-sharoitlar va ta’lim-tarbiua mazmuni bilan bevosita bog’liq.

Ta’lim-tarbiya mazmunida xalq ijtimoiy tajribasining ifodalanishi jarayon subyektlarida ijodiy faollikning vujudga kelishiga asos bo’ladi. Ularda lauoqatlar, iqtidor va talantning uoqin tarzda namouon bo’lishini ta’minlaudi.

Mamlakatimizda yosh avlodni sog’lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali shakl va usullarni joriy etish hamda innovatsion g’oyalarni targ’ib etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish muhim vazifalarimizdan biridir. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, tashkilotlarni o’quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to’ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish, ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalarni joriy etish masalalarini hal etish zarurligini ko’rsatmoqda.

Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, uslubchi va psixologlari zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab zamonaviy ta’lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy jihatdan faol rivojlantirish – hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hal qilinishi kerak bo’lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

G.A.Mardonovanning ilmiy tadqiqot ishi oilada bolalarni alla vositasida ma’naviy - axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash muammosini o’rganishga bag’ishlangan. Tadqiqotchi allaning ijtimoiy-g’oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ta’siri hamda “alla” so’zining etimologik ma’nosi va tarixiy shakllanishini pedagogik nuqtayi nazardan talqin etgan. Bolalarni alla vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning falsafiy, pedagogik va psixologik holatini tahlil etib bolalarning yoshi, psixologik-ma’naviy rivojlanishi bo’yicha ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yo’naltirilgan alla turlarini didaktik mazmuniga ko’ra tasniflagan. Bundan tashqari, “oila – mahalla – maktabgacha ta’lim muassasasi” o’rtasidagi hamkorlik faoliyati asosida bolalarni alla vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi takomillashtirilgan bo’lib, bolalarni alla vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish muammosini G.M.Nazirova tadqiq etgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tizimli yondashuvning o’ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflab, ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvga tayangan holda takomillashtirish modelini nazariy-empirik jihatdan asoslagan. Pedagogik jarayonni takomillashtirish modeli ta’limiytarbiyaviy faoliyat komponentlarining rivojlanish sohalari bilan o’zaro integratsiyalash, reflektiv uzviylikni ta’minlash hamda mustaqil faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari bo’yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslangan Play guruhlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. G.M. Nazirova maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo’lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati – o’yin. To’g’ri tashkil etilgan o’yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o’quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta’minlash uchun sharoitlar yaratiladi, - deb hulosa qiladi.[3]

N.SH. Abdullayevaning maktabgacha ta’limni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga bag’ishlangan dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun o’quv dasturlarida bolalarning yoshi, psixologik va intellektual jihatlarini inobatga olish, ta’limni individuallashtirish va differensiyalashga asoslangan texnologiyalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida yetarli darajada foydalanish, bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik ta’minotni ishlab chiqish va amalda joriy etish zaruriyatini asoslab berdi. Variativ yondashuvning asoslari sifatida “ta’lim texnologiyalarining variativligi”, “ta’lim trayektoriyasi” va “ta’limni individuallashtirish” ekanligini alohida ta’kidladi. Tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog kadrlarning variativ yondashuvni amaliyotga joriy etish bo’yicha kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida variativ yondashuvli ta’lim dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish uchun maxsus metodik qo’llanmalar va tavsiyanomalar ishlab chiqish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan keng foydalanish tavsiya qilingan.

M.N. A’zamova maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab bolalarda do’stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko’nikmalarini shakllantirish alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etadi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ular orasida do’stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik muhitini vujudga keltirish nihoyatda zarur bo’lib, bunday ko’nikmalar ularning maktab hayotiga oson va samarali moslashishini ta’minlaydi. Tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni do’stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka o’rgatish orqali ularni intellektual rivojlantirish va

birgalikdagi o‘quv faoliyatiga tayyorlashning nazariy asoslarini tahlil qilishga intilgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar, birinchi navbatda, do‘stlar orttirish va ular bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga ehtiyoj sezishlarini aniqlagan. Maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyalanuvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olishlari zarurligini nazariy jihatdan asoslab, ko‘pgina qiyinchiliklar va ziddiyatlar bolalarni maktabga tayyorlash bosqichida vujudga kelishini didaktik jihatdan isbotladi.[4]

M.N. Xushnazarova maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, tarbiyachilarni ilmiy-metodik faoliyatga tizimli yo‘naltirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda innovasion mashg‘ulot ishlanmalarini ta‘lim-tarbiyajarayonlariga keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqligini e‘tirof etgan.

F.F. Ganjiyevning maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy- psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan empirik tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi, shaxs tiplari va sotsial-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq ekanligini ta‘kidlanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarida muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish dasturini qo‘llash natijasida tarbiyachilardagi shaxslararo munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan verbal ma‘lumotlar bilan birga noverbal muloqot harakatlarini tushunish va shaxslararo munosabatda ishtirokchilarga ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatlari o‘sib borishini aniqlagan.[5]

Maktabgacha ta‘limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi bilan tanishtirib, ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta‘lim jarayoniga tayyorlash, bolalar tafakkurini rivojlantirish, fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta‘minlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini nostandart va innovatsion metodikalar vositasida rivojlantirish pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida “Ilk qadam” o‘quv dasturini tatbiq etishda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari[6]da yuqori samarali zamonaviy ta‘lim va innovatsion texnologiyalar, ta‘lim - tarbiya sohasidagi o‘zgarishlarni uzluksiz ta‘lim tizimining eng quyi bo‘g‘ini maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlash, har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlash, kelajakda yetuk kadrlarni tayyorlash g‘oyat muhim vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Globollashuv sharoitida texnogen sivilizatsion jamiyat muhiti yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazib, axborotlar oqimining haddan ortiq oshi borayotganligi natijasida bugungi kun bolasini oddiy mashg‘ulot va an‘anaviy ta‘lim berish usullari bilan tarbiyalash, ularga shu tarzda bilim berish natijasi pasaydi.

Jamiyatdagi barcha sohalarda, san‘atda, fanda, shu jumladan tibbiyot va pedagogikada sodir bo‘layotgan integrativ jarayonlar bilimlarni egallashning yangi tarmoq va yo‘nalishlarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Jumladan, integral tibbiyot, tibbiy psixologiya, pedagogik psixologiya, etnopedagogika, terapevtik pedagogika, art-terapiya, badiiy pedagogika, reabilitatsiya pedagogikasi va boshqalar. Psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy bilimlar o‘sib borishi bilan jahon andozalari talablari asosida yangi ta‘lim standartlari ishlab chiqilmoqda, noan‘anaviy ta‘lim tushunchalari yaratilmoqda. Rivojlanish darajasiga qarab, turli xarakter va qobiliyatga asoslangan bolalarni tarbiyalashning nazariy asoslari o‘rganilmoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi muammolar orasida eng muhimlari maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarini ta‘lim jarayoniga kreativ yondashuv masalalarini modernizatsiyalash, innovatsiya va novatsiya, innovatsion ta‘lim texnologiyalari bilan qurollantirish lozim. ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirish jarayonini mazmunli tashkil qilish tayanch o‘quv rejasining qanchalik mustahkam egallanganligiga bog‘liq.

Aytish o‘rinliki, maktabgacha ta‘lim va ijtimoiy sohadagi yangilanishlar asosida ta‘lim unsurlari jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Shu bois, uzluksiz ta‘lim falsafasi, qonuniyatini, kreativ yondashuv asosida ta‘lim muammolarini qaytadan ko‘rib chiqish davr talabiga aylanib bormoqda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan bir qator vazifalar ijrosini ta‘minlash maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kreativ qobiliyatlarini zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta‘limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishning muhim shartlaridan biridir.

Bilimlarga asoslangan jamiyatda kamol topayotgan bolajonni bugungi kunda real voqealarga asoslangan ma‘lumotlar, rang-barang yangiliklar, texnik metodikaga asoslangan mashg‘ulotlar, ijodkorlikka yo‘naltirilgan amaliy mashqlar, o‘zlari bosh rolda qatnashadigan obrazlar qiziqтира boshladi. Ta‘limga

gumanistik yondashuv pedagog va psixologlardan bolaning tabiatini o‘rganishga katta e‘tibor berishni talab etib, uning ichki dunyosi murakkabligiga qarab, bolalarga qay tarzda atrof-muhitning barcha xilma-xilligini ko‘rish, eshitish, his qilish, ularga "men" ni bilishga, uni ochib berishga va kattalar dunyosiga kirishga, unda to‘liq mavjud bo‘lishga va o‘zaro aloqada bo‘lishga yordam bera olishga oid muammolarga yechim topishni talab etmoqda.

Bu borada san‘atga badiiy pedagogikaga asoslangan ta‘limdan foydalanishga oid olib borilgan tajriba tadqiqot ishlari yuqoridagi muammolarni yechishda ijobiy natija ko‘rsatdi. Ya‘ni san‘atga yo‘naltirilgan ta‘lim bola ongida dunyoni badiiy va estetik o‘rganish shakli bo‘lib, bolaning umumiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U badiiy va estetik, gumanistik, kognitiv, axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi va insonning ma‘naviy rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi.

Insonning qobiliyati va ijodkorligi san‘at jarayonida izchil ravishda namoyon bo‘ladi. M. S. Kogon san‘atning inson hayotidagi rolini o‘rganar ekan, shunday deb yozadi: "san‘at ijtimoiy ongning boshqa shakllari - falsafa, fan, axloq, din bilan bir qatorda mavjud bo‘lgan alohida hodisa ekan, uning mohiyati shundan iboratki, san‘atning asosi-yakuniy poydevor sifatida-hayotiy bir qator boshqalardan alohida ahamiyati bilan ajralib turadigan muhim insoniy tajribalar. Ular bilishning maxsus shakllari emas, lekin shunga qaramay, ular bu funksiyani "bilaman - men buni boshdan kechirdim" tamoyiliga muvofiq bajarishlari mumkin.

L. S. Vigodskiy o‘zining "San‘at psixologiyasi" asarida san‘atning ijtimoiy tabiatini tahlil qilib: "san‘at bizda ijtimoiy hodisadir, agar har bir shaxs faoliyati san‘at bilan bog‘lansa, uning ildizlari va mohiyati yagona degani emas. San‘at unda inson o‘z tasavvurlari, hissiy kechinmalari, taassurotlari bilan namoyon bo‘ladi, ya‘ni o‘zining shaxsiy hayot tajribalari, qalbidagi eng samimiy, eng muhim zarbalarini aks ettiruvchi ijtimoiy harakatdir" [2]

L.S.Vigodskiy, A.V.Zaporojets, M.S.Kagan, B.M.Nemenskiy, D.B.Yelkonin o‘z ilmiy nazariyalarida san‘at orqali shaxsni shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani go‘zallik dunyosi bilan tanishtirish, "uni insonni o‘zgartiradigan, boyitadigan his-tuyg‘ular va fikrlar birligining ajoyib dunyosiga singdirish. unga ijodiy salohiyatni ochib beradi "...shu sababli, shaxsning ijtimoiy - madaniy tajribasini boyitishning kuchli vositasi bo‘lgan san‘atdan tashqarida zamonaviylikning dolzarb muammolarini hal qilish mumkin emas", - deya ta‘kidlashadi.[2]

A.I.Klizovskiy bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda san‘atning o‘rniga alohida e‘tibor qaratib: "San‘at insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud... Insoniyat rivojlanib borgan sari uning san‘ati ham rivojlanadi, san‘at rivojlanishi bilan inson rivojlanadi, chunki birining taraqqiyoti ikkinchisi bilan uzviy bog‘liq va biri boshqasining natijasidir. San‘at tarixi - bu insoniyatning rivojlanish tarixi", -deb bayon etadi.[2]

M.M.Baxtin shaxs kamolotida san‘atning o‘rni juda muhimligini yozar ekan, insonning hissiy holatiga e‘tibor qaratadi: "san‘at - hayot uchun zarur bo‘lgan bayram, hayotning go‘zalligi ifodalangan bayram. Bayramona hayot - bu san‘at hayoti. Bayram yutuqlarning to‘liqligini va madaniy hayotning sof kuchini ko‘rsatadi, garchi bunga na nazariya, na tarixiy hayot umuman aks etmagan bo‘lsada, insonga xursandchilik bag‘ishlaydi", - degan fikrni ilgari suradi.

Demak san‘at bu insondagi ijobiy fazilatlarni yuzaga chiqaruvchi, uning ijodkorligini rivojlantiruvchi vosita bo‘lib, ta‘lim – tarbiya jarayonida san‘at pedagogikasini qo‘llash bugungi globollashuv jarayonlari uchun muhim hisoblanadi. Zamonaviy tasviriy san‘at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlaridan biri bu – ART pedagogikadir.

**Xulosa.** ART pedagogikasi vositasida maktabgacha ta‘lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirish jarayonining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish ta‘lim jarayoni samaradorligining oshishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini ART pedagogikasi vositasida loyihalash faoliyatiga qiziqtirishga yo‘naltirilgan kelishuvchanlik, muloqotga kirishish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish tamoyillari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kommunikativ, refleksiv, ekologik, estetik, ijodkorlik ko‘nikmasi ishchan, ijodiy ta‘limiy o‘yinlar hamda interaktiv metodlarni qo‘llash asosida takomillashtirilsa kutilgan natija yanada samarali bo‘ladi.

Demak, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan zamonaviy tarbiyachi sohada kechayotgan yangilanishlarni bilishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, doimiy o‘zgarib turuvchi nostandart sharoitlarda amaliy faoliyatga innovatsion va integratsion bilimlar bilan tayyorligini ta‘minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bu esa qo‘shimcha, noan‘aviy, parallel mustaqil ta‘lim tizimlarini yaratishga ehtiyoj tug‘dirmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmon
2. Сергеева Н. Ю. Арт-педагогика как ресурс гуманитаризации школы нового века // Проблемы искусства в XXI веке: Задачи школы: Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции (Санкт-Петербург, 22—23 ноября 2010 г.) / Под научн. ред. О. Б. Островского. — СПб.: Полторак, 2010. — 450 с. — С. 132—133.
3. Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ... avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 74 b. (B.31).
4. A‘zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. –Toshkent, 2020. – 45 b. (B.18)
5. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy- psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishi: Psixol sogiya ... falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi. –Buxoro, 2021. -169 b. (B.116-117).
6. Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q, Qayumova N.M., A‘zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: “Tafakkur” nashriyoti. 2019. – 685 b.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

*Murodova Maqsuda Maxsudovna,  
Turon Zarmed universiteti maktabgacha ta’lim  
va sport kafedrasi o‘qituvchisi*

*Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida matematik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuni, integratsiyasi, yondashuvlarning integrativ shakli, fanlarning bo‘g‘liqlik, aloqadorlik, dars jarayoning mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, shart-sharoitlari, shakl, usul va metodlar haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** integrativ, integratsiya, fanlararo bog‘liq, qonuniyatlar, integrativ shakl, ta’lim-tarbiya, matematik tasavvur, boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf, amaliyot.*

## ФОРМИРОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

*В данной статье говорится о содержании, интеграции, интегративной форме подходов, связи, взаимосвязи, характере учебного процесса, законах, принципах, условиях, формах, методах и способах формирования математических понятий на основе интегративного подхода.*

***Ключевые слова:** Интегратив, интеграция, междисциплинарность, законы, интегративная форма, образование, математическое воображение, начальное образование, начальный класс, практика.*

## FORMATION OF MATHEMATICAL IMAGINATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

*This article talks about the content, integration, integrative form of approaches, connection, relationship, nature of the teaching process, laws, principles, conditions, forms, methods and methods of forming mathematical concepts based on an integrative approach.*

***Keywords:** Integrative, integration, interdisciplinary, laws, integrative form, education, mathematical imagination, primary education, primary class, practice.*

**Kirish.** Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish [1], ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish [2] maqsadida maktab va maktabgacha tizimini yanada isloh qilish, sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo‘llab-quvvatlash, bevosita va bilvosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan masalalarni hal qilish [4], bolalarda integrativ yondashuv asosida matematik tasavvurlarni shakllantirishning mazmuni, integratsiya, yondashuvlarning integrativ shakli, fanlarning bo‘g‘liqlik, fanlararo aloqadorlik dars jarayoning mohiyatini ochib berishni, qonuniyatlar, tamoyillar, fanning shart-sharoitlari, shakl, usul va metodlarni ochib berishi lozim.

Integratsiya konsepsiyasi fundamental fanlar sohasida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda u dolzarb masala hisoblanadi, chunki u nafaqat fanda, balki umuman san’at va madaniyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tavsiflaydi:

Integratsiya atamasi va uning rivojlanishi 17-asrda matematikada qat’iy belgilangan amalni belgilashda, XIX asrda tirik organizmlar evolyutsiyasi mexanizmini tushuntirishda, 20-asrda “integratsiya” atamasi falsafa, iqtisod, geografiya fanlarida turli fanlarda atamalarining o‘zaro kirib borishi va moslashuv jarayonlarini tavsiflashda qo‘llanilgan. “Integratsiya” kategoriyasini tahlil qilar ekanmiz, biz terminologik usullarga murojaat qilishni va “integratsiya” tushunchasini uning ma’nosini izohlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish zarur.

Ta’lim-tarbiyaning boshlang‘ich davrida integratsiya masalasi amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdur. I-IV sinflarda integratsiyalash masalasi keyingi paytda bir qancha yondashishlarga ega bo‘ldi. Pedagoglarning ikkitasi fanni bir darsga birlashtirib, uni bir pedagog tomonidan o‘tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishni ham taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim, innovatsion ta’lim jarayoning muhim kontseptual g‘oyalardan biri sanaladi. Integratsiya fanlararo aloqalarni, turli ta’lim dasturlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rnatish orqali ta’lim mazmunining

yaxlitligiga erishish jarayoni, natijasidir. Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zidan) — bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni.

"Integratsiya" so‘zining ma‘nosi muhim tarkibiy qismga ega. Bu tushuncha lotincha integratio – “yaxlit”, “to‘ldirish” so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiyani aniqlashning asosiy tamoyillari dialektikaning qismlar va munosabatlari haqidagi qonunlari, yaxlitlikni shunday tushunish edi, bu oddiy qismlar yig‘indisiga kamaytirilmaydi, lekin qismlarning o‘zaro ta‘siri sifatida tushuniladi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoning mazmuni, fanlararo aloqadorlikka asoslanadi. Shunday ekan, biz quyida integratsiyalashgan darslarning afzalliklari va kamchiliklarini tadqiq etishni joiz deb hisobladik. Integratsiyalashgan darslarning afzalliklari borliqning yanada ob‘yektiv va har tomonlama tasvirini, yaxlit dunyoqarashni va umumiy qoidalarni shakllantirish, rivojlantirish, bilimni yanada faolroq, fanning mazmuni va mazmunli idrok etish, o‘zlarining ehtiyoji va ijtimoiylashuviga zarur motivatsiyalar olish, intellektual ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish, fanlarning mazmuni va mohiyatini tezroq anlash, aqliy salohiyatini shakllanishi va rivojlanishining ildamlashishga erishish, o‘quv jarayonida ortiqcha yuklarni olib tashlash singari o‘quvchilar uchun imkoniyatlar mavjud.

O‘qituvchi uchun ham integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarning bir qator afzalliklari mavjud. Jumladan, borliq haqidagi tushuncha va tasavvurlarni innovatsion daraja anglashiga yordam berish, o‘quvchilarga mavzu doirasida yanada kengroq va aniqroq ma‘lumotlarni berish, o‘z fanini o‘quvchilarga tushuntirishda imkoniyatlarni kengaytirish va faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish, boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan har bir fanning boshqa fanlar bilan bo‘g‘lash imkoniyatini yanada aniqroq anglab oladi, integrativ fikrlay oladigan o‘quvchilarni yangi uslubiy tomonlarini izlashga unday oladi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi, umumiy muammolarni hal qilishda turli mutaxassislarning sa‘y-harakatlarini birlashtirish, o‘qituvchilarning qiymat yo‘nalishlari va motivatsiyasini hisobga olish qobiliyati, shaxsni shakllantirish, rivojlantirish va tarbiyalash, uning kognitiv niyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga oladi, o‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish, sifatli yangi pedagogik natijalar olish singari afzalliklari mavjud.

Har bir sohada yutuqlar bilan birgalikda kamchiliklar ham mavjud. Integratsiyalashgan darslardagi qator yutuqlar bilan birgalikda kamchiliklar ham mavjud, jumladan boshlang‘ich sinflarda matematik tasavvurlarni yaratishga oid bo‘lgan qo‘llanmalar, darsliklar, metodik tavsiyalarning mavjud emasligi, dars jarayonida barcha o‘quvchilar dars mohiyatini anglab ololmasligi o‘quvchilarning mavzuni bir xil tushuna olmasligi, Vaqt me‘yorlarining buzilishi, o‘qituvchilarning ko‘pchiligi fanlarga aloqadorlik yoki integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishga tayyor emasligi, o‘qituvchilarning barcha o‘quvchilar bilan bir xil bog‘lana olmaslik kabilar.

Yuqoridagi keltirilgan afzalliklar va kamchiliklarga qaramasdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini integratsiyalashgan ta‘lim asosida o‘qitishning asosiy maqsadi - boshlang‘ich sinfdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarni rivojlantirish o‘z navbatida faol fikrlash, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash jarayonida sodir bo‘ladi. Faol fikrlash jarayonida ilgari ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar tahlil qilinadi. Mustaqil fikrlash albatta faoldir, chunki faoliyat mustaqillikda allaqachon tugagan. Ijodiy fikrlash - bu talaba ochilganda, harakat jarayonida yangi ma‘lumotlar paydo bo‘lishi holati yuzaga keladigan joyda sodir bo‘ladi. Integratsiyalashgan ta‘lim tizimining asosi bo‘lgan faoliyatga asoslangan yondashuv o‘qituvchiga aniq uchinchi, eng muhim bolalar tafakkur turini rivojlantirishga imkon beradi. O‘qituvchining integratsiyani kengaytirish va chuqurlashtirish bo‘yicha faol ishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlash faoliyatini shakllantirish muammolarini kompleks hal qilishning muhim usullaridan biridir. Ushbu jarayon ijodiy fikrlaydigan o‘qituvchiga mukammallikni, o‘qitishning haqiqiy cho‘qqilariga chiqishga imkon beradi.

**Muhokama va natijalar.** Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta‘limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Dunyoga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ulami chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi lozim.

Ta‘limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to‘ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o‘zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga

noan’anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo’lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an’anaviy predmetlarda bo’lib, o’qitishga nisbatan ko’proq yordam beradi. Avvalo qaysi darslar integrasiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning negizi - turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari integrasiyalashgan darslarni tashkil etadi.

Matemateka ham integrasiyalangan kurs-arifmetik materiallarni o’zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta’limi asoslarini o’rganishga tayyorgarlikdir.

Integrativ yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida matematik tasavvurlarni rivojlantirishda innovatsion-metodlardan foydalanish jarayoni:

1) intellektual jarayonlar, ular fikrlash, mulohaza yuritish, asoslash, isbotlash holatlarini uyg’otadi (analiz, sintez, umumlashirish, taqqoslash);

2) emotsional jarayonlar (muvaqqafiyat, xursandchilik, o’z yutuqlaridan faxrlanish, faoliyatdan qoniqishni boshdan kechirish);

3) tartibga soluvchi jarayonlar (kuchlarni jamlash sifatida irodaviy intilishlar, maqsadga yo’nalganlik, qaror qabul qilish, tirishqoqlik, qat’iyatlilik, diqqat);

4) ijodiy jarayonlar, ular tasavvur, xayolot, yangi obrazlarni, modellarni yaratishga bog’liq.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida matematik tasavvurlarni rivojlantirish, pedagogik sharoitlarini joriy etish, ma’lum fanlarni o’zlashtirish doirasida darsda va darsdan tashqari vaqtda sodir bo’lib, ular tartibga soluvchi, bilishga oid va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ma’lum imkoniyatlarni ochib berdi.

Integrasiyalangan darslarga yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o’qish-rus tili, o’qish-tabiatsunoslik, o’qish-tasviriy san’at, o’qish-musiqqa, tabiatsunoslik-matematika, tabiatsunoslik-mehnat ta’limi, matematika-mehnat ta’limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Mazkur darslar quyidagi ko’rinishlarda amalga oshirilib, integrative yondashuvni amalga oshirishda yordamchi vositalar va usullardan foydalanish mumkin. Yordamchi usul va vositalarga umumiy suhbat, evristik suhbat, sayohatlar, fanlararo bo’g’liqlikda nutq o’stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar, ta’lim metodlari, mustaqil topshiriqlar, matematika va o’qish darslarini tasviriy san’at darslari bilan bog’lash. Ta’limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Talimga bog’liq «integratsiya tushunchasi ikki ma’noga ega:

O’quvchida atrofidagi olam to’g’risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya - ta’lim maqsadi sifatida ko’riladi).

Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya - ta’lim vositasi).

Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog’liqligini ko’rsatuvchi bilimlarni berishi emas, o’quvchini barcha elementlari bir-biriga bog’liq yaxlit olamni tasavvur qilishga o’rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang’ich maktabda amalga oshirishi lozim.

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi sanalib, tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to’ldirish, ular orasidagi aloqalarni o’rnatishdan iborat. Ta’lim oluvchining bilimni oshirishga, ta’limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo’naltirilgan integratsiya ta’limning klassik o’quv predmetlari o’rini faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta’lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishidir. Agar boshida hamma narsa to’g’risida ozgina bilish lozim bo’lgan bo’lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko’nikmalarni birlashtirish kerak bo’ladi, ya’ni yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etish o’quvchilarda fanlararo aloqadorlik asosida ma’lumotlarini o’rganish, ko’p qirrali o’zlashtirilgan tushunchalar, bilim darajasini oshirish, taqdim etilgan intellektual faoliyat darajasini o’zgartirish, o’quv materialini yetakchi g’oyalar pozitsiyasida ko’rib chiqish, o’rganilayotgan muammolar o’rtasida tabiiy munosabatlarni o’rnatish, musiqqa, rasm, matematika, ona tili va boshqalarni jalb qilish asosida o’quvchilarning hissiy rivojlanish, darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishlashga intilishida namoyon bo’ladigan o’quvchilarning bilim qiziqishlarini rivojlantirish, o’quvchilarni ijodiy faoliyatiga qo’shilish, she’rlar, rasmlar, ko’p san’atli bo’lish, hodisalarga shaxsiy munosabatni bildirishda namoyon bo’ladi.

**Xulosa va takliflar.** O’quvchilar pedagog boshchiligida predmetlararo bog’liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular o’z e’tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o’zlashtirishga emas, balki ko’chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari integrasiyalashgan darslarning samaradorligi sanalib, o’quvchilarning dunyoqarashini o’stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashirishga rag’batlantiradi,

o‘quvchilar o‘z irodalari, dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo‘naltiriladi, faoliyatning mazmun bosqichidapedagog yangi o‘quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o‘zlashtiradi.

Vositalar tanlash bosqichida pedagog turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko‘rgazmali vositalarni - darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O‘quvchilar ko‘chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko‘rgazmali vositalar yordamida bajaradilar. Nazorat qilish bosqichida pedagog bir-biri bilan bog‘langan predmetlarga o‘quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o‘zlashtirish sifatida baholaydi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ham, ularni birlashtirish ko‘nikmalarini nazorat qilishadi. Shuningdek, pedagog ta‘lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo‘llaydi. Pedagog bilimlar tizimida umumlashtirishini amalga qo‘llaydi.

Hozirgi kunda integratsiyalashtirilgan bilimlar tashkil etuvchi kurs yaratish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o‘z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma‘lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan.

Bunda so‘z faqal sinflarda emas, balki umumiy ta‘limning o‘rta va tugallovchi bo‘g‘inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash usulda olib borish qator yutuqlarga olib keladi. Integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g‘oya va tushunchalarni kiritish muhim ahaliyatga ega.

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: 2023-y 1 may
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. –T.: O‘zbekiston,
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-sonli “O‘quvchilarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonuni,
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3-fevraldagi PF-22-sonli “Xalq ta‘limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoyishi,.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori
6. Musayev U. Q. Umumta‘lim jarayonini liberallashtirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari. //Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2004 y 130 b.
7. Мусурмонов А. Дидактические основы межпредметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе. //Дисс...канд. пед. наук. Ташкент: 1988, 149 стр.
8. Murodova M. M “Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta‘lim asosida darslarni tashkil etishning roli va ahamiyati” PEDAGOGS jurnali. 5 Том №. 1. С. 243-248
9. Murodova M. M “Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta‘lim asosida darslarni tashkil etishning ahamiyati”. Бошланғич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар халқаро илмий-амалий анжумани, 2022 yil 29 mart. 175-177 b
10. Murodova M.M “Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini tabiatshunoslik fani bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etish”., Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim sifati va mahsuldorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Buxoro., 2022 y. 80-82 b
11. Murodova M.M “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida integrative yondashuv asosida darslarni tashkil etishning ahvoli” "Экономика и социум" Выпуск №12(103) часть 1 (декабрь, 2022). 1306-1310 b
12. Abdurafova U. I. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashning mohiyati // SAI. 2022. №Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/integrativ-yondashuv-asosida-bo-lajak-tarbiyachilarni-kasbiy-tayyorlashning-mohiyati> (дата обращения: 15.01.2024).
13. Toshpulatova D.K. Integratsiyalashgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligi, bilim faoliyati va qiziqishlari rivojlantirish. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 16-iyun, 2023- yil. 414-416 b.

## PRACTICAL SKILLS DURING CONTINUOUS TEACHING PRACTICE IN THE PRIMARY SCHOOL

*Sadulloeva Mahfuza Gaybulloyevna,*

*Bukhara State University*

*Leacture of the primary education department*

*m.g.sadulloeva@buxdu.uz*

*This article updates the main criteria for organizing continuous teaching practice in universities for future primary school teachers. The preparation of basic concepts and practical aspects of primary school teachers in pedagogical universities for future teachers are considered.*

**Keywords:** *self-realization, teaching practice, continuous teaching practice, fundamental aspects, renewal, teacher training, transformation, need.*

## ПРАКТИЧЕСКИЕ НАВЫКИ ВО ВРЕМЯ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*В данной статье актуализируются основные критерии организации непрерывной педагогической практики в вузах будущих учителей начальных классов. Рассмотрены основные понятия и практические аспекты подготовки учителей начальных классов в педагогических вузах для будущих учителей.*

**Ключевые слова:** *самореализация, педагогическая практика, непрерывная педагогическая практика, фундаментальные аспекты, обновление, подготовка педагога, трансформация, потребность.*

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA UZLUKSIZ O‘QITISH AMALIYOTI DAVRIDAGI AMALIY KO‘NIKMALAR

*Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun universitetlarda uzluksiz o‘qitish amaliyotini tashkil etishning asosiy mezonlarini yangilaydi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning asosiy tushunchalari va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘z-o‘zini anglash, o‘qitish amaliyoti, uzluksiz o‘qitish amaliyoti, fundamental jihatlar, yangilanish, o‘qituvchilarni tayyorlash, transformatsiya, ehtiyoj.*

Proper organization of continuous teaching practice can take into account innovative teaching and a creative approach to the development of professional skills of future primary school teachers. When considering the main values of education, it is necessary to pay attention to the self-realization of professional pedagogical activity of future primary school teachers, taking into account their creative potential. The effectiveness of the professional development of a future teacher lies in professional competence, the development of which is facilitated by continuous pedagogical education. A preliminary study of the problem allowed us to establish the lack of holistic knowledge in pedagogy: about the essence and manifestation of the organization of continuous teaching practice; about the natural connections and methodological foundations of professional training that contribute to the development of a student teacher’s correct understanding of undergoing continuous teaching practice about an adequate creatively developing educational space and ways to create it in the current situation of modernization of professional pedagogical education; about the scientifically based logical sequence of organizing the continuous pedagogical practice of the future primary school teacher and the corresponding methodological and technological support for this process [11]. In the modern world, it is necessary to note global transformations in all branches of science, including education. Analyzing the existing factors, it is necessary to note the change in the transformation and regulation of the organization of continuous teaching practice. Lack of economic education skills (proper distribution of money for travel, lunch and other expenses). Often those around us live in thought, incorrect understanding of this or that problem. Therefore, it should be noted that the development of the program is based on international and our, that is, national experience. It should be noted that the necessary approach includes general cultural erudition and pedagogical thinking; special professional abilities and skills; creative readiness formed by a complex of creatively significant personal qualities. The close relationship of

structural components characterizes professional and creative competence as a systemic quality. A teacher, solving countless educational tasks, works in constantly changing circumstances. He has to implement non-standard approaches in his work, mediated by the peculiarities of “objective-subjective creation” in the process of pedagogical interaction with students. I explore and, considering the modern establishment and development of the correct organization of continuous teaching practice, it is necessary to highlight the following:

- the dependence of the effectiveness of professional training of a future teacher on social priorities, according to which modern society needs active, enterprising, creatively thinking and acting individuals capable of carrying out a creative movement towards social progress;

- the dependence of the development of the creative personality of the future teacher on the complexity of the socio-economic conditions of society, the existence of different views on the problem;

- conditionality of the content of professional pedagogical education by the real and potential capabilities of future teachers;- dependence of the development of creative competence of future teachers on the scientifically based use of psychological mechanisms and pedagogical technologies. Throughout the modern development of innovative and digital technologies, we feel the negative influence of mass culture on our lives, as a manifestation of something new. This can be seen in the example of consideration of the main tasks and problems in the social life of student interns. Sometimes, we witness the attitude (familiar, rude) and treatment towards our parents. Lack of clear thought, formulation of the course of one’s thoughts (whether in oral or written form). We often observe a lack of character, responsibility, and the ability to compromise. Knowledge in situations of uncertainty for making creative decisions in a multifaceted pedagogical process. Regularity as an objectively existing, necessary, essential, repeating connection of phenomena and processes reflects the diversity of their interactions and relationships [11]. Before being assigned to educational institutions, a meeting is held with students at the university on issues of continuous teaching practice and instructions on labor protection with mandatory registration in the protocol for testing knowledge on safety measures. Each student, in accordance with the order of the rector of the university, is assigned to a supervisor. After the meeting, as a rule, on the same day, the methodologist accompanies the students assigned to him to the places chosen as the basis for the practice, in schools at their place of residence va (in city schools). Upon arrival at the place of continuous teaching practice, the student trainee representative of the administration conducts a preliminary conversation with students and the head of continuous teaching practice from the university, instructor on occupational safety, sanitary and hygienic instructions, directly at the workplace, official assignment to an experienced class leader and the subject teacher, getting to know him, the routine of his working day, the schedule of industrial training lessons, etc.

In order to analyze the various grounds for creativity in order to implement the organization of continuous teaching practice as an integral characteristic of the personality of a modern school teacher made it possible to define their role in secondary school, namely in the primary grades, as an integrative professional and personal characteristic of a teacher, ensuring his success in standard and extraordinary pedagogical situations. The correct organization of continuous teaching practice ensures the quality of modern domestic education. Mastery of various types of competencies becomes the main goal and result of the learning process. The use of a competency-based model in modern education presupposes fundamental changes in the organization of the educational process, in its management, in the activities of teachers and instructors, in the methods of assessing the educational results of students in comparison with the educational process based on the concept of “knowledge acquisition”:-the dependence of the development of creative competence of future teachers on the scientifically based use of psychological mechanisms and pedagogical technologies;

- the dependence of the effectiveness of the formation and development of the professional and creative competence of the future teacher on the uneven mental development of the individual. As a systematic analysis of the state of training of future teachers has shown, the trends (Latin *tendenzo* - direction) of modern teacher education are:

- orientation of educational institutions to improve the quality of training of specialists;

- changing the target orientation of the vocational education system towards the formation of competencies;

- transition from mass, collective forms of student education to individual ones, to the development of creative abilities based on self-education, self-development, self-improvement;

- promoting the priority humanistic orientation of modern pedagogical education; --turning to scientific strategies of creative psychology and innovative pedagogy based on taking into account domestic and international scientific and pedagogical heritage. Therefore, the professional growth of a future primary school teacher directly depends on erudition in the field of creative psychology and innovative pedagogy and

the ability to mobilize and actualize. According to the “Regulations on the classroom teacher of educational institutions”, “The classroom teacher is one of the main teachers in the classroom system of the institution who organizes the technical training and continuous teaching practice for students in the assigned class.” “From this point of view, in the work of class leaders in educational institutions today, there are similar problems: the goals that some class leaders set in the process of teaching ongoing and incorrect organization of tasks;

-classroom hours are not organized in accordance with a clear curriculum; from most laws and legal documents in the field of education and spiritual enlightenment.

Lack of awareness among teachers and classroom managers:

-unsatisfactory situation in some classes, lack of a coherent and strong team;

-low attendance in some educational institutions, the presence of students who regularly miss classes;

-students of some classes do not have diaries, and those who have a class teacher do not have diaries;

- some students attend classes unprepared, even without textbooks.

Students do not have sufficient understanding of the physical and mental risks of dependence on the Internet and mobile phones; the impact of various harmful trends, offenses among children from eight to eleven years old;

-lack of competencies that play an important role in student learning;

-lack of professional competencies among some of our students and teachers;

Low efficiency of the ninth hour of work:

-lack of effective communication with parents;

- develop a system of effective measures to combat and prevent crime, cell phone and Internet addiction, children from disadvantaged families.

**Methods.** I explore and, considering the modern establishment and development of the correct organization of continuous teaching practice, it is necessary to highlight the following:

- the dependence of the effectiveness of professional training of a future teacher on social priorities, according to which modern society needs active, enterprising, creatively thinking and acting individuals capable of carrying out a creative movement towards social progress;

- dependence of the development of the creative personality of the future teacher on the complexity of the socio-economic conditions of society, the existence of different views on the problem;

-dependence of the content of professional pedagogical education on the real and potential capabilities of future teachers;

- dependence of the development of creative competence of future teachers on the scientifically based use of psychological mechanisms and pedagogical technologies;

- dependence of the effectiveness of the formation and development of the professional and creative competence of the future teacher on the uneven mental development of the individual. As a systematic analysis of the state of training of future teachers has shown, the trends (Latin *tendenz* - direction) of modern teacher education are:

-orientation of educational institutions to improve the quality of training of specialists;

- changing the target orientation of the vocational education system towards the formation of competencies;

-transition from mass, collective forms of student education to individual ones, to the development of creative abilities based on self-education, self-development, self-improvement;

- promoting the priority humanistic orientation of modern pedagogical education;

- appeal to scientific strategies of creative psychology and innovative pedagogy based on taking into account domestic and international scientific and pedagogical heritage. The correct organization of continuous teaching practice ensures the quality of modern domestic education. Mastery of various kinds of competencies becomes the main goal and result of the learning process. Essentially quality management of education, including professional education, begins with determining the composition of those competencies that must be mastered in the educational process as educational results. The use of a competency-based model in modern education presupposes fundamental changes in the organization of the educational process, in its management, in the activities of teachers and instructors, in the methods of assessing the educational results of students in comparison with the educational process based on the concept of “knowledge acquisition”. Before conducting lessons, the student trainee must:

•clarify the names of lesson topics, identify their role and place in the system of formation of professional knowledge, abilities and skills provided for by continuous pedagogical practice;

• the student trainee himself or with the help of a methodologist, class teacher, subject teacher, the ability to correctly choose the didactic, educational and developmental goals of each of the lessons taught;

the intern student himself or with the help of a teaching assistant selects and determines the necessary structural elements of each of the calendar thematic or open lessons, determine their detailed content (to do this, study or additionally clarify the necessary theoretical material), prepare the necessary educational and visual aids, technical training aids ;

- choose the most effective methods and teaching techniques for conducting lessons, based on the content and level of preparedness of students;

- preliminarily comprehend and realize, plan the course of the lesson and the students' educational responses during the lesson, the methods used, means and organizational forms of teaching (additional questions, sample assignments are considered (if there is still time left));

- identifying the main aspects (that is, a rough plan) of the lessons being taught, agreeing on them with the teacher and approving them by the deputy director for academic work;

- skills and ability to correctly analyze lessons and self-analysis of lessons;

- expression and understanding of organizational, methodological and other issues of preparation for lessons;•the ability to properly organize the classroom in accordance with the requirements for hygiene of the educational process.

**Conclusions.** To summarize, it is necessary to highlight the main value is not the assimilation of the amount of information, but the development by students of such skills that would allow them to determine their goals, make decisions and act in typical and non-standard situations when undergoing continuous teaching practice for future primary school teachers.

### References:

1. Abulkhanova-Slavskaya K.A. Life strategy. M.: MYSL, 1991.
2. Andreev V.I. Pedagogy: Training course for creative self-development. Kazan: center for innovation technologies, 2000. 608 P.
3. Gessen S.I. Fundamentals of pedagogy. introduction to applied philosophy. m.: shkola-press, 1995.
4. Zeer E.F. Personality-oriented professional education: theoretical and methodological aspect. Ekaterinburg: ural publishing house. State prof. ped. University, 2001.
5. Kodzhaspirova G.M., Kodzhaspirov A.YU. Pedagogical dictionary. M., 2001.
6. Kuzmina N.V. creative potential of a specialist: acmeological problems of development // Humanization education research institute rao. biysk, 2004.
7. Lukyanova M.I. On the problem of studying professional and personal characteristics of a teacher // pedagogical monitoring as a system diagnostics in education quality management. KAZAN, 1997.
8. Slastyonin V.A. personal potential of a teacher // Training of primary school and creative teachers pedagogical activities. M., 1993.
9. Tutolmin A.V. formation of professional and creative competence of a student teacher: Methodology and analysis of the experiment. Glazov: Glazov state university. ped. institute named after V.G. Korolenko, 2006.
10. Shevchenko I.I. Pedagogical creativity. m.: Sobor, 1996. Received by the editor.
10. Tutolmin A.V. 2012. issue. 2 Philosophy. sociology. psychology. ped. glazov: glazov state university. ped. institute named after v.g. Korolenko, 2006.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOGLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

*Turdiyeva Mohira Juraqulovna,  
Renessans ta'lim universiteti,  
Boshlang'ich, maktabgacha va sport kafedrası v.b.dotsenti,  
Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti*

*Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglariga davlat va jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar, ular faoliyatini amalga oshirishdagi belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishdagi muammolar hamda ularning yechimlari haqidagi fikr hamda mulohazalar ushbu maqolada bayon etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini tashkillashtirishda e'tobor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar muhokama etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagog, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktabgacha yosh, tarbiyalanuvchi, maktabgacha ta'lim tizimi, davlat talablari, innovatsiya, qadriyatlar, individuallik, psixologik tayyorgarlik, rivojlanish.*

## ЗНАЧИМОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

*Сегодня в данной статье описаны требования государства и общества к педагогам дошкольных образовательных организаций, проблемы в реализации поставленных задач и их решения. Обсуждены аспекты, на которые следует обратить внимание при организации инновационной деятельности воспитателей дошкольных образовательных организаций.*

**Ключевые слова:** *педагог, воспитатель, организация дошкольного образования, дошкольный возраст, воспитанник, система дошкольного образования, государственные требования, новаторство, ценности, индивидуальность, психологическая подготовка, развитие.*

## THE IMPORTANCE OF ORGANIZING INNOVATION ACTIVITIES OF TEACHERS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

*Today, this article describes the requirements of the state and society for teachers of preschool educational organizations, problems in implementing the assigned tasks and their solutions. Aspects that should be paid attention to when organizing innovative activities of teachers of preschool educational organizations are discussed.*

**Keywords:** *teacher, educator, organization of preschool education, preschool age, pupil, preschool education system, state requirements, innovation, values, individuality, psychological preparation, development.*

**Kirish.** Mamlakatimizda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda bugungi kun maktabgacha ta'lim tizimi oldiga ham ma'nan, ham jismonan, ham intellektual, har tomonlama mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash vasifasi yuklatilgan.

**Asosiy qism.** Shu vazifalarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida amaliyotga tatbiq etilmoqda:

- har bir tarbiyalanuvchining noyobligi;
- "Men" konsepsiyasini yaratishda tarbiyalanuvchining roli;
- tarbiyalanuvchining huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;
- tarbiyalanuvchi ta'limi va rivojlanishida kattalarning o'rni;
- tarbiyalanuvchilar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir tarbiyalanuvchiga moslashuvchan, individual variativlik asosida yondashish.

- Davlat talablarida maktabgacha ta'lim tushunchasiga: «maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda tarbiyalanuvchida ma'naviy meyorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon», tarzida ta'rif berilgan. Ushbu

jarayonni talab darajasida tashkil etish va o‘tkazish maqsadida Maktabgacha ta’lim tashkilotinipng “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi ishlab chiqilgan.

- “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining maqsadi tarbiyalanuvchilarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan hamda, tarbiyalanuvchini jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sog‘lig‘ini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

- Maktabgacha ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar pedagoglar faoliyatida sifat o‘zgarishlar amalga oshirish zaruriyatini belgilab bermoqda.

- Pedagog-tarbiyachi bugungi kunda tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishda uning individualligini inobatga olib turli xil faoliyatda o‘zini erkin namoyon etishiga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratuvchisi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga yaqin bo‘lgan inson sifatida uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi turli tuman omillar tizimida tarbiyalanuvchi shaxsi va faoliyati uning to‘laqonli rivojlanishiga imkon beruvchi yetakchi sharoitlardan biri ekanligini inobatga olishi lozim.

- Pedagogning qadriyatlarini olami tarbiyalanuvchi rivojlanishining barcha tomonlarini qamrab oluvchi hamda uni o‘zgaruvchan hayotga tayyorlovchi kasbiy faoliyati mazmunida aks etadi.

- Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bir maromda “qadam tashlovchi” hamda quyidagi fazilatlar bilan farqlanuvchi mutaxassisga muhtoj:

- yangiliklar va yangi natijalarga ochiqligi, borliqni sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan birga idrok eta bilish malakasi;

- kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lay oladigan;

- tarbiyalanuvchi bilan tarbiyaviy-ta’limiy ishlar tizimini yaxlit, yaqqol va ilmiy asoslantirilgan tarzda qura bilish hamda uni boshidan to oxiriga qadar amalga oshirish imkoniyatini beruvchi metodologik madaniyat;

- fundamental nazariy bilim hamda ijodiy tashabbuskorlikka tayanuvchi, shuningdek sotsiopedagogik vaziyatlarni zamonaviy ilm va amaliyot nuqtai nazaridan asosli tarzda tahlil qila oladigan pedagogik mahoratga ega bo‘lmog‘i zarur.

- Pedagog hamda mutaxassislarning innovatsion faoliyatga qo‘shilishi ulardan variativ ta’lim dasturlari va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishlarini, shuningdek zamonaviy metodologiya va nazariy yondashuvlar asosida original pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

- Innovatsion jarayon ta’lim jarayonidagi qaysidir qismida o‘zgarishlar kiritish zaruriyatini aniqlash bilan boshlanadi. Bu rahbarlar, pedagoglarning tahliliy ishi natijasi hisoblanadi. O‘z ishi usullaridan qoniqmagan ijodkor pedagoglar yangiliklar yaratgani, so‘ngra bu yangiliklar ta’lim amaliyotida keng tarqatiladi.

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonning innovatsionligi maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning samarali rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yangi texnologiyalarni maqsadli joriy etishda hamda ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va yuqori natijalarga erishishdan iborat bo‘lishi lozim.

- Innovatsion faoliyatning an’anaviy faoliyatdan farqi shundaki, pedagog ustoz rolini o‘ynamaydi, balki jarayonda sherik rolini o‘ynaydi va u “yonda emas, yuqorida emas, balki birga” pozitsiyasiga amal qiladi. Shunday qilib, tarbiyalanuvchi ko‘proq erkinlikni his qiladi, bu esa yanada ko‘proq ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi. Shuningdek, bilim tarbiyalanuvchiga avvalgidek tayyor shaklda berilmaydi, balki tarbiyalanuvchining o‘zi tadqiqot faoliyati davomida oladi.

- Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi (1- rasm):

- tarbiyalanuvchilarning individualligini rivojlantirish;

- tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligini, ularning mustaqilligini, ijodiy o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish;

- tadqiqot faoliyatiga qiziqish va qiziqtirishni oshirish;

- tarbiyalanuvchilarning turli xil faoliyatlarini rag‘batlantirish;

- tarbiyalanuvchilarning intellektual darajasini oshirish;


- ijodkorlik va nostandart fikrlashni rivojlantirish.

- Innovatsion jarayonning tuzilishi (2-rasm):

- Axborotni tahlil qilish va yig‘ish.

- Innovatsiyalarni tanlash va joriy etish.

- Tajribani umumlantirish va kiritilgan ma’lumotlarni diagnostika qilish.




**1-rasm. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining vazifalari**

Ammo shuni nazarda tutish kerakki, hatto eng yaxshi pedagog tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan eng yaxshi munosabatlari ham teng emas: kattalar tarbiyalaydi, o'rgatadi, tarbiyalanuvchi ergashadi, o'rganadi.

Kichik va o'rta guruhlarda tarbiyalanuvchilar pedagog tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradilar, katta va tayyorlov guruhlarida esa, tarbiyalanuvchilar mustaqil ravishda harakatlarni o'ylab topishlari yoki nima qilish kerakligini taxmin qilishlari mumkin. Pedagog qaysi ish variantini tanlashi, kelgusi ishning maqsad va vazifalariga bog'liq.

Innovatsion usullarga quyidagi komponentlar kiradi:

- yetakchilik va dialogik qobiliyatlarni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari;
- ijodiy faoliyatning pedagogik jihatlari;
- jamoada shaxslararo muloqotni rivojlantirish usullari;
- jamoaning ijodiy mahsulotini yaratish jarayonida integratsiya;
- faoliyat vositasida ijodiy muhit yaratish usullari.



**2-rasm. Innovatsion jarayonning tuzilishi**

Albatta, innovatsiyalar tarbiyalanuvchilar bilan ishlashning yangi turi sifatida ma'lum bir xavfga ega. Qachonki pedagog tomonidan kelgusi faoliyat tayyorgarligini tashkil qilishda quyidagi ko'rsatilgan barcha qismlarni ishlab chiqsa, bu xavflar minimallashtirish mumkin.

Buning uchun pedagog quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- innovatsion ish yo'nalishini tanlash;
- innovatsion faoliyat konsepsiyasi va dasturini ishlab chiqish;
- innovatsion loyihani amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- innovatsion faoliyatga doir hujjatlarni tayyorlash va malakali joriy etish.

**Xulosa qilib aytganda**, novator pedagogning vazifasi har bir tarbiyalanuvchining individual xususiyatini, uning psixologik tayyorgarligini hisobga olgan holda guruhning birgalikda mashg'ulotlarda ishtirok etishi uchun motivatsiya yaratishdan iborat bo'lishi lozim..

#### **Adabiyotlar:**

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasining davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabr "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori.
3. Berdiyeva M. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish". // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. – 2019.
4. Бузан Т. Методы диагностики развития творческих способностей у детей старшего дошкольного возраста. // Материал (старшая, подготовительная группа). – 2019 г.
5. Turdiyeva M.J. Shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. – 2023.

## ЎҚУВ МОТИВАЦИЯСИ БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

*Кораева Латифа Зарифовна,*

*Навоий инновациялар университети ўқитувчиси(PhD)*

*Мақолада бошланғич синф ўқувчиларини ўқув фаолиятини, ўқув мотивларини шакллантириши ва ривожлантириши, шунингдек бошланғич синф ўқувчиларининг ижтимоий ёки когнитив мотивларни бошқариши ҳамда ўқитувчилар томонидан ўқув жараёнини ташкил этиши усуллари, йўллари ва самарадорлиги ёритилган.*

**Калит сўзлар:** *мотивация, ўқитиш, машгулот, бошланғич таълим, когнитив мотив, ўқув жараёни, ўқитувчи, ўқувчи фаолияти, ижтимоий мотив.*

## УЧЕБНАЯ МОТИВАЦИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В статье описаны методы, способы и эффективность формирования и развития учебной деятельности, учебных мотивов младших школьников, а также управления социальными или познавательными мотивациями младших школьников и организации учебного процесса учителями.*

**Ключевые слова:** *мотивация, обучение, обучение, начальное образование, познавательная мотивация. учебный процесс, педагог, деятельность учащихся, социальный мотив.*

## LEARNING MOTIVATION AS A FACTOR FOR THE DEVELOPMENT OF LEARNING ACTIVITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS

*The article describes the methods, ways and effectiveness of forming and developing educational activities, educational motives of elementary school students, as well as managing social or cognitive motivations of elementary school students and organizing the educational process by teachers.*

**Keywords:** *motivation, teaching, training, primary education, cognitive motivation, educational process, teacher, student activity, social motive.*

**Кириш.** Шахс тарбияси, унинг ижтимоий-психологик камолоти ҳар қандай давлатнинг бош стратегик масалаларидан биридир. Чунки шахсни маълум эзгу ғоялар, ижтимоий-психологик ва юксак интеллектуал талаблар асосида тарбияламай туриб ҳар жиҳатдан камол топишга қодир жамиятни қуриб бўлмайди.

Зеро, бу жараёнда энг аввало таълим-тарбия тизими, унинг мазмун-моҳияти, таълим тизимини такомиллаштиришга хизмат қилувчи психологик тамойиллари муҳим аҳамият касб этади.

Дарҳақиқат, ҳозирги кунда республикамизнинг барча таълим муассасаларида ўқувчи-ёшларнинг юксак маънавиятли, мустақил ва эркин фикрлаш кўникмасига эга бўлишлари, замонавий илм-фан ютуқларини пухта ўзлаштиришлари учун барча шартшароитлар яратилгани, жаҳон стандартига жавоб берадиган ўқув хоналари, ахборот-коммуникация, замонавий лаборатория жиҳозлари билан таъминланганлигининг гувоҳи бўлмоқдамиз.

Табиийки, энг аввало ушбу вазифани бажаришни эса бошланғич таълим тизимида таҳсил олаётган ўқувчиларнинг бугунги замон талабларига жавоб бера олувчи ижтимоий – психологик ҳолатига жиддий эътиборни қаратишдан бошлаш керак бўлади.

Тадқиқот объекти. Таълим фаолияти мактаб тизимининг асосини ташкил қилади, ҳукмронлик тамойилини ифодалайди, чунки боланинг ҳаётининг ушбу даврида кейинги яшаш учун зарур бўлган маълумотлар фаол равишда олинади. Бу жараённинг якуний натижаси ҳар доим вазиятларни таҳлил қилиш, вазифаларни ҳал қилиш ва жамият билан ўзаро муносабатда бўлишга қодир бўлган тўлиқ ҳуқуқли шахсни шакллантириш бўлиши керак. Мактабни тугатгандан сўнг, бола келажакда унинг нормал яшашини таъминлайдиган барча зарур билим ва кўникмаларни эгаллаши керак. Ўқув фаолиятининг муваффақияти нафақат ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштиришига, балки юқори натижаларга эришишга, ўзини тасдиқлашга интилишларига, яъни ўрганиш мотивациясига ҳам боғлиқ. Мотивация даражаси қанчалик юқори бўлса, болани ўқув фаолиятига шунчалик кўп омилар жалб қилади ва у шунчалик яхши натижаларга эриша олади. Ўқув жараёни самарадорлигининг асоси ўқувчида ижобий ўқув мотивациясини ривожлантиришидир. Ўқув жараёнини самарали бошқариш

учун ўқитувчидан таълим фаолияти мотивациясини, унинг ривожланиши ва фаолиятининг асосий қонуниятларини тушунишни талаб қилади. Аммо бу жараёни муваффақиятли амалга ошириш муайян омиллари мумкин эмас. Аввало, таълим фаолиятининг якуний натижаси болалар онги учун маъсул бўлган ўқитувчининг малакасига боғлиқ. Аммо камдан-кам ҳолларда ўқитишнинг муваффақияти ҳар бир ўқувчининг шахсий фазилатларига боғлиқ бўлиб, таълим мотивацияси ҳам муҳимдир.

Мотивация - мия тузилмаларининг фаол ҳолати бўлиб, у онгли ҳайвонларни ҳам, одамларни ҳам гуруҳ ёки индивидуал эҳтиёжларни қондиришга қаратилган тажриба ёки ирсий жиҳатдан мустаҳкамланган ҳаракатлар натижасида олинган ҳаракатларни бажаришга ундайди [1]. Психологик адабиётларда мотивация деганда организмнинг фаоллигини келтириб чиқарадиган ва айнан шу фаолиятнинг йўналишини белгиловчи импульс тушунилади. Мотивация деганда одамни маълум бир йўл туттишга ундайдиган тананинг ички ҳолати тушунилади.

Шаклланмаган ўқув мотивацияси муаммоси, тенг интеллектуал қобилиятларга эга бўлган бошланғич синф ўқувчиларида ўрганиш сифатининг турли кўрсаткичларини намойиш этишларида намён бўлади. Шу сабабли, ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштириш сифатини ошириш муаммоси болаларда ўқув мотивларини ривожлантириш ва шакллантириш муаммоси билан биргалликда ҳал қилинади, бу нафақат когнитив фаолликда, балки шахсий ва ижтимоий қобилиятларни англашда ҳам намён бўлади. Ишлаб чиқилган назарий қоидалар ва услубий тавсияларнинг хилма-хиллигига қарамасдан, баъзи ўқувчилар, шу жумладан бошланғич синф ўқувчилари ўртасида таълим фаолиятини рағбатлантириш муаммоси мавжуд бўлиб, бу уларнинг мактаб ўқув дастурини муваффақиятли ўзлаштиришига тўсқинлик қилади. Когнитив мотивларни шакллантириш учун ўқувчиларнинг қизиқишлари, уларнинг қобилиятлари, эҳтиёжлари, мойиллиги билан бир қаторда, ўқитувчи томонидан ўқув-тарбиявий ишларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларини, у дарсда қандай усул ва усуллардан фойдаланишини ҳисобга олиш керак. Буларнинг барчаси ўқув фаолияти учун ижобий мотивацияни ривожлантиришда катта рол ўйнайди. Ўқув фаолиятида, кўпинча, бошланғич синф ўқувчилари нафақат ижтимоий ёки когнитив мотивларни бошқарадилар, нафақат уларнинг комбинациясида, балки ҳар қандай фаолиятда муваффақиятга эришиш истаги ва ўқишга қизиқишни ошириш учун ўқувчиларга энг қулай таъсир кўрсатадилар.

Фаолият назариясига кўра, мотивация фақат фаолият нормаси мавжуд эҳтиёжга мос келганда пайдо бўлади. Яъни, ўқувчиларга уларнинг эҳтиёжларини қондирадиган фаолиятни таклиф қилиш керак деган хулосага келса бўлади. Ва уларнинг таълим мотивациясини сақлаб қолиш учун, шунингдек, унинг ривожланиши учун зарур мустақиллик даражаси, уларнинг ҳаракатларининг муваффақияти, ижобий фикр-мулоҳазаларни мажбурий таъминлаш, ахлоқий фазилатларни шакллантириш каби шартлар зарур.

Рус психологи А.Н.Леонтьев инсон фаолиятининг психик ва амалий шакллари мавжудлигини, бола онги айнан ўқув фаолиятида ўсишини таъкидлайди. Д.Б.Эльконин эса ўқув фаолиятининг хусусиятларини кўрсатиб, уни моҳияти, мазмуни ва намён бўлиш шаклига кўра ижтимоийлигини таъкидлайди. Ўқув фаолияти бу шундай фаолиятки, унинг натижасида аввало ўқувчида ўзгариш юз беради. Унинг маъсули турли мотивлар асосида кўрилган бўлиши даркор. Бу мотивлар бевосита ўқувчи шахсининг ўсиши ва ривожланиши билан боғлиқ бўлиши керак. Ўқув фаолияти таълим, ўқиш ва ўрганиш деган тушунчалар билан бевосита боғлиқдир.

Таълим ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлигидаги ўқув фаолияти, ўқитувчининг билим, кўникма ва малакаларини ўқувчиларга ўргатиш жараёнидир. Таълим жараёни бевосита муайян ахборот, ҳаракатлар, ҳулқ-атвор шакллари ўзлаштиришга қаратилгандир. Ўқиш ва ўргатиш тушунчалари ўқув фаолияти билан боғлиқ бўлиб, улар билим, кўникма ва малакаларни ўргатиш, ўзлаштиришга хизмат қилади.

Таълим жараёни алоҳида ташкил этиладиган ҳамда бошқариладиган фаолият бўлиб, у ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил этади ва уларни бошқаради.

Қўлланилган методлар. Бошланғич синф ўқувчилари ўқув жараёнининг фаол иштирокчиси бўлган оқилона ташкил этилган ўқув жараёни таълим мотивациясини шакллантириш учун зарурдир. Ўқувчилар таълим ва когнитив жараёнда фаол субъект позициясини эгаллагандагина ўрганишга бўлган ички эҳтиёж ва ўрганишга ижобий муносабатда бўладилар. Бунинг учун ўқитувчи материални аниқ баён қилиши, мустақил ишни моҳирона ташкил қилиши, ўқув материалининг амалий аҳамиятини кўрсатиш учун билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш учун зарур бўлган ишларни бажариши, ҳаётий кўникмаларни шакллантириши (иш ҳужжатини тузиш, ўқилган асарнинг режасини, иншо ва бошқаларни ёзиш), тарбиявий ишнинг турли усулларини

моҳирона бирлаштириб, ҳазил билан мурожаат қилиш, муаммоли вазиятларни яратиш, ҳис-туйғуларни уйғотиш, воқеалар тажрибаси эга бўлиши керак .

А.Маслоунинг инсон эҳтиёжлари пирамидасига асосланиб, қуйидагиларни ажрата олиш мумкин:

1. Ўқувчининг ўқув фаолиятининг асоси бўлган ижтимоий эҳтиёжлари, уларнинг тарбиявий мотивациясини шакллантириш ва ривожлантириш шартлари: жамоада қабул қилиниши ва тан олинishi; мустақил равишда муваффақиятга эришиш, тан олинishi; ўз "мен" ни ўз-ўзини англаш имкониятига эга бўлиш;

2. Ўқитиш мотивлари: - янги билимларга қизиқиш, когнитив эҳтиёж, қизиқувчанлик, ўз-ўзини ривожлантириш, янги нарсаларни ўрганиш ва ҳоказоларда намоён бўладиган таълим ва когнитив мотивлар;

- билимнинг ёрқинлиги, янгилиги, қизиқарлилиги ва бошқалар каби фазилатларини ўз ичига олган бевосита рағбатлантирувчи мотивлар;

- истикболли-рағбатлантирувчи (ижтимоий) мотивлар, улар бурч мотиви, масъулият, яхши баҳолаш мотиви, шунингдек, жамоавий фаолият манфаати учун ишлаш мотивини ўз ичига олади, ўқишнинг бошида муваффақиятни таъминлайди ва ўқувчи ёш ривожланишининг кейинги босқичларида ушбу

мотивлардан унумдорликни олади;

- шахсий мотивлар: фаровонлик ва натижаларга эришиш истаги.

Г.М.Андреева томонидан эса қуйидаги 4 та илмий йўналишнинг белгиланиши ўқувчи шахсига фаол-ижобий муносабатларни келтириб чиқарувчи маълум психологик мезонларни тадқиқ қилиш имконини беради:

1. Мувофиқлаштириш – субъектнинг ўз мақсадларига эришиш учун хизмат қилувчи аттитюдни (муносабатни) объектга нисбатан йўналтира олиши;

2. Билиш - у ёки бу объектга нисбатан аттитюднинг (муносабатнинг) соддалаштирилган хулқ-атвор кўрсатмасини таъминлай олиши.

3. Ифодалилик – шахс ўз-ўзини идора қилишида аттитюд (муносабат) шахс сифатида ўзини ифодалаш учун субъектнинг кескин танг ҳолатлардан халос қилиш усули сифатида намоён эта олиши.

4. Ҳимоя – аттитюднинг (муносабатнинг) шахс ички зиддиятларини бартараф этишга хизмат қилиши.

Демак, айтиш мумкинки, муносабатнинг мазкур тўртала вазифаси ҳам ўқув фаолияти жараёнида ўқувчи шахсини фаолликка ундовчи мезонлардир. Чунки, фаолият омиллари, жумладан ўқув фаоллиги ҳамisha ўқувчи шахси установакаларига ҳамоҳангдир.

Ўқувчининг ҳар қандай ўқув топшириқларини бажариши учун ҳам унда маълум кўникмалар билан бирга унинг фаолиятида психологлар томонидан қайд этилган (А.К.Маркова, Л.М.Фридман, А.В.Захарова) ўқув – психологик компонентлари ҳам (когнитив, ҳиссий- иродавий, баҳолаш) бевосита иштирок этиши шарт. Мазкур компонентлар етарли даражада шаклланмас экан, ўқувчи ўқув фаолиятида шунчаки “индефферент” муносабатда бўлаверади. Лекин бу муносабат мезони таълим самарадорлигига, қолаверса ўқувчи шахсининг ижтимоий – психологик тараққиётига етарли даражада ижобий таъсир этмаслиги мумкин.

Бизнинг назримизда эса, ўқув фаоллиги ёки ўқув фаоллигини намоён қилишга бўлган мотивацияси замирида ўқув компонентларининг (когнитив, ҳиссий-иродавий, баҳолаш) иштироки муҳим ўрин тутаети. Яъни тегишли даражадаги ўқув компонентини шакллантириш орқали ўқув фаоллиги ҳақида гапириш мумкин. Қолаверса, ўқувчи ҳар қандай ўқув топшириғини бажариш жараёнида фаол иштирокчи бўлиши учун, даставвал ундаги билимлар, ҳиссий-иродавий сифатлар, ўз-ўзини адекват баҳолашга ва ривожлантира боришга бўлган қатъий ҳаракатлар мотивацияси шаклланган бўлиши даркор. Акс ҳолда, ундаги фаоллик шунчаки оддий ҳаракат сифатида баҳоланади. Ҳар бир компонентнинг у ёки бу даражадаги миқдорига қараб ўқув фаоллигига нисбатан муносабат мотивацияси кўрсаткичлари (юқори, ўрта, қуйи) ҳақида тегишли мулоҳазаларни юритиш мумкин. Жумладан, когнитив, компонент иштироки, аксарият ҳолларда ўқувчи фаолиятидаги тегишли билимларни эгаллаш асосида таркиб топган қизиқишларнинг мавжудлиги, ҳар бир ўқув топшириғини чуқурроқ идрок ва тафаккур қилиш орқали бажаришга интилувчанликнинг намоён этилиши орқали белгиланади.

Ҳиссий-иродавий компонент иштирокида эса ҳар қандай ўқув топшириғини алоҳида иштиёқ билан бажариш ва бу жараёнда барча қийинчиликларни енгиб ўтишга интилиш, қатъийлик,

ташаббускорлик ва ўзига хос иродавий сифатларни намоён қилиш, масъулиятни чуқур ҳис этган ҳолда фаолият кўрсатиш кабилар қиради.

Баҳолаш компонентининг мавжудлиги эса, ўқувчи шахсидаги ўз-ўзини адекват баҳолаш, ўз-ўзини идора қилиш, ривожлантириш, ўз имкониятларидан унумли фойдаланишга интилиш, фаолият ва унинг натижаларига адекват баҳо бериш каби сифатлар орқали яққол ифодаланиши мумкин.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Шундай қилиб, таълим мотивацияси концепциясини ўрганиб чиқиб, биз ушбу муносабатларнинг ақлий моҳиятини мактаб ўқувчиларининг таълим фаолиятини белгилайдиган мотивларнинг йиғиндиси очиб беради, деган хулосага келишимиз мумкин. Таълим мотивларининг тузилиши ташқи (ташқи таълим фаолияти: бурч, масъулият, мақтов ва бошқалар) ва ички (ўқув фаолиятида: қизиқиш, қизиқувчанлик ва хоказо) туртки берувчи кучлардан иборат.

Бошланғич мактаб ёши - бу ҳаётнинг жуда муҳим даври, чунки бу вақтда характер ва хулқ-атвор асослари қўйилади, темперамент намоён бўлади, шунингдек, жамиятда маълум бир ижтимоий мақомни эгаллаш истаги пайдо бўлади. Янги сифат ва кўникмаларга эга бўлган ўқувчи турли хил ҳаётий шароитларда мустақил ҳаракат қилишни ўрганади, бунинг натижасида унинг ҳаракатлари учун шахсий жавобгарлик унинг елкасига тушади. Буларнинг барчаси боланинг дунёқарашининг ўзгаришига ва интеллектуал ривожланиш даражасининг ошишига олиб келади. Ҳар қандай ҳаёт даврида бўлгани каби, у ўзига хос психологик хусусиятларга эга, қайси бошланғич мактаб ёши боланинг асосий ҳаётий кадриятлари, шунингдек, ижобий фазилатларни эгаллашнинг хатчўп сифатида ишлатилиши мумкин. Шуни ёдда тутиш керакки, баъзида бу вақтда тез-тез чарчоқ пайдо бўлиши мумкин, бу боланинг психо-эмоционал ривожланишидан олдинда бўлган интенсив жисмоний ўсиши билан боғлиқ.

Кузатишлар ва илмий таҳлиллар шуни кўрсатдики, ўқув фаолиятига муносабат жараёни ҳам шахс психологик йўналишида ўзига хос иерархик тизимга эга бўлиб, мазкур тизим асосида шахс фаоллигининг намоён бўлиш белгисини, натижаси ва динамикасини тадқиқ қилиш мумкин

Ўқитувчининг ностандарт кўриниши ва хатти-ҳаракатларидан тортиб, махсус жиҳозлардан фойдаланишгача бўлган рағбатлантиришнинг кўплаб усуллари мавжуд. Ўқувчиларнинг билим олишга қизиқиши ҳар бир ўқитувчи учун устувор вазифа бўлиши керак. Бунга эришиш осон эмас, чунки бу мақсадга эришишга тўсқинлик қиладиган бир қатор омиллар мавжуд. Масалан, энг кенг тарқалганлардан бири бу синфларнинг ўзларини нотўғри ташкил этишдир. Бунга иррационал равишда тузилган жадвал ёки нотўғри дарс давомийлиги қиради. Ўқув фаолияти учун мотивация, шунингдек, синфда маълум бир атмосферани шакллантиришни талаб қилади, чунки бу ёшдаги болалар доимо чалғишга мойил бўлиб, ўқишдан бош тортадилар ва бу жараёнга ҳар томонлама аралашадилар. Бунда ўқитувчи ўқувчини нафақат қизиқтириши, балки унга ушбу дарсда ўрганилаётган мавзу қанчалик муҳимлигини тушунтириши керак. Болаларнинг ўқув фаолиятини, масалан, муаммоли вазиятни қўйиш ёки мустақил иш учун топшириқларни тақсимлаш орқали рағбатлантириш мумкин.

**Хулоса.** Ўқувчи шахсини кичик мактаб даври ўзининг ички ижтимоий мотивация йўналишига нисбатан, ёш, индивидуал, худудий ва этнопсихологик имкониятлар ва тафовутлар кўламининг мавжудлиги билан баҳоланади. Бу баҳолаш ўқувчи шахси томонидан мактаб ёки ўқув фаолиятини қандай тушуниш унинг ички ҳиссий кечинмаларига боғлаш, айти пайтда ҳиссий – иродавий сифатларнинг намоён этилиши билан ҳам бевосита боғлиқ эканлиги яққол сезилади.

Бошланғич синф ўқувчиларининг таълим мотивациясининг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки, бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув фаолиятида бундай ўқув мотивлари таълим ва когнитив мотивлар (янги билимларни эгаллаш истаги), ижтимоий (бурч, масъулият) сифатида намоён бўлади. ) ва шахсий мотивлар (фаровонлик ва муваффақиятга интилиш). Аммо бошланғич мактаб ёшида шахсий мотивлар устунлик қилади, агар улар амалга оширилмаса, ўзларининг салбий тенденциялари - муаммолар ва муваффақиятсизликлардан қочиш мотиви шаклида намоён бўлади. Ўқув фаолияти учун мотивация муваффақиятнинг биринчи ва асосий калитидир.

#### Адабиётлар:

1. Акулина Н.Н. Влияние общего интеллекта и мотивации на успешность усвоения знаний // *Ананьевские чтения: Санкт Петербург*, 2015.
2. Гатанов Ю. Б. *Курс развития творческого мышления* // — Санкт-Петербург, 2002.
3. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. *Умумий психология* // – Т.: Низомий номидаги ТДПУ. 2002.
4. Ильин Е. П. *Мотивация и мотивы*. : Санкт Петербург, 2011.



5. Нимаева, Е. Г. Мотивация учения как одно из условий повышения качества образования в условиях начальной школы // Актуальные задачи педагогики : материалы III Междунар. науч. конф. г. Чита – 2013.
6. Маркова А. К., Матис Т. А., Орлов А. Б. Формирование мотивации учения: книга для учителя // Москва. : Просвещение, 1990.
7. Матюхина М. Ф. Мотивация учения младших школьников // — Москва.: Педагогика, 1984.
8. Мосина Н.А., Казакова Т.В., Захарова Т.В. Особенности учебной мотивации у младших школьников с разным уровнем успеваемости // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017
9. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, Академия, 2005.
10. Эльконин Д.Б. Детская психология: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заве-8.

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ПЕДАГОГИК ЖАРАЁННИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ

*Рамазонов Жаҳонгир Джалолович,  
Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент  
Умарова Мехриниса Шерали кизи,  
Осиё халқаро университети магистранти*

*Мақолада мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, мактабгача таълим муассасалари тармогини кенгайтириш, малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, болаларни мактаб таълимига тайёрлаш даражасини тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига замонавий таълим дастурлари ва технологияларини татбиқ этиш, болаларни ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратишга қаратилганлиги мактабгача таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишининг муҳим жиҳотлари ҳақида сўз юритилган.*

***Калит сўзлар:** педагогик жараён, тарбиявий муносабатлар, таълим, тарбия, ўзини-ўзи тарбиялаш, мулоқот ва ривожланиш, креатив технологиялар, диверсификациялаш, дидактика.*

## ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

*В статье рассказывается о важных аспектах радикальной реформы системы дошкольного образования, направленной на дальнейшее совершенствование системы дошкольного образования, укрепление материально-технической базы, расширение сети дошкольных образовательных учреждений, обеспечение квалифицированными педагогическими кадрами, кардинальное повышение уровня подготовки детей к школьному образованию, применение современных образовательные программы и технологии для образовательного процесса, создающие условия*

***Ключевые слова:** педагогический процесс, образовательные отношения, образование, воспитательная работа, самообразование, коммуникация и развитие, креативные технологии, диверсификация, дидактика.*

## PROBLEMS OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*In the article, further improvement of the preschool education system, consolidation of the material and technical base, expansion of the network of preschool education facilities, provision of qualified pedagogic personnel, radical improvement of the level of preparation of children for school education, implementation of modern educational programs and technologies in the educational process, children's comprehensive intellectual, It is important to talk about the important aspects of the radical integration of the preschool education system, which is aimed at creating conditions for moral, ecstatic and social development.*

***Keywords:** pedagogical process, educational relations, education, training, self-education, communication and development, creative technologies, diversification, didactics.*

Понятие "инновация" получило распространение в области экономики и бизнеса после публикации работы Йозефа Шумпетера в 1912 году под названием "Теории экономического развития", где он описывал инновацию как ряд новых комбинаций, вызывающих изменения в производстве и тенденциях рынка. Данная статья подчеркивает ключевую роль инновационных технологий как катализаторов для повышения конкурентоспособности бизнеса. Она сосредоточена на изучении основных стратегий инновационного прогресса нефтегазовых компаний, особенно в области цифровизации. В современных экономических условиях формулирование и реализация системы инноваций в организации имеют решающее значение для обеспечения и стратегии конкурентоспособности. Это изменение переопределило традиционные конкурентные парадигмы на инновационно-ориентированные, где успех на рынке всё чаще зависит от инновационных результатов. Следовательно, одна из актуальных сегодня задач - обеспечить эволюцию компании к состоянию, характеризующемуся усиленным акцентом на инновации и развитие высокотехнологичных секторов, в конечном итоге способствующему экономическому росту и повышению конкурентоспособности промышленных предприятий.

**Ключевые слова:** инновации, конкурентоспособность, цифровая трансформация, экономическое развитие, нефтегазовый сектор, стратегия предприятия, адаптация к рынку, технологический прогресс.

### SO'Z YASASH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

"Innovatsiya" kontseptsiyasi quyidagi sohalarda iqtisodiyot va biznes sohasida mashhurlikka erishdi Jozef Shumpeter 1912 yil "iqtisodiy rivojlanish nazariyalari" seminal asari bo'lib, u erda innovatsiyalarni ishlab chiqarish va bozor tendentsiyalaridagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan bir qator yangi kombinatsiyalar deb ta'riflagan. Ushbu maqola biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun katalizator sifatida innovatsion texnologiyalarning muhim rolini ta'kidlaydi. U neft va gaz kompaniyalarining innovatsion rivojlanishining asosiy strategiyalarini, xususan raqamlashtirish orqali o'rganishga qaratilgan. Hozirgi iqtisodiy landshaftda raqobatbardoshlikni ta'minlash va strategiyalash uchun tashkilot ichida innovatsion tizimni shakllantirish va amalga oshirish juda muhimdir. Ushbu siljish an'anaviy raqobatbardosh paradigmatlarni innovatsiyalarga asoslangan landshaftga aylantirdi, bu erda bozor muvaffaqiyati tobora innovatsion natijalarga bog'liq. Binobarin, bugungi kunning muhim maqsadlaridan biri kompaniyaning yuqori texnologiyali sohalarda innovatsiyalar va taraqqiyotga katta e'tibor berish, pirovardida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bilan ajralib turadigan davlat tomon evolyutsiyasini engillashtirishdir.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, iqtisodiy rivojlanish, neft va gaz sektori, korxonalar strategiyasi, bozorga moslashish, texnologik taraqqiyot.

### THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN WORD FORMATION CLASSES.

The concept of "innovation" gained prominence in the fields of economics and business following Joseph Schumpeter's 1912 seminal work, "Theories of Economic Development," where he described innovation as a series of new combinations sparking changes in production and market trends. This article underscores the critical role of innovative technologies as catalysts for enhancing a business's competitive edge. It focuses on examining key strategies for the innovative progression of oil and gas companies, particularly through digitalization. In the current economic landscape, the formulation and implementation of an innovation system within an organization are crucial for ensuring and strategizing competitiveness. This shift has redefined traditional competitive paradigms into an innovation-driven landscape, where market success is increasingly dependent on innovative outputs. Consequently, one of today's vital objectives is to facilitate a company's evolution towards a state characterized by heightened emphasis on innovation and advancement in high-tech sectors, ultimately fostering economic growth and bolstering the competitiveness of industrial enterprises.

**Keywords:** *innovation, competitiveness, digital transformation, economic development, oil and gas sector, enterprise strategy, market adaptation, technological advancement.*

**Актуальность.** Актуальность изучения словообразования в школьной программе тесно связана с необходимостью освоения учащимися ключевых аспектов русского языка и развития их лингвистических способностей. Понимание процессов и механизмов словообразования, базирующееся на фундаментальной классификации В. В. Виноградова, остается основополагающим для формирования глубоких знаний о языковой структуре. Особенно значимо это становится на ступени среднего образования (5-7 классы), когда школьники начинают более активно анализировать и применять полученные знания на практике.

Важную роль в этом процессе играют инновационные технологии, в частности информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), которые становятся неотъемлемой частью современной образовательной парадигмы. Применение ИКТ, включая компьютеры и интерактивные доски, значительно улучшает визуализацию и восприятие учебного материала, делая процесс обучения более динамичным и привлекательным для учеников. Эти инструменты позволяют преобразовать традиционные методы обучения, делая их более эффективными и мотивирующими.

Использование ИКТ на уроках русского языка не только способствует усилению мотивации и активизации познавательной деятельности учащихся, но и предоставляет возможности для более глубокой индивидуализации обучения. Учителя получают средства для создания интерактивных и мультимедийных презентаций, что способствует лучшему усвоению материала и развитию навыков анализа и критического мышления у школьников. В этом контексте, ИКТ выступают как важный элемент инновационных технологий в образовании, поддерживающий современные требования к качеству и эффективности учебного процесса.

Таким образом, актуализация изучения словообразования в школьной программе напрямую связана с интеграцией инновационных, включая информационные, технологий, что способствует созданию более современной, динамичной и эффективной образовательной среды. Это, в свою очередь, обеспечивает учащимся необходимые условия для комплексного развития языковых и аналитических способностей, что является ключевым для их общего интеллектуального роста.

**Литературный обзор.** Изучение словообразования в школьной программе осуществляется параллельно с морфемикой и анализом различных частей речи. В рамках этого процесса С. И. Львова предлагает определение термина «Словообразование» как специализированный раздел лингвистики, который занимается исследованием механизмов создания новых слов [3]. Первую научную классификацию методов словообразования в русском языке разработал В. В. Виноградов, выделивший морфологические методы и противопоставив их неморфологическим, включающим лексико-семантические, лексико-синтаксические и морфолого-синтаксические подходы [4].

Глубокое погружение в тему словообразования начинается в 5-7 классах, где учащиеся знакомятся с ключевыми аспектами структуры слова и методами словообразования. Часто ученики сталкиваются с трудностями в усвоении обширного объема теоретических и практических знаний. Основная задача учителей состоит в том, чтобы научить школьников понимать морфемную структуру слова, определять методы его образования и на этой основе развивать языковое чутьё и орфографические умения. Важно, чтобы учащиеся осваивали словообразовательный анализ, что требует глубокого понимания морфемного уровня языка и формально-семантических связей слов.

Для обучения словообразованию опытные педагоги часто используют современные инновационные технологии, в том числе такие как информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), в частности, компьютеры. Компьютерные методы применяются в случаях, когда традиционные средства оказываются менее эффективными. Однако следует учитывать, что успех компьютерного обучения во многом зависит от качества образовательных программ. Компьютеры могут быть использованы не только как наглядное пособие, но и как средство для активного обучения, например, через лингвистические образовательные игры, которые требуют от учеников глубоких знаний языка и развитых аналитических способностей [2].

**Материалы и методы.** В рамках данного исследования был использован комплексный подход, включающий анализ научной литературы по словообразованию, основанный на фундаментальных работах В. В. Виноградова, а также современных изданиях С. И. Львовой и других авторов в области лингвистики. Особое внимание уделялось изучению образовательных программ и методических пособий для учащихся 5-7 классов, в которых словообразование является ключевой темой. Важной составляющей исследования стало применение и анализ инновационных образовательных технологий, включая использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на

уроках русского языка. Рассматривались разнообразные методы обучения, от интерактивных подходов и образовательных игр до визуализации учебного материала с помощью компьютерных презентаций и интерактивных досок. Эмпирическая часть исследования включала опросы и интервью с учителями и учащимися, а также наблюдение за учебными занятиями, что позволило оценить эффективность применения различных методик и ИКТ в процессе обучения. Такой интегрированный подход способствовал глубокому пониманию роли инновационных технологий в современном образовательном процессе, особенно в контексте обучения словообразованию в школьной программе.

**Результаты и обсуждение.** Учителя постепенно внедряют ИКТ в учебный процесс, начиная с 5 класса, используя, например, компьютерные формы контроля, такие как тесты. Также они организуют уроки с использованием собственных презентаций. Например, при обучении различным видам морфем, они могут быть представлены в виде слайдов в презентации (см. табл. 1).

Таблица 1.

**Структурированное изложение информации по теме "Корневые и аффиксальные морфемы", "Окончание", "Основа" и "Аффиксы" для использования в учебном процессе.**

1-й слайд: Корневые и Аффиксальные морфемы	
Корневые морфемы	Аффиксальные морфемы
Основа слова, содержащая ключевое лексическое значение	Дополняют и уточняют значение корня
Присутствует в каждом слове	Включают окончания, приставки, суффиксы
Могут содержать чередования гласных и согласных	Интерфиксы соединяют элементы (примеры: пароход, полевод)
Важно различать омонимичные корни	Постфиксы добавляются к словоформам (пример: учиться)
Есть свободные и связанные корни	
2-й слайд: Окончание	
Окончание	
Изменяемая часть слова, определяющая грамматические характеристики и синтаксические связи	
Располагается в конце словоформы	
Виды: родовые, падежные, числовые, личные	
Примеры: Формы слова (купить – купил); Однокоренные слова (купить – покупка)	
3-й слайд: Основа	
Основа	
Часть слова, представляющая лексическое значение без окончания и формообразующего суффикса	
4-й слайд: Аффиксы	
Аффиксы	
<b>Префикс (приставка):</b> перед корнем, выражает словообразовательное/грамматическое значение (примеры: располагаться, наиважнейший)	
<b>Суффикс:</b> после корня, для новых слов/форм (примеры: удивительный, узнавший)	
<b>Постфикс:</b> после флексии, присоединяется к словоформе (пример: учиться)	
<b>Интерфикс:</b> внутри слова, соединительная функция (примеры: -о-, -е- в пароход, полевод; -и- в пятидневка; -ох- в трёхклассный; -ух- в двухгодичный)	

В процессе углубленного усвоения и закрепления изучаемого материала, особенно эффективным является применение визуальных опорных средств, таких как схемы и таблицы, которые могут быть интегрированы в презентации или демонстрируемые на интерактивной доске. Эти визуальные инструменты, например, представленные в таблице 2, способствуют более глубокому пониманию и запоминанию информации благодаря их наглядности и структурированности. Использование таких схем позволяет обучающимся лучше ориентироваться в

материале, упрощает процесс его восприятия и способствует более эффективному взаимодействию между учителем и учениками в процессе обучения. Таким образом, опорные схемы, размещенные на слайдах или интерактивной доске, становятся ценным инструментом для улучшения понимания и усвоения учебного материала, что является ключевым аспектом образовательного процесса.

Таблица 2.

Опорная схема для усвоения учебного материала

Характеристика	Префикс	Суффикс	Постфикс	Интерфикс
<b>Расположение в слове</b>	Расположен перед корнем или другой приставкой	Находится после корня или другого суффикса	Располагается после флексии слова	Расположен между корнями или основами
<b>Основная функция</b>	Создание новых слов или форм слова	Формирует новые слова или грамматические формы	Возвращает действие на предмет	Выполняет соединительную функцию
<b>Влияние на соседние морфемы</b>	Обычно не влияет напрямую	Может вызвать чередование морфем (пример: рог – рожок – рожочек)	Не оказывает прямого влияния	Не влияет
<b>Влияние на семантику основы</b>	Уточняет или конкретизирует значение (например, петь – запеть)	Меняет значение основы (пример: петь – певец)	Не изменяет семантику основы	Не влияет на семантику

Применение опорных схем и таблиц в процессе обучения значительно улучшает запоминание материала учащимися, обеспечивая мультисенсорное восприятие информации. Такой подход объединяет аудиальное усвоение с визуально-образным представлением, что способствует более глубокому и эффективному обучению.

Интеграция интерактивной доски в учебный процесс на уроках русского языка обогащает разнообразие методик обучения, позволяет более научно организовывать труд учеников и вводит в процесс обучения элементы игры. Использование ярких визуальных изображений и богатых цветов создаёт безграничные просторы для фантазии учащихся средних классов, что делает процесс усвоения учебного материала более лёгким и интересным. Например, на уроке возможно использование разноцветных маркеров на доске, а также библиотеки доступных ресурсов и изображений.

Учителя, осведомленные о возможностях интерактивной доски и учитывающие индивидуальные особенности учащихся конкретного класса, заранее подготавливают необходимый текстовый и графический материал. Это значительно повышает эффективность урока, устраняя монотонность в преподавании. Визуальные образы, отображаемые на большом экране, оставляют длительный след в памяти ученика. Учащиеся становятся более сосредоточенными и внимательными к изучаемому материалу, что позволяет им лучше концентрироваться на предмете обучения [2].

Применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательном процессе представляет собой одно из ключевых достижений в области инновационной деятельности в школьной среде. Внедрение ИКТ в учебный процесс значительно усиливает мотивацию учащихся к обучению, стимулирует их познавательный интерес и способствует более активному участию в учебном процессе. Использование инновационных технологий позволяет проводить уроки на новом уровне эстетической привлекательности и эмоциональной насыщенности. Кроме того, они обеспечивают наглядность материала, облегчают доступ к обширным дидактическим ресурсам, увеличивают объем работы, выполняемой в ходе урока, в 1,5–2 раза и способствуют более высокой степени дифференциации и индивидуализации обучения. Также они расширяют возможности самостоятельной работы учащихся и предоставляют доступ к разнообразным информационным ресурсам, включая справочные системы и электронные библиотеки.

**Заключение.** Стоит отметить, что использование компьютерных технологий способствует реализации дифференцированного подхода в образовании, сочетая индивидуальные и групповые формы работы. Эта необходимость дифференциации проистекает из требований развивающего обучения и принципа индивидуального подхода к каждому ученику с целью максимального развития его потенциалов [4].

Таким образом, использование новейших информационно-коммуникационных технологий на уроках русского языка открывает широкие возможности для направления интеллектуального потенциала учащихся на позитивное развитие. В рамках учебного процесса под руководством учителя ученики могут научиться использовать компьютерные технологии для комплексного развития своих интеллектуальных способностей, освоить методы получения информации для решения образовательных и будущих профессиональных задач, а также приобрести навыки, которые будут способствовать их непрерывному образованию на протяжении всей жизни.

#### Литература:

1. Гафурова Н.В., Чурилова Е.Ю. Педагогическое применение мультимедиа средств: учебное пособие. – 2-е изд. перераб. и доп. – Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2015. – 204 с.
2. Ильичев А.В., Петровский В.С., Яковлев А.И. и др. Внедрение информационных технологий в предметной и надпредметной деятельности / Под ред. А.В. Ильичева. – М.: Просвещение, 1995. – 240 с.
3. Бордовский Г.А., Готская И.Б., Ильина С.П., Снегурова В.И. Использование электронных образовательных ресурсов нового поколения в учебном процессе: научно-методические материалы. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2017. – 31 с.
4. Кудимова Н.В. Сетевые педагогические сообщества. Нужны ли они современному педагогу-предметнику / Н.В. Кудимова // Вопросы Интернет-образования: электронный журнал. [Электронный ресурс] Режим доступа: [http://vio.uchim.info/Vio\\_98/cd\\_site/articles/art\\_3\\_8.htm](http://vio.uchim.info/Vio_98/cd_site/articles/art_3_8.htm) (дата обращения: 03.12.2023).

## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

### UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich,*

*Termiz davlat pedagogika instituti Informatika va uni  
o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi  
ilhomabdurazzoqovterdpi@gmail.com*

*Ushbu maqolada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishning ahamiyati yetishib kelayotgan yosh avlodning qay darajada mamalakatni rivojlantirish qobiliyati va xususiyati, bilim darajasi, ilmiy salohiyati chegarasi kengligini tatqiq etib xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini keng ko‘lamda tadqiq etishdan iborat. Xalqaro tajribani qo‘llashning mavjud obyektiv zarurati bilan uni obyektiv va tanqidiy tahlilsiz qarz olishning ommaviy amaliyoti kuzatiladi; shu bilan birga, uning hozirgi holatining yetakchi tendensiyalari va ustuvor xususiyatlari aniqlanmagan; jahon ta’lim makonini rivojlantirishning hozirgi bosqichida bilimlarni o‘zlashtirish sifatini baholash uchun jahon va Yevropa davlatlarida o‘qitish talablarini hisobga olishni nazarda tutadi.*

***Kalit so‘zlar:** ma’lumotlar tahlili, kompyuterda dasturlash, ma’lumotlar bazasi, ta’lim va o‘qitish, motivatsiya va maqsadlar, yangi ta’lim usullari, monitoring va baholash.*

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВУЗАХ

*В данной статье важность преподавания информатики и информационных технологий в развитых зарубежных странах заключается в исследовании степени развития страны и ее характера, уровня знаний, научного потенциала молодого поколения, а также в применении системы образования зарубежных стран в больших масштабах. При существующей объективной необходимости использования международного опыта наблюдается популярная практика его заимствования без объективного и критического анализа; при этом не выявлены ведущие тенденции и приоритетные особенности ее современного состояния; на современном этапе развития мирового образовательного пространства он предполагает учет мировых и европейских требований к оценке качества получения знаний.*

***Ключевые слова:** Анализ данных, компьютерное программирование, базы данных, образование и обучение, мотивация и цели, новые методы обучения, мониторинг и оценка.*

### IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN HIGH SCHOOLS

*In this article, the importance of teaching computer science and information technologies in developed foreign countries is to investigate the extent of the country's development ability and nature, level of knowledge, scientific potential of the young generation, and to apply the education system of foreign countries on a large scale. With the existing objective need to use international experience, the popular practice of borrowing it without objective and critical analysis is observed; at the same time, the leading trends and priority features of its current state have not been identified; at the current stage of the development of the world educational space, it involves taking into account the world and European requirements to assess the quality of knowledge acquisition.*

***Keywords:** Data analysis, computer programming, Database, education and training, motivation and goals, new teaching methods, monitoring and evaluation.*

**Kirish.** Informatika va axborot texnologiyalari ma’lumotlarni olish, o‘rganish, saqlash, qaytarish va tarqatish, shuningdek, kompyuterlar va boshqa axborot texnologiyalari orqali ma’lumotlarni qayta ishlashni o‘rgangan ilmiy va amaliy fanlardan biridir. Informatika, kompyuterlarni dasturlash, ma’lumotlar bazasda ishlash, ma’lumotlar analizini o‘rganish, dasturlash tili va boshqa texnologiyalar orqali ma’lumotlar bilan ishlashni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Informatika o'z ichiga dasturlash tillari, kompyuterlar va ma'lumotlar tizimlari, ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar analizi, sanoat avtomatlashtirish va boshqa bir qancha sohalarni o'z ichiga oladi. Bu fan, hodisalarni tahlil qilish, ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishni o'rganish orqali ishlab chiqarish, biznes, ta'lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda samarali tadbirlar olishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonini kompyuter texnologiyalari orqali tashkil etishning ahamiyati

Hozirgi vaqtda o'qitishning faol turlarini izlash har doim ham o'quv texnik vosita bilan birgalikda olib borilmaydi. Bunga turli xil sabablar ko'rsatiladi, ularning asosiylaridan biri sxemalarda tayyor javob ko'rsatilgan bo'lishligidadir. Shunga o'qituvchi tinglovchilar tarkibiga bog'liq holda mel'dan foydalanish variantini ham galma-gal qo'llaydi.

O'quv jarayonining unumdorligini oshirish uning ilmiy - metodik ta'minotini takomillashtirish yo'li bilan ham yechiladi. Mutaxassislik va fanlar bo'yicha o'quv - uslubiy majmuani ishlab chiqishga katta o'rin ajratiladi, bu esa mazmunini takomillashtirish va o'qitish jarayonini tashkil qilish tizimli yo'lini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu majmuaning butun bir bo'limi o'quv jarayonida o'quv texnik vositani qo'llash bilan bog'liq masalalarga bag'ishlanishi lozim.

O'quv jarayonini takomillashtirish yo'llaridan biri – uni intensivatsiyasi hisoblanadi. Bu degani yangi o'quv usullariga o'tish, zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishdir. Grafoproektor, kadaskoplar yordamida o'quv jarayonlarini namoyish qiluvchi didkatik materiallarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, o'quv jarayonida sxemalar, jadvallar, diagrammalardan foydalanish o'rganilayotgan ma'ruza materiallariga tayanch hisoblanadi, hamda talabalarning umumiy madaniyatini oshirishga samarali ta'sir etadi.

O'qitishning hozirgi zamonaviy bosqichi – o'quv jarayonini avtomatlashtirish, o'qitish tizimlarining keng qo'llanilishi bilan karakterlanadi. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi – EHMning dasturiy ta'minot tizimidir. U o'quv dasturlarini ishlab chiqarish va yaratish, dialog rejimida o'quv jarayonini boshqarish, o'qitish natijalarini yig'ish va qayta ishlashga mo'ljallangan.

O'qitilayotgan guruh ishiga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining vazifasi ularning savollarga javob berish va zarur hollarda yordam ko'rsatishdir. Bu yordam faqat terminal yuzasidagina emas, balki kurs yuzasidan bo'lgan savollarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

#### ***Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi imkoniyatlari:***

- EHMni o'qitish, bilimlarni nazorat qilish, maslahat berish va turli mavzular bo'yicha yordam berish;
- Individual yondashish asosida o'qitish hisobiga o'qitish sifatini oshirish vavaqtni tejashga yordam beradi.

#### ***Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablar:***

- 1) o'quv jarayonining aniq bir zaruriyatga moslashuvchanligi;
- 2) turli o'qitish jarayonlariga nisbatan universalligi;
- 3) o'quv material va dasturlarni kengaytirish va tartiblash xususiyatlariga egaligi.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi o'quv jarayonining boshqarish avtomatlashtirilgan o'quv kursi dasturiga mos ravishda amalga oshiriladi. Avtomatlashtirilgan o'quv kursi – alohida o'quv fanlarini avtomatlashtirilgan holda o'rganishni ta'minlash uchun mo'ljallangan algoritmlar, dasturlar va ko'rsatmaviy uslubiy materiallar majmui.

O'z navbatida har bir avtomatlashtirilgan o'quv kursi avtomatlashtirilgan nazorat o'rgatuvchi dasturlar majmuidan tashkil topadi. Ixtiyoriy avtomatlashtirilgan nazorat o'rgatuvchi dasturlar muhim qismi bo'lib, mashg'ulotlar berilgan dasturlari kompleksini amaliyotda qo'llash bo'yichapsixologik-pedagogik materiallar va tavsiyalar hisoblanadi.

O'qitish texnologiyasini optimallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida o'quv-tarbiyaviy jarayoni tashkil qilishning ilmiy yo'l-yo'riqlarini, shuningdek, ilm va texnikaning hozirgi yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv yurtlarining material-texnik bazasini yangilashni ko'zda tutadi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yoki kompyuterli o'qitish – bu texnik o'quv vositalaridan biri kompyuter hisoblangan o'qitish tizimidir.

#### ***Kompyuterdan o'quv jarayonida quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:***

- predmet va dasturlashga o'rgatish;
- o'rganish va mustaqil ta'lim;
- bilimlarni rivojlantirish va mustahkamlash (hisob-kitob, masala yechish, grafika va boshqalar);
- o'qituvchi va o'quvchi mehnatini ilmiy tashkil qilish;
- ma'lumotnomalar kutubxonasi va boshqa axborot ma'lumotnomalari;
- o'zlashtirish, darsga qatnashish va boshqalar bo'yicha ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish;
- bo'sh vaqtni tashkil qilish.



Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

➤ talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

➤ talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

➤ talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

➤ pedagog va talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab nafaqat unga didaktik qurilmasiga, balki pedagogning ijtimoiy, mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, texnologik yoshdoshuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy mahorati hamda ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq. Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sibkelatgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va axborot texnologiyalari fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

Informatika fanini o'qitish quyidagi maqsadni ko'zda tutadi:

➤ bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;

➤ bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;

➤ bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

**Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning ahamiyati quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi.**

So'nggi texnologik yangiliklarni o'rganish va ulardan foydalanish: Informatika o'qituvchilarga so'nggi kompyuter dasturlari, texnologik yangiliklar va ma'lumotlar tizimlarini o'rganish va ulardan foydalanishni o'rgatadi.

**Ma'lumotlar tahlili:** Informatika, ma'lumotlar tahlilini o'rganish va bu ma'lumotlardan inson o'ziga kerakli axborot olishni o'rgatadi. Bu, biznes va ilmiy sohalarda qaror qabul qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun juda muhimdir.

**Kompyuterda dasturlash:** Informatika, kompyuter dasturlarini yaratishni va ulardan foydalanishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bu, ilmiy sohalarda, tibbiyotda, biznesda va boshqa sohalarda dasturlar yaratish uchun foydali bo'ladi.

**Ma'lumotlar bazasida ishlash:** Informatika, ma'lumotlar bazasi tuzish, ma'lumotlar bazasini boshqarish va ulardan foydalanishni o'rganishni ta'minlaydi. Bu, korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini samarali boshqarishda va ishlovchi Ma'lumotlarni olishda yordam beradi.

**Ta'lim va o'qitish:** Informatika fani ta'lim va jamiyatning barcha sohalarida texnologik vositalarni yaratish, o'zgartirish, yaratilgan kontentlardan foydalanishni o'rganish kerak bo'ladi.

**Amaliy ishlar:** Informatika fanini o'rganish, amaliy ishlar va loyihalar tashkil etish uchun muhimdir. Bu, o'quvchilarni texnologik masalalarni amaliy ravishda hal qilish va dasturlash, web-dizayn va boshqa texnologik kasblarni o'rganishlari uchun tayyorlashni ta'minlaydi.

Informatika fani bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda, ma'lumotlarni samarali ishlashning, innovatsiyalarning va rivojlanishning muhim qismini tashkil etadi. Bu esa har bir inson uchun umumiy texnologik literaturani amalga oshiradi. Ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim va ijtimoiy aloqalarda yanaham samaraliroq bo'lishga yordam beradi.

**Umumta'lim maktablari Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi muhim qadamlarni ko'rib chiqamiz**

**O'qitish rejasi va darsliklar:** Fanni o'qitishning boshlang'ich nuqtasi, o'qitish rejasi va darsliklarni takomillashtirishdir. O'qituvchilar fanni qanday o'qitishlari, qaysi darsliklardan foydalanishlari va ta'lim tizimini qanday rivojlantirishlari kerakligini belgilab beradi.

**Amaliy mashg'ulotlar:** Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning amaliy ishlashini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarni olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlari va har bir yosh avlod kelajakda bu olgan bilimlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

**O'qituvchilar tayyorligi:** O'qituvchilar informatika va axborot texnologiyalari fanini yaxshi bilishi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlarini ta'minlash uchun o'zlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari, o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari kerak. Ular yangi texnologiyalarni o'rganishi, ulardan foydalanishi va o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun bilim va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

**Ta'lim vositalari:** Ta'lim muassasalari Informatika va Axborot texnologiyalari fanini o'qitish uchun ta'lim vositalarini, laboratoriyalarni va kompyuterlarni yangilash va yanada rivojlantirishlari kerak. Bu vositalar o'quvchilarni texnologiyalar bilan ishlash va dasturlarni o'rganishlari uchun zarurdir.

**Motivatsiya va maqsadlar:** O'quvchilarni Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganish uchun motivatsiya berish juda muhimdir. Ular texnologiyalar bilan ishlash, dasturlash, web-dizayn va boshqa texnologiyalarni o'rganishlari va ulardan foydalanishlarini o'rganishni maqsad qilishlari kerak.

**Yangi ta'lim usullari:** Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning samaradorligini oshirish uchun yangi ta'lim metodlari va yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Bu ta'lim usullari o'quvchilarning yangi bilimlarni tez va sifatli o'rganishi va ulardan foydalanishga yordam beradi.

**Ko'rsatkichlar va monitoring:** O'qituvchilar va o'quvchilar o'quv natijalarini baholash va natijalarni monitoring qilishlariga yordam beradigan ko'rsatkichlarni belgilashlari kerak. Bu, ta'lim jarayonini nazorat qilish va takomillashtirish uchun muhimdir.

**O'quvchilar va o'qituvchilar aloqasi:** O'quvchilar bilan o'qituvchilar orasidagi ochiq va yaxshi aloqalar o'rganish, o'quvchilarni o'zlarini rivojlantirishlari va texnologiyalar sohasidagi qiziqishlarini o'rganishlari uchun muhimdir.

**Monitoring va baholash:** Monitoring va baholash, o'quvchilarning o'qish natijalarini, ya'ni o'rganilgan bilimlarni o'zlashtirish va ilmiy jihatdan fan bo'yicha qanday bilimlarga etib kelishlarini baholash va bilimlarni nazorat qilish, jarayonlarini anglatadi. Bu jarayon, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning bilimlarini, o'quv jarayonlarini, darslardagi o'zlashtirishlari, darslarga qatnashishi, o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun bu muhim qadamlarni amalga oshirish orqali o'quvchilarni bu sohada yaxshi tayyorlash va ularga yangi bilim va malakalarni egallashga, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi rivojlanishlarga puxta tayyorlash imkoniyatini beradi.

**Xulosa.** Umumta'lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarni zamonaviy dunyo bilan bog'lab turish, texnologik kasblarni rivojlantirish, va raqamli dunyoni rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Bu metodika, yangi zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, kompyuter savodxonligi, dasturlash texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi ishlash, veb-dizayn va boshqa texnologiyalarni o'rganishni osonlashtiradi. U o'quvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni yechish va ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshiradi va o'quvchilarni yangi bilimlarni o'rganish va ulardan foydalanishlari uchun tayyorlaydi. Bu fan o'quvchilarni aqliy qobiliyati va yangi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga insonni har tomonlama tayyorlaydi va ularni ish tizimlarini o'zgartirish, ishlovchi ma'lumotlarni olish jarayonlarini osonlashtirishga yordam beradi. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasi, o'quvchilarni ijtimoiy aloqalarni o'zlashtirish va dunyo bo'ylab har qanday vizuallashtirilgan holatda muloqot olib borishga sharoit yaratadi va insonlar orasidagi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodika, o'quvchilarni zamonaviy dunyo bilan bog'lab turish va o'zlari uchun zamon bilan ham nafas bo'lib yashash uchun sharoit yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevraldagi PF-4947-son “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/4188795>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar // <https://president.uz/oz/lists/view/3324>

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 592 b.
4. A.T.Kenjabayev, M.M.Ikromov, A.Sh.Allanazarov. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv qo'llanma-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. - 408 b.
5. Aripov M., Begalov B., Ubegimqulov, Mamarajabov M.. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma- T.: «Noshir», 2009.- 368 b.
6. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q., Nabiulina L.M. Kompyuter grafikasi va web-dizayn. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. - 376 b.
7. Tojiyev M.. Ziyamexammedov B.. O'ralova M.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash. O'quv qo'llanma - T.: "Tafakkur bo'stoni", 2012. - 224 b.
8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 160 b.
9. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida informatika ta'limisamaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar Abdurazzoqov I.R - PEDAGOGS jurnali, 2023 page 121-124.
10. Omonov N.T., Xo'jayev N.X.. Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik - T.: "Iqtisod moliya", 2009. - 240 b.
11. Karimova Mavzuna Basic learning principles of artificial neural networks 2023/10/24, Journal Educational Research in Universal Sciences, Vol 2, Issue 12, page 51-56
12. Fransiya va avstraliya davlatlarida informatika va axborot texnologiyalari fanining rivojlanishi, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich - World scientific research journal, 2022 page 123-126.

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEKNOLOGIYALAR FANINI O‘QITISHDA TA‘LIM PLATFORMALARDAN  
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

**Karimov Feruz Raimovich,**

*Buxoro davlat universiteti*

*“Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi*

*mister.feruz@inbox.ru*

*Ushbu maqolada ta‘lim platformalarining informatika va axborot texnologiyalar fanini o‘rganishda o‘quvchilarga taqdim etadigan afzalliklari haqida ma‘lumot beriladi. Bu afzalliklar orasida o‘quvchilarga har qanday vaqt, har qanday joydan kirish imkoniyatini berish, har bir o‘quvchi uchun shaxsiy o‘qish rejasi yaratish, texnologiyalarning so‘nggi rivojlanishlarini o‘quvchilarga tanishtirish kabi muhim nuqtalar keltiriladi. Ta‘lim platformalari orqali o‘quvchilar o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘zlashtirish imkoniyatlarini oshirishi, interaktiv darsliklar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishi, o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini nazorat qilishi va boshqarishi, yangiliklardan tezkor xabardor bo‘lishi kabi afzalliklar ko‘rsatiladi. Bunda ta‘lim platformalarining rivojlanishi va raqobatbardoshlik muhitini yaratishning ham muhim roli ko‘rsatiladi. Maqolada, ta‘lim platformalarining o‘rta ta‘limda informatika va axborot texnologiyalar fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratishdagi roli va ularning ilmiy rivojlanishiga tegishli muhim vazifalar ham ta‘kidlab o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *trening, platforma, interaktiv, virtual, global, resurs, interfaol, simulyatsiyalar, innovatsion.*

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В  
ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТУ ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В  
СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

*В данной статье приводится информация о преимуществах, которые предоставляют учащимся образовательные платформы в изучении компьютерной науки и информационных технологий. Среди этих преимуществ отмечается возможность доступа учащимся к платформам в любое время и из любого места, создание индивидуального учебного расписания для каждого ученика, ознакомление учащихся с последними достижениями в развитии технологий. Образовательные платформы позволяют учащимся расширить свои возможности самообучения и самосовершенствования, повысить их интересы благодаря интерактивным учебникам и практическим занятиям, обеспечивают контроль и управление учебным процессом учителями, а также оперативное информирование о новостях. В статье также отмечается важная роль развития образовательных платформ и создания конкурентной среды. Она подчеркивает значимые задачи, связанные с созданием новых возможностей в обучении компьютерной науке и информационным технологиям в средней школе, а также их вклад в научное развитие.*

**Ключевые слова:** *обучение, платформа, интерактивный, виртуальный, глобальный, ресурсный, интерактивный, симуляции, инновационный.*

**ADVANTAGES OF USING EDUCATIONAL PLATFORMS IN TEACHING THE SUBJECT  
OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN GENERAL SECONDARY  
SCHOOLS**

*This article provides information on the advantages offered to students by educational platforms in teaching computer science and information technology. Among these advantages, it is highlighted that students have the opportunity to access the platforms anytime and from anywhere, create their own personalized learning schedules, become familiar with the latest advancements in technology. Educational platforms enhance students' self-learning and self-development capabilities, expand their interests through interactive textbooks and practical exercises, provide teachers with control and management of the learning process, and keep them updated with news. The article also emphasizes the important role of the development of educational platforms and the creation of a competitive environment. It outlines significant tasks related to creating new opportunities in teaching computer science and information technology in secondary education and their contribution to scientific development.*

**Keywords:** *training, platform, interactive, virtual, global, resource, interactive, simulations, innovative.*

**Kirish.** Ta’limda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llaganda o’quvchi eshitish, ko’rish, ko’rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo’ladi. Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun ma’lum bir shart – sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Bugungi kunda dars jarayonida ta’lim platformalaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ushbu platformalar maxsus veb-saytlar yoki ilovalar bo’lib, ular o’quvchilarga ta’lim olish va onlayn darslarni o’zlashtirish imkonini beradi.

Informatika va axborot texnologiyalar fanini ta’lim platformalaridan foydalanib o’qitish – muloqotli o’qitish bo’lib, jarayonning borishida o’qituvchi va o’quvchi orasida o’zaro ta’sir amalga oshiriladi. Ushbu o’qitishning mohiyati o’quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o’quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo’ladilar.

**Asosiy qism.** Ta’lim platformalaridan foydalaniladigan o’quv jarayonida o’quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko’rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o’rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o’yinlar, ijodiy ishlar qo’llaniladi, trenajorlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Ta’lim platformasi - bu o’quv jarayoni ishtirokchilarini birlashtiradigan, masofaviy ta’lim olish imkoniyatini beruvchi, o’quv materiallari va ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlaydigan, shuningdek, o’quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish uchun test o’tkazish imkonini beruvchi, ayniqsa foydalanishga qaratilgan axborot maydoni.

Interfaol ta’lim imkoniyatlariga ega ta’lim platformalarining ommabopligi, ayniqsa, zamonaviy voqelik talab qiladigan sharoitlarda o’sib bormoqda. Aralashirilgan ta’limga o’tish jarayoniga nafaqat kompyuter, balki boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy o’qitish usullarini joriy etishni taqozo etadi.

O’qitishda ta’lim platformasi resurslaridan foydalanish informatika va axborot texnologiyalar darsining imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan birga uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Raqamli shaklda taqdim etilgan o’quv materiallari ularni darsning turli bosqichlarida qiyinchiliksiz ishlatish va darsning oldiga qo’yilgan maqsadlarni hal qilish imkonini beradi.

Ta’lim platformasi o’quvchiga fanni o’rganish uchun resurs yordamini taqdim etadi. Bu yerda o’quvchi zarur bilim va ko’nikmalarni egallashga yordam beradigan o’quv materiallari, topshiriqlar, vebinarlar va boshqa manbalarni topishi mumkin. Bu esa o’quvchilarga o’zlari tanlagan fanlari bo’yicha qo’shimcha xarajatlersiz to’liq ta’lim olish imkonini beradi.

Ta’lim platformalarining asosiy maqsadi sifatli ta’limni ta’minlash va o’quvchilar uchun ta’lim olish imkoniyatini oshirishdir.

Ta’lim platformasi o’rganishning interaktivligi va moslashuvchanligiga alohida e’tibor beradi. Platformaning turli funksiyalaridan foydalanib, o’quvchilar boshqa sinf o’quvchilari bilim almashishi, testlarni topshirishi, topshiriqlarni bajarishi, o’qituvchilardan fikr-mulohaza olishi va boshqa ko’p narsalarni amalga oshirishi mumkin. Bu o’quvchilar o’rtasida o’zaro fikr almashishga yordam beradi va ushbu platformaning har bir ishtirokchisiga eng yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

Ta’lim platformasi o’quvchiga nafaqat ma’ruzalar va o’quv materiallarini ko’rish, balki o’qishda faol ishtirok etish imkonini beruvchi turli xil vositalarni taqdim etadi. Ta’lim platformasida o’quvchilar savollar berishlari, o’qituvchilar va o’quvchilar bilan resurslarni muhokama qilishlari, amaliy topshiriqlarni bajarishlari va javoblari bo’yicha fikr-mulohazalarini olishlari mumkin.

Ta’lim jarayonida ta’lim platformalaridan foydalanish - bu o’quv jarayonini optimallashtirish, maktab o’quvchilarining fanni o’rganishga qiziqishini oshirish, rivojlantiruvchi ta’lim g’oyalarini amalga oshirish, dars tezligini oshirish va o’qitish usullaridan birini taklif qilishga urinishdir. Uning faoliyati tuzilishi mustaqil ish hajmini oshirish, raqamli ta’lim muhitiga masofaviy aloqa va integratsiyani tashkil etish, mantiqiy fikrlashni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish, o’quvchilarning mustaqil ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, o’quv jarayonining motivatsion sohasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Informatika va axborot texnologiyalar fani darslarida foydalanishning bir nechta afzalliklari mavjud:

1. Onlayn darsliklar va resurslar: Ta’lim platformalari o’quvchilarga informatika darslarida kerak bo’lgan o’quv resurslari va darsliklarni taqdim etadi. Bu o’quv resurslari va darsliklar o’quvchilar uchun qulay formatda, interaktiv holatda va o’zlashtirish imkoniyatlari bilan taqdim etiladi.

2. Interaktiv darsliklar va amaliy mashg’ulotlar: Ta’lim platformalari interaktiv darsliklar, video darslar, amaliy mashg’ulotlar va sinovlar orqali o’quvchilarning qiziqishlarini oshirishga imkon beradi. Bu usul orqali o’quvchilar o’zlashtirish va o’rganishlarini amaliy ravishda sinab ko’rishlari mumkin.

3. O’qituvchilar bilan aloqa: Ta’lim platformalari o’qituvchilar bilan o’quvchilar o’rtasidagi aloqani o’rnatishda yordam beradi. O’qituvchilar o’quvchilarga dars jarayonlarida yoki platformalar orqali muloqot orqali yordam berishlari mumkin. Bu, o’quvchilarning savollarga javob olishi, vazifalarni baholash va shaxsiy yordam olishlari uchun imkoniyat yaratadi.

4. O’qitish va baholash: Ta’lim platformalari o’qituvchilar uchun dars materiallarini yaratish, o’quvchilarning vazifalarini berish, baholash va takroriy sinovlarni tashkil etish imkonini beradi. Bu, o’qituvchilar uchun o’quv jarayonini nazorat qilish va boshqarishni osonlashtiradi.

5. Aloqa va qo’llab-quvvatlash: Ta’lim platformalari o’quvchilar va o’qituvchilar o’rtasida aloqani ta’minlashda ham muhim rol o’ynaydi. O’quvchilar onlayn chat orqali yoki elektron pochta orqali o’qituvchilar bilan muloqot qilishlari, savollarni berishlari va fan yuzasidan yordam so’rashlari mumkin.

6. Multimedia resurslar: Ta’lim platformalari o’quvchilarni interaktiv darsliklar, video darslar, infografikalar va boshqa multimedia resurslari orqali o’rganishga yo’naltiradi. Bu, o’quvchilarning fanni vizual tushunchalar orqali tushunishini yaxshilaydi va qiziqishlarini oshiradi.

7. Tezkor xabarlar va yangiliklar: Ta’lim platformalari o’quvchilarni fan yangiliklardan tezkor xabardor qilishda ham muhim ahamiyatga ega. O’quvchilar yangi darsliklar, fan resurslarining yangilanishlari va boshqa muhim ma’lumotlardan xabardor bo’lishlari mumkin.

**Muhokamalar va natijalar.** Ta’lim platformalari o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi aloqalarini kuchaytirib, tajriba almashish va hamkorlik uchun maydon yaratadi. Ta’lim platformalarda o’quvchilar nafaqat o’rganishi, balki o’rgangan bilimlarini baham ko’rishi va boshqalarga yordam berishi mumkin. Shunday qilib, ta’lim platformalari jamoaviy intellektual faoliyatni va o’zaro ta’limni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlaydi.

Dars jarayonida foydalanish vaqtida ta’lim platformalari o’quvchilarga juda ko’p imkoniyatlarni beradi:

1. Ma’lumotlarga doimiy kirish: Ta’lim platformalari o’quvchilarga internet orqali doimiy kirish imkoniyatini beradi. O’quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda o’quv materiallariga murojaat qilishi mumkin.

2. Qo’llab-quvvatlash va tajriba: Ta’lim platformalari o’quvchilarga interaktiv darslar, misollar va amaliy mashg’ulotlar orqali o’quv tajribasini oshirish imkoniyatini beradi. Bu qo’llab-quvvatlash o’quvchilarning o’zlashtirilgan faniga mos ravishda o’rganishlariga yordam beradi.

3. O’quv yo’nalishi va o’quv rejalari: Ta’lim platformalari o’quvchilarga o’quv yo’nalishini belgilash va o’quv rejasini o’zgartirish imkoniyatini beradi. O’quvchilar o’zlariga qulay bo’lgan vaqt va rejalar bilan o’quvni tashkil qilishlari mumkin.

4. Baholash va monitoring: Ta’lim platformalari o’quvchilarning o’quv natijalarini baholash va monitor qilish imkoniyatini beradi. O’quvchilar o’z vazifalarini yuklash, sinovlarni o’tkazish va baholash tizimlarida o’zlarining o’quv jarayonini nazorat qilishlari mumkin.

5. Hamkorlik va aloqalar: Ta’lim platformalari o’quvchilarga o’zaro hamkorlik va aloqalar yaratish imkoniyatini beradi. O’quvchilar forumlar, chat guruhlar, elektron pochta va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali o’z fikrlarini almashish, savollar berish va o’quvchilar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

6. Qo’shimcha ta’lim resurslari: Ta’lim platformalari o’quvchilarga qo’shimcha talim resurslarini taqdim etadi. Bu resurslar o’quv materiallarining yanada tafsilotli versiyalari, ilovalar, o’quv dasturlari, maqolalar, videolar va boshqa ta’lim manbalari bo’lishi mumkin.

7. Shaxsiy o’quv rejasini: Ta’lim platformalari o’quvchilarga o’zlarining o’quv rejimini belgilash imkoniyatini beradi. O’quvchilar dars vaqtlarini, o’quv vositalarini va o’quv yo’nalishlarini boshqarishlari mumkin.

8. O’quvchilar monitoringi: Ta’lim platformalari o’quvchilarning o’quv jarayonini nazorat qilishga imkoniyat beradi. O’quvchilar o’zlarining o’quv faoliyatini baholash, jarayonni kuzatish va o’quv natijalarini takomillashtirishlari mumkin.

Bu imkoniyatlar ta’lim platformalarining turiga va tarkibiga bog’liq bo’lishi mumkin. Har bir platforma o’zining xususiyatlari va imkoniyatlari bo’lishi mumkin.

**Xulosa.** Bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalar fanini o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sinfda raqamli ta‘lim platformalari imkoniyatlaridan foydalanishga kompleks yondashuv hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim platformalari bir tomondan, o‘quvchiga asosiy tushunchalarni shakllantirish jarayonini aniq ko‘rsatishga, ikkinchi tomondan, bu jarayonda faol ishtirok etishga imkon beradi.

Ta‘limga bunday yondashuv ma‘lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar platforma orqali fan resurslarini shunchaki tinglash yoki o‘qish o‘rniga, o‘rganganlarini amalda darhol qo‘llashlari mumkin. Bu ularga fan bo‘yicha murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunish uchun mashq qilishga yordam beradi.

Ta‘lim platformasi o‘quvchilar uchun eng yaxshi ta‘lim yo‘lini tanlash va ularning bilimlarini oshirish uchun yordam beradigan zarur ko‘nikma va bilimlarni olish imkonini beradi. Ta‘lim platformalari tufayli shaxsiy ta‘lim olish va sifatli ta‘lim resurslaridan foydalanish ancha osonlashdi.

Bundan tashqari, dars jarayonida ta‘lim platformalaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘zaro ta‘sir va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Ular guruhlarda loyihalar ustida ishlashlari, g‘oyalarni muhokama qilishlari va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o‘z fikrlarini baham ko‘rishlari mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Ibragimovich, I. K. (2018). Intensive methods of teaching foreign languages at university. Вопросы науки и образования, (27 (39)), 78-80.
2. Karimov F.R. Ta‘limni boshqarish tizimlari(LMS). O‘quv qo‘llanma. Buxoro. «Durdona» 2023. 100-b.
3. Сатунина А. Е. Электронное обучение: плюсы и минусы // Современные проблемы науки и образования. — 2006. — № 1 — С. 89-90. — URL: [www.scienceeducation.ru/9-103](http://www.scienceeducation.ru/9-103).
4. «Uniweb» онлайн-образование от ведущих вузов России. — URL: <http://uniweb.ru/>.
5. Karimov F.R. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari asosida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid kompetensiyalar va ularning amaliy ahamiyati // Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 7-son(2023-yil, avgust). 29-32-betlar.
6. Abdullaho‘jaeva M.A. Internet manbasi. <https://multiurok.ru/files/informatika-faninioqitishda-fanlararo-integrasiya.html>

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO TO'GARAGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

*Niyozov Alisher Kamilovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi. PhD  
Karomova Dilshoda Xurshidovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fani to'garagini tashkil etishda qo'yiladigan talablar haqida hamda kimyo to'garak faoliyatini qanday tartibda tashkil etish o'rganilgan, kimyo to'garagida qo'llanilsa bo'ladigan metod hamda metodikalar haqida tushunchalar berilgan. Kimyo fanidan to'garak faoliyatini tashkil qilishda o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish usullari hamda darsdan tashqari to'garaklarning o'quvchilar uchun foydali tomonlari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** kimyo to'garagi, sifatli ta'lim, kimyo viktorinalari, qiziqarli tajribalar, o'quvchilar, tarbiyaviy faoliyat, pedagog, mantiqiy fikrlash.

## ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХИМИЧЕСКОГО КРУЖКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*В данной статье рассматриваются требования к организации химического клуба в общеобразовательных школах и способы организации деятельности химического клуба, дается понимание метода и методов, которые можно использовать в кружке химии. В ходе организации деятельности химического клуба были изучены методы пробуждения интереса учащихся к химии и польза внеклассных кружков для учащихся.*

**Ключевые слова:** химический кружок, качественное образование, викторины по химии, интересные опыты, учащиеся, учебная деятельность, педагог, логическое мышление.

## ORGANIZING CHEMISTRY ACTIVITIES IN HIGH SCHOOLS

*In this article, the requirements for the organization of a chemistry club in general education schools and how to organize the activities of the chemistry club are studied, and the methods and methodologies that can be used in the chemistry club are given. During the organization of the activity of the chemistry club, methods of arousing students' interest in chemistry and the benefits of extracurricular clubs for students were studied.*

**Keywords:** Chemistry circle, quality education, chemistry quizzes, interesting experiments, students, educational activity, pedagogy, logical thinking.

**Kirish.** Bilim insonni ertangi kamolotga yetishiga asos bo'lib xizmat qiladi, bilimni egallash jarayoni esa maktab davrida olinadigan sifatli ta'limga bog'liq hisoblanadi. Shunday ekan ta'lim sifati va sifatli ta'lim yuqori darajaga chiqishi uchun malakali pedagoglarning o'rni katta hisoblanadi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'li bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni sifatli bilim olishlarini har tomonlama ta'minlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018- yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi. Kimyo fanidan masala yechishni bilish predmetni ijodiy o'zlashtirishning asosiy mezonini hisoblanadi. Darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda ham o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash hamda dars samaradorligini oshirish uchun turli fan to'garaklarini tashkil qilish ahamiyatlidir. To'garak darslari qayta aloqa asosida olib boriladi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini bilib, bilimlarini yanada boyitib o'zlariga qaytarib beradi. Ya'ni, dars davomida faqat o'qituvchi ishlamasdan o'quvchilar ham tengma-teng ishlaydilar. Yuqorida aytganimizdek, bu usulda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin munosabatlar vujudga keladi va o'quvchilar erkin, mustaqil fikrlay boshlaydilar. O'quvchilarning o'zlarini erkin his qilib, erkin fikrlay boshlaganlaridan so'ng bilimlarni qabul qilish imkoniyati ham kengayadi. O'qituvchi bermoqchi bo'lgan bilimlarni to'liq bera oladi. Umumiy o'rta ta'lim



maktablari o'qituvchilari dars jarayonidan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, hamkorlikda ishlashga, ilmiy-amaliy adabiyot fanlari bilan bog'lab o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotga tadbiq qila olishiga, kompyuter texnologiyalardan foydalana olishiga, jadvallar, diagrammalar bilan ishlashiga oid ko'nikmalarini shakllantirishga yordamchi bo'ladilar. Umumta'lim maktablarida kimyo to'garagi faoliyatini tashkil etish o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlarni to'ldirishda, olgan bilimlarini sifat va samaradorligini oshirishda muhim manbaa bo'lib xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Kimyo to'garagining o'tkazilishidan ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Shunday ekan, o'z qarashlariga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fikrlarini ijodiy, erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning vazifamiz hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bugungi kunning pedagoglari har bir darsni qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali tashkil qilsa darsni o'zlashtirish yanada osonroq bo'ladi. To'garakning asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning mashg'ulotlardan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish;

o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarni o'stirish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tuyg'ularini shakllantirish;

tizimli yondashuv asosida erkin va mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish kabilardir.

**Asosiy qism.** To'garak mashg'ulotlarini interfaol usullardan foydalanib olib boorish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Bola bunday mashg'ulotlar sababli erkin fikrlashni o'rganadi. To'garakda bola maktab darslaridan keyingi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, ko'proq vaqtini bilim olishga sarflashi uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. To'garak mashg'ulotlarining yana foydali tomonlaridan biri bola o'z ustida ishlashi, o'zi qiziqqan yo'nalish bo'yicha shug'ullana olishiga hamda qo'shimcha bilimga ega bo'lishiga yordam beradi. Mashg'ulot davomida dars o'qitish bilan birgalikda bolalarda o'zaro ijodiy tajriba almashinish imkoni mavjud. Darsdan tashqari to'garaklarda ya'ni o'qituvchiga yo'naltirilgan o'qitishning ushbu yondashuvi o'quvchilarga o'tilgan darsdan tashqari ham qo'shimcha bilim, ma'lumotlar berish ularga bunday ma'lumotlarni xotirada saqlash va ularni qayerda qanday foydalanishni o'rgatish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'limning ijtimoiy konstruktivistik qarashlariga mos ta'lim yondashuvlari ta'limning barcha bosqichlarida keng qo'llaniladi. Faoliyatga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'rganish va o'yinga asoslangan ta'lim kabi ta'lim usullari, boshqalar qatori, kimyo tushunchalarini o'rgatish va o'rganishda samarali deb topilgan va ularni to'garaklarda qo'llash mumkin. Kimyo to'garagi o'quvchilar kimyo darsidan tashqari bajaradigan ishlarining bir turi desak ham also mubolag'a bo'lmaydi. Bunday to'garaklarda kimyo faniga qiziquvchi o'quvchilar ishtiyoq bilan shug'ullanishadi. Mamlakatimizdagi maktablarning deyarli barchasida va maxsus o'quv markazlarida ko'plab kimyo to'garaklari o'z faoliyatini yuritib turibdi. Kimyo to'garaklaridagi ish jarayonining shakli har xil bo'lishi mumkin, bular: eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, kimyo asboblarni loyihalash va yasash, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlash, ommaviy tadbirlar uyushtirish kabilardan iborat. Ma'lumki, inson qobiliyati faqat uning faoliyati bilangina rivojlanadi. Kimyo to'garagi har xil, qiziqarli mustaqil ishlar bajarishga imkoniyat yaratib, faol ijodiy shaxsning shakllanishiga yordam beradi. Kimyo to'garagining oldiga qo'ygan maqsadlari ko'p jihatdan uning a'zolari tarkibi bilan belgilanadi. To'garakdagi mashg'ulotlar oltinchi va yettinchi sinf o'quvchilarida kimyo faniga qiziqish uyg'otadi, o'quvchilar kimyo fanining hayot bilan, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi bilan uzviy aloqasini yaxshiroq tushuna boshlaydilar. VIII-X sinf o'quvchilari oldiga kengroq vazifalar qo'yiladi. Yuqori sinf o'quvchilari kimyo fanida qo'llaniladigan tadqiqotlar metodlari bilan tanishadilar, o'lchash asboblarni ishlatishni o'rganadilar, olgan bilimlarini kimyoviy jihozlar va texnik qurilmalar yaratishda qo'llay oladilar. Bularning barchasi o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalari hosil qilishga, ularning ixtisos tanlashlariga ko'maklashadi. Kimyo to'garaklari o'quvchilar ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyot bilan ishlashga, o'z bilimlarini mustaqil oshirishga, ilmiy axborot oqimi ichidan kerakliklarini tanlab olishlarini o'rganishga imkon beradi. Kimyo to'garagi mashg'ulotlarida so'zga chiqish uchun o'quvchilar turli mavzularda dokladlar qilishni, referatlar tayyorlashni o'rganadilar. To'garakda kimyo fanidan turli masalalar ham yechib boriladi. Maxsus mashg'ulotlardan: asboblarni, modellar, ko'rgazmali o'quv qurollari yasash, yangi asboblarni loyihalash, radiouzellarga texnika xizmatini ko'rsatish kabilarni o'rgatiladi. To'garakdagi ishlar kimyo darslarida olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda masalan, asbob va modellar yasashda qo'llashga imkon beradi. Asboblarni yasash o'quvchilarda konstruktorlik qobiliyatini, o'z qo'li bilan narsalar yasash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa kimyo fanini haqiqiy ravishda chuqur tushunib olishda juda muhim hisoblanadi. Konstruktorlik ishi optimal yechimlarni izlashni, to'siqlarni ijodiy bartaraf qilishni talab qiladi. To'garaklar o'z faoliyati davomida maktab kimyo kursiga yordam beradigan hamda o'quvchilarni qiziqtiradigan masalalar bo'yicha tashkil qilinishi ham mumkin. To'garaklar ishida guruhiy va individual mashg'ulotlar sistemasidan foydalaniladi masalan: Bir guruhi asbob va modellarni loyihalaydi, ikkinchi guruh ilmiy-ommabop adabiyot ustida ishlaydi, dokladlar tayyorlaydi, uchinchi guruh masalalar

yechadi. Ishlarni shu tarzda tashkil qilish to‘garak a‘zolarining qiziqishlarini to‘liq o‘rganishga imkon beradi. To‘garak a‘zolarining eng yaxshi ishlari, turli texnika ijodi ko‘rgazmalari, yakunlash kechalari yoki konferensiyalar uchun tanlab olinadi .

### 1-usul

“Oppoq list “ usuli. O‘quvchilardan oldingi dars yoki to‘garak mashg‘ulotini mustahkamlash uchun oldindan tayyorlab qo‘yilgan 3 dona oppoq listni 3 ta qatorga birinchi partalarga beramiz, so‘ngra ularga 4-5 daqiqa vaqt beriladi. O‘quvchilarni har biri o‘tilgan mavzu haqida bitta takrorlanmaydigan ma‘lumot yozishi kerakligi aytiladi. Biz bilamizki, ko‘pincha past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar orqa partada o‘tirishadi. “Oppoq list” usulidan foydalanish orqali past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqtirib jalb qilish mumkin. G‘olib guruh albatta vaqt va so‘zlarning soni bilan baholanadi. Bu usulni keyingi safar orqa partadan boshlasa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu usulning yana bir qulaylik tomoni shundaki, bu usulni har bir dars jarayonlarida hamda har bir fanda qo‘llash yaxshi natija beradi. Bu usul o‘quvchilarni ham diqqatini ham fikrini jamlashga yordam beradi.

### 2-usul

“Topgan topaloq” usuli (sinf 2 guruhga bo‘lingan holda) Har bir guruhga ikkitadan savollar topishmoqlar beriladi.

1. O‘z badanini o‘zi eydi (sham)
2. O‘zi uzun oriq, sallasi malla sariq (gugurt)
3. Qorniga suv quysam, boshi yonar (spirt lampasi)
4. Rangim qora boqsangiz, qizaraman yoqsangiz (ko‘mir)
5. Barcha tirik mavjudotlar oladi undan nafas, toki o‘rmon bor ekan havoda hech tugamas (kislrod)
6. Oksidlanmas havoda yer tagida zanglamas, oksid hosil qilmasligin balki ko‘plar anglamas (oltin)

### 3-usul

Kimyoviy diktant usuli. Diktantda o‘quvchilarga kimyoviy formulalar aytiladi, ular formulalarni to‘g‘ri yozishlari kerak so‘ngra formula asosida murakkab moddalarning ekvivalentini topishlari kerakligi aytiladi.

1. Fosforning 2 ta atomi va kislrodning 5 ta atomi - J:  $P_2O_5$
2. Vodorodning 3 ta atomi, fosforning 1 ta, kislrodning 4 ta atomi – J:  $H_3PO_4$
3. Azotning 2 ta atomi, kislrodning 3 ta atomi – J:  $N_2O_3$
4. Vodorodning 2 ta atomi, uglerodning 1 ta atomi, kislrodning 3 ta atomi - J:  $H_2CO_3$
5. Kaliyning 1 ta atomi, azotning 1 ta atomi, kislrodning 3 ta atomi - J:  $KNO_3$

To‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishdan avval o‘qituvchi tomonidan har bir fan to‘garagining a‘zolari haqida umumiy ma‘lumot yig‘iladi, o‘quvchilarning ismi va familiyasi o‘qiyotgan sinfi to‘garak vaqti, o‘gil bolalar soni, qiz bolalar soni, umumiy o‘quvchilar soni, uy manzili, ota-onasi yoki ularni o‘rmini bosuvchi shaxsning arizasi, davomat va boshqa hujjatlar yig‘iladi. To‘garak rahbari to‘garak mashg‘ulotida samaradorlikka erishish uchun to‘garak mashg‘uloti ishlanmasiga alohida e‘tibor berishi hamda uni zamonaviy pedagogik foydalangan holda tuzishi kerak. Bunda to‘garak rahbari oldiga qo‘yilgan maqsadga xolisona yondoshishi, bolalar tushinishi uchun uning soddaligiga e‘tibor qaratishi zarur. To‘garak rahbarlari to‘garak mashg‘ulotlari ishlanmasini quyidagi tartibda tuzsalar maqsadga muvofiq bo‘lardi: to‘garak mashg‘ulotlari ma‘lum bir sohaga qiziqish uyg‘otadigan, qiziqishni kuchaytiradigan, kelgusida amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishlariga ham turtki bo‘lishi zarurligiga e‘tibor qaratish. To‘garak mashg‘ulotlari bolalar uchun qo‘shimcha ta‘lim shakllaridan biri hisoblanib, u har xil fanlar bo‘yicha fan to‘garaklarini tashkil qilishdan iborat. Maktablarda kimyo fani 7-sinf dan o‘qitila boshlanadi. O‘quvchilarni kimyo faniga hamda darsdan tashqari kimyo to‘garaklariga qiziqtirish uchun, dars va to‘garak jarayonini turli xil dars o‘tish metodlaridan foydalanish orqali har xil o‘yinlar va turli qiziqarli topshiriqlar bilan olib borish, o‘quvchilarni darsni o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Darsdan tashqari tashkil qilinadigan to‘garaklar o‘quvchilarning kelajakda ma‘lum bir yo‘nalishni, ma‘lum bir sohani tanlashlariga ham asos bo‘ladi.

**Natija.** Umumta‘lim maktablarida kimyo fani to‘garagini tashkil qilishda yuqorida berib o‘tilgani kabi metodikalardan, topshiriqlardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borish samarali bo‘ladi. O‘quvchilarni darsdan tashqari to‘garaklarga ishtirok etishlari dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlaydi, o‘quvchilarni ma‘lum bir fanga yo‘naltirishga yordam beradi. Darsdan tashqari to‘garaklar o‘qituvchilar tomonidan qanchalik sifatli va qiziqarli metodlarni qo‘llagan holda tashkil etilsa, aniq bir natijaga erishiladi. Darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda ham o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlash, hamda dars samaradorligini oshirish uchun turli fan to‘garaklarini tashkil qilish ahamiyatlidir. To‘garak darslari qayta aloqa asosida olib boriladi. Ya‘ni o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini bilib, bilimlarini yanada boyitib o‘zlariga qaytarib beradi. Ya‘ni dars davomida faqat o‘qituvchi ishlamasdan o‘quvchilar ham tengma-teng ishlaydilar. Yuqorida aytganimizdek, bu usulda o‘qituvchi va o‘quvchi

o‘rtasida erkin munosabatlar vujudga keladi va o‘quvchilar erkin, mustaqil fikrlay boshlaydilar. O‘quvchilarning o‘zlarini erkin his qilib, erkin fikrlay boshlaganlaridan so‘ng bilimlarni qabul qilish imkoniyati ham kengayadi. O‘qituvchi bermoqchi bo‘lgan bilimlarni to‘liq bera oladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, kimyoga oid boshlang‘ich tushunchalarni bolaga kichik sinflardan berib borish kerak. Masalan, boshlang‘ich sinflarda Atrofimizdagi kimyo nomli to‘garak tashkil qilish mumkin. Bunday to‘garaklarda bolalar uchun qiziqarli va sodda kimyoviy tajribalarni o‘tkazilsa, hayotiy misollar bilan sodda ko‘rinishda tushuntirsa bo‘ladi. Masalan uy sharoitida tuz, shakar, limon kislotasidan kristall o‘stirish yoki uyda choy sodasi, limon kislotasi, shakar va suvdan shirin gazli suv tayyorlash kabi tajribalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli bo‘ladi. Laboratoriya xonalaridan muzey sifatida foydalanishga chek qo‘yib, ulardagi noyob «ekspонат»larni bolalar qo‘liga topshirish kerak. Ya‘ni, laboratoriyalarda har bir tajribani bajarib ko‘rish kerak. Hozirgi kunda “Mental arifmetika” maktablari urf bo‘lmoqda. Xuddi shunga o‘xshab umumta‘lim maktablarida kimyo fani bo‘yicha ham darsdan tashqari o‘quvchilar uchun fan to‘garaklarini tashkil qilish va ularni fan to‘garaklariga jalb qilish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish hamda o‘quvchilarning bilimida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish o‘qituvchilarning asosiy vazifasidir. O‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘qitishning ushbu yondashuvi o‘quvchilarga to‘g‘ri ma‘lumot berish ularga bunday ma‘lumotlarni xotiraga saqlash, kelajakda foydalanishga tayyor bo‘lish imkonini beradi. Buning uchun avvalo pedagog xodim, ya‘ni o‘qituvchi tajribali bo‘lishi va dars jarayonini qiziqarli shaklda tashkil qila olishi kerak. Bundan tashqari o‘quvchilarni olayotgan bilimlarini mustahkamlashda darsdan tashqari to‘garaklarni ham o‘rni beqiyos. Dars o‘tish jarayonida turli metod va metodiklarni to‘g‘ri qo‘llay olish esa, o‘quvchilarni fanga va to‘garaklarga bo‘lgan qiziqishlarini hamda bilim sifatini yanada ortishiga sabab bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Asqarov I.R., To‘xtaboyev N.X., G‘opirov K.G. Kimyo. 7-8-sinf o‘quvchilari uchun darslik.//T:O‘qituvchi 2017
2. Darxonova G To‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish//2023
3. Maktabda kimyo jurnali//2020-2021
4. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun topshiriqlar to‘plami.
5. Amanbaeva Nazigul Kenesbaevna Kimyo darslarida trening darslarini tashkil etish samaradorligi //Toshkent-2021

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

*Niyozov Alisher Kamilovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti,  
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Jamolova Nodirabegim Jobir qizi,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi  
jamolovanodirabegim8@gmail.com*

*Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o'rgatish, juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o'lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni yechishga yordam beradi.*

*Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, ularni qo'llash xususiyatlari, imkoniyatlari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, multimedia, virtual laboratoriyalar, internet resurslari.*

## РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

*Современные информационные технологии ускоряют все этапы образовательного процесса. На основе использования информационных технологий можно наблюдать повышение качества и эффективности учебного процесса, активизацию познавательной деятельности студентов, углубление межпредметных связей. Современные информационные технологии используются для обучения явлениям и процессам микро- и макромира, сложных устройств и биологических систем на основе использования компьютерной графики и моделирования, а также для представления физических, химических и биологических процессов, протекающих при очень высокой или очень низкой скорости в удобном временном масштабе помогает решать новые дидактические задачи.*

*В данной статье освещена важность использования информационно-коммуникационных технологий в преподавании химии, особенности и возможности их применения.*

**Ключевые слова:** *информационные технологии, мультимедиа, виртуальные лаборатории, Интернет-ресурсы.*

## THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING CHEMISTRY IN SECONDARY SCHOOLS

*Modern information technologies accelerate all stages of educational processes. Based on the use of information technologies, it is possible to observe the increase in the quality and efficiency of the educational process, the activation of students' cognitive activities, and the deepening of interdisciplinary relations. Modern information technologies are used to teach phenomena and processes in the micro and macro world, complex devices and biological systems based on the use of computer graphics and modeling, as well as to present physical, chemical and biological processes that occur at a very high or very low speed in a convenient time scale helps to solve new didactic issues.*

*In this article, the importance of using information and communication technologies in the teaching of chemistry, the features and possibilities of their application are highlighted.*

**Keywords:** *information technologies, multimedia, virtual laboratories, Internet resources.*

**Kirish.** *Zamonaviy ta'lim tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi shakl va vositalariga taalluqlidir. Bular qatoriga elektron ta'lim beruvchi vositalarni faol qo'llashni taqozo etadigan elektron o'qitishni kiritish mumkin. Shu bois*

bugun bo‘lajak o‘qituvchilarga faqatgina tayyor elektron qo‘llanmalardan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki ularning yangi ko‘rinishlarini yaratish usullari, yo‘llari va vositalarini o‘rgatish ham muhim tadbirlardan hisoblanadi.

**Asosiy qism.** 21-asrda axborotning jadal rivojlanishi va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) katta o‘zgarishlar olib keldi va zamonaviy jamiyatning umidlariga ta’sir qildi. AKT mavjud kundalik hayotimizning ko‘plab elementlarini, shuningdek, har bir jabhasini o‘zgartirdi inson harakatlari AKTga aylandi maktablarda o‘qitish va o‘qitishning asosiy jihati va uning sinfga kiritilishi o‘qitishni kuchaytiradi (Dei, 2019). An’anaviy yuzma-yuz o‘qitish metodikasi tobora ko‘proq o‘qitish va o‘qitishda AKTdan foydalanish bilan almashtirilmoqda. Internet aloqasi yuzma-yuz sinf o‘rnini egallaydi, odatda oq yoki qora taxtalar bilan almashtiriladi. Onlayn interaktiv doskalar va kitoblar yoki bosma manbalar elektron kitoblar yoki internet resurslari va kutubxonalar bilan almashtiriladi (Suryani,2010). Bu butun dunyodagi maktablar va oilalarni sarmoya kiritishga undadi. AKT vositalari, resurslari va boshqalarga katta miqdorda pul mablag‘lari ta’lim texnologiyalari o‘z missiyasi va qarashlari bilan dolzarb bo‘lib qolishi (Bulman va boshq., 2015). Shubhasiz, Internet va boshqalar AKT texnologiyalari, umuman olganda, bilim uchun hal qiluvchi vositadir. Ta’lim sohasida AKTdan foydalanish zamonaviy axborot resurslari va texnologiyalari uchun muhim ahamiyatga ega. Sinfga o‘qitishni takomillashtirish, o‘rganish va o‘qitishni amalga oshirish ilmiy-uslubiy saviyasi va jahon standartlariga rioya qilish Lima, Bulman, Sarfo, Suryani, Geladze kabi olimlar ishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi[ 1,10].

AKTdan foydalanish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Elektron darsliklardan foydalanish;
2. Multimedia taqdimotlaridan foydalanish;
3. Internet resurslaridan, jumladan, virtual laboratoriyalardan foydalanish;
4. Interfaol doskadan foydalanish;
5. AKTdan loyiha usuli bilan birgalikda foydalanish;
6. Modulli ta’lim (ML) bilan birlashtirilgan AKT;
7. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari va raqamli elektron resurslardan foydalanish;
8. Yangi avlod elektron ta’lim resurslaridan foydalanish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi:

- talabalar uchun o‘qitish texnologiyalari (Bagrova, 2013);
- AKT o‘quvchilarning fan bo‘yicha yutuqlarining o‘sishiga yordam beradi;
- AKT o‘quvchilarga o‘zlarini yangi rollarda ifodalash imkonini beradi;
- AKT mustaqil samarali faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- AKT har bir talaba uchun muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishga yordam beradi;
- darslarni qiziqarli qiladi va o‘quvchilar motivatsiyani rivojlantiradi.

Maktabda kimyo o‘qitish uslubiyati adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kimyo darslarida mustaqil faollikni oshirish maqsadida kimyoviy tajriba, o‘quv materialini kimyoviy tilda bayon etish, ta’lim mavzusini chuqur, qisqa va mantiqiy izchil ochib berish uchun yuqorida aytilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalari qo‘llaniladi[4,675].

Darslarda AKTdan samarali foydalana olish uchun o‘qituvchilar quyidagilarga bilishi lozim:


- AKTning imkoniyatlaridan xabardor bo‘lish;
- o‘quvchilar ehtiyojlariga mos keladigan vositalar va usullarni tanlash;
- o‘qitish usullarini samarali loyihalash;
- yangi o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish,
- duch kelgan muammolarni hal qilish uchun sinfni boshqarish qoidalarini bilish va qo‘llash[6,154].

Kimyo fanidan axborot texnologiyalarini joriy etish orqali quyidagi maqsadlarga erishish mumkin:

1. O‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash;
2. Teskari aloqa bilan o‘quv faoliyati nazoratini olib borish;
3. O‘z-o‘zini nazorat qilish;
4. O‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
5. O‘quv vaqtini tejash;
6. O‘quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
7. O‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;
8. Kompyuterda laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish;
9. Axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
10. O‘qishga qiziqishni orttirish;
11. O‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
12. Fikrlashni rivojlantirish;


13. Optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
14. O‘quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin[2, 97].

7-sinf o‘quvchilari uchun elementlarni, davriy jadval nima ekanligini tushuntirishda AKT ni qo‘llash juda samarali. Hozirgi zamonaviy elektron davriy sistemalar avvalgilaridan tubdan farq qiladi. 3d davriy jadvallarda har bir elementning belgisi, tartib raqami, nisbiy atom massasi, qaynash va suyuqlanish harorati, kim, qachon va qayerda kashf qilganligi, atom tuzilishi, ionlanish energiyasi, atom radiusi, izotplari, birikmalari haqidagi ma’lumotlar berilgan. Oddiy qog‘oz variantdagi davriy sistemalarda 1 ta yacheykada bu ma’lumotlarni sig‘dirish noqulayliklarga olib keladi (1-rasm).




1-rasm.

Biz xohlagan parametrlarni davriy jadvalda o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, atom radiusining o‘zgarishini oladigan bo‘lsak davrlarda chapdan o‘ngga kamayishini, guruhlarda yuqoridan pastga qarab ortishini nafaqat rang o‘zgarishida, balki atom radius qiymatlarida ham ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm.

Izotoplari haqidagi ma’lumotlarni bilish uchun yuqori qismidan “Isotopes (izotoplar)” bo‘limi tanlanadi va kerakli element belgilanadi, bunda element izotoplari haqidagi axborot paydo bo‘ladi (3-rasm).



3-rasm.

Bu AKT dan foydalanishning oddiy misoli [5].

Biz AKTdan o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi kimyoning dunyoviy muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechishda ko‘maklashish maqsadida foydalanishimiz kerak. Biz o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va fanning yanada rivojlanishini ta‘minlashimiz kerak. AKT o‘quvchilarga axborotni visual (ko‘zga ko‘rinadigan) qilib qabul qilish imkonini beradi. Kimyoda atom va molekular orasida boradigan murakkab kimyoviy jarayonlarni abstraksiya orqali tushuntirishga ko‘plab misollar mavjud. Masalan elektron bulut va elektronlar qo‘zg‘alishi, struktur izomeriya, molekulyar konfiguratsiya doirasidagi o‘zgarishlar, gibrid orbitallar va h.k., ro‘yxatni davom ettirish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, animasiya va modellashtirish harakatning molekulyar shakllarini konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Dasturiy ta‘minotning molekulyar vizualizatsiyasi dinamik tasvir tushunchasini yaratadi, bu esa boshqa yo‘l bilan yaratish qiyin bo‘lgan jarayonlar konseptuallashining kuchli va muhim ko‘makini ta‘minlaydi. Shunday qilib, visual ko‘nikmalar va fikrlash sezilarli darajada animasiyalar va dasturiy ta‘minotni modellashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.[3,25]

An‘anaviy vositalar bilan ko‘rsatib bo‘lmaydigan mavzuga oid ko‘pgina jarayonlarni multiplikatsiya qilib kompyuter darsi elektron versiyasiga kiritish va uni kompyuter darsi davomida ekranda namoyish qilib ko‘rsatish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini keskin o‘rtiradi. Yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, kimyo fani dars mashg‘ulotlaridada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi darsni yanada tushunarli, kimyoviy jarayonlarning aniq molekular harakatini visual ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Bu holatda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi shakllanadi va ularning kasbiy tanloviga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Jonas Bayuo, Christopher Saaha Bornaa, Moses Abdullai Abukari, Jonathan Ayelsoma Samari . Utilization of Information and Communication Technology in Teaching and Learning of Chemistry at Senior High Schools in Ghana. *Contemporary Mathematics and Science Education* 3(2); p-13
2. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent, 2020 b-95-102
3. Hoque, K. E., Ahmad Zabidi Abdul Razak, & Zohora, M. F. (2012). ICT utilization among school teachers and principals in Malaysia. *International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development*, 1(4), 17-34. <https://doi.org/10.6007/IJARPED/v1-i4/12015>
4. Haji, S. A., Moluayonge, G. E., & Park, I. (2017). Teachers’ use of information and communications technology in education: Cameroon secondary schools perspectives. *Turkish Online Journal of Educational Technology*, 2017, 671-679.
5. <https://ptable.com/>
6. Nwafor, Stephen Chinedu, Franklin Nnanna Ibe, and Nneora Mary Muoneke. "Optimizing information and communication technology applications in chemistry learning." *Journal of Research in Instructional* Vol. 2 (2), 2022: 151-162.

**KIMYO O‘QITISH DARSLARIDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI (Umumta’lim maktablari misolida)**

*Tosheva Dilnora Zohid qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti I- bosqich magistranti  
Sharipov Ilhom Husenovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi k.f.n. dots.  
Toshev Vohidjon Zohid o‘g‘li,  
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi  
Oltinsoy tuman ixtisoslashtirilgan maktabi kimyo fani o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada kimyo darslarini samarali tashkil qilish va o‘quvchilarning bilimlarini baholash uchun tan olingan Xalqaro baholash dasturi PISA testlarini qo‘llash metodikasi va ulardan ta’lim jarayonlarida foydalanish o‘rganilgan. Maqolada o‘quvchining tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishi uchun zaruriy tushunchalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *PISA(The Programme for International Student Assessment), OECD(Organisation for Economic Cooperation and Development), PIRLS(Progress in International Reading and Literacy Study), TIMSS(Trends in International Mathematics and Science Study), moliyaviy savodxonlik, matematik savodxonlik, testlar.*

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАНИЙ PISA НА УРОКАХ ХИМИИ  
(в случае общеобразовательных школ)**

*В данной статье систематизированы методика применения тестов PISA, признанных международной оценочной программой для эффективной организации занятий по химии и оценивания знаний учащихся, и их использование в образовательных процессах, а также приведены необходимые понятия для решения задач представлены.*

**Ключевые слова:** *PISA (Программа международной оценки учащихся), OECD (Организация экономического сотрудничества и развития), PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), финансовая грамотность, математическая грамотность, тесты.*

**EFFECTIVENESS OF USING PISA TASKS IN CHEMISTRY LESSONS  
(in the case of general education schools)**

*In this article, the methodology of applying the PISA tests of the International Assessment Program, recognized for the effective organization of chemistry classes and the assessment of students' knowledge, and their use in educational processes are organized. The article presents the concepts necessary for the student to know the ideas related to natural sciences, to solve problems related to natural sciences as an active citizen.*

**Keywords:** *PISA (The Program for International Student Assessment), OECD (Organization for Economic Cooperation and Development), PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), financial literacy, mathematical literacy , tests.*

**Kirish.** Maktabda olinadigan bilim insonning ertangi kunini belgilaydigan asos bo‘lib xizmat qiladi. Bilim baho bilan o‘lchanmaydi, u o‘quvchilarni intiluvchanlikka undovchi, rag‘batlantiruvchi vosita bo‘la oladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yurtimiz iqtisodiyotidagi o‘shish ko‘rsatkichlari va erishilayotgan yutuqlar hamma sohalarida malakali kadrlar va mutaxassislariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Birinchi bo‘lib ta’lim sohasida o‘qitish tizimidagi yangiliklarni maktabdan boshlash muhim hisoblanadi. Buni isboti sifatida Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyevning –“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” so‘zlarini keltirishimiz mumkin. Avlodlarni zamon talabi darajasidagi bilimli mutaxassis qilib tarbiyalashda maktab, texnikum va Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini yanada yaxshilash nazarda tutiladi. Ta’lim sifatini yanada yaxshilash uchun PISA xalqaro baholash dasturi testlaridan foydalanish, o‘zlashtirishning samarador bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. PISA dasturining asosiy maqsadi– O‘rta ta’lim maktablarini tugatgandan keyin o‘quvchilarni faol hayotiy jarayonni egallashiga



imkon beradigan bilimga egalik darajasini baholashdan iboratdir. O‘quvchi yoshlarni fanlar kesimida o‘zlashtirayotgan bilim ko‘nikmalarini, malakalarini rivojlangan xorij mamlakatlari o‘quvchi yoshlarining bilimi bilan solishtirib bizning yutuq hamda kamchiliklarimizni aniqlashda Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish nazarda tutilgan. Shu sababdan ham PISA dasturini o‘rganish muhim hisoblanadi. PISA-o‘quvchi yoshlarning ta‘lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib (PISA inglizcha – Programme for International Student Assessment) u ko‘plab davlatlarda o‘quvchilarning savodxonligini va bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Mazkur dastur 2000 yildan beri turli mamlakatlarda o‘tkazib kelinayotgan bo‘lib, har 3 yilda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimni tekshiradi [1]. Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so‘rovnoma, og‘zaki savollar, audio (video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20 % gacha o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o‘quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS ) qo‘llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi PISA dasturining 4- bandida belgilab qo‘yilgan [2]. Ta‘lim sifatini baholash bizga nima beradi; jumladan tadqiqotlardan olingan natijalar yurtimizdagi ta‘lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi, milliy ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassisliklarni yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlarda 90 ga yaqin davlat qatnashadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston 2021-yilda birinchi marta PISA (15-16 yoshli o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etgandi. [3].

**Asosiy qism.** O‘quvchilarning bilimlarini baholash uchun foydalaniladigan Xalqaro baholash dasturi - PISA dan asosan 15 yoshli o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu xalqaro dastur 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta amaliyotda qo‘llangan va har uch yilda bir marta o‘tkaziladi. Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqot aynan 15 yoshli ta‘lim oluvchilar orasida o‘tkazilishiga asosiy sabab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ( IHHT) ga a‘zo ko‘pchilik davlatlarda 15 yosh majburiy ta‘lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. **PISA dasturining o‘ziga xosligi.** PISA xalqaro baholash dasturi butun dunyoda keng qamrovli va doimiy ravishda o‘tkazib kelinayotgan dastur sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda PISA xalqaro baholash dasturida qariyb 80 dan ortiq davlatlar ishtirok etmoqda. Tadqiqotning har uch yilda bir marotaba o‘tkazilishi bo‘lsa davlatlarga o‘zlarining ta‘lim tizimlarida kelajakda erishish ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarni aniqlab olishga imkon beradi. PISA 15 yoshli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha yagona xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. 4 PISA tadqiqoti [ monitoring tadqiqoti bo‘lib, u turli mamlakatlarning ta‘lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash va solishtirish imkonini beradi. PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Testlarda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning shu yo‘nalishlar bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani va ulardan foydalana olishiga qaratiladi. PISA topshiriqlari bir yoki bir nechta savolni o‘z ichiga oladi. Savollar bir yoki bir nechta variant tanlanadigan yoki javobi yoziladigan bo‘ladi. PISA 2000, PISA 2006 topshiriqlarining murakkablik darajasiga ko‘ra, ba‘zi savollar 1 ball, ba‘zilari esa 2 ball bilan baholanadi.

**Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik** deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi. PISA-2015 tadqiqotida tabiiy fanlar asosiy yo‘nalish hisoblangan. Tadqiqotda asosan ikki topshiriq: standart va interfaol topshiriqlari qo‘llaniladi. PISA-2015 tadqiqotidan oldin o‘tkazilgan tadqiqotlarda **standart** topshiriqlardan foydalanilgan. Bu topshiriq qog‘oz variantda bo‘lib matnida grafi, jadvallar bo‘ladi va muammoli vaziyat hamda turli ko‘rinishdagi savollar ham beriladi. Topshiriqlar PISA-2015 tadqiqotida foydalanish uchun kompyuter variantga o‘tkazilgan.

PISA-2015 yangi topshiriqlari kompyuter variantda yaratilgan, ularning aksariyati **interfaol** topshiriqlar, ya‘ni tadqiqotchilik muhitining simulatsiyasi bo‘lib, o‘quvchilarning tabiiy fanlardan egallagan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda ko‘rsatishlariga imkon beradi. Qog‘oz variantdagi topshiriqlar kompyuter ekraniga o‘tkazilganda asosiy e‘tibor matn, grafi, jadvallar, topshiriq formati o‘zgarishsiz qolishiga qaratilgan. Topshiriq kompyuter ekranida ikkita panelda aks etadi: ekranning o‘ng panelida Stimullovchi material (inglizcha-“stimulus” stimullovchi, qo‘zg‘atuvchi, undovchi ), chap panelida esa topshiriqni bajarish yuzasidan tegishli ko‘rsatma va savollar o‘rin oladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiya topshiriqlardan foydalaniladi. Bitta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar: to‘rtta javob variantidan bittasini tanlash va matn yoki grafidan -qaynoq nuqtani topish, bir nechta to‘g‘ri javob

tanlanadigan topshiriqlar “Ha/Yo‘q- javobli topshiriqlar (javoblar soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, baholashda ularga yaxlit bitta javob sifatida qaraladi); bir nechta javob variantlari orasidan bittadan ortiq to‘g‘ri javobni tanlash; ochiladigan menyudan foydalanib, jumlaning bir qancha ochiq qolgan joylarini to‘ldirish; siljitish va joylashtirish usulidan foydalanib, ekrandagi elementlarni siljitish orqali taqqoslash, tartib bilan joylashtirish, klassifiatsiyalashga oid topshiriqlar, ochiq javobli topshiriqlar-bunday topshiriqlarning javobi yoziladi yoki chiziladi. Yozma javob qisqa iboradan tortib, 2-4 tagacha jumladan iborat bo‘lishi mumkin. Ochiq javobli ba‘zi topshiriqlarda chizish talab etiladi (masalan, grafi, diagrammalar). Kompyuterga asoslangan baholashda bunday topshiriqlarni bajarish uchun oddiy rasm muharrirlaridan foydalaniladi. 2015-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilar interfaol topshiriqlarni bajarishda ilmiy tadqiqotlarning stimulatsiyadan foydalangan holda o‘zgaruvchi kattaliklar bilan ishlashgan. Bunday interfaol topshiriqlar bir nechta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar sifatida baholangan. Interfaol topshiriqlarning ayrimlari esa ochiq javobli bo‘lgan. PISA 2000, PISA 2006 topshiriqlarining murakkablik darajasiga ko‘ra, ba‘zi savollarga berilgan javoblar 1 ball, ba‘zilari esa 2 ball ball bilan baholanadi. PISA 2015 topshiriqlarida esa bunday emas. Agar o‘quvchi 1 ballik topshiriqda berilgan savolga to‘g‘ri javob bersa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball), aks holda, javob qabul qilinmaydi (0 ball); agar o‘quvchi 2 ballik topshiriqqa to‘g‘ri javob bersa, javob to‘liq qabul qilinadi (2 ball), qisman to‘g‘ri javob bersa, javob qisman qabul qilinadi (1 ball), javob yo‘q yoki noto‘g‘ri bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi (0 ball).

#### **Tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari .**

*Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish-bunda quyidagi qobiliyatlar namoyish etiladi.* Tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish; Izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;

Ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.[5] *Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash-ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo‘llarini taklif etish, bunda quyidagilarni namoyish qilish Ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo‘llarini taklif etish.* Ma’lumotlarning obyektivligi va ishonchligini ta’minlashda olimlar tomonidan qo‘llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan savollarni farqlash. Berilgan ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilayotgan muammoni aniqlash. *Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish- turli ko‘rinishdagi ilmiy ma’lumotlar, dalillarni tahlil qilish va baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish. Bunda quyidagi qobiliyatlar namoyish etiladi:* Ma’lum bir ko‘rinishdagi ma’lumotlarni boshqa ko‘rinishda ifodalash, ma’lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish, ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo‘lmagan boshqa qarashlardan farqlay olish, ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash.[6] **PIRLS** – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholaydi. **TIMSS** - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholaydi. PISA Xalqaro dasturi o‘quvchilar bilimining 4 ta darajasini baholaydi.

1. Xotira
2. Ko‘nikma
3. Chuqur fikrlash
4. Strategik fikrlash

PISA sinovlarida to‘rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

d) Bir javobli testlar- bunday testlarda to‘g‘ri javobi bitta bo‘ladi, o‘rganilgan bilimlarini eslash, aniqlash, tanlash so‘raladi, o‘rganilgan qoida va formula asosida masala yechiladi

e) Bir nechta javobli testlar;

f) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

g) Biror muammoning yechimi bo‘yicha o‘quvchi fikri. (bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo‘ladi, o‘quvchi javobi test tuzuvchi javobi bilan bir xil bo‘lishi talab qilinmaydi, o‘quvchining shaxsiy fikri qo‘llab quvvatlanadi). [7] O‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun o‘tilgan mavzuga oid topshiriqlar beriladi. Masalan: tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik modeli va kompetensiyalaridan kelib chiqib, quyidagi bir nechta PISA topshiriqlarini berish mumkin.

1-topshiriq.

Ikki elementning oksidlanish darajalarining o‘zgarishi bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deb ataladi. O‘quvchilar oksidlovchi va qaytaruvchi haqida ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.

**Savol.** Oksidlovchi va qaytaruvchi deb nimaga aytiladi?

**Savolning javobi.** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida elektron olgan element yoki ion **oksidlovchi**, elektron bergan element yoki ion **qaytaruvchi** deb ataladi.

2-topshiriq

**Savol.** Oksidlovchi ayni kimyoviy jarayonda elektron olib qaytariladi. Qaytaruvchi ayni kimyoviy jarayonda elektron berib oksidlanadi. Kimyogarlari

$S + O_2 = SO_2$ ,  $S + H_2 = H_2S$  quyida berilgan reaksiya tenglamasidagi elementlarning oksidlanish darajalarini qo'yishlari hamda oksidlovchi va qaytaruvchini ko'rsatishlari kerak bo'ladi. [8]

**Savolning javobi.**  $S^0 + O_2^0 = S^{+4} O_2^{-2}$  reaksiyada oltingugurt kislorodga 4 ta elektron berib, qaytaruvchi (oksidlanadi) bo'lsa,  $S^0 + H_2^0 = H^{+1} S^{-2}$  reaksiyada esa

3-topshiriq

**Savol.**  $H_2SiO_3 = SiO_2 + H_2O$        $HPO_3 + H_2O = H_3PO_4$        $HNO_3 = NO_2 + O_2 + H_2O$   
 $H_2SO_3 + H_2S = S + H_2O$

$Fe + O_2 = Fe_2O_3$

$HgSO_4 + Na_2SO_4 + HgCl_2$

O'quvchilar quyida berilgan reaksiya tenglamalarini oksidlanish darajalarini qo'yib, reaksiyalarni tenglashtirishlari va oksidlanish darajasi o'zgaradigan hamda oksidlanish darajasi o'zgarmaydigan reaksiyalarga ajratishlari kerak bo'ladi.

### TOPSHIRIQLARNING JAVOBI

Reaksiya davomida elementlarning oksidlanish darajasi o'zgarmaydigan reaksiyalar:

1)  $H^{-1} P^{+5} O_3^{-2} + H_2^{+1} O^{-2} = H_3^{+1} P^{+5} O_4^{-2}$

2)  $H_2^{+1} Si^{+4} O_3^{-2} = Si^{+4} O_2^{-2} + H_2^{+1} O^{-2}$

3)  $Hg^{+2} S^{+6} O_4^{-2} + 2Na^{+1} Cl^{-1} = Na_2^{+1} S^{+6} O_4^{-2} + Hg^{+2} Cl_2^{-1}$

Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarida reaksiya davomida elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradigan reaksiyalar:

1)  $H^{+1} N^{+5} O_3^{-2} = 4 N^{+4} O_2^{-2} + O_2^0 + H_2^{+1} O^{-2}$

2)  $H_2^{+1} S^{+4} O_3^{-2} + H_2^{+1} S^{-2} = S^0 + H_2^{+1} O^{-2}$

3)  $Fe^0 + O_2^0 = Fe_2^{+3} O_3^{-2}$

**Natija.** O'qituvchilar yuqorida berib o'tilgani kabi topshiriqlardan dars mashg'ulotlarini mustahkamlash va takrorlash jarayonlarida ko'proq va keng ko'lamda foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kabi topshiriqlardan foydalanish orqali, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini yanada ko'proq rivojlantirishga erishish mumkin. Shuningdek, PISA topshiriqlaridan darsdan tashqari to'g'arak mashg'ulotlarida foydalanish ham, o'quvchilarning o'tilayotgan fanga nisbatan qiziqishlarini yanada o'ttirishga turtki bo'ladi. PISA topshiriqlari namunalaridan o'tilgan dars mavzusini takrorlashda, darsdan tashqari to'g'arak va fakultativ mashg'ulotlar o'kazish jarayonida qo'llash samaralidir. PISA dasturining o'ziga xosligi shundan iboratki, u boshqa mamlakatlar o'quv dasturlarini takrorlamaydi hamda PISA topshiriqlarini faqatgina bitta sinf yoki bitta mavzuga bog'liq holda qo'llash qiyin. PISA topshirig'ning har bir savolini tegishli mavzulariga bog'lagan holda o'tish tavsiya qilinadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, PISA topshiriqlari o'quvchilar orasida tatbiq qilish orqali ularning fan bo'yicha olgan bilimlarini amalda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantiriladi. Ya'ni bu topshiriqlarni yechimi ustida ko'proq shug'ullanishlari natijasida, o'quvchilarning hayoti davomida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda muammoni mustaqil ravishda yechish ko'nikmasini rivojlantiradi. PISA xalqaro baholash dasturining ochiq topshiriqlarini yetarlicha o'rganish, PISA topshiriqlariga o'xshagan yoki ularni bajarishga ko'maklashadigan topshiriqlarni ishlab chiqish istagi bo'lgan o'qituvchilar uchun ushbu maqola bir namuna bo'lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Mutalov K.A., Gulmatova, M. K “O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning dolzarbligi”. Pedagogik ta'limklasteri: muammo va yechimlar, 2021-yil. 1320-1323 b.
2. Alimova X.B, Ramazonov, (2021). “O'quvchi-O'quvchiga ustoz” tamoyili asosida Tabiiy fanlarni tashkil etishda Pedagogik muammolar. Academic research in educational sciences, 2(9), 940-945.
3. Курбанов, Ш. Ш., & Рамазонов, Б. Р. (2021). Кишлоқ хужалик фанларини уқитиш методикасининг педагогика ва бошқа фанлар билан боғлиқлигининг илмий-амалий ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 51-59.
4. Sharipov M.A Kimyo fanidan xalqaro baholash dasturlari PISA va PIRLS: nazariya va amaliyot // Navoiy 2021, 1430-bet.
5. Matkarimov M.A “PISA” xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari // “Zamonaviy ta'lim” jurnali №8(93) 2020 yil.
6. Tashkenbayev U.N xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini

baholash//“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2019.

7. Xudoynazarova G PISA xalqaro dasturi asosida o‘quvchilarning kimyoviy bilimini baholash//Buxoro-2021.

8. Asqarov I.R.,To‘xtaboyev N.X,G‘opirov KIMYO. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik //T.: O‘qituvchi , 2019.

KBK-22.3

X-30

### FIZIKANI O‘QITISHDA INTEGRATIV MASALALAR YECHISH ORQALI O‘QUVCHINING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

*Xasanova Gulshod Ro‘ziboyevna,*

*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent*

*“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani bosh o‘qituvchisi*

*Maqolada fizika o‘qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri bo‘lgan- o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ijodiy masalalarni yechishda unung asosiy elementlari bilan uyg‘unlashgan shaklda yaxlit ijodiy faoliyatni yaratish, hamda fizik masaladagi ijodiy motivatsiya, uning yechimlarni izlash va to‘g‘ri tanlash, yechim natijasini tahlil qilishga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** fizika o‘qitish metodikasi, ijodiy fikrlash, integrativ masalalar, muammoli vaziyat, ijodiy tafakkur.*

### РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПРИ РЕШЕНИИ ИНТЕГРАТИВНЫХ ЗАДАЧ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

*В статье рассматривается одна из основных задач методики преподавания физики - развитие творческого мышления учащихся при решении физических задач, создание целостной творческой деятельности в той форме, которая сочетается с ее основными элементами при решении творческих физических задач, как научить учащихся поиску его решения, научить как правильно анализировать результат решения творческой задачи.*

***Ключевые слова:** Методика преподавания физики, творческое мышление, интегративные вопросы, проблемная ситуация, творческое мышление.*

### DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES WHEN SOLVING INTEGRATIVE PROBLEMS IN PHYSICS TEACHING

*The article discusses one of the main tasks of the methodology of teaching physics - the development of creative thinking of students when solving physical problems, the creation of holistic creative activity in a form that is combined with its main elements when solving creative physical problems, how to teach students to find its solution, teach how to correctly analyze the result of solving a creative problem.*

***Keywords:** Methods of teaching physics, creative thinking, integrative issues, problem situation, creative thinking.*

#### **Fizikadan masalalar yechishda ijodiy qobiliyatni o‘stirish muammosi.**

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ta‘lim tizimining markaziy muammolaridan biridir. Ijod qilish inson faoliyatining barcha sohalarida-nafaqat fan va san‘atda, balki texnologiya, menejment, siyosatda ham inson mavjudligining me‘yori va shakliga aylanib bormoqda. Ijod qilish, yangi narsalarni idrok etish va o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish hozirgi kunda ta‘lim tizimining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatimizga yangi talablarni keltirib chiqaradi va inson faoliyatining tabiatiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarmoqda. Hozirgi kunga kelib zamonaviy jamiyatimizda har qanday yangi muammolarni hal qilishning samarali usullarini topa oladigan malakali shaxslarga talab tobora ortmoqda. Shu munosabat bilan mustaqil ijodiy faoliyat sohasida kompetensiyalarni shakllantira oladigan uslubiy yondashuv va usullarni ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanadi [1].

Ijodiy fikrlashning tarkibiy qismlari mavjud bo‘lib, xilma-xil kombinatsiyasi ijodiy fikrlashning tabiati va rivojlanish darajasini belgilaydi. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini maqsadli rivojlantirish uchun uning tabiiy moyilligi va individual xususiyatlarini, ijtimoiy muhitning ta‘sirini, shuningdek, talabalarning o‘quv faoliyatining tabiati va tuzilishini hisobga olish muhimdir.

O‘quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish quyidagi tarkibiy qismlarni rivojlantirishni nazarda tutadi:

- fikrlash chuqurligi, tafakkurining ravonligi;
- tafakkurning o‘ziga xosligi;

- tafakkurning mustaqilligi;
- fikrlashning moslashuvchanligi;
- fikrlash kengligi;
- tafakkurning tanqidiyligi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri bu muammolarni shakllantirish va ularni hal qilishga undaydigan masalalarni yechishdir [2].

#### **Berilgan ijodiy masalani tahlil qilish va yechish.**

Ilmiy tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, bir tomondan, fizikadan hatto juda ko'p standart masalalarni yechishni o'rganish ham talabalarning murakkab muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirmaydi va ularni ijodiy faoliyatga kiritmaydi. Boshqa tomondan, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ko'pincha olimpiada masalalari sifatida tasniflanadigan ijodiy masalalarni yechish yordam beradi, ammo ular hamma uchun ham qiziq emas, chunki ularni yechish o'rtacha o'zlashtiradigan talaba uchun qiyin. Fizika o'qitish metodikasida bilim olishga qiziqadigan har bir o'quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida qanday ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin, degan savolga javob berishni talab qiladigan muammo yuzaga keladi.

Faoliyatni to'liq ta'minlash uchun masalalarni yechish jarayoni uning barcha bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak, xususan: motivatsiya, masalaning mazmunini to'g'ri tushunish va talqin qilish, masalani yechish usulini izlash va tanlash (maqsadni belgilash), fizik hodisaning modelini yaratish, yechimni topish jarayoni (agar kerak bo'lsa, matematik hisob-kitoblar bilan), natijalarni tahlil qilish va masalani to'liq yechish jarayoni va olingan natijalarni tahlil qilishni o'rganish muhimdir. Kognitiv faoliyatning yaxlitligi nuqtai nazaridan fikrlash muhim bosqichdir, shuning uchun uni optimallik, ratsionallik nuqtai nazaridan tahlil qilishni, boshqa echimlarni izlash va har bir fizikaviy mohiyatni tushunishni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Berilgan masalani tahlil qilish va mumkin bo'lgan yechimlar haqida turli gipotezalarni ishlab chiqish bosqichida o'ziga xoslik va zukkolik kabi fikrlash fazilatlarini paydo bo'ladi. Aynan shunday fikrlash fazilatlarini nostandard yechimlarni yaratish, fizik kattaliklar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va fizikaviy jarayon tasavvurni yaxlit shaklda taqdim eta bilish qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi. Mumkin bo'lgan yechim yo'llaridan maqsadga olib keladigan yo'lni tanlash bosqichida, birinchi navbatda, fikrlash xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Ijodiy fikrlashning vaziyatga moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash kabi xususiyatlari talabaga fizikadan murakkab masalalarni yechishda turli xil yondashuvlar va strategiyalarni sinab ko'rish, optimal yechimni tanlash imkonini beradi. Berilgan ijodiy masalani yechish bosqichlari ketma-ketligini ishlab chiqish jarayonida esa quyidagi eng muhim fazilatlaridan biri, ya'ni mantiqiy fikrlash xususiyati shakllanadi, hamda bu xususiyat masalaning mohiyatni o'rganishga, hodisalarning sabablarini ochishga va oqibatlarini oldindan ko'rishga imkon beradi. Olingan qarorni tahlil qilishda fikrlashning tanqidiylik va keng mushohada yuritish kabi fazilatlarini ko'proq namoyon bo'ladi, chunki bu fazilatlar natijalarni to'g'ri baholash va ularning kuchli va zaif tomonlarni topish qobiliyatiga javob beradi [3].

#### **Tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy funksiyalar tahlili.**

Tafakkurning bunday sifatlarini har tomonlama rivojlantirish esa pirovardida fizikaviy masalalarini muvaffaqiyatli yechishga olib keladi. Boshqa tomondan, bu barcha fazilatlarining rivojlanishi asosan muammolarni hal qilish jarayonida sodir bo'lishini alohida ta'kidlash kerak.

Kognitiv faoliyatni rag'batlantiradigan vazifalar quyidagi funksiyalarni bajarishi kerak:

- topshiriq o'quv faoliyatini rag'batlantirishga hissa qo'shishi kerak;
- topshiriq rivojlantiruvchi funksiyani bajarishi va sub'yektiv jihatdan qiyin muammoli xarakterga ega bo'lishi kerak, chunki muammolarni hal qilish jarayonida faol aqliy faoliyat yuzaga keladi, bunda talaba yoki talabalarning ijodiy tafakkuri rivojlanadi;
- ta'lim jarayonining ijodiy tarkibiy qismi sifatida fizikaviy masala yangi bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lishi kerak;
- axborot, uni hal qilish usullari;
- yaxlit hodisani tahlil qilish zaruriyatini rag'batlantirish va tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish [4].

Tadqiqotimizda fizikadan integrativ masalalarni yechish bo'yicha talabaning faoliyat modeli aniqlandi, integrativ masalalarni loyihalashga umumiy yondashuvlar va ularni hal qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

O'quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan masalalarni yechish uning barcha asosiy elementlari bilan uyg'unlashgan shaklda yaxlit ijodiy faoliyatni nazarda tutadi: bular: motivatsiya,

muammoning mazmuniy birliklarini aniqlash, uning yechimlarni izlash va tanlash (maqsadni belgilash), yechim natijasini tahlil qilishdir.

Fizika o‘qitish metodlarida masalalar tasniflarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular asosan masalalarning fizik mazmuni xarakteriga va ularni yechish uslubiga qaratilgan. Masalalarning an’anaviy tasniflari aqliy faoliyatning tabiati kabi hal qilish jarayonining bunday xususiyatini aks ettirmaydi. Bizning fikrimizcha, masalalar tasnifini faoliyat xususiyatlariga ko‘ra to‘ldirish foydali bo‘ladi:

1) faoliyatda tadqiqot komponentining mavjudligi bilan:

- reproduktiv;
- ijodiy.

2) faoliyatning yaxlitligiga ko‘ra:

- qisqartirilgan (muammo yechish bir yoki bir nechta harakatlarni bajarishga qaratilgan);
- keng qamrovli—yechimi barcha tarkibiy qismlari bilan yaxlit, yig‘ma faoliyatni o‘z ichiga olgan shunday vazifalar.

Fizikadan integrativ masalalar faoliyat tabiatiga ko‘ra ijodiydir va faoliyatning yaxlitligi bilan har tomonlama mos tushadi [3].

Fizikadan integrativ masalalarni yechish asosan qiziqtiruvchi(motivatsion), axborotlilik, analitik-sintetik, tadqiqotli, mafkuraviy dunyoqarash va tashxislash funksiyalarni bajaradi:

*Qiziqtiruvchi (motivatsion)* funksiya o‘quvchini kognitiv faoliyatga undaydigan ko‘ngilochar muammoli vaziyat orqali amalga oshiriladi.

*Axborotlilik* funktsiyasini amalga oshirish talabning axborot maydonini vazifa sharoitida mavjud bo‘lgan yoki talaba turli xil ma‘lumotlar manbalaridan foydalangan holda masalani hal qilish jarayonida oladigan yangi ma‘lumotlar orqali kengaytirishni ta‘minlaydi. Bu funksiya, shuningdek, ma‘lumotlarni tizimlashtirish va aloqalarni o‘rnatishni ta‘minlaydi.

*Analitik-sintetik* funktsiyani amalga oshirish muammoda muhokama qilinadigan fizik ob‘yekt yoki hodisaning mohiyatini yaxlitligini yoki izolyatsiyasini yakunlashni ta‘minlaydigan konstruktiv ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu funktsiyani amalga oshirish uchun topshiriqning mazmuni integral fizik hodisani yoki tabiiy ob‘yektning tavsifini o‘z ichiga olishi kerak.

*Tadqiqotchilik* funktsiyasini amalga oshirish masalani yechishning yangi usullarini topish, shu jumladan fikrlash uchun yangi qobiliyatlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

*Mafkuraviy dunyoqarash* funktsiyasini amalga oshirish olamning fizik manzarasini va o‘quvchining dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi va boshqa fanlar bo‘yicha darslarda olingan bilimlarni tizimlashtirishni ta‘minlaydi. Ushbu funksiya fizik masalani yechishda olingan tajriba va bilimlarni dunyo va uni bilish usullari haqidagi g‘oyalar tizimiga kiritishni ta‘minlaydi.

*Tashhislash* funktsiyasini amalga oshirish fizikadan masalalar yechish va shaxsiy yutuqlarni tushunish uchun metodik usullarni birlashtirishga yordam beradi.

*Integrativ vazifa*-bu vazifa (muammoli vaziyat), uni hal qilish yaxlit ijodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi, ushbu faoliyatning predmeti fizikaviy hodisa yoki jarayon ob‘yektidir. Keng qamrovli fizikaviy integrativ masalalarni o‘rganish va taqqoslash bizga shunday xulosaga kelishga imkon berdi: masala yechish jarayonining yaxlitligini ta‘minlaydigan integrativ masalaning belgilari qiziqarlilik, axborotlilik, fanlararo aloqadorlik va evristik mazmundagi masalalarni o‘z ichiga oladi [4].

Pedagogik tajribamiz davomida Respublikamiz fizika o‘qituvchilari orasida keng tarqalgan fizikadan masalalar to‘plamlarida keltirilgan ko‘pgina masalalar mazmuni tahlili o‘tkazildi va ularni tasniflash amalga oshirildi. Biz keltirgan masalalar to‘plamlarida mazmuni o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradigan, mavzusi darslik mazmunidan tashqariga chiqadigan masalalar kiritdik. Biz fanlararo aloqador va qiziqarli mazmundagi fizikaviy masalalarni alohida guruhlariga ajratdik. Agar masalani yechish uchun evristik yondashuvni talab qilinsa-yu, ammo fanlararo aloqador, axborotli yoki qiziqarli masala turiga kirmasa, biz uni evristik turdagi masala sifatida tasnifladik. Integrativ masalalarni yechishning o‘ziga xosligi yuqoridagi barcha turda fizikaviy masala funksiyalarini amalga oshirishdir. Masala, shuningdek, uni hal qilish jarayoni o‘quvchilar ongida farqlanmaydi, bu alohida yoki bir-biriga bog‘liq harakatlar emas, balki yaxlit ijodiy faoliyatdir.

Shunday qilib, fizikadan integrativ masalalar mavjud fizikadan masalalar yechish to‘plamlarida deyarli ifoda etilmagan bo‘lib chiqdi, chunki avvalroq fizika o‘qitish metodikasida ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish uchun masalalarni yechish orqali yaxlit ijodiy faoliyatni tashkil etish muammosiga yetarlicha e‘tibor berilmagan. Tadqiqotimiz natijalari fizikadan integrativ masalalarni yechish bo‘yicha faoliyat modelini taklif qilish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz jarayonida integrativ masalalarni yechishda muvaffaqiyatli faoliyat uchun shartlar sifatida quyidagilar belgilandi:

- muammoli ta’lim elementlaridan o‘quv jarayonida muntazam foydalanish;
- fizika fanidan masalalar yechishda uch bosqichli yondashuvni o‘zlashtirish;
- talabalarni masalalar yechishning evristik usullari bilan tanishtirish;
- talabalarining abstrakt fikrlash faoliyatini rivojlantirish, xususan:
  - ✓ o‘qituvchi talabalar e’tiborini berilgan vaziyatga, yangi bilimlarni kashf etishga, matn faktlari va hodisalarining shaxsiy ahamiyatiga qaratadi;
  - ✓ o‘qituvchi talabalarga aqliy faoliyat usullarining xilma-xilligini va ularning shaxsiy ahamiyatini, ilmiy tadqiqot usullarini ko‘rsatadi;
  - ✓ masala yechimni tahlil qilish va tashxis qilish bosqichida o‘qituvchi natijani qanday baholashni va yangi muammoni shakllantirishni o‘rgatadi.

Tadqiqotimiz yaxlit o‘quv va kognitiv ijodiy faoliyat doirasida integrativ masalalarni yechish algoritmini yaratishga imkon berdi:

1) vaziyatni to‘liq tasavvur qiling, vaziyatni qayta ko‘rib chiqing, fizikaviy jarayon ma’no-mazmunini anglashga harakat qiling, muammoni aniqlang;

2) muammoli vaziyatni fizik hodisa yoki jarayon sifatida modellashtirish, yechim topish uchun quyidagi usullardan foydalanish: o‘xshash masalani topish – masala shartini yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar bilan to‘ldirish–ma’lum bo‘lgan evristik yechish usullarini eslab qolish–masala yechimining optimal uslubiy darajasini tanlash;

3) adekvat matematik apparatni tanlash va olingan tenglamalarni yechish;

4) cheklovchi va alohida holatlarni ko‘rib chiqish;

5) natijani tahlil qilish, uning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish;

6) yana boshqa yechish usulini topishga harakat qilish;

7) yechish usulida va yechish davomida olingan ma’lumotlarda nima yangilik borligi haqida o‘ylash.

#### **Fizikadan ijodiy integrativ masalani yechish namunasi.**

Namuna sifatida fizikadan yana bir integrativ masalaning yechimini ko‘rib chiqaylik: qadimda mashhur bir tadbirkor o‘z mamlakatining podshohiga chiroyli dasturxon hadya qiladi. Dasturxon juda jozibali va yaltiroq edi, lekin tadbirkor dasturxon qaysi matodan va qanday iplardan to‘qilganini aytmadi. Podshoh uni o‘z saroyiga taklif qildi va kursini yangi dasturxon bilan qoplashni buyurdi. Suhbatdan keyin podshoh mehmonni dasturxoniga taklif qildi. Tadbirkor ovqatlanayotganda yog‘li idish solingan likopchani q‘opol harakat bilan ataylab ag‘darib yubordi. Dasturxon bo‘ylab katta dog‘lar tarqaldi. Mehmonning qo‘polligidan Podshoh xafa bo‘ldi va tadbirkor jilmayib, dasturxonni stoldan olib, yonayotgan kaminga tashladi. Biroz vaqt o‘tgach, uni kamindan chiqarib, sovutib, stolga yoydi. Dasturxon yangidek edi! [3]

Dasturxon qanday matodan to‘qilgan bo‘lishi mumkin?

Masalaning syujeti juda qiziqligi, noma’lum bo‘lgan tarixiy fakt-Podshoh oldiga qo‘yilgan masalani yechishga undaydi.

Keling, tasvirlangan fizik hodisaning fizik modelini ishlab chiqaylik. Dasturxonni nimadan to‘qish mumkin? Dasturxonni kumush, oltin va platina iplaridan to‘qish mumkin edi, chunki bu materiallarning erish nuqtasi kaminda yonayotgan o‘tin haroratidan yuqori, ya’ni: kumush uchun – 960°C, oltin uchun –1063°C, platina – 1774 ° C.

Keling, olingan javobning to‘g‘riligini baholaylik. Aytaylik, dasturxon kumush iplardan qilingan (eng past zichlikdagi material –10800 kg/m<sup>3</sup>). Agar dasturxonning o‘lchami (3x2) m<sup>2</sup> va qalinligi 1 mm deb hisoblasak, dasturxonning massasini hisoblashimiz mumkin:

$$m = \rho V = 10800 \text{ kg/m}^3 \cdot 6 \text{ m}^2 \cdot 10^{-3} \text{ m} = 64,8 \text{ kg}$$

Olingan natijalarning to‘g‘riligiga shubha uyg‘onishi tabiiy holdir. Chunki, dasturxonning og‘irligi uchun 64,8 kg katta qiymatdir. Agar uning qalinligi 0,1 mm deb hisoblasak, natija 10 barobar kamayadi, ya’ni 6,48 kg bo‘ladi. Bu, shuningdek, dasturxonning og‘irligi uchun kichik qiymat emas, chunki zig‘ir yoki boshqa yengil matolardan tayyorlangan dasturxonning vazni, odatda, bir kilogrammgacha bo‘ladi. Adabiyotlarga murojaat qilsak, biz issiqlikka chidamli va past zichlikka ega bo‘lgan boshqa turdagi materialni topamiz-asbest. Dasturxon asbestdan qilingan bo‘lishi mumkin. Tarixiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, dasturxon haqiqatan ham asbest bo‘lgan. Masalada tasvirlangan muammoli vaziyatni modellashtirish orqali biz fizika qonunlarini real tarixiy vaziyatni tahlil qilishda qo‘llashimiz mumkin ekan.

**Xulosa.** Yuqoridagi fizikaviy masala matni o‘zining qiziqarli va tarixiy mazmuni (qiziqarlilik funksiyasi) bilan talabani o‘ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, muammo real tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘quvchilarni tarbiyalash va ularning dunyoqarashini shakllantirish (dunyoqarash funksiyasi) uchun ham o‘z ahamiyatiga ega. Bunday masalani yechish jarayoni qo‘shimcha ma’lumotlarni qidirishni, ma’lumotnomalar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi.



Umid qilamizki, tadqiqotimiz natijalari ijodiy xarakterdagi masalalar klassifikatsiyasini kengaytirishga xizmat qiladi, fizika o‘qituvchilariga fizika ta’limida masala yechish uslublari orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladi.

**Adabiyotlar:**

1. Qahhorov S.Q. O‘rta maktab fizika ta’limining davriylik texnologiyasi : Ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2006. – 240 b.
2. Fridman L.M. Логико-психологический анализ школьных учебных задач. - М.: Pedagogika,2000. - 208 b.
3. Yudin V.V. Техничко-технологические задачи как средство активизации познавательной деятельности учащихся средних РТУ: dis... dokt. ped. nauk. – М.: 2003.
4. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2012. – 264
5. Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o‘qitish samaradorligini oshirish. Diss. ... ped.fan.nom. Andijon., 2009.

**БЎЛАЖАК ФИЗИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШДА ЛАБОРАТОРИЯ МАШГУЛОТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ОМИЛЛАРИ**

*Ахмедов Ахад Ахрорович,  
Навоий давлат педагогика институти  
кафедра мудири, педагогика фанлари доктори профессор (DsC)  
axataxmedov1961@gmail.com*

*Солиева Нафосат Абдуқаҳҳоровна,  
Навоий вилояти ПЯМЎММ катта ўқитувчи  
nafodil85@mail.ru*

*Ушбу мақолада бўлажак физика ўқитувчилари касбий компетенцияларини ривожлантиришида лаборатория машгулотларини такомиллаштириши омиллари ҳақида тўхталиб ўтилган. Компетенциявий ёндашув орқали педагогика олий таълим муассасаларида физика ўқитиш методикасини такомиллаштиришида бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашни янги босқичга олиб чиқиш, таълим сифатини оширишга хизмат қилади. Ўқув жараёнига компетенциявий ёндашув муаммосини бугунги ҳолати, бўлажак физик ўқитувчилар тайёрлаида муҳим омил ҳисобланади.*

***Калит сўзлар:** билим, малака, кўникма, компетенция, компетентлик, компетенциявий ёндашув, касбий компетенция, намойиш эксперементи, фронтал лаборатория ишлари, физик практикум.*

**ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛАБОРАТОРНОЙ ПОДГОТОВКИ В РАЗВИТИИ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ**

*В данной статье рассматриваются факторы совершенствования лабораторной подготовки в развитии профессиональных компетенций будущих учителей физики. Благодаря компетентностному подходу педагогика служит совершенствованию методики преподавания физики в высших учебных заведениях, выведению подготовки будущих учителей физики на новый уровень, повышению качества образования. Современное состояние проблемы компетентного подхода к учебному процессу является важным фактором подготовки будущих учителей физики.*

***Ключевые слова:** знание, компетентность, умение, компетентность, компетентность, компетентностный подход, профессиональная компетентность, демонстрационный эксперимент, фронтальная лабораторная работа, физический практикум.*

**FACTORS FOR IMPROVING LABORATORY TRAINING IN THE DEVELOPMENT OF  
PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE PHYSICS TEACHERS**

*This article discusses the factors for improving the laboratory training in the development of professional competences of future physics teachers. Through the competence approach, pedagogy serves to improve the methodology of teaching physics in higher education institutions, to bring the training of future physics teachers to a new level, and to increase the quality of education. The current state of the problem of a competent approach to the educational process is an important factor in the preparation of future physics teachers.*

***Keywords:** knowledge, competence, skill, competence approach, professional competence, demonstration experiment, frontal laboratory work, physical practicum.*

***Кириш.** Ҳозирги кунда жамият ҳаётида кузатилаётган ўзгариш жараёнлари унинг барча жабҳадаги фаолиятида, шу жумладан, таълим – шахс дунёқараши шаклланишининг асосий ташкил этувчиси бўлган таълим соҳасида ҳам ўз аксини топмоқда. Тараққиётнинг кескин ривожланиши, жамият ҳаётидаги бошқариб бўлмайдиган ва башорат қилиб бўлмайдиган ўзгаришлар, дунё геосиёсатидаги манзаранинг ўзгариши, илмий тадқиқотлар ва уларнинг ҳаётга тадбиғи охирги ўн йилликда таълим тизимида қўйилган талабларнинг ўзгаришига олиб келди.*

*Таълим тизимида ахборотлар кўламининг кенгайиб бориши физика ўқитиш тизимида илғор педагогик технологияларни жорий этилиши, фан ва технологияларни жадал ривожланаётган тезкор замонда ўқув жараёнида компетенциявий ёндашувни тақозо қилаётгани ҳеч кимга сир эмас.(1).*

Бўлажак физик ўқитувчисини физика дарси жараёнида мурракаб вазиятлардан омилкорона фойдалана олиши орқали чиқиб кета олиши ва қарор қабул қилишда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Компетенциявий ёндашув орқали педагогика олий таълим муассасаларида физикани ўқитиш методикасини такомиллаштиришда бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашни янги босқичга олиб чиқиш, таълим сифатини оширишга ва рақобатбардош кадрлар тайёрлашдек устувор масалани ечишга хизмат қилади.

Фарзандларимиз учун замонавий иш жойлари яратиш, уларнинг ҳаётда муносиб ўрин эгаллашини таъминлашга қаратилган ишларимизни янги босқичга кўтаришни даврнинг ўзи тақозо этмоқда [1, 2, 3, 4, 5, 6].

Шуни таъкидлаш лозимки, физика фанини ўқитиш сифатини такомиллаштириш ва юқори самарадорликка эришишда Компетенциявий ёндашув асосидагина бўлажак юқори савияли физик ўқитувчиларини педагогика олий таълим муассасаларида тайёрлаш мумкин. Бунда талабаларга машғулотларда физика ўқитиш услубиётининг замонавий ютуқларини кенг қамраб олувчи имкониятларини Компетенциявий ёндашув орқали таълим сифатини ошириш бўлажак физик ўқитувчи компетенциясини ривожлантириш омиллари ривожлана боради.

Мураккаб педагогик вазиятларда аниқ ечимга келиш учун маълумотлар етарли бўлмаган ҳолда илмий-ижодий ёндашув орқали хулоса чиқариш ва қарор қабул қилиш орқали ҳолатдан чиқиш-Компетенциявий ёндашув кўринишларидан биридир.

Таълим тизимидаги илғор ғоя ва технологияларни қўлланилиши физика дидактикаси-мазмунини ташкил этувчи умумий назарий саволлар кўламини такомиллаштириш статистик ғоя ва тушунчаларни қўлланилиши сабабли физика ўқитиш методикасида ўзгача ёндашувни талаб этмоқда. Таълимда ўқитиш-ўрганишнинг бир томони бўлса, қолганлари – фаол ўрганиш ва олган билимларни ўзлаштириш, баҳолаш, иждодий фаолият унинг иккинчи томонидир.

Олиб бораётган тадқиқотларимиз шуни кўрсатадики, компетентликни ривожлантириш, ўрта умумтаълим мактабларида физика курсини ўқитишдан бошланади. Умумтаълим мактабларда физик практикум онда-сонда ишлатилса-да, олий таълим муассасаларида лаборатория машғулотининг асоси физик практикум ҳисобланиб, уни ташкил этиш ва ўтказиш учун экспериментал малака, кўникмаларнинг, ривожлантиришда, умумлаштиришда, чуқурлаштиришда, тақдорлашда асос бўлиб физик билимлар хизмат қилади. Бўлажак физика ўқитувчиси компетентлигини, унинг дунёқарашини ривожлантириш кўрсатилган лаборатория машғулотларини бажаришга кўрсатилган меъёрлари кўламини кенгайтириш орқали эришилади. Адабиётлар таҳлили асосида касбий компетенциянинг асосий белгилари аниқланди:

**Асосий қисм.** Бўлажак ўқитувчиларнинг профессионал тайёргарлик даражасини оширишда унинг компетентлигини ривожлантиришда ўқув фанида назарий ва амалий жиҳатларини чуқур билишдан ташқари, услубий компетенцияга эга бўлиш, бугунги зарурат ҳисобланади. Ўқув жараёнига компетенцияли ёндашув муаммосини бугунги ҳолати, бўлажак физик ўқитувчилар тайёрлашда муҳим омил ҳисобланиб, қуйидаги факторларни ўз ичига қамраб олади:

1. Компетенцияли ёндашувни асосий категорияларини аниқлаш ва уни меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар орқали мустаҳкамлаш;

2. Бугунги кунда умумтаълим мактабларида миллий кадриятларни сақлаган ҳолда Компетенциявий ёндашувнинг миллий ўзбек моделини яратиш, уни бўлажак ўқитувчилар тайёрлашдаги аниқ ва истиқболли режасини ишлаб чиқиш ва таълим жараёнига татбиқ этиш;

3. Бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашда, таълим тизимида унинг фаолиятини маҳсулдорлигини таъминлайдиган таълим менежменти асосларини такомиллаштириш;

4. Келажақда маънан етук, рақобатбардош физика ўқитувчиларни тайёрлашда, уларнинг қизиқишлари, техник жиҳозлар ва қурилмаларда ишлай билиш кўникмасини лаборатория машғулотлари ўтказиш жараёнида ривожлантира бориш;

5. Таълим тизимидаги устуворликни таъминлаш тайёрланаётган бўлажак физика ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлигига назария ва амалиёт уйғунлигини ўрганиш даражасидан ташқари, техникавий билимдонлик компетентлигини шакллантириш;

6. Компетентликлар ривожлантириш мажмуаси педагогика институтларида талабанинг профессионал компетентлигини характерлаш орқали, жамиятдаги психологик, педагогик жараёнларда талабанинг билим, малака ва кўникмаларига таянган ҳолда, табиат ва жамиятдаги ўзгаришларга ўз муносабатини мустақил билдира олиши;

7. Бўлажак физика фани ўқитувчиларини тайёрлаш билан бирга уларда қўшимча мутахассисликлар бериш механизми жорий этиш;

Компетентлик шахсининг индивидуал сифати бўлиб, маълум компетенцияларга эга бўлишни кўзда тутлади. Компетенция – инсоннинг конкрет ҳаётий вазиятда эффектив фаолияти учун, билим кўникма ва ташқи ресурсларни ҳаракатга келтириш учун тайёргарлигидир. Компетенция – билим, кўникма ва малакадан фарқ қилиб, унинг ишлатилиш вақтида ёки вазиятга жавоб қайтаришда намоён бўлади. [7,8,9,].

Айрим ҳолларда, талаба индивидуал топшириқларни ёлғиз ўзи бажаради. Лаборатория машғулотида (3-4 талабадан иборат) кичик гуруҳларга ажратиб, ҳар бир гуруҳ алоҳида мавзу бўйича лаборатория ишланмаси билан танишиб чиқиб, бажариладиган ишнинг йўриқномасида кўрсатилган шартлар, ишнинг бажариш тартиби билан танишиб бўлгач, ўқитувчига назарий жиҳатдан тайёргарлик кўрганликларини, ишни бажариш кетма-кетлигини оғзаки савол-жавоб асосида баён этадилар ва ўқитувчининг рухсати билан белгиланган лаборатория машғулотини бажаришга киришадилар. Бунда кичик гуруҳ жамоавий бирлашган ҳолда қурилмадан ёки жиҳозлардан фойдаланиб, натижаларни оладилар. Сўнгра гуруҳ талабалари бажарилган ишнинг камчиликларини тузатиб, ўзаро билимларини тўлдириб, ҳулосаларини математик ишлов берилгандан сўнг ҳисобот шаклида ишни топширадилар. Физика ўқитувчиси компетенциясини шакллантириш – бу кўп қиррали, кўп режали жараён бўлиб, уни бир томонлама баҳолаш мураккаб масаладир. [7, 8,9].


Олиб борилаётган педагогик изланишлар педагогика олий таълим муассасаларида физика йўналишида таҳсил олаётган талабаларда физик практикумдан ўқув машғулоти ташкил этишда етарлича компетентликка эга эмасликлари бирмунча қийинчиликларга олиб келмоқда. Бунинг асосий сабабларидан бири умумтаълим мактабларида физика ўқув соатларининг жумладан лаборатория ўтказиш учун мўлжалланган соатларнинг камлигидан келиб чиқади. Педагогик тадқиқотлар ва кузатишлар шуни кўрсатадики, лаборатория машғулоти ўтказадиган гуруҳларда физика-математика фанларидан тайёргарлиги ва бошланғич экспериментал кўникмаларининг ривожлантириш компетентлиги турлича бўлган талабаларнинг замонавий ўлчаш қурилмаларида ишлаш малакасининг етишмаслигини, касбий компетенциянинг паст эканлигини кўрсатмоқда. Бундан ташқари, гуруҳларда экспериментал ишларга нисбатан мойиллиги бўлмаган талабалар ҳамма вақт топилади. Шунга қарамадан, бўлажак физика ўқитувчиси тайёрлаётган педагогика олий ўқув юртли физика-астрономия таълим йўналиши битирувчиси, физикадан лаборатория экспериментини ўткази олиш компетентлигига эга бўлиши билан бирга, қўлда ҳам жиҳозларни йиға олиш малака, кўникма, маҳоратига эга бўлиши, ўқув жараёнига тадбиқ этиш компетентлигига эга бўлишини замонавий таҳлим тизими тақозо қилмоқда.

Ўтказилаётган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, талабаларнинг лаборатория машғулотидаги эътиборсизликлари, шунингдек, натижаларини мобил қурилмалардан фойдаланиб бир-бирдан кўчириш каби ҳолатлар бугунги кунда содир бўлмоқда. Талабалар томонидан замонавий фан ва техника ютуқларидан ўз манфаатлари учун фойдаланиш, улар орасида ахборот алмашинувининг техник имкониятлари уяли алоқа воситалари орқали авжига чиқиб, лаборатория натижаларини нафақат бир бирдан кўчириш, балки мобиль алоқадан фойдаланиб “ташлаб олиш” усули ривожланиб бормоқда. Табiiй ҳолки, бундай усуллар лаборатория машғулотларини сифатли амалга ўз таъсирини ўтказмай қўймайди.

Бўлажак физика ўқитувчисини тайёрлашда уларда талабалик даврида мактаб, академик лицейларда физика курсларини илмий асосини чуқур ўзлаштириш, тарихий босқичларини билиш, педагогик компетентлигини шакллантириш орқали эришилади. Бунинг учун эса улар турли босқичларда физика ўқитишда дидактиканинг изчиллик принципини амалда қўллашни яхши билишлари керак. Аммо, педагогика олий таълим муассасаларида ўқитиш жараёнида бу масалага етарли даражада эътибор бермоқда, деб бўлмайди. Кўпчилик талабалар педагогика олий таълим муассасаларида олган компетентликларини мактаб физика курсларини ўқитишга тадбиқ этишда қийналадилар. Бунинг асосий сабаби, умумтаълим мактабларида, академик лицейларда физикани ўқитиш жараёнида ўқувчиларда физикавий тажрибаларни ташкил этиш ва ўтказишда компетенцияларини етарли даражада эмаслигини кўрсатмоқда. Уларнинг физикавий дунёқарашида асосий ўринни динамик қонуниятлар эгаллаб, эҳтимолий статистик қонуниятларга деярли ўрин қолмаган. Бундай бўлишига сабаб, педагогика олий ўқув юртлида ўқитиладиган умумий физика, назарий физика ва физика ўқитиш методикаси курслари орасида изчиликни эътиборга олмасликдир. Умумтаълим тизимидаги ўқув юртлири такомиллашган дастурларга ўтиш орқали янги ўқув дарсликлари яратилиши унинг илмий даражасини ортишига олиб келмоқда.

Юқорида келтирилган фикрлар намунавий ўқув режадаги лаборатория машғулотларини ҳозирги кун талабалари даражасига кўтариш муаммоси физика фанини ўқитишда долзарблигини сақлаган ҳолда турибди. Агарда амалий машғулотларда талабаларда ихтиро ва кашфиётга бўлган

қизиқишларини ривожлантира оласак, табиий ҳолки, мамлакатимиз фан ва техникаси, технологияси ва саноати, шунингдек, иқтисодиётимизнинг жадал ривожланишига муносиб тўртки бўлади, деб ҳисоблаймиз.



1-расм.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев 2016 йил 30 сентябр куни Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига табригида “Айни пайтда бугунги кунда олдимизда янада муҳим ва долзарб вазифалар турганини ҳаммамиз яхши тушунамиз. Шу борада илм-фан ва таълим-тарбия соҳасининг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш, унинг нафақат давр билан ҳамоҳанг бўлишини, балки замондан олдинда юришини таъминлаш, педагог кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлашнинг илғор усуллари кенг фойдаланиш, бу ишларни хориждаги нуфузли марказлар билан ҳамкорликда олиб бориш, соҳага замонавий технологияларни жорий этиш, ўқитувчи ва домлаларнинг машаққатли ва масъулиятли меҳнатини ҳар тарафлама рағбатлантириш билан боғлиқ вазифаларни амалга ошириш, қисқа қилиб айтганда, ҳаётимизга катта куч бўлиб қираётган янги авлодимизни камол топтириш учун давлатимиз томонидан барча имкониятлар сафарбар этилади”, дея таъкидлаб ўтган эди [1, 2, 3, 4, 5, 6].

Соғлом, ҳар томонлама баркамол авлодга таҳсил бериш узлуксиз таълим тизимида меҳнат қилаётган педагогнинг савиясига, тайёргарлигига ва фидойилигига, ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқдир. Шундай экан, ҳар томонлама етук мутахассисларни тайёрлашда ўқитувчи муайян ижтимоий-сиёсий, педагогик, психологик талабларга жавоб бериши лозим. Ўқитувчи мустақиллик ғоясига эътиқодли, ҳар томонлама ривожланган, илмий тафаккури, касбига тегишли маълумоти бор, яъни ўз фанининг чуқур билимдони, педагогик мулоқот устаси, педагогик-психологик, услубий билим ва малакаларни эгаллаган бўлиши ҳамда турли педагогик вазиятларни тезда аниқлай олиши, ўрганиши ва баҳолай олиши зарур. Шу сабабли замонавий таълим технологияларини ўз ичига қамраб олган лаборатория машғулоти структурасини ўзгартириш, унга замонавий руҳиятни сингдириш айни пайтда таълим сифатини таъминлашда зарурат сездирмоқда.

Талабаларда лаборатория ишларига энгил-елпи қарамасликлари ва керакли жиҳозларни кўз қорачиғидай асрашлари учун, шунингдек, назарий тайёргарлик даражаси ўқитувчи томонидан қайд этилгандан сўнг руҳсат этилса, лаборатория ишини бажаришга бўлган масъулиятини оширган бўламиз, бу эса таълим сифат кўрсаткичини оширишга хизмат қилади. Бундай усулда ёндашиш талабаларни доимий сезгирликка чақириши билан бирга, уларда касбий компетентликни шакллантиради. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, ўтказилаётган лаборатория машғулоти йўналиш ва мутахассисликка мос ҳолда амалга оширилса, ўқитиш самарадорлигини оширишга хизмат қилган бўлар эди.

Агар XX аср охирига қадар ўқитиш кўп жиҳатдан тажриба фактларига таяниб иш қўрган бўлса, XXI аср бошларида эса кўп жиҳатдан бунинг акси, яъни дедуктив ёндашувлар устувор бўлишини талаб этмоқда. Бугун, таълим мазмунига, унинг тарихийлик тамойилига путир етказилмаган ҳолда фаннинг сўнгги ютуқларини инобатга олиб, физика таълим мазмуни яратиш кун тартибига қўйилган десак тўғри бўлади. Замонавий физика курси ўз мазмунида физиканинг замонавий сўнгги ютуқларини акс эттирилиши тарафдори деб билиш зарур. Ушбу ёндашув концептуал ҳисобланиб, услубият оламида янги ўзгаришларни кун тартибига қўйиш мумкин. Ўқув фанлари интеграцияси, ўқув маълумотларини генерализациялаш, талаба ёшларни абстракт фикрлашларини ривожлантириш, ўқитишнинг дедуктив методи ва унинг устуворлигини таъминлаш, ўқувчи ҳамда талабаларнинг абстракт фикрлашларини такомиллаштириб компетентлигини шакллантириш керак, деб ҳисоблаймиз.

Экспериментал фанда асосий тадқиқот методларидан бири сифатида, физика ўқитишда ўрганиш объекти ва шунинг билан биргаликда ўқитиш методи ҳисобланади. Бунда ўқув экспериментининг турли кўринишлари бўлиши келиб чиқади: намоиш эксперименти, фронтал лаборатория ишлари, физик практикум. Уларнинг ҳар бири ўзига хос маълум дидактик вазифаларни бажаради. Экспериментал тайёргарлик – ўзига хос хусусиятлари билан боғланган бўлиб, педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак физика ўқитувчиларни компетенцияли тайёрлашнинг энг муҳим ташкил этувчиларининг биридир. Намоиш эксперимент янги ўқув материални тушунтириш билан биргаликда олиб борилади ва унинг асосий мақсадларидан бири у ёки бу физик ходисани кўргазмали намоиш қилиш, ўрганилаётган қонун ёки назариядан келиб чиқадиган хулосанинг тўғрилигини тасдиқлашдан иборат. Бундан ташқари, намоиш экспериментининг мақсади талабаларни экспериментнинг илмий тадқиқот методи сифатидаги ўзига хос жиҳатлари билан таништиришдан иборат.

Фронтал тажрибалар талабалар томонидан машғулоти жараёнида бажарилади, одатда у қисқа муддатда режалаштирилади. Фронтал тажрибаларни бажариш талабаларда кузатувчанликни, диққатликни, физик жараёни боришини кузатиб туриб фикрлашни, маълумотларни хотирада сақлашни, содда асбоблардан бошлаб ишлашни, ўлчашлар билан боғлиқ бўлган алоҳида математик

амалларни бажаришни ҳамда ўқитувчи томонидан намоён қилинган тажрибани мустақил равишда қайта бажариш компетентлигини шакллантиришни ҳосил қилади. Баъзи ҳолларда фронтал тажрибалар машғулотда олинган билимларни бирданига амалда қўллаш, ўрганилган қонуннинг тўғрилигини текшириш компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган бўлади. Фронтал лаборатория ишларини ўтказишда нисбатан мураккаб бўлган амалий тадқиқий характердаги компетенциялар шаклланади. Масалан модда зичлигини аниқлаш, ўтказгичнинг қаршилигини ўлчаш, занжирдаги ток кучининг қаршилик ва кучланишга боғлиқлигини ўрганиш каби лаборатория ишларини бажариш жараёнида ҳарорат, атмосфера босими, зичлик, қаршилик, ток кучи, кучланишнинг ўлчаш ва электр занжирларининг принципиал ва эквивалент схемалари асосида асбобларини ва уларни боғловчи ўтказгичларини йиғиб чиқиш берилган схема асосида электр занжирини йиғиш компетенцияси шакллантирилади [10, 11, 12, 13]

Физик практикум илмий тадқиқот методи эканлиги тўғрисидаги талаблар билими умумлаштирилади, тажрибаларни бажаришда мустақил ишлашнинг юқори даражада бўлишини таъминлайди, физик тажрибани бажаришда мустақил ишлашнинг юқори даражада бўлишини таъминлайди, илмий тадқиқот ишларида қўлланиладиган мураккаб физик асбоблар (электрон осцеллограф, паст ва юқори частотали товуш генераторлари, электрон секундомер, кўзгули гальванометр, ультра қисқа тўлқинли генераторлар, спектрометрлар, лазер қурилмалари ва ҳоказолар) билан ишлаш компетентликлари шакллантирилади. Бунда талабалар тадқиқот элементларига кирувчи тажрибаларни қўйиш учун керакли қўникмаларни эгаллаш билан бирга ўқув лаборатория экспериментини мустақил режалаштириш ва амалларни кетма-кет бажариш компетентлигини шакллантириш масаласи куйидагилардан таркиб топган услубий амалга ошириш билан ечилиши мумкин:

- 1) Тажрибаларни қўйиш мақсадини аниқлаштириш;
- 2) Тажрибаларнинг асосий қўйилиши мумкин бўлган фаразларни шакллантириш;
- 3) Фаразларни текшириш учун керак бўладиган шартларни аниқлаш;
- 4) Эксперимент ўтказиш режасини тузиш;
- 5) Керакли жиҳозларни танлаш, йўқларини алмаштириш чораларини кўриш;
- 6) Тажриба қурилмасини йиғиш;
- 7) Кузатиш ва ўлчаш натижаларини қайд этиш ва ёзиш усулини танлаш;
- 8) Белгиланган тартибда режа бўйича тажрибани ўтказиш;
- 9) Олинган эксперимент натижаларини математик қайта ишлаш;
- 10) Олинган натижаларни таҳлил қилиш график ва жадвал кўринишига келтириш хатоликларни ҳисоблаш ва ҳулосалар чиқариш;
- 11) Лаборатория ишининг мавзусига доир топшириқларни мустақил бажариш.

**Хулоса.** Ўқув экспериментининг вазифаларини ва экспериментал қўникмалар тизимига кирувчи амаллар таркибини батафсил қараш физик экспериментлар соҳасидаги масалаларни ечишга бўлажак физика ўқитувчиси педагогика олий таълим муассасаларида ўқиши даврида тайёрланган бўлишини бугунги кунда етарли даражада компетентликка эга бўлишини замон талаблари асосида компетенцияларга эга бўлишни лаборатория машғулотларини ўтказишнинг такомиллаштирилган янги моделларига ўтишни даврнинг ўзи тақозо қилмоқда. Ўқув экспериментининг вазифаларини ва касбий компетенциялар тизимига кирувчи амаллар таркибини батафсил қайта қараш физик экспериментлар соҳасидаги муаммоларни ечишга бўлажак физика ўқитувчиси педагогика олий таълим муассаси ўқиши даврида ривожланган бўлишини тақозо этади.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017.- 39 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 20 майдаги ПҚ-1533-сон // Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлар тўғрисида Қарори. – Тошкент: 2011.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон // Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Фармони – Тошкент: 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон //Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. Қарори – Тошкент: 2017.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон //Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида. Қарори – Тошкент: 2017.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: 2018.
7. Ахмедов А.А., Курбанов С. “Модернизация компетентности будущего учителя физики” «Табий фанларни уқитиш ва тадқиққилиш масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. Нукус-2017йил.16-17ноябрь. 67-69 стр.
8. Ахмедов А.А. “Формирование компетентности будущего учителя физики” Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Унверситети «Физиканинг долзарб муаммолари» республика, Илмий-амалий конференцияси тўплами,14 октябрь 2017 йил. 276-278 бетлар.
9. Ахмедов А.А., Избасаров Б.Ф., Артиков Х.К., Курбанов С.С. “Развитие компетентности будущих учителей физики путем применения инновационных лабораторных работ” Развитие современного социально-гуманитарного знания: отечественный и зарубежный опыт По материалам международной научно-практической конференции .Г.Белгород,28-февраля 2018г.Часть-4 стр 20-24.Сборник научных трудов
- 10.Джораев М. Методологические и дидактические основы формирования вероятностно-статистических идей и понятий: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. Т. ТГПУ, 1993. – 40 с
- 11.Нуриллаев Б.Н. Умумий физика практикумларида бўлажак ўқитувчилар нинг экспериментал кўникмаларини шакллантиришнинг дидактик асослари. Автореф...дисс. пед. фан. ном- Т.: 2006-18 б.
Izchillik tamoyili. Ye.V.Eliseeva zamonaviy sharoitlarda mazmuni tanlashning yetakchi tamoyili izchillik tamoyili bo‘lishi kerak deb hisoblaydi: «o‘zaro bog‘liq o‘quv ma’lumotlarni pedagogik asoslangan tizim ko‘rinishini taminlaydi». Izchillik tamoyili, mazmuni ishlab chiquvchidan fanning mazmuniga shu fanning barcha konseptual tizimlariga kiritilgan va uning mohiyatini yorituvchi o‘quv bilimlarni kiritishni talab qiladi.

#### **Mazmuni tuzish tamoyillari:**

Uzluksizlik tamoyili. I.P.Podlasiy «ta’lim jarayoni alohida qadamlardan iborat, agar u tanaffuslarsiz, uzluksizlikning buzilishisiz, boshqarib bo‘lmaydigan vaziyatlarsiz davom etsa, ko‘proq muvaffaqiyatga erishtiradi. Agar ko‘nikmalarni muntazam mashqlantirib turmasa, ular yo‘qolib boradi» deb yozadi.

Uzviylik tamoyili. Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari tushunchalari L.V.Zagrekova va V.V.Nikolinalarning «Didaktika»sida yoritilgan: «Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari o‘quv materialining mazmunini tizimda ma’lum ketma-ketlikda va mantiqiy o‘zaro bog‘liqlikda berilishini talab qiladi. Bunda ma’lumotlar oldingisiga tayanadi va yangi ma’lumotni o‘zlashtirishga tayyorlanadi.

Davomiylik tamoyili. Ta’lim mazmunini tuzish uchun ko‘rib chiqilgan tamoyillar davomiylik tamoyili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mazmun tuzuvchilarni bo‘limlararo va fanlararo munosabatlarni hisobga olishga yo‘naltiradi. «Ta’lim muhitini to‘ldirib yuborgan fanlararo bog‘liqlikning haddan tashqari ko‘pligi pedagogga bo‘lgan talabni oshirib yubordi» .

Arxitektura qurilish sohasidagi fanlarni o‘qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va ularni multimediali kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llanilishi pedagogik texnologiyalarni inkor etmagan holatda parallel olib borilishi maqsadga muvofiq. Zero, shunday yondashuv grafik materiallarni samarali o‘zlashtirilishida kutilgan natijani beradi. Ayniqsa qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda grafik dasturlardan foydalanish kutilgan natijaga olib boradigan yagona yo‘l desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fanning nomini o‘zi ham grafik dasturlar yordamida o‘qitilishni talab etadi. Hozirgi kunga qadar qurilish chizmachiligini grafik dasturlar bilan uyg‘un holda olib borilmaslikka asosiy sabablardan grafik dasturlarni biladigan

o‘qituvchilarning yetishmasligi va o‘quv honalarining talab darajasida emasligi edi. Lekin hozirgi rivojlangan davrda grafik dasturlardan foydalanmay darslar tashkil etilishi zamonaviy ta‘lim standartlariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o‘qitishda mavzularni bir-biriga bog‘lanishi ularning uzviylikini ta‘minlash, o‘qitishning eng zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘rganilayotgan fanning barcha mavzulari bir-biri uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Bu esa o‘qituvchidan o‘z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi, sababi qurilish chizmachiligi o‘zgarishlar bilan hamohang yuradi. Dastlab shu talablarga mos o‘qituvchilarning tayyorgarligi ya‘na bir muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

“Qurilish chizmachiligi” fanini o‘qitishda o‘quv rejadan kelib chiqqan holda fan dasturi ishlab chiqishda mavzularga oid ma‘lumotlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish zarur.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining boy imkoniyatlaridan foydalanib qaytadan chizmalarni chizish, ularga animatsiyalar berish, multimediali holatga keltirish lozim. Ayniqsa, multimediali ko‘rinishdagi chizmalar talabalarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortishi natijasida ularning fanga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Bundan tashqari talabalarda shu chizma haqida to‘liqroq ma‘lumotga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Kompyuter grafikasiga tegishli bo‘lgan zamonaviy dasturiy vositalar ArchiCAD, AutoCAD, 3dMax va boshqa dasturlar fanni o‘qitishda o‘qituvchi uchun yordamchi bo‘lib xizmat qilsa, bilimlarni o‘zlashtirayotgan talabalar uchun fanning ma‘no mazmunini tushunishga, fazoviy tasavvuri, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga, fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini yaxshilashga olib keladi. To‘plangan ma‘lumotlarni qayta ishlashda kompyuter grafikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kompyuter grafikasi murakkab sintetik resurslar qatoriga kiradi. U muhandisga innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi zamonaviy qurilma va texnologik yechimlar bilan grafikani birlashtirish natijasida paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Uch o‘lchovli modellashtirish – bu konstruktoring g‘oyalarini kompyuter ekranida hayratlanarli darajada haqiqiy va ishonchli tasvirlarda mujassamlovchi olamga sayohatdir. Xuddi qo‘lingizni cho‘zsangiz, hozirgina tasavvuringizdagina mavjud bo‘lgan narsaga tega olasiz.

3D modellashtirish tizimlarida uch o‘lchamli model odatda monitor ekranida ixtiyoriy parallel proeksiya (aksonometriya) sifatida namoyon bo‘ladi. Standart ko‘rinishlar tegishli panelda aks ettiriladi va ortogonal va standart izometrik proeksiyalarni o‘z ichiga oladi. 3D modeldan ortogonal proeksiyalarni avtomatik ravishda yaratish uchun T-VIEW va T- DRAW buyruqlaridan foydalaniladi. Shu tariqa chizma geometriyaning bevosita, fazoviy jism (3D model) asosida uning tekislikdagi (monitor ekranidagi) geometrik tasvirini qurish vazifasi amalga oshiriladi.

#### **Geometrik modellashtirishning tarkibiy tuzilishi quyidagi 4 ta komponentlarni o‘z ichiga oladi:**

1. *Asl nusxa yoki modellashtirish ob‘ekti.* Uch o‘lchamli fazoni modellashtirishda monitor ekranida ortogonal proeksiyalar, aksonometriya, perspektiva va sonli belgili proeksiyalar olinadi. Bundan tashqari, modellashtirish ob‘ektlari har qanday boshqa zamonaviy ilm-fan uchun dolzarb va hali hal etilmagan muammo bo‘lgan ko‘p o‘lchovli va nohiziqli modellar bo‘lishi mumkin.

2. *Model maydoni* – bu tasvirlanayotgan modelning tashuvchisi. Odatda, bu monitor ekrani, ammo modelni tasvirlash uchun boshqa usullardan ham foydalanish mumkin.

3. *Modellashtirish apparati* 3D modellarni berilish usullarini aniqlaydi.

#### **Ular:**

- analitik;
- kinematik;
- konstruktiv;
- parametrlil;
- aralash usullar.

4. *Modellar karkasli, sirtli va qattiq holatdagi modellargabo‘linadi.*

Kompyuter grafik dasturlar yordamida yaratilgan 3D chizmaning video orqali namoyish etilishi uni talabalar ko‘z oldida real hayotdagidek ko‘rsatib beradi va talabalar uchun tushunarli bo‘lib, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi. Sababi talabalarda fazoviy tasavvur rivojlanishi fanni tushunishiga olib keladi. Zero, qurilish chizmachiligiga oid materiallarni o‘zlashtirishda fazoviy tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun talaba fazoviy tasavvurga ega bo‘lsagina fan bo‘yicha topshiriqlarni bajara oladi.

BIM dasturlarida modellashtirish imkoniyatlari kengaytirib berilgan bo‘lib, unda bino modellarini yaratish qulaydir. Tasvirlar, ko‘rinishlar, qir-qimlar, zinalar, tom yopmalar, uzellar, konstruksiyalar, smeta ishlari va shu kabi mavzularni yoritishda foydalanish talabalar fazoviy tasavvuri, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Fan o‘qituvchisi mavzularga oid loyiha ishlarini BIM dasturlarida yaratib, ularni dars jarayonida qo‘llashi mumkin. Yaratilgan modellarni BIM dasturlarining keng imkoniyatlaridan foydalanib turli tomonlaridan ko‘rish, qirqim berish, model rangini o‘zgartirish, avtomatik tarzda o‘lchamlarini qo‘yish va shu kabi ko‘plab imkoniyatlaridan unumli foydalanishi mumkin.

**Xulosa.** Eng asosiy talab o‘qituvchi kompyuter grafikasini bilishidir, ya’ni u berilayotgan materialning mazmuni va mohiyati, murakkablik darajasi, didaktik vazifalarga ko‘ra grafikaviy dasturlarni tanlab olishi lozim bo‘ladi.

Biz qurilish chizmachiligi fani bo‘yicha **talaba:**

- kompyuter grafikasining tarixini;
- kompyuter grafikasi bo‘limlarini;
- konstruktorlik grafikasi bo‘limini tashkil etuvchi tizimlar (CAD,CAM, CAE)ni;
- CAD tizimida ishlovchi grafik dasturlar va ularning ishlash tamoyillarini;
- elektron tasvirning formatlari;
- chizma bajarish uchun qo‘llaniladigan uskunarlar panellarini;
- buyumning fazoviy holati asosida uning chizmasini olish algoritmlarini bilishi kerak;
- ikki va uch o‘lchamli grafika yaratish uchun mo‘ljallangan uskunarlar panelini tahlil qilish;
- berilgan uch o‘lchamli detalning ikki o‘lchamli chizmasini chizish;
- detalning ikki o‘lchamli chizmasi asosida uning uch o‘lchamli modeliniqurish;
- tekislikda va fazoda geometrik modellarni loyihalashning optimalalgoritmlarini aniqlash;
- tekislik va fazoda murakkab chizma va shakllarni yaratish;
- chizmani taxt qilish va chop etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;
- murakkab shaklga ega buyumlarni analiz qilish;
- chizmani qo‘lda (chizma qurollari yordamida) va CAD dasturi yordamida bajarishni taqqoslash;
- ikki va undan ortiq CAD dasturlarini o‘zaro taqqoslash;
- CAD dasturlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
- yangi CAD dasturlarini mustaqil o‘zlashtirish malakasiga egabo‘lishi kerak, deb o‘ylaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. Mardov, S. X. (2021, November). Modern Electronic Methods of Controlling Students' Knowledge in the Field of Construction Drawing. In " Online-conferences" platform (pp. 18-26).
2. Xudoykulovich, M. S., & Saidaxatovna, R. F. (2021). Xasanboy o‘g‘li NA Evristic teaching technology and its practical application which in theaching of draftsmanship. Middle European Scientific Bulletin, 12, 458-462.
3. Khudoykulovich, M. S. kizi, FZX.(2021). Content of the Science of Architecture Construction and Its Current Status of Teaching. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 106-114.
4. Xudoykulovich, M. S., & Qizi, F. Z. H. (2021). Methods of using graphic programs in the field of construction drawing. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1297-1306.
5. Xudoykulovich, M. S. (2021, October). The status of teaching the subject" construction drawing" in higher education institutions. In *Archive of Conferences* (pp. 105-108).
6. Mardov, S. K., Khasanova, M. N., & Absalomov, E. (2022). Pedagogical and psychological basis of teaching architecture drawing in types of education. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 32-35).
7. Xudoykulovich, M. S. (2021). The status of teaching the subject. in construction drawing" in higher education institutions." *Archive of Conferences*.
8. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022, February). The practical significance of design and its types. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 54-57).
9. Мардов, С. (2022). Qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda grafik dasturlardan foydalanishda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishning bugungi holati va muammolari. *Общество и инновации*, 3(1), 155-163.
10. Mardov, S. X. (2021). The practical importance of graphic programs and their descriptions in the development of student space imagination in teaching the subject of construction drawing. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(104), 680-684.

11. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022, March). Design and art. In Euro-Asia Conferences (pp. 58-61).
12. Mardov, S. K. (2022). kizi Farxatova, Zilolaxon Xikmat. Methodology of Development on the basis of Graphic Programs in Increasing Student Space Imagination and Graphic Literacy in Teaching Construction Drawing. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(2), 312-319.
13. Xudoykulovich, M. S. (2022). Current status and problems of students' spatial imagination development when using graphic programs in teaching the science of construction drawing. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
14. Mardov, S. X. (2021). Current Status of Developing Students' Space Imagination in the Use of Graphic Software in Teaching Architectural Drawings. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 8(10).
15. Mardov, S. K. kizi Farxatova, Z. X. (2022, February). The practical significance of design and its types. In Euro-Asia Conferences (pp. 54-57).
16. Mardov, S., Hamroqulova, M., & Nurmatov, E. (2022). Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini grafik dasturlar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. *Жамият ва инновациялар*, 3 (1), 180–190.
17. Mardov, S. (2022). Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda grafik dasturlardan foydalanishda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishning bugungi holati va muammolari. *Жамият ва инновациялар*, 3(1), 155-163.
18. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022). Design and art. *Euro-Asia Conferences*, 58–61.
19. Mardov, S. K., Khasanova, M. N., & Absalomov, E. (2022). Pedagogical and psychological basis of teaching architecture drawing in types of education. *Euro-Asia Conferences*, 32–35.
23. Мардов, С. (2023). Pedagogical description of the development of creativity and spatial imagination of the students of the subject “Construction drawing” using graphic programs. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 329–334. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp329-334>
24. Mardov, S. X., Xasanova, M. N., & qizi Farxatova, Z. X. (2022). Dizayn va san'at. umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat, 1, 35-39.
25. Mardov, S. X., & Zafar qizi, Z. E. . (2023). Methodology of Using Graphic Programs in Developing Design Thinking of Engineers-Builders. *European journal of innovation in nonformal education*, 3(11), 91–96. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2065>
26. Mardov Sanjar. (2023). Proposals and recommendations on the methodology of using modern graphic programs in teaching the science of construction drawing. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(4), 36–41. Retrieved from <http://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/287>
27. Sanjar, M. . (2023). Pedagogical description of the development of creativity and spatial imagination of the students of the subject "construction drawing" using graphic programs. *Miasto Przyszłości*, 41, 201–205. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1922>



MILLIY MAQOM SAN’ATI TA’LIMI VA IJROCHILIGIDA “USTOZ – SHOGIRD”  
AN’ANALARI

*Mustafoyev Baxtiyor Ibragimovich,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Ushbu maqolada “Ustoz-shogird” an’analari tarixida “Buxoro Shashmaqomi” ning tutgan o’rni, maqom va maqom yo’lidagi asarlarni ta’lim tizimiga kiritish, yoshlar tarbiyasida maqom san’atidan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so’zlar: ustoz-shogird an’analari, “Buxoro Shashmaqomi”, kasbiy musiqa ta’limi, musiqa maktabi, uslub, musiqiy- ma’rifiy faoliyat, nota yozuvi, maqom sho’balari, hofiz-sozandalar, kasbiy musiqa.*

THE TRADITIONS OF "MASTER - STUDENT" IN THE EDUCATION AND  
PERFORMANCE OF ART OF THE NATIONAL STATE

*В этой статье рассматриваются традиции “Наставник-ученик”, в которой особое место занимает в искусстве “Шахмакома”, вопросы место и использование в системе образования, а также роль и значение искусство макама в воспитание молодёжи.*

*Ключевые слова: традиция “Наставник-ученик”, Бухарский Шахмаком”, профессиональное музыкальное образование, музыкальная школа, стиль, музыкально-просветительная деятельность, части макама, певцы-музыканты, профессиональная музыка.*

THE TRADITIONS OF "MASTER - STUDENT" IN THE EDUCATION AND  
PERFORMANCE OF ART OF THE NATIONAL STATE

*This article is devoted to tradition “mentor-student”, which takes an important place in art of shoshmakom and its issues, importance, usage in educative system, also the role of makom in behavior of youth is given as an example.*

*Keywords: tradition “Mentor-student”, Bukharian “Shashmakom”, education of professional music, music school, style, musical- education activity, parts of makoms, singer- musicians, professional music.*

**Kirish.** Har bir xalqning o’zi uchun e’zozli, qimmatli bo’lgan ma’naviy boyliklari, musiqiy qadriyatlar mavjud. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o’tib kelgan, hozirgi kunda ham o’zining ahamiyat- mohiyati, qadrini yo’qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalaridir.

Milliy maqom asarlari kishilar ma’naviy-axloqiy olamining shakllanishi va rivojlanishida, ularning ma’naviyatini kamol topishida bebaho badiiy qimmatga ega bo’lgan qadriyatlardan biridir. Bu qadriyat inson faoliyati, tafakkurining yuksak cho’qqisi hamda badiiy ijodkorligining mahsulidir.

Hozirgi musiqa ta’lim-tarbiyasi tizimi o’zida Shashmaqomni uzoq o’tmishdan san’at sifatida o’rganilib, tadqiq etilib kelinayotganligi, musiqa maktablari an’analari, ilg’or amaliy tajribalar mahsuli sifatida takomillashayotganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Istiqlol yillarida o’zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ’ib etish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e’tibor tuyg’ularini kamol toptirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi Qaror muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Qarorda “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qo’yildi [1].

Prezidentimizning Xalqaro Maqom san’ati anjumani ochilish marosimida so’zlagan nutqida: “Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” ekanligi alohida ta’kidlanib, “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o’rganmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o’rganishimiz kerak”. “Agar biz san’atni, madaniyatni ko’tarmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko’tarishimiz kerak” ligi alohida e’tirof etildi [2].

Buyuk Turon zaminida musiqa san’ati va ijrochilik madaniyatining rivojlanishi, ustoz-shogirdlik an’analari qadim zamonlarga bog’lanib ketadi. Sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida maqom ijrochilik san‘ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublar, ustoz-shogirdlik tartibi, qonun-qoidalariga oid qimmatli ma‘lumotlarni bayon etganlar.

**Asosiy qism.** Tarixiy ma‘naviy meros sanalmish “Qobusnoma” asarida ta‘lim-tarbiya masalalariga alohida e‘tibor berilgan. Shogirdlarga musiqa ta‘lim-tarbiyasi, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, asarda “... Agar hofiz bo‘lsang, xushfe‘l, quvnoq bo‘l, hammavaqt o‘zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirinso‘z bo‘l, o‘z ishingga mashg‘ul bo‘l. Qo‘polso‘z, qovog‘i soliq bo‘lmagil, hamma vaqt og‘ir yo‘l (maqom) larni chalaverma va hamma vaqt yengil kuylarni ham chalaverma, negaki odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas...” [6, 114-115].

Tarixning guvohlik berishicha, musiqiy asarlarning eng oliylari hisoblanmish maqomlar va maqom yo‘lidagi asarlar ma‘lum davrlar davlatchiligining eng oliy dargohlarida ijod qilingan, ijro etilgan, rivoj topgan. Shubxasiz, bu murakkab ijodiy va ijroviy jarayon taraqqiyotida bastakorlik an‘analari bilan birga musiqiy ta‘lim-tarbiya usuliyati saboqlarining ham mohiyati beqiyos bo‘lgan.

Ichki imkoniyatlarini umuminsoniy yuksak darajalarga ko‘tarib, uni dunyoga mashhur etgan maqom tabiati Buxoro tuprog‘i, shu voha ilmiy-ma‘rifiy muhiti ruhiy iqlimiga mos edi. Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda topganligi uchun “Buxoro Shashmakomi”, deb yuritiladi. U kasbiy-ustozona musiqa namunasi bo‘lib, yirik hajmga ega, murakkab tuzilishli, umumiy soni 250 dan ziyod ashula, cholg‘u asarlarni o‘z ichiga olgan tizimli musiqiy majmuadir. Shogird “Shashmaqom”ning cholg‘u va aytim yo‘llarini puxta o‘zlashtirishi uchun turkumning tuzilishi, tarkibi, usul xususiyatlarini ham bilishi muhim bo‘lgan.

Maqomlarning cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataladigan cholg‘u qismlari bo‘lib, ularning ohanglari turlicha bo‘lsa-da, doyra usullari bir hildir. Ular Tasnif, Tarje‘, Gardun, Muhammas va Saqil mashhurdir. Shashmaqomning ashula bo‘limi sho‘balari ham bastakorlik san‘ati an‘analari mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

Maqom tarixiga oid maxsus adabiyotlarda bitilishicha, maqom va maqom yo‘lidagi asarlarni maxsus musiqa ta‘limi tizimiga kiritish masalasi, ayniqsa jadidlarning diqqat markazida bo‘lgan. Musiqiy - ma‘rifiy faoliyatning namunasi sifatida Abdurauf Fitrat 1921-yil 10-avgustda Buxoro hukumati farmoni bilan 1-Sharq musiqa maktabini tashkil etgan. Bu maktabda bolalarning musiqiy ta‘limi saboqlari og‘zaki musiqa-pedagogikasiga mansub-an‘anaviy uslubda olib borilgan. Musiqa maktabida Ota Jalol, Ota G‘iyos, Domla Xalim Ibodov, Usto Shodi, Xoji Abduraxmon kabi ustozlar maqom va maqom yo‘lidagi kuy-ashulalarni, ularning usullarini yosh talabalarga o‘rgatishgan. Mashhur hofiz-sozandalar maktabda murabbiy sifatida faoliyat ko‘rsatib, o‘zlarining musiqiy-ijrochilik faoliyatlarini pedagogik ishlari bilan uyg‘un holda amalga oshirishgan. Shu tariqa maqom ijrochiligi, milliy musiqamiz targ‘iboti, shogirdlar tayyorlash vazifalari, ustozu-shogird an‘analarida davom etib kelgan.

O‘tmishda ustoz maqomxonlar yoshlik chog‘laridanoq bu kasbga mehr va havas qo‘yganlar o‘z kasbining sir-asrorlarini egallash uchun juda ko‘p mashaqqatlar chekkanlar. Mohir hofiz-sozanda ustozlar ishtirok etgan to‘y-tomoshalarda, mehmondorchilik, ziyofatlarda ko‘p hollarda uzoqdan ularning ijrosini tinglab, eshitganlarini xirgoyi qilib yurishar, iste‘dodlari muayyan darajaga yetgach ma‘lum bir ustoz-san‘atkorga shogirdlikka qabul qilinishgan. Nota yozuvi bo‘lmaganligi bois, xalq kuylari va Shashmaqom shu‘balari ustozdan shogirdga og‘zaki tarzda o‘rgatilib kelingan. Shuning uchun har bir hofiz xalq kuylari, maqomlarni kengroq yoyish, targ‘ib etish hamda ularga yanada umrbokiylilik bag‘ishlash maqsadida shogirdlar tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan.

“Ustoz-shogird” an‘analari qadriyat sifatida-yoshlarda hofiz va sozandachilik kasbiy mahoratini tarbiyalash, ularning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish, izlanish, ijod qilish, muhimi har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o‘ziga xos tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishi bilan ahamiyat kasb etgan. Yana bir jihati shundaki, “Ustoz-shogird” likda ta‘lim oluvchining o‘z qobiliyat, imkoniyatlariga ishonchi, irodaviy sifatlari shakllanishi, qolaversa shogirdning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo‘lgan.

Xalqning ma‘naviy saviyasini yuksaltirishda o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va yuksak qobiliyatli shogirdlar tayyorlashni ustozlar o‘zining kasbiy burchi sifatida teran anglashgan. Albatta, ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun, avvalo uning o‘zi kasbiy salohiyatli, ma‘naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog‘lom fikrga ega bo‘lmog‘i lozim. Qadimdan ustoz-shogird an‘analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo‘l-yo‘riq, tavsiya va ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin bilim-iqtidori, san‘ati, ijrochilik mahoratini avloddan-avlodga o‘tishiga ham harakat qilgan.

Kasbiy musiqa ta‘limi usuliyatida shogirdlikka qabul qilishning o‘ziga xos qoida-tartiblari bo‘lgan. Jumladan, balog‘atga yetmagan o‘smirni shogirdlikka qabul qilishmagan, shogirdlarning hatti-harakati,

yurish-turishi, axloq-odobi ustozlari tomonidan nazorat qilib borilgan. Binobarin, xalq orasida Shashmaqom musiqasini targ‘ibot etish, undan saboq berish mas‘uliyati nihoyatda katta bo‘lgan. Levicha hofizga - Ota Jalol, Shohnazar Sohibovga – Levi Boboxonov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Ma‘rufjon Toshpo‘latov, Tolibjon Sodiqovlarga - Domla Halim Ibodov ustozlik qilishgan. Shu tariqa ustoz-shogirdlik an‘analari keyingi avlod vakillari tomonidan davom ettirilib rivojlantirilgan.

Musiqiy ta‘limda ilmiylik, davomiylilik, izchillik kabi tamoyillar ustuvor bo‘lib, ular mantiqan o‘zaro bog‘lanib, ustoz-shogirdlik an‘analari asosida tarkib topganligi, ustozning mohir usta, bilimdon, nafasat va go‘zallikni teran anglaydigan sharqona axloq sohibi ekanligini amalda namoyon eta olish layoqati bilan xarakterlangan. Shu bilan birga, o‘zbek an‘anaviy ijrochilik amaliyoti tarixida san‘atkor ustoz kasbiy faoliyatining o‘ziga xos tarkib va tamoyillariga rioya qilgan. Usta sozini, cholg‘uni chalish uchun qo‘liga olishdan oldin, xalq oldiga kuylashga chiqishdan avval, albatta jismi va ruhiyatini poklagan.

Buxorolik taniqli hofiz, sozandalar shogird tayyorlash barobarida o‘z farzandlarining milliy merosni o‘zlashtirishlariga, musiqiy ta‘lim - tarbiyasiga ham jonbozlik ko‘rsatishgan. Gabriel xofiz o‘g‘li - Soson Benyaminovga, ustoz Domla Halim o‘g‘li Olim Halimovga, Shohnazar Sohibov o‘g‘li – Telman Sohibovga ustozlik qilishgan.

Xalq kuylari va “Shashmakom” shu‘balari ustozdan-shogirdga ogzaki tarzda o‘rgatilib kelinganligi bois har bir hofiz xalq kuylari, maqomlarni el orasida kengroq yoyish, ularga yanada umrboqiylik bag‘ishlash maqsadida shogirdlar tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan. Ustozlar kasbiy musiqa ta‘limi usuliyoti maktabi mansub bo‘lajak sozanda-hofizlarga saboq berishda san‘atkor odobi me‘yorlarini, mezonlarini singdirishda qimmatli tavsiyalardan foydalanishgan.

Kasbiy musiqa ta‘limi usuliyotida ustozlar o‘z shogirdlarini har tomonlama yetuk inson darajasida ta‘lim-tarbiya berishga harakat qilishgan. Bunda, albatta shogirdning tirishqoqligi, qiziquvchanligi, iste‘dodi muhim rol o‘ynagan. Ustoz o‘git-nasihatlarini shogird tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Dutorchi sozanda, ustoz Raxmatxo‘ja o‘zining shogirdi yosh Abdulazizga bir necha yillik mashg‘ulotlari davomida kuylarni yo‘liga qarab, qo‘shyor, yakkator usulda chalish kerakligini, chalganda o‘ng qo‘l barmoqlarini dator qopqog‘iga tegizmaslikni, ko‘z suzib, yelka uchirib, huda-behuda yarashmagan qiliqlar qilmaslikni qayd etib, ijrochi o‘zini sipoh tutishini va faqat lozim bo‘lganida chalish kerakligi kabi bir qancha bergan tarbiyaviy maslahatlari xususida Hoji Abdulaziz Rasulov haqidagi ocherk-kitobchada hikoya qilinadi [3, 23].

Mashhur Levicha hofiz ham o‘z shogirdlariga avvalo musiqaning nozik tomonlarini tushunib, puxta o‘rganib olishni, tinglovchilarni xursand qilmoqchi bo‘lsa, kuyni tinmay o‘rganib, san‘atda sinchkov bo‘lishni, binobarin, musiqaning o‘ziga xos qonunlari bo‘lib, uni doimo hurmatlash lozimligini uqtirgan.

O‘sha davrlarda xalq sozanda va xonandalari musiqa san‘atiga iqtidorli yoshlarga an‘anaviy musiqani, milliy sozlarda chalishga urgatish mashg‘ulotlarini ko‘pincha uy sharoitlarida ham amalga oshirishgan. Sozanda Haydar Musayev o‘zining shogirdlik davrlarini eslab, shunday aytgan : “ Men musiqa maktabida Levichadan ta‘lim olishda ko‘pincha uning uyida bo‘lar edim. Onam axtarib kelganlarida meni doim shu yerdan topardi. Levicha shogirdlarining malakasini oshirmoq uchun ularni bazmlarga olib borardi. U tanbur chertib, biz unga jo‘r bo‘lardik” [5,75-76].

Endilikda “Ustoz-shogird” an‘anasi yoshlarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, musiqiy-pedagogik va badiiy ijrochilik jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirdidagi musiqiy iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda milliy musiqa, maqom san‘ati ilmi va amaliyotini rivojlantirish maqsadida ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi muassasalarining o‘quv rejasiga “An‘anaviy xonandalik va sozandalik” fanlarining kiritilganligi ustoz-shogird qadriyatlarini zamonaviy sharoitda yanada takomillashtirishga keng imkoniyatlar berdi.

Umumta‘lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy maqom san‘ati asoslarini o‘rgatish zamonaviy ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Musiqa madaniyati ta‘limi dasturida bunga alohida e‘tibor qaratilgan. Musiqa madaniyati fanidan 6-sinf darsligida “Shashmaqom-mumtoz musiqamiz asosi” mavzuida tinglash uchun “Tasnifi Buzruk” kuyi tavsiya etiladi. Yettinchi sinf darsligida 2-chorak 1-mavzu-Maqom tushunchasi. Shashmaqom, 2-mavzu- Shashmaqomning cholg‘u (mushkulot) va ashula (nasr) bo‘limi berilgan bo‘lib, musiqa tinglashda “Nasrulloiy” maqom aytim yo‘lini tinglash tavsiya etiladi. Musiqa savodxonligida “Ota Jalol Nosirov” hayoti va ijodi o‘rganiladi [4, 39].

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining malaka oshirishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida ham Shashmaqom to‘g‘risida nazariy va amaliy bilim, malaka, ko‘nikmalarni takomillashtirish nazarda tutilgan. Shunga ko‘ra, malaka oshirish kursi o‘quv-mavzu rejasida “Musiqa mashg‘ulotlarida maqom, Shashmaqom, uning cholg‘u va aytim yo‘llari, o‘zbek xalq musiqa merosi va uning mahalliy (lokal) uslublari haqida ma‘lumot” kabi mavzularga alohida o‘rin ajratilgan.

**Xullas,** qadimiy o‘zbek milliy musiqa madaniyati gultoji bo‘lmish Buxoro Shashmaqomining ustoz-shogird an‘analari asosida ilmu-amaliyotini o‘rganish borasida asrlar davomida maxsus shug‘ullanuvchi mukammal kasbiy musiqa maktablari shakllangan, rivojlangan hamda takomillashib kelgan. Xalqimizni ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan ma‘naviyat sarchashmalaridan bahramand etish, musiqiy qadriyatlarimizni tiklash, keng targ‘ibot etishda “ustoz-shogird an‘analari” dan foydalanish va uni zamonaviy yondashuv, talablar asosida yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ - 3391-sonli “O‘zbekiston milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori // “Xalq so‘zi”. 2017. - 18-noyabr)
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro maqom san‘ati anjumani” ning ochilish marosimidagi nutqi”. // “Xalq so‘zi”. 2018 y. - 7-sentabr.
3. Axmedov M. Hoji Abdulaziz Rasulov. Toshkent. 1974 y. - B. 23.
4. Musiqa madaniyati fani o‘quv dasturi (1-7 sinflar) Toshkent. 2017. – B.39.
5. Xaimov Y. Levicha xofiz. Toshkent. 1975 y. -B.75-76.
6. Qobusnoma. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1967 y. -B. 114–115.

## XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

*Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna,  
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi  
nargizamuhammadiyeva84@gmail.com*

*Maqolada xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari haqida batafsil yoritilgan. 9-sinf o‘quvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Detaldan buyumgacha”, “Smart step –aqli qadam”, “My creativity-Mening ijodim”, “loyiha” metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarga hunarmandchilik turlari va mahsulot tayyorlash texnologiyalari haqidagi bilimlar berildi. Berilgan bilimlar asosida o‘quvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasini amalda bajaradilar, shuningdek ushbu ta’lim texnologiyalar o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqish uyg‘otib, hunarmand tadbirkor bo‘lishlariga ko‘maklashadi. Texnologiya fani dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo‘llash samarali natija beradi.*

**Kalit so‘z:** ta’lim, metod, pedagogik, xalq hunarmandchiligi, muammo, hunarmandchilik, vazifa, kompetensiya, yechim, tarbiya, ijodkorlik, interfaol.

## ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСТВА В ОБЛАСТИ НАРОДНЫХ РЕМЕСЕЛ

*В статье подробно описаны интерактивные методы формирования навыков творчества по народным промыслам. от “Detail до buyum”, “Smart step –Smart stage”, в целях совершенствования методики формирования у девятиклассников навыков творчества по народным промыслам, Используя методы “My creativity-My yodim”, “project”, учащимся были предоставлены знания о видах ремесел и технологиях изготовления продукции. Основываясь на предоставленных знаниях, учащиеся практически выполняют технологию изготовления изделий ремесленного производства, и, таким образом, эти образовательные технологии способствуют тому, чтобы учащиеся заинтересовались профессией и стали ремесленниками-предпринимателями. Применение интерактивных методик при формировании навыков творчества по народным промыслам на уроках и внеурочных занятиях по технике дает плодотворный результат.*

**Ключевое слово:** учебное, методическое, педагогическое, народные промыслы, проблема, ремесло, задача, компетенция, решение, воспитание, творчество, интерактивное.

## INTERACTIVE METHODS OF FORMING CREATIVE SKILLS REGARDING FOLK CRAFTS

*The article describes in detail the interactive methods of formation of creative skills related to folk crafts. In order to improve the method of formation of creativity skills of the 9th grade students regarding folk crafts, by applying the methods "From Detail to Item", "Smart step - smart step", "My creativity-My creativity", "project" knowledge about types and technologies of product preparation was given. On the basis of the given knowledge, students practice the technology of making handicraft products, and these educational technologies help students to become interested in the profession and become artisan entrepreneurs. The use of interactive methods in the formation of creative skills related to folk crafts in the classroom and extracurricular activities of the science of technology gives effective results.*

**Keywords:** education, method, pedagogical, Folk Crafts, problem, crafts, task, competence, solution, upbringing, creativity, interactive.

**Kirish.** Bugungi kunda Respublikamizda ko‘p asrlik tarixga ega hunarmandchilik buyumlarini asrab-avaylashga qaratilgan qonuniy mexanizmlar mavjud va ular bilan bevosita shug‘ullanadigan qator davlat va jamoat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Bu borada Shveytsariya hamkorlik va taraqqiyot byurosi, YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va YUNESKOning Milliy komissiyasi faol ishlar olib bormoqda. YUNESKOning eng yirik aksiyalaridan biri 2002-yil Surxondaryo viloyati Boysun tumanini insoniyat og‘zaki va nomoddiy merosi

durdonasi deb eʼlon qilinishi. Hozirgi paytgacha xalq madaniyati, jumladan, hunarmandchilik ham asl holda saqlangan ushbu noyob maskanning bunday eʼtirof etilishining kelgusida yanada ravnaq topishi uchun asos yaratadi. Ushbu voqea tumanda xalq hunarmandchiligini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni yanada amalga oshirilishini rivojlantirishga asos boʻldi. Natijada, har yili Boysun zaminida Boysun bahori xalqaro folklor festivalini oʻtkazish anʼanaga aylantirildi. Boysun tumanining anʼanaviy madaniyatini oʻrganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyasi tashkil etildi. Ushbu ekspeditsiya jarayonida shu paytga qadar maʼlum boʻlmagan sopol buyumlar ishlab chiqarish markazi, yangicha bezakli kashta va gilamlar toʻqilishi aniqlandi. Ekspeditsiya olib borgan ishlar natijasida tumanda hunarmandchilikning oʻsishiga erishildi. Boysun tumani markazida hunarmandchilik markazi tashkil etildi. Mahalliy ustalar Markaziy Osiyo (Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiva, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Moʻgʻuliston, Shimoliy va Janubiy Koreya) davlatlarini qamragan hunarmandchilik mahsulotlariga YUNESKO sifat belgisi dasturida ishtirok etishmoqda va tumanning hunarmandchilik mahsulotlari xalqaro miqyosda eʼtirof qilinmoqda. 2006-yilda Boysun janda matosi va oq enli gilami YUNESKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi va shunday belgi olgan boshqa gʻoliblar qatorida YUNESKOning Bangkok, Pekin, Nyu-Deli va Almatidagi ofisi saytlariga joylashtirildi. YUNESKO va Yaponiyaning –“Oʻzbekiston sirli sopoli” trust jamgʻarmasi loyihasi asosida Oʻzbekistonda anʼanaviy kulolchilik sanʼati rivojlantirilmogʻda. Ushbu loyiha doirasida Respublikaning taniqli ustalari va sanʼatshunoslari, tajriba almashish maqsadida taklif etilgan, YUNESKOning sifat belgisi dasturida zamonaviy hunarmandchilik mahsulotlari: yuksak sifat, innovatsiya, ekologiya, bozor talablariga moslik, mehnat toʻgrisidagi qonunlarga muvofiqlik talablariga javob berish zarurligi koʻrsatilgan.

Kattaqoʻrgʻonda 2007-yilda qayta ochilgan kulolchilik markazi koʻrgazmasi oʻtkazildi. Shveysariya hamkorlik va taraqqiyot byurosining Denov kulolchiligi va avval mashhur boʻlgan Nurota kashtachiligini tiklashga qaratilgan loyhasini ham shu yoʻnalishdagi ishlar sirasiga kiritish mumkin. Birinchi loyiha natijalari mutaxassislarni qanoatlantirmadi va ikkinchisi esa ikkita loyiha Nurota anʼanaviy kashtachiligini tiklashni yoʻlga qoʻyish hamda bir guruh yosh kashtadoʻzlarni oʻrgatish va ish bilan taʼminlashni hal qildi [1].

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tajriba-sinov oʻtkazish boʻyicha oʻquv jarayoni loyihasi 1- rasmda berilgan. Ushbu tajriba-sinov Texnologiya fani dars mashgʻulotlarida va darsdan tashqari toʻgarak mashgʻulotlari davomida amalga oshiriladi. Oʻquvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid koʻnikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning metod, usul va vositalaridan foydalanilgan.

9-sinf oʻquvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik koʻnikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Detaldan buyumgacha”, “Smart step –aqli qadam”, “My creativity-Mening ijodim”, “loyiha” metodlarini qoʻllash orqali oʻquvchilarga hunarmandchilik turlari va mahsulot tayyorlash texnologiyalari haqidagi bilimlar berildi. Berilgan bilimlar asosida oʻquvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasini amalda bajaradilar, shuningdek ushbu taʼlim texnologiyalar oʻquvchilarni kasb-hunarga qiziqish uygʻotib, hunarmand tadbirkor boʻlishlariga koʻmaklashadi [2].


Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tajriba-sinov oʻtkazish boʻyicha oʻquv jarayonining loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning maqsadi tajriba-sinov jarayonini tartibga solish va faoliyatini yuritish. Ushbu loyiha 1-rasmda berilgan.

**Tadqiqot obyekti va metodologiyasi.** Texnologiya fani dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarida xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik koʻnikmalarini shakllantirishda interfaol metodlarni qoʻllash samarali natija beradi. Zamonaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlarning taʼlim jarayoniga kirib kelishini taqozo etadi. Interfaol metodlar oʻquvchilarni mustaqil fikirlaydigan, erkin, izlanuvchan faol tarbiyalash jarayonida bir qancha afzalliklarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Taʼlim bu oʻqituvchi (oʻrgatuvchi) va oʻquvchi (oʻrganuvchi) oʻrtasidagi munosabatdir. Taʼlimda oʻqituvchining faolligi ustun boʻlgan boʻlsa, zamonaviy taʼlimda esa oʻquvchining faolligi ustun oʻringa chiqadi.

Taʼlim jarayonida oʻquvchilar va oʻqituvchilar oʻrtasidagi faollikni oshirish orqali oʻquvchilarning bilimlarni oʻzlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qoʻllash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol metodlarni qoʻllashda taʼlimning asosiy mezonlari quyidagilar:

- norasmiy bahs-munozaralar oʻtkazish;
- oʻquv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati;
- maʼruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni koʻpligi;
- oʻquvchilar tashabbus koʻrsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi;
- kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi boʻlib ishlash uchun topshiriqlar berish;

yoza ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.



1- rasm. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tajriba-sinov o‘tkazish bo‘yicha o‘quv jarayoni loyihasi

AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish keng qo‘llaniladi. Xorijiy pedagogik olilardan M.K.Klarin, V.P.Bezpal‘ko, N.F.Talizina, G.A.Bardovskiyilar ilmiy qarashlarini nashr ishlarida bayon qilganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan O‘.Tolipov, B.Ziyomammedov, U.Nishonaliyev, R.J.Ishmuhammedovlar interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtirishi, ularni sub‘ekt sifatida harakat qilishga ijodkor bo‘lishiga zamin deb hisoblanadi [3].

**Olingan natijalar va ularning tahlili .** Ushbu tadqiqot ishida qo‘llanilgan interfaol metodlar boshqa interfaol metodlardan farqli tomoni, bu metodlar aynan amaliy fanlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mahsuli esa ijodkorlik qobiliyatiga namoyon etish. O‘quvchi detaldan to buyumgacha jarayonni bajarishda, o‘zining buyumda sodir etgan yangiliklarini ko‘rsata olish vazifasi bilan qurollanadi.

Demak, interfaol metodlarni ta‘limda qo‘llash, o‘quvchlarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishida amaliy yordam berishini inobatga olib, ijobiy natijalar olish maqsadida foydalandik va samarali natijalarga erishdik. Quyida takomillashtirilgan interfaol metodlarni amalga oshirish texnologiyasi haqida ma‘lumotlar berilgan.

“Detaldan buyumgacha” deb nomlangan ushbu metod amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mahsulotni tayyor holatga keltirishga yordam beradi. O‘quvchilarning mavzuni bajarishida faolligini va ijodkorligini oshiradi. Yakka va jamoa bo‘lib, bajarishga mo‘ljallangan. Ushbu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o‘quvchilar buyumning ko‘rinishi, vazifalari, ishlatilish maqsadi va buyumni tayyorlash uchun kerakli asbob va moslamalar, mahsulotlar tarkibi va xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar;

2. buyumni tayyorlashda o‘quvchilarning ijodkorligi asos sifatida baholanadi. O‘quvchilar buyumni tayyorlashning texnologik xaritasi asosida ishni bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Avvalo buyumning mayda detallari tayyorlab olinadi;

3. buyumning tayyorlangan mayda detallarini buyumning yirik qismlariga o‘rnatib buyumni tayyor holatga keltiradi;

4. tayyor holatga keltirilgan buyumga oxirgi ishlov berib, oxirgi ishlov berish ishlari amalga oshiriladi;

5. “Detaldan buyumgacha” ushbu metodi orqali bajarilgan ishlarni baholashda o‘quvchilarning ijodkorligi asosida amalga oshiriladi [4].

“From theory to practice-nazariydan amaliyotgacha” – bu metodda esa amaliy mavzular uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu metod quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. o‘qituvchi bu metodni bajarish bo‘yicha o‘quvchilarga ko‘rsatmalar beradi. Texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari va mavzu bo‘yicha kerakli asbob, uskuna, moslamalar bilan tanishtiradi;

2. o‘qituvchi mavzuga oid nazariy ma‘lumotlar beradi. Mavzuni bajarilish bo‘yicha texnologik xaritaning bajarilishini tushuntiradi. Mavzuga oid buyumning namunasini o‘quvchilar ko‘rishiga qulay bo‘lgan joyga o‘rnatadi;

3. o‘qituvchi mavzuning bajarilishi bo‘yicha tayyorlangan texnologik xaritaning o‘quvchilarga tarqatadi. O‘quvchilar buyumni tayyorlashda ijodiy yondoshib yakka tartibda (individual) o‘zlari model tanlaydi, loyihalashtiradi, andoza yoki qolip asosida buyum holiga keltiriladi, buyumga oxirgi pardoqlash ishlarni bajaradilar va kreativ qobiliyatini namoyon etadi;

4. o‘quvchilar tayyorlagan buyumlarining kamchiliklari va yutuqlarini o‘qituvchi tahlil qiladi va baholaydi.

“Smart step-aqlli qadam” ta‘lim metodi bu musobaqa usuli bo‘lib, asosan amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi. Bu usulda o‘quvchilarga beriladigan vazifalar soda echimdan boshlanib, keyingi echim va vazifalar murakkablashib boriladi. Keyingi beriladigan vazifalarga bittadan element qo‘shilib boriladi. Natijada bir necha qadamdan keyin murakkab masala va muommolarni yechish ko‘nikmasi hosil bo‘lib, o‘quvchining kreativligi rivojlanadi.

“Smart step-aqlli qadam” metodini qo‘llash ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o‘qituvchi o‘quvchilarni darsda beriladigan bir necha bosqichli nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarish texnologiyasi bilan tanishtiradi;

2. o‘quvchilar vazifalarni guruhda yoki individual ko‘rinishda birin-ketin bajaradilar;

3. barcha natijalarni va ularning xulosalarini o‘quvchilar daftariga yozib boradilar;

4. dars oxirida topshiriqlar bo‘yicha berilgan javoblar yoki amaliy ishlar tahlil qilinadi, yutuqlar va kamchiliklar ko‘rsatiladi, o‘quvchilar baholanadi.

“My creativity-mening ijodim” metodi bu mening san‘atim yoki mening ijodim ma‘nolarni anglatadi. Bu ta‘lim metodi o‘quvchilarning yashirin iqtidorini namoyon qilish va bu iqtidorni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ta‘lim mexanizmidan ijodiy ishlarni bajarishda qo‘llaniladi va iqtidorligi namoyon bo‘ladi.

“My creativity-mening ijodim” metodini qo‘llash ketma-ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o‘quvchilarga asbob-uskuna va moslamalar yordamida amallarni xavfsizlik texnikasi qoidalari amal qilgan holda bagarish ketma-ketligi tushuntiriladi va misollar keltiriladi;

2. o‘quvchilar bu misollarning namunalarini bajarib, asbob-uskuna va moslamalar bilan ishlash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi;

3. o‘quvchilarga ijodiy vazifa namunalari yoki ixtiyoriy mavzudagi vazifani bajarish bo‘yicha ko‘rsatma beriladi;

4. o‘quvchilar o‘quv ustaxonasida ijod qiladilar va baholanadilar.

“Loyiha” metodi- bunda yakka tartibda (individual), juftlik va kichik guruhlarda o‘quv loyihalari tayyorlanadi. Ta‘lim oluvchilarning reja asosida belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborotlar yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlaridan iborat bo‘ladi. Bu metodda ma‘lum bir amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda yakka tartibda yoki guruh bilan ishlashda ularga beriladigan mavzuning erkinligi, loyihalashtirish, biror muammo ustida izlanish olib borib, bilim va ko‘nikmalari orqali uni himoya qilish jarayonidir. Bu jarayonda o‘qituvchi tashkilotchi, nazoratchi, ba‘zan maslahatchi sifatida qatnashadi. O‘quvchilar esa faqat izlanish olib boradilar.

O‘qituvchi bu jarayonni tashkil qilish uchun oldindan mavzularni yoshiga moslab tanlab tayyorlaydi. O‘quvchilarga yoshdan kelib chiqib, mavzularni qiziqishidan kelib chiqib, o‘zlari tanlash huquqiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar tanlagan mavzusi bo‘yicha izlanishlar olib borishadilar va loyiha ishlarni himoya qilishadilar.

“Loyiha” metodining bajarilish ketma-ketligi quyidagicha olib boriladi:



1. mavzular yakka hamda guruh bilan ishlashga mo‘ljallangan va dolzarb, hayotiy masalalarni qamrab olgan bo‘lishi lozim;
2. bu metodda ixtiyoriy mavzu tanlanadi;
3. o‘quvchilarga loyhani amalga oshirishda avvalo muammo, so‘ngra muammoning echimini ochadigan ishlarni bajarish tartibini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan echimida mahsulot yoki mexanizmida yangilik bo‘lishi lozim;
4. tanlanga loyihadan kelib chiqqan holda amaliy ish jarayoni tashkil etiladi va amalga oshiriladi;
5. loyiha yakunida taqdimot o‘tkaziladi. Taqdimotda butun jamoa qatnashishiga va loyihalarini himoya qilishga sharoit yaratiladi. Baholash o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida turli nominatsiyalar asosida amalga oshiriladi.

“Texnologiya fanidan 8-9-sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari” mavzusida elektron dars ishlanma tayyorlandi va tadqiqot jarayonida qo‘llanildi. Ushbu elektron dars ishlanma 8-9-sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirib, o‘quvchilarga milliy hunarmandchilik haqida ma’lumotlar, 8-9-sinf texnologiya fanining o‘quv rejasi asosida mavzular haqida bilimlar, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar, texnologik xaritalar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash haqida ma’lumotlar beradi.

“Texnologiya fanidan 8-9-sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari” mavzusidagi elektron dars ishlanmaning maqsadi:

1. umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-9-sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ta’lim texnologiyalari, o‘quv reja asosida mavzular haqida ma’lumotlar, milliy hunarmandchilik va ularning turlari haqida axborotlar berish;
2. o‘quv reja asosida berilgan amaliy darslarni bajarish texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;
3. o‘quvchilarning vaqtdan unumli foydalanishlari uchun smart kutubxona vazifasini bajarib, kerakli bilimlarni berish;
4. hunarmandlarning tajribalarini va ish faoliyatlarini o‘rganib, malakasini oshirish lozim.

**Xulosalar.** Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda elektron dars ishlanmalarni texnologiya fani o‘quv faoliyatining quyidagi turlarida qo‘llash mumkin:

- yangi nazariy materiallarni o‘rganish va bayon etishda;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda;
- o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlashda, nazorat qilish va tekshirishda;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlarida;
- ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar, namunaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda;
- amaliy mashg‘ulotlarda;
- darsdan tashqari mashg‘ulotlarda.

Axborot asrida ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagoglar o‘quvchilarga bilim berish jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini o‘stirishdan iborat. Ta’limda shaxsiy natijalarga erishish, ta’lim oluvchilarning ta’limga moslashish resurslarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirishni, har bir o‘quvchi uchun alohida ta’lim dasturlari hamda yo‘l xaritalarini tuzishni talab etadi [5].

Ta’lim jarayonining subyektlari sifatida ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar sanaladi. Obyektlari sifatida esa o‘qitish vositalari va o‘quv faoliyati instrumentlari, metodikalari, moddiy bazasi, pedagogik faoliyatni boshqarish sohalari, kommunikatsiya usullari (tashkiliy-boshqaruv, tushuntirish-motivatsion, javob-muomala, texnik, hissiy) hisoblanadi.

#### Adabiyotlar :

1. . Mamasoliyeva Sh. L. Xalq hunarmandchiligi O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 2021.– 220 b.
2. Muhamadiyeva N.Q. Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish. // Monografiya. © TerDU NMM nashriyoti, 2022-y. B. 111. UO‘K: 373.5.026:379.826. KBK: 74.200.M 93 ISBN: 978-9943-8897-4-3.
3. Muhamadiyeva N.Q. Milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari // Uslubiy qo‘llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.

4. Muhamadiyeva N.Q. Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish texnologiyalari // Uslubiy qo’llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.

5. Zaripova N.A. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Diss.. p.f.f.d. (PhD) – T.: 2020. – 137 b.

## CHIZMACHILIK DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA IJODIY LOYIHALASHNI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

*Sariyev Rabbim Shuhratovich,*

*Toshkent kimyo-texnologiya insituti Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi  
rabbimsariyev@gmail.com*

*Maqolada chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metod va metodikalarini pedagogik jihatdan modellashtirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatmalar va yaxshi natijalar qayd etishi mumkin bo‘lgan prinsipal harakatlar yoritilib o‘tilgan. Chizmachilik darslarida ijodiy loyihalashni o‘quvchilarga o‘rgatish yuzasidan chizmachilik o‘qituvchisining fandan kelib chiqib qo‘llaydigan metodikasining takomillashtirilishining shartliligi, bu takomillashtirilgan metodikaning pedagogik modelini ishlab chiqilishidan olinishi kutilayotgan natijalarning ilmiy asoslanganlik jihatlari, ulardan foydalanishda ushbu modelga asoslangan tarzda o‘qituvchi tomonidan darsni tashkil qilinishidagi asosiy jihatlar va ularning talqinlari bayon etib o‘tiladi.*

*Ijodiy loyihalash bo‘yicha o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalarni metodik jihatdan takomillashtirilgan pedagogik modelning ta‘sir etuvchi omillari psixologik va pedagogik ketma-ketliklari batafsil yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *pedagogik model, ijodiy loyihalash, takomillashtirilgan metod, simdan model yasash, ijodiy faoliyat, grafikaviy dasturlar, chizmachilikdan animatsion video roliklar, paint, adobe raider, grafikaviy dasturlar.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ КРЕАТИВНОМУ ДИЗАЙНУ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ РИСОВАНИЯ

*В статье выделены основные указания по педагогическому моделированию приемов и способов обучения творческому дизайну учащихся на занятиях рисованием и основные действия, позволяющие добиться хороших результатов. Условия совершенствования методики, используемой учителем рисования на основе науки при обучении творческому дизайну учащихся на уроках рисования, аспекты научного обоснования результатов, ожидаемых от разработки педагогической модели этой усовершенствованной методики, позиции учителя. их использования на основе этой модели описаны основные аспекты ее организации и их интерпретации.*

*Подробно освещены факторы воздействия методически усовершенствованной педагогической модели, психолого-педагогические последовательности умений, которые должны быть сформированы у студентов для творческого проектирования.*

**Ключевые слова:** *Педагогическая модель, креативный дизайн, усовершенствованный метод, изготовление проволочной модели, творческая деятельность, графические программы, анимационные видеоролики по рисованию, краска, Adobe Raider, графические программы.*

## A PEDAGOGICAL MODEL OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CREATIVE DESIGN TO STUDENTS IN DRAWING LESSONS

*In the article, the main instructions for pedagogical modeling of the methods of teaching creative design to students in drawing classes and the principal actions that can achieve good results are highlighted. The conditionality of the improvement of the methodology used by the drawing teacher based on science in teaching creative design to students in drawing classes, the aspects of the scientific basis of the results expected from the development of the pedagogical model of this improved methodology, the teacher's use of them based on this model the main aspects of its organization and their interpretations are described.*

*The influencing factors of the methodologically improved pedagogical model, the psychological and pedagogical sequences of the skills that should be formed in the students for creative design are covered in detail.*

**Keywords:** *Pedagogical model, creative design, improved method, wire model making, creative activity, graphic programs, animated videos from drawing, paint, adobe raider, graphic programs.*

**Kirish.** Bugungi kunda jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etib borayotgan jamiyatda bevosita axborot vositalarining o‘rni beqiyos sanaladi, bu esa barcha jamiyat bo‘g‘inlaridan o‘zlarining ustida yanada ko‘proq

islohotlar olib borishlari va axborotlashgan jamiyatga mos bo‘lgan o‘zlarining ishlarini ta’lqin etuvchi, qiziqtiruvchi, sodda va mukammal bo‘lgan metodlarini yanada takomillashtirishlari lozim bo‘lmoqda. Shu jihatdan jamiyatning ta’lim bo‘g‘inlarida ham o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish maqsadlarida ishlab chiqilgan va chiqilayotgan metodikalarni yanada takomillashtirishga ularni axborotlashib borayotgan jamiyatga moslashtirish kabi bir qator masalalarni qo‘yib kelmoqda. Bundan tashqari ushbu metodikani takomillashtirish bilan bir qatorda uni pedagogik modellashtirish, pedagogik modelini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modeli, bu ushbu fanning bir mavzusi yuzasidan o‘quvchilarga o‘rgatiladigan bilimlarni yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan metodlarning ma’lum bir tartib asosida o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan metodik ketma-ketliklar majmuasi hisoblanib, bu ketma-ketlikda darslarda foydalanishning afzaligi esa yuqorida takidlangani kabi o‘quvchilarni o‘zlashtirishlarini bilim darajalarini orttirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirish. Chizmachilik darslari va uning mavzularini o‘tishda shunchaki bir mavzu sifatida o‘qituvchi tomonidan o‘tilishi bugungi kun o‘quvchilarini unchalik ham qiziqishiga sabab bo‘lmaydi, albatta buni amalga oshirishda o‘qituvchi tomonidan turli metodik ishlar olib borilishi va oldindan mavjud metodlarni takomillashtirishi lozim bo‘lishi bilan birgalikda, ularni pedagogik jihatdan ma’lum me’zonga solishi va bu jarayonda albatda o‘quvchilar ularning axborotlarni qabul qilish vositalarini qiziqishlarini ham inobatga olishlari lozim [1].

**Tadqiqotning maqsadi.** Chizmachilik fanidan ijodiy loyihalash mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatish metodikasini takomillashtirgan holda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini ularni bugungi kunda tom manodagi kundalik foydalanuvchi vositalari yordamida o‘rgatilishini ya’niy axborot texnologiyalarining yangicha ko‘rinishlaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish. O‘tiladigan chizmachilik darslarining metodik jihatdan yangicha zamonaviy ko‘rinishlarini shakllantirish asosida ushbu takomillashtirilgan metodlarni tadqiq qilish bo‘yicha pedagogik modelini yaratish.

Chizmachilik darslarida ijodiy loyihalashni o‘quvchilarga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modelini yaratish orqali o‘quvchilarda ijodiy loyihalash mavzusini chin ma’noda ijodkorlikka o‘rgatish orqali ularda shaxiy fikr, estetik did, fazoviy tasavvur kabi bir qator ijodiy faoliyat uchun zarur sanalgan jihatlarni yanada kamol toptirish. Bunda esa kerakli natijalarga ega bo‘lish uchun eng avvalo o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan metodlarning pedododik modelini to‘g‘ri tuzilishi va tadqiq qilinishi lozim. Shu manoda ushbu tadqiqot ishimizni yuqorida sanab o‘tilgan ta’limiy jihatlarga asoslangan holda olib borishga harakat qilindi [2].


**Tadqiqotning usuli va obyekti.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablari chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda pedagogik model mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishimizda tadqiqotni olib boorish yuzasidan qo‘llaniladigan deyarli barcha tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan ushbu fanni o‘quvchilarga o‘rgatishda amaliyot muhim sanalganligi sabab tadqiqotimizda darslarni o‘zimiz ilgari surayotgan takomillashtirilgan metodlar:

- Animatsion namoishli (grafik masalalarning yechilish usullari misolida)
- Video darslar (mavzularni nazariy bayon etilishida)
- Qisqa vide giflar (ijodiy loyihalash yuzasidan)

Shu kabi bir qancha noananaviy metodikalardan foydalanildi. Bu esa bejizga emas bizlarga sir emaski bugungi kun o‘quvchilari turli ijtimoiy tarmoqlarda faol ekanligi va turli axborot ko‘rinishlarini qabul qilishlari va ularni qayta ishlash bilan ham shug‘ullanishmoqda ayni shu maqsadda biz tadqiqotimizning asosini ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalarni belgilab oldik [3].

**Tadqiqot natijalari va uni muhokamasi.** O‘quvchilarda chizmachilik darslarida ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modelini shakllantirishda o‘tkazilgan tajriba sinov ishlaridan eng yuqori natijalarni va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘atgan metodlar ketma – ketligi tuzildi. Jumladan, o‘quvchilarga chizmachilikda ijodiy loyihalashni o‘rgatishda eng avvalo darslarni ko‘proq amaliyot jihatdan tuzish va olib boorish lozim bo‘lib har bitta mavzu yuzasidan qisqa metrajli videolar va vide darslar tayyorlab ularni muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarga joylab boorish, ijodiy loyihalashga oid mavzularda va undan tashqari o‘quvchilarga detal modellarini turli materiallardan tayyorlash vazifalarini berib boorish, bu jarayonda simdan detall modellarini tayyorlash ayniqsa o‘zgacha ahamiyat kasb etadi [3].

Detalning berilgan ko‘rinishlariga qarab uning modelini yasashdan oldin oddiy qisqich (skrepka)dan bittasini olib (1-chizma, *a*) ichidagi qismini tashqarisidagi qismi bilan to‘g‘ri burchak (900) hosil bo‘lguncha qayriladi. (11-chizma, *b*). shu vaziyatdagi olddan, ustdan va chapdan ko‘rinishlarini chizib qisqich bilan solishtiriladi. Qisqichni shu holatda saqlab, tik (vertikal) vaziyatdagi qismining har bir uchi 1-chizma, *c* dagi kabi gorizontol holatga buklab keltiriladi. Shunda qisqichdan yana bitta ko‘rinishdagi model yasalgan bo‘ladi va ular o‘zaro solishtirilib ko‘riladi. Qisqichning ushbu ko‘rinishini o‘zgartirmasdan yana bitta model yasab ko‘riladi (1-chizma, *d*). Bu yerda qisqich uchta ko‘rinishdagi modelga qanday aylantirilganligi bilan tanishib chiqiladi. Simdan model yasashni soddalashtirish va osonlantirish maqsadida oldin kubning modelini yasab olish tavsiya etiladi. Kubning qirralarini yasashda ular orqali ikkinchi bor sim o‘tmasligi lozim, ya’ni ikki qatorli simli qirraga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Simdan yasalgan modelning ko‘rinishlari bo‘yicha uning yaqqol tasvirini chizishda eng oldin kubning yaqqol tasviri bajarib olinadi va ushbu yaqqol tasvirda kub yoqlarida va qirralarida sim qismlari tasvirlari izlab topiladi. Bu yerda kubning qirralarida sim qismlari ikki marta takrorlanmasligi lozim [4].



1-rasm.

Bu maslala bo‘yicha ko‘plab topshiriqlar berilishi mumkin va bu o‘quvchilarda o‘zgacha qiziqishlariga sabab bo‘lishi bilan birgalikda ularning fazoviy tasavvurlarini hamda jisim va model haqidagi dastlabki ijodiy bilimlarini shakllantirishga hizmat qiladi. Chizmachilikda ijodiy loyihalashni o‘quvchilarga o‘rgatishda albatta har ikki yoki uchunchi darsdan keyin kompyuter xonalariga olib kirgan holda ijodiy loyihalashga oid maslalani turli kompyuter dasturlarida (Paint, PowerPoin, AutoCAD) boshqa shu kabi grafikaviy dasturlardan foydalanib bajarishni o‘rgatib boorish ham o‘quvchilarda chizmachilikka bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortiradi [5].

Darslardan tashqari o‘quvchilarni tomonidan kundalik foydalanuvchisiga aylantirilgan smartfon telefonlari uchun va ularda bajarish mumkin bo‘lgan mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan grafik dasturlar haqida ma’lumotlar berish va albatta o‘rnatib berish orqali ham ularni bo‘sh vaqtlarida ham chizmachilik bo‘yicha ijodiy faoliyatga yo‘naltirish lozim [6]. Darslar yuzasidan beriladigan topshiriqlarni o‘qituvchi doskada bajarib ko‘rsatishi bilan birgalikda yuqoridagi kabi dastrulardan tashqari turli animatsion dasturlar yordamida har bitta chiziqning, nuqtaning qanday va qayerdan shakllanishini alohida – alohida efektlar yordamida shakllantiruvchi animatsion video lavhalarni namoiyish etib boorish lozim bo‘ladi. Ayni manashunday chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirib boorish va uni kerakli pedagogik modelga solish orqali chizmachilik o‘qituvchisi o‘zi o‘ylagan kerakli natijalarga ega bo‘lishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modeli mavzusi yuzasidan xulosa sifatida shuni alohida takidlash lozimki, bugungi kunda kechagi yoki o‘tgan davrlar davomida darslarni o‘tish bo‘yicha tavsiya etilgan va tayyorlangan metodika va metodlar o‘quvchilarni barchasini qamrab olish uchun yetarli emas. Chunki bugun axborot texnologiya internet kabi bir qancha tarmoqlar yuksak darajada taraqqiy etib borishi va turli ko‘rinishlardagi axborotlarni o‘quvchilar tomonidan qabul qilinish natijasida ularning ko‘pchiligi

ushbu axborotlar ta'siriga tushib qolmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda qaysi fan o'qituvchisi bo'lmasin agar o'z o'quvchilarini faniga qiziqitirish bilan birga fan bo'yicha kerakli bilimlarni egallashlari uchun u qaysi fan bo'lishidan qattiq nazar o'zining fani bo'yicha darslar davomida yangicha metodlardan yokida mavjud metodlarni hozirgi kunga moslagan holda takomillashtirishi bilan birga ularni tatbiq etish yuzasidan pedagogik modelga solish lozim bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. “Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi”. -T.: “Fan va texnologiya”, 2010, 248 bet.
2. Rixsiboyev T. “Oliy ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi” modull bo'yicha o'quv - uslubiy majmua. Toshkent-2007.: 252 bet.
3. Rahmonov I., Valiyev A., Valiyeva B., Sayidaliyev S., Rasulova F., Dadaboyeva D., Mardov S. “Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar” metodik qo'llanma: Toshkent-2012. 144 bet
4. Бежанарь Ю.П. «Методика преподавания черчения» методические рекомендации – Витебск: ВГУ имени П.М Машерова, 2018-60 с
5. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” darslik, «Iqtisod moliya» - Toshkent-2011.; 420 bet.
6. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A.. “Chizmachilik” (Mashinasozlik chizmachiligi) darslik. «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, - Toshkent: 2020. - 320 b.
7. To'xtayev A., Abramyan Y. “Mashinasozlik chizmachiligidan ma'lumotlar” o'quv qo'llanma, «Ilm ziyo». Toshkent – 2010; 264 bet.

## ЦИТОАРХИТЕКТОНИЧЕСКИЙ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУР ГОЛОВНОГО МОЗГА ОДАРЕННЫХ МУЗЫКАНТОВ

*Холиков Комил Бурунович,*

*старший преподаватель кафедры педагогики,  
Туркистанского инновационного университета*

*В статье раскрывается область анатомии и физиологии, исследующая поля головного мозга. Цитоархитектоника область анатомии и физиологии, исследующая поля головного мозга. Области коры больших полушарий, отвечающих за планирование, контроль и выполнение произвольных движений. Полисахариты-это система, способная сообщать друг другу информацию о повторяющихся вдоль их цепей соединениях аксонов. Когда музыкант – пианист хочет играть музыкальную произведению, чтобы все его пальцы выполняли свою функция, как раз полисахариты придут на помощь. А аксон это - нейрит (длинный цилиндрический отросток нервной клетки), по которому нервные импульсы идут от тела клетки (сомы) к иннервируемым органам и другим нервным клеткам.*

**Ключевые слова:** *нервные импульсы/ аксон/ дендриты/ мозг музыканта/ сигнал и информация/ кора головного мозга/ поле Бродмана/ физиология.*

## IQTIDORLI MUSIQACHILARNING MIYA TUZILMALARINING SITOARXITEKTONIK QIYOSIY TAHLILI

*Maqola miya sohalarini o'rganadigan anatomiya va fiziologiya sohasini ochib beradi. Sitoarxitektura - miya sohalarini o'rganadigan anatomiya va fiziologiya sohasi. Miya yarim korteksining ixtiyoriy harakatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan hududlari. Polisaxaritlar - bu zanjirlar bo'ylab takrorlanadigan akson birikmalari haqida bir-biriga ma'lumot berishga qodir tizim. Musiqachi-pianinochi barcha barmoqlari o'z vazifasini bajarishi uchun musiqa asarini chalishni xohlasa, polisaxaritlar yordamga keladi. Akson esa neyritdir (nerv hujayrasining uzun silindrsimon kengaytmasi), uning bo'ylab nerv impulslari hujayra tanasidan (soma) innervatsiya qilingan organlarga va boshqa nerv hujayralariga o'tadi.*

**Kalit so'zlar:** *nerv impulslari / akson / dendritlar / musiqachining miyasi / signal va axborot / miya yarim korteksi / Brodman maydoni / fiziologiya.*

## ANATOMICAL AND CYTOARCHITECTONIC COMPARATIVE ANALYSIS OF BRAIN STRUCTURES OF GIFTED MUSICIANS

**Abstract:** *The article reveals the field of anatomy and physiology that studies the fields of the brain. Cytoarchitecture is an area of anatomy and physiology that studies the fields of the brain. Areas of the cerebral cortex responsible for planning, controlling and executing voluntary movements. Polysaccharites are a system capable of communicating information to each other about axon connections that are repeated along their chains. When a musician-pianist wants to play a piece of music so that all his fingers perform their function, polysaccharites will come to the rescue. And an axon is a neurite (a long cylindrical extension of a nerve cell), along which nerve impulses travel from the cell body (soma) to the innervated organs and other nerve cells.*

**Keywords:** *nerve impulses/ axon/ dendrites/ musician's brain/ signal and information/ cerebral cortex/ Brodmann field/ physiology.*

Музыкальная одаренность — это стремление к новым познавательным процессам через музыкальность (комплекс музыкальности) для осуществления музыкальных способностей. Как среди музыкантов, так и среди музыкальных психологов широко распространены различные представления, что следует понимать под музыкальной одаренностью. Лейтес, классифицируя разные педагогические подходы к этой проблеме, выделяет три категории детей, которых в социально-педагогической практике обычно и принято именовать одаренными: «дети с высоким IQ; дети, достигшие выдающихся успехов в каком-либо виде деятельности и дети с высокой креативностью. IQ это - коэффициент интеллекта — количественная оценка уровня интеллекта человека: уровень интеллекта относительно уровня интеллекта среднестатистического человека; в

более узком смысле — отношение так называемого умственного возраста к истинному хронологическому возрасту данного лица.

В «Словаре американского наследия» (American Heritage Dictionary) гений определяется как «человек, обладающий исключительно высоким коэффициентом интеллекта, обычно больше 140». Блестящий музыкальный слух, феноменальная память, пластичный и прекрасно скоординированный двигательный «аппарат», невероятная обучаемость и титаническая работоспособность, являются показателями музыкальной одаренности. Музыкальная одаренность, как ей и полагается по изначальному смыслу слова, – дар Божий. Другими словами, это есть нечто иное, нежели обладание даже самыми блестящими музыкальными способностями. Вот это нечто иное заставляет нас почти безошибочно отделять одаренность от обученности. Людей способных и даже очень способных – много, а одаренных – единицы.

Еще одна точка зрения утверждает, что подлинная одаренность проявляет себя через творческое мышление и творческие способности. Иначе говоря, всякая одаренность есть прежде всего творческая одаренность. Музыкальная одаренность ярко проявляется тогда, когда, имея феноменальные способности и яркую неповторимую индивидуальность, человек достиг выдающихся творческих результатов.

Приверженцы каждой точки зрения могут привести множество неоспоримых доводов в свою пользу, подкрепив их примерами из знаменитых биографий. И тут оказывается, что, с одной стороны, многими или даже всеми вышеперечисленными великолепными способностями музыкально одаренные люди действительно обладали или обладают, включая и творческие способности. С другой стороны, сталкиваясь с одаренными людьми в жизни, понимаешь, что в них действительно есть нечто неизъяснимое – то, что невозможно свести исключительно к феноменальному слуху, памяти и т. п., в то же время творческая одаренность в музыке оказывается достаточно расплывчатой характеристикой, если речь идет не о великих именах, а о конкретных музыкальных проявлениях детей и подростков.

Таким образом, проявление музыкальной одаренности, соотношение способностей и одаренности неповторимо индивидуально, но они также в значительной степени зависят от возраста — как по «форме», так и по «содержанию». В каком-то смысле можно сказать, что у каждого возраста своя одаренность. Иначе говоря, одаренность в детском возрасте обнаруживает себя, прежде всего, выдающимися музыкальными способностями, в юношеском — обращает на себя внимание индивидуальностью музыкального само проявления. Творческая одаренность выявляется наиболее отчетливо на подходе к периоду музыкальной зрелости.

Способности к определенному виду деятельности развиваются на основе природных задатков, связанных с такими особенностями нервной системы, как чувствительность анализаторов, сила, подвижность и уравновешенность нервных процессов. Для того, чтобы способности проявлялись, их носителю приходится прикладывать много труда. Способности развиваются только в деятельности и нельзя говорить об отсутствии у человека каких – либо способностей до тех пор, пока он не испробует себя в определенной сфере. Нередко интересы к тому или иному виду деятельности указывают на способности, которые могут проявиться в будущем.

Центральным в проблеме способностей является вопрос генетической предрасположенности. В частности, предки Баха обладали незаурядными музыкальными способностями, а в гении И. С. Баха они проявились с наибольшей силой. В семействе Бахов было около 60 музыкантов, около 20 из них были признаны выдающимися.

Цитоархитектоника это - область анатомии и физиологии, исследующая поля головного мозга. Кора головного мозга человека составляет более 80 % массы мозга. У человека кора составляет в среднем 44 % от объёма всего полушария в целом. Цитоархитектоническое поле Бродмана - область коры больших полушарий головного мозга, которая располагается в верхних отделах теменной доли, позади постцентральной извилины и цитоархитектонического поля Бродмана 5 и спереди коры затылочной доли.

Моторная кора, также известная как двигательная кора (англ. Motor cortex) - области коры больших полушарий, отвечающих за планирование, контроль и выполнение произвольных движений. Вот в этой коры больших полушарий планируется строение музыки и контролируется исполнения музыкального произведения и выполняется произвольное движения пальцев рук музыканта исполнителя. Архитектоника раздел неврологии, изучающий принципы общего строения и пространственных соотношений нервных клеток, волокон, сосудов, межнейронных связей и нейроглии в коре большого мозга.



Полисаккариты - это система, способная сообщать друг другу информацию о повторяющихся вдоль их цепей соединениях аксонов. Поли означает «много», а саккарит означает «цепь», что происходит от греческого языка и означает набор многоветвленных цепей. Они полагаются друг на друга и обмениваются информацией. Когда музыкант – пианист хочет играть музыкальную произведению, чтобы все его пальцы выполняли свою функция, как раз полисаккариты придут на помощь. А аксон это - нейрит (длинный цилиндрический отросток нервной клетки), по которому нервные импульсы идут от тела клетки (сомы) к иннервируемым органам и другим нервным клеткам. Тут по аксону идут информация музыкального произведения к мозгу, в начале они воспринимаются как сигнал, превращаясь информация, через дуги рефлекторной производятся, разрабатываются, анализируя передаются другая информация который готовит музыканта к следующему части произведения. Это сложный процесс. Музыкант не только видеть ноты, да и должен соображать, где находится эти ноты, сколько длительности она имеет, характер какой, темп и т.п. Поэтому ни каждый становится музыкантом.

Аксоны помогают нам производить связи, функция музыкальных информации которых заключается в трансмиссии сообщений между нервными клетками. Этот процесс называется синапс, что означает соединение аксонов посредством электрических зарядов со скоростью 0,001 секунды, это может происходить 500 раз за секунду, которые выполняют функцию музыканта при исполнении музыкальных произведений. Аксон – отросток передающий, через него импульс идет от тела клетки к другому нейрону. Дендриты – отростки принимающие, они собирают импульсы от других нейронов и передают телу (хотя в действительности некоторые дендриты проводят сигнал в двух направлениях, к телу и от тела нейрона). Дендриты принимают информацию как сигнал, но передают как информация. Когда пианист нажимает на клавиши они принимается как сигнал через дендриты и передаются они как информация. Аксоны передают информацию через терминал другим аксонам. Передающийся информация анализируется и обратная реакция происходит в центральной нервной клетке, разрабатывается и обрабатывается передаются, анализируя та информация, которая была собрано раньше. Это и есть знание. Аксон - длинный отросток нейрона. Приспособлен для проведения возбуждения и информации музыкального произведения, от тела нейрона (нейросомы) к другому нейрону.

Аксон – отросток передающий, через него импульс идет от тела клетки к другому нейрону. Дендриты – отростки принимающие, они собирают импульсы от других нейронов и передают телу (хотя в действительности некоторые дендриты проводят сигнал в двух направлениях, к телу и от тела нейрона). Что убивает нервные клетки: травмы, инсульты, гиподинамия, алкоголизм, перенапряжение, тревожность. Кстати, при хронической алкоголизации первыми будут погибать молодые клетки, те, что связаны с памятью и с торможением агрессии. Что помогает восстановить нервные клетки: спорт и полезное питание.

В слуховой коре полушарий мозга есть группа нервных клеток, которые отзываются преимущественно на музыку. Мы легко отличаем на слух музыку от речи или, например, от звука шагов. Ученые выяснили, что, независимо от врожденных способностей к восприятию звука, мозг музыкантов имеет более сильные структурные и функциональные связи, чем тех, кто не играет на музыкальных инструментах. Годы подготовки серьезно влияют на мозг музыкантов. Особенно выделяются люди, обладающие абсолютным слухом. Авторы метаанализа 104 научных работы выяснили, что прослушивание музыки уменьшает симптомы стресса — уровень кортизола снижается, пульс замедляется, а люди начинают чувствовать себя спокойнее. Причем в тех работах, где респондентам включали медленные композиции, положительные эффекты были более заметными. Исследования показывают, что у профессиональных музыкантов мозг развит лучше, чем у тех, кто никогда не занимался музыкой. Они не только прекрасно обрабатывают звуковую информацию, развивают логические навыки, сенсорику и моторику, но и обладают хорошей координацией и связями с теми, кто работает с ними или вокруг них.

Давно доказано, что занятия музыкой вовлекают в комплексную работу все отделы мозга, обеспечивая развитие сенсорных систем (слышу-вижу-ощущаю), познавательных, мотивационных; систем, ответственных за движение, память. Японские ученые установили, что, когда профессиональные музыканты слушают музыку, у них более активно работает левое полушарие мозга, тогда как у обычных людей - правое.

Выдающиеся музыкальные способности у детей обнаруживаются, как правило, до 7 лет. Подавляющее большинство таких детей в возрасте 6 – 7 лет уже обращают на себя общественное внимание. Так, Г. Караян начал учиться игре на фортепиано с 3 лет, а с 5 начал выступать в публичных концертах. И. Менухин начал выступать с 7 лет, а к 11 годам уже достиг мировой славы.

Музыкальные способности у одаренных детей наиболее часто проявляются между тремя и пятью годами, у так называемых способных (иначе – обладающих хорошими музыкальными данными) – обычно между пятью и семью годами. С. Рахманинов в 4 года играл с дедом на рояле в 4 руки сонаты Бетховена. Р. Штраус в 4 года начал учиться играть на фортепиано, а в 6 лет был уже автором увертюры для оркестра. Развитие одаренных детей носит быстрый, почти “взрывной” характер.

Биографическая статистика свидетельствует о том, что музыкально – одарённые дети характеризуются некоторыми общими чертами.

С самого раннего возраста они отличаются повышенным любопытством в отношении любых звучащих объектов, незнакомых тембров. В 2 – 3 года одаренные дети хорошо различают все мелодии, которые слышат, часто уже к двум годам точно интонируют (некоторые дети петь начинают раньше, чем говорить, и могут писать ноты раньше, чем буквы). Узнав названия нот, интервалов, аккордов, быстро их запоминают; рано и свободно читают ноты с листа, при этом воспроизведение нотного текста сразу отличается осмысленностью и выразительностью, естественной, не привитой взрослыми, нюансировкой при исполнении. Так же рано они определяются в своих музыкальных предпочтениях.

Яркая музыкальная одарённость у детей не обязательно связана с абсолютным слухом, хотя среди музыкально одарённых детей обладателей абсолютного слуха больше, чем среди “просто способных”. Однако во всех случаях у одарённого ребёнка вырабатывается индивидуализированное, тонкое и дифференцированное восприятие музыкального тона.

Одаренные дети способны с необычайной интенсивностью концентрироваться на музыкальных занятиях, исключая все другие, в том числе и общение с окружающими. Как отмечают исследователи, кажется, что они слышат и чувствуют в музыке нечто такое, чего не могут выразить словами и испытать каким – либо иным образом. И с этим, возможно, связана их сильная потребность в музыке и музыкальных занятиях.

Музыкально одарённые дети рано выделяются очень быстрым и прочным запоминанием музыки. В зрелом возрасте их память часто называют феноменальной. У них рано проявляется способность подбирать на инструменте по слуху (обычно без какого – либо специального обучения). К четырём годам такие ребята зачастую играют по слуху сразу двумя руками, то есть с гармонизацией. Для всех музыкально одарённых детей в возрасте около пяти лет характерно стремление воспроизводить на инструменте всё слышимое.

Сравнительно легко одарённые дети овладевают двигательной техникой, зачастую на нескольких музыкальных инструментах одновременно. С четырёх – пяти лет у них наблюдается склонность (иногда сильная потребность) импровизировать, точнее, фантазировать за инструментом. Вскоре, после начала систематических занятий музыкой, они пытаются сочинять и записывать свои сочинения. У таких детей наблюдается стремление делать то, что они считают нужным, не замечая общепринятых правил.

Некоторые из этих характеристик свидетельствуют о том, что музыкально одарённые дети в своём развитии опережают сверстников, по крайней мере, на 2 – 4 года. Другие, наоборот, фактически характерны (во всяком случае «по внешней форме») для сверстников с хорошими музыкальными данными, но существенно различаются” по качеству” (например, потребность фантазировать на инструменте). Биографы и исследователи часто отмечают, что музыкально одарённые дети обладают хорошими общими способностями: сравнительно рано они начинают читать, обладают хорошей памятью, сообразительностью. По внешней картине поведения эти дети живые, любознательные, открытые.

Исследователи отмечают, что к 9 – 10 годам музыкально одарённые дети (в отличие от других детей) начинают остро чувствовать различие между прекрасным и приятным, их эстетическое чувство рано обретает художественную зрелость, определяющую дальнейшее развитие музыкального дарования. Примерно к этому же возрасту, они отдают себе отчёт в недостатках или негативных сторонах собственного музыкального дарования.

Важно то, что музыкальные проявления одарённых детей самопроизвольны и практически никак не связаны со специальным обучением в отличие от их сверстников, для которых обучение выступает своего рода толчком и условием для раскрытия музыкальных способностей.

При всей личностно – психологической индивидуальности музыкально одарённых детей, среди них можно заметить некоторые характерологические типы, встречающиеся чаще других. Музыкально одарённые мальчики чаще обладают некоторыми чертами, которые принято считать типично “девичьими”: тонкой чувствительностью, мечтательностью, наивностью, сильной

эмоциональной зависимостью от матери (от отца, от педагога). Музыкально одарённые девочки, напротив, часто обладают чертами “мальчишескими”: они независимы, упрямы, честолюбивы, более склонны к самоутверждению. Одарённый ребёнок рано и зачастую остро начинает чувствовать, что он не такой как другие дети, что его жизнь имеет слишком много ограничений в силу ранней профессионализации обучения и даже просто из – за особенностей самой музыкальной деятельности: необходимо беречь руки, голос. Иногда это становится причиной страданий, ощущения одиночества и изолированности от сверстников.

И всё же у детей с ранним и ярким развитием способностей редко можно наблюдать неразрывную связь одарённости и личности.

Пение также оказывает положительное влияние на психику человека. Оно помогает снять стресс и напряжение, улучшает настроение и повышает уровень счастья. Во время пения вырабатываются эндорфины — гормоны радости и благополучия, которые способны снижать чувство боли и улучшать общее эмоциональное состояние.

### Литературы:

1. Богословская, Л. С. Пути морфологического прогресса нервных центров у высших позвоночных / Л. С. Богословская, Г. И. Поляков. - М.; Наука, 1981. - 159 с.
2. Васильев, Ю. Г. Цитология. Гистология. Эмбриология і учебник / Ю. Г. Васильев, Е. И. Трошин, В. В. Яглов. - СПб. і Изд-во «Лань», 2009. - 567 с.
3. Венгеров, П. Д. Экологические закономерности изменчивости и корреляции морфологических структур птиц. - Воронеж і Изд-во ВГУ, 2001. - 245 с.
4. Воронов, Л. Н. Морфофизиологические закономерности совершенствования головного мозга и других органов птиц / Л. Н. Воронов. - М. і МГУ, 2003. - 210 с.
5. Воронов, Л. Н. К проблеме классификации нейронов стриатума конечного мозга птиц / Л. Н. Воронов, В. В. Алексеев // Журнал высшей нервной деятельности. - 2001. - № 51 (4). - С. 477-483.
6. Хлебосолов, Е. И. Лекции по теории эволюции / Е. И. Хлебосолов. - М. і УЦ «Перспектива», 2004. - 264 с.
7. Савельев А. В. Моделирование логики самоорганизации активности нервного пучка эфаптическими взаимодействиями аксонного уровня // сб.: Моделирование неравновесных систем. — Институт вычислительного моделирования СО РАН, Красноярск, 2004. — С. 142-143.
8. Холиков К.Б. Музыка как релаксатор в работе мозга и ракурс ресурсов для решения музыкальных задач. Science and Education. 3 (3), 1026-1031.
9. Холиков К.Б. Музыка и психология человека. Вестник интегративной психологии, 440- 443
10. Холиков К.Б. Своеобразность психологического рекомендация в вузе по сфере музыкальной культуре. Science and Education 4 (4), 921-927
11. Холиков К.Б. Музыкальность и музыкальная память, произвольная перенос энергии к эффективному получению знания на занятиях музыки. Science and Education 4 (7), 296-303
12. Холиков К.Б. Ответ на систему восприятия музыки и психологическая состояния музыканта. Science and Education 4 (7), 289-295
13. Холиков К.Б. Фокус внимания и влияние кары височной доли в разучивании музыкального произведения. Science and Education 4 (7), 304-311
14. Холиков К.Б. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. Science and Education 4 (7), 142-153
15. Холиков К.Б. Аксоны и дендриты в развивающийся музыкально психологического мозга. Science and Education 4 (7), 159-167
16. Холиков К.Б. Сложная система мозга: в гармонии, не в тональности и не введении. Science and Education 4 (7), 206-213
17. Холиков К.Б. Характеристика психологического анализа музыкальной формы, измерение ракурса музыкального мозга. Science and Education 4 (7), 214-222
18. Холиков К.Б. Измерения непрерывного занятия и музыкальная нейронная активность обучения музыкального произведения. Science and Education 4 (7), 312-319

## TA'LIM MENEJMENTI

### XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY TUSHUNCHALARNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK TALQINI

*Matkarimov Akramjon Muxtorovich,*  
*„Oila va xotin-qizlar“ ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti,*  
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarida qo'llaniladigan tushunchalar, jumladan, „tayanch kompetensiya“ tushunchasining ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlili keltirib o'tilgan. Mazkur tushunchalarning milliy ta'lim tizimida qo'llashda ularning tub mohiyatini anglab yetgan holda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada „tayanch kompetensiyalar“ tushunchasiga turdosh bo'lgan boshqa tushunchalar ham ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** tayanch kompetensiya, davlat ta'lim standarti, kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro baholash tadqiqotlari, savodxonlik, asosiy ko'nikmalar, shaxsga qo'yilgan talablar, ijtimoiy omil*

### СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОСНОВНЫХ ПОНЯТИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

*В статье представлены понятия, используемые в международных оценочных исследованиях, в том числе в социально-педагогическом анализе «базовой компетентности». Важно использовать эти понятия в национальной системе образования, понимая их суть. В статье также анализируются другие понятия, аналогичные понятию «базовые компетенции», на основе научной литературы.*

***Ключевые слова:** базовая компетентность, государственный образовательный стандарт, компетентностный подход, международные оценочные исследования, грамотность, базовые навыки, требования к личности, социальный фактор.*

### SOCIO-PEDAGOGICAL INTERPRETATION OF THE BASIC CONCEPTS USED IN INTERNATIONAL EVALUATION RESEARCH

*The article presents concepts used in international assessment studies, including in the socio-pedagogical analysis of “basic competence”. It is important to use these concepts in the national education system, understanding their essence. The article also analyzes other concepts similar to the concept of “basic competencies”, based on scientific literature.*

***Keywords:** basic competence, state educational standard, competency-based approach, international assessment studies, literacy, basic skills, personality requirements, social factor.*

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limga oid islohotlar ko'proq tizimning innovatsion komponentlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishning texnologik modellarini yaratish va sohaga rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tatbiq etish yo'nalishlarida ko'zga tashlanmoqda. Muntazam ravishda o'tkazilib boriladigan xalqaro baholash tadqiqotlari milliy ta'lim tizimini innovatsion g'oyalar, yondashuvlar va ilg'or tajribalar bilan rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari milliy davlat ta'lim standartlarining kompetensiyaviy yondashuvli didaktik tamoyil asosida shakllanganligini taqozo etadi. Baholash tadqiqotlarida nazarda tutilgan kompetensiyaviy yondashuv ko'p jihatdan jamiyat va mehnat bozori talablari asosida «jamiyatning faol a'zolari», «bo'lg'usi mutaxassislar», «etuk hayotiy-amaliy kompetensiyalarga ega shaxs»ga nisbat beriladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mehnat bozorining inson resurslari va uning sifatiga bo'lgan talablarini doimiy monitoring qilib keladi. Mehnat bozori talablari ta'limning maqsadi sifatida shakllanib kelgan. Mehnat bozori bevosita ta'lim tizimiga kerakli mutaxassislariga «buyurtmachi» ekan, mehnat bozorida ta'lim tizimi mutaxassislariga bo'lgan talablarni shakllantirib kelgan. Ta'lim tizimi esa mehnat bozoriga moslashgan holda ta'lim standartlariga mazkur talablarni singdirib kelgan. O'quv jarayonining tashkil etilishi, o'quv jarayonining mazmuni, qo'llaniladigan metodlar va fanlar didaktikasi ham mehnat bozorida talab etilayotgan kompetensiyalarga moslashtirib kelinmoqda.

**Asosiy qism.** Tayanch kompetentsiyalar maktabda o‘quv jarayonida o‘rgatiladi, lekin ular o‘quv rejasi bilan bog‘liq emas va ma‘lum fanlar doirasida chegaralangan bo‘lmaydi. Tayanch kompetentsiyalar bilimning mazmuni va tuzilishi, uning amaliyotda, hayotda qo‘llay olish, o‘quvchilarning ma‘lum jarayonlarda qo‘llashi va foydalana olishiga yo‘naltirilgan. Shuning uchun tadqiqotdagi topshiriqlar bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lmay, balki qo‘yilgan topshiriqlarga o‘z fikrlarini, tushuntirishlari va xulosalarini yozish imkoniyatini beradi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, «kompetentsiya» va «tayanch kompetentsiya» atamalarining ta‘lim nuqtayi nazaridan tahlil qilish shu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy-metodik ishlarning samaradorligiga katta hissa qo‘shadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili „tayanch kompetentsiyalar“ murakkab tushuncha ega ekanligi va ma‘no va mazmun jihatidan bir qator tushunchalar bilan uzviq bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

AQSHning "Partnership for 21st Century Skills" (P21) tashkiloti "K-12 (Kirdergarden to Grade 12 - bog'chadan 12-sinfgacha) ta'limining markazida XXI asr uchun tayyor bo'lish maqsadi yotishi kerak[9]", degan g'oyani ilgari suradi va ularning fikricha, XXI asr uchun muhim bo'lgan asosiy ko'nikmalar (7C) ro'yxati quyidagicha:

- tanqidiy fikrlash va muammoni yechish (critical thinking and problem solving);
- ijodkorlik va innovatsiya (creativity and innovation);
- madaniyatlararo tushunish (cross-cultural understanding);
- communications, muloqot, axborot va media savodxonligi (information, and media literacy);
- kompyuter va AKT savodxonligi (computing and ICT literacy);
- career and karyera va o'rganishda o'ziga ishonish (learning self-reliance).

UNICEF tashkiloti 10 ta muhim ("core") ko'nikmani ajratib, "hayotiy ko'nikmalar" ("life skills") deb atagan[10]. "Global Partnership for Education" (GPE) tashkiloti bu ko'nikmalarni "21-asr ko'nikmalari[11]" deb ataydi va quyidagi 4 ko'nikmani kiritadi: kreativ fikrlash, analitik ko'nikma, muammoni yechish va samarali koordinatsiya. "Ta'limiy islohotlar lug'ati" ham "21-asr ko'nikmalari" degan terminni ishlatadi va ularni 13 kategoriyaga birlashtiradi[12]. Avstraliya ta'lim standartlari ularni "umumiy qobiliyatlar" ("general capabilities") deb ataydi[13] va 7 kategoriyaga birlashtiradi. Finlyandiya milliy o'quv dasturida ular "transversal competencies[14]" deb atalgan. Respublika ta'lim markazi UNICEF bilan hamkorlikda yaratgan Milliy o'quv dasturiga bunday ko'nikmalar "tayanch kompetensiyalar" nomi bilan kiritilgan edi. Milliy o'quv dasturining oldingi standartdan farqi — XXI asrda o'quvchi muvaffaqiyatga erishishi uchun kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilingani. Bular — tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish va faol fuqarolik"[15].

Tadqiqotchilarning fikricha [7; 25] turli adabiyotlarda turlicha nomlangan bu ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy asoslari konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm ta'limiy nazariyalariga, yaqin rivojlanish zonasi va sxemalar nazariyasiga borib taqaladi. Bu nazariyalarning hammasi esa XX asrda yaratilgan.

Mashhur faylasuf Senekaning «Non scholae, sed vitae discimus»[3;8] (Maktab uchun emas, hayot uchun o'qish kerak) jumlasini maktab ta'limining asosiy maqsadini ko'rsatib o'tgan. Hayot uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchining kelgusi hayotida zarur bo'ladigan bilimlar, ko'nikmalarni shakllantirish maktablar oldida turgan vazifadir. Nemis olimi, dunyodagi ko'plab maktab ta'limi tizimining tanqidchisi R.D.Prext o'z ilmiy asarida maktabda o'rganilayotgan bilimlarning uzoqni o'ylab, mukammal berilishini shunday fikrlari bilan ifodalab o'tgan: «2020-yilda maktabda o'quvchiga berilayotgan bilimingiz, 2070-yilda nafaqaga chiqadigan odamga berilayotganini tasavvur qiling. Balki, o'quvchi maktabdan so'ng to'g'ridan-to'g'ri mehnat bozoriga chiqishi mumkin. Maktab uzoq muddat yodda qoladigan, turli kundalik muammolarni hal qilishda, o'z hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishga etarli bilimlarni bera olyaptimi?»[5;437]. Shu bilan birga, R.D.Prext hozirgi maktablar o'quvchining kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantira olmayotgani, maktab tizimi ta'lim standartlari bilan cheklanib qolishini tanqid ostiga olgan. Kompetensiyaviy yondashuv esa ta'lim tizimidagi ko'plab muammolarni echishi mumkin bo'lgan didaktik tamoyil bo'lib amaliyotga tatbiq qilinib kelinmoqda.

Maktab ta'limi o'rta maxsus va oliy ta'limdan oldin kelishi iqtisodiyot talablariga maktab davridan e'tibor qaratishi, o'quvchilarning kasbiy muvaffaqiyatga erishishini ta'minlanishi kerak. Digitalizatsiya (axborotni raqamli shaklga o'tkazish) orqali ko'pchilik «iste'molchilar»ga aylanib bormoqda va o'z navbatida bilim va ko'nikmaga bo'lgan qiziqish kamayib bormoqda. U o'quvchilarning hayotda o'z yo'nalishini topishi aynan maktab ta'limining hozirgi davrdagi asosiy vazifasi bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan maktablarning vazifasi bilim berishgina emas, balki o'quvchilardan digital texnologiyalar yordamida mustaqil ma'lumot qidirish va ularni taqdimot qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Jamiyatdagi bo'layotgan o'zgarishlar, muammolarni o'quv jarayonida topshiriqlar sifatida joriy qilinishi o'quvchilarning qiziqishini mustahkamlaydi. O'quv guruhlarida rasmiy holatda o'zgarishlar va muammolarni turli metodlar

bilan hal qilish aynan maktabning vazifasidir. O‘qituvchi esa moderator vazifasini bajaradi va etarli ma’lumotlar, topshiriqlar bilan ta’minlab boradi.

Jamiyatda bilimlarning eskirishi, ularning foydasi yo‘qligi haqida fikrlar mavjud. Bu o‘quvchilarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib boradi. Barcha bilimlar eskirmaydi, aksincha yangi bilimlar uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Maktablarda kompetentsiyaviy yondashuv esa bilim berishni inkor qilmagan holda, amaliyotga qo‘llash, foydalanishga yo‘naltirilgan kompetentsiyalarga yo‘naltirishni taqozo etadi. Bu yondashuvning muammoli jihati shundaki, o‘quv mashg‘ulotida ko‘proq metodik jihatiga e’tibor qaratiladi, bu esa mazmundan uzoqlashishga olib keladi. O‘quvchilarning o‘quv materiali, darsliklarga e’tibori nisbatan kamayadi. Kompetentsiyaviy yondashuvli kontsept bilan ishlayotganda hozirgi davr o‘qituvchisidan metodika va mazmun ustida ko‘proq ishlash talab etiladi. „Axborot jamiyatidagi ma’lumotlar oqimining kattaligi o‘quvchilarni jalb eta oladigan, o‘quv maqsadida foydalaniladigan materiallar topishda professional mahorat talab etiladi“ [8;120].

O‘quv jarayonidagi muammolarning aksariyati pedagogning salohiyati bilan bog‘liq. PISA baholash dasturida doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatga erishgan davlatlardan Estoniyada yuqori natijalarga erishganlik o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ularga yaratilgan «mustaqil faoliyat va qaror qabul qilish» erkinligi bilan izohlanadi. Moliyaviy jihatdan Evropaning bir qator davlatlaridan kam ta’minlangan bo‘lsada, o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik faoliyatga yondashuvi o‘quvchilarining mukammal bilim olish va xalqaro darajadagi baholash tadqiqotlarida yuqori natijalar ko‘rsatishi yaqqol misol bo‘la oladi. O‘rganish va tahlillar tezkor rivojlanayotgan ta’lim jarayonlarining talablaridan zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi orqada qolayotganini ko‘rsatadi. Xalqaro baholash tadqiqotlarida o‘z navbatida pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim jihati sifatida bo‘lg‘usi talabalarga «real hayotdagi jarayonlarni pedagogik nuqtai nazardan baholovchi va bu jarayonlarni o‘quv jarayoniga didaktik jihatdan to‘g‘ri singdira oladigan mutaxassislar» bo‘lishligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu esa mavjud pedagogik ta’limni rivojlantirish va uzluksiz ta’lim jarayonida pedagoglar salohiyatini oshirish muammolarining dolzarbligini ko‘rsatadi. Pedagoglarning salohiyati shu nuqtai nazardan tayanch kompetentsiyalarning shakllanishida hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro baholash tadqiqotlari tayanch kompetentsiyalardan tashqari, bir qator mustaqil boshqariladigan ta’limga oid savollarni ham dastur ishtirokchilariga havola etadi. O‘qish, matematika va tabiiy fanlarga oid tayanch kompetentsiyalar o‘quv jarayoniga bog‘liq holda shakllanadi. O‘quv jarayoni tayanch kompetentsiyalarning shakllanishi uchun etarli shart-sharoitni yaratib bermaydi. O‘quvchilarning mustaqil ta’limsiz tayanch kompetentsiyalarning to‘liq shakllanishi mumkin emas. O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish, qo‘llab-quvvatlash ham tayanch kompetentsiyalarning shakllanishining pedagogik shart-sharoitlari sifatida qaraladi. Xalqaro baholash tadqiqotlarikontsepsiyasida mustaqil ta’limga quyidagicha tavsif berilgan: «O‘quvchilar tayanch kompetentsiyalarini shakllantirishda o‘rganilayotgan bilimlarni anglab etishi, o‘zlari uchun mos o‘quv strategiyasi va usullari tanlab olishi va o‘ylash jarayoni mustaqil boshqariladigan ta’lim deyiladi. Bunda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini maqsadli, faol va mustaqil egallashi va qo‘llashi tushuniladi» [1; 91]. Shundan kelib chiqqan holda, PISA xalqaro baholash dasturining markazida o‘quvchilarning ma’lumotlarni tahlil qilishi, motivatsional preferentsiyalari va maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z maqsadlarini nazorat qila olishi, o‘zini o‘zi baholay olishi, ijtimoiy munosabatlardagi hamkorlikda ta’lim strategiyalari turadi. Motivatsional preferentsiyalar oldinga undovchi, rag‘batlantiruvchi ustuvor omillardir.

Ta’lim madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelgan ekan, o‘quvchining tayanch kompetentsiyalari maktabdan tashqari vaqtda ham jamiyatdagi ko‘plab sohalarga bog‘liq ravishda shakllanib, rivojlanib boradi. Oilada ta’limga munosabatlarning shakllanganligi, akademik resurslarning mavjudligi, ta’lim olishga shart-sharoitlar va ota-onaning ta’lim olishga yuqori prioritetdagi qadriyat sifatida qarashi muhim mezonlar hisoblanadi.

O‘quvchilarning «o‘rganishni o‘rganish» bo‘yicha malakalari mustaqil ta’lim orqali asosiy tayanch kompetentsiyalarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning turli o‘rganish strategiyalarini mukammal bilishi jamiyatda o‘zining mustaqil o‘rganish jarayonini tashkil etishida katta yordam beradi. Jumladan, turli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, turli tadbirlar, ko‘rgazmalar, marosimlar, tashriflar orqali ham axborotlar bilan ishlash o‘quvchi kompetentsiyasini shakllantirib boradi. Mukammal o‘rganish strategiyalarini o‘zlashtirgan o‘quvchi jamiyatdagi ma’lumotlar oqimidan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni saralab olishi va maqsadli, unumli foydalanishi, maktabdan tashqarida turli soha vakillari bilan ma’lum soha yoki mavzuga oid suhbatlar qurishi va shu orqali kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantira olishi, jamiyatda mahsulotlar va xizmatlar «iste’molchisi» sifatida o‘z huquq va burchlarini bilishi esa ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini shakllanishiga xizmat qiladi. O‘quvchining turli sayohatlar davrida, turli millat vakillari bilan barcha e’tirof etgan me’yorlarni qo‘llagan holda suhbatlasha

olishi va milliy hamda umummadaniy, shuningdek, kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Albatta, barcha tayanch kompetentsiyalarning shakllanishida maktabdagi o‘quv jarayoni mazmuniga yuqorida ko‘rsatilgan holatlar – jamiyatdagi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi turli holatlar, vaziyatlar, me‘yorlar, qadriyatlar turli topshiriqlar sifatida singdirilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

PISA xalqaro baholash dasturida «literacy» atamasi ishlatilgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi «savodxonlik» atamasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur atama o‘quvchining jamiyat hayotiga tayyorgarligini belgilab beruvchi tayanch kompetentsiyalari majmuasini anglatadi [6;266]. «Savodxonlik» atamasi ma‘lum bir fan doirasida shakllangan kompetentsiyalar emas, o‘quvchining jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, kasbiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, shaxsiy rivojlanish ko‘nikmasiga egaligi, jamiyatga, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotga, texnika, texnologiyaga nisbatan munosib munosabatini shakllanganligi, «faol fuqaro», «yuqori saviyali iste‘molchi», «atrof-muhit va resurslardan oqilona foydalanuvchi» kabi vazifalarni egallash uchun zaruriy bo‘lgan kompetentsiyalar nazarda tutilgan.

1-jadval.

**Xalqaro baholash tadqiqotlari kontsepsiyasida keltirilgan jarayonlar va shaxsga qo‘yilgan talablar**

Jarayonlar	Shaxsga qo‘yilgan zaruriy talablar
Globalashuv	Insoniyat oldidagi burch hissining shakllanishi
Siyosiy	Faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi
Iqtisodiy	Oqilona munosabati shakllangan iste‘molchi bo‘lishlilik
Ijtimoiy	Ijtimoiy ongi rivojlangan faol va rivojlangan shaxs pozitsiyasini shakllanishi
Texnik, texnologik	Yangilik, qulaylikka intiluvchanlik
Atrof-muhitga bog‘liq	Resurslardan oqilona foydalanish va faol targ‘ibot qilish

Xalqaro baholash tadqiqotlarida ayni bir fanga doir bilimlardan tashqari, tayanch kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi omillar ham hisobga olinadi. Misol tariqasida, PISA xalqaro baholash tadqiqoti topshiriqlarida 4 ta asosiy omillarga e‘tibor qaratiladi. Bu omillar quyidagilar:

Shaxsiy omil - bunday mazmundagi topshiriqlar o‘quvchining turmush hayoti bilan bog‘langan ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Bunday topshiriqlarni tuzishda o‘quvchining ijtimoiy muhitda duch keladigan kundalik mashg‘ulotlaridagi vaziyatlar e‘tiborga olinadi.

Kasbiy omil - bunday mazmundagi topshiriqlar o‘quvchining oiladagi yaqinlari (ota-ona va yaqin qarindoshlar) kasbiy faoliyatidan, ro‘zg‘ordagi yumushlardan, savdo va pul munosabatlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy omil – bunday topshiriqlar jamiyat hayoti, mahalla, urf odat va qadriyatlarga oid muammolar va vaziyatlardan paydo bo‘ladi.

Ilmiy omil – bunday topshiriqlar dunyodagi fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq, tabiatda sodir bo‘ladigan jarayonlar, nazariy xarakterga ega bo‘lgan muammolardan iborat bo‘ladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni ilmiy izlanuvchanlik va evristik xarakterlik qobiliyatlarini shakllantiradi[4].

**Xulosa.** Xalqaro baholash tadqiqotlari kontsepsiyasiga muvofiq o‘quvchilarda tayanch kompetentsiyalar shakllanishining eng muhim shart-sharoiti sifatida davlat ta‘lim standartlarida kompetentsiyaviy yondashuv asosida shakllanganligidir. Davlat ta‘lim standartlarining kompetentsiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqilishi maktab ta‘limi tizimining barcha ishtirokchilariga yangi vazifalarni yuklaydi. Maktab tizimining ishtirokchilari sifatida o‘qituvchilar, maktab ma‘muriyati, maktab o‘quvchilari, ota-onalar shuningdek, maktab ta‘limiga mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari kiradi.

Kompetentsiyaviy yondashuvni o‘zida aks ettirgan davlat ta‘lim standartlari, shu hujjat asosida tashkil etiladigan jarayoni va baholash tizimi ota-onalarga ham tushuntirilishi lozim. Farzandlarini uy vazifalarini tayyorlashda va ularning maktabdan tashqari ta‘lim olish jarayonida ota-onalar ishtirokini hisobga olgan holda kompetentsiyaviy yondashuvli ta‘lim standartlarining mazmun-mohiyati ularga yetarli darajada tushuntirilishi darkor. Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarida ham kompetentsiyaviy yondashuvli o‘quv kontsepsiyalari o‘qitilishi va amaliyot bilan bog‘liq ravishda tashkil etilishi lozim. Bu o‘z navbatida pedagogik innovatsiyalarni taqozo etadi. Ta‘limning mazmun-mohiyati, belgilari, imkoniyatlari, vazifalari, taraqqiyot bosqichlari, tamoyillarining rivojlanish mexanizmlari va ulardan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta‘lim-tarbiya tizimi sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish, shu orqali yuqori samaradorlikka erishish ushbu tizimning maqsadini tashkil qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Jugendlichen- Nationaler Bericht der Erhebung // PISA 2000. – p. 91.
2. Creativity, Collaborative) Learning Model on Students’ Learning Outcomes. International Journal of Instruction, 14(3), 873-892. <https://doi.org/10.29333/iji.2021.14351a>
3. Lucius Annaeus Seneca, <http://www.seneca-der-juengere.de/>.-p.8-16.
4. PISA–2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meeting of the PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.
5. Precht R. D. „Anna, die Schule und der liebe Gott” // Goldmann Verlag, 2014. – p.437.
6. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. Grundbildung im internationalen Vergleich // Waxmann 2019 Münster, New York. – p. 266.
7. Supena, I., Darmuki, A., & Hariyadi, A. (2021). The Influence of 4C (Constructive, Critical, Creativity, Collaborative) Learning Model on Students’ Learning Outcomes. International Journal of Instruction, 14(3), 873-892. <https://doi.org/10.29333/iji.2021.14351a>, 2021.- p. 25
8. Zeitschrift „BEGEGNUNG – Deutsche schulische Arbeit im Ausland” // 1-2018. -p.120.



## MA’NAVIYAT VA TARBIYA

### SHARQ DONISHMANDLARINING AYRIM AXLOQIY-MA’RIFIY QARASHLARI: XULQ-ATVOR, RAG’BAT-TANBEH, TA’LIM-TARBIYA

*Asadov To’lqin Hamroyevich,  
Buxoro davlat universiteti, o’zbek tilshunosligi va jurnalistika  
kafedrası dotsenti, f.f.n.  
Rizoqulov Zavqiddin Nuriddinovich,  
Osiyo xalqaro universiteti I kurs magistranti*

*Mazkur moqolada axloqiy-ma’rifiy qarashlar, jumladan, xulq-atvor so’zi va uning ma’no ifodalari, uning yondosh so’zlarga munosabati, shuningdek, rag’bat-tanbeh, uning umumiy va matniy ma’no ifodalari yoritilgan. Sharq donishmandlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq borasida aytgan fikr-mulohazalari tahlilga tortilgan, o’rni-o’rni bilan ayrim mulohazalar bildirilgan.*

***Kalit so’zlar:** odob-axloq mezonlari, xulq, xulq-atvor, adab, fazilat, illat, ilm, hikmat, ta’lim-tarbiya, rag’bat, tanbeh, insoniy fazilatlar.*

### НЕКОТОРЫЕ ПРАВСТВЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МУДРЕЦОВ: ПОВЕДЕНИЕ, СТИМУЛ-УПРЕК, ВОСПИТАНИЕ-ВОСПИТАНИЕ

*В данной статье освещаются этико-просветительские взгляды, в том числе на слово поведение и его смысловые выражения, его отношение к близким словам, а также на стимул-порицание, его общие и текстовые смысловые выражения. Мнения восточных мудрецов по вопросам воспитания, нравственности были подвергнуты анализу, местами высказывались некоторые соображения.*

***Ключевые слова:** этические критерии, манеры, поведение, манеры, добродетель, пороки, наука, мудрость, воспитание, поощрение, выговор, человеческие качества.*

### SOME MORAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF EASTERN SAGES: BEHAVIOR, INCENTIVE-REPROACH, EDUCATION

*In this article, moral and educational views are covered, including the word behavior and its expressions of meaning, its attitude to the adjacent words, as well as incentive-reprimand, its general and textual expressions of meaning. The views of eastern sages on education and etiquette were subject to analysis, and some comments were made on the role.*

***Keywords:** criteria of etiquette, behavior, decency, Virtue, Vice, science, Wisdom, Education, Incentive, reproach, human qualities.*

**Kirish.** Sharq xalqlari uchun odob-axloq har bir zamon va har bir makonda o’ta dolzarb masalalardan biri bo’lib kelgan. Turli millat va xalqlar singari ota-bobolarimiz ham yosh avlodni hayotga tayyorlashda o’z tajriba va bilimlariga, o’zlariga mos urf-odat, an’analarga tayanishgan. Xalqimiz o’z davrida muayyan bir ta’lim-tarbiya mezonlari, o’quv adabiyotlari yaratilib ulgurilmagan bir davrda yoshlarni insoniy fazilatlarga – odob-axloq, mehnatsevarlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, mehribonlik, do’stlik, mehr-shafqat, oliyjanoblik, aqi-idrok, sadoqat va vafoga o’rgatishga bosh-qosh bo’lishgan. Bu kabi fazilatlar insoniylikning bosh belgisi bo’lib, Sharq xalqlarida juda qadimdan shakllangan va rivoj topgan[1,3]. Ularning ta’lim-tarbiya, adab, xuq-atvor borasidagi fikrlari o’z davrida ham, bugungi kunda ham inson hayoti, turmush tarzining ajralmas bir qismi bo’lganligi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi, deya olamiz. Donishmandlarning nodir, benazir pand-nasihatlari bugungi kun o’quvchi-yoshlari, ularning kelajagi, hayot yo’li uchun muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda.

Juda qadimgi ajdodlarimiz fikr-mulohazalari, haqiqatlari jamlangan “Avesto” eng qadimgi, noyob bilimlar xazinasi sanalsa, Mahmud Koshg’ariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mahmud Koshg’ariy, Abu Homid G’azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Jaloliddin Rumi, Abulqosim Firdavsiy, Mahmud az-Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur,

Bedil va boshqa allomalarimizning ilmiy-nazariy asarlari, ibratlari, teran ma'noli hikmatli so'zlarida hayotiy haqiqatlar, purma'no nasihatlar, hayot falsafasi jam bo'lganligiga amin bo'lamiz.

**Asosiy qism.** “O'zbek tilining izohli lug'ati” [9] da xulq-atvor so'zi doirasida “xulq”, “atvor”, “xulq-atvor”, “fe'l-atvor” kabilar qo'llanishi kuzatiladi. Mazkur so'zlar arab tilida o'zlashga bo'lib, izohli lug'atda xulq so'ziga “kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyi, fe'l-xarakter”, atvor so'ziga “yurish-turish, qiliq, fe'l, xatti-harakat”, xulq-atvor juft shakldagi so'zga “fe'l-atvor, xarakter”, fe'l-atvor so'ziga esa “shaxsning atrof-muhitga va o'z-o'ziga munosabatida namoyon bo'ladigan, o'zigagina xos xususiyat, xarakter” tarzidagi izohlar beriladi. Mazkur ma'no-ifodalar o'zbek millatiga xos har bir kishi tafakkurida umumlashma voqelik tarzida namoyon bo'ladi, aslida. Zero, xulq-atvor so'zining pedagogik-psixologik yondashuv asosida yuzaga chiqarish mumkin bo'lgan ma'no nozikliklari ham borki, bu tadqiqotchidan alohida kuzatishni talab etadi. Atvor so'zi xulq so'zidan ayro holda, ya'ni yakka holda kam qo'llanib, odatda, bu so'z o'rnida axloq so'zi qo'llanadi. Xulq, axloq, odob (adab) so'zlari o'zaro ma'nodosh[3,215]. “Axloq” xulq so'zining arab tilidagi ko'plik shakli sanaladi.

Umuman, xulq-atvor so'zi lug'aviy ma'nosiga ko'ra pedagogik birlik sifatida shaxs tabiatiga xos ijobiy yoki salbiy xislatni anglatmaydi, betaraf ma'no ifodaga ega. Bu so'z odamzodning holatidan, undagi odob-axloq, tarbiyadan kelib chiqib quyidagicha tasnif va tavsif etiladi: a) ijobiy xarakterdagi xulq-atvor; b) salbiy xarakterdagi xulq-atvor. Bu umumiy pedagogikada, ma'naviy-ma'rifiy manbalarda “fazilat” va “illat” atamaları ostida ham talqin etiladi. “Fazilat” ijobiy xislat bo'lib, yaxshi xulq, xususiyat sanalsa, “illat” me'yoriylikni buzuvchi salbiy hodisa, qusur, kamchilik hisoblanadi [9,194].

Bilamizki, xalqimiz teran ma'noli hikmatli so'zlar, ibratli hikoyat va rivoyatlarga moyilligi bilan ajralib turadi. Ular har bir hikmatni bir tilloga teng ko'rishgan. Rivoyat qilishlaricha, Oллоh taolo Luqmoni hakimdan: “Payg'ambarlik beraymi yoki hikmatmi?”, – deb so'rganida Luqmoni hakim hikmatga esh kishining o'zi to'g'ri, so'zi ma'noli, ishi puxta bo'ladi deb hikmatni tanlagan ekan. Shundan keyin Xudovandi Karim unga shunchalik ko'p hikmat ato etiptiki, barcha payg'ambarlar ham uning pand-nasihatlariga muhtoj bo'libdi[10, 3].

Pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ota-bobolarimiz asarlarining qat-qatiga singib, ularning asl mag'zini tashkil qilishi ayni haqiqat. Bu qatordan “Kalila va Dimna”, “To'tinoma”, “Ming bir kecha”, “Chor darvesh”, “Qutadg'u bilig”, “Qobusnoma”, “Al-adab al-mufrad”, “Mukoshafatul qulub” (“Qalblar kashfiyoti”) “Guliston”, “Boston”, “Bahoriston”, “Zarbulmasal”, “Ilohiynoma”, “Masnaviyi ma'naviy”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa bir qancha asarlar o'rin oladi.

Donishmand xalqimiz bola tarbiyasida kezi kelganda nasihat qilish, tushuntirish, rag'batlantirish, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, maqtash, taqiqlash, qo'rqitish, po'pisa qilish kabi usullardan o'rinli foydalanishgan. Bunda yoshi ulug'lar o'quvchi-yoshlarga ibrat bo'lishi alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rni kelganda kattalar jam bo'lishib, bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o'tkazishgan, bolaning noto'g'ri xatti-harakati ko'rsatilib, ota-onasiga tegishli maslahatlar berishib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishgan. Tarbiyada rag'batlantirish, taqdirlash, tanbeh berish, man etish usullaridan keng foydalanilgan[8,11].

Rag'batlantirish so'zi lug'atlarda “insonning his-tuyg'ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta'sir” tarzida izohlanadi. Psixologiya atamasi sifatida bolaning xulq-atvori, qilgan yaxshi amalini ma'qullash, bolani yaxshi ishi uchun ruhlantrish va h.k.lar rag'bat sanaladi.

Taqdirlash ham ta'lim-tarbiyada o'ta muhim. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da taqdirlamoq so'zi “munosib baho, mukofot va shu kabilar bilan nishonlamoq, qadriga yetmoq, qadrini qayd etmoq” [9, 36] deb izohlanadi. Biroq pedagogika atamasi sifatida mazkur so'zning ma'no imkoniyati keng. Aslida o'quvchi-yoshlarning ijobiy xatti-harakatini ikki asosga ko'ra taqdirlash mumkin. Birinchidan, ularga nisbatan og'zaki tarzda, ya'ni “yasha”, “barakalla”, “baraka top”, “kam bo'lma”, “otangga rahmat”, “bor bo'l”, “rahmat, bolam” kabi so'z va jummalarni ishlatishi mumkin. Bu kabi “sehrli so'zlar” o'quvchini, albatta, ruhlantradi, katta-katta muammolarni hal qilishga chorlaydi. So'zlovchi va so'zga bo'lgan mehrini oshiradi. Ushbu so'zlarni nutqida qo'llashni odat qilgan o'qituvchi-murabbiylar yosh avlodni boshqarishda qiynalmaydi, o'z ornida, hurmat va qadr topadi.

Taqdirlash samimiy munosabatlarda ham, ya'ni bolaning boshini silab qo'yish, muloyim so'zlash, hatto mehr bilan boqishda ham bo'y ko'rsatishi mumkin. Ikkinchidan, turli maqtov yorliqlar, o'quv qurollari (sovg'alar) taqdim etishda ham taqdirlash amalga oshiriladi.

Tanbeh va man etish o'quvchi-yoshlarning salbiy xatti-harakatiga ko'ra qo'llangan. O'zbek xalqi pedagogikasida man etish usuli uyatli so'zlar aytgan, so'kingan, mayxorlik, giyohvandlik yo'lga kirgan, qimor o'ynagan, xullas, yuqori cho'qqida turuvchi illatlarni kasb etgan o'smirlarga nisbatan qo'llangan. Kattalar bolaning bu illatlardan xoli bo'lishi uchun birgalikda sa'y-harakat qilishgan va bunga erishgan[8,12].

Bilamizki, insoniy tuyg'ular, yaxshi-yomon xarakterlar individda ona qornidayoq shakllana boshlaydi. Bu borada keng va chuqur fanniy qarashlar mavjud [6;8]. Xulq-atvorning tadrijiy rivoji esa bola dunyoga kelgach o'z oilasi, mahallasi, ta-lim-tarbiya muassasalari bilan bog'liq holda kechadi. Fazilat va illatning xulq-atvor belgisi sifatidagi u yoki bu darajadagi ko'rinishi bevosita va bilvosita oila, mahalla, o'quv muassasasi bilan uyg'un bog'liq.

Insoniy tuyg'ular – yaxshi va yomon xulq-atvorlar, ularning ko'rinishlari, ijobiy va salbiy jihatlari haqida Sharq mutafakkirlarining ko'pdan ko'p o'g'itlari borki, ular hech bir davrda eskirmaydi. Masalan, eng qadimgi ma'rifiy qarashlar jamlangan “Avesto” asari zardushtiylik [11] dinining muqaddas kitobi bo'lib, unda axloq me'yorlari hayot mezoni deb qaraladi va bashariyatga *yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal* olamni ham, odamni ham bezaydi, deb tushuntiriladi. “Avesto”da inson *fikri, so'zi va ishi* bilan go'zaldir, degan g'oya asosiy shior bo'lib gavdalanadi. Zardusht nazariyasida “so'z – yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir”. “Avesto” xulq-atvorlar yoritib berilgan manba hamdir. Zardushtiylik ta'limoti bo'yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchanlik va bunyodkorligi ezgu xulq-atvor bo'lib, barcha nopok kuchlarni quvadi, faqat mehnat, oliyanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko'paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat, tinchlik, davlatga erishish mumkin.

O'rta asrlarda Sharqda o'nlab buyuk donishmandlar yashab, ijod qildi. Ularning mehnati evaziga yuzlab kitoblar dunyo yuzini ko'rdi. Shulardan biri – Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridir. Asar lug'at deb atalsa-da, lekin unda o'sha davrdagi va ungacha bo'lgan ilmiy-adabiy parchalar, xalq ijodi, maqollar, hikmatli so'zlardan ibratlar keltirilgan. Asarda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, bir so'z bilan aytganda, xulq-atvoriga oid fikrlar ham bor. Ular yoshlarga nasihat-o'git tarzida berilgan. Shunday parchalarning biri: “Ilm-hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik qilma, hech narsa o'rganmasdan o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi – imtihon vaqtida uyaladi, achinadi”[5,253]. Adib yoshlarni bilim, hunar egallash uchun sa'y-harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Asarning yana bir o'rnida kelajak avlodga qarata: “Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o'rganib, amalga oshir... O'g'lim, o'git-kengashimni qulog'ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo'lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli odam nasihatni qabul qiladi” [5,255].

Hikmatlardan ko'rinadiki, M.Koshg'ariy yosh avlodning asosiy burchi – ilm olish va hunar o'rganish deb biladi. Donishmand bobomiz yoshlarga murojaat qilib: “O'g'lim, men sening uchun odob ham nasihat qoldiraman, olim bir odam topsang, shunga tomon qara, har kuni yoniga bor, uning bilimlarini o'rgan, kattalikni qo'yg'in, ...odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasiga odob, ilm tarqat”, – deya ta'kid etadi[5,255].

Abu Nasr al-Farobiy (879-950) o'rta asr mashhur mutafakkiri sanaladi. Mutafakkir so'zi barcha olimlarga nisbatan ham qo'llanavermaydi. Mazkur so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi” tarzida izohlanadi. Yana shuni aytish mumkinki, mutafakkir so'zi barcha ilmlar, fanlar bo'yicha fikr yurita oladigan, fikrlash qobiliyati yuqori, qomusiy bilim egasiga nisbatan qo'llanadi.

Farobiy o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, bir so'z bilan aytganda, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozonib, “Aql haqidagi risola“, “Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak?”, “Falsafa manbalari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” kabi 160 dan ortiq asar yaratdi[8,43].

Farobiy “Ideal shahar aholisining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli risolalarida insonning ikki tomoni, ya'ni uning aql-ongi va axloqiga alohida ahamiyat beradi. Ta'lim-tarbiya kishini ham aqlan, ham axloqan yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi jamiyat talablariga to'la javob bera oladigan komil inson tayyorlashdir. Buning uchun u yoshlarini ham jisman, ham ma'nan yetuk bo'lib yetishishi uchun tarbiya turlari sifatida jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiyaga to'xtaladi. U yozadi: Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning dunyoviy qarashlari, hayotga munosabati, hayot falsafasi asosida amalga oshiriladi[7,66]. Olim fikriga ko'ra, yoshlarga tarbiya berishning ikki usuli mavjud. Birinchisi – san'atni (fanlarni) o'z rag'batlari bilan o'rganadiganlarga nisbatan ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy, yoshlarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul.

Farobiy “Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak” nomli asarida yozadi: “...Muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdga muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agar shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan so'vish, mensimaslik paydo bo'ladi”. Farobiy tarbiyani ikkiga bo'lib, ya'ni aqliy va axloqiy tarbiya tarzida tavsif va tasnif etadi.

**Aqliy tarbiya.** Olim aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Bilimlarni u avvalo, ikkiga ajratadi: biri mulohazasiz, isbot-dalilsiz ma'lum bilimlar(fahmiy bilim), ikkinchisi, isbot dalilni, mantiqiy tafakkurni talab etuvchi bilim (idrokiy bilim). Farobiy ta'kidlashicha, birinchi tur bilimlari o'quvchilar tomonida osonlik

bilan o'zlashtirilsa, ikkinchi tur bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchidan ma'lum aqliy malaka, idrok etish, fikrlashni talab etadi. Bu jarayonda o'qituvchidan mohirlik, san'at talab etiladi.

Farobiy asarlarida aqliy tarbiya, ilmning inson kamolotida tutgan o'rni borasida asosli fikrlarni ilgari suradi, misollar bilan dalillaydi.

Axloqiy tarbiya. Farobiy ta'limotida axloqiy tarbiya kishi hayotida eng muhim shartlardan biri bo'lib, aqliy tarbiya bilan uzviy bog'langan. Uning axloqiy tarbiya borasidagi fikrlari “Ideal shahar aholisining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Aristotelning “Etika” asariga sharhlar” kabi risolalarida bayon etilgan.

O'rta asrda Yevropada Aliborona nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy alloma, xorazmlik olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (937-1048) o'z davrida 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Mazkur asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, tilshunoslik kabi qator fanlarga oid bo'lib, jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qaralgan[6]. Beruniy insonning o'ziga o'zi ishonishini, boshqalarga suyanmasligini uqtirib shunday deydi: “Kimki o'zining qarindoshlari, o'lib ketgan ota-bobolari bilan maqtanadigan bo'lsa, uning o'zi o'likdir, ular esa tirikdirlar”.

Beruniy “Hindiston” asarida kishilarda kuzatiladigan yomonlik illatini qoralaydi, yomonlikni yo'qotish uchun uning ildizlarini topish kerakligini ta'kidlaydi. Yomonlikning asosi uch narsada, ya'ni *tama*, *g'azab* va *ilmsizlikda* deb biladi. Nafs va g'azabni eng halokatli dushman sifatida biladi, u kishiga ranj va gunohlar olib kelishini aytadi. Bularning ta'siriga berilib ketgan kishilar insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis hisoblaydi.

Beruniy rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasida nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Xabarga yolg'on aralashmasligi lozim. Xabar rost va yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki xabar beruvchining maqsadi turli xil bo'ladi. Shu sababli xalqlar kelishmovchiligi yuz beradi. Beruniy yolg'onchilik tufayli kishi adolatdan yuz o'girishi mumkinligini aytib, yolg'onchilar omonatga xiyonat qilishi, boshqalar mulkini hiyla bilan o'zlashtirishi, umuman, jamiyat buzilishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Beruniy “Hindiston” asarining yettinchi bobida ma'rifat, insonning fikrlash qobiliyati, bilimdonlik darajasi, kishilarning turli fazilatlarini haqida fikr yuritadi[8,56].

Olim boylikka berilmaslikni uqtiradi. Oltin va kumushning kishi uchun ba'zida hech qanday qimmat bo'la olmasligini uqtiradi. U yozadi: “Chunki ularning har ikkalasi toshdirki, ularning o'zlari na to'ydiradi, na tashnalikdan saqlay oladi”.

Beruniy baxt-saodat, faravonlik, tinch-totuvlikni, obodonchilikni bilim egallash va ma'rifatli bo'lishda deb biladi.

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Sharqning ulkan qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'rta asrda turli ilm sohalarida – falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, tilshunoslik, adabiyot va boshqa fanlari doirasida o'lmas asarlar yozdi. Ko'plab fanlar doirasida asarlar yozgani, ilm rivojiga ulkan hissa qo'shganligi tufayli o'z davrida “Shayx-ur rays” (Olimlar raisi) unvoniga sazovor bo'ldi.

Ibn Sino, taxminan, minginchi yillarda Xorazmga keladi. Bu vaqtda u 20-21 yoshlarda edi. Xuddi shu davrda shoh Ma'mun Gurganjda “Akademiya” barpo qilgan edi. Unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qilar edi. Akademiya atrofida o'z davrining eng yirik olimlari, ilm peshvolari to'plangan edi. Ularga Ibn Sino ham kelib qo'shiladi. Ibn Sino yoshligidanoq o'z davri ilmlarini o'rganishga ishtiyoqmand bo'lgan, xususan, tibbiyot ilmiga qiziqdi, falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, she'riyat va boshqa fanlarga doir 300 dan ortiq asar yaratdi. Uning “Tib qonunlari”, “Donishnoma”, “Hayy ibn Yaqzon”, “Hidoyat”, “Risolatul tayr”, “Tadbiri manozil” kabi asarlarida o'zining pedagogikaga tegishli qarashlari va ta'limotini bayon qiladi[2,37].

Ibn Sinoning barcha asarlari asosida inson, uning kamoloti, tarbiyasi masalasi alohida o'rin egallaydi. Uning bola ta'lim-tarbiyasiga doir fikrlari yuqori ahamiyatga ega. Olim tarbiya jarayonini Farobiy kabi *aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat* (hunar o'rganish) bilan uzviylikda ko'radi. U maktabda o'qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etishni oqlab chiqadi. Olim o'qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratadi. Ibn Sinoning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo'ymaslik lozim, o'qish-o'qitish ishlari asta-sekinlik bilan, yengildan og'irga qarab borishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan mashqlar ularning yoshiga mos bo'lishi, ularning mayil, qobiliyatlari hisobga olinishi kerak[2,37].

Ulug' pedagog ta'kidlashicha, bola voyaga yetgunga qadar ota o'z vazifalarini, farzand va oila oldidagi burchini bajara borishi kerak, uning eng avvalgi burchi bolaga yaxshi nom qo'yishidir. Mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishishi kerak. U yozadi: “Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan so'ng, savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Bunda, avvalo, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan,

irodali, dono, g'amxo'r, dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachini tanlash kerak bo'ladi. O'qituvchi sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak"[8,49].

“Tib qonunlari” kitobida yozilishicha, o'quvchilarni birga, jamoa tarzda oqitish yaxshi samara beradi, bunda o'quvchilar ilmga chanqoqlik sezishadi, o'z bilimlarini yuzaga chiqarishga intiladi, bir-birlariga qiziqib, orqada qolmaslikka harakat qiladilar. Oqituvchi esa ta'lim berishga kirishishdan avval o'quvchilar xulq-atvorlarini o'rganishi, bilimlarini tekshirib ko'rishi, ularning qobiliyatlari bilan hisoblashishi kerak bo'ladi.

Olim fikriga ko'ra, ilm hosil qilishning eng asosiy yo'li – bolalarni yoshligidan boshlab ta'lim-tarbiya ta'siri ostiga olishdir. Shuning uchun olim: “Bola olti yoshga yetgach uni murabbiy va muallim ixtiyoriga topshirish kerak. Ta'lim-tarbiya asta-sekinlik bilan berilishi kerak. Birdaniga uni kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim”, - deydi. Ibn Sino bolalarga bilim berganda, asosan, quyidagilarga rioya qilishni tavsiya etadi: 1) bilimni muayyan bir tartibda, izchillik bilan singdirish; 2) bilimlarni kitob orqaligina emas, balki hayot bilan ham bog'lab berish; 3) xilma-xil bilimlar berish, bolalarga turli ilmlar sirini ochib berish; 4) bilim berish bilan birga, tarbiya ham berish, ayniqsa, jismoniy tarbiya berish[4,25].

**Xulosa.** Bir so'z bilan ayganda, ulug' donishmandlarimizning ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi e'tiroflari, shuningdek, ularning hayot yo'li yoshlar xulq-atvori uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, Sharq xalqlarining, xususan, o'zbek pedagogikasining uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

#### Adabiyotlar:

1. Asadov T. Sharq donishmandlari ta'lim-tarbiya haqida. –Buxoro, Durдона, 2020.
2. Ҳасанбоев О. Педагогика тарихидан хрестоматия. –Т.: Ўқитувчи, 1993.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати.–Т.:Ўқитувчи, 1974.
4. Хусанхўжаев И. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳақида.–Т.:Ўрта ва олий таълим, 1963.
5. Маҳмуд К. Девон-у луғотит турк. 1-китоб. –Т., 1960.
6. Хайруллаев М. Фаробий руҳий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида. –Т.: Ўқитувчи, 1967.
7. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. –Т., 2017.
8. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.:Ўқитувчи, 1997.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. –Т.:Ўзб.миллий энц.си, 2006-2008.
10. Sharq hikoyat va rivoyatlari. Tuzuvchi va so'z boshi muallifi E.Ochilov. –Т.:”Sharq”, 2018.
11. Zardusht Sharq faylasuflaridan biri bo'lib, er.av. VII asrda Xorazmda yashab o'tgan. O'z davri chorvador xalqlarning dini, urf-odatları, an'analarini o'rgangan, din peshvolari suhbatida ishtirok etgan. Ko'p xudolilikdan yakka xudolilik (Axuramazda) ni targ'ib qilgan.

## TALABALARGA QADRIYATSHUNOSLIKNING SHARQONA ILDIZLARI HAQIDA BILIM BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Hakimova Nargiza Supxonovna,  
Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim  
kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Maqolada tarbiyaviy ishlar metodikasi fani asosida talabalarga qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari haqida bilim berishning nazariy asoslari, jahon olimlarining qadriyat tushunchasiga bergan izohlari, falsafiy yondashuvlari, qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllari, o'ziga xos ilohiy qadriyatlar, qadimiy kitoblarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlarining aks etishi, qadriyatlar tizimining takomillashib, yangicha ko'rinishda namoyon bo'lib borishi, tarbiyaviy ishlar metodikasi fan dasturiga qadriyatlarga oid yondashuvlarni singdirishning dolzarbligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** qadriyat, mutafakkir, shaxs, dunyoqarash, ma'naviy meros, din, insoniy fazilatlar, milliy urf-odat, psixologik xususiyatlar, inson omili, tafakkur, falsafiy qarashlar, falsafiy oqimlar.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВОСТОЧНЫМ КОРНЯМ ЦЕННОСТНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОСНОВЕ ДИСЦИПЛИНЫ МЕТОДИКА ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

*В статье рассматриваются теоретические основы предоставления студентам знаний о восточных корнях ценностной науки на основе дисциплины методика воспитательной работы, комментарии мировых ученых к понятию ценности, философские подходы, предмет ценностей религиозные мировоззрения и их древнейшие формы, специфические богословские ценности, отражение в древних книгах тех или иных богословских ценностных систем, совершенствование системы ценностей и их новое проявление. становление, методика воспитательной работы говорит об актуальности внедрения ценностных подходов в программу науки.*

***Ключевые слова:** ценность, мыслитель, личность, мировоззрение, духовное наследие, религия, человеческие качества, национальная традиция, психологические особенности, человеческий фактор, мышление, философские взгляды, философские течения.*

## THEORETICAL BASIS OF TEACHING STUDENTS ABOUT THE EASTERN ROOTS OF VALUES

*The article examines the theoretical foundations of providing students with knowledge about the Eastern roots of value science based on the discipline methodology of educational work, comments by world scientists on the concept of value, philosophical approaches, the subject of values, religious worldviews and their oldest forms, specific theological values, reflection in ancient books of certain theological value systems, improvement of the value system and their new manifestation. The formation and methodology of educational work speaks about the relevance of introducing value-based approaches into the science program.*

***Keywords:** value, thinker, personality, worldview, spiritual heritage, religion, human qualities, national tradition, psychological characteristics, human factor, thinking, philosophical views, philosophical currents.*

**Kirish.** Qadriyat bu keng ma'noli tushuncha bo'lib, ijtimoiy rivojlanish jarayonida talabalarga ularning mazmuni, mohiyati, bugungi kundagi dolzarbligi haqida bilim berish muhimdir.

Kishilar qadim zamonlardanoq o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil qilgan. Ko'pgina falsafiy oqimlar va mutafakkirlar ham bu mavzuni chetlab o'tmaganlar.

**Adabiyotlar sharhi.** Jahon olimlari Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demokrit, J.J.Russo, A.Sen-Simon, Sh.Furye, R.Ouen, I.Kant, M.SHeler, N.Gartman, V.Vindelband, G.Rikkert, Ujeyms, J.Dyui, N.Berdyayev, P.Sorokin, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalarning asarlarida qadriyatlar ilmiy-nazariy va

falsafiy jihatdan o‘rganilgan. Yuqoridagi olimlarning qadriyatshunoslikka qo‘shgan hissasi xilma-xil, ushbu sohada ahamiyatga molik xizmatlari ko‘p va biz ularning zamonaviy aksiologiya uchun qard-qimmatini inkor etmaymiz.

Qadriyatlar mavzusi ko‘hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Markaziy Osiyo va O‘zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham asosiy e‘tibor qaratilgan mavzu bo‘lgan. Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlari Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug‘bek, Jamiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Behbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham o‘z aksini topgan.

Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya‘ni xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodida ko‘proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e‘tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. «Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning «Iliada» va «Odiseya» dostonlari bilan qiyoslash mumkin».[1] Qadimgi odamlar borliq to‘g‘risida o‘ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so‘ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma‘nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba‘zilarini ilohiylashtirganlar.

**Mavzu metodologiyasi.** Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan, har bir din o‘ziga xos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir- birlaridan ana shu dinlarining asosiy kitoblari Qur‘on, Injil, Veda, Upanishad va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o‘z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylarning muqaddas kitobi bo‘lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma‘naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar Axuramazda qiyofasi orqali ko‘rsatilgan. Kitob mualliflaridan biri Zaratushra (Zardusht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug‘lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Axuramazda tomonida bo‘lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma‘naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Avestoda yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g‘oyat o‘iqiz manbalar borki, ularni yanada chuqur o‘rganish lozim.

Qadriyatlar mavzusi «Moniy davri» (milodning III-IV asri, asoschisi Moniy 216-276 yillarda yashagan) falsafiy-ilohiy ta‘limotida ham yaqqol ifodalangan. Moniy fikricha ikki dunyo – «zulmat va ziyo dunyosi» mavjud, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm suradi, ikkinchisi adabiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir. Moniy ta‘limotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan, ularning umumiy tizim mifologiya, filosofiya, kosmogoniya, astronomiya va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bog‘liqlikda bayon qilingan. Qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak (51 yilda qatl qilingan) ta‘limotida ham ko‘zga tashlanib turadi. Afsuski, islom rasmiy dinga aylanganidan so‘ng bu izlar xiralashib qolgan, ularni izlab topish qiyinlashgan.

Markaziy Osiyoda qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi. Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo‘lib qolmadi, u ko‘pgina sharq xalqlarining ham umumiy diniga aylandi. Alohida e‘tirof etish kerakki, Qur‘onda ta‘riflab berilgan ilohiy qadriyatlar xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta‘sir ko‘rsatgan. Bu ta‘sirning ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o‘tmishda ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning ilohi yo‘q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini ilohiy qadriyatlarining ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab itilosi davrida ko‘pgina milliy qadriyatlarimizning yo‘qotib yuborilganligini alohida qayd qilmoq kerak. Bu to‘g‘rida Beruniy «Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ўз фикрини билдирган.

Kezi kelganda yana shuni alohida ta‘kidlash kerakki, vatanimiz sivilizatsiyasining qadriyatlari arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta‘sir o‘rsatganligi shubhasiz. horazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug‘bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy. Bobur, Bedil, Mashrab kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta‘siri beqiyos. Ularning islomga, uni

zamona zayllari orasidan o‘tishi jarayoniga ta’sirlari to‘g‘risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining al-Buxoriy asarlarini Qur‘ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy va Naqshbandning qabrlariga muqaddas sajdagohlar sifatida sig‘inishlari bejiz emas! Manbalar yetarli bo‘lishiga qaramasdan yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta’siri to‘g‘risida yozilgan asarlar haligacha yetarli emas, bu to‘g‘rida tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan.

Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O‘sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy xalifa al-Ma‘mun tashkil qilgan «Baytul xikma»da katta mavqega ega bo‘lgan. U ilgari surgan g‘oyalarda qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari izohlangan. [2]

Xorazmiy olimning qadri, o‘tmishlari fikrlarini kelajakka hokisor yetkazib berishda, deb hisoblar edi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: «O‘tmish davrlarda o‘tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarlar yozish bilan o‘zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar... Ulardan biri o‘zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi, uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi»[3]. Bu so‘zlar butun sharq olimlari uchun umumiy talab, kamolot mezon, hozirgi intellektual mulk egalari ma‘naviy qiyofasining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq madaniyati tarixida muhim o‘rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy (873- 959) ham qadriyatlarga katta e‘tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrlarini «Madina al-fozila» ta‘limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to‘g‘risidagi ta‘limotida yuksak g‘oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma‘naviy-ahloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta‘kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g‘oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o‘sha davrda, nafaqat Alloh g‘oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biridir.

Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham chetlab o‘tmagan. Uning fikricha, ma‘naviy qadriyatlarining vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, kishilar o‘rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko‘pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o‘zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi. Shu bilan birga u arab bosqinchiligini, ularning yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo‘qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislikning zaruriy ekanligini ta‘kidlaydi.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bag‘ishlab yozilgan, afsuski, ularning ko‘pchiligi (masalan, «Adolat» nomli falsafiy ensiklopediyasi, «Sharq falsafasi», «Yaxshi ish va gunoh» asarlari) bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning «Donishnoma», «Solomon va Ibsol» kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Uning nazarida o‘z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o‘rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o‘ziga davo topadi.

Ibn Sino inson, uni o‘z-o‘zini idora qilishi haqidagi fanlarning ahamiyatini to‘g‘ri ta‘kidlaydi [4]. Afsuski, Sharq falsafasida asosiy mavzulardan biri bo‘lgan bu yo‘nalishdagi fanlarga sobiq sovet davrida yetarli e‘tibor berilmadi, holbuki, bu borada yaxlit «Insonshunoslik» fanini rivojlantirish zaruriyati allaqachon yetilgan edi. Ibn Sino ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatiga ham katta e‘tibor bergan. Uningcha, odamning qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi ahloqiy fazilatlariga ega bo‘lishga intilishi, donologi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir.

Qadriyatlar mavzusining tahlilini xalqimiz hayotida katta mavqega ega bo‘lgan tasavvuf oqimining asosiy namoyandalari ilgari surgan qarashlarsiz tasavvur qilish qiyin.[5] Tasavvuf g‘oyat murakkab va serqirra diniy-falsafiy oqim bo‘lib, uning qadriyatlar tizimida eng asosiy o‘rinni Alloh, u bilan bog‘liq ilohiy qadriyatlar shariat, tariqat, haqiqat va ma‘rifat g‘oyalari egallaydi. Lekin tasavvuf falsafasini faqatgina ana shu jihatlar bilan ta‘riflashning o‘zi yetarli emas. Bu borada chet el islomshunoslari, sobiq sovet davri olimlarining asarlari anchagina. «Biroq hanuzgacha tasavvuf ta‘limoti batamom o‘rganilgan va uning tarixi,



dunyoqarashi xususida aniq, yaxlit xulosalar chiqarilgan, deb ayta olmaymiz».[6]

Biz tasavvuf oqimini atroflicha tavsiflamoqchi emasmiz, bunga ishimizning hajmi imkon bermaydi. Ammo mavzuning tarixi nutqdan nazaridan quyidagi mulohazani bayon qilmoqchimiz. Qadriyatlar muammosining yurtimizga tegishli falsafiy-tarixiy tahlili Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar merosi bilangina chegaralanib qolmaydi. Uning Al-Buxoriy, At-Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy kabi zabardast namoyondalari bo‘lgan tasavvuf ta’limotiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi bor. Shu bilan birga jahon madaniyatiga bebaho durdonalar qo‘shgan Hofiz, Sa‘diy, Jomiy, Navoiy kabi allomalarning bu boradagi qarashlarini tilga olmay bo‘ladimi? Ularning butun jahonga mashg‘ur bo‘lgan «Saodatnoma», «Guliston» va «Bo‘ston», «Bahori-ston», «Xamsa» abi ma‘naviy qadriyatlarimizning tamal toshlarini qo‘ygan asarlarining har biriga alohida tadqiqotlarni bag‘ishlash mumkin. O‘tmish madaniyatining hassos namoyandalari Mansur Xalloy, Boyazid Bistomi, Imodiddin Nasimi, Boborahim Mashrablarning dunyoviy, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga munosabati, bu boradagi butun Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan qarashlari to‘g‘risida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Yuqorida nomlari tilga olingan asarlarga kelganda esa dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining umumiy tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli. Ushbu an‘ana yurtimiz madaniyati tarixida aslo to‘xtab qolgani yo‘q va bu borada A.Donishning «O‘g‘illarga nasihat» (XIX asr oxiri), A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» (XIX asr boshlari) asarlarini eslash kifoya. Holbuki, bu ikki keyingi asar ham shu sohada o‘nlab kitoblar jumlasiga kiradi.

Tasavvufning eng asosiy namoyandalaridan biri A.Yassaviy (1105-1166) diniy, ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlarining o‘sha zamonga mos keladigan tizimining namoyon bo‘lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtayi nazaridan ta‘riflab bergan. So‘fiylik asoslarini targ‘ib qiladigan «Devoni hikmat» majmuasida A.Yassaviy ma‘naviy qadriyatlarining asosiy shakllari – poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta‘rif bergan. Sovet davrida Yassaviy qarashlari tanqid qilinar edi. Aslida, Yassaviy tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, madaniy merosimizga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan. Bizningcha, Yassaviy ta‘limoti va tasavvufning ma‘naviy qadriyatlari mo‘g‘ul istilosidan ozodlikka erishish, Temur davlatini o‘rnatish, unda siyosat yuritishdagi asosiy va yetakchi g‘oyalardan biri vositasini o‘tagan. Bundan tashqari, bu ta‘limot mo‘g‘ullar istilosidan oldingi davr qadriyatlarini, temuriylar davri bilan bog‘laydigan ma‘naviy asoslardan biri bo‘lganligi shubhasiz.

Qadriyatlar muammosi tahlilida naqshbandiya taroqati, Bahouddin Naqshband (1388-yilda vafot etgan), Xo‘ja Ahror (1409-1492) va Husayn Voiz Koshifiy kabi ilohiyot ilmi allomalari ilgari surgan g‘oya va qarashlarning ham o‘z o‘rni bor. Naqshbandiya tariqati Sharqda keng yoyilgan, A.Jomiy, A.Navoiylar va boshqa mutafakkirlar ham unga chuqur hurmat bilan qaraganlar. Navoiy «Xoja Bahouddin Naqshband» nomli asar ham yozgan. Naqshbandiylikning vujudga kelishida Yassaviy ta‘limotining ta‘siri sezilib turadi. Ammo naqshbandlik tariqati o‘zining ko‘pgina jihatlari bilan boshqa oqimlardan farq qiladi. Naqshbandiyada Alloh visoliga yetish uchun dunyodan voz kechish yoki tarki dunyo qilish emas, balki «qo‘l ishda, ko‘ngil Allohda» bo‘lmog‘i, poklik, hayo, kamtarinlik komil insonning asosiy fazilatlarini bo‘lishi lozimligi uqtiriladi.

O‘rta asrlardagi siyosiy qadriyatlar talqinida Amir Temurning, umumbashariy qadriyatlarining ilmiy tahlilida Ulug‘bekning qarashlari katta o‘rin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san‘ati bayon qilingan «Temur tuzuklari»da ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga katta ahamiyat berilgan, asar Sharqda va G‘arbda mashhur bo‘lgan, ko‘p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo‘shin, ularmolar, arkoni-davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo‘ladigan siyosiy qadriyatlar o‘sha zamon nuqtayi nazaridan bayon qilingan. Temurning tariximizdagi o‘rni va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o‘git va nasihatlar keyingi davrning siyosiy arboblari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Umumbashariy qadriyatlar tahlilida Ulug‘bek-ning fikrlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘z atrofiga Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlarni to‘pladi, ular bilan birga umumbashariy qadriyatlar, koinot sirlari, unda ro‘y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o‘rganish borasida o‘z zamonasidan ilgarilab ketdi. Sirasini aytganda, ular nafaqat umumbashariy qadriyatlarni tadqiq etdilar, balki ilm-ma‘rifat, haqiqat, ziyolilik, fozillik kabi umuminsoniy qadriyatlar-ning turli xususiyatlarini izohlab berdilar. Ulug‘bek akademiyasining faoliyati o‘rta asrlar ilmiy hurfikrliligining eng yaqqol namunalaridan biridir, u boshchilik qilgan olimlar esa koinot va yulduzlarni inson uchun abadiy makon bo‘lgan olamning bashariy qadriyatlari sifatida tushunganlar va tadqiq qilganlar.

Yurtimiz madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e‘tibor bergan. Uning fikrlari ham tasavvuf ta‘limoti bilan bog‘liq. Ushbu ta‘limot faqat Navoiy emas, balki Sa‘diy, Jomiy kabi boshqa o‘rta asr mutafakkirlarining qarashlariga

ham ta’sir ko’rsatgan.

Navoiyning odil jamiyat to’g’risidagi qarashla-rida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta’riflangan. Bunda ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko’rinib turadi. Mutafakkirning ma’naviy qadriyatlar to’g’risidagi g’oyalari bugungi mustaqillik sharoitida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Alisher Navoiyning vafotidan besh-olti yil o’tar-o’tmas, mamlakatda hukmronlik qilgan temuriylar davlati tanazzulga uchradi, uning o’rniga Shayboniyxon davlati tuzildi. Ammo oradan ko’p o’tmay, Shayboniyxon vafotidan (1510-yildan) keyin, bu yerda markazlashgan davlat parchalanib ketdi. Avval Xiva xonligi va Buxoro amirligi, so’ngra Qo’qon xonligi vujudga kelda. Uch yuz yildan oshiqroq davrni o’z ichiga olgan bu jarayon xonlik, amirlik, turli sulolalar, urug’lar o’rtasidagi urushlar, tinimsiz ziddiyatlar orqali kechdi. Yaxlit sivilizatsiyamizning hamjihatligini ta’minlaydigan umumiy qadriyatlar tizimidan darz ketdi.

Kezi kelganida shuni alohida ta’kidlash kerakki, yurtimizda ana shu davrga kelib islomning ilohiyot ilmi ham bir qadar tanazzul davrini boshidan kechirdi. Shu bilan birga islomga xos qadriyatlar sistemasining yangi zamonga mos qirralarini ochib bera oladigan, shon-shuhrati bilan butun islom dunyosiga tanilgan Al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast teran fikr egalari bilan tenglashadigan mutafakkirlarni bu davr tarixidan topish qiyin.

Bu davrda Yusuf Qorabog’iy, Bedil kabi mutafakkirlar ijod qildilar. Hassos shoir va mutafakkir B.Mashrab (1657-1711) ana shu davrda yashadi. Tasavvufning ko’pgina ilg’or namoyandalari qatori Mashrab ham islomning qadriyatlar tizimini va Alloh g’oyasini butunlay inkor etmaydi. Ammo g’oyaviy ustozlari Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy va Imodiddin Nassimiylarning izidan borganligidan, u bir qator umuminsoniy qadriyatlarni, ularning o’rni va ahamiyatini o’ziga xos talqin qiladi. Bu o’ziga xoslik islom paydo bo’lganidan keyin ming yil o’tishi, hayotda o’zgarishlar bo’lishiga qaramasdan, ba’zi din arboblarning islom qadriyatlari sistemasidan eskicha, o’z manfaatlari yo’lida foydalanishlariga nisbatan tanqidiy munosaba tarzida namoyon bo’ladi.

Mashrab ko’pchilik o’rganib qolgan ma’naviy «qolip»larga sig’maydigan murakkab zotdir. Uning qalandarligida – olam sirlaridan xabardor faylasuf, isyonkorligida islom qadriyatlarining zukko bilimdoni, sodda hayot tarzida xalqqa donolarcha yaqinlikni kuzatish mumkin. «O’zining butun umrini haqiqatga yetishish yo’lida sarflagan Mashrabning bevafo olamda ma’naviy tubanlik, razolat, aqliy najosatga botgan insonlarga – podshodan tortib qozigacha, soxta oliu vafosiz obidgacha, o’g’ridan tortib nobop dehqongacha bo’lgan nafrat-g’azabi, haq ishqiy yo’lidagi sobit imoni, odilparvar va odamparvarligi, el-ulus umidlarining ifodasi yanglig’ tobora majozlashib, afsonaviylashib borgan».[7]

XIX asrning o’rtalariga kelib, amirlik va xonliklarga bo’linganligiga qaramasdan, mustaqil yashagan Turkiston, Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo’lib qoldi. Bu davrga kelib ma’rifatparvarlik g’oyalarini A.Donish (1827-1900), Sattorxon (1843-1906), Furqat (1858-1909), Muqimiy (1859-1903) va boshqalar keng targ’ib qildilar. Ularning asarlarida sharqona qadriyatlar, ilpparvarlik, insonparvarlik g’oyalari kuylandi. Bu A.Donishning «O’g’illarga nasihat» asarida yaqqol ko’zga tashlanadi, unda ma’naviy qadriyatlar, axloq talablari va ziyolilikning inson kamolti uchun ahamiyati bayon qilingan. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda «qadimlar» va «jadidlar» oqimlari vujudga keldi. Hayotda ro’y berayotgan turli o’zgarishlarni o’rganish, umummilliy qadriyatlarimizni jaxon taraqqiyoti talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilish borasida Ismoilbey Gaspirali, M.Behbudiy, So’fizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho’lpon, Fitrat kabi ilg’or kishilar katta yutuqlarga erishdilar. Qadriyatlar bilan bog’liq muammolar eadidlarning diqqat markazida turgan, ular sharqona qadriyatlarining tahlili borasida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Abdulla Avloniy (1878-1937) alohida o’rin tutadi. Uning «Turkiy guliston yoxud ahloq» kitobida o’ziga xos ma’naviy qadriyatlar tizimi ta’riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g’ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, zako, lafz, iqtisod, viqor, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat, avf kabi qadriyatlar — «yaxshi xulqlar» degan umumiy nom ostida tahlil qilinadi. «Yomon xulqlar»ga esa g’azab, jaholat, razolat, adovat, hasosat, g’iybat, haqorat, hasad, zulm kabi xususiyatlar misol bo’ladi. Agar ushbu asarda tilga olingan qadriyat nomlariga diqqat qilinsa, o’sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko’lami qanchalik keng bo’lganligini, tilimizning naqadar boyligini kuzatish mumkin. Yuqoridagi atamalar orasida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan tushunchalarga duch kelamiz. Tarixning g’ildiragi g’ayri turkiy aylanib, bizni necha o’nlab yillar ulkan merosimizdan judo qilgani, rasmiy ma’naviyat sohasini sharqona qadriyatlar tizimi emas, balki quruq shiorlar egallab olganligi kishini achintiradi xolos. «Turkiy guliston yoxud ahloq» darslik sifatida bitilgan va unda sharqona ta’lim-tarbiyaning mazmuni, asosiy talablari ham ta’riflab berilgan bo’lib, bu kitob xalqlarimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta’sir ko’rsatishi mumkin edi. Afsuski, 30-yillarda

boshlangan siyosiy jarayonlar Avloniyalar avlodining boy merosini o‘z domiga tortdi. Kitobning taqdiri ham shunday kechdi, u ta’qirlab qo‘yildi, hatto kutubxonalardan ham topish qiyin bo‘lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqil bo‘lganidan keyingina uni chop etish («O‘qituvchi» nashriyoti, 1992-yil) imkoni tug‘ildi. Ana shunga o‘xshash fikrni M.Behbudiy, So‘fizoda, Cho‘lpon, Fitratlarning asarlari to‘g‘risida ham aytish mumkin.

**Xulosa.** Demak, yurtimizda qadriyatlar mavzusi o‘zining o‘tmishiga ega, uning ildizlari esa qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G‘arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog‘i lozim. Qadriyatshunoslik faniga yurtimiz tarixida o‘z o‘tmishiga ega bo‘lgan bilimlar sohasi sifatida qarash va mamlakatimizda bu fanning zamonaviy rivojlanishini belgilaydigan asoslar juda ko‘p. Bugungi kunda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitish jarayonida yoshlarga qadriyatshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida ta’lim tarbiya berish, xalqaro tajribalar integratsiyasini qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ham kasbiy, ham shaxsiy kompetentligini oshirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – T.: O‘zbekiston, 1995. 6-bet
2. Файзуллаев А.Ф. Научное творчество Мухамеда ал-Хоразми. – Т.: Фан, 1983 (китобда ал-Хоразмий ижодига бағишланган манбалар берилган).
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983. 59-bet.
4. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1 kitob. – T.: Meros, 1993. 5-bet.
5. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi.–T.:Yozuvchi, 1996. 276-b.
6. O‘rta Osiyo xalqlari hurfikrliligi tarixidan. – T.: Fan, 1990. 104-bet.
7. Qissai Mashrab. – T.: Yozuvchi. 1992. 172-b.
8. Hakimova N. S. Boshlang ‘ich sinf tarbiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning pedagogik-psixologik asoslari //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 8. – С. 151-158.
9. Хакимова Н. С. Особое значение формирования социально-правовых компетенций у студентов на образовательных уроках //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 1142-1147.
10. Хакимова Н. С. Использование творческо-образовательных игр в формировании социально-правовых компетенций у учащихся на уроках начального класса //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 1205-1211.
11. Hakimova N. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo ‘lajak o ‘qituvchilarni boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 9. – С. 207-210.
12. Hakimova N. Formation Of Social-Legal Competences Of Students In Primary Class Education Lessons //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B2. – С. 138-140.

## O'QUVCHILARDA KITOBXONLIKNI TARG'IB QILISHDA OTA-ONA ROLINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

*Iminova Dilnoza Nasirovna,*

*Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada o'quvchilarda kitobxonlikni targ'ib qilishda ota-ona rolini oshirishning pedagogik imkoniyatlari haqida so'z boradi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u umr yo'llarini yorituvchi nur, inson hayotiga ma'no beruvchi saodat manbasi, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchidir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *kitobxonlik, ota-ona, kitobga qiziqish, ko'nikma, oila.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ РОДИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ БИБЛИОТЕЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

*В данной статье говорится о педагогических возможностях повышения роли родителей в популяризации чтения среди школьников. Значение книги в жизни человека ни с чем не сравнимо, это свет, освещающий жизненные пути, источник счастья, придающий смысл человеческой жизни, спутник в любой ситуации. Учитывая эти аспекты, сегодня проводится системная работа по повышению интереса к книге и уровня чтения среди молодежи и населения, широкой пропаганде чтения.*

**Ключевые слова:** *чтение, родители, интерес к книге, навыки, семья.*

## PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF INCREASING THE ROLE OF PARENTS IN PROMOTING LIBRARY LITERACY IN STUDENTS

*This article talks about the pedagogical possibilities of increasing the role of parents in promoting reading among students. The importance of the book in human life is incomparable, it is a light that illuminates the paths of life, a source of happiness that gives meaning to human life, a companion in any situation. Taking these aspects into account, today systematic work is being carried out to increase interest in books and the level of reading among young people and the population, and to widely promote reading.*

**Keywords:** *reading, parents, interest in books, skills, family.*

**Kirish.** Insonni yuksaklikka ko'taradigan, komillik sari yetaklaydigan, qalbni iliqlik va yorug'lik bilan to'ldiradigan oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, bunyodkorlik bilan vayronakorlik farqini ongli tarzda anglatishga yordam beradigan bu kitobdir. “O'zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.”[1]

Dunyoda savodxonlik va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bir qator maqsadlardan iborat bo'lib, ta'lim qamrovini oshirish, ta'lim sifatini, shu jumladan o'qish va yozishga o'rgatish sifatini yanada yaxshilash, kitoblar va boshqa o'quv materiallariga kirish, shuningdek, oila va jamiyatda kitob o'qishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan qulay muhitini yaratishdan iborat.

Ushbu maqsadlar doirasida YUNESKO, OECD (iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), Jahon banki kabi turli xalqaro tashkilotlar tomonidan doimiy ravishda ish olib boriladi. Masalan, YUNESKO dunyo aholisining savodxonlik darajasi bo'yicha muntazam tadqiqotlar olib borish bilan bir qatorda savodxonlik dasturlari va vositalarini, OECD maktab o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi hamda xalqaro o'qish savodxonligi standartlarini ishlab chiqadi. Jahon banki esa rivojlanayotgan mamlakatlarda savodxonlik dasturlari va loyihalarini moliyalashtiradi.

Shuningdek, Germaniya Adabiyot tadqiqotlari institutining 2022-yilgi tadqiqotiga ko'ra, nemis maktab o'quvchilarining 78 foizi haftasiga kamida bir marta kitob o'qiydi. Ularning 42 foizi har kuni, 28 foizi haftada bir necha marta, 9 foizi esa haftada bir marta kitob o'qiydi.

Koreya Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan 2023-yilda o’tkazilgan so’rov natijalariga ko’ra, koreys maktab o’quvchilarining 65,2 foizi haftasiga kamida bir marta kitob o’qiydi.

Demak, Koreyadagi har uchinchi o’quvchi muntazam kitob o’qiydi. So’rov natijalariga ko’ra, koreys maktab o’quvchilari orasida eng ommabop kitob janrlari badiiy, nobadiiy va o’z-o’ziga yordam beradigan kitoblardir. Shuningdek, maktab o’quvchilari ko’pincha o’qituvchilar yoki ota-onalar tomonidan tavsiya etilgan kitoblarni o’qiydilar.

Yaponiya kitob do’konlari assotsiatsiyasining 2023-yilda o’tkazgan so’roviga ko’ra, yapon maktab o’quvchilarining 73 foizi kamida haftasiga bir marta kitob o’qiydi. Ularning 58 foizi bir vaqtning o’zida 30 daqiqa yoki undan ko’proq vaqt davomida kitob o’qiydi.

**Adabiyotlar sharhi.** Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg’usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo’lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni kitobga bo’lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo’lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo’lgan qiziqishlarini orttirishda o’zlari namuna bo’lishlari va o’zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo’ygan bo’lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo’ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo’ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so’zi, qilayotgan ishini o’ylab bajaradigan, bir so’z bilan aytganda, o’zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo’lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o’zbek xalq ertaklaridan so’zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylilik, mehmondo’sstlik kabi insoniy fazilatlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi.

Oiladagi kitobxonlikdeganda oila a’zolarining aql-zakovati va yuksak ma’naviyatini rivojlantiruvchi, inson ma’naviy olamini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning asosiy tizimidir. Bu tizim o’sib kelayotgan yosh avlodni aqliy, ma’naviy, axloqiy, estetik rivojlanishidan iborat bo’lib, o’zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an’anasi va hozirgi davrda to’plangan keng tajribasiga asoslanadi. Bolalar ma’naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon bo’lib, bu jarayonda ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

1. Bolalarda kitob o’qish ishtiyoqini shakllantirish. Bu masala bolalarning kitobxonlikka bo’lgan munosabatini belgilaydi, bolalarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo’li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o’qituvchi-pedagoglar, uyda ota-ona bolada kitob o’qish ko’nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya’ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning yosh xususiyatlariga mos bo’lgan kitoblar tanlash zarur.

2. Kitob tanlashda bolalarning ma’naviy darajasini hisobga olish. Ota-onaning bolada kitob o’qish ko’nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo’lgan adabiyotlarni keng targ’ib qilish orqali jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo’lib yetishishi uchun va ma’naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo’lishi kerak. Kitob tanlashda bolalarning qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olish ularda rasional o’sishiga olib kelsa, ma’naviy darajasini hisobga olish esa intellektual rivojlantiradi. Bu esa rasionallikdan ko’ra keng qamrovli va samarali hisoblanadi. Oiladagi kitobxonlik ruhi bevosita bola ruhiyatiga ham ta’sir etadi, shu sababli, bunda birinchi navbatda badiiy adabiyotni, keyinchalik ixtisosliklar bo’yicha kitoblarni tavsiya etish mumkin.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O’qituvchi, ota-ona bolani kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo’lini tutishi kerak. Boshlang’ich sinfdanoq (bolaning ma’naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi, dunyoqarashi va ruhiy xususiyatlari hisobga olinib, ixtisoslashtirilib borilishi kerak. Bu tajriba Amerika ta’lim tizimida o’zini oqlagan. Ularda bolani 12 yoshga qadar ixtisoslashtirishga harakat qilinadi va shunga qarab kitob tanlab beriladi. Bu orqali bolada mustaqil fikrlash va harakat qilishga intilishning paydo bo’lishiga erishildi.

4. Kitobni ekspertizadan o’tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Natijada turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo’lmoqda. Ota-ona bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma’no-mazmuni, uslubiy jihatdan

mutaxassis ko'rigidan o'tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan chalg'imaslikka, o'smir ma'naviy dunyosining to'g'ri shakllanishiga va qo'yilgan maqsadga yetishishga yordam beradi.

5. Kitob o'qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo'lgan kitobxonlik bilan ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Shu ma'noda bolalar kitobxonligini monitoring qilib borish maqsadga etishningsamarali jihatlaridan biridir. Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar, sotsiologik-empirik tadqiqotlar va analitik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

**Muhokama va natija.** Ma'lumki, kitobxonni avvalo kitobda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Astasekin bu qiziqish uning hissiyotiga ta'sir etib, tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslay boshlaydi, tasvirlardagi go'zallikni anglay boshlaydi, qahramonlarning xarakteri haqida o'ylay boshlaydi, muallifning maqsadi bilan qiziqadi. Faqat bu borada kitob vositasida tarbiyalashning yangi usulva mexanizmlarini yaratishga extiyoj tug'uladi. Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda, ayniqsa, bolaing yoshi, ruhiyati, qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Shu bilan birga bola o'qiyotgan har bir badiiyasarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor berish zarur. Kitob tanlashda faqat o'zbek adabiyotigina emas, chet el adabiyoti namunalaridan ham bolalarga tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sh. Pero Orinyanning “Qizil shapkacha”, aka-uka Grimmlar, Mark Tven, Xans Xristian Andersen, Janni Rodari, Jonatan Svift, Rasul Gamzatov, Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, A.S. Pushkin asarlari, K.D. Ushinskiy, L.N. Tolstoy, S. Marshakning hikoyalari doimo bolalar uchun qiziqarli.

Oilalarda yana bir muhim muammo - kitobni asrash va uni o'zidan keyingi oila a'zolariga yoki boshqalarga yetkazishdir. Ko'pgina oilalarda kitob tanlash, uni o'qishga e'tibor beriladi-yu, lekin avaylab-asrashga, kitobga mehrni tarbiyalashga befarq qaraydilar. Kuzatishlar natijasida darsliklar, juda ko'p rangli bolalarbop kitoblar yirtilib, chizilib, axlat qutilariga tashlaniladi. Bolalarga “Kitob ham nondek aziz”ligini tushuntirishda kattalarning o'zi ibrat bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz doimo qog'ozni uvol qilmaslik, uni avaylab-asrash zarurligini ta'kidlaganlar. Bu an'anani yosh avlod ongiga singdirish bir tomondan bolalarda kitobni asrash eng muhim insoniy hislat sifatida shakllantirsa, ikkinchi tomondan hozirgi bozor iqtisodi sharoitida kitob zahirasini yaratish muhim omil sanaladi. Ayniqsa, serfarzand oilalarda xoh darslik bo'lsin, xoh badiiy yoki ommaviy adabiyotlar bo'lsin, ular har bir xonadon a'zosiga o'zidan keyingi oila a'zolariga ham kerakligini tushuntirish asosiy vazifalardandir. Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg'otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Faqat allomalargina emas, ko'plab oddiy insonlar ham kitobni asrab-avaylaydilar. Xalqimiz azaldan “Kitob har narsadan aziz, uni peshonaga surtish - o'pish savob”, deydi. Buyuk olimu adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Izzat Sulton, Mirzakalon Ismoiliiy va boshqalarning uy muzeylariga ota-onalarning o'z farzandlari bilan sayohatlarida bu insonlar uchun kitobdan boshqa aziz narsa bo'lmaganligi, ular kitoblarni avaylab-asraganlari, juda ko'p o'qiganlari ma'lum bo'ladi. Zero, xalqimizning kitobni e'zozlab ardoqlagani, nam tegmaydigan tokchalarda asragani, bo'sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o'tkazganlari kitobga naqadar mehr-muhabbatqo'yganlarning guvohidir. Bularning barchasi har bir oilada shaxsiy kutubxona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob yig'ishda uni ko'z-ko'z qilish emas, balki o'z oilasidagi farzandlari va ularning do'stlarini ham bahramand qilishga olib keladi. Olimlarning fikricha, bir odam butun umri davomida 2000 ta kitob o'qiy olish imkoniyatiga ega ekan. Yoshligidan bola kitob o'qisa, kitob unda bir umrga iz qoldiradi.. U o'qigan kitobidan mamnun bo'lib, zavq bilan o'qishi zarur. U endi kitobni yozuvchining badiiy mahoratiga qoyil qolib, so'zning hissiy bo'yog'idan ta'sirlanib, uni idrok qilib o'qishga o'tadi. Voqealar ko'z oldida, tasavvurida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, u o'ziga yoqib qolgan kitoblar bilan oilasining shaxsiy kutubxonasini boyita boradi yoki o'zi shaxsiy kutubxona tashkil etish tashabbuskori bo'ladi. Shaxsiy kutubxona egalari qiziqishlari turlicha bo'lishi mumkin. Badiiy adabiyotlar tarkibida qayta-qayta o'qiladigan yoki sevimli yozuvchilar tanlangan asarlarining bo'lishi ham maqsadga muvofiqdir. Bir marta o'qiladigan kitobni ommaviy kutubxonalardan olib o'qigan ma'qul. Bolalar kutubxonasi uchun kitob tanlaganda, asosan, turli yoshdagi bolalarni hisobga olish kerak. Ular uchun turli millat yozuvchilarining ertak, sarguzasht, ilmiy-fantastik kitoblarni ham ko'paytirish zarur. Bu ularning tafakkuri rivojlanishiga katta zamin tayyorlaydi. Darhaqiqat, mashhur pedagoglardan biri ta'kidlaganidek: «Kitob mutolaasi bilan o'tgan hayot — fikrlar go'zalligi bilan oshno bo'lish, madaniy boylikdan huzur qilish, o'z-o'zini yuqori ko'tarishdir».[3] Komil insonni voyaga yetkazmoq uchun ularni kitob bilan do'st qilishimiz, kitobni mayoq qilib qo'llariga tutqazishimiz lozim. Qalb tarbiyasini esa, biz kattalar o'zimizdan boshlashimiz kerak. Har bir oilada kam sonda bo'lsada kitoblar bo'ladi. Aksariyat hollarda esa bir necha o'nlab, yuzlab, minglab kitoblar bilan oila kutubxonasi bo'lishi mumkin. Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga

munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish aniqrog'i o'rganish) muhimdir. Kitobxon - o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarini, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlarini yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda kitobxon ko'p fazilatlarini o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash Milliy Dasturi Toshkent sh., 2020-yil 14-dekabr
2. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. T. “ O'qituvchi “
3. Masharipova U. “Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash”. // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
4. Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y.1- son, 12,16-b.
5. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalqta'limi » 2000 y. №3. 5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Iminova D. “Zamonaviy sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitobxonlikni targ'ib qilish – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida”Мугаллим хэм узлуксиз билимлэндириў” ОАК тасарруфидаги илмий- методолык журнал №5 Нукус 2023 йил 3\3-сон
7. Iminova D. “Oilada kitobxonlikni targ'ib qilish” 2023 yil. Rossiya ISSN:2782-4365

## XORIJ MAMLAKATLARIDA BOLALAR TARBIYASIGA QADRIYATLI YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Jabborova Saodat Zoirovna,*

*Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi*

*Maqolada xorij mamlakatlarida bolaga tarbiya berishda milliy qadriyatlarga asoslanish, ularda bola tarbiyasidagi o‘ziga xoslik va umumiylik, bola tarbiyasidagi e’tiborli jihatlar, farzand tarbiyasida onaning o‘rni va ma’suliyati, oila a’zolarining birligi, yapon olimasining 3-4 yoshli bola tarbiyasiga oid tavsiyalari va unga qo‘yilgan talablar haqida ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *oil, qadriyat, axloqiy tarbiya, mas’uliyat, onglilik, hamkorlik, do‘stona munosabat, intizomlilik, tejamkorlik, iqtisodiy tarbiya, mehnatsevarlik, hurmat, madaniy va ma’naviy meros.*

## ОСОБЕННОСТИ ЦЕННОСТНОГО ПОДХОДА К ОБРАЗОВАНИЮ ДЕТЕЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

*В статье дается информация об основах национальных ценностей в воспитании ребенка в зарубежных странах, их специфике и общности в воспитании ребенка, примечательных аспектах в воспитании ребенка, роли и ответственности матери в воспитании ребенка, единстве членов семьи, рекомендации японского ученого по воспитанию ребенка 3-4 лет и требования к нему.*

**Ключевые слова:** *семья, ценности, нравственное воспитание, ответственность, осознанность, сотрудничество, дружелюбие, дисциплина, бережливость, экономическое воспитание, трудолюбие, уважение, культурное и духовное наследие.*

## CHARACTERISTICS OF A VALUABLE APPROACH TO CHILDREN'S EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES

*The article provides information on the basis of national values in the upbringing of a child in foreign countries, on specificity and commonality in raising a child, on notable aspects in raising a child, on the role and responsibility of a mother in raising a child, on the unity of family members, on the recommendations of a Japanese nobleman for raising a child.*

**Keywords:** *family, value, moral education, responsibility, awareness, cooperation, friendliness, discipline, thrift, economic upbringing, hard work, respect, cultural and spiritual heritage.*

**Kirish.** Asrlar davomida ildiz otgan, bola tarbiyasi borasida shakllangan qadriyatlarga e’tior qaratish, ulardan foydalanish bugungi kundagi zaruriy talablardan biri ekanligini e’tiborga olish, har bir bolaga qadriyat sifatida qarash va uning komil inson sifatida kamol topishiga yordam berish har bir mazkur jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarga yuklatilgan ma’suliyatdir.

**Asosiy qism.** Bolaning tarbiyasi juda ham nozik va jiddiy masala bo‘lib, kelajakda ularning qanday odam bo‘lib yetishishi mamlakatning bevosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojini belgilab beradi. Shunday ekan, har bir xalq o‘z kelajagini o‘ylab farzandlari tarbiyasida o‘ziga xos tarbiya usullarini ishlab chiqqan. Quyida turli davlatlarning bola tarbiyasidagi e’tibor qilinadigan jihatlarni tahlil qilib o‘tamiz.

Yaponiyada – farzandlar tarbiyasiga o‘ta jiddiy qarashadi. Bu yerda har bir yoshga nisbatan ma’lum bir munosabatda bo‘linadi va individual tarbiya usullarini qo‘llashadi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko‘ra, 3 yoshga qadar farzanddagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish ehtimoli yuqoriligini ta’kidlab, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozimligini aytadi.

Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo‘lgan kichkintoyga qiroldok muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o‘ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog‘chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to‘ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi. Ular ko‘pincha akalari va opalaridan qolgan kiyimlarni kiyishadi. Sayrga chiqqanda esa o‘yinchoqlar olib chiqilmaydi. Bolalarda atrof-muhitga bo‘lgan mehri shakllantirish maqsadida tabiat in’omlari bilan rivojlantiruvchi o‘yinlar o‘ynashga harakat qilinadi. Agarda ona o‘z farzandining xatti-harakatidan norozi bo‘lsa, chetga olib chiqib, past ovozda unga o‘zini qanday tutish kerakligini tushuntiradi.



5 yoshdan boshlab kichik yaponiyaliklarni tartib-intizomga va kattalar gapini ikki qilmaslikka o'rgatishadi. Tarbiyaga bunday yondashuv asrdan asrga o'tib kelayotgani va Yaponiya jamiyatining ajralmas bo'lagi bo'lganligi bois bolalar buni me'yordagi holat sifatida qabul qilishadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida - erkinlik bola tarbiyasida ham o'z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyor bo'lib, bolalar 4-5 yoshlarida o'yinchoqlarning barcha turi bilan tanishishadi, ko'pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalari bir marotaba o'ynalgan o'yinchoqlar bilan to'lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go'dakligidanoq amerikalik bolakaylar «Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisani», degan so'zlarni har kuni eshitgan holda o'sishadi. Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: «Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!» deya qo'llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi.

Yevropa mamlakatlarida - bolalarning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Ota-onalar intizom yoki qat'iy rejimga kam e'tibor berishadi. Ular uchun bolaning xavfsizligi birinchi o'rinda turadi. Kattalar bolalarning fikrlariga quloq solib, aksariyat holda o'z fikrlarini o'zgartirishlari ham mumkin.

Shvetsiyada - bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o'z huquqlari va majburiyatlari bor. Shuningdek, shvedlardagi bag'rikenglik, o'zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo'lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo'lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. Chaqaloq dunyoga kelgach, yosh shved onalar davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Homiladorlik davrida ayollar bepul tibbiy yordam va maslahat olsalar, farzand tug'ilgach, albatta, onaga bolaga qarashni o'rgatuvchi hamshira birlashtiriladi. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat onalar uchun bola tarbiyasi, parvarishi bilan bog'liq xilma-xil tekin kurslar tavsiya etadi. Shvedlar bola tarbiyasida ma'lum chegaralanish bo'lishi lozim, deb hisoblashadi. Bolani faol, o'z fikrini bildiradigan, mustaqil, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadigan inson sifatida tarbiyalashga harakat qilinadi. Finlyandiya dunyodagi eng bolajon mamlakat, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Unda jismoniy imkoniyati chegaralangan bolalar oddiy bog'cha va maktablarga borishadi. Bu yerda nogiron va sog'lom bolaga ajratish qabul qilinmagan. O'yin bolani rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Ota-onalar ham bunga katta e'tibor berishadi. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalari hamda jamoat joylari o'yingohlar va maydonchalar, bolani ovqatlantirish uchun maxsus xonalar, kafelarda maxsus bolalar uchun taomnomalar, jamoat transporti esa bolalar o'rindiqlari bilan jihozlangan.

Fransiyada bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog'chasiga berish odatiy holdir. Birinchidan, bu fransuz ayollariga ishlash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, ular go'dakligidanoq jamoaga moslashadi va mustaqil bo'lib o'sadilar. 6 yoshidanoq fransuz bolakay o'zi mustaqil maktabga boradi, do'kondan narsa xarid qiladi, uyda yolg'iz qoladi. Onalar o'z farzandlariga ovozlarni ko'tarib urishishsa-da, hech qachon urmaydilar. Ota-onalar va vasiy shaxslar birinchi galda bolalarning rivoji hamda sog'ligi uchun mas'uldirlar.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlarga bola borganidan so'nggina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Chunki farzandning bog'chaga ko'nikishi oson kechadi va bolalar bu yerda o'zlarini erkin his qiladilar. Bog'chada bolaga o'z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o'rgatishadi. Bu nafaqat bolalarga qo'l ko'tarish, balki kattalar tomonidan ularga ovozni balandlatish, xafa qilishning oldini olish ham demakdir.

Italiyada bolalarning tarbiyasi bilan ota-onadan tashqari bobo va buvilari, xola, amma, tog'ayu amakilari ham shug'ullanishadi. Kichkintoy katta oilada o'sadi va odatda bog'chaga bormaydi. Italiyada bolalarning barcha injiqliklarini ko'tarishadi, doimo sovg'alar berishadi va deyarli jazolashmaydi. Ba'zida italiyalik ona bolasiga jahli chiqib baqirsa-da, ammo darhol uni o'pib, quchoqlab, yupatishga tushadi. Italiyada bola bog'chaga uch yoshdan boshlab qatnaydi. Bu yerda unga o'qish va yozishni o'rgatib, maktabga tayyorlashadi, jamoaga moslashishni o'rgatishadi. Doimiy ravishda jamoaviy o'yinlar, spektakllar qo'yiladi, haftada ikki marotaba birorta xorijiy til o'rgatiladi.

Angliyada bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. Chunki bu yerda kech turmushga chiqish yoki uylanish odatiy hol. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e'tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida o'zini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada bo'lishni, o'z hissiyotlarini yashirishni o'rgatishadi. Angliya shaharlarining ko'chalarida bolasini erkalayotgan ota-onani kamdan kam uchratish mumkin.

Avstraliyada kichkintoylar, asosan, rivojlantiruvchi o'yinlar, rasm chizish, plastilindan buyum yasash, applikasiyalar bilan mashg'ul bo'ladilar. Maktabga erta, ya'ni 5 yoshdan borishlarini inobatga olgan holda muassasada o'qish va yozish o'rgatilmaydi. Tarbiyachi hech qachon onaga bolani yomonlamaydi.

Bogʻchadan tashqari mamlakatda koʻplab bolalar klublari mavjud. Ular bolalarning qiziqishlariga qarab tashkil etiladi. Avstraliyada faol dam olishga katta eʼtibor qaratilgani bois oilaviy tabiat qoʻynida dam olishlar juda ham ommaviylashgan. Otalarning oʻz farzandlari tarbiyasiga koʻproq vaqt ajratishlari Avstraliyada qoʻllab-quvvatlanadi.

Isroilda farzand tarbiyasi alohida eʼtiborda, chunki bu yerda bola oilaning markazi hisoblanadi. Bogʻchalarga goʻdaklar 6 oyligidan qabul qilinadi. Davlat qaramogʻidagi maktabgacha taʼlim muassasalaridan tashqari mamlakatda oilaviy tipdagi bogʻchalar – «mishpaxton»lar keng tarqalgan. Bunday bogʻchalarning guruhlarida bolalar soni 5 nafardan oshmaydi va tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Barcha bogʻchalar kompyuterlar, kutubxonalar bilan jihozlangan. Har hafta tarbiyalanuvchilar, albatta, ekskursiyalarga olib chiqiladi, spektakllar qoʻyish, sport va musiqa bilan shugʻullanishga eʼtibor qaratiladi. Oilada hamda taʼlim muassasalarida bolalarga «u dunyodagi eng zoʻr va iqtidorli inson» ekanligi tinimsiz ongiga singdiriladi, natijasi esa barchaga maʼlum. Dunyoning eng mashhur insonlari, olimlari aynan yahudiylardir.

Xitoy xalqi butun dunyoga oʻzining mehnatsevarligi bilan mashhur. Xitoyliklar juda ham intizomli va sportsevar xalq. Albatta, farzand tarbiyasida ham bu oʻz aksini topgan. Agarda Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-ona masʼul boʻlsa, Xitoyda bu narsa davlat zimmasidadir. Uch oydan boshlab chaqaloq bogʻchaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga oʻrgatila boshlanadi. Bogʻchalarda tarbiya bilan birgalikda jismoniy rivojlanishga katta eʼtibor beriladi. Bolaning qiziqishlari inobatga olinib, uning iqtidorini namoyish qilishga harakat qilinadi.

Janubiy Koreyada bolalar tarbiyasi bilan, asosan, bolalar bogʻchalari va buvilar shugʻullanishayotir. Shunga qaramay, ona uyga kelishi bilan farzandining barcha muammolarini yakka oʻzi hal etishga kirishadi. Otalar doimo ishda boʻlganligi sababli kamdan-kam holatda bolalar oʻz otalari bilan sirdosh boʻlishadi. Lekin biror-bir masalada oxirgi nuqtani ota qoʻyadi. Koreyslar oilasida bobo va buvilarning fikri juda qadrlanadi. Ular oldida bolani urishish mumkin emas. Chunki bu narsa katta yoshdagilarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi. Bobo va buvilar nevaralarining tarbiyasida faol qatnashishadi. Anʼanaviy bayramlarda ular oʻgitlarini ayamay, oila tarixini soʻzlab berishadi. Har bir koreyalik oʻzining kelib chiqishi va ildizlarini bilishi shart.

Hindistonda hind ota-onalar farzandlariga goʻdakligidanoq atrof-muhitni bilishda qalbi va hissiyotlari amriga boʻysungan holda faoliyat yuritishni oʻrgatishadi: birorta inson, hayvon va qushni xafa qilmaslik, tabiatni asrash, barchaga nisbatan mehribon boʻlish shular jumlasidandir. Hindlar – donishmand ota-onalar sifatida oʻz farzandlariga taʼlim – tarbiya berishda amaliy faoliyatga eʼtibor qaratishadi, ularni fikr bildirish, mushohada qilish va oʻylashga oʻrgatishadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Xorijiy davlatlarda 3-4 yoshli bola tarbiyasiga eʼtiborning oʻziga xos xususiyatlari

Davlatlar	Xususiyatlari	Qadriyatlar
Avstriyada	bola uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan juda koʻp oʻyinchoq sotib olinadi	Har bir davlatda bola tarbiyasiga yondashuv turli xil boʻlsa-da, ularning barchasida: -farzandga boʻlgan mehr-muhabbat; -uning jismoniy rivojlanishi; -shaxs sifatida sogʻlom ulgʻayishi; -mukammal taʼlim va tarbiya olishi; -oilaviy qadriyatlarni hurmat qilishi kabilar birlashtirib turadi.
Angliyada	agarda bola shamollasa, uning tana harorati oshib yoʻtalsa, u kasal hisoblanmaydi va maktabdagi darslarni qoldirishga ruxsat berilmaydi.	
Belgiyada	kichkintoylar uch yoshdan boshlab maktabga borishadi	
Yevropada	eng tarbiyasiz bolalar italiyaliklar hisoblanadi. Ular jamoat joylarida oʻzlarini tutishni bilishmaydi.	
Gonkongda	bola uchun enaga yollanilmaydi. Bolalar chaqaloqligidanoq bogʻchaga beriladi.	
Braziliyada	bola uchun eng oliy jazo – uni futbol oʻynashdan mahrum qilishdir.	
Kubada	hattoki 7-8 yoshdagi bolalar ham darsdan soʻng ishlashga majburdir.	
Germaniyada	90 foiz oilalarda 8 yoshgacha bolaga televizor koʻrish taqiqlanadi, 8 yoshga kirganida esa unga faqatgina bolalar uchun moʻljallangan koʻrsatuvlarni tomosha qilishga ruxsat beriladi.	

Yangi zelandiyalik olimi Nayjel Latta zamonaviy bolalar psixologiyasi bo‘yicha eng kuchli mutaxassis sifatida o‘zining muammoli bolalar bilan uzoq yillik ish tajribasiga asoslanib, bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan o‘nta talab yoki qoidani tavsiya etadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

**Nayjel Latta tavsiyasi asosida bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan o‘nta talab yoki qoida**

№	Qoida	Mohiyati	Ko‘nikma hosil qilish
1	Muomala	asosiy qoida va buni hech bir ota-ona nazardan chetda qoldirmasligi shart. Bola - kichkina odamgina emas, alohida shaxs hamdir. Shuning uchun uni izzat qilish, muloqot mobaynida hurmatni izhor etib turish zarur.	Ota va ona boshqa insonlar bilan muloqot qilishda shaxsiy namuna bo‘lishi Samimiyatsiz insoniy munosabat o‘rnatib bo‘lmaydi. Bu yerda nazorat haqida gap ketmayapti. Bolalarni nazorat qilish, ayniqsa, kichik yoshdagilarini cho‘chitib qo‘yadi. Siz faqat qo‘rqitish yordamida “o‘zingni yaxshi tut”, desangiz u bu nega zarurligini tushunmaydi. Bundan tashqari, katta bo‘lganida bola sizdan qo‘rqadigan bo‘ladi.
2	Simpatiya xush ko‘rish	Bolalar ota-onalari ularni yaxshi ko‘rishiga qattiq ishonishadi. Bu tug‘ma hissiyot. Hatto bolaga yetarli e‘tibor qaratilmagan yoki ularni jazolagan paytda ham ular ota-onasining mehr-muhabbatiga ishonishadi.	Biroq yoqimlilik, xush ko‘rish bilan gapirish, mehr ko‘rsatish umuman boshqa narsa. Ko‘plab bolalar sovuq va loqayd munosabatni darrov payqab qolishadi. Ota-onalik muhabbati tabiiy hissiyot, instinktadir. Unga simpatiyani uyg‘unlashtirsangiz, bola tarbiyasidagi katta yutuqni qo‘lga kiritasiz.
3	E‘tibor	Barcha bolalarga e‘tibor kerak. E‘tibor esa hech qachon ko‘plik qilmaydi. Farzandlar ikki nafar bo‘lsa, ular barcha e‘tiborni o‘zlariga qaratish uchun injiqlik qilishadi.	go‘daklar e‘tiborni qozonish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishadi. Bu holat bolalarda instinktiv mavjud. Ota-onaning ko‘z-quloq bo‘lib turishi ular uchun xavfsizlikni anglatadi.
4	Yaxshisini oshirib, yomonini yashirish	Mazkur qoida birinchi qarashdayoq tushunarli. Ularning yaxshi harakatlariga e‘tibor qarating. Agar bola nimanidir noto‘g‘ri qilayotgan bo‘lsa, bunga ahamiyat bermang.	Yaxshi tomonga e‘tibor qaratish bola o‘zini yaxshi tutishiga sabab bo‘ladi. Yomon qiliqlariga e‘tibor bermay qo‘yishingiz bilan fanzandingizning o‘zi injiqlik qilishni bas qiladi.
5	Chegara qo‘yish	Bolalarni chegaralanmaslikning sabablari ko‘p. Ular olamni mustaqil anglashlari lozim. Biroq bolalarni yolqovlikdan cheklash shart.	Ularni chegarasiz, hech qanday qoidalarsiz tarbiyalab bo‘lmaydi. Bola biror cheklovga duch kelmagunicha harakatlanaveradi. Sababi nimaningdir mumkin emasligi tushunchasi ularning tabiatida mavjud emas.
6	Ergashtiruvchi bo‘lishga harakat qilish	Ota-ona bo‘lish katta mas‘uliyat. Shaxsiy namuna ko‘rsatish shart.	fanzandingiz qanday bo‘lishini istasangiz, o‘zingiz ham shunday bo‘lishga majbursiz.
7	Yomon fe‘l-atvorni kechirmaslik	Agar bola ota-onasini haqorat qilsa, ranjitsa, jazavasi tutib qolsa buni kechirish kerak emas.	Bolalarda vaqti-vaqti bilan yomon fe‘l-atvor kuzatilib turadi. Ammo bu holatga qo‘l siltab qo‘yib bo‘lmaydi. Aks holda, ahvol bundan ham yomonlashadi. Yomon xulq bilan kurashish zarur.
8	Reja tuzish	Farzandingiz serxarxasha va tantiq bo‘lsa, avvalo, reja tuzib oling.	U sizga bolaning fe‘l-atvori ustida ishlashingizda asqotadi. Go‘dakning bitta muammoli fe‘li yoki qilg‘ini yozing va u bilan kurashish uchun har xil g‘oyalar o‘ylab toping.

9	Istalgan xulq – bu muloqot	Eng yomon atvor ham bu bolaning ota-onasi bilan bo‘lgan muloqotidir. Agar u qandaydir nojo‘ya harakat qilayotgan bo‘lsa, go‘dak ota-onasiga nimanidir aytgisi kelayapti.	e‘tiborsizlikdan aziyat chekayotgan bola fikr va hislarini harakatlar yordamida ifodalaydi. Bola o‘z tantiliklari bilan nimani tushuntirmoqchi ekanligini bilish bu yarim muvaffaqiyat kalitidir
10	Bolalar – bu xaos (tartibsiz, chalkash)dir	ular bilan urushish foydasiz. Bolalar ota-onasining hayotiga doimo xaos olib kirgan.	Bola tug‘ilishi bilan minglab kutilmagan, kechiktirib bo‘lmas ishlar paydo bo‘ladi. Buni tushunish va mazkur holatga ko‘nikish zarur. Farzandingiz oldin xafa bo‘lishi, keyin sho‘xlik qilishi, saldan so‘ng esa siz bilan tortishishi, bahslashishi mumkin. Barchasiga sabr eting.

Ushbu olim tomonidan tavsiya etilgan bebaho tajriba va bilim ko‘nikmalarini bayon etgan kitob nafaqat tarbiyasi og‘ir bolalar ota-onalari, balki ota-ona bo‘lishni rejalashtirgan barcha uchun ham keraklidir. U haqiqiy hayot tajribasiga asoslangan qadriyatlar tizimiga aylangani, bejiz emas. Yaponiyalik bolalar og‘ir, bosiq, odobli, oqko‘ngil va kamdan-kam hollarda o‘z hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qotadi. Ularda bolalarni milliy qadriyatlar asosida mustahkam tarbiyalashning besh sirini taqdim etamiz (2-jadvalga qarang).

3-jadval.

**Yapon oilasida bolalarni milliy qadriyatlar asosida mustahkam tarbiyalashning besh siri**

№	Talablar	Mohiyati
11	Ona va bola juda yaqin: «amae»ning muhimligi	Yaponiyada ona va bola juda yaqin. Bu yaqinlik maishiy hayotda ham aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi, ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi.
2	«Ikudzi» tizimi: xudo, xizmatkor va teng	«ikudzi» falsafasi inson manfaatlarini ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat a‘zolarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Bu o‘ziga xos stress, yapon ota-onalar shunday sharoitlarda tizimda o‘z o‘rnini topadigan va o‘z qadrini yo‘qotmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qiladi.
3	Oilaning yuqori ahamiyati	Qoidaga ko‘ra, bola tarbiyasi bilan ona shug‘ullandi. Ular bolalar bilan ko‘p vaqt o‘tkazadi. Oila — bu hukmronlik qiladigan va har doim qo‘llab-quvvatlaniladigan va g‘amxo‘rlik qilinadigan doira.
4	Shaxsiy misol	Yapon onalari farzandlariga biror bir ishni qilishda avval o‘zlari bajarib ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi. yapon ta‘limi va tarbiyasi «hijjalovchi» deb ataladi.
5	Hissiyotlarga munosabat	Bolaga jamoaviy jamiyatda yashashni o‘rgatishdan oldin atrofdagilar hissiyoti va manfaatini ko‘rish va hurmat qilishni tushuntirish kerak.

Yuqorida keltirilgan yapon oilasida bolalarni milliy qadriyatlar asosida mustahkam tarbiyalashning besh siri bo‘yicha tavsiyalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular quyidagicha izohlanadi:

1. Yaponiyada ona va bola juda yaqin. Bu yaqinlik maishiy hayotda ham aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi. Birga uxlash va bolani ko‘tarib yurish haqida yapon badiiy adabiyotida ko‘plab eslatmalarni topish mumkin. Ona-bola aloqasi hissiy darajada aks etadi: ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi. «Ikudzi» prinsipiga asosan (bola avval xudo, keyin xizmatkor), besh yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin. Bu ko‘plab xorijliklar o‘ylaganidek irodasizlik va bo‘ysunmaslik emas. Bu bolada «men yaxshi va sevimliman» tushunchasini hosil qilish hisoblanadi. Bunday munosabat «amae»ning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Bu so‘zning boshqa tillarda muqobili yo‘q. «Amae» - bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosi bo‘lib, bolalar to‘laligicha ota-onalariga va ularning mehriga suyanishi mumkin. Qariyalar esa katta yoshli bolalaridan xuddi shu narsani qabul qilib oladi.

2. «Ikudzi» tizimi: xudo, xizmatkor va teng. «Ikudzi» tarbiya tizimiga asosan, bola besh yoshgacha - xudo, besh yoshdan 15 yoshgacha - xizmatkor, 15 yoshdan boshlab - teng hisoblanadi. Aslida, «ikudzi» falsafasi inson manfaatlarini ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat a‘zolarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Bu o‘ziga xos stress, yapon ota-onalar shunday sharoitlarda tizimda o‘z o‘rnini topadigan va o‘z qadrini yo‘qotmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qiladi:

-birinchi bosqichda bolaga xudoga qarashgandek qarashadi va bolani cheksiz mehr va ko‘mak bilan o‘rab olishadi;

-ikkinchi bosqichda bolaga xizmatkordek qarashadi, ya‘ni mehr bilan birga bolaga jamiyat qoidalari faol o‘rgatilib, o‘z o‘rnini topishga yo‘naltiriladi. Bunda dastlabki yillarda ona tomonidan berilgan kuchli mehning natijasida bola onasining jahlini chiqarmaslik uchun o‘zini to‘g‘ri tutishga harakat qiladi.

-uchinchi bosqichda bola jamiyatning shakllangan a‘zosi hisoblanib, uni tarbiyalash jarayoni tugaydi, ota-onalar o‘z tarbiyalari hosilini yig‘ib olishi kerak bo‘ladi.

3. Oilaning yuqori ahamiyati. Qoidaga ko‘ra, bola tarbiyasi bilan ona shug‘ullandi. Yaponlar bolani uch yoshgacha bolalar bog‘chasiga berishmaydi. Biroq bunda kengaytirilgan oilaga katta ahamiyat beriladi: bolalar bobo va buvilar hamda boshqa qarindoshlar bilan faol muloqotda bo‘ladi. Avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar ta‘sirchanlik va diqqatga asoslanadi, bu yerda keksalarning fikrlari tinglanadi. Oila - bu «amae» hukmronlik qiladigan va har doim qo‘llab-quvvatlaniladigan va g‘amxo‘rlik qilinadigan doira.

4. Shaxsiy misol. Yapon olimasi Ikeno Osamuning «Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak?» nomli kitobida shunday hikoya qiladi: “Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yig‘ish so‘ralgan. Yapon onalari dastlab o‘zlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni so‘ragan. Agar bolalar biror narsani o‘xshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan. Yevropalik onalar esa boshqa taktikani tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yig‘ilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Ko‘rinib turibdiki, yapon onalari «men kabi qil» tushunchasini bergan bo‘lsa, g‘arblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini o‘zi bajarishga majbur qilgan. Shuning uchun yapon ta‘limi va tarbiyasi «hijjalovchi» deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda bolalarni qilib ko‘rmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi.

5. Hissiyotlarga munosabat. Bolaga jamoaviy jamiyatda yashashni o‘rgatishdan oldin atrofdegilar hissiyoti va manfaatini ko‘rish va hurmat qilish nima ekanligini tushuntirish kerak. Shuning uchun yapon ayollari o‘z navbatida bolalarning sezgirligini hurmat qiladi. Ular bolalarga ortiqcha bosim o‘tkazmaydi, uyaltirmaydi, balki bolakaylarning hissiyotlarini uyg‘otadi. Misol uchun, agar bola mashinani sindirib qo‘ysa, yapon ona «Mashinaning joni o‘g‘riyapti, u hozir yig‘laydi», - deydi. Yevropalik ona esa «Bunday qilma, bu yaxshi emas. Mashinani sotib olish uchun qancha ishlash kerak», - deydi.

Yaponlar o‘zlarining bola tarbiyasiga oid usullarini yagona usul deb e‘tirof etmasalarda, biroq bola tarbiyasida qadriyatlarga asoslangan yaponcha yondashuvning asosiy tamoyili bolalarga sokinlik, sabr va to‘liq mehr bilan ta‘sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, har bir davlat o‘zining milliy qadriyatlarini e‘tiborga olgan holda yurt kelajagi bo‘lgan farzandlar tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratadi. Bolalarga tug‘ilganidan boshlab beriladigan tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirishga doir talablar davlat tomonidan belgilab beriladi. Shu bilan birga har bir bola tarbiyasida eng asosiy ma‘sul bu uning o‘z oilasi va undagi oila a‘zolari bo‘lib hisoblanishadi. Oilada bolalar o‘ziga xos oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy va ma‘naviy tarbiya olib, ulg‘ayadilar. Avstriyada boshqa mamlakatlarga nisbatan bola uchun eng ko‘p o‘yinchoq sotib olinadi, Angliyada bola shamollasa, uning tana harorati oshib yo‘talsa, u kasal hisoblanmaydi va maktabdagi darslarni qoldirishga ruxsat berilmaydi. Belgiyada kichkintoylar uch yoshdan boshlab maktabga borishadi. Gonkongda bola uchun enaga yollanilmaydi. Bolalar chaqaloqligidanoq bog‘chaga beriladi. Braziliyada bola uchun eng oliy jazo – uni futbol o‘ynashdan mahrum qilishdir. Kubada hattoki 7-8 yoshdagi bolalar ham darsdan so‘ng ishlashga majburdir. Germaniyada 90 foiz oilalarda 8 yoshgacha bolaga televizor ko‘rish taqiqlanadi, 8 yoshga kirganida esa unga faqatgina bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘rsatuvlarni tomosha qilishga ruxsat beriladi. Har bir davlatda bola tarbiyasiga yondashuv turli xil bo‘lsa-da, ularning barchasini bir narsa - farzandga bo‘lgan mehr-muhabbat birlashtirib turadi.

#### Adabiyotlar:

1. Nargis Qosimova, Bolalar tarbiyasi: turli mamlakatlarda u qanday amalga oshiriladi? musulmaat.uz
2. Holmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2000, – 216 b.
3. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma‘naviy- axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydala nishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot bo‘sag‘asidagi yoshlar): Pedagogika fanlari doktori...dis./ Nizomiy no- midagi Toshkent Davlat pedagogika in-ti. – Toshkent, 1998.
4. Soifnazarova F. Oila – ma‘naviyat maskani. // Guliston, 1999, 5-son, 8–9-betlar.

## YOSHLARDA AXLOQIY QADRIYATLAR SHAKLLANISHIGA OMMAVIY AXBOROTNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

*Yunusova Go‘zal Sultonovna,  
Farg‘ona davlat universiteti. Psixologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent.*

*Mazkur maqolada o‘quvchilar axloqiy qadriyatlarini shakllanishiga ommaviy axborotning psixologik ta’siri haqida yoritilgan bo‘lib, psixologik ta’sir va uning asosiy maqsadlari, psixologik ta’sir turlari hamda qanday amalga oshirilishi to‘g‘risidagi psixolog olimlarning ilmiy qarashlari to‘g‘risida xulosalar yozilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘smirlar, ommaviy madaniyat, axloqiy qadriyat, psixologik ta’sir, axborot vositalar, qadriyat tiplari, o‘tish davri.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МОЛОДЕЖИ

*В данной статье освещается психологическое влияние средств массовой информации на формирование нравственных ценностей читателей, делаются выводы о психологическом воздействии и его основных целях, о видах психологического воздействия и способах его осуществления, о научных взглядах ученых-психологов.*

***Ключевые слова:** подростки, массовая культура, моральная ценность, психологическое воздействие, средства массовой информации, типы ценностей, переходный период.*

## THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF PUBLIC INFORMATION ON THE FORMATION OF MORAL VALUES IN YOUTH

*This article highlights the psychological influence of the mass media on the formation of moral values of readers, draws conclusions about psychological impact and its main goals, about the types of psychological impact and ways of its implementation, about the scientific views of psychological scientists.*

***Keywords:** teenagers, mass culture, moral value, psychological impact, mass media, types of values, transition period.*

**Kirish.** Jahonda ijtimoiy axborotlar oqimining kuchayishi ta’sirida axloqiy qadriyatlar tizimining transformatsiyalashuvi bilan bog‘liq shaxs rivojlanishidagi psixologik muammolarini amaliy yechimini topish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, yoshlarda axloqiy tushunchalar tizimini shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni raqamli dasturiy vositalar orqali aniqlash bo‘yicha yangicha, psixologik usullarni taklif etish, yoshlar xulqi rivojlanishida oila va jamiyat birligi tamoyiliga asoslangan innovatsion psixotexnologik kompleks choralarni amalga oshirish, milliy qadriyatlarni oilaviy munosabatlarda ifodalanishining o‘ziga xos jihatlariga muvofiq o‘smirlar xulq motivlarining rivojlanishini prognozlash imkonini beruvchi usullarni tatbiq etish asosida psixodiagnostik, psixokorreksion metodikalar bazasini takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilib, yoshlar va ularning tarbiyasi masalasi jamiyat hayotining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan, zero; O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston yoshlari forumiga tashrif buyurib, uchrashuvda quyidagilarni ta’kidlagan:

“Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur”. Biz bilamizki, jamiyat yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yohud mustahkamlamasdan turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o‘z kelayotgan kelajak avlodni o‘z milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlarini negizida tarbiyalashi uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ya’ni mustaqillikka erishgan bo‘lishi kerak.

Yoshlarni vatanparvarlik, milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, maʼnaviy yetuk va jismonan sogʻlom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida 2019-yilning 12-iyuldagi 577-son Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oʻquvchilarni psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarori; [2] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli “Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori; [3] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni [4] qabul qilinganligini ham eʼtirof etish lozim.

**Asosiy qism.** Avvalo taʼsir haqida toʻxtalish oʻrinlidir. Taʼsir – individ tomonidan boshqa kishi (taʼsir obyekti) xulq-atvori, uning koʻnikmalari, maqsadlari, tasavvuri va baholashini u bilan hamkorlik orqali oʻzgartirish jarayoni va natijasi. Psixologik taʼsir – bu boshqa kishining holati, fikri, hissiyoti va harakatlariga aynan psixologik vositalar yordamida, unga mazkur taʼsirga javob berish uchun huquq hamda vaqt bergan holda taʼsir oʻtkazish. Begona taʼsirga qarshilik – bu boshqa kishining taʼsirga psixologik vositalar yordamida qarshilik qilishi. Taʼsir tashabbuskori – birinchi boʻlib taʼsir oʻtkazishga harakatni amalga oshiruvchi. Taʼsir adresati – ilk taʼsir harakati yoʻnaltirilgan kishi. Keyingi oʻzaro aloqalarda tashabbus oʻzaro taʼsir oʻtkazish maqsadida bir subʼektdan boshqasiga oʻtishi mumkin, biroq har gal oʻzaro aloqalarni kim boshlagan boʻlsa tashabbuskor, uning taʼsirini birinchi boʻlib his qilgan kishi – adresat deb ataladi. Ammo, shaxslararo muloqot jarayonida subʼektlarning oʻzaro taʼsiri muntazamlik kasb etadi, shuning uchun, koʻp hollarda subʼekt bir vaqtning oʻzida ham tashabbuskor, ham taʼsir adresati boʻlishi mumkin.

Ochiq psixologik hamkorlik – maqsadlar avvaldan eʼlon qilinadigan yoki yashirilmaydigan oʻzaro taʼsir. Yashirin psixologik hamkorlik – maqsadlar eʼlon qilinmaydigan yoki ochiq hamkorlik maqsadi ostiga yashiriladigan oʻzaro taʼsir. Toʻliq psixologik taʼsir vositalariga verbal, paralingvistik va noverbal vositalar kiradi. Verbal signallar – soʻzlar, birinchi navbatda ularning maʼnosi, shu bilan birga qoʻllanayotgan soʻzlarning xarakteri, ifoda tanlanishi, nutqning toʻgʻriligi yoki unda hatolik turlari. Paralingvistik signallar – nutq, alohida soʻz va tovushlar talaffuzining oʻziga xosligi. Noverbal signallar – subʼektlarning fazodagi oʻzaro joylashuvi, pozalar, imo-ishoralar, koʻzlar toʻqnashuvi, tashqi koʻrinish, teginishlar, hidlar.

**Psixologik taʼsir uch maqsadni koʻzlab amalga oshiriladi:**

1. Oʻz ehtiyojlarini boshqalar yordamida yoki ular orqali qondirish;
2. Oʻzining mavjudligi fakti va bu faktning ahamiyatini tasdiqlash uchun;
3. Oʻz mavjudligining fazo-vaqt chegarasini engish uchun.

Aslida, bu maqsadlarning birinchisi, agar oʻz mavjudligi faktini tasdiqlash va fazo-vaqt chegarasini engishga intilishni ehtiyojlar sifatida koʻradigan boʻlsak, qolgan ikki maqsadni ham oʻz ichiga oladi. Ammo, uchala maqsad oʻrtasidagi farq etarli darajada sezilarli. Birinchi holatda psixologik taʼsir aynan taʼsir ehtiyojini emas, boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun qoʻllanadi. Ikkinchi holatda taʼsir taʼsir oʻtkazuvchining mavjudligi fakti va mazkur mavjudlik ahamiyatining belgisi, indikator, dalili boʻlib xizmat qiladi. Uchinchi holatda taʼsirning oʻzi ehtiyoj sanaladi va butun jonzotlarning intilishlarining bir koʻrinishi-oʻz mavjudligining fazo-vaqt chegarasini yengish sifatida yuzaga keladi.

Jamiyatda axborot almashinuvi jarayonlariga, aholining axborot madaniyati yuksalishiga jiddiy taʼsir koʻrsatuvchi omil bu global va mahalliy kommunikatsiya tarmoqlarining davr talablariga munosib ravishda rivojlanishidir. Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun yuksak axborot texnologiyalari iqtisodiyotning hamma sohasiga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq yalpi internetlashuv jamiyatda va shaxslararo axborot almashinuvini yanada tezlatishi, hajmini oshirishi bilan bir qatorda, axborot xurujlarining koʻpayishiga ham olib kelishi mumkin. Fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni global tarmoqning salbiy taʼsiridan saqlash uchun oʻz vaqtida davlat tomonidan barcha xavfsizlik choralari koʻrilishi zarur. Xususan, axborot sohasidagi xavfsizlikni ishonchli taʼminlashda Oʻzbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi doktrinasini ishlab chiqish va hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Anʼanaviy maʼnoda axborot xavfsizligi axborotni va axborot tizimini himoya qilish, deb tushunilgan. Hozir masalaning boshqa – odamni himoya qilish jihati faol tadqiq qilinmoqda. Agar ushbu muammoning markaziga odamni qoʻyilsa, unda Hozirda shaxsning axborot xavfsizligi shaxsni tashkiliy yoki tizimli tarzda paydo boʻladigan axborot oqimi shaklidagi oʻziga xos xatarlarning zararli taʼsiridan himoya qilish, deb tushuniladi.

Zamonaviy jamiyatning maʼnaviy hayotidagi buzgʻunchi jarayonlar butun davlatning hayotiyiligiga tahdid solmoqda. Koʻrsatilgan hodisa axloqsizlik, huquqiy nigilizm oʻsishida ifodalangan individual va jamoat axloqining oʻzgarishi uchun katalizator boʻlib xizmat qiladi. Ushbu hodisaga qarshi kurashish uchun maʼnaviy qadriyatlar matritsasini yaratish va amalga oshirish kerak.

Hozirgi sharoitda axborot muhitining odamlar psixikasiga bosimining ko‘lami va qudrati axborot-psixologik xavfsizlik muammosini aktuallashtirdi. Axborot-psixologik xavfsizlik muammosining aktuallashtirishining yana bir sababi shundaki, ong va ong ostining psixologik va mafkuraviy qurilmasini o‘zgartirish, emotsional holatlarni transformatsiya qilish maqsadida odamlarga ta‘sir qilishning yangidan-yangi usullari va axborot uslublari paydo bo‘lmoqda. Bularning barchasi atrof borliqni noadekvat aks ettirishga va oqibatda xulqning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatda odamni turli ma‘lumotlar bilan to‘lib toshgan muhit o‘rab turadi va unga bunday sharoitda ushbu ma‘lumotlardan uzilib kundalik muhim muammolarning mazmunini o‘ylab ko‘rish va tushunish uchun kerakliha vaqt ajratish qiyin bo‘lib bormoqda.

Axloqiy qadriyatlarning individual tabiatiga, ularning o‘ziga xosligi va o‘ziga xosligiga qaramay, bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik uchun mavjud bo‘lgan, ma‘lum bir inson faoliyatining bir nechta sohalarini qamrab oladigan universal tartib qadriyatlari mavjud. Bularga mehr-oqibat, halollik, yaxshi tarbiya, mehnatsevarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik, odoblilik kiradi. Va ma‘lum bir tarixiy davrda ushbu turdagi qadriyatlar muhim bo‘lishni to‘htatganda, davlat yoki jamoat tashkilotlarining aralashuvi zarur bo‘ladi - rivojlangan fuqarolik jamiyati va demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismlari.

Jamiyatning o‘tish davri sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan hozirgi holatini hisobga olgan holda, olingan ma‘lumotlar asosida yoshlarning ma‘naviy qadriyatlarini, ularning atrofdagi voqelik bilan bog‘liqligini tahlil qilish, ularning kelajakdagi holatini bashorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalari fikrlar, his-tuyg‘ular va holatlarning birlashuvini yuklaydi, bu ayniqsa yoshlarga ta‘sir qiladi, ya‘ni. shaxsiyatni tekislash mavjud, sun‘iy ehtiyojlarni kengaytirish va yaratish uchun yo‘naltirilgan manipulyatsiya jarayoni mavjud: inson zavq olishga intilishi va yoqimsiz narsalardan qochishi kerak. Lekin iste‘mol quliga aylangan odam mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va harakat qilishga qodir emas. Gedonistik tarzda tushunilgan hayotda instinktlar hukmronlik qiladi va o‘zining haqiqiy mazmunini yo‘qotadi. Pul va moddiy ne‘matlarga asoslangan, faqat yoqimli va quvonchli his-tuyg‘ular bilan to‘ldirilgan er yuzidagi jannat haqidagi hayot g‘oyasi, shubhasiz, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va aslida odam ko‘pincha o‘zini yo‘qotadi. baxtli bo‘lish qobiliyati.

O‘smirlik davrida, istisnosiz hamma o‘g‘il va qiz bolalar xulqida jahldorlik, depressiya va ipoxondriyaga moyillik (depressiya - ruhiy siqqlik, ipoxondriya - vahima), yuqori darajada ta‘sirchanlik, hadiksirash, shaxsiy to‘laonli emaslik hissining kuchayganligi, yuqori darajada havotirlilik, badgumonlik, jur‘atsizlik, doimiy shubha va mulohaza, o‘z-o‘zini tahlil qilishga moyillik, ritual harakatlar va obsessiya (irimchilik) tendensiyasi, boshqalardan ajralish, yakkalanish, interoversiya, hamdardlikning yo‘qligi, atrofdagilarning ta‘siriga yengil berilish moyilligi, doim yangi taassurotlar, davralar qidirish, yuzaki xarakterga ega bo‘lgan osongina kontakt o‘rnatib olish, boshqalarning fikrlariga haddan tashqari bog‘liqlik va bo‘ysunganlik, tanqidiylik va tashabbuskorlikning yetishmasligi kabi salbiy sifatlar namoyon bo‘ladi. Yoshlar psixik taraqqiyotining bu qonuniyatlarini yaxshi bilgan kuchlar ommaviy madaniyat niqobi ostidagi ta‘sir usullari bilan ularni turli diniy, ekstremistik, terroristik g‘oyalar girdobiga tortishmoqda.

Hozirda biror mamlakat yoki xalqni bo‘ysundirish uchun ommaviy axborot vositalarining o‘zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo‘ravonlik orqali ta‘sir qilish usullari o‘rnini odamlarni biror bir g‘oyaga ishontrish, ongni boshqarish texnologiyalari egallayapti. Ishontirish vositasida xarakter qilayotganlarni biror narsada ayblash ham qiyin, zero, ular targ‘ib qilayotgan g‘oyalari ortida qanday manfaatlar yashiringanini bilish oson emas. Bunda istilochining kim ekani noma‘lum bo‘ladi, hatto aholi o‘zini bosib olish uchun kim kurash olib borayotganini anglamaydi ham. Bu kurash yashirin ravishda, zimdan amalga oshirilgani bois, unga uyushqoq holda qarshilik ko‘rsatib bo‘lmaydi, aynan shu omil bunday tajovvuzlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Ommaviy madaniyat ta‘sirida odamlarda didsizlik va mas‘uliyatsizlik shakllanadi. "Ko‘ngilochar industriya" maqomini olgan jamiyatda chop etilayotgan hajviy, oldi-qochdi, intim voqeliklar, suratlar, turli qotilliklar, mashhur kishilarning ishqiy mojarolarini aks ettiruvchi "sariq matbuot"ning demokratiya niqobida faoliyat yuritishi ommaviy madaniyatning kengroq ildiz otishini amalda ta‘minlayapti.

"Soxta-madaniyat" shaxsning o‘z-o‘zini chegaralab qo‘yishi singari fojealarga sabab bo‘lmoqda. Televizor, kompyuter yoki radio qarshisida soatlab o‘tirib, tong otishi va kun botishini har kuni birdek kuzatuvchi odamlar, "robinzonlashish"larning soni borgan sayin ko‘payib borayapti.

Respublikamizda og‘ishmay amalga oshirib kelinayotgan tamoyillar, ma‘naviyat sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ana shunday negativ holatlarning oldini olishda asosiy usul bo‘lib xizmat qildi.

Ma‘lumki, insondagi dinamik stereotiplar-mustahkamlangan xatti-harakatlar tizimining har qanday keskin o‘zgarishi unda juda katta psixologik o‘ng‘aysizlik keltirib chiqaradi, ayrim hollarda bunday holat uzoq davom etsa psixikaning siljishiga, nevrotik holatlarga sabab bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma



bosqich o‘tish, iqtisodiy omillarning yumshoq shaklda, o‘ng‘aysizlik tug‘dirmasdan, asta-sekinlik bilan keskinlashib borishi aslida jamiyat a‘zolarida ana shunday noqulaylikning oldini olishga, psixik muvozanatni saqlashga xizmat qildi.

E‘tirof etish kerakki, turli madaniyatlar o‘rtasida ma‘naviy qadriyatlar ayirboshlash, ilm, fan, texnologiyalar yutuqlarini o‘zaro o‘zlashtirish muntazam amalga oshadigan jarayon, bu jarayon taraqqiyotni olg‘a yetaklovchi kuchdir. Lekin hayot faoliyatining turli sohalarini qamrab oladigan madaniyat elementlariga har bir millat o‘z taraqqiyotining turli davrlarida ega bo‘ladi, madaniyat yutuqlari har bir millat ijtimoiy ongining yuz yillar davomida rivojlanishi maxsuli sanaladi. Bir millatning asrlar davomida qo‘lga kiritgan madaniyati va turmush tarzini boshqa bir millat tomonidan shunchaki o‘zlashtirish millat psixologiyasi va ijtimoiy ongida zo‘riqishlar va tarangliklarga sabab bo‘ladi, natijada jamiyatda ma‘naviy keskinliklar, turli avlod vakillari o‘rtasida ma‘naviy qadriyatlarni noto‘g‘ri shakllanishi hamda ma‘naviy nizolar kelib chiqadi.

**Xulosa** o‘rinda shuni ta‘kidlash lozimki, axborot asri, salohiyat asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda - ogohlik, sezgirlik, hushyorlik fazilatlarini burch davr talabiga aylanmoqda. Ya‘ni ogohlik, sezgirlik, hushyorlik burchi va mas‘uliyatini bola ongi va qalbida uyg‘otish, shuningdek suhbat-muloqotlar davomida ogohlik, sezgirlik, hushyorlikni uyg‘otuvchi birlamchi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish lozimdir

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-sonli “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4201081>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilning 12-iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvar 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: состояния и возможности психологической защиты. М.: РАГС, 1998. 125 с.
6. Краснянская Т.М. Безопасность человека: психологический аспект: учебное пособие / под ред. А.В. Непомнящего. Ставропол: ЗАО Пресса, 2005. 216 с.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU** 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlanitiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2024-yil 1-son (100)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**

**Nigora SAYFULLAYEVA**

**Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA**

**Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 30.01.2024

Bosmaxonaga topshirish vaqti  
31.01.2024

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 20,6

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 21

Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT”

MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri

Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.